

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

MAXSUS PEDAGOGIKA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsija etilgan*

TOSHKENT – 2014

UO‘K 37.013 (075)

KBK 74.5

P-99

**P-99 Maxsus pedagogika (Darslik). –T.: «Fan va texnologiya»,
2014, 368 bet.**

ISBN 978-9943-4497-9-4

«Maxsus pedagogika» darsligi uch bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘lim Oligofrenopedagogika (P.M.Po‘latova) deb nomlanib, mazkur bo‘limda aqli zaif bolalar mакtabida o‘qitish jarayonining xususiyatlari, aqli zaif bolalar mакtabida ta‘limni tashkil etish shakllari va metodlarini amalga oshirishning xususiyatlari, maxsus mакtabda o‘qitish jarayoni ta‘lim-tarbiyaviy, korreksion-rivojlanuvchi vazifalari va tamoyillari kabi masalalar oshib beriladi. Ikkinchisi bo‘lim Surdopedagogika (D.B.Yakubjonova, Z.N.Mamarajabova) deb nomlanadi. Mazkur bo‘limda kar va zaif eshituvchi bolalar mакtabida o‘qitish jarayonining xususiyatlari, O‘zbekiston Respublikasida eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning ta‘lim tizimi, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning pedagogik tasnifi, kar va zaif eshituvchi bolalar mакtabida ta‘limni tashkil etish shakllari va metodlarini amalga oshirishning xususiyatlari, maxsus mакtabda o‘qitish jarayoni ta‘lim-tarbiyaviy, korreksion-rivojlanuvchi vazifalari va tamoyillari, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning tarbiya jarayoni mazmuni va oilada tarbiyalash kabi masalalarni qamrab oladi.

Uchinchisi bo‘lim Tiflopedagogika (Sh.M.Amirsaidova, L.Sh.Nurmuxamedova, A.D.Sultonova) deb nomlanadi. Ushbu bo‘limda ko‘r va zaif ko‘rvuchi bolalar mакtabida o‘qitish jarayonining xususiyatlari, ko‘r va zaif ko‘rvuchi bolalar mакtabida ta‘limni tashkil etish shakllari va metodlarini, ko‘r va zaif ko‘rvuchi bolalarni tarbiyalash jarayonida mакtab va oila hamkorligi, tiflotexnika kabi masalalar yoritiladi.

UO‘K 37.013 (075)

KBK 74.5

Mualliflar:

**P.M.Po‘latova, L.Sh.Nurmuxamedova, D.B.Yakubjonova,
Z.N.Mamarajabova , Sh.M.Amirsaidova, A. D.Sultonova**

Taqrizchilar :

**V.S.Rahmonova – p.f.n., professor ;
D.A.Nurkeldiyeva – p.f.n. dotsent;
D.Nazarova – p.f.n., dotsent**

ISBN 978-9943-4497-9-4

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2014.

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasidagi mustaqillik odimlari tufayli ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Jamiat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta’lim samaradorligiga erishish ustuvor vazifa qilib qo‘yilmoqda. Uzluksiz ta’limni amalga oshirishga qaratilgan davlat hujjatlari qabul qilindi va ular hayotga tatbiq etilmoqda. Xalq ta’limining barkamol shaxs tarbiyasini, malakali mutaxassislar tayyorlashni yuqori va jahon talablari darajasiga mos ravishda amalga oshirish maqsad va vazifalari belgilandi. Bu jarayon «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro‘yobga chiqarishdagi zamonaviy bosqichda Oliy ta’lim muassasalari mukammal ta’lim standartlari, o‘quv metodik qo‘llanmalar va darsliklarini yaratish kabi muammolarni hal etishni talab etmoqda. Xususan, «Maxsus pedagogika» (surdopedagogika, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika) fanni o‘qitishdan maqsad – defektologiya fakulteti talabalarida ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar uchun maxsus muassasalarda korreksion ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari hamda usullari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdir. «Maxsus pedagogika» (surdopedagogika, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika) fani darsligi ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarni maxsus ta’lim-tarbiya jarayoni nazariyasi va amaliyoti, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarning xususiyatlari, ularni rivojlantirish, korreksiya vositalarini yaratish, qo‘llash, o‘rganish masalalarini qamrab oladi.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlari Defektologiya yo‘nalishi talabalar maxsus pedagogikaning metodologik asoslari, xalq ta’limi hamda pedagogika fanining hozirgi zamon talablari, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiysi nazariyasi va amaliyotining hozirgi zamon holati bilan tanishib borishadi. Bunda «Maxsus pedagogika» fani yetakchi o‘rin egallaydi. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriatida «Maxsus pedagogika» fani quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash asoslarining nazariy bilimlari;
- amaliy kasbiy ko‘nikmalarining shakllanishi;

- pedagogik qobiliyatlarining rivojlanishi;
- bo'lajak kasbga qiziqish, o'z ustida ishslash hamda pedagogik ko'nikmasini takomillashtirish.

Birinchi bo'lim Oligofrenopedagogika deb nomlanib, mazkur bo'lim p.f.n.dots P.M.Po'latova tomonidan tayyorlangan. Mazkur bo'limda aqli zaif bolalar mакtabida o'qitish jarayonining xususiyatlari, aqli zaif bolalar mакtabida ta'limning «Maxsus pedagogika» darsligi uch bo'limdan iborat bo'lib, ikkinchi bo'lim Surdopedagogika deb nomlanadi. Mazkur bo'lim p.f.n.dots L.Sh.Nurmuxamedova, katta o'qituvchi D.B.Yakubjonova, p.f.n.dots Z.N.Mamarajabova tomonidan tayyorlangan. Bu bo'limda kar va zaif eshituvchi bolalar mакtabida o'qitish jarayonining xususiyatlari, O'zbekiston Respublikasida eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning ta'lim tizimi, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasnifi, kar va zaif eshituvchi bolalar mакtabida ta'limni tashkil etish shakkllari va metodlarini amalga oshirishning xususiyatlari, maxsus mакtabda o'qitish jarayoni ta'limi-tarbiyaviy, korreksion-rivojlanuvchi vazifalari va tamoyillari, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tarbiya jarayoni mazmuni, ularni oilada tarbiyalash kabi masalalarni qamrab oladi.

Uchinchi bo'lim Tiflopedagogika deb nomlanadi. Ushbu bo'lim p.f.n.dots L.Sh.Nurmuxamedova, p.f.n.dots Sh.M.Amirsaidova, katta o'qituvchi D.Sultonova tomonidan tayyorlangan bo'lib, bu bo'limda ko'r va zaif ko'ruchchi bolalar mакtabida o'qitish jarayonining xususiyatlari, ko'r va zaif ko'ruchchi bolalar mакtabida ta'limni tashkil etish shakkllari va metodlarini, ko'r va zaif ko'ruchchi bolalar tarbiyalash jarayonida mакtab va oila hamkorligi, tiflotexnika kabi masalalar yoritiladi. Har bir bo'lim talabalarning mustaqil ishi uchun vazifalar hamda adabiyotlar ro'yxati bilan yakunlanadi.

1-BO'LIM. OLIGOFRENOPEDAGOGIKA

1-bob. OLIGOFRENOPEDAGOGIKANING UMUMIY MASALALARI

1.1. Oligofrenopedagogika predmeti, maqsadi va vazifalari, fanning rivojlanish bosqichlari

Oligofrenopedagogika predmeti, maqsadi va vazifalari yordamchi maktab o'quvchilarining aqiiy faoliyat, tafakkur madaniyatini inkon qadar shakllantirish, aqli zaif o'quvchilarga ta'lismarbiya berish jarayonining samarali yo'llarini o'rgatish, yordamchi maktabarning maqsad va vazifalari haqida ma'lumot berish kabi vazifalarni o'z oldiga qo'yadi.

Oligofrenopedagogika fani o'z oldiga quydagi maqsadlarni qo'ygan: 1. Yordamchi maktabda maxsuz ta'lismarbiya berishning mazmun mohiyatini anglatish. 2. Aqli zaif o'quvchi shaxsini rivojlanishining asosiy omillari, yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish kabi masalalar, ta'limning ma'lumot beruvchi va kolleksion rivojlantiruvchi masalalariga ko'proq e'tibor qaratish. 3. Yordamchi maktabda o'quvchilar tarbiyasiga oid tarbiya nazariyasi va metodikasi bo'limida aqli zaif o'quvchilarni tarbiyalashning ilmiy asoslari, tarbiyaning o'ziga xos mohiyati va uslublari kabilarni o'z ichiga oladi. Maxsus maktablar uchun oliy ma'lumotli defektologlar tayyorlash ishi Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib 65-67-yillarda boshlangan edi. Dastlab Toshkentdagi Nizomiy nomli pedagogika institutining pedagogika va psixologiya fakulteti qoshida, hozir esa boshlang'ich ta'lim va defektologiya fakulteti sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Defektologiya fakulteti tarixiga nazar solsak, dastlab 4 yillik kunduzgi bo'lim tashkil etilib, 1968-1969-o'quv yildidan kechki bo'lim ham faoliyat ko'rsata boshladi. 1973-yildan boshlab esa kar va zaif eshituvchilar maktablari uchun surdopedagoglar tayyorlash boshlandi.

Oligofrenopedagogika fanining asosiy maqsadlaridan biri intellektual kamchiligi bo'lgan bolalarning kamol tobib borishi,

umumiylar rivojlantirishini faollashtirishda maxsus pedagogik-psixologik shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Alovida yordamga muhtoj bo‘lgan bu bolalar ta’limi-tarbiyasi va ular taraqqiyotidagi ruhiy, jismoniy nuqsonlarni korreksiyalashni (to‘g‘rilashni) o‘rgatuvchi fan sifatida yuzaga kelgan. Oligofrenopedagogika asosiy maqsadi intellektida nuqsoni bo‘lgan bolalarga ma‘lum fan asoslariga oid bilim berish, korrektsion-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, mehnat faoliyatiga, kasb-hunarga, ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir. Yuqoridagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda Oligofrenopedagogika fani o‘ziga xos uslublar va shakl metodlarini qo‘llashning samarali yo‘llarini o‘rgatadi.

Bizning mamlakatimizda yangicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda shakllanayotgan, ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab, maktab-internatlariga bosh miyaning organik buzulishi natijasida bilish faoliyati turg‘un buzulgan bolalar qabul qilinadi. Aqli zaiflikning og‘ir va yengil darajalariga ko‘ra korrektsion ta’lim-tarbiya ishlari dasturi hamda o‘quv rejasi ishlab chiqiladi, bunda ularning o‘ziga xos xususiyatlari va yoshlari, albatta, inobatga olish zarur shart hisoblanadi.

O‘zbekiston aholisining aksariyatini 14 yoshgacha bo‘lgan yoshlardan tashkil qiladi. Shular ichidagi imkoniyati cheklangan va alovida yordamga muhtoj bolalaring hammasi hisobda. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktab-internatlar tashkil qilingan. Yosh avlodni har tomonlama sog‘lom kamol toptirish ishi davlatimiz g‘amxo‘rligi va nazoratida bo‘lib kelayotir.

O‘tgan davrda O‘zbekiston Respublikasining defektologiya sohasidagi birinchi olimasi — pedagogika fanlari nomzodi, dotsent S.Sh.Aytmetovadir. Sh.Aytmetova defektologiya fakultetining mustaqil fakultet sifatida tashkil etilishida va dastlabki defektolog mutaxassislarni yetishtirib berishda katta xizmat qildi.

1971-yilda oligofrenopedagog va logoped mutaxassisligining birinchi qaldirg‘ochlari uchirma qilindi. Defektologiya bo‘limida ana shu birinchi qaldirg‘ochlardan bo‘lgan V.S.Rahmonova mutaxassis sifatida ish boshladi. Keyin shu fakultetning iqtidorli yoshi mutaxassislaridan B.Shoumarov, K.Mamedov, P.Po‘latova kafedraga o‘qituvchilikka qabul qilindi. Kafedraning iqtidorli mutaxassis G.B.Shoumarov defektologiya fanini rivojlantirishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Hozirda pedagogika fanlari doktori, professor

G.B.Shoumarov bir necha shogirdlar yetishtirgan. Uning umumiy psixologiya va maxsus psixologiya faniga oid e'tiborga molik tavsiyalari, o'quv qo'llanmalari va darsliklari mavjud. Olimning «Ming bir savolga ming bir javob» nomli kitobi, «Oila va muhabbat», «Oila etikasi va psixologiyasi» ilmiy-omrabop o'quv qo'llanmasi, G.Shoumarov, K.Mamedov bilan hammualiflikda yozgan «Rivojlanishi sustlashgan bolalar diagnostikasi» (1998) kabi o'quv qo'llanmalari muhim ahamiyat kasb etadi.

K.Mamedov ham defektologiya fakultetining ravnaq topishida o'z hissalarini qo'shganlardan hisoblanadi. K.Mamedov yordamchi maktab o'quvchilari psixologiyasini o'qitish uslubiyatini o'zbek tilida ishlab chiqdi va oligofrenopsixologiya fanidan bir qator o'quv qo'llanmalar yozdi. Jumladan, «Aqli zaif o'quvchilar psixologiyasi», «Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar psixologiyasi», A.Soatov, P.M.Po'latova bilan hammualifiikda «Oligofrenopedagogika asoslari» o'quv-metodik qo'llanmalarini yaratdi.

1974-yili defektologiya bo'limi ikkita: oligofrenopedagogika va logopediya kafedrasi hamda surdopedagogika va klinika asoslari kafedralariga bo'lindi. Surdopedagogika va klinika asoslari kafedrasini tibbiyot fanlari doktori M.G.Mirzakarimova boshqardi. M.G.Mirzakarimova eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (lorpatologiya), aqli zaif bolalar klinikasi va boshqa tibbiyotga oid fanlarni o'zbek tilida talabalarga yetkazishda va respublikamizda defektolog kadrlarni tayyorlashga o'z hissalarini qo'shgan zahmatkash olima ayollardan biridir. Ulardan so'ng R.M.Qoriyeva boshqargan bu kafedrada ham I.A.Alimova, N.Sh.Bekmurodev, X.M.Gaynudinov va boshqalar surdopedagogika fanining rivojlanishida dastlabki qadamlarni qo'yishgan. Oligofrenopedagogika va logopediya kafedrasini pedagogika fanlari nomzodi dotsent A.I.Soatov boshqardi. A.I.Soatov birinchi marta o'zbek tilida «Yordamchi maktab o'quvchilariga matematika o'qitish metodikasi» o'quv qo'llanmasini yaratgan.

1984-yildan defektologiya fakulteti mustaqil faoliyat ko'rsata boshladi. Fakultetni S.Sh.Aytmetova bir yil boshqargan. 1986-yildan fakultetni pedagogika fanlari doktori, professor L.R.Mo'minova boshqara boshladi. 1988-yil mustaqil defektologiya fakulteti sirtqi bo'limi tashkil etilib, unga V.S.Rahmonova boshchilik qilgan. L.R.Mo'minova defektologiya fakultetini boshqargan 1986—1999-

yillar ilmiy sohada eng jadal sur'atlarda rivojlangan davr bo'ldi. L.R.Mo'minova defektologiya fakultetini boshqarish davrida ikki kafedraning ilmiy salohiyatini oshirishga ulkan hissa qo'shdı. Shu davrda L.R.Mo'minova yetuk mutaxassislarini yetishtirib chiqishda o'ziga xos məktəb yaratdi. M.Yu.Ayupova, P.M.Po'latova, H.M.Po'latova, U.Yu.Fayziyeva, N.X.Dadaxo'jayeva, D.M.Nurkeldiyeva, M.P.Hamidova, Sh.Amirsaidova, Z.Ahmedova, L.Nurmuhamedova, F.A.Mirboboyeva, Ya.Chicherina shunday shogirdlar jumlasidandır.

LR.Mo'minova defektologiya faniga oid 100 ga yaqin ilmiy maqolalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalar va darsliklar yaratgan. Ayniqsa, maktabgacha tarbiya yoshidagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutq nuqsonlarini bartaraf etishga oid o'zbek tilidagi ilmiy-ommabop o'quv qo'llanmalari, nogiron va alohida yordamga muhtoj bolalarni tarbiyalash borasidagi ota-onalar uchun metodik tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, «Logopediya» (hammualliflikda yozilgan) o'quv qo'llanmasi hozirgacha zaruriy o'quv qo'llanma sifatida foydalanib kelinmoqda.

L.R.Mo'minova 1991-yildan defektologiya fakulteti qoshida «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi talablar asosida maxsus pedagogika ta'limining o'quv-metodik majmuasini ishlab chiqish» mavzuida ilmiy tadqiqot ishlарini olib bordi.

L.R.Mo'minova maxsus pedagogika aspirantura bo'limini ochishda va uni rivojlantirishda ham sa'y-harakat qilgan.

Yordamchi maktablardagi pedagogik jarayonlaring nazariy asosini maxsus fan – oligofrenopedagogika tashkil etadi (grek tilida «oligos» — kam, «fren» — aql degani)

Oligofrenopedagogika — aqli zaif bolalarni tarbiyalash va o'qitish haqidagi fan bo'lib, defektologiyaning bir qismi hisoblanadi. Pedagogikaning umumpedagogik va didaktik tamoyillarini qo'llasni aqli zaif bolalar ta'lim-tarbiyasidá o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi. Ta'limiy materiallarni tanlash, mehnat tayyorgarligini aniqlash. aqli zaif bolalarni jismoniy rivojlantirish ishlari tuzatish mazmunini kasb etishi kerak. Tuzatish (korreksiya) deganda aqli zaif bolalarning jismoniy va ruhiy nuqsonlarini to'g'rilash, yumshatish, hayotga moslashtirish tushuniladi. Tuzatish ishlarida nuqsonli bolaning rivojlanish imkoniyatlariga asoslaniladi.

Aqli zaif bola deganda bosh miyasining organik buzilishi natijasida bilish faoliyatlarining turg'un pasayishini tushunamiz. Aqli zaif bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ularni o'rganishning nazariy masalalari qator fanlarning yutuqlariga asoslanadi. Oligofrenopedagogika umumiy psixologiya, maxsus psixologiya, oligofreniya klinikasi, logopediya, pediatriya, nevropatologiya, anatomiya, fiziologiya, genetika, biokimyo va boshqa fanlar bilan bog'liq bo'lib, ularning yutuqlaridan keng foydalanadi.

Oligofrenopedagogika maorif xodimlarini, onalarni, defektologiya fakulteti talabalarini yordamchi maktablardagi ta'limgardagi ishining o'ziga xos tomonlari, aqli zaif bolalarning bilim egallash xususiyatlari haqidagi tegishli ma'lumotlar bilan qurollantiradi. Har bir fanda bo'lganidek, oligofrenopedagogika ham o'ziga xos rivojlanish, shakllanish tarixiga ega.

Aqli zaif bolalar ta'limgardagi ishlari boshlanganiga 200 yildan oshgan bo'lsa-da, bir tizimda atroficha, bir butun, tugallangan ishlar XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Kuzatish va qidiruv ishlarining uzoq muddatiligi, tajribalar ning sekin-asta to'planganligi, ayrim nazariy xulosalarga kelish uchun uzoq vaqt talab qilinganligi sababli oligofrenopedagogika fanining izchil tarixi nisbatan qisqargan.

Aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalash nazariyasining shakllanishida E.Segen (1812—1880)ning pedagogik va ilmiy faoliyati katta o'rinni egalladi.

Ayniqsa, uning 1846-yilda yozilgan «Aqliy me'yorida bo'l-magan bolalarning tarbiyasi, gigiyenasi va axloqiy davosi» asari oligofrenopedagogika fanida katta yutuq bo'ldi.

E.Segen tomonidan aqli zaif bolalar tarbiyasi nazariy asoslarining chuqr ishlab chiqilishi bu yo'nalishdagi ilmiy ishlarning yanada jonlanishiga sabab bo'ldi. Maxsus pedagogikaning yuzaga kelguniga qadar aqli zaif bolalar ta'limgardagi masalalari davolash pedagogikasidagi bahsli mavzu edi

Davolash pedagogikasining asosiy g'oyalari «ruhiy ortopediya» va «sen-somotor madaniyat» tushunchalari asosida berilar edi.

Bu yo'nalish tarafдорлари (B.Mennel, A.Fuks, R.Vays, J.Filipp, Pol Bonkur, J. Demor, O. Dekroli, M. Montessori va boshqalar) shaxsning shakllanishida irsiy omillarga ko'proq e'tibor berishgan

bo'lsalar-da, nuqsonlilar ta'lim-tarbiyasida pedagogika bilan tibbiyotni bir-biriga yaqinlashtirishga katta hissa qo'shdilar.

O.Dekroli va J. Demorol tomonidan aqli zaiflarga pedagogik yordamning ijobjiy tomonlari ochib berilgan. XIX asr oxirlari, XX asr boshlarida Yevropa va Amerikada aqliy nuqsonning yengil turlariga e'tibor kuchaya bordi. Shu asosda shunday bolalar bilan ishlaydiganlar faoliyatida pedagogik yo'naliш asosiy o'rinni egallay boshladi. Rus pedagoglari, psixologlari, shifokorlari – *Ye.K.Grachyova* (1866–1934), *V.P.Kashenko* (1870–1943), *G.I.Rossolimo* (1860–1926), *M.P.Postavskaya* (1865–1953), *A.N.Graborov* (1885–1949) va boshqalarning amaliy pedagogik faoliyatlarida bu fikrlar o'z aksini topdi. Rossiyada aqliy nuqsonli bolalarga ijtimoiy tarbiya berish masalalari *K.D.Ushinskiy* va *P.F.Lesgafning* pedagogik ishlarida, ilg'or rus shifokorlari, fiziologlari va psixologlari – *V.M.Bexterev*, *I.M.Sechenov*, *I.P.Pavlov*, *F.V.Malyarevskiy*, *G.Ya.Troshin*, *A.F.Lazurskiy*, *A.V.Vladimirskiy* ishlarida rivojlantirildi. Ilg'or rus ziyolilari chor hukumati bilan keskin kurashlar asosida o'zlarining zamонави, qimmatli fikrlarini olg'a surdilar. Aqliy nuqsonlilikni o'rganish, tasniflash, ta'lim-tarbiya nazariyalarini ishlab chiqish, nuqsonlilikni to'g'rilash borasida juda ko'п yutuqlarga erishdilar.

L. S. Vigotskiyning 1924-yilda aytgan optimistik bashorati naqadar haqiqiy ekanligini hozir defektologiya sohasida erishilgan, erishilayotgan yutuqlar ham ko'rsatib turibdi. «Ehtimol, insoniyat ertami-kechmi ko'rlik, karlik, aqli zaiflikni yengadi. Ammo ularni biologik va tibbiyot tomonidan ko'ra, ijtimoiy hamda pedagogik tomondan ancha ilgari yengadi», — deb ta'kidlaydi L. S. Vigotskiy. Turli nuqsonli bolalarga ta'lim-tarbiya berish mакtablarining, davolash muassasalarining keng tizimi olim fikrining dalili emasmi? Fan yutuqlarini hayotga tatbiq etish tufayli turli xil yuqumli kasalliklar umuman tugatildi. Bilim egallashi mumkin bo'lgan nuqsonli bolalar ucliun majburiy ta'lim joriy etildi. Barcha maxsus maktablar, mакtab-internatlar, maxsus bog'chalar butunlay davlat ta'minotiga o'tkazilgan.

Ayrim chet mamlakatlarda nuqsonli bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan xususiy muassasalar, diniy tashkilotlar, nuqsonlilarga yordam berish jamiyatlari hamda ayrim maxsus maktablar shug'ullanadi. Ulardagi ta'lim-tarbiya ishlari qat'iy tizim asosida olib borilmaydi. Bizdag'i

yordamchi maktablar ommaviy maktablar singari yosh avlodga ta'limtarbiya berish, ularni jamiyatning foydali kishisi bo'lib yetishtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yordamchi maktablarning maxsus, xususiy vazifalari ham mavjud. Bularga aqli zaif o'quvchilarning psixofizik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga alohida yondashgan holda bilim berish orqali bilish jarayonlarini tuzatib borish vazifasi kiradi. Yordamchi maktablar aqli zaif bolalar uchun dastlabki va oxirgi o'quv yurti bo'lganligi sababli, o'quvchilar mакtabni bitirgandan so'ng bevosita hayotga yo'llanma olishlarini hisobga olib, ularga mакtabda turli xil kasbiy mehnat ko'nikmalari, malakalari beriladi. Yordamchi maktablarda davolash ishlari umumiy ta'lim-tarbiya ishlari bilan birgalikda qo'shib olib boriladi.

Yordamchi maktablar tajribasini ilmiy jihatdan umumlashtirish asosida ta'lim-tarbiya nazariyasini ishlab chiqish oligofrenopedagogika fanining bosh mavzusini tashkil qiladi. Ta'limning didaktik asoslari, darsning umumiy tizimi, mакtabda o'quv ishlarini tashkil etish, xususiy uslubiyotlarning umumiy masalalari kabi pedagogik masalalalar umumiy pedagogik talablarga suyanadi.

Oligofrenopedagogika — aqli zaif bolalar ta'limi, tarbiyasi hamda ular taraqqiyotidagi ruhiy, jismoniy nuqsonlarni to'g'rilovchi fan sifatida yuzaga keldi.

1.2. Oligofrenopedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Oligofrenopedagogika umumiy pedagogikaning bir qismigina bo'lib qolmasdan, balki mustaqil fandir. U umumiylpedagogikaning maqsad va tamoyillariga bo'ysungan holda o'zining maxsus maqsad, vazifalarini amalga oshiradigan usul va tamoyillarni ishlab chiqadi (1-chizma).

Oligofrenopedagogika pedagogik psixologiya va yosh psixologiyasi bilan uzviy bog'liq. Tarbiya va ta'limning ko'pgina masalalarini hal qilishda o'qituvchi pedagogik psixologiya va yosh psixologiyasiga oid ko'pgina bilimlardan foydalanishi kerak. Yosh psixologiyasi ta'lim ta'sirida kishi ma'naviy qiyofasining shakllanish qonuniyatlarini, turli yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini, shuningdek, bolalarning bilim va malakalarini o'zlashtirishning psixologik qonuniyatlarini, ularning mustaqilliklari va ijodlarining


rivojlanishini, o'quvchilar shaxsining kamol topish qonuniyatlarini o'rGANADI. Bu korreksion o'quv-tarbiya ishini tashkil qilishda katta ahamiyatga ega. Oligofrenopedagogika fani boshqa turdosh maxsus pedagogika fanlari: surdopedagogika, tiflopedagogika, logopediya, oligofreniya klinikasi va boshqa fanlar bilan aloqadordir.

Oligofrenopedagogika ta'limning, boshqa uslubiyatlari (yordamchi maktablarda o'qitiladigan hamma fanlar uslubiyati) bilan bog'liq. Predmetlararo bog'lanishni to'g'ri amalga oshirish uchun o'qituvchi buni hisobga olishi juda muhim. Yuqori sinflarda predmetlararo bog'lanishni amalga oshirish qiyinlashadi, chunki har qaysi predmetni ma'lum bir o'qituvchi olib boradi, buning ustiga predmet o'qituvchilarining ishlashida yaqindan aloqa bo'lmasa, predmetlararo bog'lanishni amalga oshirish masalasi ancha murakkablashib ketadi. Boshlang'ich sinflarda bunday emas. Hamma fanlarni bir o'qituvchi olib boradi va shu sababli uning oldida predmetlararo bog'lanishni amalga oshirish imkoniyatlari ochiladi.

Oligofrenopedagogika – aqli zaif bolalar ishtirok etadigan pedagogik jarayon bilan bog'liq. Bu holat nuqsonli bolaning ilk yoshda anatomiq fiziologik, ruhiy ma'lumotlarning zarurligini taqozo etadi. Ayniqsa, aqli zaiflikning sabablari, rivojlanishida bolalar klinikasiga oid materiallar talab etiladi. Shu sababli oligofrenopedagogika aqli zaif bolalar ta'lim-tarbiyasini masalalarini ishlab chiqishda anotomopotologik, patofiziologik, patopsixologik ma'lumotlarga tayanishi lozim. Ayniqsa, asab kasalliklari, ruhiy kasallar, bolalar psixonevrologiyasi, aqli zaiflik klinikasi maxsus psixologiya ma'lumotlariga asoslanadi. Bu ma'lumotlar aqli zaif bolalar ta'lim-tarbiyasida, ularni hayotga tayyorlashda birmuncha samarali usul va vositalarni qidirib topishga yordam beradi.

Nuqsonli shaxsning rivojida tabiiy va ijtimoiy omillarning o'zaro munosabati, yordamchi maktab o'quvchilari bilish faoliyatlaridagi umumiylilik va xususiylik, ichki va tashqi omillar, ta'lim-tarbiya va rivojlanish, korreksiyalash, ta'lim-tarbiyada umumpedagogik va maxsus usullar va boshqalar oligofrenopedagogika fanining umumiy masalalarini tashkil etadi.

Oligofrenopedagogikaning mavzu bahsi — nuqsonli bolalar ta'lim-tarbiyasini va rivojlanishidir. Bu bo'lsa har doim ta'lim-tarbiyadagi g'oyaviy kurashga sabab bo'lib kelgan.



I-chizma.

Aqli zaif bolalarning rivojlanish imkoniyatlari va ularning ijtimoiy hayotga moslashish masalalari ham o'tkir munozaralarga sabab bo'lib kelgan.

Oligofrenopedagogika nuqsonli shaxs rivojida irsiy omillarga alohida e'tibor beradi. Ammo irsiy, nasliy belgilar shaxsnинг ijtimoiy mohiyatini belgilamaydi. Bilimlar, axloqiy moyillik, ko'nikma va malakalar xromosomalar orqali nasliy yo'l bilan avloddan-avlodga berilmaydi. Balki bular hayot jarayonida orttirilib boriladi. Inson tug'ma tabiiy belgilar bilan unga ta'sir etuvchi holatlarning o'zaro mahsulidir.

Inson jamiyatda moddiy va ma'naviy hayot jarayonida shakllanib boradi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxsnинг rivojlanishi normal shaxs rivojlanishi singari irsiy va ijtimoiy dastur asosida yuz beradi. Ammo bu yerda aqli zaif bolaning ijtimoiy rivojlanishi nuqson asosida rivojlanishini unutmasligimiz kerak. Bu narsa aqli zaif bolaning bilish imkoniyatlarini toraytiradi. Bosh miya yarim sharlarida organik buzilishlar borligi oqibatida aqli zaif bolalar atrof-muhitni to'g'ri idrok qila olmaydilar.

Hozirgi zamон defektologiyasi bosh miyadagi organik buzilishlar ma'lum nuqsonlarga olib keladi, ammo bu nuqson o'zgarmas holat emas, deb tushuntiradi. Bunday hollarda organizmning himoyaviy kuchlari o'z ta'sirini o'tkazib, organizmning keyingi sharoitlarga moslashishiga yordam beradi. Bunda organizmning rivojlanish imkoniyatlari ishga solinadi. Rivojlanishi nuqson asosida davom etadi.

Ta'lim-tarbiya ta'siri ostida ayrim nuqsonlar to'g'rilansa (korreksiya qilinsa), ayrimlari yumshatiladi, ayrimlari kompensatsiya qilinadi. Shu asosda barcha sohalarda oldinga qarab harakat qilinadi. Mana shu ishonchli g'oya nuqsonli bolalar ta'lim-tarbiyasining mohiyatini belgilovchi nazariy ishlarning uslubiy asosini belgilab beradi.

1.3. Oligofrenopedagogikada foydalanilgan ilmiy tadqiqot metodlari

Metod (uslub) grekcha (metodoc – «yo'l» so'zidan olingan) – bu obyektiv borliqni o'rganish, o'rganilayotgan hodisalarining qonuniyatları, aloqalarni bilish, ularning paydo bo'lish sabablarini aniqlash yo'li usuldir. O'qituvchi-difektoligning ixtiyorida tadqiqotlarning turlituman metodlari mavjud bo'ladi. Bu metodlar tadqiqotlarning barcha turlarini takomillashganini anamnestik va katemnestik ma'lumotlarni, test metodi va boshqalarni o'z ichiga oladi. Har bir metod o'z xususiyatiga ega hamda o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarning u yoki bu tomonini ochishga qodirdir.

Tarbiyaga oid barcha ish tajribalarini o'rganmay va umumlashtirmay, pedagogik jarayonni chuqur tadqiq qilmay turib pedagogika fanini rivojlantirib bo'lmaydi. Ilmiy tadqiqot uslublari – bu qonuniy bog'lanishlarni, munosabatlarni, aloqalarni o'rganish va ilmiy nazariyalarni tuzish maqsadida ilmiy ma'lumotlar olish yo'llaridir. Kuzatish, eksperiment, maktab hujjatlarini o'rganish, o'quvchilar ishlarini o'rganish, suhbat va anketalar o'tkazish ilmiy-pedagogik tadqiqot uslublari jumlasiga kiradi.

Anamniz (grekcha ananmesis «xotiralar») – o'qituvchi difektolog o'rganilayotgan obyekti, kasallikning kelib chiqishi sabablari, potogenezi va asab sistemasining faoliyati imkominiyatları aniqlanadi. Onaning homiladorlik vaqtidagi sog'lig'ining ma'lumoti,

irsiy ma'lumotlar, tug'riq qanday kechganligi aniqlanadi. Bolaning bir yoshgacha bo'lgan davrdagi rivojlanish ma'lumotlar, uning psixik faoliyatlarining paydo bo'lishiga oid ma'lumotlar juda muhimdir. Masalan: bola bo'ynini qachon tutgan, qachon kula boshlagan, yorqin narsalarni kuzata boshlagan vaqt, atrofidagilarga ko'zi tushgan paytda reaksiya qachon paydo bo'lgan, qachon o'tirgan, yurishni o'rgangan vaqt, qaysi yoshida tili chiqqan, dastlabki gaplari, ishlatgan iboralari. Bolaning bir yoshgacha qanday kasalliklar bilan og'riganligiga e'tibor beriladi. Bu kasalliklarning qanday kechishi (o'tkir yoki qayta-qaytalanishi) tomir tortish va hushidan ketish holatlari bo'limganmi, bolaning psixik taraqqiyoti qanday o'zgarganligi aniqlanadi. Shundan so'ng tadqiqotchi o'z ishini bola bilan aloqa o'rnatishga, uning bilish faoliyatini o'rganishga yo'naltiriladi. **Katamniz** – anamez tushunchasining antonimi (grekcha katta, leyin, mnemaynen-tarbiya). Bu tarbiyalanuvchining maktabni bitirgandan keyingi kundalik turmush sharoitida hamda amaliy faoliyati haqida olingen ma'lumotlar yig'indisidan iborat. Bu yordamchi maktablarning korreksiontarbiyaviy ishlarining samaradorligini tekshirishning muhum metodidir. Ular yordamida maktabni bitiruvchilar ishtimoiy-ishlab chiqarish faoliyatiga qanchalik kirishib ketishganini «ishtimoiy lashganini», «hayotga moslashganini» bilish imkonini beradi. Yordamchi maktab o'quvchilarini o'rganishda **kuzatish** metodidan juda keng va to'la foydalilaniladi.

Kuzatish – bu pedagogik jarayonning yoki hodisalar obyektning ta'biy sharoitda mavjud bo'lishining ayrim tomonlarini, bevosita, bir maqsadga yo'naltirgan tarzda idrok etishdir. Bu jarayonning borishi, oqibatlari haqida so'zlar, harakatlar hamda topshiriqlarning natijalariga qarab xulosa chiqariladi. Bu metodni mustaqil tarzda , shuningdek, murakkabroq metodlarning tarkibiy qismi sifatida foydalanish mumkin. Kuzatish bilish faoliyatining xususiyatlarini, qobilyat va ko'nikmalar, aqli zaif o'quvchi shaxsining nomoyon bo'lishini payqash imkonini beradi, kuzatishni tashkil etishda avvaldan uning obyektlari, ko'zlangan maqsadlari, aniq belgilangan, kuzatishni o'tkazish rejasи tuzilgan, zarur yordamchi vositalar-suratga oluvchi moslamalar, sinografiya, xronometraj bo'lmoq'i kerak. Bular kuzatish natijalarining ishonchliligini oshiradi. O'qituvchi- defektolog bolaning kundalik xatti-harakatlarini, ayniqsa, «bildirmasdan», ya'ni o'quvchiga uni kuzatayotganini sezdirmasdan kuzatadi. Olingen

ma'lumotlarni sinchiklab tahlil etish kerak, ularni subyektiv tarzda sharxlashga yo'l qo'ymaslik lozim. Kuzatuvlar natijalarini boshqa metodlar yordamida olingen ma'lumotlar bilan to'ldirish, solishtirish kerak. Yordamchi maktab o'quvchilari hammavaqt o'zlarining o'ziga xos xususiyatlarini, xatti-harakatlari haqida ochiq ravshan og'zaki hisobot bera olmaydilar, bunday sharoitda tadqiqotchining obyektiv kuzatishlari hamda imkoniyati cheklangan bolalar faoliyatining moddiyashgan natijalarini tahlil etish katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, yozma ishlari, og'zaki va yozma nutqi, nazorat va sinov ishlari, ularning yasagan narsalari, buyumlari, faoliyat samarasini o'rganish, bolalarni yetishgan darajasi haqida, ularning o'z oldiga qo'ygan vazifalarini bajarish jarayoni haqida, bu ishga bo'lgan munosabati va boshqalar haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Suhbat metodi – yordamchi maktab o'quvchilari bilan bevosita jonli aloqadan iboratdir. Bu metod yordamida bola hayotining u yoki bu ko'rinishlari, qiziqishlari, tasavvurlar doirasi, jamoadagi munosabati, o'rnatilgan qoidalarning buzulish sabablari haqidagi hukm va baholar aniqlanadi. Suhbat tezkor diagnostika asosida savollarni individuallashtirish, rang-baranglashtirish, javoblarning ishonchli va to'laligi uchun imkon beradi. Suhbat erkin o'tishi kerak, aks holda javoblar nomiga bo'lib qolishi va yuzaki ma'lumot olish xavfi tug'iladi. Savollar ham mazmunan ham shaklan puxta o'ylab qo'yilgan bo'lishi kerak. Ayniqsa, savollarning tushunarli bo'lishi muhimdir.

Yordamchi maktab o'quvchilarning kerakli tomonlari hamma vaqt ham qarab chiqilavermaydi hamda bevosita tarbiya ostiga olinavermaydi. Hamma narsa ham tabiiy sharoitlarda ko'zga tashlanavermaydi, bola o'zining ko'proq namoyon eta oladigan hayotiy vaziyat tug'ulishi uchun oylab kutish kerak bo'ladi. Fandagi **eksperiment** (tajriba) deb qulayroq sharoitlarda o'rganish maqsadida hodisalarning qayta tiklanish va o'zgartirilishiga aytildi. Bunday sharoitlarda shaxsning pedagogik qiziqtiruvchi jihatlari to'laroq nomoyon bo'ladi. Bu eksperiment o'tkazuvchining o'rganilayotgan hodisaga rejali aralashishi, uni muayyan shart-sharoitlarda ko'p marta qayta tiklash imkoniyati deyish mumkin. **Eksperiment** (tajriba) tufayli sabab sharoitdan ajraladi, u yoki bu hodisaga ta'sir etuvchi sharoit tushunarli bo'lib qoladi.

Oligofrenopedagogikada labaratoriya, tabiiy, psixologik-pedagogik eksperimentlar(tajribalar) qo'llaniladi. Tadqiqot davomida qat'iy muayyan sharoitlarda pedagogik-psixik hodisalar kechishining aniqroq, ishonchliroq ko'rsatkichlarini olish zarur bo'lganda laboratoriya eksperimenti qo'llaniladi. Metodlar bir-birini to'ldirishi, tadqiqot mavzuini to'laroq va chuqurroq ochishi lozim.

Savol va topshiriqlar

1. Oligofrenopedagogikaning umumpedagogik va maxsus vazifalari nimalardan iborat?
2. Oligofrenopedagogika fanining mavzu bahsi nimadan iborat?
3. Oligofrenopedagogikaning asosiy metodologik asoslarini ko'r-sating.
4. Oligofrenopedagogika qaysi ilmiy fanlar bilan yaqin aloqada va bu aloqalar nimalarda namoyon bo'ladi?

1.4. Aqli zaif bolalar – o'rganish, o'qitish va tarbiyalash obyekti sifatida

Aqli zaif bolalarni o'rganish va ularga yordam tashkil etish masalalari, aqli zaif bolalarni o'qitish va milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda ishtimoiy-pedagogik omillar haqida , aqli zaif bolalar tasnifi hamda uning aqli zaif bolalar uchun maxsus muassasalarini differensiyalashdagi ahamiyati hamda yordamchi maktab o'quvchilarning pedagogik tasnisi borasida ma'lumotlar berishni ko'zda tutadi.

Aqli zaiflikning yengil darajalarida bu nuqson tashqaridagi qaraganda uncha ko'zga tashlanmaydi (1,2,3,4,5-rasmlar). Butun dunyo sog'lomlashtirish jamiyati tomonidan intellekt koyffitsiyentini belgilashga oid shartli belgililar qabul qilingan. Bular: yengil darajadagi aqli zaiflik ($IQ=70$) (oligofreniya diagnizi), o'rta darajadagi intellektning pasayishi ($IQ=71$) (imbitsel darajasidagi aqli zaiflik) chuqur aqli zaiflik ($IQ=72$) (idiot darajasidagi aqli zaiflik, Bunday bolalarda odatdagagi nuqsonni tengqurlaridan ajratib olish nani, ko'p hollarda, qiyinchilik tug'diradi. Ba'zi hollarda tegishli ta'lim-tarbiya amalga oshirilmasa, bunday bolalar pedagogik qarovsiz bolala-

safiga kirib qoladilar. Ko‘p hollarda yengil darajadagi aqli zaiflik hollari ilk yoshlarda aniqlab olinmasligi natijasida rivojlanishi orqada qolgan, sustlashgan bolalarga



I-rasm. Aqli zaif o‘g‘il bola.

aralashtirib yuboriladi. Nuqsonli bolalarni diagnostika qilish ishlaridagi xatoliklar ba’zi hollarda ko‘ngilsiz natijalarga olib kelishi mumkin. Masalan, ommaviy maktabga tushib qolgan aqli zaif bola nuqsonsiz tengqurlari singari ular bilan birga o‘quv materiallarini o‘zlashtira olmaydi. O‘z vaqtida malakali yordam olmagandan keyin borgan sari bunday bolalarning bilim saviyasi pasayib, surunkali o‘zlashtirmovchilar qatoriga kirib qoladilar. Xuddi shu tarzda aqli zaiflar qatoriga noto‘g‘ri qo‘shib qo‘yilgan nuqsonsiz bola sun’iy ravishda o‘z rivojlanishida orqada qola boshlaydi. Chunki nuqsonli bolalar ta’limi materiallari unga yengillik qiladi, u o‘z ong-bilim doirasiga mos bilim olmasligi natijasida uning aqliy rivojlanishi sekinlashadi. Yordamchi maktab dasturi materiallari elementar, sodda mazmunda tuzilganligi uchun nuqsonsiz bolalarning bilishga bo‘lgan talablarini qondira olmaydi. Bolaning aqliy rivojlanishigina emas, balki umumiyl rivojlanishi ham orqada qoladi. Ayniqsa, shaxsiy

sifatlari noto‘g‘ri shakllana boshlaydi. Bulardan tashqari, bunday bolalarning ota-onalariga ham og‘ir ruhiy ta’sir yetkaziladi. Bunday noxush, ko‘ngilsiz holatlar aqli zaiflikning mohiyatini tushunib yetmaslik natijasida sodir bo‘ladi. Shuning uchun oligofrenopedagogikada aqli zaiflik masalasi alohida o‘rganishni talab etadigan mavzulardan biridir. Aqli zaiflik deganda me’yoriy ruhiy rivojlanishdan chetlashib, haqiqiy, aynan aqliy nuqsonlikka olib keluvchi holat tushuniladi. Bunday holat «aqli zaiflik» nomi bilan atala boshlandi. Bu yerda «aqli qoloqlik» bilan «aqli zaiflik» tushunchasi orasida hech qanday farq yo‘q. Ammo keyingi yillarda «aqli qoloqlik» tushunchasiga e’tibor kuchaymoqda. Qandaydir ilmiy asoslar yetarli bo‘lmasa-da, turli manbalarda ba’zan bir-birini to‘ldiruvchi fikrlar uchrab turadi. «Aqli zaif» yoki «aqli kam» tushunchalarida aqlning yetarli emasligi qayd etiladi. «Aqli qoloq»likda esa aqlning yetarli emasligini e’tirof etish bilan birga, aqlning rivojlanish imkoniyatlarini inkor etmaydi. Chunki sekinlashish, orqada qolish deganda rivojlanish to‘xtagan degan ma’no kelib chiqmaydi.

So‘nggi yillarda aqli zaiflik mohiyatini tushuntirishda ma’lum ruhiy kasalliklar emas, balki qobiliyatlarining rivojlanmasligi asosida kelib chiqadigan xulqning buzilishidir, deb ko‘rsatish odat tusiga kirib qolmoqda. Shular asosida noto‘g‘ri holda «aqli qoloqlik» tushunchasi kengaytirilib, unga pedagogik qarovsiz bolalar, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar, huquq-tartib normalarini buzuvchi bolalar ham kiritilmoqda.

Aqli zaiflikning mohiyatini nuqsonning moddiy asosi bilan bog‘lab, bunga bosh miyaning organik buzilishini ko‘rsatadilar. Boshqacha aytganda, aqli zaiflikning moddiy asosi sifatida kasallangan bosh miya e’tirof etiladi. Bu kasallik natijasida bolaning bilish faoliyatları keng ma’noda buzilib, aqliy rivojlanish tezligi, samaradorligi pasayadi. Bosh miya kasalliklari sababini kelib chiqishiga ko‘ra ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) sabablarga bo‘lishimiz mumkin. Aqli zaiflikni keltirib chiqaruvchi sabablar turli ilmiy, uslubiy, psixologopedagogik va tibbiy adabiyotlarda turlichcha bayon etiladi. Bu sabablarni qisqacha quyidagi tarzda ifodalashimiz mumkin:



2-rasm. Aqli zaif darajasidagi (mikrosefaliya) aqli zaif o‘g‘il bola.



3-rasm. Aqli zaif darajasidagi (oolosefal) aqli zaif o‘g‘il bola.



4-rasm. Aqli zaif qiz bola.



5-rasm. Aqli zaif qiz bola.

- a) homila davrida turli salbiy ta'sir etuvchi infeksiya, intoksiatsiya va jarohatlar;
- b) tug'ilish vaqtidagi jarohat va asfiksiya;
- d) chaqaloqning ilk yoshida salbiy ta'sir etuvchi yuqumli intoksiatsiya, ovqatlanishning buzilishi va boshqalar;
- e) turli irsiy yo'l bilan avloddan-avlodga o'tadigan gen, xromosoma kasalliklari.

Aqli zaif bolalar bosh miyasi chuqur zararlanganligi sababli barcha oliy asab faoliyatları buzilgan bo'ladi. Patologik buzilishlar shartsiz reflekslarning hosil bo'lishida ham namoyon bo'ladi. Bu buzilishlar bosh miyaning qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarida ham o'z aksini topadi. Hatto ikki signal sistemalarining o'zar oloqlarida buzilishlar ko'zga tashlanadi. Rus defektolog va psixologlaridan L.S.Vigotskiy, LV.Zankov, G.Ye.Suxareva, T.A.Vlasova, G.M.Dulnev, N.G.Morozova, S.Ya.Rubinshteyn, M.S.Pevzner, G.I.Rossolimo, V.G.Petrova, J.I.Namozboyeva, shuningdek, G'.B.Shoumarov, K.Q.Mamedov, P.M.Po'latova, V.S.Rahmonova va boshqalarning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, «aqli qoloq»likda ruhiy nuqson murakkab tuzilishga ega. Ularning ko'rsatilishicha, bir tomonidan, birlamchi nuqson ta'sirida oddiy aqli jarayonlar buzilsa, ikkilamchi nuqson sisfatida ruhiyatning oliy shakllari, xotira, xarakter belgilari buzilar ekan.

Oligofrenopedagogikaning maxsus markazida turadigan manba nuqsonning o'zi emas, balki u bilan bog'langan buzilgan ruhiy holatlardir. Shu bilan birga, biz aqli zaif deb bu holatning turg'unligini ham tushunamiz. Mana shu mezonning bor yoki yo'qligiga qarab aqli qoloqlikni boshqa unga o'xshash turlardan farqlashimiz lozim. Aqli qoloqliknинг asosiy belgilari:

- a) bosh miyada organik buzilishning mavjudligi;
- b) bilish faoliyatlarining umumiyligi, chuqur buzilganligi;
- d) bilish faoliyatları buzilganligining turg'un xarakterdaligi. Aqli zaif bolalar guruhiqa quyidagi bolalar kirmaydi:
 - a) aqliy rivojlanmaganlik bosh miyaning organik buzilishlari bilan bog'liq bo'lmanan pedagogik qarovsizlar;
 - b) ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar;
 - d) aqliy jihatdan saqlangan bo'lib, chuqur nutq kamchiliklari bo'lgan bolalar.

Amaliyotda ba'zan bosh miyasi zararlangan bolalarni aqli zaiflar qatoriga qo'sha olmaymiz. Bunday hollarda bosh miya zararlanishi bilish faoliyatining buzilishiga olib kelmaydi.

Oligofrenopedagoglar biologik omillarga katta e'tibor beribgina qolmay, balki ta'lim-tarbiya, atrof-muhitiga ham alohida e'tibor beradilar. Yordamchi maktablarning boshlang'ich sinflaridagi (korreksiyalovchi) tuzatuvchi-tarbiyalovchi ta'lim ta'sirida aqli zaif bolalar ruhiy jarayonlarida juda katta siljishlar yuz beradi.

Hozirda yordamchi maktablarimizda asosan aqli zaiflikning yengil darajasi — debil bolalar ta'lim oladilar. Bular bir toifaga kirmaydigan sohalardir. Bular orasida amalda kasalliklari davom etuvchi bolalar ham uchraydi.

Amalda sog' bolalar toifasiga aqliy nuqsonlar ilk rivojlanish davrida kasallikka chalinib, kasalliklarining rivojlanishi to'xtagan bolalar kiradi. Bunday bolalarning keyingi aqliy rivojlanishi nuqsoni asosida davom etadi. Ammo bular amaldagi SOG' bolalardir. Oligofren bolalar bu toifaning asosiy, tipik vakillaridir. Bu bolalar yordamchi maktab o'quvchilarining asosiy qismini tashkil etadi. Yordamchi maktab o'quvchilarining ikkinchi toifasini aqliy nuqsonlilikni keltirib chiqargan kasalliklari davom etadigan bolalar tashkil etadi. Bunday bolalar ma'lum rivojlanish davrigacha me'yorida rivojlanib, keyinchalik kasallikka chalinganlardan iborat. So'nggi yillarda tabiiy fanlarning rivojlanishi asosida oligofreniyaning etiologiyasi va patogenezi haqidagi ma'lumotiar yanada kengaydi.

G.Ye.Suxarevaning (1965,1972) tasnifnomasi birmuncha keng tarqalgan bo'lib, u oligofreniyaning quyidagi shakllarini aniqlagan:

I. Endogen xarakterdagи oligofreniya (daun, mikrosefaliya).

II. Embrio va fetopatiya (yuqumli kasalliklar, zaxm, gormonal buzilishlar).

III. Turli zararli ta'sirlar oqibatida kelib chiqadigan oligofreniya.

Qator oligofreniya tasnifnomalari klinik-patogenetik tamoyil asosida tuzilgan. Bularga rus psixolog, defektologlardan M.S. Pevzner (1959, 1965, 1979), S. S. Mnuxin (1961), O. Ye. Freyerov (1964), D.Ye.Melexov (1965), G.Ye.Suxareva (1965), D.N.Isayev (1970) fikrlarini ko'rsatish mumkin.

M.S.Pevzner tasnifnomasida asosiy nuqson tuzilishi bilan birga neyrodinamik, psixopatologik va boshqa buzilishlarni ajrata olish imkoniyatlari berilgan. Oligofreniyanı bunday tasniflash ular bilan

olib boriladigan psixologopedagogik tuzatish usullarini belgilashga yaxshi yordam beradi. M.S.Pevzner oligofreniyaning quyidagi asosiy turlarini ajratib ko'rsatadi:

- 1.Oligofreniyaning murakkablashmagan turi.
- 2.Neyrodinamik jarayonlari buzilgan oligofreniya.
- 3.Xulqi psixopat xarakter kasb etuvchi oligofreniya.
- 4.Turli analizatorlari buzilgan oligofreniya.

5.Peshona qism yetishmovchiliklari yaqqol ko'rinish turuvchi oligofreniya. Oligofreniyaning murakkablashmagan turida qo'pol ruhiy, jismoniy buzilishlar deyarli uchramaydi. Bunday bolalar, odatda, mehnatsevar, intizomli bo'ladilar, ularning asab sistemalari turg'undir. Biror ish bajarganda ular yetarli darajada diqqatlarini bir joyga yig'a oladilar. Hissiyotlari ham nisbatan saqlangan. Maktabda, oilada turli yumushlarga yordam beradilar, yordamchi mакtab dastur materiallarini muvaffaqiyatli o'zlashtiradilar. Murakkablashmagan oligofreniyada nevrologik buzilishlar, tana tuzilishidagi nomutano-sibliklar juda kam uchraydi.

Neyrodinamik jarayonlari buzilgan oligofrenlarda aqliy nuqson qo'zg'aluvchanlik yoki tormozlanuvchanlik bilan birga keladi. Aqliy faoliyat diqqatning tarqoqligi, impulsivligi, harakat tizimlarining buzilganligi natijasida yanada ko'proq buziladi.

Tez-tez bo'lib turadigan bosh og'rig'i, vegetativ distoniya, nevroz xarakterdagi buzilishlar aqliy faoliyat jarayonlariga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi. Bu toifaga apatik-dinamik buzilishlari bo'lган oligofrenlarni ham kiritish mumkin. Xulqi psixopat mazmun kasb etuvchi oligofrenlarda jinsiy intilishlarning buzilishi, daydib yurishga moyillik, o'g'rilikka ruju qo'yish holatlari ko'rinish turadi. Bunday nuqsonlar asosan meningoensefalit, meningit, bosh miyasi jarohat olgan oligofrenlarga xosdir.

Bosh miya organik buzilishlari natijasida kelib chiquvchi aqliy nuqson bilan birga ma'lum analizatorlarning jarohatlanishi ham yuz berishi mumkin. Aqliy nuqson ko'rish, eshitish, nutq va harakat tizimidagi nuqsonlar bilan birga keladi. Ba'zi hollarda aqliy nuqson markaziy falajlar bilan qo'shilib ham kelishi mumkin. Buning sabablari turli-tuman bo'lishi mumkin. Organizmda modda almashinuvining buzilishi, rezus faktor, genetik nuqsonlar ham bunday turdagи oligofreniyaning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Aqliy nuqson peshona qism kamchiliklari bilan birga kelganda bilish faoliyatining maqsadga muvofiqligi qo'pol buzilgan bo'ladi. Ayrimlarida bo'shanglik, so'zsiz bo'ysunish ko'zga tashlansa, boshqalarida uyatsizlik, kayfiyatning sababsiz ustunligi, tez-tez diqqatning tarqalib turish hollari uchrashi mumkin. Bunday bolalar nutqi tashqi tomongan juda «boy, sermazmun» bo'lib tuyulsa-da, aslida ularga o'zlarining gaplarini tushunmaslik, birovlarining fikrlarini qaytarish, o'zlariga tanqidiy qaramaslik xislatlari xosdir. Salbiy ta'sirlarning bola organizmiga ikki yoshidan keyingi ta'siridan kelib chiqadigan oligofreniya *demensiya* deb yuritiladi. Demensiyanı keltirib chiqargan sabablar, uning kechish xususiyatlari, asoratlariga qarab *organik*, *epileptik* va *shizofrenik demensiya* kabi turlarga ajratiladi.

Barcha yordamchi maktab o'quvchilarini amaliy maqsadda ikki guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhga rivojlanish davrining ma'lum bosqichlarida bosh miyasi zararlanib, nuqson asosida rivojlanayotgan amaldagi sog' bolalar kirsa, ikkinchi guruhga maktab ta'limi davrida ham kasalliklari davom etib boruvchi bolalar kiradi.

Birinchi guruhga kiruvchi bolalarni yana ikkita tipik guruhlarga bo'lamiz. Birinchi kichik guruhni shartli ravishda A deb belgilasak, ikkinchi kichik guruhni B deb belgilaymiz. A guruhga bosh miyasi homila yoki ilk chaqaloqlik davrida zararlangan bolalar (oligofrenlar) kirsa, B guruhga bosh miyasi zararlangan bog'cha yoki kichik maktab yoshidagi bolalar kiradi.

Ikkinci guruhga hayotda, ta'lim-tarbiya jarayonida kasalliklari davom etuvchi aqliy nuqsonlilar kiradi. Bunday kasalliklarga asab sistemasingin revmatizmi, bosh miya zaxmi, epilepsiya (tutqanoq). shizofreniya, gidrosefaliya va boshqalar kiradi.

Aqliy nuqsonning chuqurligiga qarab oligofreniya darajaga ajratiladi: Har qaysi daraja haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Birmuncha yengil daraja bo'lib, oligofreniyaning eng ko'p tarqalgan turidir. Yordamchi mакtabga bolalarni saralash vaqtlarida asosan shu bolalar bilan ish olib boriladi. Yordamchi mакtab o'quvchilarining asosiy qismini ham debil bolalar tashkil qiladi. Bu bolalarni saralash vaqtida ham ma'lum qiyinchiliklarga duch kelinadi. Buning asosiy sababi shuki, aqliy nuqson u darajada chuqr emas. Bu bolalar umumlashtira oladilar. Bog'cha yoshi davrida primitiv, sodda

mazmunli o'yinlarni tashkil qila oladi. Maktab yoshi davrida esa ma'lum muayyan holatlarni baholay oladi, amaliy masalalarни yechishda to'g'ri ish tutadi. Nutqi asosan saqlangan bo'lib, mexanik xotirasi nisbatan yaxshi natijalar beradi. Bularning barchasi yordamchi maktab dasturi hajmidagi materiallarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi. Debil bolalarda yetarli harakatchanlik, ish qobiliyatları saqlangan bo'ladi. Bu bolalarda nisbatan hissiyot-iroda sifatlari yaxshi saqlangani natijasida o'zlarini nazorat qilish imkoniyatlari mavjud. Yordamchi maktabning maxsus sharoitlari tufayli debil bolalar 9 yil davomida ommaviy maktablar boshlang'ich sinf hajmidagi o'quv materiallarini egallab, ma'lum ishlab chiqarish, kasb-hunar tayyorgarligini oladilar.

Qator ijobjiy xislatlariga qaramay, ma'lum darajada aqliy rivojlanmaganlik bu bolalarga ham xosdir. Bu bolalarning tafakkurlari ko'rgazma-obraz mazmunini kasb etadi. Tushunchalarning shakllanishi juda qiyin amalga oshadi. Umumlashtirish, taqqoslash jarayonlari juda zaif kechadi. O'qilgan muayyan mazmunni qiyinchilik bilan o'zlashtiradilar. Fanlarni to'g'ri idrok qila turib, ularning ichki bog'lanishlarini tushunmaydilar. Bunday xislatlar debil bolalar bilan mazmunli rasmlar, izchil voqealarni tasniflash tajribalari o'tkazilganda yaqqol ko'rindi, hisoblash malakalari ham qiyin shakllanadi. Sonlar, suratli arifmetik belgilari mohiyatini yetarli tushunib yetmaydilar. Ular sodda masalalarning shartlarini dasilabki tushuntirishlarda bila olmaydilar. Uni yechishda oldingi ishlagan yo'llarni qo'llaydilar. To'g'ri yozish malakalarini qiyinchilik bilan egallaydilar. Ularning nutqi sodda, grammatik tomoni buzilgan, tili chuchuk bo'lishi mumkin. So'zli tushuntirishlar muayyan holatlar bilan bog'liq bo'lmasa, materialni juda qiyin idrok etadilar. Debil bolalarning yetarli aqliy taraqqiy etmaganligi ular shaxsining shakllanmaganligi bilan birga qo'shilib keladi. Bu xislat fikr yuritish va qarashlarning mustaqil emasligida, bilimga intilishlarning yetishmasligida, tashabbuskorlikning bo'shligida, mehnat faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Hissiyot-iroda sohalari yetarli saqlangan holda, ayrim qayg'urish, xursand bo'lish vaqtlarida o'zlarini yetarli, nuqson siz tengdoshlaridek tuta olmaydilar. Ayrim nozik differensiyalashgan harakatlar, yuzlardagi ifodalilik yetishmaydi. Ba'zan nevrologik belgilari, tana displaziyası, endokrin bezilishiñ uchraydi. O'z vaqtidagi to'g'ri ta'llim-tarbiya, mehnat

malakalarini berish, aqliy nuqsonni murakkablashtiruvchi asab-ruhiy taassurotlarni yo‘q qilish orqali debil bolalarni muvaffaqiyatli ravishda hayotga moslashtirish mumkin. Bu bolalar tashabbus, mustaqillik, bir ish turidan boshqa ish turiga tez o‘tish talab etilmaydigan ish jarayonlarida yetarli unum bilan mehnat qiladilar. Bu bolalardagi amaliy intilishlarning borligi kelajakda jamiyatda o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishlarini bilishlari asosida mehnat malakalarini egallashlariga yordam beradi.

Savol va topshiriqlar

1. E. Segeñ fikrlarini qanday tushunasiz?
2. Ye. Suxareva tasnifini aytib bering.
3. Aqli zaif bolalarni o‘rganish manbai deganda nimani tushunasiz?

2-bob. MAXSUS TA'LIM TIZIMI

2.1. Maxsus muassasalar

Maxsus ta'lif tizimi deganda jismoniy va ruhiy kamchiliklarga ega bo'lgan bolalarga (ko'zi ojiz, kar-soqov, aqli zaif, tayanch harakatli apparatida nuqsoni bo'lgan, nutq nuqsoni bo'lgan bolalar) aniq maqsadni ko'zlab «korreksiya», «kompensatsiya», «reabilitatsiya» ishlarini amalgalashiradigan maxsus ta'lif muassasalari: ko'zi ojiz bolalar uchun, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun, aqli zaif bolalar uchun maktab-internatlar tushuniladi.

Har bir mamlakat xalq ta'lifi tizimining taraqqiyoti shu mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarining, ishlab chiqarish munosabatlaring rivojiga va jamiyat taraqqiyotiga bog'liq bo'ldi.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgandan keyin xalq maorifini rivojlantirish masalalariga, yetuk defektolog mutaxassis kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga asoslangan holda fuqarolarning millatidan, dinidan, jinsidan, ijtimoiy ahvoldidan qat'i nazar, ta'lif olishga huquqliligi tamoyili qaror topgan. Nogironlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilishni davlat o'z burchi deb biladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan boshlab nogiron bolalarga maxsus ta'lif-tarbiya jarayonini takomillashtirish, yangi milliylik va o'z-o'zini anglash ruhida tarbiyalash, o'qitish, yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda, bundan tashqari, nogironlarni himoya qilish bo'yicha bir qancha buyruqlar va qarorlar tayyorlangan. Xalqimizning, shu jumladan, nogironlar va nogiron bolalar, ularning jismoniy, aqliy, psixik rivojanishini yaxshilash, hayotga moslashtirish yo'llarini ishlab chiqish ko'rsatilgan.

Nogironlikning oldini olish va nogironlarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 11-noyabrda qabul qilingan 433-sonli «O'zbekiston Respublikasining nogironlarni reabilitatsiya qilish bo'yicha 1996–2000-yillarga mo'ljalangan davlat dasturi», 2000–2005-yilga me'ljalangan davlat dasturi

qabul qilingan va qator tadbirlar ishlab chiqilgan. Eng avvalo, nogironlikning oldini olish, nogironlarni tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya qilish, ularning ruhiyatini yaxshilash va sog'lomlashtirish, nogironlikni ilk bor aniqlash, saralash, maxsus ta'lim-tarbiya berish va korreksion-pedagogik ishlar orqali korreksiyalash, kasbga yo'naltirish, hayotga moslashtirish, jismoniy tarbiyalash, nogironlar bilan ishslash uchun kadrlar tayyorlash masalalariga oid qonun va buyruqlar mavjuddir.

Ko'riniň turibdiki, nogiron, alohida yordamga muhtoj bolalar ham zamон talabiga javob beradigan ilmiy bilimlarning elementar asoslarini egallashi, hayotda o'z o'mini topa olishlari haqida davlatimiz mustaqillikning dastlabki yillaridayeq g'amxo'rlik qila boshlagan. O'zbekiston Respublikasida barcha maxsus ta'lim-tarbiya muassasalarini davlat ixtiyoroda ekanligi, bu tashkilotlarni davlat mablag' bilan ta'minlashi nazarda tutiladi. Maxsus ta'lim-tarbiya muassasalarining faoliyati davlat tomonidan boshqarilib boriladi. Shu kabi tadbirlar maxsus ta'lim ustidan davlatning siyosatini amalga oshirish, o'quv reja va dasturlarining yagona bo'lishini ta'minlash imkoniyatini beradi. Nogiron bolalarning barcha turiları uchun maxsus maktab, maktab-internatlar, sog'lomlashtirish sanateriyalarida ta'limning bepul ekanligini ta'kidlash mumkin.

Shuni aytish zarurki, maxsus ta'lim tizimining o'ziga xos bo'lgan tomoni — uch vazirlik: Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ijtimoiy ta'minot vazirligi tasarrufida ekanligidir.

Yordamchi maktabda o'quvchilar nazoratsiz qolmasligi uchun moddiy imkon bo'lgan maktablarda kuni uzaytirilgan guruuhlar tuzilgan, yetim bolalar uchun bolalar uylari, maxsus maktab-internatlar tashkil etilgan:

— maktabgacha tarbiya — aqli zaif bolaning ilk yoshidan 7-8 yoshigacha;

— boshlang'ich ta'lim — 1-4-sinflar;

— o'rta maxsus ta'lim — 5-9-sinflar;

— kollej — aqli zaif o'quvchilarning qobiliyatli va kasb-hunarga qiziqqan haimda o'qishni davom ettirishga layoqatli bo'lgan bolalarni maxsus guruhlarda (kollejlarda integratsiya usulda) o'qitishi kasb-hunar ta'limi bandlarigina taalluqlidir. Chunki aqli zaif o'quvchilar boshqa yuqori darajada ta'lim olishlariga ularning aqliy nuqsonlari imkon bermaydi. Lekin kasb-hunar kollejlarida aqli zaif

o‘quvchilarning nuqson darajalari inobatga olingan holda ta’lim olishlari mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. Nuqsonli bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi muassasa-larga qo‘ylgan hozirgi kun talablari haqida so‘zlab bering.

2. Nuqsonli bolalar bilan shug‘ullanuvchi muassasalar qaysi vazirliliklarga qarashli?

3. Nuqsonli bolalar tarbiyasi va ularni hayotga tayyorlash masalalariga davlatimiz e’tibori haqida so‘zlab bering.

2.2. Yordamchi maktab, uning maqsad va vazifalari

Oligofrenopedagoglar o‘qituvchi, tarbiyachi, ilmiy bo‘lim mudiri, tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, direktor vazifalarida ishlashi mumkin. Oligofrenopedagog ishi Xalq maorifi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan nizom asosida belgilanib, yosh avlodga tarbiya, umumta’lim fanlaridan bilim berish hamda mehnat tayyorgarligidan o‘tishni ko‘zda tutadi. Oligofrenopedagog o‘quvchilarni atroflicha pedagogik nuqtayi nazardan o‘rganish asosida butun ta’lim-tarbiya ishlarini rejalashtiradi, aqli zaif o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy nuqsonlarini kuzatadi, ularning harakat sistemalarini to‘g‘rilab boradi, bilish faoliyatlarini shakllantiradi va shular asosida o‘quvchilarda xarakter va madaniy xulq-atvor mezonlarini tarbiyalab boradi. U aqli zaif bolalarning ota-onalari, jamoatchilik bilan ham tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi.

Maktabni bitirib ketgan hamma o‘quvchilar bilan muntazam aloqa bog‘lab, katamnesik ma’lumotlar yig‘ib boradi. Ularning ishga joylashishlariga yordam beradi. Ulg‘or pedagogik tajribaiarni o‘rganish, ommalashstirish boradi.

Oligofrenopedagoglar maorif tizimida ishiayotgan barcha pedagoglar foydalanadigan huquqlardan foydalanadilar. Nuqsonli bolalar bilan o‘sib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining birmuncha murakkabligi, turli-tumanligini hukumatimiz e’tiborga olib, oligofrenopedagiarning maoshlarini birmuncha yuqori qilib belgilagan.

Oligofrenopedagog aqli zaif bolalar bilan ishlaydigan pedagog bo'lsa, aqli zaif bolalarni tarbiyalash, o'qitish haqidagi fan oligofrenopedagogika fani deb yuritiladi.

Oligofrenopedagogika fan sifatida quyidagi masalalarni hal qiladi: aqli zaiflikni pedagogik tahlil qilish; aqli zaiflik sabablarini o'rganish; aqli zaif bolalarning rivojlanishini pedagogik va psixologik o'rganish yo'llari va vositalarini aniqlash; yordamchi maktablarda turli xarakterli bolalarga individual munosabatni ta'minlash; aqli zaif bolalarni tarbiyalash tamoyillari va usullarini ishlab chiqish; aqli zaif o'quvchilarga umumiy bilim va mehnat tayyorgarligi berish; o'quv fanlarining xususiy uslubiyotlarini ishlab chiqish; aqli zaif bolalarga maxsus muassasalar tizimi va tuzilmasini belgilash.

Aqli zaif bolalar yordamchi maktabda barcha umumta'lim fanlari asoslari borasida ma'lum hajmda nazariy, amaliy bilimlar oladilar, kasbiy mehnat malakalarini egallaydilar. Yordamchi maktab va maktabgacha muassasalarda ta'lim jarayonida tuzatish ishlari tizimini amalga oshiradi. Bu ishlar bolalardagi rivojlanishning potensial imkoniyatlariga asoslanib, aqli zaif bola shaxsini atroficha shakllantirish, bilish faoliyatlarini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Bolalar orasida uchrab turuvchi nuqsonlilikni (karlik, ko'rlik, aqli zaiflikni) bartaraf etish ijtimoiy masalalardan biri bo'lib, bu ishni muvaffaqiyatlari amalga oshirish davlatning umumiy ishlari orqali ro'yogba chiqarilishi mumkin.

Oligofrenopedagogika fani qator umumiy va maxsus fanlar bilan chambarchas bog'liq holda o'rganiлади. Aqli zaif bolalar oliy asab faoliyatları, ularning rivojlanish xususiyatlari, kasalliklari, kechishi, davolash ishlarini nevropatologiyadan, aqli zaif bolalar ruhiy jarayonlarining xususiyatlari, ularning taraqqiy etish xususiyatlari oligofrenopsixologiyadan, yordamchi maktabda davolash-sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish uchun ma'lumotlar oligofreniya klinikasidan olib o'rganiлади. Yordamchi maktablarda ta'lim 9 yil olib boriladi. O'quv rejasiga kiradigan fanlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz:

1. O'zbek tili. O'quv rejasidagi asosiy fanlardan biri o'zbek tili bo'lib, quyidagi maqsad, vazifalarni hal qiladi:

a) o'quvchilarni to'g'ri, ifodalı o'qishga o'rgatish, sodda badiiy va gazeta-jurnal materiallarini o'qishga o'rgatish;

b) o‘quvchilarda aniq, ozoda, tushunarli, savodli yozish malakalarini shakllantirish hamda ularni grammatik jihatdan to‘g‘ri yozishning boshlang‘ich tushunchalarini egallahsga o‘rgatish;

d) o‘quvchilarni o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri, izchil bayon qilishga o‘rgatish. Matn yuzasidan berilgan savolga javob qaytarish.

Yordamchi mакtabning 1-sinfiga qabul qilingan bolalarning ko‘philigidagi talaffuz kamchiliklari bo‘lganligi sababli, alisbegacha bo‘lgan davrda talaffuzdagi kamchiliklar, fonematik malakalarni rivojlantirish, baholanishli yozma va og‘zaki nutq ustida ish olib boriladi. 1-4-sinflarda rivojlantirish davom etadi.

2. Matematika. Yordamchi mакtab o‘quv fanlari ichida o‘zining ilmiy, tuzatish imkoniyatlari jihatidan matematika fani barcha fanlardan ajralib turadi.

Yordamchi mакtabning 1-4-sinflarida aqli zaif o‘quvchilar matematikadan quyidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashlari lozimi:

a) natural son haqida tushuncha, nol haqida, natural sonlar qatori to‘g‘risida, ularning xususiyatlari, oddiy va o‘nli kasrlar haqidagi tushunchalarni;

b) ko‘p xonali sonlar va kasrlar ishtirokida to‘rt arifmetik amalni bajarish;

d) uzunlik va vaqt o‘lchov tizimi haqidagi bilimlarga ega bo‘lish hamda ulardan amaliy foydalanish;

e) chizg‘ich, tarozi, soat va boshqa asboblardan foydalana olish;

f) sodda va murakkab (3-4 amalli) matematik masalalarni yecha olish;

g) geometrik figuralarni ajrata bilish, ularning xususiyatlarini farqlash, bu figuralarni chizg‘ich, sirkul, o‘lchash asboblari yordamida yasay olish.

Matematika fani aqli zaif bolalar uchun nihoyatda murakkab fan hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil qilingan, uslubiy talablarga javob bera oladigan darslar orqali aqli zaif o‘quvchilarda yuqorida aytib o‘tilgan bilimlarni shakllantirish mumkin.

3. Tabiatshunoslik. Tabiatshunoslik fani ham yordamchi mакtabda alohida o‘rinni egallaydi. Tabiatshunoslik darslarida aqli zaif o‘quvchilar quyidagi bilimlarni egallaydilar:

— o'quvchilar tirik va jonsiz tabiat — suv, havo, foydali qazilmalar hamda o'simlik, hayvon, odam tanasining tuzilishi va hayoti to'g'risidagi bilimlar;

— tabiiy hodisalar: yomg'ir, qor, shamol, bulut, tuman, fasllar haqida aqli zaif bolalarga to'g'ri tushunchalarni shakllantirish;

— tabiatga to'g'ri, ongli munosabatda bo'lish hislarini tarbiyalash;

— aqli zaif bolalarda o'simliklar, hayvonlarni parvarish qilish malakalarini shakllantirish;

— sog'liqni saqlash, mustahkamlashga oid odatlarni tarkib toptirish.

Tabiatshunoslik darslari keng ko'rgazmali qurollar, rasmiy materiallar, rangli va rangsiz jadvallardan foydalangan holda olib boriladi.

4. Geografiya. Yordamchi maktablarning V, VIII sinflarida geografiya fani o'qitiladi. Geografiya darslari orqali ilmiy, tarbiyaviy ishlar va tuzatish ishlari amalga oshiriladi. Aqli zaif o'quvchilarga yer yuzining tuzilish shakllari, xarita, yerdagi suv, iqlim, o'simliklar va hayvonot dunyosi, kishilarning yaratuvchanlik mehnatiga oid ma'lumotlar beriladi. To'g'ri tashkil qilingan darslar orqali bolalarda qiziquvchanlikni, tabiat hodisalarini kuzatish odatlarini, taqqoslash malakalarini, tabiat hodisalarini o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

5. Tarix. Yordamchi maktablarda tarix darslarini o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchilarda Vatanni sevish va vatanparvarlik hislarini tarbiyalashdan iborat.

Yordamchi maktablarda mamlakat tarixidan chuqur, keng bilimlar berilmaydi, balki epizodik tarzda asosiy voqealar, mavzular beriladi. Aqli zaif o'quvchilarga ko'p millatli respublika xalqlarining inqilobiy, qahramonlik, mehnat yantuqlari tarbiyaviy yo'nalishda tushuntiriladi.

Tarix darslarining asosiy vazifalaridan yana biri o'quvchilarda davlat qonunlariga, yashash-turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalashdir.

6. Jismoniy tarbiya. Jismoniy tarbiya yordamchi maktablardagi butun o'quv-tarbiyaviy ishlarning asosiy qismi bo'lib, aqli zaif o'quvchilarni atroflicha garmonik shakllantirishga xizmat qiladi, ularning sog'liqlarini mustahkamlaydi, jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarni to'g'rilaydi, harakat sistemasini yaxshilaydi.

Shu sababli jismoniy tarbiya darslari 8 yil davom etadi. Aksariyat hollarda aqli zaif bolalarda jismoniy kamchiliklar uchraydi. Boshlang'ich sinflardagi ritmika darslari, undan so'ng jismoniy tarbiya darslarida aqli zaif bolalarning bilish faoliyatlariga ijobiy ta'sir etuvchi mashqlar tizimi keng o'rinn oladi.

7. Qo'l mehnati. Yordamchi maktab boshlang'ich sinflarida olib boriladigan qo'l mehnati umumiy va xususiy vazifalarni hal etadi. Qo'l mehnati darslariga quyidagi talablar qo'yildi:

a) dars qat'iy rejalashtirilgan bo'lishi kerak. Ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish zarur;

b) darslar o'ziga xos bo'lib, darsning asosiy qismida amaliy ishlar, mehnat harakatlari bo'lishi kerak;

d) dars yaxshi ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak, asboblar sozlangan va sifatli bo'lishi lozim;

e) qo'l mehnati darslari orqali bolalarning mayda qo'l harakatlari yaxshilanishi va ular kasbiy mehnat darslariga tayyorlanishi kerak.

8. Ashula darslari orqali aqli zaif bolalar estetik jihatdan tarbiyalab boriladi. Atrof-muhitdagi, hayotdagи go'zallikni sezа bilish, uni idrok etish, tasavvur qilish, tushunish aqli zaif bolalarga juda ko'p narsa beradi.

Yordamchi maktabdagи mehnat ta'limi va tarbiyasi bir sistemadan iborat bo'lib, uning bo'g'irlari bir-biri bilan mustahkam bog'langan, bir-birini to'ldiradi va taqozo qiladi. Mehnat ta'limining quyidagi bosqichlari mayjud: qo'l mehnati (1-3-sinf), umumtexnika mehnati (4-sinf). Maktab ustaxonasi bazasidagi mehnat. Bu mehnat kasbkorlikka yo'naltiradi: kasbkorlik mehnat ta'limi (5-9-sinflar), ishlab chiqarish ta'limi.

9. Yordamchi maktablarda kasbiy mehnat darslari yuqori sinflarda o'quv rejasining asosiy qismini egallaydi. Buning sababi bor, albatta. Maktabni bitirayotgan o'quvchi bevosita ishlab chiqarishga, zavod, fabrikalarga, hayotga yo'llanma olayotganligi sababli yuqori sinflarda haftasiga bu mehnat turiga VI—IX sinflarda 10-12 soat, ba'zan undan ham ortiq vaqt beriladi.

Aqli zaif o'quvchilarga duradgorlik, chilangularlik, bichish-tikish ishlari, qishloq xo'jaligiga oid ish turlari o'rgatib boriladi.

Mehnat ta'limi aqli zaif bolalarda nazarly bilimlarning o'zlashtirilishiga, ularning jismoniy rivojlanishlariga, bevosita hayotlarini boshlab yuborishlariga juda katta yordam beradi.

Savollar

1. Ijtimoiy tarbiya nima?
2. Nuqsonli bolalarning qanday toifalari mavjud?
3. Yordamchi mакtabning umumiy va xususiy vazifalari nimalar-dan iborat?
4. Respublikada nuqsonli bolalarga qanday yordam turlari tashkil etilgan?

2.3. Ta’lim-tarbiya, rivojlantirish va tuzatish ishlari yagona korreksion pedagogik jarayon sifatida

Inson o‘zining butun umri davomida o‘zgarib turadi. Bu o‘zgarish turli shaklda, mazmunda, ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Chuqr, keng o‘zgarishlar bolalik davrida yuz beradi. Bu davrda shaxsnинг jismoniy, ma’naviy sifatlari samarali ravishda rivojlanadi. Insonning ruhiy, jismoniy rivojlanishi qonuniy jarayon bo‘lib, shaxsnинг turli faoliyat jarayonlarida shakllanadi.

Bolalar va o‘smirlarning rivojlanishi o‘z ichiga ham jismoniy holatlarni, ham ruhiy jarayonlarni oladi. Inson biologik mavjudot bo‘lganligi sababli tabiatning qonunlari unga ham taalluqlidir. Ammo bu qonunlar boshqa jonli mavjudotlardan ko‘ra insonga boshqacharoq ta’sir etadi.

Boshqa jonli mavjudotlar tashqi muhitga moslashib, o‘zlarining hayot kechirishlari uchun tayyor narsalardan foydalansa, inson jamiyatda yashar ekan, kerakli narsalarni o‘zi ishlab chiqaradi. Shaxsnинг rivojlanishi, kamolot darajasiga yetishi masalasiga turli asrlarda, turli g‘oyalar bilan qurollangan olimlar, faylasuflar, psixologlar turlicha yondashganlar. Ingliz faylasufi Djon Lokk fikricha, jamiyatda kishilarning rivojlanishida yetakchi omil — muhitdir.

Amerikalik psixolog E. Torndayk fikricha, bola genlarning maxsus zaryadlangan batareyasidir. Bu batareya o‘zgarmas bo‘lib, bolaning faqat jismoniy rivojlanish holatinigina belgilab qolmasdan, balki aqliy sifatlarini ham belgilaydi.

Psixologiya fanidan ma’lumki, shaxsnинг faoliyati uning rivojlanishida asos hisoblanadi.

Insonlar tashqi olamni, atrof-muhitni o'zgartirib borish bilan birga o'zlarini ham o'zgartirib boradilar. Bu fikr faoliyatning roliga ham tegishlidir.

Turli-tuman, faol faoliyat jarayonida insonlarning barcha imkoniyatlari rivojlanib va ijobjiy hayot tajribalari to'planib boradi. O'sib kelayotgan kishi dunyoni chuqurqoq, to'laroq bilib boradi. Ikkinchi tomonidan, inson o'z faoliyati bilan atrof-muhitga ta'sir etadi. Muayyan shaxs boshqa odamlarga, narsalarga, voqealarga o'z munosabatini bildirib, rivojlanib boradi.

O'quvchilarning barcha faoliyat turlarida rivojlantiruvchi xarakterdagi omillar mavjud.

Barcha faoliyat mazmun-mohiyati bolalarning dunyoqarashlarini boyitib borishga xizmat qiladi. Shu asosda bolalarning bilish jarayonlari o'sib, rivojlanib boradi va shunga imkoniyat yuzaga keladi. Har qanday faoliyat, agar u pedagogik nuqtayi nazardan to'g'ri tashkil qilinsa, shaxsning aqliy va irodaviy sifatlarining rivojlanishiga ijobjiy ta'sir etadi. Inson o'z faoliyatini rejalaشتiradi, o'z oldiga maqsad qo'yadi, oxirgi natija ustida bosh qotiradi, materialllar tanlaydi. Bu jarayonlarda inson faqatgina harakat qilib qolmasdan, mumkin qadar mukammal usullarni qidiradi, ijodiy yondashadi.

Faoliyat natijasi baho bilan bog'lanadi hamda namuna bilan taqqoslaniladi, tahlil qilinadi. Faoliyatni tashkil etish qanchalik yuqori darajada bo'lsa, bu faoliyat shaxs kamolotiga shunchalik katta ta'sir etadi. Barcha faoliyat turlarida intilish, motivlar katta rol o'ynaydi. Shu motiv asesida o'quvchi o'z faoliyatiga turlicha munosabatda bo'ladi. Motivlar bolada faoliyatga nisbatan qiziqish yoki befarqlikni yuzaga keltiradi. Shu asosda bola rivojiga ham turlicha ta'sir etadi. Bolalardagi faoliyatga bo'lgan motivlar turli-tumandir. O'quvchi faoliyatini bir necha motivlar asosida tashkil etishi mumkin. Qiziqish, javobgarlik, jamoadagi hayot, ijtimoiy motivlar shular jumlasiga kiradi. Faoliyatdagi motivlar unga ma'lum yo'nalish beradi. Bu narsa shaxsning rivoji uchun katta ahamiyatga ega. Faoliyat usullarini, yo'llarini egallash va ularni rivojlantirish ham shaxsning rivojiga ijobjiy ta'sir etadi. O'quvchilar turli ko'nikma, malakalarini egallash bilan birga o'z faoliyatlarini takomillashtirib boradilar. Ko'nikma, malaka, odatlarni takomillashtirish irodaviy sifatlarning ham rivojlanishiga yordam beradi. Xullas, faoliyatda yaxshi natijalarga erishish uchun shaxs turli hissiy holatlarga tushadi. Bu esa, o'z

navbatida, shaxsiy sifatlarning o'sishiga olib keladi. O'quvchining rivojlanib borishi jarayonida faoliyat ham o'zgarib boradi. Agar bolalardagi faoliyat dastlab tahlil asosida amalga oshgan bo'lsa, borgan sari mustaqil xarakter kasb etib boradi. Shaxsnинг rivojlanishi davomida, tajribalarning ortishi asosida faoliyat o'ziga xos xarakter kasb etadiki, bunda shaxs mustaqil, original yo'llarni qidirib topa boshlaydi. Bunday faoliyatda faqatgina shaxsnинг umumiy xususiyatlari ochilmasdan, balki xususiy, individual tomonlarining ochilishi, namoyon bo'lishi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

O'yin jarayonida yordamchi mактаб o'quvchilar harakat yo'llarini egallab boradilar. O'quvchilar o'yin jarayonida «davolaydi», «jang qiladi», «quradi», «otda uloq chopadi». Bunday holatlar o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga cheksiz samarali ta'sir etadi.

Jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlarda qoidalar borligi tufayli, ular yordamchi mактаб o'quvchilarida iroda shakllanishiga yordam beradi. Chunki bunda o'quvchilar qo'yilgan maqsadga ko'ra qiyinchiliklarni bartaraf etish asosida harakat qiladi. Shaxsiy intilishlari borgan sari ko'pchilik manfaatiga bo'ysunib boradi. Aqliy o'yinlar qiziquvchanlikni, chiniqishni, fahm-farosatni rivojlantiradi. Aqliy jarayonlar: taqqoslash, farqlash, umumlashtirishlarning mashq qilinishiga imkoniyat yaratadi. Jismoniy o'yinlar yordamchi mактаб o'quvchilarini faqatgina jismoniy rivojlantirib qolmasdan, balki ularda iroda, kuzatish, tahlil qilish kabi fikrlash jarayonlarining rivojiga ham ijobjiy ta'sir etadi. O'quvchilar rivojidagi asosiy faoliyat turi — bu mакtablardagi izchil, rejali tashkil etiladigan o'qishdir. Bilim egallah yoki o'quvchining bilish faoliyati o'zining yetakchi faoliyat ekanligi bilan boshqa har qanday faoliyat turlaridan ajralib turadi. Bu ishlar reja asosida, maqsadga muvofiq, o'qituvchi-defektolog rahbarligida amalga oshirilganligi sababli, shaxsnинг rivoji beqiyos katta ahamiyatga ega. Ta'lim jarayoni, sinfdan sinfga o'tgan sari o'quvchilar dunyoqarashlari u yoki bu muayyan bilimlar doirasi bilan qurollantirib boriladi. Shular asosida o'quvchilar bilim doiralari kengayib, chuqurlashib boradi. Hissiyot va sezgirlik ham takomillashib boradi. Ta'lim mazmunining borgan sari murakkablashib borishi o'quvchini yuqori pog'onaga olib chiqadi. Barcha ta'lim yillarida o'quvchilar juda katta rivojlanish yo'lini bosib o'tadilar. Sinfdan sinfga o'tgan sari o'quvchilar ijodiy faoliyatga layoqatli bo'lib boradilar. O'quvchilarning bolalik, o'smirlik

davrlaridagi mehnat faoliyati ularning rivojlanishida yetakchi omillardan biridir.

Mehnat faoliyatida aqli zaif o‘quvchilar ma’naviy va jismoniy jihatdan rivojlanib boradilar. Mehnat turlari o‘zgaradi, kengayadi, chuqurlashib boradi. Boshlang‘ich sinflardagi asosiy mehnat o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishdan iborat bo‘lib, yuqori sinflarda ijtimoiy foydali mehnat ishlab chiqarish mehnati bilan almashadi. O‘quvchilar rivoji uchun mehnatning mohiyati katta ahamiyatga ega. Mehnatni to‘g‘ri tashkil etish, uni ta’lim bilan bog‘lab olib borish asosida o‘quvchilar juda ko‘p bilimlarni egallab oladilar. Bolaning ijtimoiy tajribasi ortadi, ishlab chiqarish jarayonlaridagi munosabatlarni tushunadi, mehnatning hayotda tutgan o‘rnini anglay boradi. Mehnat ko‘nikmasi, malakalarini egallab borish jarayonida shaxs ham aqliy, ham jismoniy jihatdan rivojlanishda davom etadi. Mehnat jarayonidagi intellektual, ijodiy rivojlanish ulardagi tushunchalarni chuqurlashtiradi va aniqlashtirib boradi. Ba’zi pedagogik adabiyotlarda ijtimoiy faoliyat, badiiy faoliyat, sport faoliyati va boshqa faoliyat turlari haqida ham bilimlar beriladi. Faoliyatda yordamchi maktab o‘quvchilarining ongi shakllanib boradi. Faoliyat jarayonida shaxs atroficha rivojlanib, tashqi olamga munosabatlari rivojlanadi.

Maktabdagi boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va kamol toptirib borish jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish, ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ladi. Ta’lim bilan tarbiya yordamchi maktab o‘quvchilarining ruhiy kamol topib borishi uchun beldgilab beruvchi ahamiyatga egadir. Kamol topib borishidagi olg‘a harakat esa o‘z navbatida ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim jarayonida oligofrenopedagog shuni e’tiborga olishi muhimki, o‘quvchilar o‘zlariga taklif qilingan ba’zi vazifalarini tamomila mustaqil ravishda bajara oladilar, bunda ular ruhiy kamol topib borishning shu paytgacha erishilgan darajasiga, amaliy tajriba, biliim, malaka va ko‘nikmalarga tayanadilar. Shu bilan birga biror murakkabroq topshiriqni mustaqil ravishda eplay olmagan o‘quvchi uni o‘qituvchi yordamida (uning qo‘srimcha tushuntirishlar ko‘rsatishi, yordamchi savollar berishi va hokazo yo‘l bilan) bajara oladi. Bu hol yordamchi maktab o‘quvchisi imkoniyatining go‘yoki ikkilamchi darjasini bo‘lib, u psixologiyada «eng yaqin kamol topish zonasini» deb ataladi. Shu sababli ta’lim jarayoni aktual kamol topish

darajasigagina, ya'ni shu paytgacha tarkib topgan ruhiy funksiyalargagina tayanib qolmay, balki uning potensial imkoniyatlariga, tarkib topayotgan funksiyalariga va eng yaqin kamol topish zonasining aktual kamol topishiga yordam berishi lozim. Bu holda bola bugun yordam olgan taqdirdagina bajara oladigan vazifani ertaga mustaqil bajara oladigan bo'lishi zarur. Ta'lim bilan kamol topish o'rtaqidagi ichki bog'lanish ham xuddi ana shundadir. Binobarin, ta'lim bilan kamol topib borish o'rtaqidagi aloqa g'oyat xilma-xil bo'lsa ham, bolaning kamol topib borishining eng yaqin zonasiga tayanuvchi ta'limgina chinakam samarali bo'lishi mumkin.

Kamol topib borishning ikki darajasi haqida, ta'lim bilan kamol topib borishning bog'lanishi to'g'risidagi hamda to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'limning kamol topib borishidan va uning tugallangan bosqichlariga tayanib qolmay, balki tarkib topayotgan ruhiy funksiyalarga ham tayanishi kerakligi haqidagi ana shu asosiy nazariy qoidalar yordamchi maktab ta'limi va amaliyoti uchun g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Bu qoidalarni atoqli psixologlardan biri L. S. Vigotskiy o'rtaqa tashladi. L. S. Vigotskiyning nazariy qoidalari professor L. V. Zankov rahbarligida amalga oshirilgan bir qator tajriba ishlari bilan tasdiqlandi. Tadqiqotchilar ta'lim jarayonini shunday tashkil etdilarki, o'quvchilarning kamol topib borishining umumiy darajasini maksimal oshirishni maqsad qilib qo'ydilar. Bunda ular kuzatishning shunday shakllarini rivojlantirishga alohida e'tibor berdilarki, ularni amalga oshirishda tafakkur jarayonlari voqelikni real hissiy bilih bilan, idrok etiladigan narsalardagi tafovutlar va o'xhash tomonlarni aniqlash bilan bog'landi. Bolada mavhum tafakkurni rivojlantirishga, ya'ni bola atrofidagi voqelik obyektlari o'rtaqidagi bog'lanishlar va munosabatlarni o'rnatishga, shuningdek, bolada amaliy harakatlarni tarkib toptirishga alohida e'tibor beriladi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday sharoitlarda bolalar o'zlarining umumiy kamol topishlarida ancha yuqori darajaga erishadilar, bilimlarni, malaka va ko'nikmalarini ancha muvaffaqiyatli egallaydilar. Eng yaqin kamol topish zonasi hamda ta'lim bilan kamol topishning o'zaro bog'lanishi haqidagi nazariyaga asoslanib, Rossiyada umumiy va pedagogik psixologiya institutidagi kichik yoshdagi bolalar psixologiyasi laboratoriysi (D. B. Elkoni, V.V.Davidov) o'quvchilar kamol topib borishining umumiy darajasini

oshirish, mavhum tafakkurni rivojlantirish, o'qish, yozish va hisoblashni uqib olish negizidagi asosiy qonuniyatlarni anglab olish qobiliyatini tarkib toptirish maqsadida eksperimental o'qitishni tashkil qildi. Bu tizim mualliflari o'qishni o'rgatish jarayonida o'quvchilarga avvalo so'zdagи tovush shaklining qurilish tamoyilini ochib berish kerak deb hisoblaydilar. Bu bilan o'qish va yozish vaqtida ana shu ko'nikmani to'g'ri vujudga keltirish uchun sharoit yaratiladi. Tashkil qilingan ta'lrim o'quvchilarining kamol topishiga yordam beradi hamda o'quvchilarga o'quv materialini yuksakroq darajada muvaffaqiyatlari va sifatli o'zlashtirishga imkon yaratadi. N.A.Menchinskaya, S.T.Kostyuk, B.G.Ananyev va boshqa psixologlarning ko'pgina ishlari ta'lrim va kamol toptirish masalalariga bag'ishlangan. Bu ishlarning hammasi yordamchi maktab o'quvchilariga ta'lrim berishda muayyan bir usullarning qo'llanishi o'quvchilarining kamol topish jarayonida g'oyat katta ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi. Ta'lrim va kamol topish jarayonining bir-birini taqozo qilishi va bir-biri bilan mustahkam bog'lanishi kamol topishida biron-bir kamchiligi bo'lgan o'quvchilarini o'qitishdagi qiyinchiliklar tahlil qilinganda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. Ta'lrim berish jarayonida yordamchi maktab o'quvchilarida vujudga keladigan qiyinchiliklar turli xil bo'lganligi sababli, pedagog bu qiyinchiliklar nimalardan kelib chiqqanligini va ularning ichki mohiyati qanday ekanligini anglab olishi zarur. Chunonchi, biror bosqichda yozuvni bilib olmaydigan o'quvchilar bo'lishi mumkin. Bunga qulog'ining og'irroq bo'lib qolishi, yordamchi maktab o'quvchilarida so'zni tovush jihatidan tahlil qilishni o'zlashtirishga xalaqit beradigan fonematik idrokning yetarli darajada o'sib yetmaganligi, parishonxotirlik, fazo tasavvurining buzilishi bu xil yozuvni qiyinlashtiradi, chunki alifbo harflarini idrok etish yordamchi maktab o'quvchisidan fazoni aniq tasavvur qilishni talab qiladi, chunki harflar muayyan fazo shakliga ega bo'ladi va boshqa bir qancha narsalar sabab bo'lishi mumkin. O'quvchining xulq-atvori va faoliyatidagi kamchiliklarning har qanday turini dinamik tahlil qilish oligofrenopedagogga o'quvchining kamol topishidagi kamchiliklarning xarakterini anglab olishga hamda tuzatish-tarbiyaviy ishlarning turli usullarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Ta'lrim – maxsus tashkil etilgan bilish faoliyati bo'lib, kishilik jamiyatining turli sohadagi tajribalarini egallashga xizmat qiladi.

Bularga ilm-fan, texnika, g'oya, axloq, madaniyat, san'at kirdi. Maxsus maktablardagi ta'lim ham yosh avlodga shular haqida qisqa, oddiy tasvvurlar berishdan iborat bo'libgina qolmay, balki shu bilimlar orqali mavhum tafakkur jarayonlarini tuzatishdan iborat. Tafakkur jarayonlariga tahlil, sintez, umumlashtirish, induksiya-deduksiya, taqqoslash, xulosalash va boshqa fikriy jarayonlar kirdi. Aqli zaif o'quvchilarda ba'zan turli analizatorlar ham u yoki bu darajada buzilgan bo'ladi. Bizlarga ma'lumki, har qanday bilish jonli mushohadadan boshlanadi. Jonli mushohada deganda dastlabki ma'lumotlarni eshitishimiz, ko'rshimiz, teri sezgilarimiz, hid bilish, ta'm bilish organlarining ishtirokida qabul qilishimiz tushuniladi. Qabul qilingan ma'lumot bosh miyada qayta ishlanib, undan amaliyotga yo'llanadi. Aqli zaif bolalar uchun eng katta nuqson hisoblangan tafakkur jarayonlarining buzilganligi sababli, butun to'g'rilash, yumshatish, tuzatish ishlari shunga qaratiladi.

Korreksiya (tuzatish) so'zining mohiyati, mazmuni haqida pedagogik asarlarda qator tushunchalar berilgan. Defektologiya lug'a-tida u «aqli zaif bolalardagi ruhiy va jismoniy kamchiliklarni tugatish, oldini olishga, yumshatishga qaratilgan pedagogik ishlar sistemasidir», deb ko'rsatiladi. Italiyalik defektolog M. Montessori (1870—1952) aqli zaiflikda asosiy ishni sezgilarni tarbiyalashdan boshlash lozim deb ko'rsatadi. Uning fikricha, maxsus mashqlar orqali bolalar sezgilarini rivojlantirish asosida tafakkurni tuzatish mumkin ekan.

Uning fikrlarini davom ettirgan belgiyalik O. Dekroli (1871 — 1933) tuzatish ishlarini 3 bo'g'inga ajratgan: Birinchgi bo'g'inda sezgilarga ta'sir etish, ikkinchi bo'g'inda tafakkurga ta'sir etish va uchinchi bo'g'inda esa harakatlarga ta'sir etish.

Montessori va Dekroli qarashlarining cheklanganligi (ular ruhiyatning bir butunligini to'la tushunmadilar), torligi rus olimlaridan A. N. Graborovning pedagogik tizimida birmuncha yuqori bosqichga ko'tarildi. Bu tizim asosida o'yin, qo'l mehnati, fanlarni o'qitish, ekskursiyalar yotadi. Ammo uning tizimida ham sensor tarbiya batamom barham topmadi. Bu uning tizimidagi kamchilik edi.

X.S.Zamskiyning ko'rsatishicha, yordamchi maktablardagi tuzatish ishlari birinchi navbatda ayrim kamchiliklarni to'g'rilashga qaratilmasdan, balki shaxsni bir butunligicha: bilimlarni egallash,

malaka, ko'nikmalar bilan qurollantirish, mehnat faoliyatiga tayyorlashni ham o'z ichiga olishi lozim.

G.M.Dulnevning yozishicha: «Mehnat ta'limi bilan aqli zaif o'quvchilar kamchiliklarini tuzatish orasidagi bog'liqlik, normal o'quvchilar ta'limi va rivojlanishi orasidagi bog'liqlikka o'xshaydi. Bu yerda ta'lim faol maqsadga muvofiq tuzatish-rivojlanantirish shaklida tashkil qilinsa, umumiy kamolotda yetakchi vazifani o'taydi».

Bu masalani to'g'ri tushunish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. J.I.Shifning ta'kidlashicha: «Aqli zaif bolalar ta'limi tuzatuvchi-tarbiyaviy xarakter kasb etishi lozim».

Rus oligofrenopedagogikasida tuzatuvchi ta'lim nazariyasi G.M.Dulnev nomi bilan chambarchas bog'liq. Defektologiya ilmiy tekshirish institutida yordamchi maktablar sektorini 20 yildan ortiq boshqargan G.M.Dulnev yordamchi maktablar uchun o'quv rejasи, dasturlari, darsliklari, uslubiy adabiyotlar yaratish ishlariga bevosita rahbarlik qildi va bunda faol ishtirok etdi. Rus olimlaridan G.M.Dulnev tomonidan yordamchi maktablarda mehnat ta'limi masalalari, ayniqsa, atroficha, keng o'rghanildi. Yordamchi maktablarning maxsus tuzatish vazifalariga to'xtalib, ta'lim o'quvchilarda umumlashtirishni o'stirishi, nutqning yetakchilik rolini rivojlanantirish asosida ularning umumiy aqliy rivojlanishini ta'minlashi lozim deb ko'rsatadi muallif. U yordamchi makablarda ta'lim ishlar bilan tuzatish ishlari har doim organik birlikda olib borilishini ta'kidlaydi. «Bilim egallashdagi har bir yangi qadam nuqsonli bola shaxsini tuzatish, aqliy rivojlanishini ta'minlashdagi yangi qadam bo'lishi kerak», -deb ko'rsatadi u.

Savol va topshiriqlar

1. Korreksiya (tuzatish) so'zining mohiyati, mazmuni haqida so'zlab bering.
2. Inson faoliyati deganda nimalarni tushunasiz?
3. Aqli zaif o'quvchilar shaxsini shakllantirishda mehnat faoliyatining o'mi va ahamiyati haqida so'zlab bering.

3-bob. YORDAMCHI MAKTABLARDA TA'LIM NAZARIYASI

3.1. Yordamchi maktablarda ta'lim jarayonining mohiyati

Oligofrenodidaktika umumiyligi pedagogikaning bir qismi bo'lib, aqli zaif bolalar ta'limga tarbiyasining nazariyasini ishlab chiqadi. Xususan, yordamchi maktablarda ta'limga mazmuni, jarayoni, tamoyillari, usullari hamda pedagogik jarayonni uyushtirish shakllari haqida batafsil ma'lumotlar beradi. Uning nazariyasi asoslari inson shaxsi, uning taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlarga asoslanadi. Oligofrenodidaktika umumiyligi didaktika bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning umumiyligi qonun-qoidalaridan foydalangan holda, umumiyligi, pedagogik, maxsus psixologiya yutuqlariga ham asoslanadi. Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy haqli ravishda: «Odamlarda ta'limga tarbiyaga qobiliyat turlichadir. Birovlar bu qobiliyatga ega, boshqalar esa mahrum. Mahrumlar mashaqqatli mehnat, intilish, tirishqoqlik orqali tushunishlari mumkin», degan. Demak, nuqsonlilar ta'limga tarbiyasida shaxsni o'rganib, muomala qilish zarur.

Yordamchi maktablar didaktikasining uzviy bo'limlardan biri — ta'limga tarbiyoning mohiyatidir. Didaktika ta'limga tarbiyoning umumiyligi qonuniyatlarini o'rganuvchi qismidir. Didaktika grekcha so'z bo'lib, «didayko» - o'qitish, «didaskal» - o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan. Didaktikaning so'zma-so'z tarjimasi ta'limga tarbiyoning nazariyasini anglatadi. Ta'limga tarbiyasi ta'limga tarbiyoning tushunchasi va mohiyatini o'z ichiga oladi. Didaktika o'z oldiga o'qitishning maxsus maktab o'quvchilarini har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiyligi qonuniyatlarini bilib olish vazifasini qo'yadi.

Demak, didaktika oligofrenopedagogikaning «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish» va «qanday o'qitish» kabi savollariga javob izlaydi. Umumiyligi didaktika esa, o'z navbatida, ayrim o'quv fanlariga oid usullar bilan juda mustahkam bog'ianadi. Shu usullar ma'lumotiga tayanib, o'qitishning umumiyligi qonuniyatlarini yechib beradi va ayni vaqtida har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiyligi asos bo'lib xizmat qiladi.

Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi buyuk sharq mutafakkirlari o'zlarining saboqlarga boy asarlarida tibbiyat, mantiq, musiqa, adabiyot, geografiya, riyoziyot kabi ilmlarni o'qitish vositasida avlodlarni tarbiyalash g'oyasini ilgari surdilar.

Sharqu g'arb ma'naviy merosi asosida pedagogik jarayondan markaziy o'rinni olgan didaktika doimo rivojlanib boradi. Didaktika rivecjiga buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ham katta hissa qo'shdi. Uning «Buyuk didaktika» asari o'qitishni rivojlantirishga g'oyat katta ta'sir ko'rsatadi va muallimlarning doimiy foydalanadigan manbai bo'lib qoldi.

O'zbekistonda didaktik ta'llimning tashkil topishi va rivojlanishi Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Muhammad Rasuliy, Qori Niyoziy, O.Sharafiddinov kabi pedagog va olimlarning nomlari bilan bog'liq. Ajodolarimiz tajribasini o'rgangan holda hozirgi kun davr talabi pedagogik faoliyatdagi formalizmning qat'yan oldini olish, e'qitishdagi muqobil usul, shakl va vositalarni tanlash, pedagogika fani yutuqlarini amalga dadillik bilan joriy etish zarur. Usuliy ishlarni jonlantirish, olegofrenopedagoglarning tashabbuslarini, ijodiy izlanishlarini har tomonlarna rivojlantirish, ilg'or pedagogik tajribani chuqur o'rganish lozim.

Bilish jarayoni kabi ta'llim jarayonida ham aqli zaif o'quvchi bilmaslikdan bilishga, noto'g'ri va noaniq bilimdan tobora to'liqroq va aniqroq bilishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Bu jarayonda hissiy idrok etish ham, abstrakt tafakkur ham, amalda sinab ko'rish ham bo'ladi.

Muayyan fan va hodisalar obyektiv dunyonni bilish jarayonidan o'rganiladi va ularning tashqi, ichki mohiyatini o'zlashtirish jarayonida omillar aniqlanadi. Mushohada, tasavvur va abstrakt tafakkurga asoslanib faktlar umumlashtiriladi va ilmiy xulosalar chiqarish natijasida nazariyalar, qonunlar va kategoriylar yaratiladi.

Bilish ikki qismga — nazariya va amaliyotga bo'linadi. Nazariya yangi biliimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariya har xil shakllarda ifodalanadi: aksioma, teorema, qonun, formula, grafik raqam va boshqalar. Nazariyada g'oya shakllanadi.

Amaliyot bilimlarning haqiqiyligini ko'rsatuvchi mezondir. Kuzatish, tajriba, o'zgartirish, yaratish — bular amaliyot shakllariga kiradi.

Amaliyot ijtimoiy hayot va tabiatning murakkab jarayonlarini bilib olishda inson uchun asosiy quroq bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Marsni kuzatish jarayonini olaylik. Jonli mushohada va abstrakt tafakkur yordamida uchirilgan ilmiy apparatlar orqali olingan materiallarni laboratoriyalarda tekshirish amaliyotga kiradi.

Ilmiy bilishning vazifasi hodisalarning mohiyatini, ularning rivojlanish qonunlarini ochishdangina emas, balki biron-bir qonunning qay tariqa namoyon bo'lish sabablarini ham ko'rsatib berishdan iborat.

Ilmiy omil ilmiy bilishning elementi bo'lib, kuzatish, tajriba asosida qo'lga kiritiladi, omilga asoslanmagan bilimning ilmiy qiymati, amaliy faoliyat uchun ahamiyati ham bo'lmaydi. Shuning uchun ilmiy bilimning, fanning asosiy maqsadi omillar asosida yotgan umumiyoq bog'lanishlarni, qonuniyatlarni topish, ularning mohiyatini bilishdir.

Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkirlari bilishda omillarni o'rganishga katta ahamiyat bergenlar. Abu Nasr Forobiy (873–950) diqqatni bilimning dementi bo'lgan omillariga qaratgan. Uning fikricha, bilimning asosini mavjud narsa va hodisalarni inkor ettiradigan omillar tashkil etadi. Ibn Sino (980–1037) kasallikni vujudga keltiruvchi obyektiv omillarni o'rganish asosida kasalliklarni turlarga ajratadi va davolash usullarini ishlab chiqadi. Beruniy (973–1048) tabiat hodisalari sirlarini o'rganishda tajriba, empirik kuzatish va ular asosida olingan faktlarga asoslanadi. **Bilish sezishdan boshlanadi.** Sezish tevarak-atrofdagi voqelik, narsa va hodisalarning sezgi organlarimizga ta'sir etuvchi ayrim sifatlarining ongimizda aks etishidir. Bunda har bir organ, har bir analizator, I.P.Pavlov ta'kidlab o'tganidek, narsalarning ayrim sifatlarini idrok qiladi: biz sovuq, iliqlik, sho'r, oq, qora, achchiq, chuchuk va hokazolarni ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm-maza bilish, teri-muskul-harakat va organik sezgi organlarining faoliyati orqali bilib olamiz.

Sezgilar – olam haqidagi barcha bilimlarimizning manbaidir. Ammo ilmiy asosda bilishda, masalan, olimning bilishi bilan o'quvchining bilish faoliyati o'rtasida umumiylik bo'lsa ham, lekin ular bir-biridan farq qiladi. Olimlar olamni bilib olib, ilgari fanga ma'lum bo'lmagan yangi haqiqatlarni kashf etadilar, yangi qonuniyatlarni aniqlaydilar va shu tariqa fanning ilgarilab ketishiga imkon yaratadilar. O'quvchilar esa ta'lim jarayonida olam haqidagi

elementar bilimlarni bilib olib, o'zлari uchun ilgari noma'lum bo'lgan, biron fan kashf etgan va odamlarning ijtimoiy-tarixiy amaliyotida tekshirib ko'rilgan yangi bir narsani bilib oladilar.

Yordamchi maktabda o'qituvchi o'quvchilarni olimlar tomonidan yaratilgan bu qonunni bilishga to'g'ri, yengillashtirilgan, vaqt jihatidan qisqa yo'ldan olib boradi. O'qitish natijalari bilim sifatida, aqli zaif o'quvchilarning korreksion rivojlanish darajasida o'z aksini topadi.

Yordamchi maktablardagi ta'limning umumiy vazifalari maxsus aqli zaif o'quvchilar nuqsonlarini tuzatish vazifasi bilan birga olib boriladi. Shu sababli yordamchi maktablardagi ta'limning asosiy, zaruriy xususiyatlaridan biri uning nuqsonni tuzatishga yo'nalgaligida bo'lsa, ikkinchi xususiyati, uni bolaning rivojlanishida o'ziga xos amalga oshirilishidadir. Bosh miya faoliyatları nuqsoni asosida aqli zaif o'quvchilarning rivojlanishi cheklangan bo'lib, orqada qoladi. Aqli zaif bola kam rivojlangan emas, balki o'zgacha rivojlangan va rivojlanayotgan boladir. Uning rivojlanishi nuqsonli ravishda boradi. Aqli zaif o'quvchining bilish faolligi va mustaqilligi birmuncha past bo'ladi. Bu kamchilik ularning bevosita hayot qiyinchiliklariga duch kelganlarida namoyon bo'ladi.

Me'yordagi ommaviy maktab o'quvchilari ma'lum voqealarga e'tibor berib, ular haqida bilim egallasalar, aqli zaif o'quvchilar bu voqealarni sezmasliklari mumkin. Bu holat yordamchi maktablardagi ta'lim-tarbiyani qiyinlashtiradi. Shunga qaramasdan yordamchi maktab ta'limi bu o'quvchilarda faoliyik, mustaqillikni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Shuni ta'kidlash lozim, aqli zaif o'quvchilardagi bузilган ruhiy jarayonlar maxsus pedagogik ta'sirga yaxshi beriladi. Shu sababli, yordamchi maktab ta'limida «yaqin orada rivojlanishi mumkin bo'lgan zona»ga alohida e'tibor beriladi.

Yordamchi maktab ta'limining uchinchi, o'ziga xos xususiyati *ta'lim nazariyasi* va *amaliyotining bog'liqligidir*. Yordamchi maktab ta'limi amaliy yo'nalishga ega. Amaliyot aqli zaif bolalarning nazariy bilimlarni egallashlariga yordam beradi hamda ular amaliyotda qatnashib, nazariy bilimlarini oshirib boradilar.

Yordamchi maktab ta'limining ko'rgazmaliligi ham uning o'ziga xos tomonlaridan biridir. A. N. Graborovning ta'kidlashicha, ko'rgazmalilik idrok, tasavvurlarni tuzatishga imkoniyat yaratadi. Shu sababli, yordamchi maktablarda ko'rgazmalilik ommaviy

maktablardan ko‘ra ko‘proq ahamiyatga ega. Aqli zaif bolalar ko‘rgazmalilik orqali narsa, voqealarning ichki mohiyatini tushunib boradilar. Shu orqali ularning fikrlash faoliyatlari to‘g‘rilanib boradi. Har qanday ko‘rgazmalilik bilan maqsadga erishish mumkin emas. Balki ko‘rgazmalilik og‘zaki tushuntirishlar bilan birga namoyish etilsagina kutilgan maqsadga erishish mumkin. Shundagina aqli zaif bolalarning nutqi, tafakkuri birga rivojlanib boradi, yordamchi maktab ta’limi jarayonida aqli zaif bolalarning faol emasligini, mustaqil ishlashlarining chegaralanganligini e’tiborda tutish kerak. Aqli zaif bolalardagi bu xususiyatlar yordamchi maktab ta’limining oxirida ham normal tengdoshlariga yeta olmaydi. Shu sababli, yordamchi maktabning barcha sinflarida o‘qituvchilar bu kamchiliklarni bartaraf etib borishlari kerak.

Shuni ta’kidlash joizki, yordamchi maktab ta’limi sodda, o‘quvchilar nuqsoniga moslab, mexanik tarzda berilishi tufayli har doim ham kutilganday natija bermaydi. Shu sababli, o‘quv materiallari qancha sodda bo‘lmasin, albatta ongli, tushunarli tarzda berilishi kerak. Shundagina bu ta’lim o‘quvchilar nuqsonlarini tuzatishga yordam beradi. Yordamchi maktabdagagi ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo‘lib, o‘quvchilarning bilim olishiga, zarur ko‘nikma va malakalar hosil qilishlariga xizmat ko‘rsatadi.

Tarbiyalovchi ta’lim tamoyillari

Ta’lim tarbiyalovchi xarakterda bo‘lishi kerak. Didaktikaning birinchi talabi shundan iborat. Bu tamoyil didaktik tamoyillarning butun sistemasini birlashtiradi va ularni yordamchi maktabning asosiy vazifasi – aqli zaif bolalarni atroflicha tarbiyalashning muayyan yo‘lini amalga oshirishga yo‘naltiradi. Boshqacha aytganda, bu tamoyil maktablarda butun ta’limning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilaydi.

Yordamchi maktab sharoitida bu tamoyil qay darajada va qaysi yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin? Yordamchi maktab tajribasi, bu maktab o‘quvchilarida mehnatga to‘g‘ri munosabatni, o‘quv va mehnat jamoasida fe’l-atvor malakasini tarbiyalash va shuning asosida Vatan oldidagi o‘z burchining zaruriy tasavvurlarini vujudga keltirish mumkinligini ishonarli ravishda ko‘rsatdi.

Yordamchi maktab respublikamizning ijtimoiy hayoti bilan turli yo‘llar orqali mahkam bog‘langan, shu asosda aqli zaif o‘quvchilarning tushunishlari mumkin bo‘lgan ijtimoiy foydali tadbirlarni uyushtirish imkoniyatiga ega. Yordamchi maktab

o‘quvchilari, masalan, jamoa xo‘jaligiga yordam berish ishlarida: hosilni yig‘ishtirish, yosh chorva mollarini boqish va boshqa ishlarda zo‘r qiziqish bilan qatnashadilar.

Maktabdagagi bolalar tashkiloti maktabda va sinfda navbatchilikni muvaffaqiyatli tashkil qiladi, turli yig‘inlar va boshqa shunga o‘xshash tadbirlarni uyuştiradi.

Bolalarni atroflicha tarbiyalashda o‘quv materiali mazmunining g‘oyaviy yo‘nalishi katta ahamiyatga ega. Yordamchi maktab dasturi va darsliklari u yoki bu o‘quv materialining tushunarli bo‘lishini albatta nazarda tutadi. Biroq o‘qituvchi u yoki bu materialni rasmiy ravishda o‘tish yo‘lidan bormay, o‘quvchilar materialni qanchalik tushunib yetishlariga e’tibor berishi kerak. Bu borada Abu Nasr Forobiy inson aql-zakovati xususida fikr yuritib, quyidagi fikrlarni aytgan: «Bilim va o‘qishga muhabbat bo‘lsin, o‘rganmoqchi bo‘lgan bilimini charchashni sezmasdan osonlik bilan o‘zlashtira olsin» (Abu Nasr Forobiy, «Fozil odamlar shahri». Toshkent, 1993-yil). Forobiyning aynan shu fikrlari yordamchi maktab o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yordamchi maktab o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda mehnat ta’limi muhim omil hisoblanadi.

Bolalarni o‘quv ustaxonalarida o‘qitish jarayonidayoq ularda mehnatga va jamoat mulkiga nisbatan to‘g‘ri munosabat tarbiyalanadi. Maxsus o‘tkazilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, yordamchi maktab o‘quvchilarining ko‘pchiligi maktabni tugatib ketganlardan so‘ng ishlab chiqarish korxonalariga ishga joylashib, mehnatga nisbatan halol, jamoat mulkiga nisbatan ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lar ekanlar. Bu juda muhim, zero, ishlab chiqarish mehnatida qatnashish ta’siri ostida bu o‘quvchilar o‘z ishlarining jamoat uchun foyda keltirishini tushuna boshlaydilar va bu ularning umumiy kamolotiga samarali ta’sir etadi.

Shunday qilib, yordamchi maktab nuqsonli bolaning aqliy rivojlanishini yaxshilaydi, o‘quvchilarning ongida, xulqida, ish faoliyatida shunday xarakterni vujudga keltiradiki, bu xususiyatlar o‘quvchilarni jamiyat uchun foydali fuqarolar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi.

O‘qitishda bilimlarni puxta o‘zlashtirish tamoyili

Ta‘lim berish bilim, ko‘nikma va malakalarning mustahkam o‘zlashtirilishini ta‘minlashi kerak. Bu didaktik tamoyilning mohiyati shundan iboratki, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar xotirada saqlanishi lozim. Bu esa istalgan bir paytda xotirada saqlangan bilimlardan zarur ma’lumotlar olish va ularni o‘zlarining o‘quv va mehnat faoliyatida qo‘llash imkoniyatini beradi.

O‘tkazilgan ko‘pdan-ko‘p kuzatishlar va tajribalar (A.A.Smirnov, P.I.Zinchenko) shuni ko‘rsatadiki, esda olib qolish biron-bir faoliyatda ro‘y bergen vaqtlardagina eng samarali bo‘ladi.

Maxsus vositalar va usullarni (materialning ma’nosiga qarab guruhlarga ajratish, ma’no jihatidan muhim joylarni belgilash, reja tuzish, esga tushirish bilan almashib turadigan unumli takrorlash va hokazo) qo‘llagan holda, esda olib qolish sohasidagi maxsus tashkiliy faoliyat bo‘lgan yodlash katta ahamiyatga ega. A.A.Smirnovning o‘tkazgan tajribalari shuni ko‘rsatadiki, masalan, matnni tuzib chiqilgan reja asosida yodlash rejaga asoslanmagan yodlashdan esda olib qolish tezligi jihatidan ham, esda saqlashning mustahkamligi jihatidan ham ikki baravar samaraliroq ekan.

Ma’lumki, o‘quv materialini ma’nosiga tushunib esda olib qolish faqat zarur bo‘libgina qolmasdan, shu bilan birga, mexanik esda olib qolishdan beqiyos darajada samaraliroqdir.

Shuning uchun yordamchi maktab o‘quvchilarining bilimlarini mustahkam o‘zlashtirishga erishishning muhim sharti o‘quv materialini ular tomonidan tushunilishini ta‘minlash hisoblanadi.

Bu tamoyil o‘quvchilar bilimlarni ongli, tushungan holda, bilim, malaka, ko‘nikmalarni uzoq muddat esda saqlashlarini talab qiladi.

O‘quvchilar materialni tugatilgan, ma’noli bo‘laklarga bo‘lib, muhimini ajratib, to‘g‘ri yodlashga ham o‘rgatilishi kerak. Bunda yordamchi maktab o‘quvchilarining bir xususiyatini hisobga olish lozim. Ular muhimini ajratolmay, odatda, butun o‘quv materialini so‘zma-so‘z yodlab oladilar. So‘zma-so‘z yodlash ayrim hollarda, masalan, ta’riflar, ifodalar, she‘r va shunga o‘xshash materiallarni yodlashda zarur. Biroq o‘quv materialining katta qismi so‘zma-so‘z yodlab olishni emas, balki uning ma’nosini o‘z so‘zlarini bilan to‘g‘ri aytib berishni talab qiladi. Bu jihatdan yordamchi maktab o‘quvchilari doimiy yordamga muhtojdirlar.

Yordamchi maktab o‘qituvchisining ishida bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishini ta’minlashda o‘quv materialini mustahkamlashga katta o‘rin ajratilishi kerak.

K.D.Ushinskiy bu borada shunday degan: «Materialni o‘z vaqtida mustahkamlamagan o‘qituvchi yukni yomon bog‘lab, aravani quvgan aravakashga o‘xshaydi. Orqasiga qaramay, aravani quvib manzilga yetib kelgach, aravada hech narsa qolmagan bo‘ladi. U esa uzoq masofani bosib o‘tganligidan xursand bo‘ladi. O‘qituvchi ham o‘z vaqtida materialni mustahkamlab bormasa, fan o‘qib tugatilgach, bolaning ongida hech narsa qolmasligi mumkin».

Yangi material o‘tilganda o‘quvchilarga mashqlar berib, ularning yangi materialni qanday tushunganliklarini aniqlash mumkin.

Mustahkamlashning zarur sharti mashq qilish bo‘lib, u quyidagi shartlarni bajarishi lozim:

1) mashqning maqsadini, qanday natijalarga erishish kerakligini aniq bilish zarur;

2) bajarishning aniqligini maxsus kuzatish, agar xatolar paydo bo‘lsa, ular mustahkamlanib qolmasligi uchun mashqlarning natijalarini kuzatish, o‘z harakatlarini namuna bilan taqqoslash, qanday muvaffaqiyatlarga erishib bo‘linganini anglash va kamchiliklarga barham berish uchun ulardan qaysilariga diqqatni qaratish kerakligini bilib olish zarur;

3) o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan mashqlar soni malaka hosil qilish uchun yetarli bo‘lishi lozim. Agar mashqlar yetarli bo‘lmasa, malaka mustahkamlanmaydi, balki tezroq barbod bo‘ladi. Mashqlar haddan tashqari ko‘p bo‘lsa, odatda, o‘quvchilar bu mashqlarga salbiy munosabatda bo‘la boshlaydilar va bu hol e’tiborni pasaytiradi, natijada malakaning hosil bo‘lishiga xalaqit beradi;

4) mashqlar bir xildagi harakatlarning tasodifiy yig‘indisidan iborat bo‘lmasligi lozim. Bu mashqlarga muayyan tizim, ularning aniq rejulashtirilgan to‘g‘ri izchilligi, xususan, ularning sekin-asos murakkablashib borishi asos qilib olinishi kerak;

5) mashqlar bir qadar uzoq muddatga uzilib qolmasligi lozim, aks holda malaka sekin hosil bo‘ladi yoki agar u mustahkamlanmagan bo‘lsa, tezda susayib qoladi, torinozlanadi, hatto umuman yo‘qolib ketadi.

O'tilganlarni takrorlashni to'g'ri tashkil qilish bilim va malakalarni mustahkamlab o'zlashtirilishiga erishishning juda muhim sharti hisoblanadi. Esdan chiqarishning oldini olish maqsadida, albatta sistemali ravishda o'tilganlarni takrorlab turish kerak.

Shuning uchun yordamchi mактабда har bir darsda dasturning mavzu bo'limi tugatilgandan so'ng, yilning oxirida takrorlash olib boriladi. Kelgusi sinfda ham o'quv yili boshidan oldingi sinfda o'tilganlar takrorlanadi.

Biroq aqli zaif bolalarni o'qitishda muhimi faqat o'tilganlarni qayta-qayta takrorlash emas, balki o'tilgan material bilan yangi material orasidagi bog'lanishni o'quvchilarning tushunishlariga harakat qilmoq kerak. Shu sababli o'qituvchi yangi materialni o'rGANISHGA oid dars rejasini tuzar ekan, u albatta, bog'lanishni aniqlash zarur bo'lган o'tilgan materialni takrorlashni ham nazarda tutishi, ularning o'xshashlik tomoni va farqini ko'rsatishi zarur.

Takrorlashga quyidagi talablar qo'yiladi:

- 1) takrorlash maqsadga muvosiq bo'lishi kerak;
- 2) takrorlashda shunday obyekt, tajribalarni ko'rsatish kerakki, unda takrorlanayotgan bilimlar, xususiyatlar, ma'lumotlar yangidan namoyon bo'lsin;
- 3) takrorlanayotgan materialga shunday savollar kiritish lozimki, bu savollar amaliy masalalarни yechishni talab qilsin va takrorlanayotgan materialning yangi tomonlarini o'chib bersin.

Nihoyat, o'rGANILAYOTGAN materialga nisbatan o'quvchilarda qiziqish uyg'otish, bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkam o'zlashtirishga erishishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Shunday qilib, o'qitishda mustahkamlilik tamoyili didaktikaning butun tamoyillar tizimi bilan o'zaro bog'liq bo'ladi va yordamchi mактабning zarur qismini tashkil qiladi.

O'qitishda mustaqillik tamoyili

Bilim va malakalarni ongli o'zlashtirish o'quvchilarning o'zidan ma'lum darajada mustaqillik va faoliyoti talab qiladi. Shunga qaramay, aqli zaif o'quvchilar ko'pincha yuqori sinflarda ham hatto sedda savollarning yechimini to'g'ri tanlashda qiynaladilar.

Yordamchi mактаб bolani o'qitishda dastlab shunday sharoit yaratadiki, bu vaqtida o'quvchilarga doimo yordam beriladi. Qisqasi, o'quv topshiriqlarini bajarishdagi mustaqillik o'quvchilar tomonidan ancha chegaralangan bo'ladi. Shunga qaramay, bolalarni

quyi sinflardan boshlabishlarni mustaqil bajarishga odatlantirmoq zarur. Bu mustaqillik dastlab to'liq bo'lmasin, biroq o'quvchiga yordamni uyshtirish shunday bo'lishi kerakki, unda ishni mustaqil bajarishga xohish va o'z kuchiga ishonch hissi tarbiyalansin. O'quvchi ustidan haddan tashqari uzoq va doimiy homiylik qilisunda o'ziga ishonmaslik, jur'atsizlik hissini mustahkamlashi mumkin.

Shuning uchun aqli zaif bolalar bilan ishlashning birinchi bosqichida ularga mustaqil bajarish uchun yetarli darajada tushunarli bo'lgan yoki arzimas yordam bilan bajariladigan (o'quv qo'llanmalarini tarqatish, sinfdagi gullarni parvarish qilish, sinfni tozalash, maktab yer maydonida ishslash va hokazo) uncha murakkab bo'lman topshiriqlarni berish maqsadga muvofiqdir.

Dastlab o'qituvchi o'quvchilarga mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berishda, bir tomonidan, har bir topshiriqning tushunarli bo'lishini, ikkinchi tomonidan, ularning murakkabligini asta-sekin orttirib borishini ta'minlovchi tartibni atroflicha o'ylab ko'radi. So'ngra bolalarni navbatdagi topshiriqni bajarishga tayyorlaydigan barcha ishlar o'qituvchi rahbarligi ostida olib boriladi.

Nihoyat, o'qituvchi muayyan vazifa bilan birga olib boriladigan ko'rsatma mazmunini shaklini o'ylab chiqadi va aniqlab oladi, har bir o'quvchining ishini kuzatib boradi.

Ishda mustaqillikni tarkib toptirishda og'zaki ko'rsatma berishning to'g'ri va tushunarligi muhim vosita hisoblanadi. O'quvchiga topshiriq beribgina qolmay, bu vazifani qanday izchillikda bajarish kerakligini qayta-qayta takrorlash ham kerak.

Bu bosqichning hammasida bolalarga mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqqa asos qilib olinadigan o'quv materialining xususiyatini va sinf o'quvchilari ilgari egallashlari kerak bo'lgan bilimlar zaxirasini e'tiborga olibgina qolmay, balki har bir o'quvchining tayyorgarligidagi individual farqlarni ham, har bir bolaning ruhiy xususiyatlarini ham hisobga olish kerak bo'ladi.

Shunday qilib, o'qituvchining rahbarligi ishning tayyorgarlik bosqichida uning turli tomonlarini qamrab olishi kerak, ammo oxirgi maqsad bolalarni topshiriqni o'qituvchining bevosita yordamisiz tamomila mustaqil bajarishga tayyorlashdan iborat bo'lishi lozim.

O'quvchilar mustaqil ishining asosiy xususiyati shundan iboratki, bunday ish jarayonida o'quvchi biror vaqt oralig'ida o'zi odatlanib qolgan o'qituvchi tomonidan beriladigan yordamdan

mahrum bo'lib, o'z oldiga qo'yilgan vazifa bilan yakkama-yakka qoladi. Topshiriqni bajarishda o'quvchi o'z kuchini sinab ko'rishi va o'z bilimlariga, mahoratiga, malakasiga, ziyrakligiga suyanib, uni yechish yo'lini topishi va yechishni kutilgan natijaga olib kelishi kerak.

Yangi mavzu o'tilganda o'quvchilarga mashqlar berib, uni qanday tushunganliklarini aniqlab olish mumkin, so'ngra bilimni qo'llashiga doir vazifa berib, o'quvchilarga tegishli mahorat hosil bo'lganmi-yo'qmi, tekshirib ko'rish lozim.

Bu ish tizimida xato qilib qo'yish ehtimoli tug'ilishi bilanoq o'quvchining ishini to'xtatish, xatoning yuz berish ehtimoliga qarshi hamisha va hamma hollarda o'qituvchi tomonidan chora ko'riliши, oldi olinishi muhim omil hisoblanadi.

Bilim va malakalarni o'zlashtirishdagi onglilik ularda amaliy faoliyatda faol qo'llash ko'nikmasini nazarda tutadi. Ma'lumki, aqli zaif o'quvchilar, bir tomonidan, maktabda olgan bilimlarini ko'pincha tezda esdan chiqarsalar, ikkinchi tomonidan, ulardan foydalanishda qiynaladilar. Masalan, o'quvchilar sinfda yetarli darajada savodli bayon yozishlari, biroq o'rtoqlariga xat yoki ishga qabul qilish haqida arizani mutlaqo savodsiz yozishlari mumkin. Aqli zaif bolalarning bu xususiyatlarini yo'qotish uchun mакtab ta'limni shunday uyuşhtiradiki, bilim va malakalarni amaliy faoliyatda qo'llashlari uchun o'quvchilarni yetarli mashqlar bilan ta'minlaydi.

Ona tili va matematika dasturlarida ishga oid xat, tortish, o'Ichash, turli savdoga oid hisoblashlar va hokazo mashqlar ko'zda tutilgan. Bu mashqlar bilim va malakanı birmuncha ongli va mustahkam o'zlashtirishni ta'minlaydi.

O'quvchilar bilimlarining qo'llanishini to'g'ri tashkil qilish ularda mustaqil, unumli fikrlesh mahoratini hosil qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bilimlarning qo'llanishi o'qitish natijasiga ijobiy ta'sir etuvchi muhim bir omil hisoblanadiki, u o'qituvchining o'quvchi o'quv materialini qanday o'zlashtirayotganini doimo nazorat qilib turishiga imkoniyat yaratadi.

O'qitishda tushunarilik tamoyili

Bu tamoyilning mohiyati ta'limning mazmuni, hajmi hamda usullari bolalarning yoshi va aqliy rivojlanishiga, ularning bilim saviyasiga to'g'ri kelishidan iborat.

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga berilayotgan hamma material ular uchun tushunarli va ularning kuchi yetadigan bo‘lishi lozim. Faqat shu holdagini material ongli ravishda o‘zlashtirilishi mumkin.

O‘quvchilarning tushunishlari uchun qiyin material nari borsa ular tomonidan mexanik tarzda yodlab olinishi mumkin. Bu narsa bolani o‘qitish, tarbiyalash va kamol toptirishda foydali natijalar bermasligi bilan bir qatorda, aksincha, katta zarar keltiradi, ya’ni materialning ma’nosiga tushunmagan holda uni esda saqlash odatini tarbiyalaydi.

Yordamchi mактабда o‘quv materialining tushunarlilikiga amal qilish, ayniqsa, muhim. Shuning uchun yordamchi mактаб ta’lim mazmunini aks ettiruvchi dastur va darsliklarda bu didaktik qoidalar o‘z aksini topgan.

Berilgan bilimlarni tushunmaslik o‘quvchilarning unga bo‘lgan qiziqishini pasaytiradi, ko‘pincha shu o‘quv fanigagina emas, balki umuman o‘qishga nisbatan ham salbiy munosabatda bo‘lishga olib keladi. Odatda, ommaviy mактабда uzoq vaqt bo‘lgan aqli zaif o‘quvchida shunday hol yuz beradi.

Ma’lumki, ommaviy mактабда har bir sinf bir xil yoshga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan, ya’ni o‘quv materialni o‘zlashtirishda taxminan bir xil imkoniyatga ega bo‘lgan bolalar bilan butlangan bo‘ladi.

Aqli zaif bolaga ta’lim berishda yosh xususiyatlарини hisobga оlish va tushunarlilik tamoyilini amalga oshirish ancha boshqacha yuz beradi.

Eng avvalo, aqli zaiflik shakli va darajasiga qarab farq qilinishi tufayli bir sinfining o‘zida yoshi har xil bo‘lgan o‘quvchilar bo‘lishi mumkin. Yoshi har xil bo‘lgan o‘quvchilar bilim va malakalarni o‘zlashtirishda taxminan bir xil imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Demak, yordamchi mактаб sinflarini butlashda bolalarning yoshiga aniq rioya qilish amalda mumkin bo‘lmaydi.

So‘ngra har bir sinfda shunday bolalar borki, ularda aqli zaiflik turli sabablar orqали kelib chiqqan bo‘lib, o‘ziga xos tipologik xususiyatlarga ega. Yordamchi mактабдаги ta’lim jarayonida shu tipologik xususiyatlарни hisobga оlish o‘qituvchi ishidagi majburiy talablardan biridir.

Keyingi vaqtarda yordamchi maktablarda aqli zaiflik darjasini ancha og'irroq bo'lgan bolalar uchun alohida maxsus sinflar tashkil qilingan. Bu sinflarda bilim va malakalar hajmi hamda o'qitish tezligi yordamchi maktabning odatdagisi sinflariga qaraganda birmuncha pasaytirilgan, osonlashtirilgan bo'ladi.

Shunday qilib, yordamchi maktab aqli zaif bolalarga ta'lim berishda faqat ularning yoshini emas, balki tipologik xususiyatlarini ham hisobga olishi kerak.

O'qituvchi o'quv materialini tanlaganda uning bolalarga tushunarli bo'lishiga alohida e'tibor berishi kerak. Bundan berilayotgan material nihoyatda sodda bo'lishi kerak, degan xulosa chiqarilmaydi. Bolalar uchun tushunarli bo'lgan yangi bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni vujudga keltirish ham ayrim qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'ladi.

O'zlashtirishda o'quvchi qiyinchiliklarga duch kelishi zarur. Ta'lim jarayonida qiyinchilik bilan to'qnashish, uni yengish pedagogik jarayonning asosiy rag'batlantiruvchi omili bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida oligofrenopedagog shuni e'tiborga olishi muhimki, bolalar o'zlariga taklif qilingan ba'zi vazifalarni tamomila mustaqil ravishda bajara oladilar, bunda ular psixologik jihatdan rivojlanib borishning shu paytgacha erishilgan darajasiga, amaliy tajriba, malaka va ko'nikmalarga tayanadilar. Shu bilan birga, biror murakkabroq topshiriqni mustaqil ravishda eplay olmagan bola uni pedagog yordamida (uning qo'shimcha tushuntirishi, ko'rsatishi, yordamchi savollar berishi va hokazo yo'l bilan) bajara oladi. Bu hol bola imkoniyatining go'yoki ikkilamchi darjasasi bo'lib, psixologiyada «eng yaqin kamol topish zonasasi» deb ataladi. Shu sababli ta'lim jarayoni faol kamol topish darajasigagina, ya'ni shu paytgacha tarkib topgan psixik funksiyalargagina tayanib qolmay, balki bolaning potensial imkoniyatlariga, tarkib topayotgan funksiyalariga, ya'ni «eng yaqin kamol topish zonasasi»ga ham tayanishi lozim.

Ta'limda uchraydigan qiyinchiliklarni chetlab o'tish emas, balki o'quvchi imkonlari boricha bu qiyinchiliklarni o'qituvchi rahbarligida yengib borishi kerak.

Shunday qilib, yordamchi maktab ta'limida tushunarilik tamoyilini amalga oshirishda o'qituvchidan o'quvchilarning yoshi, tipologik va individual xususiyatlarini hisobga olish talab qilinadi.

O‘qitishda onglilik va faollik tamoyili

O‘qitishda onglilik va faollik tamoyili didaktikaning juda muhim tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyilning mohiyati quyidagilardan iborat: ta‘lim o‘quv materialini o‘quvchilarning to‘liq tushunishlarini ta‘minlashi, o‘quvchilarda o‘qishga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalashi kerak, fikrlashda ijod va mustaqillikni hamda o‘zlashtirilgan bilim, malakalarni amaliy faoliyatda faol ishlatish ko‘nikmasini rivojlantirmog‘i kerak.

Yordamchi maktab sharoitida bu tamoyilni amalga oshirishda o‘qituvchi bir qator qiyinchiliklarga dueh keladi. Aqli zaif o‘quvchilar bilan tegishli tarbiyaviy ish olib borilmasa, ularda o‘qishga nisbatan qiziqish paydo bo‘lmaydi. Bu narsa ko‘pincha ommaviy maktab sharoitida o‘qishda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi natijasida bo‘ladi, buning ustiga, o‘qishga nisbatan salbiy munosabat ozmi-ko‘pmi yangi sharoitda ham birmuncha vaqtgacha saqlanishi mumkin.

Aqli zaif bolalarda o‘qishning ijtimoiy ahamiyatini tushunish qiyinlashgan va bu ancha kech hosil bo‘ladi. Bundan mutlaqo aniqki, ta‘limda onglilik tamoyilini amalga oshirishda o‘qituvchining birdan-bir vazifasi aqli zaif bolalarda o‘quv ishiga to‘g‘ri munosabatni tarbiyalashdan iborat bo‘ladi.

Aqli zaif bola o‘zi uchun yengilroq bo‘lgan ta‘lim olish sharoitida o‘quv materialini tushunishi bilanoq o‘qishda shubhasiz muvaffaqiyatlar paydo bo‘la boshlaydi va bu muvaffaqiyatlar ta‘siri ostida undagi o‘qishga bo‘lgan salbiy munosabat tez fursatda yo‘qotiladi.

O‘quvchilarning o‘qishga munosabati ularning o‘qishga diqqat-e’tibor berishida, unga qiziqishida, qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun ioda kuchini sarflashga tayyor ekanligida ifodalanadi. Bundan tashqari, o‘qishga ijobiy munosabatda bo‘lish o‘quvchiga o‘rganayotgan materialning ahamiyati qanchalik tushunarli ekanligiga, bu material o‘quvchi qiziqishlarining o‘qishdan tashqari sohasi bilan qanchalik bog‘liqligiga, o‘qituvchi materialni qanchalik aniq va tushunarli qilib bayon etishiga, o‘qitish usullarining qanchalik xilmoxil ekanligiga bog‘liq.

Yordamchi maktab o‘quvchilarida o‘qishga mumkin qadar ertaroq qiziqish uyg‘otish kerak. Buning uchun o‘quvchilarning o‘quv materialini to‘liq tushunib o‘zlashtirishlari talab qilinadi. Bu jihatdan yordamchi maktab o‘qituvchisi ayrim qiyinchiliklarga duch keladi.

Chunki debil bolalar uchun aqliy yetishmovchilik xarakterlidir. Bu hol ularda mavhum umumlashtirishga, atrof-muhitdagি narsalar bilan voqealar o‘rtasidagi aloqa va bog‘liqlikni belgilay olmaslikka, tahlil va tasnif qilishga qobiliyat yo‘qligida ifodalanadi.

Ma’lumki, o‘quv materialining ma’nosiga tushunib, esda olib qolish faqat zarur bo‘libgina qolmasdan, shu bilan birga mexanik esda olib qolishdan beqiyos darajada samaraliroqdir. O‘quvchi ulg‘ayib borgani sari uning aqliy faoliyatida ma’nosiga tushunib esda olib qolish tobora katta rol o‘ynaydi. Oligofrenopedagogika aqli zaif bolalar bilish faoliyatining rivojlanishini to‘xtatuvchi rasmiy mashq qildirish asosida o‘qitish g‘oyasini keskin rad qildi hamda ta’limning onglilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiqligini va mumkinligini isbot etdi.

Shuning uchun aqli zaif bolaning mактабга birinchi kelgan kunidan boshlab aqliy rivojlanishini ta’minalash kerak. Bunga erishish uchun yordamchi mактабда har qanday fanni o‘qitish shunday tuzilishi kerakki, o‘quvchilarga ayrim bilim va malakalarni beribgina qolmay, ularning aqliy kamchiliklarini ham to‘g‘rilashi lozim. Bunda bolaning tahlil va tasnif qilish qobiliyatini asta-sekin vujudga keltiruvchi korreksion pedagogik usullar muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchi biror umumiy qoidani, kuzatilgan dalillarni va hodisalarни taqqoslash hamda ulardagi o‘xshashlik va farqlarni yuzaga chiqarish tufayli o‘ziashadiradi.

Taqqoslash har qanday tafakkurning asosidir. O‘qish va o‘rganishdagi muvaffaqiyat ko‘p jihatdan aqli zaif o‘quvchilarda taqqoslash, ya’ni o‘xshashlik va farqni ko‘ra bilish malakasining paydo bo‘lganligiga bog‘liqidir.

Psixologlarimiz o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish uchun taqqoslashning (qiylash va qarama-qarshi qo‘yishning) rolini batafsil aniqlab chiqdilar. Bu usul umumlashtiruvchi tafakkur uchun g‘oyat samaralidir. Shu sababli «farqini top» mazmunidagi topshiriqlar darslarda keng qo‘llanishi lozim.

O‘quvchi bayon qilinayotgan yangi materialni passiv holda idrok qilmasdan, balki faol yondashgan holdagini berilgan bilimni to‘la, ongli ravishda o‘zlashtirishi mumkin. Masalan, biror arifmetik qonunni— qo‘sishning o‘rin almashtirish qonunini untumlashtirishda o‘quvchi qo‘sishga doir misollar yechib, qo‘siluvchilarning o‘rnini almashtirishdan yig‘indining o‘zgarmasligini o‘zi topsa, shundagina

umumlashtirishni ongli ravishda o'zlashtirgan bo'ladi. Faollik faqat fikrlesh jarayoniga (o'quvchidan tushunchalar va qonunlarni o'zlashtirish talab qilinganda) ijobiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki esda qoldirish jarayoniga ham ta'sir etadi, eslab qolish qobiliyatini oshiradi, unumli esda qoldirishga yordam beradi.

Aqli zaif o'quvchi o'qish jarayonida faol bo'lishi uchun, birinchidan, unga o'qish ishida mustaqillikka keng imkoniyat berish, ikkinchidan, uni unumli usul bilan mustaqil ishlashga o'rgatish, uchinchidan, mustaqillikka intilishni uyg'otish kerak, buning uchun unda tegishli ichki intilishni vujudga keltirish, ya'ni berilgan vazifalarni yechishga mustaqil, ijodiy tarzda harakat qilishini hayotiy muhim vazifaga aylantirish lozim.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinish turibdiki, ta'limda onglilik va faollik tamoyili aqli zaif boladagi nuqsonlarni tuzatishda yordamchi maktab ta'limining zaruriy sharti hisoblanadi.

Frontal ishga diflerensiatsiyalashgan va individual yondashishni birga qo'shib olib borish tamoyili

Yordamchi maktabda o'quv materialining tushunarligi o'quvchilarning individual imkoniyatlari bilan ham belgilanadi. Yordamchi maktab o'qituvchisiga ma'lumki, bolaning debilligi (yordamchi maktab bolalar tarkibining asosiy qismi) bola o'quv imkoniyatlarining ko'rsatkichi hisoblanmaydi. Bu holda ham u ozmi yoki ko'pmi orqada qolishi mumkin. Bu hol hissiy-irodaviy sohaning turli kamchiliklari, jismoniy yetishmovchiliklar va hokazolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, yordamchi maktabda bir sinfning o'zida bir-biridan keskin farq qiluvchi o'quvchilar uchraydi. Ulardan ba'zilari o'quv materialini oson, ba'zilari esa juda qiyinchilik bilan o'zlashtiradi. O'qish jarayonida ba'zilari juda faol, ba'zilari passiv bo'ladi va hokazo. Buning hammasi bir xil tashxisiga ega bo'lgan bolalarining o'quv materialini tushunishida farq bo'lishiga sabab bo'ladi.

O'qish jarayonida namoyon bo'ladigan o'quvchilarning individual-psixofizik farqlarini hisobga olgandagina o'qitishda yuqori natijalarga erishish mumkin.

Individual yondashish o'qitishning barcha bosqichlarida: yangi materialni o'tishda, mustaqil mashqlarni tashkil etishda,

o'quvchilardan so'rashda va uy vazifalarini topshirish muntazam ravishda olib borilgandagina samarali bo'lishi mumkin.

Ta'lilda individual yondashishning ma'nosi shuki, u o'quvchining individual-psixologik xususiyatlari tayanadi, ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda ish ko'rildi. Shu nuqtayi nazardan sinfdagi oddiy ta'limgan qanday ro'y berishini ko'rib chiqamiz. Yordamchi maktablarning sinflari, yuqorida aytib o'tilganidek, tayyorgarlik darajasi bir xil bo'limgan, o'zlashtirishi turlicha, o'qishga munosabati har xil, qiziqishlari xilma-xil bo'lgan.

Ishni shunday tashkil etganda o'quvchilarning muntazam o'sishi, bir guruhdan ikkinchi guruhga — kuchsizroq guruhdan kuchliroq guruhga o'tishlari uchun yetarlicha sharoit tug'iladi.

Ishning bunday tizimining tarbiyaviy tomoni juda muhim ahamiyatga ega. O'quv materialini bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar o'z kuchlariga qarab topshiriq olganlari tufayli, yuqori baho olish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularning o'qish faoliyatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatib, yanada yaxshi o'qish hissini uyg'otadi.

Differensiatsiyalashgan yondashish, bir tomondan, o'qituvchining maqsadga muvofiq ishlashi uchun zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan, har bir o'quvchining bilish imkoniyatlaridan yetarli ravishda foydalanish va ularni rivojlantirish uchun zarurdir.

Ilmiylik, tizimlilik va izchillik tamoyillari

Didaktikada bu tamoyilning mohiyati quyidagilar bilan aniqlanadi: maktabda o'quvchilarga beriladigan hamma bilimlar zamonaviy fan rivojiga muvofiq ravishda, muayyan tizimda va izchillikda har bir fan ichida va imkonli boricha ayrim fanlar o'rtasida o'zaro bog'lanish saqlangan holda beriladi.

Yordamchi maktabning xususiyati shundan iboratki, o'quvchilar maktabda ta'lim olish davrida eng oddiy bilimlar hajmiga ega bo'ladilar. Biroq bilimlarning oddiyligi ularning ilmiy bo'lishi shart emas, degan ma'noni bildirmaydi. O'quvchilarda dunyoqarashni to'g'ri shakllantirish kerak.

Yordamchi maktab sharoitida tizimlilik va izchillik tameyilini amalga oshirish katta ahamiyatga ega, chunki aqli zaif bolalar normal kamol topib borayotgan o'z tengdoshlaridan tevarak-atrofdagi hayotiy hodisa va narsalar ustida kamroq tushuncha va tasavvurlar zaxirasiga egalar. Ularda egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimga solish qobiliyati birmuncha yomonroq rivojlangan. Olingan bilimlar uzuq-

yuluq o'zlashtirilishi bilan xarakterlanadi. Ular egallagan bilimlar bilan yangidan egallanayotgan bilimlar q'rtasidagi bog'lanishni aniqlashda ancha qiynaladilar.

O'qituvchi oligofren bolaning bilish faoliyatidagi bu xususiyatni hisobga olib, o'quv materialini tasniflashi va tizimga solishi kerak, o'quv materialini tanlash va undan foydalanish tartibi o'qitilayotgan fanning mazmuniga muvofiq bo'lishi lozim.

Yordamchi maktabda ilmiylik, tizimlilik va izchillik tamoyilini amalga oshirishda muayyan shartlarga amal qilish zarur. Bularning birinchisi o'quvchilarda tasavvur va tushunchalarini vujudga keltirish, ularda maktabgacha hosil qilingan noaniq va noto'g'ri tasavvur va tushunchalarini tuzatish hisoblanadi.

Ikkinchi sharti—bilimlarni o'zlashtirish maktab o'quvchilarining amaliy faoliyati bilan bog'langan bo'lishi kerak.

Har qanday ilmiy bilimlar bir tekisda tuzilgan tizimni tashkil qiladi. Shuning uchun ta'lilda ilmiylik tamoyili tizimlilik bilan mahkam bog'langan. Yordamchi maktab ham bolalarni o'qitish jarayonini ayrim fanlardan bilimlar tizimini ularga ma'lum qilish asosida tuzadi. Masalan, matematika yoki ona tili, tabiatshunoslikdan o'quvchilarga berilayotgan bilimlar har bir fan ichida ma'lum darajada eng oddiy tushunchalar tizimiga mantiqiy bog'langan. Ta'lim berishda tizimlilik bilimlarni o'zlashtirishda muayyan izchillikni, ilgari o'zlashtirilgan material bilan o'zlashtirilayotgan material o'rtasidagi bog'lanishni talab qiladi. Pedagogika kursidan ma'lumki, o'qituvchi ishida tizimlilik va izchillik quyidagi qoidalan abstraktga, oddiydan murakkabga va ma'lumdan noma'lumga tomon borish bilan aniqlanadi.

Bilimlarni o'zlashtirish va malakalar hosil qilishda ulardan murakkabroqlarini o'zlashtirish uchun ularning asosini tashkil etuvchi yanada soddarroq bilimlarni egallash talab qilinadi.

Bilimlarni bir tekisda orttirish va chuqurlashtirish, nuqsonli bolalarning bilish imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadida material o'quv yillariga qat'iy taqsimlanadi. Bunda yangi materialni tushuntirishda o'quvchilar ko'rgan, eshitgan, bilganlariga asoslanishi zarur.

Ikkinchidan, aqli zaif o'quvchilarda muayyan tushuncha va malakalarni to'g'ri tashkil toptirish uchun material va vazifalarni shunday tanlash lozimki, bu tushuncha, malakalarning hamma asosiy

elementlarini oldin ishlab chiqish mumkin bo'lsin (masalan, harflarni yozishdan oldin ularning elementlari o'rganiladi).

O'qitishda ko'rgazmalilik tamoyili

Ta'limda ko'rgazmalilik tamoyilidan to'g'ri foydalanish bilim va malakalarni mustahkam va ongli o'zlashtirish shartlaridan hisoblanadi. Yordamchi makteblarning asosiy vazifalaridan biri borliqni bilishning birinchi pog'onasi bo'lgan bolalar sezgi tajribalarini vujudga keltirishdir.

Ko'rgazmalilik tamoyili yordamchi maktebda qo'llanishi jihatidan juda ham qimmatli va o'ziga xos tamoyillardan hisoblanadi.

Mantiqiy - abstrakt umumlashtirish haqiqatni hissiy idrok qilishdan boshlanadi. Bolaning hissiy tajribasi uni o'qitish asosida yotadi. Bola tomonidan haqiqatni bilishning birinchi bosqichi uning hissiy tajribasini to'g'ri uyuştirishdan iborat.

Oligofren bola o'z normal tengdoshidan ta'lim olishdagи xarakterli qiyinchiliklari bilangina emas, tevarak-atrof, dunyo haqidagi tasavvurlari, uni idrok etish xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

Oligofren bola maktebda ta'lim ola boshlagan paytda tevarak-atrofdagi narsa va voqealar haqidagi bilim va tasavvurlari nihoyatda kambag'al va tor doirada bo'ladi. Maktebning vazifasi bolalarning tushunishlari oson bo'lgan narsa va voqealar bilan bevosita tanishtirish orqali ularning tasavvurlar zaxirasini har taraflama kengaytirishdir.

Bunda bolalarni atrofdagi olam va odamlarning hayoti bilan tanishtirish uchun uyushtirilgan sayohatlar va yordamchi maktebning quyi sinflari uchun nazarda tutilgan fan darslari tizimi katta ahamiyatga ega. Bu darslarda tevarak-atrofdagi narsalar haqida yordamchi makteb o'quvchilarida to'g'ri, umumlashtirilgan tasavvurlar vujudga keladi.

Shuni nazarda tutish kerakki, aqli zaif o'quvchilarda, ayniqsa, kichik yoshdagilar murakkab, aniq narsalarni idrok qilishda ularni mustaqil ravishda qismlarga ajratish qobiliyatiga ega emaslar. Masalan, qush suratini muhokama qilayotib, o'quvchilar undan qismlarni (boshi, qanotlari, rangi, tumshug'ining xususiyati va hokazolarni) ajratolmaydi. Shuning uchun o'qituvchi yordamchi makteb o'quvchilarining idrok qilishini pedagogik jihatdan to'g'ri

uyushtirishi, idrok qilinayolgan obyektdan qismlarni ajratishda, taqqoslashda, tasvirlashda va hokazoda unga yordam berishi kerak.

Aqli zaif bolalarni o'qitishda ko'rgazmalilik tamoyilini amalga oshirishning keyingi bosqichi muayyan tafakkurdan mavhum tafakkurga to'g'ri o'tkazish yo'llini topish hisoblanadi. Bu masala o'quvchilarda nutqni o'stirish masalasi bilan bevosita bog'langan. Yordamchi maktab o'quvchilarida tafakkurning me'yorida rivojlanishi uchun narsa va hodisalarning ko'rgazmali tasvirlaridan tashqari, uning ongida hissiy idrok qilingan narsa va hodisalarning mohiyatini o'zida aks ettiradigan atamalar, so'zlar, jumlalarning mavjud bo'lishi zarur. Faqat til kishiga muayyan tafakkurdan mantiqiy mavhum tafakkurga o'tishga imkon beradi. Ko'p hollarda ko'rgazmalilik tafakkurning tayanchi vazifasini o'taydi.

Ko'rgazmalardan foydalanib, maktab, bir tomondan, o'quvchilarda tevarak-atrofdagi dunyo haqida aniq tasavvurlarni vujudga keltirishni ta'minlab borsa, ikkinchi tomondan, maktab bolalarni mavjud dunyoda kuzatilayotgan aloqa va munosabatlarni ifodalash uchun til vositalari (so'z, jumlalar va hokazolar)dan to'g'ri foydalanishga o'rgatishi kerak.

Bularning hammasi aqli zaif bola nutqi va tafakkurining yaxshi rivojlanishini ta'minlash uchun uni o'qitishda ko'rgazmalilik va so'z vositalaridan har bir dars, har bir o'quv mashg'ulotida maqsadga muvofiq ravishda qanday foydalanish kerakligini sinchiklab o'ylab ko'rishga yordamchi maktab o'qituvchisini majbur etadi.

Demak, ta'lif berishda ko'rgazmalilik o'quv materialini mustahkam va ongli o'zlashtirish shartlaridan biri, o'quvchilarning nutqi va tafakkurini tuzatish zaruriy shart hisoblanadi.

Yordamchi mакtab ta'lимida ko'rgazmalilik vositalaridan keng foydalanish bilan bir qatorda, ya'ni ularni ortiqcha qo'llash foydasiz bo'libgina qolmay, zararli ekanligini ham esda tutish kerak. Maktab tajribasida ko'rgazmali qurollardan noto'g'ri foydalanish holatlarini uchratib turamiz. Masalan, hech kerak bo'limgan holda ko'rgazmali qurol ishlatalidi, ba'zan esa ko'rgazmali qurol qo'yilgan o'quv maqsadiga to'g'ri kelmasdan, salbiy rol o'ynashi ham mumkin.

Yordamchi mакtabda pedagogikada ma'lum bo'lган hamma ko'rgazmali vositalardan foydalaniladi; natural ko'rgazmalilik, tasviriy ko'rgazmalilik, so'z ko'rgazmaliligi va ramziy ko'rgazmalilik. Bu o'rinda shuni e'tiborga olish kerakki, ko'rgazmalilik turli

shakllarda ifodalanishi mumkin: natural ko'rgazmalilik o'quvchilarning narsa va hodisalarni bevosita idrok qilishini nazarda tutadi, sinfda o'tkaziladigan tajribalar, sayohatlar ham shunga kiradi. Ko'rgazmali tasviriy vositalar – rasmlar, mulyajlar, diapositivlar, kinokartinalar yordamida amalga oshiriladi. Tasviriy vositalarning mazmuniga qarab ko'rgazmalilik haqiqiy, tasviriy va ramziy ko'rgazmalilikka (rasmlar, chizmalar, jadvallar, diagrammalar) bo'linadi. So'z ko'rgazmaliligi deganda, o'qituvchining o'quvchilarda muayyan tasavvurlarni uyg'otadigan yorqin, obrazli, jonli nutqi tushuniladi.

Modomiki yordamchi maktabda o'qitish davrida o'quvchilarning nutqi va tafakkuri aniq - obrazlidan, mavhum - mantiqiyga qarab rivojlanar ekan, turli ko'rgazmali vositalarni qo'llash ham shunchalik o'zgarib boradi. Quyi sinflarda narsalar, hodisalar haqidagi tasavvurlarni vujudga keltirish uchun natural va tasviriy ko'rgazmalilikdan keng foydalanilsa, yuqori sinflarda tasviriy va ramziy ko'rgazmalilikdan foydalaniлади, chunki bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida mavhum materialni faqat aniq, ko'rsatmali material orqali o'zlashtirishga qobiliyatli bo'ladi.

Yordamchi maktabda ta'lim berishda ko'rgazmalilikni o'quvchilarning amaliy faoliyatlar bilan bog'lash juda muhim. Shuning uchun ko'pincha fan darslarida bolalar o'rgangan narsalarni yasaydilar yoki rasmini solish bilan tasvirlaydilar va ularning mehnati maktab yer maydonida hamda sinfda tashkil qilinadi.

Shunday qilib, ko'rgazmalilik tamoyili o'qitishni faollashtirishga ham muhim ta'sir ko'rsatadi. Ko'rgazmalilik tamoyiliga Beruniy fikri bilan yakun yasasak: «Ko'rgan narsalarni tasavvur qilishga odatlangach, sekin-asta fikrlashga o'tish osonlashadi».

Savol va topshiriqlar

1. Ta'lim tamoyillariga ta'rif bering.
- 2.Yordamchi maktablarda ta'lim tamoyillarining qo'llanilish xususiyatlari nimalardan iborat?
- 3.Yordamchi maktablarda ta'lim tamoyillarining bog'liqligi qanday amalga oshiriladi?
- 4.Ko'rgazmalilik tamoyilining tuzatish ahamiyati nimadan iborat?

3.2. Yordamchi maktablarda ta’lim mazmuni

Yordamchi maktabdagи ta’lim mazmuni deganda maktablarda beriladigan bilim, ko’nikma, malakalar yig‘indisi tushuniladi, o‘quvchilarning psixologik va jismoniy rivojlanishini ta’minlaydi, ularni mehnatga, hayotga tayyorlaydi.

Ta’limning mazmuni «Nimani o‘qitish kerak?» degan savolga javob beradi hamda ta’lim va tarbiyaning maqsadi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘quv rejalarida, dasturlarida va darsliklarida ochib beriladi. Ta’limning mazmuni hozirgi darajaga yetguncha o‘ziga xos taraqqiyot davrlarini bosib o‘tgan.

A.Avloniy, T.N.Qori Niyoziy bu borada o‘zlarining qimmatli fikrlarini bildirib, shaxsnı atrof-muhit dalillarisiz rivojlantirish mumkin emas, chunki tafakkur dalillar orqali rivojlanib boradi deb aytganlar.

Sekin-asta maxsus ta’limga ham qattiq talablar qo‘yila boshlandi. Yordamchi maktab o‘quv fanlariga uy tutish, hayot kechirish, rasm, jismoniy mashqlar kiritila boshlandi.

Yordamchi maktab ta’limi aqli zaif bolalar bilish faoliyatlarini tuzatish bilan uzviy bog‘liqdir. Shundagina nuqsonli bola shaxsi to‘g‘ri shakllanib boradi. O‘z vaqtida E.V.Gere va N.V.Chevov: «To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim orqali ular mustaqil hayotga tayyorlanadilar, ijtimoiy xayriya tashkilotlariga murojaat qilmay o‘zlarini boqa oladilar», - degan edilar.

Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga oid qator psixologik-pedagogik izlanishlar amalga oshirila boshlandi. So‘zli va ko‘rgazmali ta’limga oid rus defektolog olimlari – L.V.Zankov, X.S.Zamskiy, ayrim o‘quv fan uslublariga oid M.F.Gnedilov, V.G.Petrova, V.V.Voronkova, M.N.Perova ishlarini ko‘rsatish mumkin. Yordamchi maktab o‘quvchilarining ijtimoiy hayotga moslashishi faqatgina umumta’lim bilimlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki ularda jamoatchilik ta’siri orqasida shaxsiy sifatlarining ham shakllanib borishi qator izlanishlarda ochib berildi. Ilmiy izlanishlarning natijalari yordamchi maktab hayotiga tatbiq etildi. Aqli zaif bolalar ta’lim-tarbiyasida nuqsonni tuzatishga bo‘lgan yo‘nalganlik o‘quv dasturlarida ham o‘z aksini topishi kerak. Shu nuqtayi nazardan yordamchi maktab o‘quv rejalarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Maxsus ta'lif davlat komponentlari (o'quv reja)

Aqli zaif o'quvchilar umumiy ta'limi va boshlang'ich kasb ta'limi o'quv pejasi ta'lim talablarining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini me'yorlashga hamda maxsus matabning moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir.

Bu o'quv rejada o'quv predmetlari bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimal hajmdagi miqdori aniqlanadi.

Davlat talablari o'quv fanlarini o'qitishning ikkita komponentini belgilaydi.

Davlat komponentiga I-IV sinflar uchun 10 ta, I-IX sinflar uchun 10 ta o'quv predmeti kiradi.

Maktab komponentiga esa o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlari uchun boshlang'ich sinflarda 1 soatdan, 9-sinfda esa 3 soat ajratiladi.

Quyida aqli zaif bolalar maxsus maktablari uchun tuzilgan o'quv rejasi tafsilotini beramiz:

—Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida maxsus maktab-internat (maktab)larning o'ziga xos korreksion (tuzatish) ta'lim xususiyatlari hisobga olingan holda ishlab chiqilgan.

—Aqli zaif bolalar uchun mo'ljallangan maxsus ta'lim 9 yil muddatda o'quvchilarga boshlang'ich ma'lumot, tayanch bosqichning ayrim fanlari bo'yicha elementar bilimlar beradi va kasb-hunarga tayyorlaydi. Barcha o'quv fanlar Respublika ta'lim markazi tomonidan tasdiqlangan hamda aqli zaif o'quvchilar maktablari uchun mo'ljallangan dastur va metodik tavsiyalarga ko'ra tashkil etiladi.

—Maktab kengashi qarori asosida davlat komponentidagi fanlarga ajratilgan soatlarni o'quv dasturini bajarish sharti bilan 15 foizdan oshmagan holda qisqartirilib, ayrim fanlarni chuqurlashtirib o'qitish uchun mustaqil (variativ) o'quv rejalarini tuzish huquqi berildi. Bu rejani Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari va Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmasi tasdiqlaydi. Lekin har bir sinf uchun mo'ljailangan jami haftalik soatlari hajmi mazkur o'quv rejada ko'rsatilgan miqdordan oshmasligi lozim.

—Maktab ixtiyoriga berilgan soatlari o'quvchilarning asosan ma'naviy, badiiy-estetik, musiqiy, axloqiy-huquqiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Shu bilan birga, maktab komponentiga ajratilgan soatlari fakultativ va o'quvchilarning qiziqishiga ko'ra ijobiyl

qobiliyatini o'stiruvchi yakka guruh mashg'ulotlarini tashkil qilishga ajratiladi.

—«Konstitutsiya alifbosi» I-IV sinflarda o'qitilmaydi, V-IX sinflarda maktab komponenti hisobidan 17 soat va I-IX sinflarda «Yo'l harakati qoidalari»ni o'rGANISH uchun har bir sinfga maktab komponenti hisobidan 17 soat ajratiladi.

Korreksion soatlar maxsus maktablarning yo'nalishidan kelib chiqib, nogiron bolalar nuqsonlarini tuzatishga (korreksiyalashga) qaratiladi. Ular yakka, guruhli va yalpi (frontal) tarzda olib boriladi.

— «Ijtimoiy-maishiy yo'nalish» o'quv fani dars jadvalida bo'lib, mashg'ulotlar yalpi (frontal) tarzda olib boriladi.

— «Logopediya» mashg'ulotlariga o'quvchilar darsdan tashqari vaqtida jalb etiladi. Mazkur mashg'ulotlar alohida jadvalda qayd etiladi va maktab rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

— «Davolash gimnastikasi» darsdan tashqari vaqtida tibbiyot xodimi ko'rsatmasiga ko'ra tashkil etiladi. Bu mashg'ulotni tabbiy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis yoki jismoniy tarbiya o'qituvchisi olib boradi.

— «Ritmika» mashg'ulotlarini butun sinf bilan musiqa o'qituvchisi rahbarligida olib borish tavsiya etiladi.

— Barcha turdag'i ta'lim muassasalarida tayanch o'quv rejasи yakuniy yuklama bo'yicha davlat tomonidan to'liq moliyalashtiriladi. Fakultativ, yakka, guruh mashg'ulotlari guruhdagi o'quvchilar soniga bog'liq bo'Imagan holda moliyalashtiriladi.

Yordamchi maktab darsliklari

Darslik yordamchi maktab dasturida belgilangan har bir fan bo'yicha beriladigan bilimlar yig'indisi bayon etilgan asosiy qo'llanmadir. Darslik mazmuni dastur talablariga mos kelishi lozim. Unda nazariya bilan amaliyot uzziv bog'liq holda berilishi kerak. Aqli zaif bolalarning bilish xususiyatlarini inobatga olgan holda darsliklar sodda, ixcham, chiroyli bo'lishi kerak. Darsliklarida harflar katta shrift, IV-V sinflarda o'rtacha kattalikdagi, 7-9- sinflarda esa oddiy shriftlarda, rangli rasmlar bilan berilishi lozim. Yordamchi maktab darsligidagi matnlar qisqa, ammo mazmunli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yordamchi maktab maxsus ta'limotida oligofrenopedagog yetakchi rol o'ynaydi. U o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi va to'g'ri yo'naltiradi. Yana shu narsa ham ayonki, qo'yilgan

vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun o'quv jarayoni didaktik materiallar bilan ta'minlanishi kerak. Didaktik materiallar orasida albatta, darslik yetakchi o'rinni tutadi.

Darslikda davlat dasturini predmetlardan berilishi lozim bo'lgan bilimning hajmi sistemasi asosiy narsalarni ajratib beradi, shuningdek, yakka tushunchalarni shakllantirish yo'llari va uslublarini ham ma'lum darajada ko'zda tutiladi.

Yordamchi maktablarda ishlovchi oligofrenopedagogning vazifasi aqli zaif o'quvchilarni o'qiganlarini mustaqil bilib olishga, asosiy va ikkinchi darajali narsalarni ajrata bilishga, mustaqil xulosalar chiqarishga o'rgatishdan iborat. Darslik bilan ishslash tartibini birinchi sinf o'quvchilarni darslik bilan tanishtirishdan boshlash kerak. Darslik tuzilishi haqida so'zlab berish kerak: darslikning paragraflarga bo'linganligini, har bir paragraf oxirida savol va topshiriqlar borligi, darslik oxirida istilohlar va tushunchalarning qisqacha lug'ati borligini ko'rsatish kerak.

Darslik bilan ishslashning ba'zi bir uslublari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Tushuntirib o'qishni yordamchi maktab boshlang'ich sinflari oligofrenopedagoglari ancha keng qo'llashadi. Bu uslubning mazmuni shuki, bunda tanlab olingen matn qismlarga bo'linadi va o'quvchilar bu qismlarni galma-galdan o'qishadi, tushunmaydigan so'zlarni tushunishadi, so'ngra o'qiganlarini gapirib beradilar. Yordamchi maktab o'quvchidan matnda uchragan hamma predmetlarning nomlarini aytib berishga harakat qilgan.

Oligofrenopedagog kelgusi materiallarni o'rganish vaqtida har bir darsda yordamchi maktab o'quvchilarida darslik bilan mustaqil ishslash malakasini tarbiyalab boradi. Masalan, yuqori sinflarda darslik bilan ishslashning bu turidan bir necha tavsiya beramiz. Oligofrenopedagog doskaga savollarni yozib qo'yadi, o'quvchilar esa darslikning tegishli paragrafidan bu savollarga javob topadilar.

O'quvchilar darslik bilan ishslashning bu ko'rinishlarini egallab olganlaridan keyin, darslardan birida paragrafni mustaqil o'qib, uni so'zlab berish rejasini tuzishlari mumkin. Va nihoyat, eng qiyin topshiriq yordamchi maktab o'quvchilariga adabiyot tanlashdir (jurnallardan, gazeta materiallaridan, badiiy adabiyotlardan va h.k.).

Yordamchi maktab o'quvchilarini darslikdagi ko'rgazmali materiallar bilan ishslashga o'rgatish mushkulroq. O'quvchilarga har

bir kitobning muallifi, ayniqsa, darslikning muallifi, kitobdagi hamma ko‘rgazma material muayyan mazmunga ega bo‘lishga, har bir ko‘rgazma o‘rganilayotgan materialni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradigan bo‘lishiga harakat qilinishini aytishi kerak. Shundan kelib chiqib, oligofrenopedagog yangi materialni tushuntirayotganida va mustahkamlayotganda darslikdagi tegishli ko‘rgazma materialdan (rasmdan, jadvaldan) foydalanishi zarur.

Xulosada yordamchi maktab o‘quvchilarining qo‘srimcha adapbiyot o‘qishlari haqida ikki og‘iz so‘z. Oligofrenopedagog yordamchi maktab o‘quvchilarini ilmiy-ommabop adapbiyotlar o‘qishga o‘rgatishi kerak, chunki ommabop adapbiyotni o‘qimasdan turib, faqat darslikni o‘qish bilan predmetni, ayniqsa, sevish mumkin emas. Yordamchi maktab o‘quvchilarini o‘qishga jalb qilish uchun ular o‘z o‘qituvchilarini hamma kitoblar, jurnal va gazeta yangiliklari bilan doim tanish ekanligini bilishlari kerak. Bunday o‘qituvchi har bir darsda jurnal va gazetada bosilgan yangi qiziqarli maqolani qisqacha gapirib beradi.

Agar yordamchi maktab o‘qituvchisi o‘z kutubxonasida mavjud bo‘lgan adapbiyotni hisobga olgan bo‘lsa va o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qishlariga rahbarlik qilsa, yanada yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. Yordamchi maktabda o‘quv rejalarining o‘ziga xosligi nimadan iborat?
2. Yordamchi maktab dasturining ommaviy mакtab dasturidan farqli tomonlari nimalarda namoyon bo‘ladi?
3. Darsliklar qanday tuzilishga ega?
4. Reja va dasturlarning takomillashish tarixi haqida gapirib bering.

3.3. Yordamchi maktablarda o‘qitish uslubining qo‘llanish xususiyatlari

O‘qitish uslubi tushunchasi didaktika va uslubiyotning asosiy tushunchalaridan biri. Pedagogikada o‘qitish deganda o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatları, ish usullarini tushunish

qabul qilingan. Bu faoliyat yordamida o‘qituvchi bilim beradi, o‘quvchilar esa bilim, ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar hamda ularning qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, dunyoqarashini shakllantiruvchi malakalar vujudga keladi.

Ta’lim uslublari ommaviy maktab uchun ham, yordamchi maktab uchun ham umumiy hisoblanadi. Biroq qo‘llanilishi jihatidan bir-biriga aynan o‘xhash bo‘lmaydi. Aqli zaif o‘quvchilarning butun ta’lim jarayoni o‘ziga xos bo‘lganligi sababli, ta’lim uslublari ham o‘ziga xos mazmunga ega bo‘ladi. Umumiy, universal ta’lim uslubi bo‘lmaydi (6-rasm).

Darsda o‘qituvchi turli ta’lim uslublaridan foydalanadi. O‘qitish uslublarini tanlash bir qator omillar: yordamchi maktabning hozirgi bosqichdagi taraqqiyoti, o‘quv fani, o‘rganiladigan materialning mazmuni, o‘quvchilarning yoshi va ularning rivojlanish xususiyatlari hamda ularning o‘quv materialni egallahsga tayyorgarlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Uslub tanlash va uni qo‘llash xususiyati faqat darsdagi o‘quv materialining maqsadiga emas, balki mazmuniga qarab ham aniqlanadi. Shu sababli og‘zaki uslublar ko‘proq gumanitar fan darslarida, amaliy uslublar esa mehnat, rasm, chizmachilik darslarida qo‘llaniladi.

O‘qitish uslublarini tanlashga yordamchi maktab ta’limining nuqsonni tuzatish tomon yo‘nalganligi, o‘quvchilarni muayyan kasbhunar egallahsga tayyorlash hamda sotsial moslanish vazifasini yechishga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qitish uslublari turli usullardan tashkil topadi. Masalan, kitob bilan ishslash — biron reja tuzish, asosiy savollarni esga tushirish, matnni bayon etish, reja va savollarni doskaga yozish uslubiyot usullaridir.

Barcha o‘qitish uslublarini (2-chizma) bilim manbalariga ko‘ra uchta guruhgaga bo‘lish mumkin:

1.Og‘zaki uslublar (tushuntirish, suhbat, hikoya).

2.Ko‘rsatmali uslublar: har xil ko‘rgazmali qurollarni namoyish qilish, ta’limda texnika vositalaridan foydalanish, ekskursiya, mustaqil kuzatish.

3.Amaliy uslublar: kitob bilan ishslash, yozma va og‘zaki mashqlar, laboratoriya va amaliy ishlar, mustaqil ishlarning ba’zi turlari.

Har bir uslub bir necha kichik uslublardan iborat.

Og'zaki uslublar

Og'zaki uslublar qisqa muddat ichida hajmi bo'yicha eng ko'p axborot berish, o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish, ularni hal qilish yo'llarini ko'rsatish imkonini beradi. Bu uslublar o'quvchilarning mavhum tafakkurlarining rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Bilimlarni tushuntirish uslubining mohiyati shundan iboratki, bunda o'qituvchi materialni bayon qiladi, o'quvchilar esa uni tayyor holda qabul qilib oladi. Materialning bayoni aniq, tushunarli, qisqa bo'lishi kerak.

Materialni og'zaki bayon etishga tushuntirish, o'qituvchining hikoyasi kiradi. Yordamchi maktablarda ma'ruza qo'llanilmaydi. Aqli zaif bolalarning psixofizik nuqsonlari sababli hikoya qilish 1–4-sinflarda 10 daqiqa, 5–8-sinflarda esa 20 daqiqadan oshmasligi kerak. Tushuntirish bu yangi materialni mantiqiy izchillikda bayon etishdir. Bu usul o'quvchilarni nazariy bilimlar (qoida, atama, ta'rif) bilan tanishtirishda qo'llaniladi.

Tushuntirishda o'qituvchi yangi materialni oldin o'tilgan material bilan bog'laydi, uni bilimlar tizimiga kiritib, o'quvchilarda bor bilimlar bilan yana egallanuvchi bilimlaraing o'zaro bog'liqligini aniqlaydi. Bu o'zaro bog'liqlikni aniqlashda o'qituvchi o'quvchilarning o'tgan tajribasiga tayanib, ularda bor bilimlarni eslashga jalb qiladi.

Quyi sinflarda o'qituvchi tushuntirishda ko'rgazmali materiallar, qo'llanmalar, tarqatma-didaktik materiallar, jadvallar, chizmalar va hokazolardan keng foydalanadi.

Yordamchi mакtabda yangi materialni tushuntirish, ayniqsa, quyi sinflarda uzoq cho'zilmasligi kerak. Yangi materialni katta bo'limgan qismlarga bo'lish kerak. Bitta darsda uncha katta bo'limgan material bayon qilinadi. O'qituvchi tushuntirishni ahyon-ayonda to'xtatib, o'quvchilarga savollar berishi mumkin: «Sizlar qanday o'ylaysiz, endi nima qilish kerak?» Bunday savollar o'quvchilarning bayon qilinayotgan materialni tushunishi, kuzatishga ulgurishlari yoki ularning diqqatlari barqarorligini aniqlash maqsadida berib turiladi. Bunday savollar o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ularning diqqatini yo'naltirishga imkon beradi.

Ko‘pincha o‘qituvchining tushuntirishi didaktik materiallar, amaliy ishlar bilan birga qo‘sib olib boriladi.

O‘qituvchining hikoyasi bu voqeа, hodisalarni, qahramonlarga tavsifnoma berishni ochiq, his-hayajon bilan ifodalashdir. U vaqt jihatidan qisqa bo‘lishiga qaramay, har doim faqat o‘quvchilarning fikriga emas, balki his-tuyg‘ulariga ham ta’sir etadi. Shunisi muhimki, hikoya o‘quvchilarni qiziqtiradigan bo‘lishi, ularda darsda eshitganlariga nisbatan ko‘proq bilishga xohish uyg‘otishi kerak. Modomiki, o‘qituvchining so‘zi asosiy bilim manbai hisoblanar ekan, o‘qituvchi so‘ziga jiddiy talablar qo‘yiladi. Bular quyidagilardan iborat:

1. O‘qituvchining so‘zi fonetik tomondan to‘g‘ri va ravshan bo‘lishi kerak.
2. Har bir yordamchi maktab o‘qituvchisi o‘zining so‘zida bo‘lgan kamchiliklar ustida ishlashi kerak. O‘qituvchining jonli, ravon so‘zi o‘quvchilarning darsga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi.

O‘qituvchi so‘zining tez va sekinligi o‘quvchilarning dars materialini egallash qobiliyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Agar o‘qituvchi materialni tez bayon etsa, o‘quvchilar o‘qituvchining so‘zlarini qabul qilishga ulgurolmay qoladilar. Natijada ularning diqqati haddan tashqari kuchayib, tez pasayadi va tarqaladi. Shundan so‘ng o‘quvchi o‘qituvchining gapini eshitgisi kelmaydi, o‘zini ishdan chetga oladi. Biroq yordamchi mакtabda nutqning juda sekinligi ham yaxshi natija bermaydi. Chunki bola jumlaning oxirini eshitguncha uning boshlanishini esdan chiqaradi.

Suhbat uslubi — bu o‘qituvchining savol-javob uslubidirki, bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning bilimlarni qanday o‘zlashtir-ganliklarini aniqlaydi va amaliy tajribalariga tayangan holda, maxsus tanlangan savollar tizimi, ularga beriladigan javoblar yo‘li bilan o‘quvchilarni qo‘yilgan ta’lim-tarbiyaviy va tuzatish masalalarini hal qilishga olib keladi. Suhbat yordamchi mакtabda keng tarqalgan o‘qitish uslublaridan bir hisoblanadi. Yangi materialni tushuntirishdagi suhbat, odatda, o‘qituvchining hikoyasi bilan birga qo‘sib olib boriladi. Bu holda o‘qituvchining savollari qonunlarni, қoidalar va veqealar o‘rtasidagi beg‘lanishlarni tushunishga yordam beradi.

Suhbat buyumlarni namoyish qilish, o‘quvchilarning amaliy faoliyati va mustaqil ishlari bilan qo‘sib olib boriladi. Suhbatni

o'tkazishga tayyorlanishda o'qituvchi mavzuni va maqsadni aniqlab va uni o'tkazishi uchun ko'rgazmali materiallarni tanlab, savollarni puxta o'ylab chiqadi.

O'qituvchining savollariga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Savol bir o'quvchiga emas, balki butun sinfga qaratilishi kerak. Qoidani bajarish yordamchi mактабда katta ahamiyatga ega. Chunki sinfda o'tirgan har bir o'quvchi o'qituvchi tomonidan berilgan savolga javob berish uchun doskaga chaqirilib qolishi mumkinligini bilgan taqdirdagina ishga kirishadi. Shuning uchun bitta o'quvchiga berilgan savol qolgan o'quvchilarni bu vazifadan ozod etadi.

2. Har bir savol to'g'ri qo'yilishi va o'quvchilarga tushunarli bo'lishi kerak. Ko'п so'zli savollar berilmasligi kerak. Bundan tashqari, bir qancha savollarni birdaniga, birinchi savolga javob olmasdan turib berish mumkin emas.

3. Savollar mazmuniga qarab bir-biridan farq qilishi kerakki, ommaviy maktablarga qaraganda yordamchi maktablarda savollar ko'proq beriladi. Savollar juda qisqa va aniq bo'lishi lozim.

4. Savollarning shakli va uning oson yoki qiyinligi o'quvchilarning yoshiga qarab belgilanishi kerak. Berilgan savollarning ichida javobi bo'lishi kerak emas, aksincha, berilayotgan savollar o'quvchilarni fikrlashga undashi zarur.

5. Berilayotgan savol oldingi savolga bog'liq bo'lishi kerak.

6. Nutqida kamchiligi bo'lган o'quvchilarga shunday savollar berilishi kerakki, ular javobini ko'rsatishlari yoki yozib berishlari, yo bo'lmasa og'zaki bir so'z bilan javob qaytarishlari mumkin bo'lsin.

7. O'qituvchi savollarni faqat og'zaki berishi shart emas, balki yozma tarzda berishi ham mumkin. Bu o'quvchilarning faqat og'zaki nutqini emas, balki yozma nutqini o'stirishga ham yordam beradi. Masalan, o'qituvchi:

a) og'zaki so'rab, og'zaki javob talab qilishi mumkin;

b) savollarni sinf doskasiga yozib qo'yib, o'quvchilardan og'zaki yoki yozma javob berishlarini talab qilishi mumkin;

d) o'quvchilarga alohida yozilgan savollarni tarqatib, ulardan o'ylab, shu savollarga javob berishlarini so'rashi mumkin.

O'quvchining javobiga quyidagi talablarni qo'yish mumkin:

1.O'quvchilar savolni tushunib yetishlari kerak.

2.Mantiqiy o'ylab, jumla tuza bilishlari kerak.

Yordamchi mактабда о‘qитувчи саволни то‘г‘ри о‘ygани билан har doim ham o‘quvchilardan to‘g‘ri javob ololmaydi. O‘qитувчи har mahal o‘quvchilarning javobini diqqat bilan tinglashi kerak. Ular tomonidan qilingan xatolarni o‘z vaqtida to‘g‘rilab borishi lozim. To‘g‘rilangan xatolarni o‘quvchilar tomonidan takrorlashni talab qilish zarur.

Aqli zaif bolalar ko‘pincha qisqa yoki bir so‘zli «yo‘q» yoki «ha» degan javob bilan chegaralanadilar. Yordamchi mактаб o‘qитувчилари oldida turgan eng muhim vazifalardan biri o‘quvchilardan to‘liq javob talab qilishdir.

Suhbat jarayonidagina o‘quvchini savollar berishga o‘rgatish imkoniyati yaratiladi. Dastlab bu juda qiyin bo‘ladi. Keyinchalik bolalar sekin-asta bunga o‘rganib boradilar.

Shunday qilib, yordamchi mактабда suhbat usuli ta‘lim jarayonida o‘qитувчи oldida turgan umumta‘lim va tuzatish borasidagi tarbiyaviy vazifalarni bajarishga yordam beradi.

O‘qитувчининг билимларни тушунтириши **hikoya** shaklida amalga oshirilishi mumkin. O‘qitish jarayonining hamma bosqichlarida дarslik va kitob bilan ishlanadi, ammo bu ish o‘quvchilardan ma’lum malaka va o‘qитувчининг yordamini talab qiladi. Yordamchi mактаб amaliyotida kitob va darsliklar bilan ishlashning quyidagi usullaridan foydalaniлади: ovoz chiqarib o‘qish, ichida o‘qish, o‘qитувчининг matnni o‘qib berishi.

O‘qishning birinchi yillarda ovoz chiqarib o‘qishga katta ahamiyat beriladi. To‘g‘ri, ifodali va bir yo‘la o‘qish ko‘p jihatdan o‘qитувчининг o‘qishga qanday e‘tibor berishiga bog‘liq bo‘ladi. I va II sinflarda o‘quvchilarning to‘g‘ri o‘qishiga katta ahamiyat beriladi. Chunki o‘quvchilar tovushlarni bo‘g‘in va so‘zlarga bog‘lashda juda qiynaladilar.

Yuqori sinflarda ko‘proq ichida o‘qishdan foydalaniлади, бuning yordamida bolalar kitob bilan mustaqil ishlashga o‘rgatiladi. Matnning o‘qитувчи tomonidan o‘qilishi yordamchi mактабда namunali o‘qish sifatida, o‘qilganni so‘zlab berish yoki matn mazmuni ustida suhbat o‘tkazish uchun, o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, nutqini, diqqatini, fonematik eshitishini, tahlil va tasnif qilish jarayonlarini to‘g‘rilash uchun qo‘llaniladi.

Bu usulning katta tuzatish-tarbiyaviy ahamiyati borligini hisobga olib, undan hamma o‘quv yillarda keng foydalanish mumkin.

Yordamchi mактаб о'quvchilarini kitob bilan ishlashga o'rgatishda avval ularda ongli o'qish malakasini hosil qilish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun darslikda gap borayotgan narsalar va voqealar bilan o'quvchilarning bevosita yoki «ko'rgazmali vositalar» yordamida tanishuvini maksimal ta'minlashga erishish kerak. Bolalar nima o'qiyotganliklarini tushunishlari va tasavvur etishlari lozim.

Darslik materialini ongli o'zlashtirish uchun o'quvchilar matndagi hamma so'zlarni tushunishlari zarur. Shuning uchun darslik bilan ishlash o'qituvchidan maxsus atamalar, qiyin so'zlar ustida lug'at bilan ish olib borishni talab qiladi.

Darslik bilan ishlashda o'quvchilarning diqqatini matnda joylashtirilgan jadval, karta, rasmlarga qaratish kerak. Matnni o'qitishdan oldin o'quvchilar bilan birgalikda rasmlarni batafsil tushunib yetmoq maqsadga muvofiqdir.

Ko'rsatmali uslublar.

O'qitishning ko'rsatmali uslublari o'quvchilarga kuzatishlar asosida bilim olish imkonini beradi. Kuzatish hissiy tafakkurning faol shaklidir, bundan boshlang'ich sinflarda keng foydalaniladi. Atrof-borliqdagi narsa va hodisalar, ularning turli-tuman modellari (har xil tipdag'i ko'rsatma qo'llanmalar) kuzatish obyektlari hisoblanadi. O'qitishning ko'rsatmali uslublarini o'qitishning og'zaki uslublaridan ajratib bo'lmaydi. Ko'rsatma qo'llanmalarni namoyish qilish har doim o'qituvchining tushuntirishlari bilan birgalikda olib boriladi.

Yordamchi maktabda ta'lif berishda ko'rgazmalilik o'quv materialini mustahkam va ongli o'zlashtirish shartlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, ko'rgazmalilik o'quvchilarning nutqi va tafakkuridagi nuqsonlarni tuzatishda zaruriy shart hisoblanadi.

Ko'rgazmalardan foydalanib, mактаб bir tomonidan o'quvchilarda o'zlarini qurshab turgan dunyo haqida aniq tasavvurlarni vujudga keltirishni ta'minlab borsa, ikkinchi tomonidan, bolalarni real dunyoda kuzatilayotgan aloqa va munosabatlarni ifodalash uchun til vositalaridan (so'z, jumlalardan) to'g'ri foydalanishga o'rgatadi.

Yordamchi maktabda pedagogikada ma'lum bo'lgan hamma ko'rgazmali vositalar natural ko'rgazmalilik, tasviriy ko'rgazmalilik (rasmlar, mulyajlar, diapositivlar, kinokartinalar), so'z ko'rgazmaliligi va ramzli ko'rgazmalilik (suratlar, chizmalar, jadvallar, diagrammalar)dan keng foydalaniladi.

Quyi sinflarda narsalar, hodisalar ustida tasavvurlarni vujudga keltirish uchun natural va tasviriy ko'rgazmalilikdan keng foydalanilsa, yuqori sinflarda tasviriy va ramziy ko'rgazmalardan foydalanaladi, chunki bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida mavhum materialni faqat aniq, ko'rsatmali material orqali o'zlashtirishga qobiliyatli bo'ladi.

Yordamchi maktablarda ta'lim berishda ko'rgazmalilikni o'quvchilarning amaiiy faoliyatları bilan bog'lash juda muhim. Shuning uchun ko'pgina fan darslarida bolalar o'rganilgan narsalarni yasaydilar yoki rasmini solish bilan tasvirlaydilar, ularning mehnati mакtab hovlisida hamda sinfda tashkil qilinadi.

O'quv kinosi va diafilmлarni ko'rsatish ham ta'limning ko'rgazmalilik usuliga kiradi. Kinofilmni ko'rsatishdan oldin o'quvchilarga qator savollar berish kerak. Bolalar filmni ko'rish jarayonida ularga javob topishlari zarur.

Sayohat ham ko'rgazmali usulga kiritiladi. Uning afzalligi shundaki, bolalar sayohatda narsalarni tabiiy vaziyatda o'rganadilar. Sayohat o'qituvchi tomonidan yaxshi o'ylanib, yaxshi tayyorlanilsa va uyushtirilsagina samarali bo'ladi. O'qituvchi sayohatning maqsadini, uning o'quv materialini o'rganishdagи ahamiyatini, shuningdek, uning tarbiyaviy ahamiyatini aniq tasavvur etishi kerak Sayohatni o'tkazishdan oldin suhbat o'tkazib, bolalardan kuzatiladigan obyektdan ularga nima ma'lum ekanligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Diqqatni nimaga qaratish, nimani kuzatishlari kerakligi ustida bolalarga ko'rsatma berish kerak, ularning oldiga savollar qo'yish lozim, ularga javobni bolalar saychat vaqtidagi kuzatishlar jarayonida topishlari kerak.

Sayohatdan olingan taassurotlarni, kuzatish natijalarini umumlashtirish juda muhimdir.

Yangi bilim berishda o'qituvchi didaktik material, harf va sonlarning yozilishi o'quvchilar tomonidan kuzatilishini keng qo'llaydi. Ayrim hollarda matemaika darslarida kuzatishning o'zi yetakchi usul bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi kuzatish usulidan foydalaniб, o'quvchilarning bilish faoliyatini shunday tashkil etadiki, ular mustaqil ravishda o'zlari uchun oson bo'lgan umumiashtirish, xulosa chiqarish ishlарini amalga oshirishlari mumkin.

Kuzatishni tashkil qilish bir qator usullarni qo'llashni talab etadi. Bunda aniq maqsadni qo'yish juda muhim. Bolalar nimani

kuzatishlari kerak ekanligini aniq bilishlari kerak. Bundan tashqari, ko'rsatilayotgan buyumning xarakterli belgilarini aniq bilishlari kerak. O'rganilayotgan obyektni oldingi o'rganilgani bilan taqqoslashdan foydalanish ham muhimdir. Va nihoyat, obyektni kuzatishni o'qituv-chining og'zaki tushuntirishlari bilan birga qo'shib olib borish zarur.

Amaliy uslublar.

Malaka va ko'nikmalari shakllantirish va mustahkamlash jarayoni bilan bog'liq bo'lgan uslublar o'qitishning amaliy uslublari hisoblanadi.

Amaliy uslublar sinfda o'rganilgan materialni chuqur tushunib yetishga, ko'nikma va malakalar hosil qilishga imkoniyat yaratadi. Amaliy uslublarni qo'llashda o'quvchilar faoliyatining o'zi bilim manbai hisoblanadi. Bunday usullarga og'zaki va yozma mashqlar, laboratoriya ishlari, ustaxonada va maktab yer maydonida ishslash kiradi.

Turli mashqlarni bajarish o'tilgan materialni takrorlashga ko'maklashadi. Ona tili va matematika dasturlarida ishga oid xat yozish, tortish, o'lhash, nolga oid turli hisoblashlar va hokazo mashqlar ko'zda tutilgan. Bu mashqlar bilim va malakalarning birmuncha ongli va mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Amaliy ishlar — o'quvchilarning tarqatma didaktik material bilan turli narsalar yasash, rasm solish va hokazo faoliyatidan iboratdir. Amaliy ish usuli ko'nikmalarni mustahkamlashda va turli asboblar (chizg'ich, transportyor, tarozi va hokazo) bilan o'lhash malakalarini vujudga keltirishda, uzunlik, sath, hajmlarni o'lhash uchun o'lchovlar tayyorlashda keng qo'llanilishi mumkin.

Laboratoriya – amaliy ishlar mazmuniqa qarab bir necha xilda tashkil qilinishi mumkin. Ba'zi hollarda keng ko'lamli laboratoriya – amaliy ishni butun sind bilan uyuştirish mumkin: bunda hamma o'quvchilar murakkabligi va mustaqil bajarilish darajasi bir xil yoki yaqin bo'lgan ishlarni bajaradilar (masalan, buyum, shakllarning uzunligini o'lhash, kesmalarni chizish, sath va hajmlarni o'lhash). Boshqa hollarda bunday qilish mumkin bo'lmaydi va sind o'quvchilarini guruhiarga bo'llishga to'g'ri keladi. Masalan, bolalarni tortish, ayrim sathni hisoblash ustida olib boriladigan ishlarga o'tqizishda bir guruhdagi bolalar sindning sathini hisoblasalar, boshqalari koridorning sathini, uchinchilari sport zalining sathini hisoblaydilar va hokazo.

Didaktik o‘yin uslubi

Yordamchi maktab sharoitida bilimlarni mustahkamlashda didaktik o‘yin samarali uslub hisoblanadi.

Didaktik o‘yinlarda fikrlashning asosiy jarayonlari — tahlil, taqqoslash, xulosa chiqarish va hokazolar rivojlantiriladi. Didaktik o‘yin bir turdag'i materialni o‘quvchilar uchun qiziqarli qilish imkonini beradi. O‘yinda o‘quvchilarning o‘zlari sezmagan holda ko‘pdan-ko‘p ishlarni bajaradilar.

Yordamchi mакtabning matematika darslarida didaktik o‘yinlar har qanday mavzuni mustahkamlashda keng qo‘llaniladi.

O‘quv jarayonining samaradorligini oshirish ustidagi izlanishlar dasturlashtirilgan o‘qitishdan foydalanishga olib keldi. O‘quv materialining uncha katta bo‘lmagan, mantiqan o‘zaro bog‘langan qismlarini o‘z ichiga olgan va maxsus ishlangan topshiriqlar bo‘yicha materialni o‘rgatish dasturlashtirilgan o‘qitish deyiladi.

Dasturlashtirilgan ta’lim usulining yordamchi mакtab pedagoglari va uslubiyotchilarini o‘ziga jalb etishga sabab teskari bog‘lanishning mavjudligi, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tekshirish malakalariga ega bo‘la olish imkoniyatidir.

Dasturlashtirilgan ta’lim elementlaridan foydalanish tajribasi undan bilimlarni mustahkamlashda foydalanishning maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatdi. Kuzatishlardan ayonki, o‘quvchilar dasturlashtirilgan vazifalarga katta qiziqish bilan qaraydilar, ularni bajarishda yuqori darajali mustaqillik paydo bo‘ladi. Bu uslub o‘qituvchiga vazifalarni bajarishda o‘quvchilarning qiyinchiliklarini tezda aniqlash va ularga zarur yordam ko‘rsatish imkonini beradi.

Savol va topshiriqlar

1. O‘qitish uslublari deyilganda nimani tushunasiz?
2. Boshlang‘ich sinflarda qanday og‘zaki o‘qitish uslublari qo‘llaniladi?
3. Ko‘rsatmali uslublarni qo‘llashning qimmati va xususiyatlari nimadan iborat?
4. Yordamchi maktablar o‘quv jarayonlarida amaliy ishlarning qanday ko‘rinishlaridan foydalaniladi va ularning ta’limiy qimmati nimadan iborat?
5. Didaktik o‘yinlarning qimmati nimada?

6. Darsda o'qitishning har xil uslublaridan birgalikda foydalanishning afzalligini asoslab bering.

7. Yordamchi maktabda darsni kuzating va o'qituvchi qaysi o'qitish uslublaridan foydalanganligini ko'rsating.

3.4. Yordamchi maktabda o'qitishni tashkil qilish.

Yordamchi maktablarda dars va dars turlari

Yordamchi maktablarda ta'lim jarayonini tashkil qilishning individual va guruhli shakllaridan foydalaniladi. Asosan sinf dars tizimi qo'llaniladi. Pedagogika fanining taraqqiyotida alohida o'ringa ega bo'lgan buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning «Buyuk didaktika» asarida birinchi marta dars masalasi atroficha ochib berildi. Keyinchalik qator olimlar, pedagoglar darsning turli tomonlarini turlicha rivojlantirdilar.

O'zbekistonda Munavvar qori, Abdulla Avloniy va boshqa ma'rifatparvar olimlar jadid maktablari yaratganlar. Yordamchi maktablardagi dars esa A.N.Graborov, G.M.Dulnev, I.G.Yeremenko va boshqalar ishlarida ochib berildi. Ommaviy maktablarda bo'lganidek, yordamchi maktablarda ham o'quvchilar o'zlarining yosh va bilish saviyalariga ko'ra ma'lum guruhlarga birlashtiriladi hamda ularغا nazariy, amaliy bilimlar berila boshlaydi. Dars deganda ma'lum fanlardan, ma'lum hajmdagi bilimlarning ma'lum yoshdag'i o'quvchilar guruhiga maxsus tayyorgarligi bo'lgan mutaxassis tomonidan berilishini tushunamiz. Darsning samaradorligini oshirish, beriladigan bilimlar saviyasini ko'tarish, nazariy bilimlarni hayot bilan bog'lab olib borish, aqli zaif bolalar nuqsonlarini tuzatish va boshqa qator masalalarni rivojlantirish borasida ko'p ishlar qilinmoqda. Yordamchi maktablardagi darsga qo'yiladigan asosiy didaktik talablardan biri uning tuzatish va tarbiyalashga korreksion yo'naltirilganligidir. A.N.Graborov quyidagi tuzatish-tarbiyalash vazifalarini hal etishni taklif etadi:

1.Ta'limda mumkin qadar ko'proq sensor mexanizmlarni jaib etish.

2.Kuzatgan holatlarni to'g'ri bayon etishni mashq qilish.

3.O'quvchilarning kuzatuvchanligini rivojlantirib borish.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar narsa va voqealar bilan tanishibgina qolmasdan, balki ular haqida fikrlaydilar. Bu esa, o'z

navbatida, bolalarda tabiatning rivojlanish qonuniyatları haqidagi bilimlarning shakllanishiga olib keladi. Darsning tarbiyaviy mazmun kasb etishi, berilayotgan material mazmuni bilangina chegaralanib qolmasdan, balki o'quv materiallarini egallah usullari bilan xarakterlanadi.

Agar o'quvchilar bilimlarni egallahash vaqtida fikr yuritsalar, taqqoslasalar, xulosa qilsalar, o'z fikrlarini bayon etsalar, uning tarbiyaviy tomoni yanada ortadi. Shu sababli dars materiallarini tanlash, har bir dars uchun ta'lim usullarini belgilash zarur. Darsdagi o'quv materiallarining hajmi, o'quvchilar imkoniyatlari dastur talablarida belgilangan. Darsdagi o'quv materiali o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak. Agar o'qituvchi bolalarga imkoniyati yetmaydigan o'quv materiallarini bersa, albatta, uni egallahsha bolaning kuchi yetmaydi. Buning oqibatida bolalarda charchash hollari kuzatiladi. Ammo darsda bolalarga imkoniyatlaridan kam o'quv materiali berilsa yanada salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Ma'nosi sodda materiallarni qaytarish o'quvchilar diqqatini pasaytiradi hamda materialni o'zlashdirishga xalaqit beradi.

Yordamchi mакtab o'quvchilari diqqatining turg'un emasligi, tez charchashi sababli dars jarayonida o'quvchilarning turli faoliyatlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Ko'rgazmali, og'zaki va amaliy ish usullarini birga qo'shib olib borish maqsadga muvosifdir.

Ta'lim materialining murakkabligi va hajmi bolalarning psixologik xususiyatlari va ularning yosh imkoniyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi.

Yosh ulg'aygan sari bolalar bilan olib boriladigan ish uslublari ham o'zgarib borishi taqozo etiladi. Shuningdek, bolalarning darsdagи faoliyat mazmuni ham o'zgarib boradi. Bu o'zgarish bilimlar, ko'nikma va malakalar egallahdagи mustaqillikning ortishida namoyon bo'ladi.

Yordamchi maktablarda darslarga qo'yiladigan muhim didaktik talablardan biri o'quvchilarning individual, guruhli, frontal ishlarini to'g'ri qo'shib olib borishdir. Ushbu talabni amalga oshirish asosan yordamchi mакtab o'quvchilarini birinchi galda ana shu sinflarda jamoa bo'lib birikishlarida va individual xususiyatlari bilan farq qilganlarida aniq namoyon bo'ladi. Bu o'ziga xos xususiyatlar yordamchi maktablarda turli toifalardagi (oligofren, shizofrenik, bosh miyasi jarohatlangan va hokazo) bolalarning o'qitilishi, ya'ni ularning

umumiylar xarakter xususiyatlari, aqliy jihatdan orqada qolganliklari bilan belgilanadi. Biroq ana shu asosiy yetishmovchilikning namoyon bo‘lishi kasallik xarakteri, uning kelib chiqish sabablari va jarohatlanish darajasi bilan bog‘liq. Shuning uchun toifadagi bolalar, masalan, debil darajadagi oligofrenlar o‘zlarining o‘qish imkoniyatlari bilan tubdan farq qiladi.

Bularning hammasi o‘qituvchining ishni shunday rejalahtirishini taqozo etadiki, bunda sinf bilan keng ko‘lamli ishslashda har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari hisobga olinsin. Bunda individual yondashish va o‘quvchilarga differensial munosabat, ularning imkoniyatlariga tayangan holda, darsdagi keng ko‘lamli ishga hamma bolalarni jalb etishga qaratiladi.

Guruhli va individual mashg‘ulotlar qoloqlikni yengishda g‘oyat muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining qoloq o‘quvchilar uy vazifalarini qanday bajarganliklari ustidan nazorat qilishi, ular bilan qo‘sishmcha mashg‘ulotlar o‘tkazish, javob berish uchun tez-tez doskaga chiqarish, o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, kerak bo‘lganda tanbeh berish - bularning hammasi qoloqlikning oldini olish tadbirlaridir. Shu maqsadda, bilimni o‘zlashtirishdagi kamchilikni o‘z vaqtida aniqlash va kerakli yordam berish uchun o‘quvchilarning yangi materialni qanchalik o‘zlashtirganliklarini doimo tekshirib turish zarur.

Shunday qilib, darsda keng ko‘lamli, guruhli, individual ishlarni qo‘sib olib borish o‘quv mashg‘ulotlarini shunday olib borishga imkon beradiki, bunda yaxshiroq tayyorlangan o‘quvchilar ishda ushlanib qolmaydilar, tayyorgarligi kamlari esa ularga tenglashadilar. Hamma ko‘rsatilgan didaktik talablar oldindan o‘ylab chiqilgan tuzilish bilan aniqlanishi darsning aniq tashkiliy tuzilishi zaruriyatini keltirib chiqaradi, bu esa darsning turi va maqsadi, shu bilan birga, uning didaktik, psixologik, uslubiy tugallanganligiga bog‘liq.

Darsning didaktik tugallanganligi darsning tuzilishi va natijalarining o‘zaro muvofiqligi bilan belgilanadi. Darsning psixologik tugallanganligi dars davomida o‘quvchilarning egallagan bilimlardan qoniqish hissi va o‘qituvchining esa darsdagi o‘quvchilar faoliyatidan qoniqish hissining paydo bo‘lishi bilan belgilanadi. Darsning uslubiy tugallanganligi qo‘yilgan didaktik masalani muvaffaqiyat bilan yechishga imkon beradi va darsning mazmuni, maqsadiga mos keladigan aniq ishlangan uslubiyatda ifodalanadi.

Tashkiliy aniqlikning zarurligi materialni bo‘laklarga bo‘lish, o‘qitish usullarini tanlash va darsning turli elementlarining o‘zaro munosabati bilan belgilanadi. Shunday qilib, yordamchi maktablarda darslarga quyidagi didaktik talablar qo‘yiladi:

1. Darsning korreksiyalash (to‘g‘rilash), tarbiyaviy va ta’limiy maqsadlarining uzluksizligi, ajralmasligi.

2. Darsning har bir qismi uchun uslub va o‘quv materialini to‘g‘ri tanlash.

3. Keng ko‘lamli, guruhli va individual ishni qo‘sib olib borish.

4. Darsning tashkiliy aniqligi.

O‘qitish nazariyasida darsni mavzular bo‘yicha tasniflash muhim masala bo‘lib hisoblanadi.

Yordamchi maktablardagi didaktik maqsadga muvofiq holda quyidagi turdagи darslar qo‘llaniladi:

1. Yangi bilim berish darsi.

2. Aralash darslar.

3. Amaliy darslar (darsni mustahkamlash va egallangan bilimni amalda qo‘llash).

4. Nazorat, hisobga olish darslari.

5. Umumlashtirish, qaytarish darslari.

Didaktik maqsad darsdagi asosiy ish turini aniqlaydi (yangi materialni o‘zlashtirish, uni qaytarish, sistemalashtirish va hokazo). Didaktik maqsadga muvofiq, ma’lum ishga vaqt ajratiladi, o‘qitish uslublari va darsning to‘la tuzilishi belgilanadi.

Yordamchi maktablardagi darslar asosan nuqsonni tuzatish maqsadini ko‘zlaydi.

1. Yangi mavzuni dastlabki o‘qitish darsi. Bu darsning asosiy didaktik maqsadi, o‘quvchilarning yangi bilimlar bilan qurollanishi, yangi materialni o‘qishi va tushunishi hisoblanadi. Bunday darsning ko‘p vahti yangi bilimlarni tushuntirishga qaratiladi. O‘quvchilar bilimini tekshirish va qaytarish bu darslarda chegaralangan holda olib boriladi.

Pedagogik adabiyotlarda yangi materialni tushuntirish masalasiga katta e’tibor beriladi. V.L.Strezikozin yordamchi maktablarda ham qo‘llanishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilar tomonidan yangi mavzuni tashkiliy o‘zlashtirishning qiziqarli chizmasini keltiradi. Darsning butun mavzui bo‘yicha yangi material katta bo‘limgan elementlarga bo‘linib, ulardan har biri o‘quvchilar

batamom tushunmagunlaricha o‘rganiladi. O‘quv materialining har bir o‘zlashtirilgan qismi tezda qaytariladi, bunga qanoat hosil qilingandan keyingina, ya’ni o‘quvchilarning ushbu materialni o‘zlashtirganlaridan keyin o‘qituvchi keyingi qismni tushuntira boshlaydi. Bu yangi bilimni eng oddiy o‘zlashtirish deb ataladi.

Yangi bilimni o‘zlashtirishning bu usuli yordamchi maktablar amaliyotida qo‘llaniladigan dasturlashtirilgan darsga olib keladi. Ishni shunday tashkil etishning afzalligi, bilimni elementar o‘zlashtirish ayrim o‘quvchilar bilimida uzilishlar paydo bo‘lishining oldini oladi. Shu bilan birga, bu o‘qituvchi uchun ishning har bir bosqichidagi natijalarni aniqlash imkonini berib, ularni hisobga olgan holda materialning keyingi qismini o‘qitishga o‘tiladi. Bundan tashqari, o‘qituvchi yangi materialni to‘la o‘zlashtira olmagan o‘quvchilarga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatib, ayrim o‘quvchilarga nisbatan individual munosabatda bo‘ladi. Buning ijobiy tomoni shundaki, o‘quvchilar faqat o‘qituvchini tinglabgina qolmay, balki o‘zlar mustaqil ravishda amaliy mashg‘ulotlarni bajarib, darslik bilan ishlaydilar. Bu o‘rganilayotgan masala bo‘yicha bolalarga amaliy harakatlar usulini egallahsga yordam beradi (ular qo‘ylgan savolga javob uchun material topib, uni ajratadilar, taqqoslaysaydilar, tasniflaydilar). Shunday qilib, o‘qituvchi o‘qitishning ikki tomonlama boshqarib turish imkoniga ega bo‘ladi: bir tomondan, tushunish va tasavvur etishning shakllanishi, boshqa tomondan, bolalarda bilishga bo‘lgan harakatning rivojlanishi. Bu, shubhasiz, o‘qitishning rivojlantiruvchi tamoyilini amaliy jihatdan amalga oshirish imkonini beradi.

Yordamchi maktablarda yangi mavzuni dastlabki o‘zlashtirish darsi uncha katta bo‘limgan materialga ega. Shuning uchun o‘quvchi ko‘nikma va malakasini jamlash uchun olingan bilim bo‘yicha qayta mashq qilish imkoniyatiga ega. O‘qituvchining tushuntirishi bilan o‘quvchilarning mustaqil ishlarining qo‘sib borilishi quyidagi tarzda tuzilishi kerak.

O‘qituvchi darsni yangi mavzuni tushuntirish bilan boshlaydi, shundan keyin olingan bilimni mashqlar yordamida mustahkamlash maqsadida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil qiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga taqqoslash uchun bir qancha misollar keltirib, suhbat yordamida o‘quvchilarni xulosa chiqarishga olib keladi.

Bunday darslar o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga yordam beradi, chunki ularga tahlil, tasnif, taqqoslash va umumlashtirishni mashq qildiradi. Bu esa ularning nutqlaridagi asosiy nuqsonlarni tuzatishga imkon beradi.

2. Kombinatsiyalashtirilgan yoki murakkab darslar. Bu dars bir qancha didaktik maqsadlarni ko'zlaydi (yangi materialni tushuntirish, uni mustahkamlash, avval o'tilganlarni takrorlash va bilimlarni hisobga olish, tekshirish). Bu esa o'qitish jarayonining bir qancha bo'laklariga mos keladi. Darsning har bir qismi oz vaqt (10–15 daqiqa) davom etadi, faoliyat turi ham dars davomida tez o'zgarib turadi. Berilgan rejadagi darsni o'zlashtirish, o'quvchilarning faoliyatini rang-barang qilish imkoniyati va bиринчи darsning o'zida o'zlashtirish jarayoni deyarli hamma bosqichlarda qo'shib olib borish imkoniyati, bilimlar hajmining uncha katta emasligidan quyi sinf o'quvchilari bilan ishlashni qulaylashtiradi.

3. Amaliy darslar. Bu darslarda o'rganilayotgan materialni qaytadan tushunib yetish, esga tushirish va qo'llash, uni mustahkamlashga erishish maqsadi ko'zda tutiladi. O'quvchilar masalalar yechishni mashq qiladilar, o'rgangan qoidalar bo'yicha mashqlar bajaradilar, ko'nikma va malakalarni mukammallashtiradilar, avval o'rgangan fakt va tushunchalarni yangidan tushunib yetadilar. Materialni dastlabki anglash jarayonida yetarli o'zlashtirilmagan yoki umuman o'zlashtirilmagan qoidalarni bilib oladilar.

Ma'lumki, bilim, ko'nikma va malakanı mustahkamlash qayta tiklash, mashq qilish va ijobjiy mustahkamiashga bo'linib, o'zaro ajralmas bog'liqlikda va doimo aloqada bo'ladi. Amaliy darslar bir xil bo'lmasligi zarur. O'quvchilarning ishga qiziqishi davom etishi uchun o'qituvchi bunday darslarga puxta tayyorlanishi, turli ishlarni tanlashi, darsning jihozlanishi va qismlarga bo'linishini aniq ishlab chiqishi kerak. Bu darslar o'quvchilar ishlab chiqarishda, ustaxonalarda, kasbga o'rgatish jarayonida ishlayotganlarida o'tiladi, lekin ular matematika, tabiatshunoslik, geografiyanı o'rganish jarayonida ham qo'llaniladi.

4. Takrorlash — umumlashtirish darslari. Uning didaktik maqsadi o'tilgan mavzuni qaytarish va sistemalashtirishdan iborat. U dasturning biror bo'limi yoki alohida mavzuning o'qitilishi tugallangandan keyin amalga oshiriladi. Umumlashtirilgan darsda

o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘tilgan mavzuni qanday o‘zlashtirganlarini aniqlaydi. Bu darslar bolalarning o‘quv materialini yuqori darajada tushunishiga va o‘tilganlarni yangi shaklda qaytarishga imkon beradi.

Yordamchi maktablarda umumlashtirilgan holda takrorlash-qaytarish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi. Qaytarish paytida mavzu bo‘yicha hamma o‘rganilgan material umumlashadi. Masalan, darslarda o‘quvchilar turli xil mashqlarni o‘rganishadi, umumlashtirib qaytarish darsida esa ularni taqqoslaydilar. Yovvoyi va uy hayvonlarini o‘rgangandan keyin o‘quvchilar bu guruh hayvonlarni o‘zaro solishtirib, har bir guruh uchun umumiy va o‘ziga xos belgilarni aniqlaydilar.

5. Tekshirish va baholash darslari. Yordamchi maktab o‘qituvchilari bunday darslarni o‘rganilayotgan mavzu o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganiga ishonch hosil qilgandan so‘ng o‘tkazadilar. Bunday darslar og‘zaki, so‘roq shaklida yoki yozma ish shaklida o‘tkazilishi mumkin. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan har bir dars turida, uning tuzilishida umumiy elementlar mavjud bo‘ladi. Biroq dars turidan qat’i nazar, yordamchi maktabdagisi darslar bir qancha qism: tayyorgarlik, asosiy va xulosa qismlaridan iborat bo‘ladi.

Tayyorgarlik qismining maqsadi o‘quvchilarda ishga tayyorgarlikni vujudga keltirish, ularni o‘quv jarayoniga kirishishiga imkon yaratishdan iborat. Darsning bu qismi bir qancha elementiardan: a) o‘quvchilar ishini uyshtirish va darsga tayyorlash; b) darsdagi mashg‘ulotlarga o‘quvchilarni psixologik tayyorlash; d) o‘quvchilarning darsga didaktik tayyorgarligidan tashkil topadi.

O‘quvchilarni o‘quv ishiga tayyorlash uchun o‘qituvchi ular diqqatini faollashtiradi, yordamchi maktab o‘quvchilarining asab sistemasini optimal holatga keltirishga qaratilgan alohida mashqlar tanlaydi. Bunga tashkil qilingan paytdan keyin 5-6 daqiqa va tayyorlov vaqt ajratiladi. Tayyorlovchi mashqlar darsdan keyingi ishlar mazmuni bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Mazmunga ko‘ra ular har xil bo‘ladi: rasmlarni, buyumlarni ko‘rish, ular to‘g‘risida suhbat o‘tkazish. Nutq bilan bog‘langan o‘yinlar, ertak va hikoyalar eshitish, buyumni tanish, tasniflash, ajratish bo‘yicha amaliy topshiriqlar, diafilmlar namoyish qilish.

Sinfda o'qituvchining uy vazifasini tekshirishi, o'tilganlarni takrorlash asosida yangi materialni o'zlashtirishga o'quvchilarni tayyorlashi katta ahamiyatga ega. Bu darsning tayyorgarlik bosqichiga jonli kirishib, o'quvchilarga savollar berib, mustaqil bajarilgan ishlarni ko'z yogurtirib tekshirish, topshiriqni bajarish, natija va yechimini tekshirish shaklida tashkil qilinadi. Tekshirish qaysi shaklda olib borilmasin, u yangi materialni o'rganishga kirishishda katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning didaktik, psixologik tayyorgarligi faqat yozuv asboblari, ko'rgazmali qurollar emas, balki dars mazmunini aniq ta'riflash bilan ham belgilanadi. Ayni shu bosqichda o'qituvchi bolalarga ular darsda nimani o'rganganlarini va buning amaliy ahamiyatini tushuntiradi.

O'quvchilarni yangi material bilan tanishtirish, uni o'rganish sistemalashtirish va o'tilganlarni chuqurlashtirish, bilim, ko'nikma va malakani mustahkamlash va o'quv materiallarini takrorlash – bularning hammasi darsning asosiy qismiga kiradi.

Darsning yakunlovchi qismida esa o'quvchilarning ishlari baholanadi va ular mustaqil ishlarga jalb etiladi, ya'ni ularga uy vazifalarini bajarish bo'yicha aniq yo'llanmalar beriladi. Bu, ayniqsa, yordamchi maktablarda juda muhim, chunki uy vazifasi dars davomida qo'nga kiritilgan bilim, ko'nikma va malakani mustahkamlash va kengaytirishga, o'quvchilar faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga, ularda o'z-o'zini nazorat qilishni tarbiyalashga xizmat qiladi. Biroq rivojlantiruvchi ahamiyatga ega bo'lgan uy vazifasi sinfda bajarilgan ishning davomi sifatida qaralganda va o'quvchilar uni mustaqil bajarishlari mumkin bo'lgandagina shunday hisoblanadi. Uy vazifalari o'quvchilarni qiyinchiliklarni yengishga, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishga va mashqni aniq amalga oshirish uchun eng unumli yo'lni topishga o'rgatishi lozim.

O'qituvchi o'quvchilarga uy vazifasini tushuntirib, uni bajarish yo'llarini ko'rsatib berishi kerak. Ba'zida butun sinfgagina emas, balki ayrim o'quvchilarga alohida tushuntirib, individual vazifalar ham topshiriladi. Bundan tashqari, I.G.Yeremenko darsning yakunlovchi qismida ish joyini tartibga keltirish, nafas olish uchun jismoniy mashqlar bajarish, didaktik o'yinlar, topishmoqlar topishni uyushtirishni tavsiya qiladi. Yordamchi mактабда qaytarish darsning zaruriy elementi bo'lib hisoblanadi. Qaytarish bola materialni esidar chiqarmasdan oldin bajarilishi kerak. A.N.Graborov iбorasiga ko'ra,

qaytarish — unutishning oldini olishdir. Shuning uchun yordamchi maktablardagi darsning har bir bosqichi, avval o‘rganilgan bilimni yangi shakllarda qaytarish bilan, bilimni amaliy qo‘llash jarayonida qaytarish bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Shunga ko‘ra A.N.Graborov o‘ziga xos, ammo majburiy bo‘limgan, qaytarish alohida o‘rin tutgan dars tuzilishini taklif qiladi:

1. Dars o‘quvchilar tajribasini safarbar qilish bilan boshlanadi.
2. Bu tajriba sistemalashtiriladi.
3. Mavzu bo‘yicha yangi material bayon qilinadi.
4. Yangi va o‘tilgan material orasida aloqa o‘rnataladi.
5. Material takrorlanadi.
6. Yangi qoidalarga misollar o‘ylab topiladi.
7. Material umumlashtirilib, yakunlovchi qaytarish o‘tkaziladi.
8. O‘quvchilar ongida materialni mustahkamlovchi uy vazifasi beriladi. Yordamchi maktablardagi qaytarish o‘zgaruvchan xarakterda bo‘lib, u bolaning rivojlanishiga imkon yaratishi kerak. U ayni o‘tiladigan mavzu bo‘yicha o‘quvchilarda qanday ko‘nikma va malakani ishlab chiqishi kerakligini, mustaqil ish turlarini belgilashi kerak. Darsga tayyorgarlik jarayonida o‘qituvchi alohida e’tibor talab qiladigan o‘quvchilarni belgilab, avvaldan ular uchun alohida savol, uy vazifalari va topshiriqlar tayyorlab, uni o‘quvchilarga tushuntirib, bajarish usulini ishlab chiqadi, ayrim o‘quvchilar uchun individual topshiriqlar tanlaydi. Tayyorlanish davrida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakasini hisobga olish va tekshirish usullari va turlari ham ishlab chiqiladi.

O‘qituvchi dars rejasini tuzadi, agar o‘quv materiali mazmuni talab qilsa, uning qisqacha konseptini ham oladi. Bizningcha, dars rejasida quyidagi elementlar o‘z aksini topishi kerak:

1. Dars mavzuining nomi.
2. Darsning asosiy didaktik maqsadlari, ta’limiy, tarbiyaviy va nuqsonni tuzatish vazifalari.
3. Darsda foydalilanidigan jihozlar.
4. Darsning tuzilishi, ya’ni darsning asosiy qismlari yoki bosqichlarini, ularning ketma-ketligi va o‘tkazish uchun ketadigan vaqtini taxminan aniqlash.
5. Yangi materialni o‘rganish, mustahkamlash, takrorlashga oid va navbatdagi mavzularni o‘rganishga oid ishlarning mazmuni.

6. Darsning har bir qismida bajariladigan o'quv ishining metod va usullari.

7. Darsning borishida o'quvchilar olib boradigan individual ish so'ralishi kerak bo'lgan o'quvchilarning familiyalari.

8. O'quvchilar bilimini baholash.

9. Uy vazifasi.

Darsga qo'yilgan davr talabları

Hozirgi kunda yordamchi maktablarda dars 2 xil yo'nalishda: **an'anaviy, interfaol tarzda** olib boriladi.

An'anaviy dars olib borish bu shu kungacha o'tiladigan dars jarayonlari kabi olib boriladi. Interaktiv, ya'ni interfaol yo'nalish yangi pedagogik texnologiyaga asosan olib boriladi. Bunda darsda o'qituvchi emas, o'quvchilar faol, amaliy ishtirot etadilar. Yordamchi mактабда o'quvchilarga beriladigan fanlar asosidagi bilimlar, ularning e'tiqodlariga aylanishi o'ta muhimdir. Yordamchi maktab o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini korreksion rivojlantirish davr talabidir. Yordamchi maktab o'quvchilari barcha fanlardan olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, faoliyatlarini faollashtirish va ko'nikma, malaka hosil qilish lozimdir. Ular o'zlarining ko'rgan-kechirganlarini sabab-oqibat qonuniyatlarini anglab yetish va hayotga tatbiq qila olishi o'ta muhim. Yordamchi maktabda o'quvchilarga individual yondashish shu boisdan ham ta'lim jarayonining muhim talabidir.

Yordamchi maktabda o'qitishdagi individual yondashish faqat mashq ishlarida emas, balki o'quv jarayonining hamma bosqichlarida: yangi materialni o'tishda, mustahkamlashda va takrorlashlarda ham, uy vazifasini tuzishda va darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulatlarda ham amalgalashirishi zarur.

Hozirgi davrda ta'lim-tarbiya jarayonlarida pedagogik texnologiyani qo'llash bilan uzviy bog'lab olib borish, tanqidiy fikrllovchi shaxsnı tarbiyalashdek muhim vazifani kutmoqda. Hozirgi kun amaliyotiga tatbiq etilayotgan yangi o'qitish tizimini qat'yan ilmiy asoslangan maxsus pedagogika tizimiga aylantirish davr talabidir, zero, ijtimoiy tajriba elementlari - bilim, ko'nikma va malaka ijodiy faoliyat tajribalari -- maxsus maktab pedagogika tizimi doirasida, milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlarni qo'llagan holda korreksion-pedagogik ish mazmunini takomillashtirish maxsus maktab oligofrenopedagoglari oldida turgan dolzarb, asosiy vazifadir.

Yordamchi maktabda ta’lim jarayonida ta’lim mazmunining yangi loyihasini, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo’llash zarurati vujudga keldi.

Pedagogik texnologiya shunday bilimlar sohasiki, ular vositasida oligofrenopedagog faoliyati yangilanadi. O’quvchilarda hurfikrlilik, insonorvarvarlik, vatanparvarlik tuyg‘ulari tizimi shakllantiriladi. Davr talabi — «shaxs manfaati va ustuvorligi» maxsus ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishning asosiy omillaridan bir ekan, buni amalga oshirishda pedagogik texnologiya kerakli omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi pedagogik texnologiya deganda ishlab chiqarish mahsulotini tayyorlash jarayoni, bu jarayonni amalga oshirish vositalari, qurol-uskunalarini, jarayon ishtirokchilarining harakatlari tarzi, bir-biriga munosabati majmuasi tushuniladi. «Texnologiya» tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lgan holda fanga 1872-yil kirib kelgan. U ikki so‘zdan: «texnik» - san’at, hunar va «loges» - fan so‘zlaridan tashkil topib, hunar fani ma’nosini anglatadi.

Pedagogik texnologiya — ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida hamda ularning o‘zaro ta’sirini inobatga olib o‘qitish va bilim o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo’llashning tizimli uslubidir (YUNESKO).

1) Dars — ta’lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash funksiyalarining kompleks tarzda amalga oshirilishini nazarda tutadi. O’quvchining shakllanishiga doir barcha jihatlarga ta’sir o’tkazadi. Shaxsning bilimlarini oshiradi, aqliy qudrati va qobiliyatlarini rivojlantiradi, dunyoqarashini, axloqiy, estetik qobiliyatlarini, irodaviy fazilatlarini, mehnatga munosabatini shakllantiradi.

2) Dars o‘tishiga, shakliga ko‘ra sistema bo‘yicha olib boriladi: muayyan boshlanishdan, darslarning maqsadlari va vazifalarini belgilashdan, materialni tushuntirish, mustahkamlash va takrorlashdan, uyg‘a vazifa berishdan iborat bo‘ladi. Darsning qismlari o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan bo‘lishi, biridan keyin ikkinchisi o‘tishi kerak.

3) Dars o‘qitish tamoyillariga muvofiq bo‘ladi: u tarbiyaviy ta’sir o’tkazadi, ilmiy tushunish uchun qulay hisoblanadi, o‘quv materialining puxta va ongli tarzda o‘zlashtirilishiga, malaka, ko‘nikmalar shakllanishiga imkon beradi.

4) Dars mazmuni o‘quv dasturiga muvofiq bo‘lib, u boshqa darslar sistemasidagi bo‘g‘inlarni qamrab oladi. Ilgari, qanaqa

mazmun o'rganilgani va bu darsdan keyin nimalarni o'rganishlari kerakligini hamisha esda tutish shart. Faqatgina esda tutish va bilish emas, balki bajargan ishi o'quv faoliyati davomida keyinchalik o'rganilishi lozim bo'lgan ba'zi g'oyalar bilan oldindan tanishtirib ketish tendensiyasini vujudga keltirishi kerak.

5) Darsga tayyorgarlik ko'rish va uni o'qitish chog'ida, o'qitish va tarbiyalashga nisbatan zamonaviy psixologik-pedagogik va uslubiy yondashish hisobga olinadi.

O'qituvchi, shuningdek, mактабдаги muayyan vaziyatni: jihozlarni, texnikaviy vositalarni, mahalliy, ijtimoiy va tabiiy shart-sharoitlarni va boshqa narsalarni ham hisobga oladi.

Dars o'tishga tayyorgarlik va uni o'tish muvaffaqiyatli sinf dars sistemasi sharoitida o'quv jarayonini tashkil etish asoslarini tushuntirib berolganligi bilan belgilanadi.

Har qanday darsda maqsad va vazifalar ko'zda tutiladi. Ta'lim berish maqsadlari alohida ajratiladi. Dars hozirgi zamon talabini, tarbiyaviy maqsad va vazifalarini ham o'z ichiga oladi. Ular o'quv materialining mazmuni bilan ham, shuningdek, mактаб o'quvchilar shaxsini tarbiyalash va kamol toptirishga qaratilgan umumiy maqsadlar bilan ham belgilanadi. Tarbiyaviy vazifalar o'quvchilarning axloqiy, irodaviy, intellektual, uzlucksiz jarayoni hisoblanadi.

Har qanday dars o'quvchining ijobjiy fazilatlarini shakllantirishga faol yordam berishi shart.

Bunda darsning ta'lim berish jihatni, uning mazmuni, tashkili etilishi o'quv faoliyatining muayyan tarbiyaviy yo'nalishini vujudga keltiradi.

O'qituvchi aniq tarbiyaviy vazifalarini belgilaydi. Masaian, mashq qilish, ijodiy yondashish.

Darsda ta'lim berish o'quvchilarning shaxsiy tajribalariga tayanib ish ko'rishni talab qiladi. Agar material o'quvchilar shaxsiy boyligiga aylanib qolgan bilimlar bilan bog'langan, agar u mahalliy tabiiy va ijtimoiy hodisalar bilan aloqador bo'lsa, o'quvchilar uchun uni o'rganish osonroq, qiziqarliroq, tushunariiroq bo'lar edi. Shaxsiy tajribaga tayanish darsni muvaffaqiyatli o'tkazishning muhim shartidir.

O'quvchilarni o'qishga, mustaqil ravishda bilimlarni egallahsha o'rgatish umumiy jihatdan emas, balki har bir darsda muayyan tarzda hal etiladi. Bu eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Jamoa, guruh shaklida va individual tarzda ishlashni mohirlik bilan qo'shib olib borish darsni tashkil etishda asosiy masala hisoblanadi. O'quvchi o'quv topshiriqlarini tashkil eta olishi, shakllantira bilish va bajara olishi uchun uni jamaoa bo'lib ham, individual tarzda ham ishlashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Savollar

- 1.Yordamchi maktabda darsga qo'yiladigan didaktik talablar nimalardan iborat?
- 2.Yordamchi maktabda qanday turdag'i darslar qo'llaniladi?
- 3.Darsning didaktik, nuqsonni tuzatish va tarbiyaviy maqsadlari orasidagi aloqa qanday amalga oshiriladi?
- 4.Yordamchi maktablarda dars qanday tuziladi?

3.5. Yordamchi maktab o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholash darslari

O'quvchilarning ko'nikma va malakalarini hisobga olish ularning bilim egallashlarini, uning izchilligini nazorat qilishga xizmat qiladi. Bolalarning bilimlari nazorat qilinmasa, ular sistemali, izchil, mustahkam bilim ololmaydilar. O'quvchilardagi bilim darajalari to'g'ri, sistemali va differensiallashgan holda tekshirilib turilgandagina maqsadga erishish mumkin. Bolalarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirishning tarbiyaviy ta'siri shundaki, o'quvchilarda tekshirish tufayli o'z-o'zini nazorat qilish xislatlari rivojlanib boradi.

O'quvchilarning bilimlari kundalik, har bir dars davomida, dasturdagi ma'lum mavzular o'tilgandan keyin, har bir chorak, o'quv yili oxirida tekshiriladi. Shunga binoan baholashning joriy va yakuniy turlari mavjud, har bir baholash turiga mos keluvchi tekshirish usullari ham bor. Kundalik baholashda o'qituvchi kuzatish, yuzaki so'rashdan foydalansa, joriy va yakuniy baholashda og'zaki so'rash, sinov ishlaridan foydalananadi.

Yordamchi maktablarda o'quvchilar bilimini tekshirishning barcha turlari qo'llaniladi va bunda aqli zaif bolalarning o'ziga xos xususiyatlari qat'iy e'tiborga olinadi. Baholashning tarbiyaviy va tuzatuvchi tomonlariga alohida e'tibor beriladi. Yordamchi maktablarda ham ommaviy maktablardagi kabi besh balli baholash

tizimi qo'llaniladi. Ammo yordamchi maktab o'qituvchisi aqli zaif bolalarning bahoga munosabatlariga alohida e'tibor bilan qarashi talab etiladi. O'qituvchi, tarbiyachilar aqli zaif bolalarga bahoga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalashlari lozim. Obyektiv, haqqoniy baho har doim bolalarda o'qishga nisbatan qiziqishlarning oshishiga hamda o'z kuchiga ishonch hosil bo'lishiga yordam beradi. Ayniqsa, yordamchi maktablarda o'quvchilarining individual xususiyatlarini, xarakter kamchiliklarini, ularda jismoni yuqsonlarning borligini, qobiliyat cheklanganligini e'tiborga olish lozim.

Ayrim hollarda aqli zaif bolalarning eng oddiy yutuqlari ham ijobjiy baholashni talab etadi. Lekin buni, albatta, barcha aqli zaiflarga tatbiq etish kerak, degan ma'no kelib chiqmasligi kerak. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarini, ularning imkoniyatlarini yaxshi bilishi talab etiladi. Bahoning rag'batlanuvchi kuchidan foydalanish kerak. O'quvchilarga topshiriqlar berish vaqtida mumkin qadar topshiriqlarni individuallashtirish zarur. Aks holda bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilar sistemali ravishda past baho olib yuradilar. Buning oqibatida esa aqli zaif bolalarda darsga nisbatan yomon munosabat shakllana boshlaydi. Bu hol ularning imkoniyatlarini yanada chegaralab boradi. Yordamchi maktabda ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan yakka holdagi tuzatish ishlari birmuncha uzoq muddat davom etadi. Bunday bolalar umumiy bolalar bilan olib boriladigan frontal ishlarga qo'shilib ketmagunlaricha individual ishlar davom ettirilishi mumkin. Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarining imkoniyatlarini bilishi asosida ularning kelajakdag'i rivojlanish rejasini belgilashi mumkin.

Yordamchi maktab darslarida keng tarqalgan tekshirish usuli og'zaki so'rashdir. Og'zaki so'rashning turli shakllaridan foydalanish mumkin. Og'zaki so'rash yangi bilimlar berish oldidan, yangi bilimlar berish vaqtida bolalarning shaxsiy tajribalarini, oldingi bilimlarini aniqlash uchun olib boriladi. Bu holda og'zaki so'rash yangi berilayotgan materiallar bilan oldingi egallangan bilimlar orasida bog'liqlikni hosil qilish uchun qo'llanadi hamda bolalarni yangi bilimlarni yaxshi idrok etishga psixologik jihatdan tayyorlaydi.

Og'zaki so'rash ma'lum mavzu o'tilgandan keyin materialni qaytarish, nazorat qilish va bolalar bilimlarini bir tizimga keltirish uchun qo'llaniladi. Bu ishlar natijasida aqli zaif bolalar tafakkurining rivojiga ijobjiy ta'sir etishi ko'zda tutiladi. Yordamchi maktab

o'qituvchilarining o'quvchilarga berayotgan savollari bolalardagi bilimlarni, geografik nomlarni xronologik shaklda egallashga xizmat qilishi kerak. Ular sabab-oqibat bog'lanishlari orasida munosabatlarning shakllanishiga yordam beradigan mazmunda bo'lishi zarur. Chunki bunday mazmundagi savollar aqli zaif bolalarda tahlil va tasnif, taqqoslash, umumlashtirish, yanada murakkabroq fikrlash jarayonlarining yuzaga kelishiga, ularning umumiy kamolotiga yordam beradi.

M.M.Nudelmanning ko'rsatishicha, aqli zaif bolalar bir tizimdagи savollarga yaxshi javob berar ekanlar. Ular o'qigan materiallarini birmuncha oson gapirib beradilar. Idrok etilgan material bilan berilayotgan so'roq orasidagi bog'liqlikni ko'ra bilmaydilar. O'qituvchi bolalarga berilayotgan savollar mazmunini o'zgartira bo'rib, ularning rivojlanishini, ulardagi nuqsonni tuzatish ishlарini boshqarib boradi. O'quvchilar bilimlarini tekshirishning turli-tuman usullaridan foydalanib, yordamchi maktab o'qituvchisi o'quvchilarining o'quv materiallarini yanada samaraliroq o'zlashtirishlariga erishishi mumkin. Yordamchi maktablardagi o'quvchilar bilimlarini tekshirish orqali bir qator vazifalarni hal etish lozim.

Tekshirish orqali aqli zaif bolalarga bilim beriladi. ular tarbiyalanadi, diagnostika ishlari amalga oshiriladi hamda rag'batlanirish uchun baholanadi.

Aqli zaif bolalarning bilimlarini tekshirish jarayonida bilimlar aniqlanadi, mustahkamlanadi, sistemalashtiriladi va umumlashtiriladi. Tekshirish, qaytarishning tarbiyaviy ta'siri ham bor, chunki bu jarayon aqli zaif bolalarni tarbiyalaydi va ularda javobgarlik hislарining rivojlanishiga yordam beradi, o'zlarini nazorat qilish kuchayib boradi. Yordamchi maktablarda to'g'ri tashkil qilingan tekshirish va so'rash ishlari har bir o'quvchining, butun sinf jamoasining yaxshi bilim olishiga bo'lган qiziqishlarini oshiradi. Tekshirishning diagnostik vazifikasi ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Buning yordamida o'quvchilarining har tomonlama rivojlanish xususiyatlarini, qobiliyatlarini, bilim oluvchanligini o'rganish mumkin. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etmasdan yordamchi maktablarda yaxshi tashkil etilgan ta'lim jarayonini tasavvur etish mumkin emas. O'quvchilarining xususiyatlarini yaxshi bilishimiz asosida bolalarga baho qo'yishdan ko'zlangan maqsadni yanada to'larоq tushunib boramiz. O'quvchilar bilimlarini tekshirish vaqtida asosiy e'tiborni

xotirasi yomon, tinglash qobiliyatlari past bolalarga qaratishimiz kerak. Yordamchi maktab o'qituvchisidan tekshirishda izchillikka amal qilish talab etiladi. Chunki bilimlarni muntazam, izchillik bilan tekshirib borish asosidagina o'quvchilardagi individual xususiyatlarni aniqlab olishimiz va shular orqali aqli zaif bolalarga o'z vaqtida yordam berishimiz mumkin. Yordamchi maktablarda o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini tekshirish suhbat shaklida ham amalgaloshirilishi mumkin. Aqli zaif bolalarning tez charchashini inobatga olib, savol-javob va suhbatlarni 10-15 daqiqagacha o'tkazish mumkin, deb tavsiya etadi I.G.Yeremenko. Berilayotgan savollar ommaviy maktablardagidek barcha sinfga qarata beriladi. Doskaga chiqarilgan bolaning javoblarini barcha sinf o'quvchilari diqqat bilan tinglashi talab etiladi. O'qituvchi xohlagan vaqtda doskada javob berayotgan o'quvchini to'xtatib, boshqa bolaning davom ettirishini so'rashi mumkin. Savol-javobga iloji boricha ko'proq o'quvchilar jalb etilishi kerak. Boshlang'ich sinflardagi suhbatlar ko'proq o'yin xarakterini kasb etishi mumkin.

O'quvchilar bilim va malakalarini aniqlash uchun yozma ishlardan: diktant, bayon, kichik hajmli insho, rasm, chizma chizish, ma'lum joyning rejasini tuzish va boshqalardan foydalaniladi. Yozma ishdan oldin o'quvchilarga ko'rsatma beriladi. Aqli zaif o'quvchilarning amaliy topshiriqlarni bajarishlari o'ziga xos ravishda o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikmalarini tekshirish usulidir. Chunki bunday topshiriqlar orqali o'quvchilarning qanchalik hayotga tayyorlanganligi ko'rindi.

Bolalarning bilim va ko'nikmalarini tekshirish uzviy tarzda baholash bilan bog'liqidir. Bahosiz o'quvchilar bilimini tekshirish kam samara beradi. Chunki bolalar o'z ish natijalarini ko'rmaydilar. Shu sababli o'zlarini nazorat qilish pasayib boradi.

Yordamchi maktab tajribasi shuni ko'rsatdiki, aqli zaif bolalarga baho qo'yish ular ruhiyatiga salbiy ta'sir etmaydi. Maktab hayotining ko'rsatishicha, haqiqatan ham bir qism bolalar bahoga noxush munosabat bildirsalar, bir qismi bahoga umuman befaroq bo'ladilar. Ammo yordamchi maktab o'quvchilarining asosiy qismi bahoga o'zlarining mehnat faoliyati natijasi sifatida qaraydilar.

Bolalarda baho obyektiiv qo'yilmaganda unga nisbatan note'g'i munosabat yuzaga keladi. Bolalarga olgan baholarni tushuntirish lozim. Baho qo'yishda o'quvchining yutuq, kamchiliklarini ko'rsatish

kerak. E'lon qilingan baho sinf jurnaliga va o'quvchi kundaligiga qo'yiladi. Ba'zan og'zaki baho ham qo'yilishi mumkin. Har holda og'zaki rag'batlantirish katta ahamiyatga ega. Baho qo'yish asosan kundalik tekshirish orqali amalga oshiriladi.

Yuqori — «5» (a'lo) ball o'quvchiga o'quv dasturi mazmunini chuqur va to'la egallab olgani, o'quv materialda nazariy va amaliy jihatlarni ajrata bilgani, mustaqil ravishda javob qila olgani, aytilgan ta'riflarni, tushunchalarni izohlab bilgani, shuningdek, javobning to'g'ri uslubda va badiiy shaklda ekanligi uchun qo'yiladi. Javob ishonarli va bexato bo'lishi kerak.

«4» (yaxshi) ball ham materialning mazmunini chuqur va to'la o'zlashtirgani uchun, o'rgatilgan tushunchalarni, qoidalarni, ta'riflarni to'g'ri bayon eta olish va isbotlay bilish malakasi uchun qo'yiladi. Lekin o'quvchi noaniqliklarga, javob mazmunining shakli va uslubida ayrim xatolarga yo'l qo'yadi.

«3» (o'rta) ball o'quvchi o'quv materialidagi asosiy qoidalar va bog'lanishlarni o'rganganligi va tushunishini anglatadi. Lekin uning tushunchalarni yetarli darajada chuqur egallab olmaganligidan dalolat beradigan xatolarga yo'l qo'yadi, aytadigan fikrini bayon eta olmaydi. Javobida birlik yo'q bo'ladi. Javob garchi to'g'ri bo'lsa ham, u alohida, tarqoq fikrlardan iborat bo'ladi. O'quvchi, odatda, o'qituvchining yordami bilan javob beradi. Yomon ball c'quvchi sistemasisiz, tarqoq bilimlarga ega bo'lgani uchun qo'yiladi. U asosiy va ikkinchi darajali narsalarni ajratmaydi, nazariy va amaliy mazmunning bir-biridan farqini bilmaydi. O'quvchi, odatda, yod olingen iboralarni takrorlaydi, bundan uning o'zida ham, o'qituvchida ham qanoatlanish hissi tug'ilmaydi. Dasturdagi materialning bundan keyingi o'rganilishini unga asoslanib tashkil etib bo'lmaydi. Bunday bilimlar aqliy rivojlanishga kamdan-kam yordam beradi.

Juda yomon ball qachonki, o'quvchi dasturdagi materialni bilmagan va tushunmagan, mazmunda qo'pol xatolarga yo'l qo'ygan hollarda qo'yiladi. 1–2-sinflardan jurnalga ham, daftarga ham yomon baho qo'yilmaydi. Yordamchi muktab o'qituvchisi o'quvchilarini og'zaki «a'lo», «yaxshi» deb rag'batlantiradi. Yordamchi muktab o'quvchilarida bunday rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Ular o'z kuchlariga ishona boshlaydilar. Yordamchi muktabda o'qituvchining umuman bunday baholashi aqli zaif o'quvchi shaxsini emas, balki ko'rsatgan sifatlarini baholashni nazar-

da tutadi. Bu hol o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar yanada yaqinlashishida kerakli omil bo‘lib xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Yordamchi mактабда baholashning qanday turlari bor?
2. Yordamchi mактабдаги baholashning ommaviy mактабдаги baholashdan farqi nimada?
3. Baholashning qanday vazifalari mavjud?
4. Bilimlarni chorak va yakuniy tekshirishning qanday shakllari bor?
5. Baholashning mezonlari haqida tushuncha bering.

4-bob. YORDAMCHI MAKtablarda TARBIYA NAZARIYASI

4.1. Yordamchi maktablarda o'quvchilarni tarbiyalashning maqsadi, vazifasi, tamoyillari va usullari

Insonning insoniyligi uning ma'naviy va axloqiy jihatdan qalbi pokligi, halolligi, barkamolligi bilan belgilanadi.

Ma'naviy tarbiya insoniy tarbiyaning eng mubim bosqichidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaraderligini oshirish to'g'risida»gi Farmonida: «Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, yoshlarni boy madaniy mensovsimiz, tarixiy ar'analarimizga, ununinsoniy qadriyatlarimizga sadedat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan harcha islohotlarning hal qiliuvchi emildir»,¹ - deb ta'kidiydi.

Tarbiya nazariyasi yangi insonni shakllantirishning umumiy qonuniyatlarini ochib beruvchi yetakchi ilmiy g'oyalar tizimidan iborat.

Tarbiya nazariyasi – tarbiyaning mazmuni, uning bolalar yoshiga bog'iqligi, tarbiya tamoyillari hamda ulardan samarali foydalanish shart-sharoitlari, o'quvchilarning maktabdan tashqari ishlari, maktab, oila, mehnat jamoalari, jamoatchilikning bola tarbiyasidagi birgalikdagi ishlar mazmunini ochib beradi. Tarbiya nazariyasi va usullari maktablardagi tarbiyaviy faoliyatning ilmiy asosini tashkil etadi. Ammo tarbiyani ta'lidan umuman ajratib qo'yish mumkin emas. O'qish keng ma'noda tarbiya deb atalgan gulning yaprog'i, xoles. Gulga chiroy baxsh etadigan yaproqlarning hammasi birdek bo'lgani kabi tarbiyada ham asosiy va ikkinchi darajali narsa bo'lmaydi.

Demak, malakalarda sof tarbiya bo'limganidek, sof ta'lim ham bo'lishi mumkin emas. Ayniqsa, yordamchi maktablarda tarbiyalab ta'lim berish va bilim berib tarbiyalash juda zarur.

Bizga ma'lumki, har qanday jarayon ma'lum biror natija olishga qaratiladi. Jarayon natijasiz bo'lishi mumkin emas. Aks holda holat

jarayoni I.A.Karimovning «Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi Farmoni. Toshkent sh., 1996-yil 9-sentabr. «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» gazetasi. 1996-yil 13-sentabr, 37-son.

Tarbiya ham muhim jarayondir. Tarbiya jarayonidan qanday mahsulot olamiz. Uning asosiy natijasi har tomonlama yetuk, uyg‘un, kamol topgan shaxsni shakllantirishdir. Bu jarayon ikki yoqlama bo‘lib, uyuştirishni va rahbarlikni ham, tarbiyalanuvchi shaxsning faollik ko‘rsatishini ham taqozo qiladi. Ammo bu jarayonda o‘qituvchi, tarbiyachi yetakchi rol o‘ynaydi, chunki u tarbiyaning umumiyligi maqsadlarini amalga oshirish reja va dasturini ishlab chiqadi, tarbiya shakllari, usullarini asosli tarzda tanlab oladi va hayotga tatbiq etadi.

Yetuk shaxs tarbiyalash tarbiyaning yakuniy maqsadidir. Tarbiya tizimining tuzilishini g‘isht, beton plitalari, temir materiallari va boshqa detallardan iborat qurilish bilan qiyoslash mumkin. Qurilishda har bir detal, buyumning o‘z vazifasi bo‘lib, ayni vaqtida muayyan darajada umumiyligi vazifalarni ham bajaradi. Ammo, ayni vaqtida eng yuqori sisfatli buyumlar to‘plami imorat bo‘lib qolmaganday, tarbiya jarayonining ham alohida qismlari, komponentlari zarur natijani bermaydi. Buning uchun tarbiyada barcha detallar: maqsad, vazifalar, mazmun, shakllar, usullar umumiyligi, birga bo‘lishi kerak. Shaxs tarbiyasida atroflicha yondashish obyektiv ravishda aqliy, g‘oyaviy, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiya birligini, o‘quvchilar ongi, xulq-atvori va faoliyatining birligini, tarbiya jarayonida tashkil etishning individual, guruhli va ommaviy shakllarini qo‘sib olib borishni ta’minlaydigan kompleks pedagogik tizimlarni vujudga keltirishni hamda bu tizimlarning amaldagi tatbig‘ini talab etadi. Tarbiya jarayoni shaxsning ijtimoiy-qadrli fazilatlarini shakllantirishga, uning atrofga, odamlarga, o‘ziga nisbatan munosabatlari doirasini vujudga keltirishga va kengaytirishga qaratilgandir.

Shaxsning turmushdagi turli jihatlariga munosabatlari tizimi qanchalik keng, xilma-xil va chuqur bo‘lsa, uning o‘z ma’naviy dunyosi shunchalik boy bo‘ladi.

O‘z tabiatiga ko‘ra tarbiya jarayoni ko‘p omilli mazmunga ega. Buning ma’nosi shuki, bola shaxsining qaror topishi maktab, oila, jamoatchilik, ijtimoiy muhit va yaqin atrofdagi vaziyatning xilma-xil,

bevosita va bilvosita ta'siriga bog'liq, ya'ni ularni hamma narsa: otanolar, boshqa odamlar, narsalar, voqealar, pedagoglar birgalikda tarbiyalaydilar. Tarbiya jarayoni boshqariladigan xarakterga egaligi bilan ajralib turadi.

Tarbiya uzoq davom etadigan va aslida uzlusiz jarayon bo'lib, bu jarayon bola mакtabga kelishidan ilgariroq boshlanadi hamda butun umr bo'yi davom etadi. Tarbiya jarayonining natijalari odatda bir xil xarakterda bo'lmaydi. Bu narsa ko'pgina sabablarga, o'quvchilarning individual tipologik tafovutlariga, ularning hayotiy va ma'naviy tajribasiga, shaxsiy munosabatiga bog'liq. Shuning uchun bir xil tarbiyaviy ta'sirning o'zi «shaxsning hissiy larzaga kelishiga» olib kelsa, ayni vaqtida boshqa bola ma'naviy dunyosiga ta'sir qilmasligi mumkin.

Tarbiya jarayoni, odatda, qayta tarbiyalash aqli zaif bolaning atrof-muhitda u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va shaxs xususiyatlarini bartaraf etish bilan qo'shib olib boriladi. Yuksak darajaga erishadigan tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash vazifasini bajaradigan tarbiyadir. Tarbiya dialektik jarayon ekanligini unutmashigimiz darkor. Bola atrof-muhitning murakkab olami bilan xilma-xil munosabatlarga kirishadi. Mayjud tarbiya jarayonida bu holatni hisobga olmaslik mumkin emas. Bu holat tarbiya jarayoniga puxtalik, jo'shqinlik, o'zgaruvchanlik olib kiradi. Tarbiya vositalarining hech bir doimiy bo'la olmaydi. Chunki bola o'zgarib, rivojlanib, murakkablashib boradi, tarbiya jarayonining alohida dialektikasiga yana shu narsa sabab bo'ladiki, tarbiyalanuvchi bu jarayonda obyektgina emas, balki ko'pincha subyekt sifatida ham qatnashadi. Umuman tarbiyada «subyekt» va «obyekt» tushunchalari bir-biri bilan chambarchas alcqada bo'lib, bir-birini taqozo etadi. Tarbiya jarayonining dialektikasi uning ziddiyatli ekanligida namoyon bo'ladi. Aslida bu narsa tarbiyalanuvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablar bilan ularning tayyorgarlik darajasi, rivojlanish darajasi o'rtasidagi qaramaqshilikni hal etishga qaratilgandir.

Dialektikaga binoan har qanday rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi ichki omillardir. Ammo ular namoyon bo'lishi uchun qulay tashqi sharoitlar yaratilgan taqdirdagina rivojlanish mazmuni va yo'nalishini belgilaydi. Bolaning ichki kuchlari tashqi ta'sir ostida tarkib topib, o'zgarib, shaxsning o'z

rivojidagi yuksakroq darajaga o'tishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya jarayonining harakatlantiruvchi kuchi bilan ziddiyatlar tashqi va ichki bo'lishi mumkin. Tashqi ziddiyatlar obyektiv mavjud bo'lgan narsa bilan atrofdagi kishilar yurish-turishi o'rtasidagi nomuvofiqlikda, tafovutda namoyon bo'ladi. Ko'pincha yordamchi maktab o'quvchisi tengdoshlari va katta yoshdagilarning ijtimoiy normalarga zid xattiharakat qilganliklarining guvohi bo'ladi. Tarbiya jarayonining tashqi ziddiyatlaridan biri tashqi talablar bilan aqli zaif o'quvchining o'z xulq-atvori o'rtasidagi ziddiyatdir. Tarbiya jarayonining obyekti bo'lgan aqli zaif bolaning xarakterli xususiyati uning real imkoniyatlari bilan, jamiyat tomonidan uning xulq-atvori va faoliyatiga qo'yilgan talab o'rtasida, tarbiyalanuvchining munosabati bilan uning mustaqillikka intilishi o'rtasidagi ziddiyatdan iboratdir. Yordamchi maktab o'quvchisi talablari bilan uning imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyat ham ichki ziddiyatlar jumlasidandir. Bu ziddiyat xulq-atvorda ravshan ifodalanishi mumkin: va'da berib, uni bajarmaslik, biror ishni boshlab oxiriga yetkazmaslik va boshqalar. U holda tarbiya jarayonida nizoli vaziyat vujudga keladi. Insonning shaxs sifatida kamol topishidagi asosiy manbalardan biri talablar bilan ularni qondirish usullari o'rtasidagi ziddiyatdir. Agar yordamchi maktab o'quvchisining talablari tegishli ashyo yoki harakat bilan va zarur hajmda qondirilsa, ziddiyat ilk bosqichdayoq bartaraf etiladi yoki to'g'rilanadi. Aslida esa bola talablari darhol, to'la qondirilmaydi. Buning oqibatida turli ziddiyatlar kelib chiqadi va asabiy holat yuz beradi.

Tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uchun uning qonuniyatlarini chuqur o'rganish talab qilinadi. Bu qonuniyatlar vazifalarning muayyan rivojlanishi uchun sharoit yaratuvchi sabab va oqibat o'rtasidagi muhim, zarur ichki aloqalarning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

L. S. Vigotskiyning ta'kidlashicha, bolani maksimal darajadagi ijtimoiy mavjudot deb atash mumkin. Bolaning tashqi dunyoga har qanday, hatto eng oddiy ibtidoiy munosabati ham hamisha boshqa edamga munosabat orqali aks etgan bo'ladi. Ko'pgina faktlar, narsalar shundan daloiat beradiki, bola qo'lidagi o'yinchoq ko'pincha kattalar bilan muomala vositasi bo'ladi. Bolalar kattalardan yordam olish uchun emas, balki muomalaga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun ham o'yinchoqqa murojaat qiladi. Aqli zaif bolalar muomalasi ular

faoliyatining o‘ziga xos turi bo‘lib, bunda boshqa bir odat narsa sifatida namoyon bo‘ladi. Bu faoliyatda muayyan mazmun (o‘qish, dars tayyorlash, model yasash, gaplashish, sayrga chiqish) boshqa bolalar bilan muomala usuligina hisoblanadi. Yoshlardagi muomala tengdoshlarini va o‘zini bilishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Aqli zaif o‘quvchi shaxs bo‘lib shakllanishi uchun faoliyat turlari to‘g‘ri tashkil etilgan bo‘lishi kerak. Shakllanayotgan shaxs faoliyatining asosiy turlari korreksion pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilgan taqdirdagina tarbiyaviy jarayon vositalari bo‘la oladi. Faoliyatning ijtimoiy-foydali bo‘lishining o‘zi kifoya emas, u aqli zaif o‘quvchining o‘zini qanoatlantirishi, o‘quvchining shaxsiy idealiga to‘la mos kelmasa-da, asosiy xususiyatlari bilan muvofiq kelishi kerak. Bola nima qilayotganligini, shu paytda unda qanday ruhiy kechinmalar ro‘y berayotganini va u nimaga erishayotganligini, atrofdagilarga qanday munosabatda bo‘layotganligini ham nazarda tutish muhim.

Yordamchi maktablarda turli faoliyatlar ichida o‘yin alohida ahamiyatga ega. O‘yin jarayonida bola o‘z kuchlarini sinaydi va o‘zi yaratgan narsalarga mustaqil ravishda egalik qiladi. Aqli zaif bolalarning o‘yin faoliyati maktabgacha bo‘lgan yoshda vujudga kelib, o‘z rivojlanishida ibtidoiy taqlid qilish shaklidan to murakkab rolli o‘yingacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tadi. Dastlab bolalarning o‘yini odamlarning predmetli faoliyatiga o‘xshab ketadi, so‘ngra ular o‘yinda kishilarning o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy yurish-turish normalari va qoidalarini aks ettiradilar. Maktab yoshidayoq bolalar ularni hayot va faoliyatning jamoa shakllariga o‘rgatadigan jamoa o‘yinlarini afzal ko‘radilar. Kuzatishlarning ko‘rsatishicha, o‘yin vaziyatlari bolalarning hissiy idrokinib boyitadi, qiziqishini oshiradi, tasavvur, fikr yuritish faoliyatlarini rivojlantiradi va o‘zlarining istak va kayfiyatlarini muayyan talablarga bo‘ysundirishga o‘rgatadi.

Bola o‘yinda o‘zini qanday tutsa, katta bo‘lganidan keyin ko‘p jihatdan o‘zini ishda shunday tutadi. O‘yinda ixtiyorilik asosiy rol o‘ynaydi, mehnat esa, ko‘pincha majburiy xarakter kasb etadi. O‘yinga kirishish payti bolalarning istagiga bog‘liq bo‘ladi, mehnat faoliyati esa burchga asoslanadi. Ammo xohish, ixtiyorilik, istak bo‘lmagan mehnat bolaga og‘ir botadi. Shu mazmundagi o‘yin ham majburiy tus oladi, aqli zaif bolaga yoqmaydi. O‘yin, yuzaki

qaraganda, betashvish, yengil tuyuladi. Aslida esa, o‘yin ijrochidan g‘ayrat, bardosh, uyushqoqlik talab etadi. Shuni qayd etish kerakki, har qanday o‘yin tarbiya vositasi bo‘la olmaydi. O‘yin faoliyatiga pedagogik rahbarlik aqli zaif bola e’tiborini asta-sekin, lekin tobora ko‘proq o‘yin o‘rnini egallaydigan mehnat sohasiga bosqichma-bosqich qaratishni taqozo etadi. Bolalarning o‘yin faoliyatini tezlashtirish, unga kattalarga xos elementlarni kiritish, bolalar tashabbusi o‘rniga yuqorida rahbarlik qilish maqsadga muvofiq emas. Aqli zaif bolalarning **o‘qish faoliyatini** o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. O‘qish mehnatning eng murakkab turi — aqliy mehnatga asoslanadi. Aqli zaif o‘quvchilarda bilimlarni, malaka va ko‘nikmalarni egallah o‘qish jarayonidagina emas, balki o‘yin va mehnat jarayonida ham ro‘y beradi.

Aqli zaif bolalar mehnatning ijtimoiy ahamiyatini to‘la tushunib yetmasliklari natijasida ularning ayrimlarida mehnatga nisbatan salbiy munosabatlar ham shakllanadi. Turli xil mehnat turlarida mashq qilish, ularni doimo boyitib, takomillashtirib borish orqaligina aqli zaif bolalar faoliyatning mustaqil usullariga o‘tadilar, o‘zlarini shaxs sifatida anglay boshlaydilar. Inson birorta axloqiy yoki ma‘naviy fazilatni tayyor holda, meros shaklida olmaydi. Bularning hammasi faoliyat jarayonida, avvalo mehnatda tarbiyalanadi, rivojlanadi, shakllanadi va takomillashib boradi. Yordamchi maktablarda o‘qituvchi va tarbiyachilar bolalarning mehnat faoliyatini to‘g‘ri tashkil etib, ularni mehnatga faol jalb eta olsa, bu faoliyat tarbiyaning yetakchi vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Tarbiyalash aqli zaif bolalarga qanday ishlarni qilish-qilmaslik haqida ko‘rsatma berishdangina iborat emas. Tarbiyalanuvchi ana shunday xatti-harakatlarning ijtimoiy mazmunini anglab olishiga, unda to‘g‘ri xatti-harakatlarning ijtimoiy yoki shaxsiy qadri borligiga ishonch hosil bo‘lishiga erishish kerak.

Aqli zaif bolalarda ko‘p hollarda shaxs motivlari bilan harakatlari o‘rtasida bir xil bog‘liqlik yo‘qligini aytib o‘tish muhim. Juda katta istak bo‘lishiga qaramay, ko‘pincha harakat mutlaqo ro‘y bermaydi. Aqli zaif bolalar psixologiyasida uning xulq-atvorini yo‘naltirib turadigan boshqa omillar ham borki, ular orasida shaxsning intellektual va hissiy-irodaviy faolligi muhim ahamiyatga ega. Yordamchi maktablardagi tarbiyaviy jarayon shaxsning ehtiyoj, motivlarini qanchalik boyitsa va qayta qursa, uning intellektual va

hissiy-irodaviy faolligini qancha ko‘proq rivojlantirsa, bu jarayonning samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi.

Aqli zaif o‘quvchiga mehnatning foydali va qadrli ekanligini qancha uqtirmang, agar bola mehnatning ta’sirini, charchoqni, mehnat zavqini o‘zi tatib ko‘rmasa, ko‘ngildagi natijaga erishib bo‘lmaydi. Shu sababli yordamchi maktabda tarbiya ishining asl mohiyati bola bilan o‘tkaziladigan turli suhbatlarda emas, balki bola hayotini tashkil etishdadir. Tarbiya ishi avvalo tashkilotchining ishidir.

Xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlari bamisol iinsonning zaruriy ehtiyojiga aylangan harakatlар va xulq-atvorning barqaror shakllari bo‘lib, ularning bajarilmasligi noxush, ko‘ngilsiz, ba’zan og‘ir oqibatlarga olib keladi. Inson qanchalik ko‘p oqilona va foydali ishlarni o‘zi uchun odat qilib olsa, uning hayoti shunchalik mazmunli, samarali bo‘ladi. Yaxshi odat iinsonning axloqiy boyligi ekanligi barchaga ma’lum. Odob to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxsiy xususiyat bo‘lmasdan, balki muayyan sharoitlarda tarbiyalanib boradi.

Abu Ali ibn Sino odamning oliv asab faoliyatini o‘rganar ekan, bu faoliyatning nihoyatda moslanuvchan ekanligini doimo ta’kidlar edi. Hech narsa harakatsiz, ta’sirsiz qolmaydi, balki hamma narsaga hamisha erishish mumkin, yaxshi tomonga o‘zgarish mumkin, buning uchun faqat tegishli sharoitlar yaratilishi lozim. Bu so‘zlarda o‘quvchi faoliyatining rivojlanishiga ishonch, pedagogik optimizm tarbiyaning g‘oyat katta imkoniyatlarini tan olish ifodalangan. Demak, Abu Ali ibn Sino ham ana shu sermazmun jumlasida aqli zaif bolalarning taqdirini ham nazarda tutgan.

I.P.Pavlov va uning shogirdlari asarlarida ta’lim-tarbiya jarayoni murakkab, ko‘p tomonlama, shartli reflektor aktidan iborat ekanligi tasdiqlangan. Tarbiya va ta’lim vositasi bilan tashqi ta’sir hamda muayyan javob faoliyati o‘rtasida shartli refleks deb ataladigan aloqa vujudga keladi. Organizmga bir necha bor takrorlanadigan sistematik ta’sir dinamik stereotipni, shartli bog‘liqlikni vujudga keltiradiki, bu bog‘liqlik muayyan darajada doimiylilik, stabillik, barqarorlik xususiyatiga ega bo‘ladi.

Asab tizimining bu xususiyatini bilgan pedagoglar bir xil harakatlarni, bir xil ishlarni ko‘p marta takrorlash asosida aqli zaif o‘quvchilar xulq-atvoring mustahkam ko‘nikma va odatlarini hosil qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Bu borada juda keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Ushbu masalaning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan ham uning mamlakatimiz taraqqiyoti, yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi uchun nechog'li muhim ahamiyat kasb etishini his qilish qiyin emas. Zero, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, har qanday millatning ravnaqi, umumbashariyat tarixida tutgan o'rni, mavqeい va shuhrati bevosita o'z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog'liq.

Milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasi o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy g'oyalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Zero, yoshlarda ona-Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash, ularni mamlakatimizning tinchligi, ravnaqi va farovonligi uchun kurashishga tayyor turadigan fidoyi insonlar qilib yetishtirish, shuningdek, mafkuraviy kurashlar avj olgan hozirgi paytda yoshlarga yot va begona g'oyalar ta'siridan muhofaza qilish biz pedagoglarning muqaddas burchimizdir. Shunga ko'ra, maxsus ta'limga oid o'quv dasturlari va darsliklar mazmuni milliy g'oya va mafkuraga oid mavzular va ular orqali dunyoni murakkabliklari bilan anglaydigan zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan insonlarni voyaga yetkazishdir. Milliy istiqlol g'oyasi hamda kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy g'oyasi «O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat» g'oyasiga asoslanadi va unga xizmat qiladi.

O'zbekistonning hozirgi davri, ertasi va bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli uchun mafkuraning, to'g'rirog'i, milliy istiqlol mafkurasining naqadar muhim va zarurligini hayotning o'zi ochiq-oydin ko'rsatib va isbotlab turibdi. Milliy istiqlol mafkurasining nechog'li ahamiyatli ekanligi Prezidentimizning bir qator asarlarida va suhbatlarida ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Aynan milliy istiqlol mafkurasi jamiyat taraqqiyotining muhim omili xalqning istiqbolini belgilaydigan qarashlar, g'oyalar majmui bo'lib, u insoniyat tarixidagi eng ajoyib g'oyalarga, ya'ni insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ijtimoiyadolat, tenglik, hamjihatlik, o'zaro totuvlik, inoqlik, do'stlilik - birodarlik haqidagi qoida va ta'limgotlarga asoslanganligi bilan e'tiborga sazovordir.

Milliy istiqlol mafkurasining bir qator xususiyatlari qatorida shuni ham aytish lozimki, u millatu yurtni buyuk maqsadlar sari chorlovchi, safarbar etuvchi bosh mezondir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatimiz istiqboli haqida fikr yuritar ekan, mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrati manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligidadir, deb ta’kidlaydi. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo‘sniinchilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar bo‘yi avaylab-asrab kelmoqda. Oliy maqsadimiz ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizga tinchlik, demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit yaratishdir.

Jamiyatimizda soglon kishilar o‘rtasida qanchadan-qancha nogiron, majruh insonlar mavjud. O‘zbekistonda turli nuqson bilan tug‘ilgan (intellektual, ko‘rish, eshitishida nuqsoni, tayanch-harakat a’zolarida nuqsoni bo‘lgan bolalar) yoki kasallik natijasida biron-bir nuqson orttirgan bolalarga maxsus maktablarda maxsus ta’lim beriladi. Maxsus maktablarda bunday bolalarga o‘ziga xos individual xususiyati, yoshi va nuqson turiga xos maxsus ta’lim berilmoqda. Shuningdek, bolalarni hayotda o‘z o‘rinlarini topib, jamiyatimiz ravnaqiga o‘zlarining faol mehnatlari bilan hissa qo‘sishlari uchun korreksion rivojlantiruvchi ta’lim berib boriladi.

Bugungi yangilanish davr talabi maxsus ta’limda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani yuksak darajaga ko‘tarish, ayniqsa, muhim ekanligini dolzARB vazifa qilib qo‘ydi. Shuning uchun ham maxsus maktab o‘quvchilari ongida g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lmasligi uchun ularning mafkuraviy ongini mumkin qadar shakllantirib borish hamda ularni istiqlol g‘oyalariiga sadoqat ruhida tarbiyalash, hozirgi kunning yangicha tarbiyaviy mahoratlarini ishlab chiqish taqozo etilmoqda.

Maxsus ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida maxsus maktab o‘quvchilarini madaniyatli, ma’naviy yuksak qilib tarbiyalash uchun defektologlar keraklicha faoliyat ko‘rsatsalar, amaliy tarbiya borasida keskin burilishlar bo‘lib, yaxshi natijalarga erishish mumkin. Zotan, maxsus maktablarda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan amaliy tarbiya milliy istiqlol mafkurasini, ma’rifiy-ma’naviy, madaniy taraqqiyot yo‘lidagi barcha korreksion tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish yaxshi samara beradi. Bu haqda Yurtboshimiz shunday deydi: «Milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy tarbiyani yo‘lga qo‘yish jamiyatimizda sog‘lom muhitni saqlash bilan barobar ekanligini anglashimiz darkor.

Haqiqatan ham ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatni yuksaltirishda maxsus maktab o'quvchilarini o'rab turgan sog'lom muhit katta rol o'ynaydi. Sog'lom muhit maxsus maktab o'quvchilarining tarbiyaga oid barcha ishlari to'g'ri hal qilinishiga, maqsad va vazifalarining to'la amalga oshishiga imkoniyat yaratadi. Shu bois ham sog'lom muhit maxsus ta'lim muassasalarini uchun zaruriy va muhim shartlardan biridir. Darhaqiqat, sog'lom muhitda, sog'lom avlod tarbiyalanadi, sog'lom mafkuraviy ong shakllana boradi. Bola uyida, ta'lim-tarbiya muassasalarida ko'rgani, o'rgangani natijasida, o'qituvchilaridan olgan saboqlari ta'sirida kamolga yetib boradi. Buning uchun esa, milliy tarbiya mezonini belgilashda ham maxsus maktab o'quvchilarining yosh va individual xususiyatlari, aqliy imkoniyatlari, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqson turlarini inobatga olgan holda yuqorida aytib o'tilganlar amalga oshirib boriladi. Milliy g'ururga o'z ona tili, madaniyati, milliy burchini anglashi, o'z tilida to'g'ri so'zlash kabilar asos bo'ladi.

Milliy odob, sharqona odob-axloq, vijdoniylit, halollik, insonparvarlik, Vatanga sadoqat, erkin fikrlash, rostgo'y-adolatli bo'lish, Vatan tuprog'ini e'zozlash kabi tushunchalarni maxsus maktab o'quvchilari ongiga har qadamda singdirib borish, tarbiyaning qaysi sohasida bo'lmasin, uning tarixini, ota-bobolarimiz tajribalarini, ularning bu boradagi pandnoma va nasihatlarini, o'gitlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda xalq og'zaki ijodi, hadislardan foydalanish ham kerakli omil bo'lib xizmat qiladi. Buni amalga oshirish maxsus maktab o'quvchilariga predmet darslarini o'qitish jarayonida va yana ona tili, tarix, tabiatshunoslik, odobnoma, Vatan tuyg'usi kabi dars jarayonlarida amalga oshirilib boriladi. Ular orasidagi bog'liqlik, uyg'unlik oligofrenopedagoglar tomonidan amalga oshirib boriladi. Ayniqsa, mehnat darslarida o'quvchilarni o'z mehnatlari bilan yurtimiz ravnaqiga o'z hissalarini qo'shib borishga o'rgatib borilishi muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Maxsus maktab o'quvchilari ongiga milliy istiqlol g'oyasi asoslarini singdirish orqaligina ularda zamonaviy e'tiqod va to'g'ri dunyoqarashni, zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan mustaqil fikrli ma'naviy barkamol insonlarni tarbiyalash mumkin. Shunday ekan, jamiyatimiz a'zolari bo'l mish jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar mafkuraviy ongini shakllantirishda quyidagilar asosiy vazifa qilib qo'yiladi:

– Milliy istiqlol g‘oyalariga, ona-diyorimizga cheksiz sadoqat, mehru muhabbat, e‘tiqod, Vatanimiz ozodligi, ravnaqi uchun fidoyilik ruhida tarbiyalashdek turli yo‘llar bilan tarbiyaning samaradorligini oshirish, maxsus makteblarda mehnat, kasb-hunarga yo‘naltirish, hasharchilik an’analarni tiklash va davom ettirish;

– ota-bobolarimizga xos mehnatsevarlik odobiga sodiq qolish;

– bilim olishga ahamiyat berish;

– ustozu ziyyolilarga, ma‘rifatparvarlarga hurmat-ehtirom ko‘rsatish va g‘amxo‘rlik qilish tuyg‘ularini tarbiyalash va rivojlantirish;

ma’naviy-axloqiy va boshqa qadriyatlarni yanada rivojlantirish va ularga to‘la rioya qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantira borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlari merosida bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari

Bu borada yordamchi maktab o‘quvchilariga tushunarli bo‘lgan, ularning diqqatini o‘ziga jalb qiladigan, ularning hayot tajribalaridan namuna olgan holda hikoyalar tanlash kutilgan natijalar beradi. Yordamchi maktabda darsga tanlangan matnlar qiziqarli, tili sodda va tushunarli, fikrlashga undovchi, evristik xarakterda bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, bu borada ma‘rifatparvar adib Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931)ning «Adibi avval», «Adabi soniy» kitoblari darslik-majmua yo‘sindida yozilgan bo‘lib, ko‘plab she’riy va nasriy hikoyalarni o‘z ichiga olgan. Ular mavzuiga ko‘ra har xil. Ko‘pchiligi tarixiy mavzuda bo‘lib, yo‘nalishiga ko‘ra ibratemuz pandlardan tashkil topgan, tili sodda, o‘qilishi qiziqarli. Masaian, «Adabi soniy»dagi ilk hikoyalardan biri «Iskandar ila Arastu» deb nomlangan. «O‘tgan zamonda Iskandari Zulqarnayn degan bir podshoh bor edi,- deb boshlanadi hikoya. – Uning Arastu otlig‘ bir olim va dono ustozи bor edi. Iskandar Arastuni o‘z yoniga bosh vazir qilib olib, barcha mamlakat ishlarini topshirgan edi. Bir ish qilsa shuning maslahati ila qilur edi. Eshikdan kefsa o‘rnidan turib joy berur edi. O‘zining otasidan ortiq izzat va hurmat qilurdi. Bir kun vazirlardan biri Iskandardan so‘radiki, «Nima uchun Arastuni otangizdan ortiq izzat qilursiz?» U javob qildi: «Otam go‘yoki meni osmondan yerga tushurdi, ya’ni otam meni dunyoga kelmeg‘imga sabab bo‘ldi. Ustozim ilmu adab o‘rgatub, martaba va izzatimni

ortmog‘iga sabab bo‘ldi. Shuning uchun ustozimni otamdan ortuq izzat qilurman.

Bu hikoyadan hissa nadur? Bolalarning o‘zлari topsunlar».

Yuqorida keltirilgan misollarning talabi aynan hozirgi zamon talablariga mos tushadi. O‘quvchilar o‘zлari mustaqil fikrlab «Ustoz otadan ulug‘« ekanligini yodlariga tushiradilar va ular mustaqil ravishda qissadan hissa chiqaradilar.

Bunday korreksion-tarbiyalovchi ishni muntazam olib borish samarali natijalar beradi.

Shuningdek, «Avesto»da shunday fikrlar ham uchraydiki, ular bugungi kunda tibbiyot fani, pedagogika fani va olimlari tomonidan to‘la e’tirof etilmoqda. Masalan, «Avesto»da qarindoshlar o‘zaro oila qurishi man etiladi. Bundan tashqari, mazkur asarda bola tarbiyasining ijtimoiy ahamiyati masalasi ham o‘z aksini topgan.

Abu Ali ibn Sinoning «Ishorat», «Donishnom», «Xayy ibn Yag‘zon», «Salomon va Ibsol», «Tib qonunlari», «Tadbir ul-manzil» kabi asarlarida tarbiyaning barcha shakllariga oid qarashlar mavjud. Bu qarashlar yuz yillar davomida avloddan-avlodga o‘tib, bolalarni tarbiyalash uchun maktab bo‘lib kelmoqda.

Abu Ali ibn Sinoning yaxshilik va yomonlik tushunchalariga bo‘lgan munosabati Forobiylar fikriga hamohang bo‘lib, u ham irsiyat, muhit va tarbiyaning ta’siri bola tarbiyasi uchun birdek muhim deb hisoblaydi. U yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, muhit, odatlanish natijasida vujudga kelishini qayd qilib o‘tadi.

Abu Ali ibn Sino oilada, maktabda bolani ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda mehnatsevarlik roliga alohida urg‘u berib, ota-onalarni farzandlariga nisbatan kasb-hunar o‘rgatishga da’vat etadi, mehnatni ulug‘laydi. Mehnatsiz hayot kechirishning bolaga bo‘lgan salbiy ta’sirini ko‘rsatib beradi.

Ayniqsa, Abu Ali ibn Sinoning aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyaning birligi va ularni amalga oshirish yo‘llari haqidagi fikrlari bugungi kunda ham ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda va ma’naviy qadriyat sifatida e’tiborga loyiqdir.

Abu Ali ibn Sinoning ta’limotiga ko‘ra axloqiy ravnaq inson zotigagina xos jarayondir, chunki u aql, tafakkurning buyuk quvvatiga tayangan holda haqiqat bilan yolg‘onning chegarasini aniqlabgina qolmasdan, do‘stni dushmanidan ajrata oladi. Narsalar ichki mohiyat-

mazmunini kashf etish uchun aqliy-intellektual yetuklik zarur bo‘lsa, axloqiy ravnaq uchun buning o‘zi yetarli emas, bilim bilan pok xulq-atvor, sa‘y-harakatlarning o‘zaro uyg‘unligi insonni donishmandlik, komillik darajasiga eltadi. Bunga hech qanday shubha bo‘lishi mumkin emas, chunki «go‘zallik va axloqiy kamolotga intilish inson zotiga xos xususiyatdir».

Abu Ali ibn Sinoning asarlarida, jumladan, «Tadbiri manzil» risolasida inson tabiati tug‘ilganda axloqli yoki axloqsiz bo‘lmaydi, degan g‘oya muhim ahamiyat kasb etadi.

Odamlar aslida yaxshi xulq, tayyor shaxsiy sifat, odat va ko‘nikmalar bilan tug‘ilmaydilar. Bunday xususiyatlar ularning ijtimoiy hayotida sekin-asta shaxsiy va o‘zgalar tajribasi, ota-onalari, ajdodlar, an‘analar, ta’lim-tarbiya ta’sirida shakllana boradi.

Bolalarning tarbiyasini barvaqt boshlagan ma’qul. Tarbiya jarayonida bolalarga yaxshi ijobiy odatlarni singdirib borish, ishtiyoq va qiziqishlarini sinchkovlik bilan payqab olishga harakat qilish, hayotda nafsi tegadigan muayyan kasb-hunar va san’atni egallahsha yo‘naltirish zarur, «Bolaning tana bo‘g‘inlari barqarorlashgan, uning tili to‘g‘ri-ravon gapirish va quloglari tinglash qobiliyatiga ega bo‘lgan va o‘zgalar so‘zlarini qabul qilish hamda o‘rganilayotgan narsaga (tabiiy) moyillik paydo bo‘lgan paytdan boshlab uni ilmlar va axloq-odob (asoslari)ga o‘rgatib borish lozim».

Modomiki, inson voyaga yetishida ta’lim-tarbiyaning o‘rni beqiyos ekan, bu jarayonni nimadan boshlamoq lozim? Abu Ali ibn Sino azaliy an‘analarga tayangan holda, Qur‘oni karimni, dinning maqsadi va tilning grammatik qonun-qoidalarini qunt bilan o‘rganishdan boshlashni ma’qul deb biladi. Bola asta-sekin o‘z ona tilini o‘rganib olib, boshqa fanlarni ham o‘rgana boshlaydi, degan fikrlarni bildiradi.

Abu Ali ibn Sino insonparvar, ma’rifatparvar olim sifatida inson axloqiy ravnaqining cheksiz imkoniyatlarini e’tirof qiladi. Lekin uning ro‘yobga chiqishi shaxs va jamiyatning imkoniyatlari bilan bog‘liqidir.

Mir Alisher Navoiy bolalar tarbiyasini barvaqt boshlagan ma’qul, degan barcha mutafakkirlarning fikriga qo‘shilgan holda, insonning voyaga yetishida ta’lim-tarbiyaning o‘rni beqiyos ekan, bu jarayonni azaliy an‘analarga tayangan holda amalga oshirish lozim, deb hisoblaydi. O‘rganilayotgan bilimlarni yod olish, xotirada saqlash va kezi kelganda tez-tez takrorlab turish ta’lim va tarbiya jarayonida

muhim o'rin egallab, bola xotirasini mustahkamlaydi, ilmlar chashmasiga kirib borishni ta'minlaydi, tarbiyalanuvchida muayyan tartib-intizomni shakllantiradi, bahs-munozara yuritish madaniyatini yuksaltiradi.

Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida ilgari surgan ta'limiylar tarbiyaviy g'oyalari, ko'plab nazariy mulohazalari milliy ma'naviyatimizni xolis anglab yetishda bugungi avlodlar uchun benazir manba va asos bo'lib xizmat etadi.

Eramizdan avvalgi 523–529-yillar orasida buyuk mutafakkir Zardusht tomonidan yaratilgan «Avesto» kitobida ham ta'limgar tarbiyaga oid qator g'oya va qarashlarni ko'rish mumkin.

«Avesto»da ta'kidlanishicha, tarbiya hayotning tayanchi, shu boisdan, har bir yoshni yaxshi o'qish va yozishga o'rgatish lozim. Unga yoshligidanoq mehnat qilib, mehnatning tagi rohat ekanligini anglatish, buning uchun daraxt ko'chati o'tqazishga, uy-ro'zg'or qurollari yasashga, yerga ishlov berish va chorva bilan shug'ullanishga o'rgatish shart. Zotan, uning fikricha, yaxshi va ezgu ishlar yaratish uchun kishi mehnat qilishi zarur, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratmas ekan, u yashash lazzatini ham his qilmaydi, hayot qadriga ham yetmaydi.

Yuqoridagi fikrni davom ettirib, yanada chuqurroq g'oyani ham ilgari suradi. Inson nafaqat mehnati tufayli o'zini va oilasini boqadi, balki unda yerga va yurtiga bo'lgan muhabbati ham paydo bo'ladi. Zotan, har inson o'zi o'sib-ulg'aygan mamlakatni eng yaxshi va go'zal mamlakat deb tushunmog'i kerak.

Husayn Voiz Koshifiy (1440–1505) XV asrning ikkinchi yarmida Xurosonda Alisher Navoiy atrofida to'plangan alloma, shoir va donishmandlar orasida mashhur va qomusiy iste'dod egalaridan biridir. Husayn Voiz Koshifiy Hirot madrasalarida talabalarga ta'limgar tarbiya bergen, Xuroson shaharlarida axloq-odobdan va'z aytgan. Koshifiy o'z asarlarida ijtimoiy-axloqiy hayot, ma'naviyat masalalariga katta o'rin bergen. Ularda insonparvarlik, xalqparvarlik, yuqori ma'naviyatga ega bo'lish, madaniy yuksalish g'oyalarni ilgari surgan. Uning «Axloqi Muhsiniy», «Axloqi Karim», «Iskandar oynasi», «Javohirnomá», «Tafsiri Husayn» kabi asarlari axloqiy ta'lilotning yetakchi g'oyasidir. U salbiy axloqiy xislatlarni qoralaydi, ularning inson hayotiga va jamiyat uchun katta zarar olib kelishini qator hikoyat va rivoyatlar bilan ko'rsatadi.

Koshifiy ijobiy xislatlarni kishilarda bo‘lishi shart bo‘lgan insoniy fazilat deb tushunadi va sabr, hayo, iffat, pokizalik, sobitqadamlik, saxiylik, saxovat, rostgo‘ylik, shijoat, kamtarlik, hushyorlik, balandhimmatlilik, diyonatllilik, ahdiga vafodorlik, andishalilik, izzat-hurmatni bilish, sir yashira olish kabi fazilatlarni birma-bir ta’riflab o‘tadi.

Abu Abdulloh Rudakiyning (860–941) axloqqa oid asarlarida aql-idrok, xulq-atvor va bilim asosiy o‘rinni egallaydi. Mutafakkir bilimni hamma boyliklardan ustun qo‘yadi. Rudakiyning fikricha, insonning to‘la baxtga ega bo‘lishi uchun to‘rt narsa kerak: sog‘liq, yaxshi odob, yaxshi nom va aql. U insonlarni voqealarning ichki mohiyatidan, uning tashqi tomonidan ajrata bilishga chaqiradi. U yaxshilik, saxiylik va ulug‘vorlikni targ‘ib qiladi.

Rudakiy asarlarida Vatanga, xalqqa muhabbat, kishilar o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro hamkorlikning kishilik jamiyatini uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini bir necha bor ta‘kidlab yozgan. Uning fikricha, haqiqiy do‘stlik uchun kishilarning hatto turli dinda bo‘lishlari ham xalaqit bera olmaydi.

5-bob. YORDAMCHI MAKtablarda MEHNAT TA'LIMI

Yordamchi maktablardagi mehnat ta'limi nuqsonli o'quvchilarni umumtexnik, kasb-hunar va xo'jalik-maishiy bilimlari, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi va maktablarda shu maqsad asosida ish olib boradi. Har bir ayrim mehnat turlari maxsus maktablarda, maxsus dasturlar asosida olib boriladi. Barcha turdag'i mehnatning mazmuni, mohiyati, tashkil qilinishi aqli zaif o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash, ularda texnik qobiliyatlarni rivojlantirish, mustaqillik, faoliyot tarbiyalashga qaratiladi. Turli toifadagi nuqsonli o'quvchilarining jismoniy, ruhiy rivojlanish xususiyatlari maxsus maktablardagi mehnat ta'limining mazmunini, usullarini belgilab beradi. Maxsus maktablar o'z o'quvchilarini ishlab chiqarishga tayyorlash bilan birga ularning nuqsonlarini kamaytirish uchun mehnatdan asosiy pedagogik vosita sifatida ham foydalanadi. Bu vazifalarni hal qilishda barcha pedagogik, tibbiy va texnik vositalardan foydalaniladi.

Yordamchi maktablardagi mehnat ta'limi — aqli zaif o'quvchilarining psixofizik nuqsonlarini tuzatishda asosiy vositalardan biri sanaladi. Sodda turdag'i mehnat faoliyati oligofren bolalarga birmuncha tushunarli bo'lib, ulardagi barcha sezgi organlarining samarali ishlashiga, fikrlash jarayonlarining rivojlanishiga yordam beradi. Yordamchi maktablarning asosiy vazifasi, deb ta'kidlanadi shu maktablar dasturida, debil darajadagi aqli zaif bolalarni tarbiyalash va o'qitishdan iborat. Aqli qoloq bolalarga xos umumiyligi nuqson — bilish jarayonlarining cheklanganligidir. Shu sababli, aqli zaif bolalar ta'lim-tarbiyasining rivojlanishida birinchi o'ringa bolalarning bilish faoliyatlarini tuzatishga alohida e'tibor berilgan. Yordamchi maktablarning mana shu asosiy, o'ziga xos vazifalari asosida ta'lim mazmuni, usullari ochib beriladi. Respublikamizda yordamchi maktablar maxsus maktablarning bir tarmog'i sifatida taraqqiy etdi. Yordamchi maktablardagi ta'lim bevosita nuqsonli bolalarni hayotga moslashtirishga xizmat qiladi. Yordamchi maktablarni tugatgan o'quvchilarining 90 foizi ishlab chiqarishning turli sohalarida ishga o'rnatshib, o'zlarini moddiy jihatdan ta'minlay olar ekanlar. Oz qism

aqliy nuqsonlilargina nogironlar muassasalarida, davolash-mehnat ustaxonalarida ro'yxatda turar ekanlar. Bu ma'lumotlar yordamchi maktablarning o'z oldiga qo'ygan ijtimoiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etilayotganligining ishonchli dalilidir.

Aqli zaif bolalarning bevosita jamiyat ishlab chiqarish jarayonida qatnashishlari natijasida bu o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy masalalari ijobiy hal etiladi, ya'ni ular ham normal tengdoshlari qatori dam oladilar, davolanadilar, ijtimoiy ta'minotdan foydalananadilar. Bir so'z bilan aytganda, ular ham jamiyatning teng huquqli fuqarolari sifatida yashaydilar. Mana shu natijaga erishish uchun barcha mamlakatlardagi defektologlar, pedagoglar, shifokorlar, psixologlar harakat qilmoqdalar. Yordamchi muktab o'quvchilarga bilim berish, tarbiyalash, ularni mustaqil hayotga tayyorlashni asosiy maqsad qilib qo'ygan ekan, demak, birinchi o'rinda ma'lum mehnat turlaridan bilim berish, ularda tegishli ko'nikma, malakalar shakllantirish turadi. Mehnat ta'limining asosiy yetakchi vazifasi nuqsonlarni tuzatishdir.

Mehnat ta'limidagi barcha tuzatish ishlari qat'iy maqsad asosida izchil amalga oshirib borilishi kerak. Bolalarga biror narsani tayyorlash jarayonini tushuntirish asosida ayrim bilish jarayonlarini tarbiyalash ham amalga oshirib borilishi e'tiborda tutilishi kerak. Bilish jarayonlarini takomillashtirish va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish o'z-o'zidan ta'lim natijasi sifatida yuz bermaydi. Aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan mehnat ta'limi va tuzatish ishlariiga taalluqli ta'lim jarayonida normal bolalarning rivoji orasida o'xshashlik mavjud. Bunda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Buning uchun ta'lim o'qituvchi tomonidan rivojlantirish, tuzatish ruhidha tashkil etilishi darkor. Yordamchi muktabdagi tuzatish vazifalari umumijtimoiy vazifalar bilan bog'lab olib borilishi kerak. Yordamchi maktablardagi mehnat ta'limining ijtimoiy va tuzatish vazifalari o'z navbatida bu ishning aniq, tashkiliy usul va shakllarini aniqlashga yordam beradi, o'quvchilarning umumiyligi tayyorgarlik darajasi, o'z navbatida, ma'lum mehnat turini tanlashni taqozo etadi. Bu muktabni bitirgan o'quvchilar asosan birinchi va ikkinchi toifali mutaxassis bo'lib yetishadilar. Yordamchi muktab o'z o'quvchilariga sodda, tor soha bilimlarini berish bilan kifoyalananadi. Bularga temirchilik, duradgorlik, tikuv ishlari hamda karton muqovalash, sodda qishloq xo'jalik mutaxassisliklari kiradi. Bulardan tashqari bo'yoqchilik,

maishiy ishlar, qo'g'irchoqlar yasash bo'yicha ham aqli zaif bolalar ma'lum bilimlar egallashlari mumkin. Bularning barchasida sodda, murakkab bo'limganlik xarakterli belgidir. Demak, yordamchi matablardagi mehnat ta'limining birinchi vazifasi aqli zaif o'quvchilarni ishlab chiqarishga jalb etsa, ikkinchi vazifa — mehnat orqali ularning nuqsonlarini to'g'rinish, yumshatish, kamaytirish, ularda ijobjiy shaxsiy sifatlarni tarbiyalashdir.

Barcha ijodiy faoliyatlar singari mehnat qilish uchun ham o'qish, o'rganish kerak. Inson ma'lum mutaxassislikni egallashi uchun ma'lum vaqtida, ma'lum hajmdagi bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishi lozim.

Ta'limdagi muvaffaqiyat berilayotgan bilimlarning murakkablik darajasiga, olib borilishiga, ta'lim usullariga hamda ta'lim olayotgan o'quvchilarning psixofizik imkoniyatlariga bog'liq. Mana shu omillar orasida ma'lum bog'liqlik mavjud. Bolalarga ma'lum mutaxassislik berish uchun ular jismoniy, aqliy tomondan yetilgan bo'lishlari kerak. Agar berilayotgan ta'lim «yaqin vaqtlarda rivojlanishi mumkin bo'lgan zona»da bo'lsa, unda bolaning psixofizik qobiliyatlarining rivojlanishiga ijobjiy ta'sir etadi. Aqli zaif bolalar bilish faoliyatlaridagi mavjud psixofizik nuqsonlar asosida ta'lim jarayonining ayrim komponentlari orasidagi bog'liqlik qiyinlashadi. Mehnat ta'limining yordamchi maktab o'quvchilarining umumiy kamolotiga ta'sirini belgilashda bularni e'tiborga olish kerak.

Ma'lumki, har bir kishining mehnati jamoa va uning uchun amalga oshadi. Shu sababli aqli zaiflarda mehnatga ijobjiy munosabat, intizom, jamoada ishlash ko'nikmalarini tarbiyalash kerak. Kichik bolaning eng oddiy, ixtiyorsiz, instinctiv harakatlari sekin-asta ixtiyoriy, ongli harakatlarga aylanib boradi. Shu jarayonda ta'lim katta rol o'yaydi. Bolalarda mehnat malakalariga oid harakatlar shakllantirish ham mehnat ta'limi tarkibiga kiradi. Bu harakatlarni shakllantirishning o'ziga xos qonuniyatlari bo'lib, mehnatda aqliy harakatlar shakllantirish bilan uzviy bog'liq. Mehnat ta'limida aqliy rivojlanishning yetakchi omili bolalarning mustaqil, maqsadga muvofiq mehnat faoliyatini tashkil etishdir. Bu esa, o'z navbatida, ularning aqliy rivojlanishi bilan bog'liq. Rus oligofrenopedagogikasida mehnat ta'limiga e'tibor o'zining xarakterli tomonlari bilan ajralib turadi. 1910-yildayoq mashhur defektolog A.Pabst ham qo'l mehnatiga katta e'tibor bilan qaragan edi. Qo'l

mehnati aqli zaif bolalar bilan ish olib boradigan yordamchi maktablar uchun, ayniqsa, muhim. Bu yerda birinchilardan bo‘lib psixik rivojlanishdagi nuqsonlarni mashqlar orqali bartaraf etish mumkinligi amaida ko‘rsatiladi. Aqli zaif bolalarga haqiqiy bilim berishni boshlashdan oldin ularning sezgi va muskullarini mashq qildirish, rivojlantirish zarur.

Haqiqatan, Ye.K.Grachyova, M.P.Pastavskaya, G.Ch.Troshin, V.P.Kashenko, G.N.Rossolimo, D.l.Azbukin, A.I.Graborov va boshqa rus defektologlarning ishlarini tahlil qilsak, ularning har biri u yoki bu asnoda qo‘l mehnatiga alohida e’tibor berganligini ko‘ramiz. V.P.Kashenkoning ta’kidlashicha, qo‘l mehnati «asosiy, yetakchi fan sifatida tan olinishi va barcha tarbiyaviy va ta’limiy ishlarimizning asosi bo‘lishi lozim».

Bundan tashqari muallif qo‘l mehnatidan boshqa fanlardan ham alohida ish usuli sifatida foydalanishi tavsiya etgan. Bizningcha, qo‘l mehnatining ijobil tomonlari A.I.Graborov ishlarida birmuncha kengroq va izchilroq aks ettirilgan. «Bola tafakkuri bilan uning muskullari orasida, — deb yozadi . Aqli zaif bola ishlay turib, narsalar ishlab chiqara turib, topshiriqlarni bajarib, o‘zida ishonch tarbiyalaydi hamda shaxsini takomillashtirib boradi». Demak, bola mehnat faoliyatida o‘z-o‘zidan rivojlanib borar ekan.

Insonning mehnat faoliyatida harakattlar zaruriy qismlardan bo‘lib, insonga xos bo‘lgan faoliyatning maqsadga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Mehnat faoliyati tarkibiga kiruvchi aqliy harakatlar turli malakalar tarzida namoyon bo‘ladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- a) og‘zaki, yozma, surat va jadvallardan foydalana olish;
- b) o‘lchash, hisoblash uchun o‘lchash ishlarini bajara olish;
- c) buyumlarning tartib bo‘yicha yasalish jarayonini rejalash-tira olish;
- d) o‘z ishini izchil nazorat qilib borish (taxminan, asboblar asosida);
- e) ma’lum buyumlar yasash jarayonida sabab-oqibat bog‘la-nishlarini tushuna olish.

Yordamchi mактабда мehнат та’лимining о‘рни va roli

Har bir bosqichning o‘z vazifalari bor, ularni amalga oshirish shundan keyingi ta’lim uchun asos yaratadi. Bir bosqichdagi

kamchiliklar aqli zaif o'quvchilar mehnat tayyorgarligining keyingi bosqichlarida katta qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Qo'l mehnati mashg'ulotlarida o'quvchilarni kasbkorlik mehnat ta'limiga tayyorlash amalga oshiriladi. Bunga qog'oz, karton, loy va gazlama, sim hamda yog'och bilan ishlash, shuningdek, konstruktur bilan ishlash xizmat qiladi.

Mehnat ta'limi va tarbiyasi mehnat ma'lumoti, mehnat tarbiyasi berish va tuzatuvchi-tarbiyalovchi vazifalarga egadir. Mehnat ta'limining vazifasi o'quvchilarda hayotda, mehnatda zarur bo'ladigan bilimlar, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

Mehnat tarbiyasining vazifasi o'quvchilarda shaxsning ijobiy fazilatlarini – mehnatsevarlik, qat'iyat, mehnatning ijtimoiy sabablarini, jamoada ishlay olish, mehnat kishilariga, moddiy boyliklarga hurmatni tarbiyalashdir. Bolalar muntazam ravishda aniqlikka, puxtalikka o'rnatib boriladi, ular mehnat madaniyatini tushuna va bajara boshlaydilar.

Aqli zaif bolalarni bo'lajak kasbga tayyorlash uchun qo'l mehnati darslarida ulardá mehnatdagি tashkiliy ko'nikmalarni tarbiyalashni (mashg'ulotlarga o'z vaqtida kelish, faqat o'z ish o'rnida ishlash, zarur materiallar va asboblarni tanlash, ularni detallarga ishlov berish texnologiyasiga muvosiq joylashtirish; material va asboblarga ehtiyyotkorona bo'lish, xavfsizlik texnikasi qoidalarini va sanitariya-gigiyena talablarini bajarish ko'nikmalarini tarbiyalashni) nazarda tutadi.

Ish vaqtining bekor sarflanishini tugatish yoki qisqartirish mehnat intizomining ahvoli: kech qolishlarga, mashg'ulotlardan erta ketib qolishga barham berish bilan chambarchas bog'liqidir. Aqli zaif bolalarga ish vaqtining har bir daqiqasini tejashning ahamiyatini doimo singdirib borish kerak, toki ular ish vaqtining moddiy qiymatini tushunib yetsinlar.

Qo'l mehnati darslarida estetik tarbiya ham amalga oshiriladi. Yordamchi maktab o'quvchilari buyum materialini, go'zalligini, uning fakturasi xususiyatlarini his qilishlari lozim. Shu bilan birga, ularga shunday tushunchani, ya'ni ishning sifatini, buyumning yaxshiligi, mustahkamligi, go'zalligi va mehnat unumdotligi mehnat faoliyatining asosiy mezonlaridir, degan tushunchani qulay shaklda tarkib toptirish kerak. Mehnat ta'limi va bolalarga taqdim etiladigan buyumlar estetik tushunchalarning shakllanishiiga yordam beradi.

Mehnatning korreksiyalovchi va rivojlantiruvchi vazifasi aqli zaif o'quvchilarning psixofizik rivojlanishidagi kamchiliklarini tuzatishda, ularda ijtimoiy mehnat va maishiy ko'nikma hosil qilish uchun zarur bo'lgan shaxsiy sifatlarni tarbiyalashda ifodalanadi.

Mehnat ta'limga doir, mehnat ta'limini takomillashtirishga qaratilgan bu masalalarga lozim darajali e'tibor beriladi. Yordamchi maktab o'qituvchisi o'quvchilarda mehnat topshirig'inining farqiga borishi, materiallar, buyumlar, asboblarning xususiyatlari va sifatini, mehnat sharoitini tanlil qilishni, topshiriqning borishini nazorat qilish va rejalashtirishni, o'qituvchining rejasiga, predmetli-texnologik kartaga muvofiq ravishda ishni bosqichma-bosqich bajarganligi haqida hisobot berishni avj oldirishi lozim.

Korreksion ishlar mehnat harakatlari, tadbirdari, mo'ljal olishni nazorat qilish, konstruktiv va tasviriy faoliyatni rivojlantirishni, harakatlar va natijalarning to'g'riligini aniqlashni, tayyor buyum sifatiga baho berishni o'z ichiga oladi.

Qo'l mehnati darslari aqli zaif bola analizatorlari butun sistemasini mashq qildiradigan mehnat malakalarini hosil qilishga yordam beradi. Bu bilan yordamchi maktab o'quvchilarining tevarak-atrofdagi olam obyektlarini analistik idrok etishni faollashtirish va yaxshilash uchun har qanday mehnat turida zarur bo'ladigan ko'rish, sezish, eshitish, hid bilish, kinestezik tasavvurlarni shakllantirish uchun obyektiv shart-sharoitlar yaratiladi. Idrok etishning mo'ljal olish, tadjiqotchilik va boshqaruvchilik vazifasi shakllanadi. Fikriy jarayonlarni tahlil qilish va sintez qilish rivojlanadi. O'quvchi bir xil materiallarni boshqalari bilan fakturasiyu shaklli miqdori bo'yicha taqqoslab ko'radi. Buning natijasida mantiqiy operatsiya bo'lgan taqqoslash usullarini amaliy o'zlashtirish sodir bo'ladi. Mehnat operatsiyasini ongli ravishda bajarish odatda buyumni fikran qismlarga ajratib chiqishni nazarda tutadi. Bu hol ijrochilik operatsiyalari tartibini belgilashga yordam beradi - tahlil qilish usullari ishlab chiqiladi.

Detallardan buyumni yig'ish, ayrim operatsiyalarni yaxlit sistemaga birlashtirish sohasidagi faoliyat sintez qilishni rivojlaniradi, faol faoliyatga ko'pgina tushunchalarni kiritish hisobiga yordamchi maktab o'quvchilarining nutqi boyib boradi, o'quvchilar og'zaki nutqni tuzish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

Bundan tashqari, oqilona tashkil etilgan mehnat harakatga doir turli-tuman mehnat malakalarini rivojlantirish imkonini beradi va yurak-tomir sistemasini mustahkamlaydi, to‘g‘ri nafas olishni yaxshilaydi, aqli zaif o‘quvchilarning motor-harakat sohasidagi turli buzilishlariga barham beradi. Maxsus maktab o‘quvchilari orasida harakatlari buzilgan o‘quvchilar ham uchrab turadi (harakatlarni muvofiglashtirishning buzilishi, falajning qoldiq hodisalari, harakatlarning patologik buzilishi), lekin bunday o‘quvchilarni ham mehnatga o‘rgatish zarur. Harakat qilishga doir mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish ishlari aniq maqsadga qaratilgan va muntazam bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham oligofrenopedagog o‘quvchilar bilan mashg‘ulotni tashkil etar ekan, har qanday holda har bir o‘quvchi uchun ish sur’ati va maromini belgilashi, bajarilishi kerak bo‘lgan dastlabki ishlarni aniqlashi lozim bo‘ladi. Ayniqsa, ish usullarini to‘g‘ri bajarishga alohida e’tibor berish kerak, toki keyin yana o‘quvchilarni qaytadan o‘rgatishga ehtiyoj qolmasin. Ish harakatlarining aniq, yengil bo‘lishini ishlab chiqish zarur. Jismoni yuqlamani, ayniqsa, ta’limning uchinchi yilida sekin-asta ko‘paytirib borish darkor.

Lekin mehnat o‘z-o‘zidan tuzatuvchi ta’sir ko‘rsatmaydi. Qo‘l mehnati darslarida yordamchi maktab o‘qituvchisi psixofizik kamchiliklarini tuzatish, o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun yaxshi shart-sharoitlar yaratib berishi lozim.

Qo‘l mehnati darslarida olib boriladigan korreksion-tarbiyalovchi ishlar ta’lim va tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish va boshqarishni taqozo etadi.

Aqli zaif o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish

1-3-sinflardagi qo‘l mehnati aqli zaif bolalarga kasb-mehnat ta’limi berishning propedevtik (kirish) bo‘g‘ini hisoblanadi. Qo‘l mehnati darslarining kasb-mehnat tayyorgarligi bilan bog‘liqligini yordamchi maktab o‘quvchilarida mehnat ta’limiga hozirlikni shakllantirishdan iborat.

Yordamchi maktab o‘quvchilarini dastlabki mehnat ko‘nikmalarini, bilim va malakalarni hosil qiladilar. O‘zlariga qulay bo‘lgan turli materiallar bilan ishslash usullarini o‘zlashtiradilar, ularning xususiyatlari, asboblar bilan tanishadilar. Buyumlar tayyorlashda ulardan foydalanish mahoratini egallaydilar. To‘g‘ri ish holatini, o‘zlarining ishga bo‘lgan g‘ayratlarini boshqaradilar.

Oligofrenopedagog qo‘l mehnati darslarida doimo o‘quvchilarga turli shakldagi mehnatga qiziqishni singdirib borishi lozim. Ta’limning yakunlovchi bosqichi bo‘lgan uchinchi yilda endi muayyan ixtisoslarga qiziqish uyg‘otish ishlarini kuchaytirish va bu bilan o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini boshlash mumkin. Keyinchalik o‘quvchilar mакtabda o‘rganishi lozim bo‘lgan barcha kasblarning muhimligi, zarurligini qulay va qiziqarli shaklda ochib berishi zarur. Ana shu maqsadda mакtab ustaxonalariga, korxonalarga ishlab chiqarish ekskursiyalari uyushtirish tavsiya etiladi. O‘quvchilar bu yerda ommaviy ishlab chiqarish ishlari, o‘z ota-onalarining mehnati bilan dastlabki tarzda tanishadilar.

Aqli zaif bolalarga ta’lim berishning muvaffaqiyati o‘quvchilarning o‘zlariga taklif etiladigan mehnat topshiriqlarini o‘zlashtirishga, olingen bilimlar asosida mashqlar bajarishga qanchalik tayyorligiga bog‘liq bo‘ladi. Bunday bolalar o‘z psixologik rivojlanishlar xususiyati tufayli barcha ish bosqichlarini zarur darajada chuqur o‘zlashtirmasligi mumkin. Yordamchi mакtabning o‘ziga xos xususiyati ta’limning kirish yo‘nalishi yaqqol ifodalanishi bilan ajralib turadi, bunda har bir yangi bosqichdan oldin tayyorgarlik darajasi amalga oshiriladi.

Masalan, aqli zaif bolalar buyumni tayyorlashning butun jarayonini esda saqlab qololmasligi mumkin, shu sababli ish tushuntirib beriladi, ayrim usullar, operatsiyalar bo‘yicha namoyish qilinadi, bundan maqsad bola butun ish jarayonini yaxlit va har bir detalini alohida tasavvur qila olsin.

Har bir usul alohida ko‘rsatib va tushuntirib berilgandan so‘ng bolalar dastlabki o‘qituvchi kuzatuvi ostida, keyin o‘zlari mustaqil ravishda namunalar asosida tegishli mashqlar yo‘li bilan ishlab chiqaradilar.

Yangi ish usullarini o‘rganishda o‘qituvchi endi o‘rganilgan ish usullariga emas, balki bolalarning mavjud tajribasiga tayanadi. Ta’limning propedevtikligi oddiy operatsiyalardan murakkablariga, yengil usullaridan qiyinlariga sekin-asta o‘tishni nazarda tutadi.

Tuzatish va yo‘naltirish vazifasini hal qilishda o‘qituvchi yetakchi rol o‘ynaydi. O‘quv-tarbiya jarayoni metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan taqdirdagina aqli zaif o‘quvchilarning psixofizik rivojlanishidagi kamchiliklarni muvaffaqiyatli tuzatish mumkin. Defektolog o‘qituvchi o‘z fanini, o‘z o‘quvchilarini yaxshi bilishi,

o‘quv materialini, ta’lim metodlarini, ko‘rgazmali qo‘llanmalarni, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradigan didaktik materialni sinchiklab tanlashi lozim. O‘qituvchi o‘quvchiga o‘z shaxsi bilan ham ta’sir ko‘rsatadi (8-rasm).

Tarbiyalanuvchilarga hurmat bilan uyg‘unlashtirib boriladigan talabchanlik, pedagoglik nazokati aqli zaif bolalarga ta’lim va tarbiya berishga alohida ta’sirchanlik bag‘ishlaydi.

Shunday qilib, qo‘l mehnati darslari o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga va ularni kasb-mehnat ta’limiga tayyorlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur metodik qo‘llanmaning maqsadi qo‘l mehnati darslarini iloji boricha namunali tashkil etishni ko‘rsatib berishdan, uning yordamchi mактабning didaktik (korreksiyalash) tuzatuvchi-tarbiyalovchi vazifalariga ko‘p darajada muvosiq bo‘lishidan iboratdir.

Tuzatuvchi-tarbiyalovchi ta’lim tamoyili

Tuzatuvchi-tarbiyalovchi ta’lim tamoyili asosiy tamoyil bo‘lib, yordamchi maktabning maxsus vazifalaridan, aqli zaif bolalarning patologik xususiyatlardan, «ularning yaqin oradagi rivojlanish zonalaridan» kelib chiqadi.

Tuzatish-tarbiyalash (korreksiyalash) ishlari ruhiy-jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni tugatishga yoki kamaytirishga qaratilgan, shuningdek, aqli zaif bolalarning «takroriy xususiyatlari»ning oldini olishga, ularda ijtimoiy-maishiy va mehnat ko‘nikmalari uchun zarur bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Pedagogik tuzatishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri unga xos bo‘lgan tarbiyalovchi vazifa bo‘lib, u tuzatish-tarbiyalash ishlari terminida o‘z ifodasini topgan. Bu holda aqli zaif bolalar har tomonlama tuzatiladi. Lekin diqqat markazida nuqsonning yetakchi belgisi, uning tegishli murakkabliklari bilan bog‘liqligi turishi lozim.

Tuzatish-tarbiyalash (korreksiyalash) ishlari aqli zaif bolalarning xususiyatlarini ijobiy tomonga qarab uzlusiz rivojlantirib borishga qaratiladi. Bola odamlar bilan ijobiy aloqaga, muomalaga kirishuvni, buyumlar olamiga va atrof-muhitdag‘i voqealarga kirib borishi, ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi, nutqi, xulq-atvori va shakllarini egailashi zarur.

Tuzatuvchi-tarbiyalovchi ta'lim tamoyili o'quv materialini, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish orqali ta'lim va tarbiyani amalga oshirish talabida o'z ifodasini topadi.

O'qituvchi ta'lim mazmunini o'quvchilarning bilish imkoniyatlariga tatbiqan tanlaydi va moslashtiradi. Bu hol bilim va amaliy harakatlar tuzilishini soddalashtirish, ularni tarkibiy qismlarga bo'lish va ularning har birini alohida o'rganish hisobiga sodir bo'ladi. Moslashtirish muayyan oraliqdagi propedevtik davni joriy qilish bilan ham ta'minlanadi.

Oligofren bolalar bilish faoliyati asoslariga tuzatish kiritish va mustahkamlashga darsda ko'rgazmali-amaliy uslublardan hamda aqliy faoliyatdan foydalanish hisobiga erishiladi. Aqli zaif bola aniq bir tafakkurga ega bo'lishi bilan ajralib turadi, shu sababli ularga ta'lim berish predmetli-ko'rgazmali asosda quriladi.

Yordamchi maktablar tajribasida ko'rsatish uslubi, tayyor bilimlarni yetkazish uslubi muhim o'rinni tutadi. Oldiniga bu uslublar yetakchi bo'ladi, keyin ularning salmog'i kamayib boradi, chunki ular asosan mexanik xotirani rivojlantiradi, natijada o'quvchilarda passiv mushohada avj oladi, tafakkur rivoji pasayib, bilimlarni amalda tatbiq etish, ko'chirish malakasini hosil qilish barham topadi. Ta'limning ko'rgazmali va amaliy usiublaridan foydalanishda o'quvchilarning amaliy harakatlarini kuzatishga rahbarlik qilish, perspektiv va amaliy harakatlarni nutq bilan maqbul tarzda bog'lash alohida ahamiyat kasb etadi.

Har bir darsda uning tuzatuvchi-tarbiyalovchi maqsadlarini aniq belgilab olish zarur. Bu maqsadlarsiz mashg'ulot yuzaki tus oladi. Uning o'ziga xos xususiyati yo'qoladi, umumta'lim maktabi uchun xarakterli bo'lgan didaktik talablarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirishga olib keladi. Bu hol maxsus ta'limning asosiy vazifalari va tamoyillariga zid keladi.

O'quv jarayonidagi tuzatuvchi-rivojlantiruvchi maqsadlar qanchalik samarali amalga oshirilsa, ta'lim beruvchi maqsadlar ham shunchalik natijali bo'ladi. Shunga erishish muhimki, o'quvchilar o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni bajarishga faol intilsinlar, o'qituvchi esa dars maqsadini aniqlab, butun kuch-g'ayratini ana shu maqsadlarga erishish yo'llari va vositalarini izlashga sarflasini.

Yordamchi maktabning o'quv jarayonini tashkil etish sifatini, tuzatish yo'nalishini yaxshilash uchun rus defektologlari –

G.M.Dulnev, I.G.Yeremenko, X.S.Zamskiy, S.D.Zabramnaya, N.P.Pavlova, M.N.Perova va boshqalar quyidagi shart-sharoitlarni tavsiya qiladilar:

- o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida maktab o‘quvchilari aqliy harakatlarini tashkil etish. O‘quvchilarning aqliy operatsiyalarini bajarishi (mo‘ljal olish — tadqiqot, tahlil qilish, umumlashtirish, qiyoslash, nazorat qilish, rejalashtirish, baho berish operatsiyalari);
- tasavvur, tushunchalarini tarkib toptirish jarayonida bolalarni buyumlarning o‘ziga xos, muhim belgilarni qismlarga ajratishga o‘rgatish;
- nutq faoliyatiga, nutqni nazorat qilishga undash;
- idrok etiladigan buyum va uning so‘z bilan ifodalanishi va amaliy harakatlar o‘rtasida mustahkam o‘zaro bog‘liqlik o‘rnatish;
- ta’limning sekinlatilgan sur’ati (aqli zaif bolalarda asabiy-ruhiy jarayonlarning kechishiga muvofiq ravishda);
- to‘g‘ri dozalanishiga, barcha faoliyat turlarining navbatma-navbat kelishi va qiyinchilik tug‘dirmasligiga, me’yor buzilganda esa amaliy muvozanatning tiklanishiga e’tibor berishi, rag‘batlantiruvchi vositalar va usullardan foydalanish kerak.

Darsning birinchi bosqichi bo‘lgan tashkiliy jihatga katta e’tibor berish kerak bo‘ladi, u o‘quvchilarning faoliyatsizligini barham toptirishga, mazkur darsga aloqador bo‘lmasa ham qo‘srimcha hayajonlanish manbai bo‘ladigan ta’sirlardan xoli bo‘lishga qaratiladi. Dastlabki daqiqalardan boshlab idrok etiladigan materialga ijobjiy munosabatni vujudga keltirish zarur.

Yordamchi maktab uchun mehnat sur’ati — bu intizom muammosidir. Sur’at zaif bo‘lsa, o‘quvchilarda boshqa mashg‘ulotlar uchun qo‘srimcha vaqt qoladi. Sur’at ancha yuqori bo‘lganida esa o‘quvchilar o‘qituvchining tushuntirishlarini ilg‘ab olmaydilar va zo‘riqishga tob berolmay, saqlovchi tormozlanish holatiga tushib qoladilar. Eng maqbul sur’at amaliyot jarayonida ma’lum bo‘ladi.

Ish me’yori ham juda muhimdir. Me’yorning har qanday buzilishi, zo‘r berib qilinayotgan ishning keskin susayib ketishi va hatto bo‘sh turib qolishlari bilan asossiz ravishda almashinishi bolalarning mehnat harakatini izdan chiqaradi, eng samarali, raxon va tekis ishga nisbatan ko‘proq charchatib qo‘yadi. Qiyin ish turlari bilan oson ish turlarini, mehnat bilan dam olishni almashtirib turish, bolalarning diqqatini uzoq vaqt bitta predmetga qaratishga o‘rgatish

kerak. Bunga darsdagi mashg'ulotlar turini o'zgartirish, jismoniy tarbiya daqiqalarini o'tkazish bilan erishiladi.

Qo'l bilan qilinadigan buyumli faoliyat bola uchun ancha aniq va tushunarli bo'lib, aqli zaif bolalarning ta'lim jarayoniga kirishuvi uchun boshlang'ich faoliyat hisoblanadi. Umumta'lim fanlari bilan qo'l mehnati darslari o'rtasida mustahkam o'zaro aloqa bo'lishi lozim. O'qish anomal bola uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, uning bilimlari puxta, hayotiy, o'zi ishga yaroqli bo'lib boradi.

Yuqori malakali ishchilarning ish faoliyatlarini psixologik tahlili, yuqorida aytib o'tilgan aqliy harakatlar ishchiga yuqori darajada mustaqillik ta'minlanishini ko'rsatdi. V.V.Chebishev va B.F.Lomovlarning ta'kidlashlaricha, malakali ishchilarning ish jarayonlari doimo o'zlarini nazorat qilish holatlari bilan almashib turadi. Shu bilan birga, yuqori malakali ishchilarda barcha ish jarayonlari avtomatlashgan harakatlardan iborat bo'ladi. Nuqsonli bolalarda esa, asosan mana shu avtomatlashgan harakatlarni yuzaga keltirish ancha qiyin amalga oshiriladi. Yuqori malakali ishchi har bir ish qurolining turar joyi, vazifasini yoddan tasavvur etib turadi. Bu xislat uning maksimal darajada vaqtidan unumli foydalanishiga yordam beradi.

Uzoq yillik kuzatishlardan ma'lumki, hatto yuqori sinf o'quvchilarida ham yetarli mustaqillik shakllanmaydi. Yuqori sinf o'quvchilarining atigi 20 foizigina u yoki bu darajada ishni mustaqil hai qila oladi. Yordamchi maktab o'quvchilarining asosiy qismi o'qituvchidan yordam olishga muhtojlik sezadi. Yuqori sinflarning ham aqli zaif bolalari mehnatga oid ko'nikma, malakalar yetarli shakllangan bo'lsa ham, ishi jarayonida qiynaladilar. Bu qiyinchiliklar asosan ish vaqtida fikrlash jarayonlari talab etilganda yuzaga kelar ekan. Bu, asosan, ishni rejalashtirishda, nazorat qilishda ko'zga tashlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bajarayotgan ish jarayonini mustaqil gapirib bera olmaydilar. Bu xususiyatlar V.I.Lubovskiy va N.I. Nepomnyashaya ishlarida to'la ochib berilgan. A.R.Luriyaning ko'rsatishicha, «Asosiy asab jarayonlari (ayniqsa, tormozlanish)ning tonusi susayganligi bilan ajralib turadi. Asab jarayonlari juda sekin bir joyga to'planadi, arzimas tashqi taassurotlar bu jarayonlarni tormozlab qo'yishi mumkin». Ko'pchilik aqli zaif bolalarning nutqi bilan harakatlari orasida bog'liqlik bo'lmaydi. Agar normal bolalar biror ishni oldindan rejalab, ish jarayonini gapirib, so'ng ish boshlasalar,

aqli zaif bolalar ishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshlab yuboradilar. Bu o‘z navbatida ish jarayonida qator kamchiliklarga olib keladi. Hatto yuqori sinf o‘quvchilari ham ba’zan qilgan ishlarini og‘zaki gapirib bera olmaydilar. Shu bilan birga, aqli zaif bolalar yasagan narsalarini namuna bilan taqqoslolmaydilar.

V.I.Karvalis taddiqotlaridan ma’lumki, I—III sinf o‘quvchilarining 90 foizi ish natijalarini namuna bilan taqqoslamas ekanlar, qator aqli zaif bolalar o‘zlarining yasagan dag‘al, qo‘pol, beso‘naqay narsalarini namunaga to‘g‘ri keladi deb tushunadilar. Ulardagi bu xislat shaxsiy sifatlarning yetarli shakllanmaganligini ko‘rsatadi. O‘zlariga tanqidiy qarashning yo‘qligi asosida bu kamchilik yuz beradi. Aqli zaif bolalarda o‘lchov birliklari haqidagi tasavvur va bilimlar ham cheklanganligi ish jarayonlarida yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. I.N.Manjuloning ta‘kidlashicha, 70 foiz aqli zaif bola o‘lchov ishlarida xatolikka yo‘l qo‘yadi. Atigi 5 foizgina bolalar o‘lchov ishlarini to‘g‘ri bajarganlar. O‘quvchilardagi mm., sm., m. kabi uzunlik o‘lchov birliklari noto‘g‘ri shakllanganligi oqibatida, ko‘z bilan chamarlab o‘lchashlari ham xatoliklardan xoli bo‘lmaydi. Bu taxlidagi xatoliklar burchaklarni o‘lchashda ham ko‘zga tashlanadi.

Yordamchi maktab o‘quvchilari mehnat qila turib ham aqlan, ham jismonan, ham shaxsan takomillashib boradi. Albatta, bu takomillashish, rivojlanish normal bolalar darajasida bo‘lmaydi. Chunki normal bolalar ongli, tushungan holda bajarib borsalar, aqli zaif bolalarning aksariyati ishni mexanik tarzda, tushunmasdan bajaradilar. Shuning oqibatida ish natijalarida ham keskin farqlar yuzaga keladi.

Normal bolalar aqliy jihatdan birmuncha tez rivojlanadilar, chunki ular insoniyatning umumlashgan tajribalarini o‘zlashtirib boradilar deb e’tirof etadi A.N.Leontev. Aqli zaif bolalar esa bu tajribalarni yetarli egallay olmaydilar. Aqli zaif bolalarning mehnat faoliyatida qator kamchiliklar borligini ta‘kidlash bilan birga, shuni e’tirof etish lozimki, ularning asosiy qismida turli darajadagi harakat buzilishlari mavjud. Aqli zaif bolalarning ish jarayonidagi kamchiliklar asosida mana shu harakat nuqsonlari ham ma’lum rol o‘ynaydi. Oligofrenopedagogika tarixida shifokor, pedagog, psixologlardan J.Demor, M.O.Gurevich, N.I.Ozereskiy, S. Ya.Rabinovich, A.N.Gaborov, A.Gezell, G.Ya.Troshin, G.E.Suxareva, S.S.Lyapi-

devskiy, L.V.Zankov, respublikamizda B.F.Shoumarov, Q.Mamedov va boshqalar nuqsonli bolalarda harakat sistemalarining turli tomonlarini batafsil ochib bergenlar. Yordamchi maktab mehnat ta'limining asosiy vazifalaridan biri aqli zaif bolalarning turli harakat nuqsonlarini ham tuzatishdan iborat. Mehnat ta'limi jarayonlarida faqatgina bilish jarayonlari rivojlanib, to'g'rilanib, tuzalib qolmasdan, balki ularning hissiyot-irodalariga ham samarali ta'sir etilar ekan.

Oligofrenopedagogika fanining rivojida mehnatga oid turli fikrlar bo'lishiga qaramay, ularning barchasi ijobjiy shaxsiy sifatlarning rivojlanishiga yordam berishi qayd etib o'tilgan.

Aqli zaif bolalar o'zlarining o'yin, o'qish, mehnat faoliyatlarida yaxshi yoki yomon fikrlashlari bilan birga, barcha faoliyat natijalariga ijobjiy, salbiy munosabat bildiradi. Mana shu munosabat asosida sekinsta shaxsiy sifatlar shakllanib boradi. Shaxsiy, hissiy-irodaviy sifatlar fikrlash jarayonlariga juda katta samarali ta'sir etadi. Psixik faoliyatning barcha faol shakllari (ixtiyoriy diqqat, eslab qolish, harakatlarning maqsadga muvofiqligi) bolaning uzoq muddatli faoliyati samarasi hisoblanadi. O'z vaqtida E.Segen ham aqli zaif bolalarda asosiy nuqson irodaning buzilganligidir, deb ko'rsatgan edi. V.Shtroymayer esa, bu bolalarda ixтиiyoriy diqqatning yetishmasligini ta'kidlaydi. G.Ya.Troshin esa aqli qoloqlarda yetakchi belgi, bu bolalarning ish jarayonida mumkin qadar yengil yo'l tanlashlarini ko'rsatadi. Bularning barchasi o'zicha haqlidir.

M.S.Pevzner aqliy nuqson — oligofreniyani tahlil etar ekan, asosiy nuqson — ish qobiliyati va maqsadga muvofiq harakatlarning yetishmasligidir, deb ta'kidlaydi.

Yordamchi maktabda mehnat ta'limi asosan ikki bosqichdan iborat:

- 1.Tayyorgarlik bosqichi (I—IV sinflar);
- 2.Kasb-hunar mehnati (V—IX sinflar).

Tayyorgarlik bosqichida asosan qo'l mehnati mashg'ulotlari olib boriladi.

Kasb-hunar bosqichida esa kasb-hunar mehnati turlari beriladi. Bu mehnat yordamchi maktabni bitirguncha davom etadi. Aqli zaif bolalar ma'lum mutaxassislikni egallaydilar. Bolalar 9 yillik maxsus ta'lim davomida tugallangan kasb tayyorgarligini olishlari kerak.

Kasb-hunar mehnatida ishlab chiqarish amaliyotining o'mni juda katta. Bu amaliyot ma'lum ishlab chiqarish korxonalarida o'tkaziladi.

Savol va topshiriqlar

1. Yordamchi maktablarda mehnat ta'limini amalga oshirish bosqichlari haqida gapirib bering.
2. Mehnat ta'limining aqli zaif bolalardagi shaxsiy sifatlarning shakllanishiga ta'siri nimadan iborat deb o'ylaysiz?
3. Yordamchi maktablarda mehnat ta'limining umumta'lim fanlari bilan bog'liqligi haqida gapirib bering.
4. Mehnat ta'limining tuzatuvchi, tarbiyaviy ahamiyati nimalardan iborat?
5. Qo'l mehnati va kasbkorlik mehnatining aqli zaif bolalar bilish jarayonlarini tuzatishdagi ahamiyati haqida gapirib bering.

6-bob. TARBIYA USULLARI

6.1. Yordamchi maktabda tarbiya tamoyillarining qo'llanilishi

Yordamchi maktablardagi tarbiya tamoyillari butun tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalilanidigan qonun-qoidalar majmuasidir. Bu qoidalarga tarbiyaning mazmuni, usullari, tashkil etish shakllari kiradi. Barcha maktablarda tarbiya tamoyillari umumiy ko'rinishga ega. Ammo yordamchi maktablarda aqli zaif bolalarning psixologik, jismoniy, hissiy nuqsonlariga ko'ra o'ziga xos yondashuvlardan ham foydalaniadi.

Oligofrenopedagogikada tarkib topgan va milliy asoslangan tarbiya tamoyillari tizimi tarbiyaning hayot bilan bog'liqligini, shaxsiy, jamoada va jamoa orqali tarbiyalashni, tarbiyaviy ta'sirning izchilligini va davomiyligini, tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan o'ziga xos talabchanlik bilan hurmatning birligini, tarbiyaning aqli zaif bolalarning yosh va individual xususiyatlariiga mosligini, ta'lif va tarbiyaning bog'liqligini, tarbiyada atroflicha yondashish tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Aqli zaif o'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy shakllantirish manfaatlari pedagogning har bir xatti-harakatini tarbiyaning maqsadlari bilan qiyoslashni, uning amalga oshirilishiga rejali tarzda va qunt bilan erishishni talab qiladi. Har bir tarbiyaviy tadbirning qimmati uning aqli zaif o'quvchilar jamoasi hayotini qanchalik boyitganligi, ishonchni shakllantirishga qanchalik yordam berishi bilan o'chanadi. Afsuski, qator yordamchi maktablarda tarbiyaviy tadbirlar xo'jako'rsinga rejalashtiriladi. Bular oqibatda bolalarda qiziqish, jo'shqinlik va hissiy shakllanishning imkonini bermaydi. Yordamchi maktab o'quvchilarini tarbiyalash vositasi bo'lgan faoliyatning barcha turlariga puxta yo'nalish berilishi shart.

Yordamchi maktabda tarbiyaning hayot va amaliyot bilan bog'liq tamoyili yetakchi tamoyil hisoblanadi. Buning mohiyati shundan iboratki, tarbiyaga jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy munosabatlarini, vogelikning qadriyatlarini, axloqi va estetikasini

tatbiq etishdan iborat. Yordamchi maktabda o'quvchilarni moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnatni, kasbni asosli tarzda tanlashi o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar tomonidan chuqur anglab olinishi kerak. Ba'zan tarbiyaning turmush bilan bog'liqligini tarbiyaviy ish hamda yordamchi maktab o'quvchilarining unumli mehnati o'rtasida faqat aloqa o'rnatishdan iborat, deb qaraladi. Ammo hayot unumli mehnatga qaraganda ancha kengroq va mazmunliroq tushunchadir. Yordamchi maktab o'quvchilarini mehnat faoliyatining xilma-xil shakllariga jalb etayotganda bu narsani o'quvchilar jamiyatga xizmat qilish maktabi, moddiy va ma'naviy mo'lko'lligi uchun umumxalq kurashining tarkibiy qismi deb idrok etishlari hamda g'amxo'rlik qilishlari kerak. Qilinayotgan barcha tarbiyaviy tadbirlar hayotiy, ya'ni aqli zaif bolalar bilan ular eshitgan, ko'rgan narsalarga asoslangan tarzda olib borilsa yaxshi samara beradi. Aks holda, o'tkazilgan tadbirlar bolalar uchun tushunarsiz narsa bo'lib qolishi mumkin.

Yordamchi maktab o'quvchilarini jamoa orqali tarbiyalash tamoyili ham o'ziga xos o'ringa ega. Bu tamoyil tarbiya tizimining jamiyat talablaridan kelib chiqadigan tamoyillaridan biri bo'lib, uning tabiatи ishlab chiqarish vositalariga munosabat, o'rtoqlarcha hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlari bilan xarakterlanadi.

Jamoa shunday mashq maydonidirki, unda shaxsning xilma-xil fazilatlari mashq qilinadi va shakllanib boradi. Bizning pedagogikamiz ikki tomonlama: tarbiyachi va tarbiyalanuvchi pedagogikasidan farqli uyuştirilgan korreksion pedagogik jarayonni afzal ko'radi. Birgalikda, bir maqsadni ko'zlab tashkil etilgan jamoa harakatlarida insonga nisbatan mumkin qadar ko'proq talabchanlik qilish, shuningdek, unga mumkin qadar ko'proq hurmat, mehribonlik bilan qarash kerak.

Shu tamoyilga amal qilib, yordamchi maktab o'qituvchilar o'quvchilar bilan munosabatlarning shunday uslubi va tarzini tanlaydiki, aqli zaif o'quvchilarning ruhini tushirmaydi, balki ularning kuchiga ishonch, erkinlik beradi. Bu uslub ijobiy harakatlar va xulq-atvorga undaydi, o'z qadr-qimmati va o'z xulq-atvori uchun mas'uliyat tuyg'usini singdiradi. Tirnoq orasidan kir qidirish, ikir-chikir gaplarga berilish bilan aloqasi bo'limgan talabchanlik insonga nisbatan eng oliy hurmatdir. Mumtoz pedagoglar ta'biri bilan aytganda, insonga ishonib yondashish kerak, bunda hatto ayrim

tavakkalchilikka ham yo'l qo'yish mumkin. Pedagog o'quvchida ijobiy fazilatlarni tarbiyalashni nazarda tutib va shunga tayanib, ishonchga asoslanib, insonni o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanish ruhida tarbiyalaydi.

Tarbiyaviy ta'sirning izchilligi, sistemaliligi, yaxlitligi va uzlusizligi tamoyili ham tarbiyaviy tadbirlarning samarador bo'lishida zaruriy tamoyillardandir. Bu tamoyillarga amal qilish pedagogika tizimini shunday qurishni taqozo etadiki, uning tarbiyaviy qismi va elementlari bir-biri bilan yonma-yon bo'limasdan, yaxlit birlikni tashkil etishi kerak. Pedagogik ta'sirning biror tizimga ega emasligi tarbiyaviy ishga tamomila ziddir. Yordamchi maktab o'quvchilariga nisbatan talablarning turlichaligi tarbiyaga ko'p zarar yetkazadi. Afsuski, amalda ko'pincha shunday bo'ladiki, aqli zaif o'quvchilar oilada maktab tashabbusini qo'llab-quvvatlashi u yodqa tursin, balki qarama-qarshi ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan o'qituvchilar orasida ham talablar birligi ta'minlanmaydi. Tarbiya ko'plab kishilar ishtirok etadigan, uzoq muddatli jarayondir. Shu sababli, ularning ishida izchillikka erishish, davomiylikka rioxha qilish, aqli zaif o'quvchilarining tarbiyalanish darajasini, yaqin oradagi rivojlanish zonasini o'z vaqtida aniqlash nihoyatda muhimdir.

Yordamchi maktablardagi o'ziga xos tarbiyaviy tamoyillardan yana biri maktab o'quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olishdir. Bu tamoyilni amalga oshirish o'quvchilar faoliyatining mazmun va shakllarini ularning yoshi, hayotiy tajribasi, kuchi va imkoniyatlariga muvofiqlashtirishni talab etadi. Ayni vaqtida har bir bola — bu o'ziga xos alohida dunyo. Shu sababli tarbiya jarayoni ta'lim jarayoniga qaraganda ham ancha individual bo'lishi kerak. Agar o'qituvchi muayyan paytdagi talab va qiziqishlarga tayanib, ularni xulq-atvor va faoliyat motivlarining hal qiluvchi negizi bo'lgan yangi talablar va yangi qiziqishlarni vujudga keltiradigan shakl va usullarini topa olsa, bu maqsadga erishishi mumkin bo'ladi. Aqli zaif bolalar bilan ish olib boradigan o'qituvchi-defektolog, tarbiyachilar barcha ta'lim-tarbiya jarayonlarida umumiy kamolotida biror nuqsoni bor bolalar bilan ishlayotganligini hech qachon unutmasligi kerak. Shundagina ular amalda uchrab turadigan har xil ko'ngilsiz, noxush holatlarni to'g'ri tushunadilar va ularning oldini ola biladilar. Aks holda, aqli zaif bolalarning nuqsonlari sababli yuz beradigan turli noxush

holatlarni tushunib yetmaydilar. Demak, bunday bolalar bilan yakkama-yakka tarbiyaviy ish olib borilmaydi.

Tarbiya usullari deganda har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish maqsadida bolaning ongi, his-tuyg‘ulari, irodasi, xulq-atvori va munosabatlar.

Tarbiya usullari, ta’limda bo‘lganidek, ayrim elementlarga bo‘linib, ular tarbiya yo‘llari deb ataladi. Yordamchi maktab o‘qituvchisi yoki tarbiyachisi birinchi bor sinfni tozalash bo‘yicha shanbalik tashkil qiladi. U bolalarning ishini muayyan qismlarga taqsimlashdan avval qanday yuvish, qanday artish, polni yuvish oson bo‘lishi uchun partalarni qanday surish kerakligini tushuntiradi va ko‘rsatadi. O‘qituvchining ana shunday tushuntirishi mazkur holda bir usul sifatida namoyon bo‘ladi. Tarbiya usullari bolalarga ta’sir ko‘rsatishdangina iborat emas. Tarbiya ikki tomonlama jarayon bo‘lib, o‘qituvchi, tarbiyachi faoliyati bilan o‘quvchi faoliyatini birlashtiradi. Bolaning tarbiyaviy ta’sirga faol tayyor bo‘lishiga erishish uchun uni muayyan sharoitga qo‘yish, uning faol harakatini tashkil etish kerak. Shu sababli, pedagogika fanida tarbiyaning tashkiliy shakllari o‘quvchilarning jamoa va individual faoliyatini pedagogik nuqtayi nazardan muvofiq ravishda tashkil etish **usullari** deb hisoblanadi. Sinf majlislarini, ertaliklar, suhbatlar, bolalar bilan turarjoylarda olib boriladigan ishlarni tarbiyaning **tashkiliy shakllari** deyish mumkin. U yoki bu tarbiyaviy vazifalarni hal etishning maqsadga muvofiq tashkil etishning uslubiy yo‘llari **tarbiya vositalari** deb ataladi.

Bolalar bilan tarbiyaviy ishda foydalilanidigan narsalar (ko‘rgazmali qurollar, kitoblar, radio, televideniye) hamda bolalar jalg qilinadigan faoliyat turlari **tarbiya vositalari** bo‘la oladi. Kinofilmlar, san‘at asarlari, murabbiy o‘qituvchining jonli so‘zi, bolalarning o‘yinlari, jamoatchilik, jismoniy tarbiya va havaskorlik to‘garaklari tarbiya vositalari vazifasini bajaradi. Tarbiya natijasi tarbiyaviy jarayonni tashkil etish usullari, vositalari, shakllaridan mohirona foydalanishga va ularni qo‘sib olib borishga bog‘liq.

Yordamchi maktabda tarbiya usullarining qo‘llanish samaradorligi va harakatlantiruvchi kuchlari aqli zaif bolalarning individual-tipologik xususiyatlari va tarbiyalanganlik darajasi bilan, bola yashayotgan aniq pedagogik vaziyatning tabiatini bilan qanchalik hisoblashishiga ham bog‘liq. Tarbiya usulini tatbiq etish muayyan yoshdagи bolafaoliyatining yetakchi tipiga, bolalarning ruhiy, jismoniy

holatiga mos kelsa, muvaffaqiyatli bo‘ladi. Amalda tarbiya usullari o‘zaro ancha murakkab, ba‘zan esa qarama-qarshi aloqada namoyon bo‘ladi. Shubhasizki, qandaydir alohida usul tarbiyaning boshqa usullaridan ajralgan holda qo‘llanishi ham mumkin, lekin u, albatta, boshqa usullar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishi mumkin. Yordamchi maktabda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga maktabda, sinfda yurish-turish qoidalari, o‘rtoqlari bilan muomalani o‘rgatadi. O‘qituvchi ham birinchi kundayoq o‘z sinfini, butun maktabni ko‘rsatadi, o‘quvchilar o‘zlarini qanday tutishlari, nimalar bilan shug‘ullanishlarini, darsda qanday o‘tirishlari, tanaffus vaqtida qanday dam olishlari lozimligini o‘rgatadi. Tushuntirish bilan bir qatorda, tarbiyachi ularni o‘qituvchi, direktor va boshqa katta yoshdagi kishilarga salom berish uchun partani taqillatmasdan o‘rnidan turishni, sinfdan chiqishni, ish joyida tartibga rioya qilishni, o‘qituvchiga, tarbiyachiga murojaat qilish tartibini va hokazolarni o‘rgatadi. Yordamchi maktabga kelgan birinchi sinf o‘quvchilari rivojlanishi, xususiyatlari jihatidan xilma-xildir. Birlari tarbiyachi gaplarini tushunib, barcha tarbiyalanuvchilarga qaratilgan uning iltimosini tezda bajaradilar, topshiriqlarni qunt bilan ishlaydilar. Ayrimi esa, tarbiyachining gapiga yaxshi qulq solmaydilar, tushunmaydilar, tarbiyachining hamma tarbiyalanuvchilarga qilgan murojaatini darhol anglab yetmaydilar. Yordamchi maktab bolalari rag‘batlantirishni, ayniqsa, yaxshi ko‘radilar. Dastlabki kunlardanoq tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning ayrimlarini yaxshi xulqi uchun maqtab qo‘yadi, boshqalariga esa, gapga e’tibor bilan qulq solish kerakligini tushuntiradi. Shu tarzda aqli zaif bolalarni tarbiyalash jarayonida yordamchi maktab tarbiyachisi ta’sir etishning turli usul va yo‘llaridan foydalanib, aqli zaif bolalarning individual xususiyatlari va tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga oladiki, bu narsa ayrim tarbiyalanuvchilar va umuman yordamchi maktab manfaatlari yo‘lida har xil yechimlarga kelishni talab qiladi.

Yordamchi maktab o‘quvchilari bilan arnaliy ishlashda tarbiya usullaridan foydalarish ko‘nikmalari va malakalarini o‘rganish hamda bosil qilish qulay bo‘lishi uchun ularni shartli ravishda bir necha geruhga birlashtirish mumkin. Yordamchi maktab o‘quvchilari orqini shakllantirish usullari, jamoatchiliik xulq-avtorini shakllantirish yo‘llari, rag‘batlantirish va o‘z-q‘zini tarbiyalesh usullari ham qo‘llaniladi. Shuni aytib o‘tish o‘rinlikki, ayrim edabiyyotlarda yuqorida

aytib o'tilgan tarbiya usullari ham son jihatidan, ba'zan mazmun jihatdan ham o'zgacha bayon etilgan. Masalan, 1985-yilda Kiyevda chiqarilgan I.G.Yermenekoning «Oligofrenopedagogika» o'quv qo'llanmasida tarbiya usullari 3 ta: mashq qildirish, ishontirish va rag'batlantirishdan iborat, deyilgan.

Yordamchi maktab o'quvchilarida dunyoqarash va e'tiqodlar tizimini shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish usullari ham tarbiya usullariga kiradi. Bu toifadagi usullarning mohiyati shundan iboratki, ularning vositasi bilan jamiyat yosh avlodga nisbatan qo'llayotgan talablar bola ongiga yetkaziladi.

Yordamchi maktab o'quvchilarini tarbiyalashda o'qituvchi-tarbiyachi dasturxon atrofida, ko'chada, kattalar bilan muomalada to'g'ri xatti-harakatlar qilish odatlarini tarkib toptirishga, ana shu muomaladan zavqlanish, yaxshi xulqi uchun kattalar maqtovidan mamnun bo'lish tuyg'usini shakllantirishga ko'proq e'tibor beradi. Yordamchi maktab quyi sinflarida tushuntirish e'tiqod hosil qilishning keng qo'llaniladigan usulidir. Tushuntirishdan maqsad – bolaga xatti-harakatlar, voqealar, hodisalarga nisbatan u yoki bu talablarning ijtimoiy, ma'naviy, estetik mazmunini ochib berishda, unga xulq-atvor va insoniy munosabatlarga to'g'ri baho berishni shakllantirishda ko'maklashishdan iborat. Yordamchi maktabda tarbiyachining va o'qituvchining jonli so'zi hamisha bola shaxsining g'oyaviy va ma'naviy shakllanishida ta'sirchan bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi. Tarbiyaviy mazmunli suhbatlar turli mazmunlarda: yetik (jamiyatdagi insonlarning yurish-turishlari haqida); estetik (atrofdagi voqealarning, insoniy munosabatlар va xulq-atvorning go'zalligi haqida); siyosiy-ta'limiyl bo'lishi mumkin.

Tarbiyaning asosiy, yetakchi usullaridan biri **namuna** asosida tarbiyalashdir. Boshlang'ich sinf o'quvchisi katta bo'lisliga intilayotganida kattalar, o'zi hurmat qiladigan kishilardan namuna olib, ularga taqlid qilishga harakat qiladi. Taqlid qilish asosida turli sabablar bor. Ayniqsa, ulardagи hayotiy tajribalarning yetishmasligi, yurish-turishning barqaror odatlari kamligi ham taqlidga sabab bo'ladi. Yosh ulg'aygan sari taqlid qilish darajasi kengayib boradi.

Ba'zan yordamchi maktab tartibini buzuvchilar, ularning qo'polligi, qo'rsligi, o'jarligi, soxta jasorati ayrim bolalar e'tiborini jaib etadi. Har doim ham aqli zaif bolalarni yomon o'rnatdan ajratib

qo‘yishning iloji bo‘lavermaydi. Tarbiyada muvaffaqiyat qozonish uchun oilada va mакtabda bola hayotini shunday tashkil etish zarurki, bu narsa uning uchun zerikarli, mazmuнsiz, majburiy bo‘lmasdan, aqli zaif bolalarni yomon ishlardan qaytarishga, unga qarshi turishga o‘rgatish lozim. Har bir shaxs alohida, takrorlanmas shaxs sifatida o‘ziga xos ravishda rivojlanishiga erishish kerak. Bolani o‘rab olgan barcha shaxslar bolaga o‘rnak bo‘ladigan darajada bo‘lishi lozim. Tarbiyachilarning ta’kidlashicha, tarbiya to‘g‘ri xatti-harakatga o‘rgatuvchi mashqdan boshqa narsa emas. Mashq bolalarning oqilona, bir maqsadga qaratilgan va har tomonlama faoliyatini (qabul qilingan axloqiy normalar va qoidalarga muvofiq) tashkil etishdir. Mashq muayyan harakatlar va ishlarni ko‘p marta takrorlashni o‘z ichiga oladi. Mashqni aynan bir harakatning o‘zini mexanik tarzda takrorlayverishdan iborat deb tushunish yaramaydi, lekin busiz ham aqli zaif bolalarda ijobiy odatlar hosil qilib bo‘lmaydi. Bola uchun mashq ongli, ijodiy jarayon bo‘lishi kerak. Turli mashqlar natijasida bolalarda malaka, ko‘nikmalar, odatlar shakllantirilib, yangi bilimlar hosil qilinadi, aqliy qobiliyat rivojlanadi. Odatlar, ular fikricha, e’tiqodni maylga va fikrni ishga aylantiradigan jarayondir. Tarbiya usullari ichida **rag‘batlantirish** alohida ahamiyatga ega. Rag‘batlantirish ruhlantirish demakdir. Tarbiyachilar bolalarga turli talablar tizimini ishlab chiqqanlar. Talablarning shakli har bir bolaning individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Agar bir bolaga eslatish yoki sha’mal qilish kifoya qilsa, boshqasiga qat’iyroq talab qo‘yish kerak bo‘ladi. Bolaga sekin, ishchanlik vaziyatida keskin ohangda talab qo‘yish mumkin. Talablar to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bilvosita, maslahat tarzida, o‘yin shaklida, ishonch orqali, ishonchsizlik, iltimos, sha’mal, ma’qullovchi, qoralovchi, shartli bo‘ladi. Qo‘yilayotgan talablarning samaradorligi ham bolaning yosh va individual xususiyatlariga, u tushib qolgan vaziyatga, o‘qituvchi ko‘zlayotgan maqsadga va boshqa holatlarga bog‘liq.

Musobaqa o‘qituvchi-tarbiyachining har bir bolaning imkoniyatlarini ko‘rish va baholashda, olg‘a harakat qilish davomida imkoni bo‘lgan istiqbolni belgilaydi, iroda va xarakterni tarbiyalashda yordam beradi. Maqtov va jazo rag‘batlantirish usuliga kiradi. Maqtov alohida o‘quvchi xatti-harakatlarini, fe‘l-atvorini ijobiy baholash yo‘li bilan pedagogik ta’sir ko‘rsatishdir. Jamoa o‘zining u yoki bu a‘zosini rag‘batlantirib, bolalarning ijobiy xulq-atvorini mustahkamlaydi, bu

bilan ularning axloqini yo'lga solib turadi. Maqtov bolaning o'z faoliyati yoki yurish-turishidan mammuniyat tuyg'usini keltirib chiqaradi. Shu sababli maqtovga berilib ketmaslik kerak. Aks holda, u manmanlik, xotirjamlik tuyg'usini keltirib chiqaradi.

O'qituvchi-tarbiyachi yoki jamoa ayrim bolalarning xulq-atvoridan, uning munosabatidan, muomalasidan mamnun bo'lmasa, bolaga o'z xulqini tuzatib olishda yordam ko'rsatish uchun jazolash usulidan ham foydalanadi. Maqtov singari jazo ham bolaning xulq-atvorini yo'lga solib turadi hamda uning o'zini noqulay sezishga, uyalishga majbur qiladi.

Shu sababli, bu usuldan bolaning individual xususiyatlarini yaxshi bilgan holda foydalanish darkor.

O'qituvchiningadolatsiz jazo berishi o'quvchi bilan o'zaro munosabatlarida nizoli vaziyatni vujudga keltiradi. Bolaning o'z kuchiga ishonchidan mahrum qilib qo'yishi mumkin. Jazo berish paytida o'qituvchi o'quvchining nima uchun, qaysi xatti-harakati uchun jazolanganini anglab olishga erishishi, ayniqsa, muhimdir.

Savol va topshiriqlar

- 1.Tarbiya deganda nimani tushunasiz?
- 2.Tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?
- 3.Tarbiya tamoyillarini aytib bering.
- 4.Tarbiya usullarini aytинг va ta'riflang.
- 5.Yordamchi maktab tarbiya jarayonlaridagi o'ziga xos xususiyatlar nimalardan iborat?

6.2. Tarbiya turlari

Yordamchi maktablarda axloqiy tarbiya

Axloqiy tarbiya deganda shakllanayotgan, rivojlanayotgan, o'sib kelayotgan avlodda xulq-odob me'yorlariga mos keluvchi sifatlarning shakllanishi tushuniladi. Albatta, barcha tarbiya turlari aqli zaif bolalar tarbiyasida o'ziga xoc o'ringa ega. Busiz mumkin emas. Ammo axloqiy tarbiya, uning mohiyati alohida shaxs uchungina emas, balki jamiyatning kelajagi, uning qanday jamiyat bo'lishi uchun ham muhimdir. Bu yerda mubolag'a yo'q. Chunki axloqiy tarbiyalangan

shaxslarsiz yetuk kishilik jamiyatni qurish mumkin emas. Axloqiy tarbiya boshqa tarbiya turlaridan o‘zining ahamiyati bilangina ajralib qolmasdan, balki murakkabligi bilan ham ajralib turadi. Bu o‘rinda mashhur fransuz pedagogi, shifokori Eduard Segenning: «Aqli zaif bola aqlan bilmaydi, jismonan bajara olmaydi, ruhan xohlamaydi. Aqli zaif bola aqlan bila olardi ham, jismonan bajara olardi ham, agar u xohlasa. Barcha balo shundaki, dastlab u xohlamaydi», degan fikrlari e’tiborga loyiq.

Demak, aqli zaif bolalar biror ish qilishni, topshirqlar bajarishni xohlamas ekanlar. Umumiy psixologiya, maxsus psixologiya tarbiya nazariyasidan ma’lumki, agar tarbiyalanuvchi biror ish qilishni xohlamasa, u bilan qilinadigan ishlar og‘ir, murakkab kechadi. Axloqiy tarbiyani shakllantirish usullari, axloqiy tarbiya tamoyillariga oid fikrlar kishilik jamiyatida juda erta mutafakkirlar e’tiborini tortgan. Aristotel, Platon, Gelen, al-Xorazmiy, al-Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ulug‘bek, A.Navoiy, Abdulla Avloniy, H.H.Niyoziy, S.Ayniy va boshqa shu kabi qator mutafakkirlarning ta’lim-tarbiyaga oid nodir, durdona asarlari shular jumlasidandir. Zamonamizdan ming yil oldin yashab ijod etgan Abu Nasr al-Forobi o‘zining «Baxt-saodatga erishuv haqida risola» asarida: «Yaxshi xulq va aql kuchi birgalikdagina insoniy yutuqdir... Barcha go‘zal va jirkanch axloqiy sifatlar hayot davomida orttiriladi», – deydi. Forobi asarlarida didaktika masalalari, ta’limning nazariy, psixologik masalalari ham ochib berilgan. Uning ko‘rsatishicha, insonning ma’naviy kamoloti qalb, ong va tafakkur bilan belgilanadi. Uning ilg‘or fikrlari ibn Sino, ibn Rushd, Radjer, Bekon, Spinoza va boshqa mutafakkirlarning ijodiga ijobiy ta’sir etadi.

Abu Rayhon Beruniy ham axloqiylikka, yaxshilik va yomonlik, vijdon, to‘g‘riso‘zlik, or-nomus masalalariga alohida e’tibor bergen.

Tibbiyot asoschisi Abu Ali ibn Sino pedagogik qarashlarida ham ta’lim-tarbiyada bolalarning moyillik va qobiliyatlariga alohida e’tibor berish kerakligi, inson ongli mavjudot ekanligi bilan hayvonlardan farq qilishi, atrof-muhitga ta’sir qilishi aytib o‘tiladi. Yetuk insonni tarbiyalash bir kishining ishi bo‘lmasdan, balki uzoq vaqt qunt bilan ishlashni talab etadigan jarayondir, deb ta’kidlaydi.

Axloqiy tarbiya shaxsning barkamol shakllanishida asosiy o‘rinni egallaydi. Shuning uchun ham pedagogikada axloq masalalariga katta ahamiyat beriladi. Xo‘s, shunday ekan, axloqning

o‘zi nima? Axloq – ijtimoiy ong shakli bo‘lib, ijtimoiy hayotning hamma sohalarida insonning xulq-atvorini yo‘lga solib turadigan tamoyillar, talablar, me’yorlar va qoidalar yig‘indisidan iborat. Axloqiy tushunchalar: yaxshilik, sharaf, vijdon, e’tiqod, sadoqat va boshqalar baholanuvchi xarakterga ega. Axloq mazmuni muayyan qadriyat yo‘l-yo‘riqlarini, xulq-atvor me’yorlari va motivlarini, insonlararo muomala shakllarini o‘z ichiga oladi va ayni vaqtida ularni asoslaydi. Axloqiy tarbiya qanday xatti-harakat qilish kerakligi haqida gapiribgina qolmay, balki nima uchun boshqacha emas, bevosita shunday harakat qilish kerakligini tushuntirishga intiladi. «Nuqsonli bolalarni axloqiy tarbiyalash — aqli zaif bolalarda axloqiy sifatlar, xarakter belgilari, axloqiy xulqning malaka va ko‘nikmalarini tarbiyalashdan iborat»,— deb ta’kidlanadi defektologik lug‘atda. **Aqli zaif bolalar shaxsining o‘ziga xos xususiyatlari: aqliy yetishmaslik darajasi va axloqiy tasavvurlar, tushunchalar, ijtimoiy motivlar, o‘zlariga tanqidiy qarashning yo‘qligi bilan belgilanadi.** Bunday qator nuqsonlarni to‘g‘rilash uchun qat’iy reja asosida ish olib borish darkor. Nuqsonli bolalarni axloqiy tarbiyalash uchun quyidagi asosiy tamoyillarga rioya etish alohida ahamiyatga ega:

1. Ma’lum toifadagi nuqsonli bolalarga tegishli umumiylar individual xususiyatlarni aniqlash uchun ularni atroficha o‘rganish. Birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni tahlil etish.

2. Nuqsonli bolalarning nisbatan saqlangan, kuchli imkoniyatlarni aniqlash va shunga tayangan holda ish olib borish.

3. Pedagogik jarayonning bolalardagi nuqsonlarni to‘g‘rilash va ularning o‘rnini to‘idirishga qaratilishi. Asosiy e’tiborni tarbiyaga oson beriladigan ikkilamchi nuqsonlarga qaratish.

4. Turli toifa nuqsonlilarga alohida-alohida munosabatda bo‘lish, ayrim bolalarga individual yondashish.

Oligofrenopedagogikada aqli zaif bolalarni axloqiy tarbiyalash masalasi atroficha ochib berilmaganligini inobatga olib, ular bilan olib boriladigan unumli ish usullarini qidirib topish kerak. Yordamchi maktab o‘quvchilarining axloqiy tarbiyasi turmush va faoliyatning turli sohalarida amalga oshiriladi. Aqli zaif bolalar oilada, tengdoshlari orasida, yordamchi maktablarda, ko‘chada axloqiy ta’sirni sezadilar. Ko‘pincha bu ta’sir axloqiy talablarga monand bo‘lmaydi. Yuksak axloqiy shaxsni surunkali tarzda, sobitqadamlik bilan tarbiyalash yordamchi maktabda, uyushgan bolalar janloasida

ro'y beradi. Yordamchi mактабда shaxsni har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan maxsus tuzatish - tarbiyaviy ishlar amalga oshiriladi. Yordamchi mактab o'qituvchilar, tarbiyachilar aqli zaif o'quvchilarни hayotga, mehnatga tayyorlar ekanlar, ularni har vaqt kamtar, halol, o'zlarining his-hayajonlarini jilovlab turishga, Vatanni sevishga, o'zi uchun va jamiyatimiz uchun mehnat qilishga, odamlarga, atrof-muhitga nisbatan mehribon va g'amxo'r bo'lishga o'rgatadilar. Ana shu va boshqa ma'naviy fazilatlar axloqiy jihatdan tarbiyalangan shaxsga xos bo'ladi. Yordamchi mактабning maxsus tarbiyaviy faoliyati ana shunday shaxsni tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, u axloqiy tarbiyaning quyidagi vazifalarini hal etadi:

- axloqiy ongni, mustahkam axloqiy e'tiqodni tarbiyalash;
- yordamchi mактab o'quvchilarining Vatanga, jamiyatga, mehnatga munosabatini anglab olishga qaratilgan axloqiy tuyg'ularni tarbiyalash;
- o'quvchilarни tanqidiy fikrlashga o'rgatish;
- odob ko'nikmalari va odatlarini tarbiyalash.

Axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasi har bir bolada faol hayotiy nuqtayi nazar hosil qilishdan iborat.

Yordamchi mактab tarbiyaviy ishining umumiy tizimida o'quvchilarda axloqiy xislatlarni tarbiyalash eng murakkab va shu bilan birga mas'uliyatlari vazifadir. Chunki aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish samarasi o'quvchilarda axloqiy xislatlar qanchalik tarbiyalanganligiga bog'liq bo'ladi.

Axloqiy tushunchalar odam xulqining me'yori va malakalari, uning mehnatga bo'lgan munosabati, intizomliligidadir. Bularning hammasi tarbiya natijasi, bolaga mактab, oila va atrofdagilarning murakkab va doimo ta'sir etish natijasidir. Shuning uchun aqli zaif bolada ma'lum bir axloqiy sifatni vujudga keltirish maqsadida rejalashtirilgan, maqsadga qaratilgan maxsus pedagogik ta'sirni tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Aqliy nuqsonli bolalarni axloqiy tarbiyalashda yordamchi mактab oldida turgan vazifalardan biri — o'quvchilarning xulqida, o'qishida va mehnatida intizomlilikni tarbiyalashdan iboratdir. Intizomlilik murakkab xislatdir. Uni shakllantirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Kichik o'quvchilarda oddiy bo'ysunishdan tortib, katta o'quvchilarda xulq talablarini ongli ravishda bajarishdan iborat. Aqli zaif bolalarni

axloqiy tarbiyalash tizimini yaratishda defektologlarimiz bu bolalarning bilish imkoniyatlaridan kelib chiqadilar.

Yordamchi maktablardagi axloqiy tarbiyaning o‘ziga xosligi aqli zaif bolalarning rivojlanish xususiyatlari, ya’ni ular bilish faoliyatlarining o‘ziga xosligi, hissiy-iroda sohalarining rivojlanmaganligi, xarakter shakllanishining o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Quyida shularga to‘xtalamiz.

Aqli zaif bolalar **bilish faoliyatining** buzilishi natijasida ularning tevarak-atrof bilan munosabati qiyinlashadi. Natijada aqli zaif bola yordamchi maktabga qabul qilinishida yetarli darajada axloqiy tajribaga ega bo‘lmaydi. U haqiqatni bilishda ularni tushunib yetmaydi, kishilar va ijtimoiy hayot voqealari o‘rtasidagi munosabatni tushunmaydi. Xulq-atvor norma va qoidalarini tahlil qilish uchun yetarlicha axloqiy tasavvur va tushunchalarga ega bo‘lmaydi. Shuning uchun u o‘z xulq-atvorini atrofdagilar xulq-atvori bilan taqqoslay olmaydi. U yoki bu muomalaning oqibatini o‘zicha aniq tasavvur etolmaydi. Axloqiy istaklarga to‘g‘ri baho bera olmaydi. Bularning hammasi aqli zaif bolalarning xulq-atvor normalari buzilishiga, axloqiy nojo‘ya qiliqlar qilishiga olib keladi. Lekin yordamchi mакtab ta’limi iarayonida yuqorida bu nuqsonlar nisbatan imkon qadar tuzatilib boriladi. Aqli zaif bolalarning tafakkuri, nutqiylar qiziqishlari bilan birga axloqiy sifatlari ham takomillashib boradi. Yordamchi mакtabni bitirish arafasida aqli zaif bolalar hayotda o‘z o‘rinlariga ega bo‘la boshlaydi. Jamoada xulq-atvor normasini o‘zlashtiradilar. Shundan e’tiboran bu bolalarda mehnatga nisbatan to‘g‘ri munosabat ham shakllana boshlaydi.

Aqli zaif bolalardagi o‘ziga xos hissiy-irodaviy sifatlar ham ularni axloqiy tarbiyalashda qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun oligofrenopedagog o‘quvchilarning individual xususiyatlarini bilgan holda ularning har biriga alohida yo‘l tutishi lozim. Ma’lumki, turli nuqsonli bolalarning hissiy-irodaviy sohalari bir-birlariga to‘g‘ri kelmaydi. Birovlari tortinchoq, uyatchan, kamgap, yig‘loqi bo‘lsalar, birovleri shaddot, qaysar va uyatsiz bo‘ladilar. Albatta, bularning har biriga o‘zicha munosabat kerak. Bunday holda individual ish rejasini belgilash talab etiladi. Ba’zan bolalarni haddan tashqari avaylab-asrash kerak bo‘lsa, ba’zan haddan tashqari qattiqqo‘llik oqibatida qator salbiy xislatlar shakllanib boradi. Ba’zi oilalarda esa bolalar o‘qiy olmaydi, bola nuqsonga ega bo‘lganligi sababli ayash qabilida

ish tutadilar. Natijada bolalarda mehnatga nisbatan salbiy axloqiy xislatlar shakllanib boradi. Bularni faqat bolaga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, uning individual xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish bilan yo‘qotish mumkin.

Hissiy-irodaviy kamchiliklar bilan bog‘langan axloqiy tarbiya qiyinchiliklarini yo‘qotish maqsadida aqli zaif bolalarni ishlab chiqarish va jamoa orasida ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish katta ahamiyatga ega.

Aqli zaif bolalar xarakteridagi kamchiliklar ham ular axloqiy tarbiyasida ma’lum qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Xarakter — bu hayotiy ta’sir va tarbiya natijasida to‘plangan va mustahkamlangan kishilar xulq-odati va aniq munosabat uslubidir. Kishining individual xarakter xususiyatlari ijtimoiy sharoit ta’siri ostida uning hayoti va tarbiyasida vujudga keladi. U yoki bu kishi xarakterining asosiy sifati qanday bo‘lishini sharoitning o‘zi belgilaydi. Maktabni hayot bilan bog‘lash, xilma-xil faoliyat turlarini tashkil qilish asosida bola xarakterini shakllantirish mumkin.

Oligofrenopedagogikada axloqiy tarbiyaning quyidagi qator tamoyillari mavjud. Bularga axloqiy tarbiyaning maqsad sari yo‘nalganligi, hayot bilan bog‘lab olib borilishi, jamoa uchun va jamoa orqali tarbiyalash, bolaning shaxsiga nisbatan hurmat va uning xulqiga nisbatan talabchanlik, tarbiyaning yagona bir butun jarayon ekanligi, axloqiy tarbiyada onglilik va izchillik, bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish va boshqalar kiradi. **Axloqiy tarbiyani amalga oshirish ma’lum usullar orqali belgilanadi.** Axloqiy tarbiyaning usullari deganda pedagogik faoliyatning usul va yo‘nalishlari tushuniladi. Bular orqali bolalarda axloq tushunchalari va xulq-atvorlarini shakllantirish, ularning axloqiy his-tuyg‘ularini uyg‘otish va rivojlantirish yo‘llarini tushunamiz. U yoki bu usulning qo‘llanilishi muayyan sharoitga, ayrim shaxs yoki jamoaning xususiyati va hokazolarga bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchi va tarbiyachilar e‘quvchilarda tarbiyalanayotgan asosiy sifatlarning xarakteriga, ularning yoshi va individual xususiyatlariga qarab har xil usul va yo‘llardan o‘z o‘rnida ustalik bilan foydalangandagina tarbiyaning natijasi kutilgandek bo‘lishi mumkin.

Tarbiya mohiyatini tushunishga muvofiq bu umumiyl usullarni ikki asosiy guruhgaga bo‘lish mumkin:

1.Ijtimoiy-axloqiy tarbiyani tarkib toptirish usullari – o'rgatish va mashq qildirish, namuna ko'rsatish, o'yin, topshiriqlar berish, musobaqalar o'tkazish.

2.Axloqiy ongni tarkib toptirish – suhbatlar, munozaralar, badiiy asarlar va kinofilmarni muhokama qilish.

Shularning ayrimlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Mashq qildirish. Axloqiy xulq-atvor odatlарини tarbiyalashda yetakchi usul mashq qildirish hisoblanadi. Mashq qildirishning yordamchi maktablarda quyidagi yo'llaridan: talabnoma - kattalar bilan uchrashganda salomlashish, tramvay, trolleybus, avtobuslarda kattalarga joy berish, xonaga kattalar kirganda o'rnidan turish, xonadan chiqayotganda yo'l berish kabi usullardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Aqli zaif bolalar, ayniqsa, ishonish **talabi** shaklida berilgan talablarni bajon-u dil bajaradilar: «Men ishonamanki, sen boshqa hech qachon o'rtoqlaringni aldamaysan, sen yaxshi, to'g'ri bolasan».

Yordamchi maktablarda, agar o'quvchi ozgina bo'lsa-da, muvaffaqiyat qozonsa, ma'qullash talabi shaklidan foydalanish kerak: «Berilgan vazifani o'z vaqtida bajarding».

Ibrat-namuna usuli yordamchi maktablarda yaxshi samara beradi. Ibrat-namuna usuli deganda biz o'quvchilarga ijobjiy namunalar ko'rsatish yo'li bilan tarbiyalashni tushunamiz. Bunda o'qituvchi, tarbiyachining namunali xatti-harakati axloqiy tarbiyaning jonli misoli bo'lishi kerak, hech narsa yosh bolalarning qalbiga o'qituvchining ta'siridan kuchli ta'sir etmaydi.

Axloqiy odatlarni tarbiyalash maqsadida turli mazmun va shakldagi o'yinlarni muvaffaqiyat bilan qo'llash mumkin. O'yin jarayonida fahm-farosatga va foydali odatlar bilan bog'langan harakatlarga ijobjiy munosabatlar yaratiladi.

Ijtimoiy foydali faoliyatni tashkil qilish orqali bolalarda muhim ichki motivlarni yuzaga keltirish mumkin. Axloq tarbiyasini amalgalashishda o'quvchilarni turli jamoat ishlariiga tortish, ularni ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanadirish, maktabda va oilada o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish kabi ishlarni topshirish, maktab, jamoa xo'jaligi yoki boshqa korxonalardagi unumli mehnatga jalb etish asosiy rol o'ynaydi. Bularning hammasi ularning xulqi va ongiga ta'sir etib, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, ongli intizom, mehnat ahliga hurmat bilan munosabatda bo'lish kabi ijobjiy fazilatlarni tarbiyalaydi.

Yordamchi maktablarda ta'lim-tarbiya olayotgan aqli zaif bolalarni axloqiy tarbiyalash jarayonida oilaga tayyorlashni ham amalga oshirish kerak. Chunki bunday bolalarda aksariyat jinsiy rivojlanish, yetilish erta yuz beradi. Agar aqli zaif bolalar turli axloqsiz suhbatlarning guvohi bo'lsalar, sekin-asta ularda yomon illatlar paydo bo'lishi mumkin. Shu sababli, mumkin qadar bolalarni o'z holiga tashlab qo'ymasdan, turli foydali faoliyatlarga jalb etish kerak. Ba'zan bunday noxush, axloqsiz qiliqlarning oldini olish maqsadida ularning yotish joylarini, yotish holatlarini nazorat qilib turish darkor. Kun tartibini mazmunli tashkil etib, turli harakatlari o'yinlar, gimnastik mashqlar, mehnatga jalb etish ham yaxshi natija beradi. Yotishdan oldin gavdaning pastki qismini va oyoqlarini iliq suvda yuvish kerakligi, ma'lum yoshda ota-onalar bolalar bilan boshqa jinsdagilarga tegishli suhbatlar o'tkazish tavsiya etiladi. Yengil, yuzaki jinsiy aloqalarning og'ir oqibatlari to'g'risida, tozalik haqida, voyaga yetmasdan farzand ko'rishning salbiy oqibatlari xususida ham suhbatlashish kerak. Mumkin qadar erta yoshdan bolalarda chekishga, giyohvandlik moddalarni iste'mol qilishga qarshi kerakli tadbirlar ko'rish talab etiladi. Zero, «Rasululloh ham har qanday mast qiluvchi va bo'shashtiruvchi narsalarni iste'mol qilishni man etganlar».

Yordamchi maktablarda axloqiy tarbiyaning taxminiy mazmuni quyidagicha bayon etish mumkin:

I-III sinflar.

I bo'lim. Ijtimoiy xulq-atvor, ko'nikma, malaka va odatlarni vujudga keltirish.

1. Intizomli xulq-atvor, ko'nikma va odatlarni tarbiyalash:

- kun tartibini bajarish ko'nikmasi: o'z vaqtida turish, ertalabki va kechki borish, dars va mashg'ulotlarga kech qolmaslik;
- darsga zarur bo'lgan jihozlarni tanlash ko'nikmasi: kitob, daftar, ruchka, qalam va hokazo kabi ortiqcha narsalarni partadan o'z vaqtida yig'ishtirish;
- uy vazifasini bajarishda tinchlik, osoyishtalik va tartibga rioya qilish:
 - darsda o'zini to'g'ri tutish ko'nikmasi;
 - navbatchi o'quvchi va o'qituvchilarga e'tiroz bildirmay itoat qilish odati;

- jamoa joylarida (teatr, ko‘cha-ko‘yda, magazinlarda) xulq-atvor qoidasiga amal qilish ko‘nikmasi: qichqirmaslik, qattiq gapirmaslik, o‘zining xulq-atvori haqida tanqidiy fikrlashga o‘rgatish;
- shahar transportidan to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmasi (to‘g‘ri chiqish va tushish, chipta olish);
- ko‘chadan o‘tish qoidasiga rioya qilish.

2. Atrofdagilar bilan xushmuomala bo‘lish ko‘nikma, malaka va odatlarini vujudga keltirish:

- odobli salomlashish, xayrslashish, e’tibor, diqqat va xizmati uchun tashakkur bildirish ko‘nikmasi;
- o‘rtoqlarining iltimosini bajon-u dil, vijdonan bajarish, o‘z so‘zining ustidan chiqish odatini tarbiyalash.

3. G‘amxo‘rlik, mehribonlik ko‘rsatish ko‘nikma, malaka va odatlarini tarbiyalash:

- betob va nimjon o‘rtoqlariga yordam ko‘rsatish ko‘nikmasi;
- o‘z o‘rtoqlarining o‘yin vaqtida, o‘qishda erishgan muvaffaqiyatlarini to‘g‘ri baholay olish ko‘nikmasi;
- o‘rtoqlari bilan o‘yinchoq, kitob, qalam, daftar va hokazolarni bo‘lishish ko‘nikmasi;
- qariya va betoblarga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmasi;
- hayvonlarni boqish, o‘simliklarni parvarish qilish ko‘nikmasi.

4. Jamoani tashkil qilish:

- jamoatchilikka oid topshiriqlarni vijdonan bajarish ko‘nikmasi;
- turli ko‘rinishdagi jamoa faoliyati (o‘yin, o‘qish, ijtimoiy foydali mehnat)da faol qatnashish ko‘nikmasi;
- jamoadagi xulq-atvor me’yori va qoidalaring buzilishlariga befarq bo‘limaslik ko‘nikmasi.

II bo‘lim. Axloqiy tasavvur, tushuncha va sezgilarni vujudga keltirish.

1.Vatanga muhabbat asosidagi tushuncha va tasavvurlarni vujudga keltirish.

2.Burch, vijdon, insof haqidagi tasavvurlarni vujudga keltirish.

3.O‘rtoqlik, do‘stlik tasavvurlarini shakllantirish.

4.Birlamchi axloqiy-estetik tasavvurlarni vujudga keltirish. IV-VIII sinflar.

I bo‘lim. Ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikma va odatlarini tarbiyalash.

1. Intizomli xulq-atvor ko'nikma, malaka va odatlarni vujudga keltirish:

- dars, mashg'ulot va o'tkaziladigan tadbirlarga o'z vaqtida kelish odatini tarbiyalash;
- dars, uy vazifasi va sinfdan tashqari vazifalarni bajarishda zarur bo'lgan jihozlarni tanlash ko'nikmasi;
- uy vazifasini va jamoat topshiriqlarini o'z vaqtida vijdonan bajarish ko'nikmasi;
- o'qituvchi, tarbiyachi va boshqa o'zidan katta o'rtoqlarining tushuntirishlarini diqqat bilan tinglash ko'nikmasi;
- o'z kamchiliklariga tortishmasdan, osoyishtalik bilan to'g'ri qarash ko'nikmasi;
- sinf ishida faol qatnashish ko'nikmasi.

2. Atrofdagilar bilan xushmuomalada bo'lish ko'nikma, malaka va odatlarini vujudga keltirish:

- o'z suhbatdoshining gapini bo'lmay, oxirigacha tinglash ko'nikmasi;
- o'z iltimosini tushunarli va kamtarlik bilan ifodalash ko'nikmasi;
- noqulay vaziyatdan to'g'ri va mustaqil yo'l topib chiqib ketish ko'nikmasi.

3. G'amxo'rlik, mehribonlik ko'rsatish ko'nikma, malaka va odatlarini tarbiyalash:

- kichik o'rtoqlariga mehnat qilishga, o'yin vaqtida yordam berishga odatlanish ko'nikmasi;
- sinfda, guruhda, jamoa a'zolari o'rtasida yaxshi o'zaro munosabatni tiklashda kichik o'rtoqlariga yordam berish ko'nikmasi;
- kattalarga g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish ko'nikmasi.

4. Jamoani tashkil qilish:

- umumiyl mehnat va o'quv intizomini quvvatlash ko'nikmasi;
- umumiyl maqsadga erishish jarayonida o'rtoqlariga o'z talablarini ayta olish ko'nikmasi;
- jamoa faoliyatida ishtirok etish jarayonida shaxsiy va jamiyat manfaatlarini birga qo'sha olish ko'nikmasi;
- jamoa hayoti me'yorlarini buzuvchilarga qarshi kurashish ko'nikmasi.

II bo'lim. Axloqiy tasavvur, tushuncha va sezgilarni vujudga keltirish:

1. Vatanga nisbatan sevgi, xalqlar do'stligi haqida tushuncha va tasavvurlarni vujudga keltirish.
2. Burch, vijdon, insof haqidagi tasavvurlarni vujudga keltirish, kengaytirish.
3. O'rtoqlik, do'stlik haqidagi tasavvurlarni kengaytirish.
4. Birlamchi axloqiy-estetik tasavvurlarni vujudga keltirish va rivojlantirish.

Savol va topshiriqlar

- 1.Axloq deganda nimani tushunasiz?
- 2.Axloqiy tarbiyaning aqli zaif bola shaxsining shakllanishidagi ahamiyati nimadan iborat?
- 3.Axloqiy tarbiya tamoyillarini aytib bering.
- 4.Axloqiy tarbiyani qanday yo'llar bilan amalga oshirish mumkin?
- 5.Sharq mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqidagi qanday asarlarini bilasiz?

Yordamchi maktablarda mehnat tarbiyasi

Yordamchi maktablardagi mehnat tarbiyasi nuqsonli bolalarni mehnat faoliyatida tarbiyalash majmuasidir, deyiladi defektologik lug'atda. Hozirgi davrda mehnat tarbiyasi boshqa tarbiya turlaridan har taraflama ustunligi bilan ajralib turishi kerak. Maxsus maktablardagi mehnat esa alovida tashkil etilishi lozim. Chunki mehnat faoliyatida nuqsonli bolalardagi psixofizik yetishmovchiliklar ko'proq kuzatiladi va bartaraf etiladi. Mehnat jarayonlari yordamchi muktab bolalarini atroficha rivojlantirish va hayotga, mehnatga tayyorlashning asosidir. Bu maktablardagi mehnat tarbiyasining **vazifalari** o'quvchilarni mehnat malakasi va ko'nikmalari bilan qurollantirish, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda jamao hislarini tarkib toptirish va xulq me'yorlarini shakllantirishdan iborat. Maxsus maktablardagi mehnat tarbiyasi turli faoliyatlarda: o'quv, maishiy va ijtimoiy mehnatda amalga oshirib boriladi. Bu mehnat turlarining barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'quvchilar mehnatda uning kerak bo'ladigan bilimlarni egallasalar, maishiy mehnatda oddiy, sodda, tushunarli turlari bilan tanishadilar.

Nuqsonli bolalarni tarbiyalashda **ijtimoiy foydali mehnat** katta ahamiyatga ega. Bularga o'z-o'ziga xizmat qilish, turli kechalar tashkil etish va o'tkazish, ko'rgazmalar, tanlovlardan, muktabni obodon-

lashtirish ishlari, hosilni yig‘ishtirib olish, to‘garak ishlari va boshqa qator mehnat turlari kiradi. Bu mehnat turlari mazmunining turli-tumanligi nuqsonli bolalarning keng hajmda bilim egallashlariga imkoniyat yaratadi. Maxsus maktablardagi mehnat tarbiyasi ishlab chiqarish mehnatlarida samarali natijalar beradi. Mehnat orqali bolalar turli fanlarga oid nazariy bilimlar olish bilan birga, ularda shaxsiy sifatlar shakllanib borishi asosida mehnat davolash vazifalarini ham o‘taydi. Barcha mehnat jarayonlaridagi xatti-harakatlar oqibatida fiziologik jarayonlar yaxshilanib boradi, ruhiyatga ijobiy ta’sir etadi. Ularning irodaviy sifatlarini shakllantiradi. Ular faoliyatiga tashkiliy ma’no beradi, asosiysi, mehnat tufayli aqli zaif bolalar o‘z kasalliklariga oid fikrlardan chalg‘iydilar. Lekin bunda mehnat topshiriqlari bolalar kasalligi darajasiga, xususiyatlariga qarab berilishi kerak, shundagina yaxshi natijalarga erishish mumkin. Pirovard-natijada maxsus maktablarni, xususan, yordamchi maktablarni tugatgan bolalar turli tashkilotlarga ishga joylashadilar (S.Sh.Aytmetova. 1986).

Tajribalar hamda ilmiy izlanishlarning ko‘rsatishicha, yordamchi maktab o‘quvchilari mehnat faoliyatining turli jabhalarida muvaffaqiyatli ishtirot etishlari mumkin. Jamoa bo‘lib mehnat qilish asosida o‘quvchilar aqliy, estetik, jismoniy rivojlanib, ularning dunyoqarashlari, axloqiy sifatlari, xarakteri shakllanib boradi. Aqli zaif bolalarni mehnat tarbiyasisiz korreksion rivojlantirishni tasavvur etish mumkin emas. Yordamchi maktablarda mehnat tarbiyasini amalga oshirishda mehnat haqida suhbatlar, ayrim mehnat jamoalarini haqida hikoya qilib berish, mashhur, ilg‘or kishilar to‘g‘risida ma’lumot berish, qishloq mehnatkashlari haqida savol-javoblar tashkil etish yaxshi natijalar beradi. Turli mavzularda qiziqarli suhbatlar o‘tkazish aqli zaif bolalardagi qator salbiy sifatlarning to‘g‘rulanishiga olib keladi. «Barcha kasblar kerak», «Bizning rejalarimiz — bizning sevgan ishimiz», «Barcha mehnat faxrlidir», «O‘simpliklarni asrang», «Nonni tayyorlash jarayoni» va boshqa mavzular bolalar tomonidan sevib o‘rganiladi. «Ishlab chiqarish korxonalariga sayohat uyuştirish orqali maktab mehnat ustaxonalaridagi mehnatga boshqacha munosabatda bo‘ladilar», — deb ta‘kidlaydi Ya.Ya.Karvalis.

Demak, sayohat faqat tomosha uchun o‘tkazilmaydi, balki bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirishga ham xizmat qilar ekan. Buning uchun maxsus tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Turli

korxonalarga, jamoa xo‘jaliklariga ekskursiyalar uyushtirish asosida aqli zaif o‘quvchilarda o‘ziga xos ishonch hosil qilinadi. Hayotda asosiy narsa — vijdanan mehnat qilish kerak, degan fikr paydo bo‘ladi. Mehnatdagi yutuqlar uchun berilgan turli mukofotlar, tanqidiy surat ko‘rish asosida yordamchi maktab o‘quvchilari qanday yashash, ishlash kerakligi haqida o‘ylay boshlaydilar. Har bir sayohat oxirida yakuniy suhbat o‘tkaziladi.

Yordamchi maktablardagi mehnat tarbiyasini amalga oshirishda qo‘l mehnati natijalarini namoyish etuvchi to‘garak ishlari ham muhim ahamiyatga ega. Bu to‘garaklarga qatnashish orqali aqli zaif bolalarni tarbiyalash, hayotga tayyorlash yaxshi natijalar beradi. Yordamchi maktablardagi mehnat orqali bolalarda kasbga tayyorgarlik, kasb tanlashga havas uyg‘otib boriladi. Yordamchi maktablardagi mehnat ta’limi orqali o‘quvchilarni milliy hunarmandchilikka oid kasb-hunarga tayyorlash, hozirgi zamon sanoat va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi, qurilish, transport, xizmat ko‘rsatish sohasining asoslari bilan tanishtirish orqali esa o‘quvchilarda ko‘p qo‘llaniladigan o‘lchov asbob-uskunalari bilan ishlash ko‘nikmalari ham tarbiyalanadi. O‘quvchilarda umumiy ish madaniyati, o‘z ish o‘rnini tashkil eta bilish, ish qurollarini hamisha tartibli holda saqlash, ish vaqt va materiallarni tejash, jamoa mehnatini uyuشتира bilish, qiyinchilik tug‘ilganda yordam ko‘rsatish kabi shaxsiy sifatlar shakllantiriladi. Ta’limning unumli mehnat bilan birlashtirilishi natijasida aqli zaif bolalarning kasb tanlashiga sharoit yaratiladi.

Yordamchi maktablardagi mehnat tarbiyasi maqsad asosida, sistemali tarzda olib boriladi. Hozirgi zamon yordamchi maktabida mehnat tarbiyasining o‘ziga xos izhil tizimi tarkib topgan. Bular birmuncha oddiy mehnat turlaridan boshlanib, borgan sari murakkablashib boruvchi mehnat turini o‘z ichiga oladi.

Psixologlar fikricha, aqliy mehnat bola uchun eng og‘ir mehnat ekan. Chunki bu mehnat boladan aqlga zo‘r berishni talab etadi. Shuning uchun yordamchi maktablardagi o‘quv mehnati bolalarning qurbi yetadigan darajada bo‘lishi kerak. Aks holda ijobjiy ta’sir o‘rniga salbiy ta’sir etishi mumkin. O‘quv mehnatining bosh vazifasi bolalarni o‘qishga o‘rgatishtan, ularni o‘quv mehnati usullari bilan qurollantirishdan iborat. O‘quv mehnati jarayonida hosil qilinadigan ko‘nikma va malakalar aqli zaif o‘quvchilarning ijtimoiy foydali,

unumli mehnatda qatnashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilarni bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlash uchun poydevor bo'ladi. Ijtimoiy foydali mehnat ahamiyati aniq ifodalangan, bir maqsadga qaratilgan, ongli, rejali, ixtiyoriy faoliyatdir. O'quvchilarning bajarishi shart bo'lgan va ijtimoiy dasturlarga muvofiq amalga oshiriladigan ijtimoiy foydali mehnat sinfdan tashqari ishlarda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy foydali mehnat turli shakllarda tashkil etilishi mumkin. Bunday mehnat jarayonlarida o'quvchilarda mas'uliyat, ijtimoiy mulkni ehtiyyot qilish, intizom, ijodiy faollik kabi axloqiy fazilatlar shakllanib boradi. Bu mehnatning eng muhim xususiyati shundan iboratki, bu shunchaki qilinadigan mehnat emas, balki mehnat faoliyatining har bir qatnashchisi atrofidagi kishilar hamda maktab haqida g'amxo'rlik qilishda namoyon bo'ladigan mehnatdir. Turli ijtimoiy foydali mehnat jarayonida aqli zaif o'quvchilarda aqliy, estetik va jismoniy sifatlar rivojlantirilib boriladi. Yordamchi maktab boshlang'ich sinflaridayoq bolalar mehnat ishtirokchilari bo'lib qolmasdan, balki bu ishlarni tashkil etishda o'qituvchining yordamchisi hamdir.

Ijtimoiy foydali mehnat muntazam olib borilsagina ijobiy, tarbiyaviy ta'sir etadi. Bu narsa ishni tanlash bilangina emas, balki puxta rejalashtirish bilan ham ta'minlanadi. Rejada ijtimoiy foydali mehnatning sanitariya, gigiyena, texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilinadigan holda o'tkazilishi ham belgilanadi. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ijtimoiy foydali mehnatning eng oddiy va ommabop turidir. Bu mehnat turi uyda va mакtabda o'zlariga xizmat qilishga bo'linadi. Yordamchi maktablarda bu mehnat turiga jiddiy e'tibor beriladi.

Bolalarni tarbiyalash tajribalarining ko'rsatishicha, o'quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda oila katta rol o'ynaydi. Defektologlar oiladagi bolalar mehnatiga katta e'tibor berganlar, ularning ko'rsatishicha, oilaning har bir a'zosi xonadondagi umumiyl mehnatning qatnashchisi bo'lgan joydagina oila aniq jamoa sifatida rivojlanadi. Aynan ana shu oiladagi mehnat bolalarda ota-onalarning mehnatiga hurmat bilan qarashni, oilaning kichik a'zolariga g'amxo'rlik qilish ruhini tarbiyalar ekan. Agar bolalar uyda o'zlariga xizmat ko'rsatishga, oila a'zolariga yordam berishga o'rgatilgan bo'lsalar, mакtabda ularning o'zlariga xizmat ko'rsatishni tashkil etish oson kechadi. Yordamchi mакtabdag'i bunday ishlarga o'quv qo'llanmalari va mакtab jihozlarini та'mirlash, sinfdagi gul o'stirish,

«jonli burchak»da jonivorlarni parvarish qilish, chiqindi qog‘ozlar va metall to‘plash, maktab yer maydonidagi ishlar, o‘quvchilar va tarbiyalanuvchilar uchun o‘yinchoqlar yasash, sinfda, mактабда, oshxonada navbatchilik qilish ishlari kiradi. Ana shunday topshiriqlarni bajarish asosida o‘quvchilarda axloqiy tushuncha mustahkamlanadi, ular jamoatchilik faoliyatiga qiziq qoshlaydilar. Bunday mehnat natijasida ularda odat, ehtiyojlar shakllanadi, maqsad sari intilish rivojlanib boradi. Beriladigan barcha topshiriqlar bolalar xususiyatiga mos bo‘lib, ularni bajarish uchun ma’lum vaqt beriladi. Aqli zaif bolalarni amalda ishlatib tarbiyalash muhim korreksion pedagogik masala sanaladi. Bolalarni mehnatga tarbiyalash jarayoni to‘laqonli bo‘lishi uchun qator talablarga va shartlarga amal qilish kerak. Bunday shartlarga quyidagilar kiradi:

1. Bolalar mehnatga qancha erta jalb etilsa, uning mehnat tarbiyasi shunchalik muvaffaqiyatli o‘tadi.
2. Bolalarning mehnati ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak.
3. Charchoq, horish hissini tug‘diradigan sevimli mehnatgina bolalarga quvonch bag‘ishlaydi. Jismoniy va aqliy kuch talab etmaydigan yengil mehnat samara bermaydi.
4. Kattalar bolalarning mehnatini odob doirasida nazorat qilishi, boladagi o‘z kuchiga ishonchni qo‘llab-quvvatlashi kerak. Agar yordamchi mактаб o‘quvchisi topshiriqnı bajarganidan keyin o‘z muvaffaqiyatidan quvonsa, qilgan ishi bilan faxrlansa, haqiqiy inson sifatida kamol topadi, o‘zini baxtiyor kishi deb his qila boshlaydi.
5. Yordamchi mактаб o‘quvchilari mehnati dam olish bilan almashtirib borilishi kerak. Mehnat turlarining navbat bilan bajarilishi ham charchoqui bosadi.
6. Har qanday mehnat topshirig‘i foydali, imkonli boricha natijali bo‘lishi kerak. Bu natija jamoat uchun va o‘zi uchun qanchalik ahamiyatga ega bo‘lsa, mehnatning tarbiyaviy ta’siri shunchalik kuchli bo‘ladi. Sharq mutafakkirlari, pedagoglar xo‘jako‘rsinga qilinadigan yoki bolalarning vaqtini oladigan ishga qat’iy e’tibor bildirgan edilar.
7. Unumli mehnatda bolalarning shaxsiy, moddiy manfaatdorligini rad etish kerak emas. Tajribalarning ko‘rsatishicha, faqat shaxsiy manfaatdorlik orqaligina bola to‘la kuch bilan ishlashi, o‘rganishi, jamoaga singib ketishi va shu tarzda to‘la qimmatli

mehnatkash darajasiga ko'tarilib, shu asosda burch va sharafga binoan ishlash imkoniyatini beradigan yuksak ong hosil qilishi mumkin.

8. Mehnat faoliyatini tashkil qilish axloqiy tarbiya, intizom bilan bog'lanishi lozim.

9. Mehnat aqli zaif bo'alarning yoshi, individual, psixofizik xususiyatlariga monand bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilar va ayniqsa, birinchi sinf o'quvchilar faoliyatining asosiy turi o'yin bilan bog'liqdir. Maktab yoshidagi bolalarning o'yinlarida, albatta mehnat elementlari bo'ladi (qurilish materiallaridan, o'yinchoqlardan foydalaniib o'ynash). O'yin jarayonida hosil qilingan tashkilotchilik ko'nikmalari asta-sekin mehnatdagi tashkilotchilik ko'nikmalariga aylanib boradi. Ishda bo'lganidek, o'yinda ham faol fikr yuritiladi. O'yin va ish bolaga quvonch bag'ishlaydi. Ishda bo'lganidek, o'yinda ham mas'uliyat bo'lishi kerak. Mehnat faoliyati jarayonida o'quvchilar o'zlariga topshirilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'z ishlarini mustaqil tashkil etishni ham o'rganishlari zarur.

Odam qo'li faqat mehnat quroli bo'lib qolmasdan, mehnat mahsuli ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, aqli zaif bolalarning rivoji uchun mehnatning qanchalik ahamiyatli ekanligi yanada ravshanlashadi. Burgut ko'zi juda uzoq masofadan kichik narsalarning qimirlashini sezadi, ammo inson ko'zi burgut ko'zi ko'ra olmagan narsalarni ko'ra oladi. Itning hid bilish a'zolari nihoyatda nozik bo'lib, yaxshi rivojlangan bo'lsa ham inson sezgan hidlarning barchasini seza olmaydi. Inson qo'lidagi tuyush sezgilariga hech bir hayvon sezgisi tenglasha olmaydi. Odam organizmining bu darajada takomilla-shishiga sabab ming yillab davom etayotgan mehnat jarayonidir. Shu sababli, yordamchi maktablarda bolalar vaqtini shunday tashkil etish kerakki, ular miyasi fikrlashsiz, qo'li ishsiz qolmasin, aks holda qator noxush holatlar, ko'ngilsiz voqealar' xuddi shu bekorchi vaqtda yuz berishi mumkin.

Yordamchi maktab o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash

Nogiron va alohida yordamga muhtoj bolalarni kasb-hunarga tayyorlashning avvalo O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun talablaridan kelib chiqqan holda hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslari, xalq xo'jalik tarmoqlari haqida yetarli darajada chuqur bilim berishga asoslanish ham talab etiladi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ijrosi ham ana shundan kelib chiqadi.

Ayni paytda nogiron va alohida yordamga muhtoj o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashda erkin, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularda o'z kuchiga, o'ziga xos qobiliyatiga ishonish kabi xislatlarni shakllantirish kabi masalalar ham dolzarbdir.

Yordamchi məktəb o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlashda defektolog mutaxassislar oldida nogiron va alohida yordamga muhtoj bolalarning psixik hamda jismoniy nuqsonlarini inobatga olgan holda yangi dastur va darsliklarni o'z vaqtida ishlab chiqish, to'garaklar ishi samaradorligini oshirish, turli kasblarga oid axborotlar, kasblar bo'yicha maslahatli ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, kasbga yo'llash markazlarining ishini takomillashtirish orqaligina erishish mumkin bo'ladi.

Mustaqil davlat ravnaqi va taraqqiyotida mutaxassislarga, ishbilarmonlarga, umuman insonga o'z imkoniyatlarini namoyon qilish, shart-sharoit yaratib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ruhiy va jismoniy nuqsonga ega bo'lgan nogiron bolalar kasb-hunar o'rghanishga, biron-bir kasb egasi bo'lishga chanqoqdirlar.

Yordamchi məktəb o'quvchilarini mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, ya'ni ularda mehnat qilish odobini, istagini shakllantirish va ko'nikmalarini hosil etishning juda ko'p shakllari mavjud.

Bu o'rinda zardushtiyarning muqaddas kitobidan, Qur'oni karim, hadislardan foydalanish ham kutilgan natijalarni beradi. «Avesto»da zardushtiyarning chorvachilik va dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lganini, ularning doimiy mehnat bilan shug'ullanganini, shuningdek, mehnat tufayli baxt-saodatga erishish, bog'-rog'lar yaratish mumkinligi haqidagi fikrlari misol qilib keltiriladi. Xuddi shuningdek, Qur'oni karimda atrof-olamni asrash, mehnatga munosabat kabi yaxshi mavzulardan foydalanish mumkin.

Ayniqsa, nogiron kishilarni joylardagi mehnat qahramonliklarini ko'rsatayotganlar bilan uchrashuv kechalari uyuştirish, ular bilan mehnat mavzuida suhbatlar tashkil qilish yordamchi məktəb o'quvchilarining kasb tanlashiga samarali ta'sir etadi.

Umuman olganda, yordamchi maktablarda 1-sinfdan 9-sinfgacha yordamchi məktəb o'quvchilarini mehnat va turmushga tayyorlash birinchi galdeg'i vazifasidir. Hayot va turmushni mehnatsiz tasavvur etish aslo mumkin emas. Maxsus maktablarda mehnat tarbiyasini faqat mehnat darslarida emas, balki boshqa fanlar darslarida ham hal

etish ularni kelgusi hayotda ongli mehnatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maxsus ta'lilda mehnat tarbiyasining hech bir turini nazardan qochirmaslik kerak. Uy-ro'zg'or mehnatlari (ishlari), qo'nish-qo'shnilariga yordam, hashar, ota-onaga barcha ishlarida qarashish, tomorqadagi mehnat, chorvachilikdagi mehnat, qishloq xo'jaligidagi mehnat, korxonalardagi mehnat, shahar obodonchiligidagi mehnat – bularning barchasida jismoniy mehnat mavjud. Yordamchi mактаб o'quvchilari 40 dan ortiq mehnat turlarini bajara olishi ilmiy asoslangan (Ya.Ya.Karvalis, S.Sh.Aytmetova). Uqtirilgan fikrlarni amalda sinab ko'rib, mehnatni malaka va ko'nikmaga aylantirishga yordam berish yordamchi mактаб o'qituvchi va tarbiyachilarining asosiy vazifasidir. Bunda oila, mактаб va bevosita mehnat o'qituvchilari, korxona, muassasa va tashkilotlar, jamoatchilikning birgalikdagi faoliyati muhim ahamiyatga ega.

Demak, yordamchi mактабда mehnat tarbiyasi ham kechiktirib bo'lmaydigan, kundalik va doimiy bajarilishi shart bo'lgan muhim vazifalardandir. Yangi mustaqil O'zbekiston davlatining olib borayotgan siyosati va ilgari surilayotgan milliy g'oyalar negizida umumta'lim bilan bir qatorda maxsus ta'lif hamda yordamchi mактаб o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash borasidagi sa'y-harakatlarda mehnat qilishga diqqat-e'tibor qaratilishi ham taqozo etiladi.

Yordamchi mактабда o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari va ularning nogironlik turiga qarab kasb tanlash kutilgan natijalar berishi haqida fikr bildirganlar. Bunda ular yordamchi mактаб o'quvchilariga differensial yondashuvga birmuncha e'tibor beradilar. Yordamchi mактаб o'quvchilarni intellektual, jismoniy va emotsiional, iroda xususiyatlari, qiziqishlari, ularning matorikasi, harakat koordinatsiyasining o'ziga xos xususiyatini inobatga olgan holda mehnat ta'lifi berilishi, kasb-hunarga o'rgatilishi taqozo etiladi.

Yordamchi mактабда o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning samarali yo'llaridan biri – o'quvchilar maxsus mактабни bitirgach, tanlagan kasbini mukammal o'rGANISH uchun kasb-hunarga tayyorlovchi maxsus kollejlarga tanlov asosida o'qishni davom ettirishiga yuboriladi. Chunki yordamchi mактаб o'quvchilari 9-sinfni tugatgach, ularni yoshi yetmaganligi, kasb-hunarining chegaralanligi tusayli ishga joylashishi muammo bo'ladi. Ayrincha ana shuning

uchun ham yordamchi maktab o‘quvchilari kasb-hunarga oid bilimlarini maxsus kollejlarda davom ettirishlariga to‘g‘ri keladi.

Shundagina yordamchi maktab o‘quvchilari ko‘chada bekor, ishsiz qolmaydilar. Hayotda o‘z o‘rinlarini topa oladilar. Jamiyatimizga ishchi kuchi sifatida foya keltiradilar. Ko‘chadagi ba’zi yomon taassurotlar ta’siriga tushib qolmaydilar. Yordamchi mактабда o‘quvchilarni iloji boricha ko‘проq ijtimoiy foydali mehnatga faol ishtirot ettirish kerak. Ma’lumki, yordamchi mактабда ijtimoiy foydali mehnatga faol ravishda tayyorlash har xil yo‘nalishlar (ekologik, huquqiy, mehnat, axloqiy) bo‘yicha olib boriladi. Yordamchi mактаб o‘quvchilarining ijtimoiy foydali mehnat jarayonida har tomonlama diagnostik nuqtayi nazardan yondashish, bu shaxsning bundan keyingi rivojlanishini quyidagicha prognozlashni nazarda tutadi:

1. Tanlangan ixtisosi bo‘yicha mehnat qilish jarayonining asosiy qonuniyatlarini bilish kerak, mazkur kasb bo‘yicha tajriba orttirish yo‘llarini mustaqil izlashga, zarur malaka, ko‘nikmalarni egallashga o‘rgatish kerak.

2. Burch va mas’uliyat. Yordamchi mактаб o‘quvchisi jamiyat va jamoa oldidagi burchini anglab yetish malakasini shakllantirish, jamoat ishlari va hodisalariga qiziqtirish, ularda faol ishtirot etishga ishtiyoq uyg‘otish.

3. Ongli intizom. Yordamchi mактаб o‘quvchisi har doim va har tomonlama intizomli bo‘lishi va bunga amal qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

4. Bahamjihatlik va birodarlik. Yordamchi mактаб o‘quvchilarini muomala qilishda dilkash va andishali bo‘lishga, bir-biriga sidqidildan beg‘araz yordam berishga o‘rgatish.

5. Mehnatsevarlik, insonparvarlik, boshqalarning halol mehnatlarini hurmat qilishni har doim bolalar ongiga singdirib borishdan iborat.

Yuqorida aytib o‘tilganlarni amalga oshirishda axloqiy tarbiya bilan birga mehnat tarbiyasi barcha tarbiya turlaridan ustunligi bilan ajralib turishi kerak. Ayni paytda mehnat yordamchi mактаб o‘quvchilaridagi psixofizik yetishmovchiliklarni korreksiyalaydi. Yordamchi mактабда o‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning asosiy vazifasi mактабни tamomlayotgan o‘quvchilarning o‘z mayllari

hamda qobiliyatlariga muvofiq keladigan kasbni to‘g‘ri, ongli ravishda tanlashlariga yordam berishdan iboratdir.

Yoshlarni mehnatga o‘rgatish borasida Mahmud Zamaxshariyning aytganlari juda o‘rinlidir. U mehnatning tarbiyaviy tomonlari haqida fikrlar bildirar ekan, «Mehnat insonni uch balodan: bezorilikdan, o‘g‘rilikdan, qashshoqlikdan asraydi», deydi. Zamaxshariyning bu so‘zlarini yordamchi maktab o‘quvchilari uchun shior qilib olsa arziyi, chunki yordamchi maktab o‘quvchilari maktabni tugatgach mustaqil hayotga qadam qo‘yar ekanlar, ularga hayotda o‘z yo‘llarini topishda ana shu olgan kasb-hunarlar, mehnat malakalari asqatadi. To‘g‘ri, adashmay halol non topib yeydilar. Qo‘llarida hunarlar bor ekan, nojo‘ya ish qilishga o‘rin qolmaydi. Yuqorida aytib o‘tilganlardan xulosa qilgan holda aynan yordamchi maktablarda shu kecha-kunduzda kechikmay jamiyatimizga foyda keltiradigan mehnatsevar kishilarni yetishtirish, bolalar qiziqishiga monand holda kasb-hunarga o‘rgatishning samarali usullarini zamon talablaridan kelib chiqib, takomillashtirib borish defektolog-mutaxassislarining muqaddas burchlaridir. Yordamchi maktabda mehnat ta’limida kasbga tayyorgarlikni aniqlash va unga nisbatan mehr uyg‘otish va diagnostik usullarni amaliyotga tatbiq qilish va moslashtirish; kasb-hunar kabinetlarini jihozlash, professional saralash ishlarini o‘tkazish va boshqalar muhim jarayondir. Shuning bilan birga, o‘quvchilardagi o‘ziga xos qobiliyat, ishtiyoq, o‘qishga va kasbga qiziqish hamda bularning yordamchi maktab o‘quvchilari barqarorligining amaliy ifodasi va ko‘rinishi singari ijobiy fazilatlar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish muhimdir. Yuqorida sanab o‘tilgan eng zarur jihatlar yordamchi maktabda korreksion-pedagogik yo‘nalishlar zamirida amalga oshiriladi. Kasb-hunar maorifi, kasb tanlashga yo‘llash, kasbga oid maslahatlar, kasbni saralash, kasbga moslashish, kasb tarbiyasi shular jumlasidandir.

Hozirgi davr talabiga binoan kasb-hunarning boshqa turlarini yordamchi mакtab o‘quvchilariga o‘rgatish taqozo etiladi. Masalan, chorvachilik, qishloq xo‘jalik ishlari, milliy hunarmandchilik, obodonlashtirish, kosibchilik, bog‘dorchilik va boshqalar.

Yordamchi mакtab o‘quvchilar shaxsining jismoniy rivojlanishi, salomatligi, moyilligi, aqliy taraqqiyotining umumiyl darajasi, u yoki bu kasbga nisbatan qobiliyati kabilarni esa kasbga oid maslahatlar orqali amalga oshiriladi. Ayni paytda aniqlangan natijalar,

ma'lumotlardan kelib chiqqan holda kasb-hunarni egallahsga doir maslahatlar berilishi lozim.

Yordamchi maktab o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlashda oligofrenopedagoglar, psixologlar, terapevt va boshqa mutaxassislar hamkorlikda ish olib borishlari lozim. Yordamchi maktab o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlashda o'quvchilarning ota-onalari kasbiga, avlodlar kasb-koriga ham e'tibor beriladi, chunki ota kasbiga menr oiiadan boshlanadi. Bolalarda ota kasbiga nisbatan oiziqish bolsa, kasbga o'rgatish osen kechadi.

Yordamchi maktab o'quvchilarini kasb-hunarga tayyoriashda arning kasbga yaroqlilik darajasini ko'rsatuvchi jismoniy hamda psixik sifatlari aniqlanadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, yordamchi maktabda kasb-hunarga tayyorlashda maxsus psixologik ta'sir etish ham muhim rol o'ynaydi. Yordamchi maktab o'quvchilarini uchiga ishontirish, mehnati tarjimalarining jamiyatimiz uchun shamiyati, o'z oilasi, ota-onasi, maktabi uchun keltiradigan soydasiga ishonish, o'z inehnatidan zavqlanish kabi psixopedagogik ish tizimini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yordamchi maktab o'quvchilarini kasb-hunarga o'rgatishning ahamiyati shundaki, mehnat orqali ular turli fanlarga oid bilimlar olish bilan birga ularda shaxsiy ijobiy sifatlar shakllanib boradi, mehnat orqali esa davolovchi — korreksion ish ham amalga oshiriladi.

Yordamchi maktab o'quvchilari uchun to'g'ri tanlangan mehnat turi, mehnat jarayonlari o'quvchilarda fiziologik jarayonni yaxshilaydi. Ularning ruhiyatiga ijobiy ta'sir etadi. Ular faoliyatiga tashkiliy ma'no beradi. Asosan yordamchi maktab o'quvchilarini mehnat tufayli o'z kasalliklariga, nuqsonlariga oid fikrlardan chalg'iydilar, taskin topadilar.

Savol va topshiriqlar

1.Yordamchi maktabda mehnat tarbiyasi qanday ahamiyatiga ega?

2.Aqli zaif bolalar psixofizik nuqsonlarini tuzatishda mehnat tarbiyasining ahamiyati nimalardan iborat?

3.Yordamchi maktabda mehnat tarbiyasining vositalari haqida gapirib bering.

4.Yordamchi mактабда мehнат tarbiyasining zarurligini asoslab bering.

Yordamchi mактабда estetik tarbiya

Estetik tarbiya yordamchi mактабда o‘quvchilar shaxsini to‘g‘ri kamol toptirishga kompleks yondashuvni ta‘minlaydi, u milliy, g‘oyaviy, mehnat va axloqiy tarbiyani qamrab oladi hamda mehnatga, atrofdagi kishilar turmush tarziga to‘g‘ri munosabatda namoyon bo‘luvchi faol nuqtayi nazarga ega bo‘lgan har tomonlama uyg‘un rivojlangan shaxsni tarbiyalab yetishtirishga yordam beradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan maxsus mактаб islohoti mактаб o‘quvchilariga badiiy-estetik tarbiya berishni yaxshilash, go‘zallikni his qilishni rivojlantirish, yuksak estetik didni, san‘at asarlari, tarix, me’morchilik yodgorliklari, jonajon tabiat go‘zalligi, boyligini tushunish hamda qadrlay bilishni shakllantirish lozim. Yordamchi mактаб o‘quvchilarini estetik rivojlantirish — bu aqli zaif o‘quvchilar shaxsining estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatni vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat. Estetik tarbiya uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon yordamchi mактаб o‘quvchilarining yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqich hamda darajalariga egadir. Bu esa, yordamchi mактаб o‘quvchilari shaxsini, jamiyat estetik madaniyatini egallab olishga bog‘liq bo‘lib, turli yo‘llar hamda shakllar yordamida amalga oshiriladi. Yordamchi mактабда estetik tarbiyaga doir bilim va malakalar asosan dars jarayonida — o‘qish. musiqa, ona tili, tabiat, tasviriy san‘at, tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya darslarida beriladi.

Estetik tarbiyaning vazifalari juda keng va rang-barangdir. Shu vazifalardan biri yosh avlodda estetik sezgi va estetik idrokni tarbiyalashdan iborat. Hayotda, san‘atda go‘zallikni ko‘ra bilish va sezish har bir kishining ham qo‘lidan kelavermaydi. Bir kishi quyosh botishidagi ranglardan ko‘z uzolmasa, ikkinchi bir kishi bu holatga befarq bo‘lishi mumkin. Estetik sezgirlik, idrok, diqqat-e’tibor estetik tarbiya asosini tashkil etadi. Bu vazifa bolaning bevosita borliqdagi go‘zalliklarni sezishi jarayonida bajariladi. Bolalardagi estetik sezgi madaniyati maxsus musiqa, rasm mashg‘ulotlarida rivojlantirib boriladi. Estetik tarbiyaning ikkinchi vazifasi bolalarda estetik tushuncha, baholash hissini shakllantirishdir. Bola go‘zallikni

faqatgina sezishi emas, balki uni tushunishi, u haqda fikr yuritishi zarur. Bunga bilimlarsiz erishib bo'lmaydi. Tasviriy san'at mashg'ulotlari davomida bolalar shakl, rang, yorug'lik, zulmatning roli haqidagi bilimlarni egallagan bo'lislari darkor. Ulardan musiqa va ashulada tovushni farqlay bilish ham talab qilinadi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilar badiiy so'zning ta'sirchanligi, ifodaliligi haqidagi bilimlardan ham xabardor bo'lishi kerak.

Badiiy didni tarbiyalash ham estetik tarbiya vazifalaridan biridir. **Estetik did** – bu go'zallikni sezish, go'zallikka hissiy munosabat, estetik sezgilar madaniyati, estetik baho bera olish, go'zallikning obyektiv mezonlarini tushunish bilan chambarchas bog'liqdır. San'at asarlari namunalarini baholash darajasi badiiy did ko'rsatkichlaridan biridir. Shu asosda muayyan shaxsning didi haqida fikr yuritish mumkin.

Badiiy didning ikkinchi ko'rsatkichi: go'zallikka baho berish, me'yorida tanlash masalasida, haqiqiy go'zallikni soxta go'zallikdan ajrata olishda ko'zga tashlanadi.

Badiiy didning uchinchi ko'rsatkichi: san'at asarlarida yuksak talabda, soxtalikka qarshi kurashda, tasvirlardagi obrazlarni chuqur ko'ra bilishda namoyon bo'ladi. Estetik did atrofimizdag'i narsalarning, tabiatning, mehnat mahsulotlarining, kishilar munosabatining, haqiqiy san'at namunalarining ta'siri ostida rivojlanib boradi. Estetik did go'zallikni tushunib idrok etishda go'zallikka oid ongli munosabat ham shakllanib boradi.

Tabiatning nozik holatlarini, ko'rinishlarni his qila olish uchun insonda ma'lum darajada hissiyot rivojlangan bo'lishi kerak. Aks holda inson bunday go'zalliklarga befarq qaraydi, kishilarda estetik faoliytni rivojlantirmasdan turib haqiqiy estetik tarbiyaning vazifalarini amalga oshirish mumkin emas. **Estetik faoliytki** insonning tarbiyalanganlik belgisidir. Bu faoliytki estetik idrokning tezligida namoyon bo'ladi. Bolalarda estetik faoliytni tarbiyalashda har bir bolada sezgirlikni, nozik tabiatlikni shakllantirib borishimiz kerak. Estetik faoliytki estetik sezgirlik bilangina cheklanib qolmasdan, balki kishining hayotiga go'zallik olib kirishi hamdir. Shaxsning boshqa xislatlari kabi estetik madaniyati va estetik didi faoliyatda rivojlanib boradi. Agar bolaning butun hayoti: mehnati, o'qishi, dam olishi estetik ma'no bilan yo'g'rilgan bo'lsa, u o'z hayotiga go'zallik

elementlarini olib kiradi. Oilada va maktabda bolalar bunday ko'nikma va malakalarni egallab boradilar.

Ota-onalar bolalariga uyni yig'ishtirish, bichish-tikish ishlarini o'rgatib boradilar. Maktabda o'quvchilar devoriy gazetalari chiqaradilar, ularni bezaydilar, bayramlarga albomlar ishlaydi. Stendlar tayyorlaydilar, badiiy kechalar uyushtiradilar. Yaxshi ashuiachi o'yinchi ko'riklarida qatnashadilar. Turli o'yinchoe yasaydilar. Bevosita shunday estetik yo'nalgan faoliyat turiandy estetik faoliik rivojlanib boradi. Tarbiyachilar har bir bolaning yasagan narsalarini diqqat, e'tibor bilan ko'zdan kechirishlari kerak.

Estetik tarbiyaning zaruriy vazifalaridan yana biri bolalardagi ijodiy cobiliyatlarini rivojlantirishdir. Inson - go'zallik ijodkor bo'iganligi sababii, maktab o'z o'quvchilarini mana shuning tayyorlashi lozim. Maktablarda o'quvchilarning estetik imkoniyat qobiisiylarini maksimal darajada yuzaga chiqarish kerak. Musiqi ijod musiqan tushunish, eshitish bilan uzyvi bog'liq. Banzar, gimnastik, mashqlar tanani to'g'rilaganidek, musiqi nam o'z ardoqlasanimi, musiqiy tarbiyasini bolaning yetui, adliy rivojan mumkin emasligini unutmastiigimiz kerak.

Ko'rsatib o'tiigan estetik tarbiya vazifalarini bir-biriniga o'zarbo'lgan bog'lanish ketadi. Estetik tarbiya atroficha amaiga oshirish uchun insoniz orasidagi munosabati ham estetik talablarga rivoza qilish kerak. Kiyinisti ham narakatish, mimika ham ma'lumi estetik didge bog'liq. Shaxsiy shaxsni tarbiyalab borish mumkin. Ota-onalar, o'quvchilarning estetik madaniyatni tarbiyalasunga elibor berishlari kerak. Ingo'zaliini manbaidir. Agar olib, maktab bolalarni shu g'izlilik sezisinga tayoriasha, albatasi o'quvchi o'z g'ozallikkini ber qaramaydi. Tabiat estetik sezgi xayovining rivojignishi uchun bu materiali beradi. Tabiat manzaralari insonning estetik kechimmalashtirish xotirasida uzoq muddat saqianib qoila.

O'quvchilarda **estetik idrokni** rivojlanfirish uchun o'qituvch turli vosita, usullardan foydalaniishi zarur.

Maktablarda bolalarning ish mahsuiotlariga estetik mezor kiritish lozim. «Kim chiroqli yasadil?», «Nima uchun uning qo'g'irchog'i chiroqli?», «Qanday yaxshi qilish mumkin?» kabi savollar berish o'rinali. Maxsus maktablarda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda san'atning roli yildan-yilga ortib bormoqda. Adabiyot,

ashula, rasm darslari bolalarda badiiy didni tarbiyalashga xizmat qiladi. Badiiy adabiyot estetik tarbiyaning zaruriy manbaidir. Badiiy asarlar o'qish orqali estetik did tarbiyalanib boriladi. Tasviriy san'at ham estetik tarbiyada katta imkoniyatlarga ega. Maktablardagi estetik tarbiyaga oid suhbatlar, ma'ruzalar ham yaxshi natija beradi. Musiq va ashula bolalar hayotiga kirib borar ekan, ularning hissiy tajribaiga ortib boradi. Yordamchi maktab o'quvchilari maktabni tugatgach ishlab chiqarish korxonalariga yo'llanma oladilar. Shu sababli, o'z bolalarning ish joyini, ishlab chiqarayotgan mahsulotga estetik did bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalashimiz kerak. Mehnat estetikasi mehnat tarbiyasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Estetik idrok qisri faqat xursand bo'lishi, yaxshi kayfiyat emas, balki xursand bo'lishi yig'lash ham, qoyil qolish, hayratianish, nafratlanish ham mumkin.

Muhimi shundaki, kishi to'lqinlanadi, hayajonianadi. Aqt zai² bolalar o'zlarining intellektual va hissiy nuqsonlari oqibatiga go'zallikni yuzakl idrok etadilar Tuzatish - tarbiyaviy ishlari oqibatiga uarda sezgi xususiyatlari o'zgarib, rivojlaniib boradi (K.X.Mamedov). O'ze materiallarining ko'rgazmaliligi, aniqliigi malum estetik qiymatga ega Bolalarning yoshiga individual xususiyatlari qasalligi xarakteriga mos keluvchi ko'rsatmalar surʼata, yaʼni punarmandiari asarlarini namoyish etish mumkin. O'qin davuruv, o's-sinfarda tasviriy san'at asariari ustida subhaq uyushtirish keriga Aqt zai² bolalarda estetik tarbiya nihoyatdi sekin amruqa ushbu hano yordamech maktab birinchi sinfga kegari boshlar jorʼiyo, atrofidaq narsalaridan muayyan rangni, joyushlari qiziqarli qilib. Bola sezgi organiali sog' be'lsha-d, uning fuksijasiari eng kechimaydi Bola qulog soiadi-yu, lekin eshitunmaydi qareydi, yu zamon ko'rimaydi. Bu bolalar biffish faoliyatlarining cheklanganlig sekin, estetik idrok etishlari ham sekin kechadi Shu sababli yoregan maktab ta'limining birinchi kunidar boshlat estetik didi rivojlantirish, idrok etilganiarni tahlil qilish, taqoslash malakatarini rivojlantirish talab etiladi. Yordamchi maktabda bolani o'trah furgan barcha narsalar estetik did bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Mak e'st sinf, guruh xonasi, oshxona, ustaxona, bola qayerda bo'imasin, o'sti joyolar bolani estetik tarbiyalashi lozim. Hatto xonalardagi rangjar nar estetik talablar asosida tanlangan bo'lishi darkor Yordamech maktabda bolalarning gavdasini to'g'ri tutishiga, chiroylli yurisniga o'rtoqlari va kattalar bilan osoyishta va to'g'ri gapirisniga,

xushmuomalada bo‘lishiga asosiy e’tibor berish lozim. Geografiya va tabiatshunoslik darslarida tabiatga nisbatan o‘quvchilarda havas uyg‘otish zarur. Rasm, chizmachilik, qo‘l mehnati darslari bolalarga go‘zallikni idrok etishni o‘rgatadi. Bolalar o‘zlari idrok etgan go‘zallikni rasm, applikatsiya, loy va plastilindan, yog‘och, qog‘ozdan yasagan buyumlarida gavdalantiradilar. Aqli zaif bolalarda hissiyot va ichki kechinmalarining sustligi oqibatida ular namoyish etilayotgan suratlardagi voqealarning faqat yuzaki belgilarini idrok etish bilan kifoyalanadilar. Suratlardagi ichki yashirin ma’nolarni anglab yetmaydilar. Estetik tarbiyaning natijasi ijodiy faoliyatda ko‘zga tashlanadi.

Ma’lumki, aqli zaif bolalarning tashqi dunyo haqidagi tasavvurlari yuzaki, idrok etishlari noaniq va differensiyalashmagandir. Shu sababli, aqli zaif bolalar bilan estetik tarbiyaga oid sinfda, mакtabda, sinfdan, maktabdan tashqari ish turlari tanlanganda shu xislatlariga e’tibor berish kerak. Aks holda qilingan ishlar natijasiz qolishi mumkin.

Savollar

1. Yordamchi maktab o‘quvchilarining estetik idrokini rivojlanishda rasm darslarining ahamiyati nimalardan iborat?
2. Aqli zaif bolalar estetik tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
3. Estetik tarbiyaning vazifasi nimalardan iborat?
4. Estetik did nima?

Yordamchi mакtabda ekologik tarbiya

Ekologik tarbiya to‘g‘risidagi dastlabki oddiy tushunchalar boshqa tarbiya turlari bilan birga aynan oiladan boshlanadi. Ekologik tarbiya va unga oid fikrlar oilada hadislar, hikmatli so‘zlar asosida berib kelning.

Markaziy Osiyolik allomalarining tabiat haqida va uni muhofaza qilish haqidagi ko‘pgina fikrlari o‘rganib chiqilgan va o‘rganilmoxda. Bulardan zardushtiyarning muqaddas kitobi «Avesto», Qur’oni karim, hadislardan, shuningdek, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zahiddin Muhammad Bobur va boshqa allomalarining tabiatni avaylab-asrash va

unga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish borasida bir qancha asarlar yaratganliklarini bilamiz, ular hozir ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas.

I.A.Karimov o‘zining «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli risolasida «Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko‘rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammoси alohida e‘tiborga molikdir, degan edi.

Uzluksiz ta‘lim tizimining o‘zbek modelini aniqlab bergan «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonun talabiga binoan maxsus ta‘limda ham barcha ta‘lim-tarbiya qatori ekologik tarbiya mazmunini ishlab chiqish taqozo etiladi. Zero, qabul qilingan qonunlarni amalda bajarish mamlakatimiz har bir pedagogi, qolaversa, har bir fuqarosining burchi hisoblanib, bu qonun Respublikamizda yashayotgan jamiyatimiz a’zolari bo‘lmish yordamga muhtoj bo‘lgan, rivojlanishdan orqada qolgan bolalarga ham taalluqlidir. Chunki, maxsus maktablarda ekologik ta‘lim-tarbiyaga umumiy pedagogik-didaktik jarayonning ajralmas qismi sifatida qarash lozim.

Hozirgi kundagi ekologik muhit bolalardagi kamqonlik, turli somatik kasalliklar, allergiya, nuqsonli tug‘ilishlar, ekologiyaga oid adabiyotlarni o‘rganib chiqish, zamonaviy pedagogik izlanishlar, tahlil, psixofizik kamchilikka ega bo‘lgan bolalar ekologik tarbiyasi muammoсiga qiziqishni yanada orttirdi.

Milliy istiqbolimizdagи eng muhim qoidalar va g‘oyalar hayotga joriy etilib, katta ijtimoiy kuchga aylanishi haqida fikr yuritilar ekan, maxsus ta‘lim-tarbiya kuchlari ham bu masalada muhim ahamiyat kasb etishini unutmasligimiz kerak.

Dunyodagi turli joylarda vujudga kelayotgan og‘ir holatlarning inson sog‘lig‘iga salbiy ta‘sir etayotgani atrof-muhit muhofazasiga oid ekologik ta‘lim va tarbiyaning ilmiy asosliangan reja va dastur asosida olib borilishi zarur ekanligini kun tartibiga qo‘ydi. Bunday dasturlar «YUNESKO», «YUNEP», «EKOSAN», «Sog‘lom avlod uchun» tashkilotlari, jamg‘armalari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lsa ham, yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun ularning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda biron-bir mukammal dastur yoki adabiyotlar, qo‘llanmalar yo‘q hisobida. Shundan kelib chiqqan holda, yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar maxsus muassasalarida ekologik ma‘lumot ta‘lim va tarbiyaning tub ma’nosи, bu tabiatga, bizni o‘rab

turgan borliqqa nisbatan hurmat, uning yashil nabototlariga, harakatdagи jonivorlariga, oqayotgan zилол suviga, tanamizga kirayotgan havoga, ona-yerimizga nisbatan e'tiborni, ekologik bilimni chuquriashtirib, ekologik ongni, ekologik madaniyatni shakllantirib borishni psixofizik kamchilikka ega bo'lgan bolalarga faqtgina maxsus maktablarda mutaxassis pedagogiar, ya'ni oligofreno-psichogolgargina amaiга oshira oladi. Ekoilogik ta'llimning nazariy asosini esa, bila, bog'cha, maxsus maktabda ma'lum o'quv reja va isturilar asosida olib borish zarur bo'ladi.

Yordamchi maktab o'quvchilarida ekoilogik bilimni, ekologik va madaniyatni shakllantirishda tuyidagi tizimda ish olib borish qobiliyatidagi:

– yordamchi maktab o'quvchilarida nazariy va amaliy ekologik tarbiyani amaiга oshirishda achiun ota-onalar, tarbiyachilar va o'shuvchi-defektolegarning ekologik savodxonligini oshirish;

– amoliq ekologik tarbiyani amaiга oshirishda har bir bo'limda oila-cha-yoreamchi maktabda olib boriladigan individual va yoshini asosga oigan holda maxsus korreksion pedagogik ishlari;

– yordamchi maktablarda ekologik ta'llim-tarbiya berish uchun makiyar tayyorlash;

– ekologik ta'llim-tarbiya fanlar ekologizatsiyalashtirilgan, integratsiyalashgan yordamchi maktab o'quvchilariga moslashtirilgan holda o'qitilishi kerak;

– ekoilogik ta'llim-tarbiya vazifalarini siyosiy, huquqiy, axloqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasiga kompleks tizim asosida korreksion yondashgan holda hal etish kerak bo'ladi.

Sog'lom bolalarga ekologik ta'llim va tarbiya to'g'risidagi dastlabki oddiy tushunchalar o'rta maktabda o'tiladigan nazariy ekologik predmet fanlari asosida o'qitiladi va keyinchalik bilim yurtlari, oliy ta'llimda chuoqroq va har tomonlama o'rganiladi.

Lekin yordamga muhtoj bo'lgan bolalar maxsus maktablardagina ana shu ekologik ta'llim va tarbiya, tabiat muhofazasi masalalarining ilmiy asoslarini har tomonlama o'rganish, inson faoliyati natijasida biosferada ro'y berayotgan hodisalarning sabab va qonuniyatlarini tahlil etish o'ziga xos dasturlar asosida beriladi.

Yordamchi maktab o'quvchilariga ekologik ta'llim va tarbiya quyidagi asosli bo'limlarda beriladi:

1. Yordamchi mактаб о‘quvchilariga tabiat go‘zalliklarini sevish, ularni idrok qila olish, estetik zavq olish ruhida tarbiya berish.

2. Jonli va jonsiz tabiatning rivojlanish qonuniyatları, tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatlar, shuningdek, inson faoliyatining tabiatga ta’sir oqibatlari haqida ma’lumot berish.

3. O‘quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash. Tabiatni sevish, undan to‘g‘ri va ongli ravishda foydalana bilishni o‘rgatish. Ekologik madaniyatning asosi bo‘lgan, yordamga muhtoj bolalar tabiat oldidagi mas’uliyatini anglash malakasini hosil qiladi. Vatanni sevish, vatanparvarlik tabiatni sevishdan boshlanadi. Binobarin, yordamchi mактаб o‘quvchilarining tabiatga nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg‘usini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin emas. Yordamga muhtoj o‘quvchilarni tabiat quchog‘ida bo‘lishi uni ruhan tetiklashtirib, mehnat qobiliyatini va ijodiy faoliyatini oshiradi. Ekologik tarbiya maxsus korreksion tizimda quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi:

a) yordamga muhtoj bolalarga maxsus ekologik bilim va tarbiya berib, ularda bu sohada muayyan malaka hosil qilishni tarbiyalash;

b) ekologik o‘zgarishlarni oldindan ko‘ra bilishni tarbiyalash;

d) ekologik madaniyatni singdirish va tarbiyalash.

Yordamchi mактабда yordamga muhtoj bolalarga ekologik tarbiya berish axloqiy tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi. Yordamchi mактаб o‘quvchilarida ekologik ong va tafakkurni, ekologik dunyoqarashni hosil qilish tabiatni dialektik tushunishga yordam beradi.

Ekologik tarbiyani amalga oshirishda badiiy adabiyotlar, qiziqarli hikoyalari, predmet darslarida ekologiyaga oid tabiat hodisalari, sabab va oqibat qonuniyatlarini ochib beradigan qiziqarli materiallar, kinofilmardan foydalanan kutilgan natijalar beradi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida va sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarda ekologiyaga oid bilimlar berib borish ham o‘quvchilarda ekologik ongni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda «Jonli burchak», «Daraxtning ham joni bor», «Tabiatni asrash — Vatanni asrash» ruknlari ostida sinfdan tashqari tadbirlar o‘tkazish, «Tabiatni muhofaza qilish» to‘garagi, «Jonli burchak» tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berish dasturini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning 23-moddasini hayotga tatbiq qilishda kerakli omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Yer yuzida aholi sonining tez sur’atlar bilan o‘sib borishi natijasida tabiiy boyliklarni iste’mol qilishning ko‘lamni kengayib bormoqda. Odamlarning xo‘jalik faoliyati natijasida butun biosfera o‘zgarib, o‘simliklar, hayvonlar, shuningdek, odamlarning yashashi uchun zararli bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish masalasi hozirgi kunda butun insoniyat uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tabiat boyliklaridan unumli foydalanish, tabiatni qo‘riqlash masalalarini ongli ravishda hal etish uchun oila, bog‘cha, mакtab, ishlab chiqarish va jamoat joylarida kamol topayotgan yoshlar tabiat sirlarini va undan to‘g‘ri foydalanishni puxta bilib olishlari zarur. Tabiatni saqlash, kelajagimiz yoshlar qo‘lidadir. Shu bois yoshlarni ekologik bilimlar bilan shunday qurollantirish kerakki, ular kelajakda tabiat boyliklarini muhofaza qila oladigan, bu boyliklardan rejali, oqilona foydalanadigan bo‘lsinlar.

Pedagogikamizning tarixiga nazar tashlasak, zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da ilgari surilgan tabiatga munosabat odobi kabi tarbiyaviy g‘oyalari ancha-muncha ibratlidir. «Avesto»da yer, suv, zamin, xona, badan, kiyim-kechak, oziq-ovqatlarni toza tutish, saqlashga alohida e’tibor berilgan. O’sha davrda yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi urish jazosiga mahkum bo‘lgan. O’t-olov, ekin-tikin, meva-cheva yetishtiradigan, hammadan ham ko‘proq chorva boqiladigan joy eng yaxshi joydir, deb yozilgan.

Bolalar yosh paytidanoq daraxt ko‘chati o‘tqazish, uy-ro‘zg‘or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug‘ullanishga o‘rgatilishi shart bo‘lgan. Hadisi sharifda shunday deyiladi:

- Kimki ekin eksa, daraxt o‘tqazsa, so‘ng uning mevasidan qush yoki hayvon yesa, uning ekinidan yeyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savob yoziladi.

- Kishilarga soya beruvchi daraxtni kesgan kishi boshi bilan do‘zaxga tashlanadi.

- Ekmoq niyatida qo‘lingizda ko‘chat turgan paytda, bexosdan qiyomat qoyim bo‘lib qolishi aniq bo‘lganda ham ulgursangiz, uni ekib qo‘ying.

•Yenglar, ichinglar, kiyinglar, lekin isrof qilmanglar.

Bu hikmatlar bugungi kunda yoshlarni tarbiyalashda kerakli omil bo‘lib xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Ekologik ta’lim-tarbiya haqida gapirib bering.
2. Ekologik ta’lim-tarbiya qanday ahamiyatga ega?
3. Ekologik tarbiyaning zarurligini asoslab bering.

Ijtimoiy tarbiya

Yordamchi mактаб о‘quvchilarida oligofrenopedagogning pedagogik faoliyati ta’sirida axloqiy his-tuyg‘ular faol rivojlanadi. Bu tuyg‘ular chuqurroq va ongliroq bo‘lib, ularning barqarorligi va ta’sirchanligi oshadi. Kishilar mehnatining ijtimoiy ahamiyati haqidagi, mehnatkashlarning yuksak ma’naviy fazilatlari haqidagi o‘quvchilar bilimlari kattalarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishning asosi bo‘ladi. Bu tuyg‘u aqli zaif o‘quvchilarining kattalarga hurmat va odob bilan munosabatda bo‘lishlarda, yordam bera olish va yordam berishga tayyor turishda, e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishda, kattalar mehnatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Yordamchi mактаб o‘quvchilarining ota-onalari o‘ynaydigan ijtimoiy roli va mehnati haqidagi tasavvurlari, ularning shaxsiy fazilatlariga baho berishlari ana shu tuyg‘ularning ruhiy va jismoniy holatlariga sezgirroq qaray boshlaydilar, bolalarning ota-onalariga yordamlari xilma-xil tus olib boradi. Yordamchi mактаб o‘quvchilarining axloqiy his-tuyg‘ulari keng ijtimoiy yo‘nalishda bo‘ladi.

Aqli zaif o‘quvchilar shaxsining ma’naviy va axloqiy jihatdan shakllanishida umuminsoniy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri **ijtimoiy tarbiyadir**.

Tarbiya bolalarning bir-birlariga, kattalarga bo‘lgan munosabatlarini, o‘yin, faoliyatlar xarakterini, mazmunini, mehnatga, butun jamiyatga munosabatlarini yo‘lga soladi. Bu tarbiyaning maqsadi va mazmuni — Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy, siyosiy tuzilishi bilan belgilanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov sog‘lom avlodni tarbiyalash tarixiy zaruriyat va ijtimoiy burchimiz ekanligini quyidagicha ifodalagan edilar: «Biz sog‘lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak.

Sog‘lom kishi deganda faqat jismoniy sog‘lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g‘oyalari ruhida kamol topgan insonni tushunamiz».¹

Har bir jamiyatning gullab-yashnashi, rivojlanishi va taraqqiy etishi shaxs ehtiyojiga muvofiq moddiy-ma’naviy boyliklarni bosqichma-bosqich yaratishlikdir. Tarbiya natijasida yashab o‘tgan ajdodlarimizning aql-zakovati bilan yaratilgan kelgusi avlodga meros bo‘lib qolgan moddiy, ma’naviy va madaniy boyliklarga vorisligi, daxldorligi ta’milnadi. Yangidan tug‘ilib, o‘sib, ulg‘ayib kelayotgan avlod o‘tmish tajribalarini o‘zlashtirib oladi, boyitadi, murakkablashtiradi va yanada mustahkamlaydi.

Har bir jamiyatning o‘z ijtimoiy tuzumiga xos tarbiyaviy usullari va vositalari bo‘lganidek, o‘zbek xalqining ham o‘ziga xos milliy tarbiya usullari va vositalari mayjud. Qadim zamonalardan to shu kungacha o‘zbek xalqi yosh avlodni tarbiyalashda ajdodlarimiz tajribasini o‘zlashtirgan va ularga tayangan. Chunki odamiylik, axloqiylik va ezzulik kabi ma’naviy qadriyatlar haqidagi xalq maqollari va naqllari, donishmandlar hikmatlari tarbiya manbai hisoblangan. Bunday qimmatli merosga sho‘rolar tuzumi davrida deyarli e’tibor berilmadi.

Tarbiya jarayoni yordamchi maktab o‘quvchilarida muhim ijtimoiy sifatlarni shakllantirishga, tevarak-atrofdagi olamga, jamiyatga, kishilarda o‘z-o‘ziga munosabatlar doirasini vujudga keltirish va kengaytirishga qaratilgandir. Tarbiyalanuvchi bolalar turmushning har xil tomonlariga munosabatlari tizimi qanchalik keng, rang-barang va chuqur bo‘lsa, ularning ma’naviy dunyosi shunchalik boy bo‘ladi.

Xullas, ijtimoiy tarbiya yordamchi maktab o‘quvchilarini shaxsining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy tarbiya vositalaridan biridir.

Tarbiyalanuvchi yordamchi maktab o‘quvchilarini xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng muhim vazifalarimizdan biridir.

Yordamchi maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

O‘zbek xalqining birdan-bir Vatani bu – O‘zbekistondir. Vatan haqida, xalq haqida, ajdodlar haqida, o‘tmish haqida, qadriyatlar

haqida, meros haqida, bugun va kelajak haqida baralla so‘zlash imkoniyati tug‘ildi. Binobarin, haqiqiy Vatan muhabbatı, Vatan hissi mamlakat ozod va obod, xalq erkin bo‘lgandagina yuzaga kelar ekan. Sohibqiron Amir Temur, Forobiy, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosirlarning nomini tilga olsak, mustamlaka yillarda ne kulfatlar boshga tushar edi. Ajdodlarimiz haqida erkin g‘urur bilan gapira olarmidik.

Vatanni qalban chuqur his qilish uchun ham, xalqning vatanparvarlik namunalarini ko‘rsatish uchun ham xalq hur, Vatan mustaqil bo‘lishi shart.

Bugun shu mustaqillikka ega ekanmiz, biz uni e’zozlashimiz, qadriga yetishimiz, har doim mustahkamlab borishimiz kerak. Mana shu tuyg‘ular, mana shu olijanob fazilat va ezgu harakatlar bugungi kun uchun haqiqiy vatanparvarlik namunasidir.

Mustaqillik sharofati tufayli O‘zbekiston Respublikasi butun hayoti, turmush tarzi o‘zgardi, kishilarning ruhiyati va hayotga munosabati yangicha tus olmoqda. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil bo‘lishi natijasida sho‘ro davlatiga xomashyo yetkazib berish bazasi bo‘lishlikdan, siyosiy va iqtisodiy qaramlikdan ozod bo‘ldi; o‘zbek xalqi o‘z milliy qadriyatlarini his qilayotir.

Vatan – ona yurt kishilar yashab turgan, ularning ajdod va avlodlari tug‘ilib o‘sigan joyi, maskani, chegarasi, hududi, ijtimoiy taraqqiyot munosabati bilan jamoa tuzumi sharoitida muayyan qabila yashayotgan joy Vatan hisoblanadi. Qabila tuzumning yemirilishi, elatlar va davlatlarning paydo bo‘lishi bilan Vatan tushunchasi elat, davlat tushunchasini o‘z ichiga oladi. Vatanparvarlik tarbiyasi ham insoniy tarbiyaning eng muhim tarkibiy qismidir. Vatan so‘zi arabcha bo‘lib, «ona yurt» degan ma’noni bildiradi. Har bir xalq uchun taqdiran va tarixan ato etilgan hamda chegaralangan hududga ona-Vatan deyiladi.

Hozirgi vatanparvarlik xalqimiz taraqqiyotini olg‘a siljitan otabobolarimiz yaratuvchanlik ishining bevosita davomidir.

Baxt-saodatli kelajakka hozir, har daqiqada har bir kishi ulush qo‘shmog‘i Vatanga muhabbat, vatanparvarlikning asl ko‘rinishidir. Vatanga munosib farzand bo‘lish, qadrdon tuproq bilan chambarchas bog‘liq ekanligimizni teran idrok etish, uning chin farzandlariga xos munosabatda bo‘lish, undan bir hissa olinsa, yuz hissa qilib qaytarish

– Vatanni anglash va ardoqlashning yangi bir ko‘rinishidir. Bu vatanparvarlikdir.

1991-yilning 31-avgustidan O‘zbekiston mustaqillikka erishdi, qadri ortdi, xalqning qaddi tiklandi. Vatan deganda muqaddas tushunchadagi soxtaliklar barham topib, mohiyati aniqlandi va tiniqlashdi.

Buyuk Vatanimiz o‘zbek fuqarolari ongida alohida tuyg‘u, yangi axloq, yangi fazilatlarning eng chuqur va oliv ifodasidir. O‘zbek vatanparvarligi buyuk istiqlolning eng muhim g‘alabasidir. O‘zbek fuqarolarining eng yuksak fazilati ularning o‘z Vataniga bo‘lgan muhabbatidir. O‘zbek vatanparvarligi o‘z Vatanini cheksiz sevish hissini, butun dunyo orasida tengligi va erkin jamiyatni barpo etish va Vatanimiz g‘anim bo‘lganlariga chuqur nafrat hissini o‘z ichiga oladi. O‘zbek vatanparvarligini yordamchi maktab o‘quvchilarida tarbiyalash uchun o‘qituvchi-tarbiyachilar tarbiyalanuvchi o‘quvchilarga ta’sir etishning barcha xilma-xil usslub va vositalaridan foydalanishi kerak. Bu vositalarga, ayniqsa, o‘qitish jarayoni — dars birinchi asosdir.

Yordamchi maktabda o‘qituvchi va tarbiyachilarning vazifasi tarixiy materialni jonli va qiziqarli bayon qilib, tarbiyalanuvchi o‘quvchilarni o‘z xalqining qahramonona kurashiga, uning olib borgan ijodiy ishiga, shonli rahbarlariga va madaniyat sohasidagi iste’dodli arboblariga qiziqtirish, ulug‘ tarixiy o‘tmishga ularda muhabbat tug‘dirishdir. Buning uchun tarixiy hujjatlardan, esdaliklardan va badiiy adabiyotlardan foydalanib, yorqin hikoyalar aytib berish zarur.

Geografiya darslarida o‘qituvchi o‘quvchilarni, eng avvalo, ularni o‘zлari yashab turgan joyning tabiatiga qiziqtiradi. Bevosita kuzatish va sayohatlar o‘tkazib, tabiatni ular bilan birga o‘rganadi.

O‘zbekistonning tabiat zonalarini vaqtida o‘qituvchi bolalarni davlatimizda tabiat tuzilishlarining xilma-xilligini aytib qiziqtiradi va turli ko‘rinishlarning qiziqarli suratlarini ko‘rsatib, badiiy adabiyotda va sayohatchilarning esdaliklarida bayon etilgan tabiat tasvirlarini o‘qib berib, bolalarning jonajon mamlakatimiz – buyuk O‘zbekistonga nisbatan mehr-muhabbatlarini oshiradi.

Sinfdan tashqari ishlar vatanparvarlikni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Sinfdan tashqari ishlar sinfda bajarilgan ishlarga

qo'shimcha bo'lib, tarbiyalanuvchi o'quvchilarning ijtimoiy hayotini yaxshi anglab olishlariga yordam beradi.

Maktab va «mehribonlik uylari» kutubxonalarida «Vatan» mavzuidagi kitoblarning rasmlar bilan bezatilgan tavsiya ro'yxatlari bo'lishi kerak.

Jonajon O'zbekistonimiz bo'ylab sayohatlar tashkil qilish kabi tadbirdan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, vatanparvarlik tuyg'usi eng yuksak tuyg'udir. Bu yuksak tuyg'u Vatanimizda tarbiyalanuvchi o'quvchilarni imon, e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo'lish ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan asosiy vazifalarimizdan biridir.

Savol va topshiriqlar

1. Vatan degan tushuncha haqida so'zlab bering.
2. Vatan tuyg'usi nima?
3. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati haqida so'zlab bering.

Iqtisodiy tarbiya

Hozirgi zamон talabiga moslashgan holda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 1996 – 1997-o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarida iqtisodiy ta'limni kuchaytirish chora-tadbirlari atroflicha ishlab chiqilgan. Shularni inobatga olgan holda mакtabning va tarbiya muassasalarining bosh vazifasi, bolalarni boshlang'ich sinflardan boshlab iqtisodiy savodxonligini oshirish, yosh xususiyatlari inobatga olingan holda iqtisodiy bilimlardan xabardor qilish lozim bo'ladi. Bu esa maxsus ta'limga ham taalluqlidir.

Iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning savodxonligi darjasи uning mustaqil faoliyatida foydalana oladigan iqtisodiy bilimi, ko'nikma-malakalari va iqtisodiy tarbiyalanganligida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotida faoliyat ko'rsata oladigan shaxsning iqtisodiy savodxonligi asoslari mакtabda vujudga keladi. Maktabdagи iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning maqsadi nazariy ishlab chiqilgan va amalda sinab ko'rilgan pedagogik uslubiyot orqali o'quvchilarda iqtisodiy savodxonlikni tarkib toptirishdir.

Iqtisodiy savodxonlik – mustaqil faoliyat ko‘rsatishda barchaga zarur bo‘lgan iqtisodiy bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisini tarkib toptirish: har bir shaxsning jamiyatda bo‘layotgan iqtisodiy o‘zgarishlar va mamlakat iqtisodiy siyosatini anglash, shunga ko‘ra turmush darajasini oshirishga, shaxsiy ehtiyojini qondirishga yordam beruvchi samarali faoliyat bilan shug‘ullanishini ta‘minlovchi iqtisodiy bilim, ko‘nikma, malaka, yo‘naltiruvchi qoida, usul, uslubiyatlar majmui.

Iqtisodiy ta‘lim-tarbiya – jamiyatning shaxsga, mustaqil hayotda samarali ko‘rsatkichlarni ta‘minlovchi aniq iqtisodiy tushunchalar, iqtisodga bog‘langan siyosat, qonun, qonuniyatlar asarlarini va ularni amalda foydalanish yo‘l-yo‘riqlarining yig‘indisini o‘zlashtirishga imkon beruvchi izchil, maqsadga muvofiq ta’siridan iboratdir.

Iqtisodiy tayyorgarlik – shaxs shakllanishida talab, ehtiyoj va imkoniyatga ko‘ra tanlangan sohalar, kasblar, mutaxassisliklar bo‘yicha maxsus iqtisodiy, nazariy va amaliy bilimlar yig‘indisini tarkib toptirish. O‘zlashtirilgan aniq iqtisodiy, nazariy va amaliy bilimlar mustaqil faoliyatida samara berishga kafolatlar, ya‘ni aniq iqtisodiy ma‘lumotlar.

Ilgari surilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar hal etiladi:

1. O‘qituvchilarda iqtisodiy savodxonlik darajasining rivojlanishini nazariy asoslash.
2. Umumta‘lim fanlari mazmunidagi iqtisodiy ta‘lim-tarbiya imkoniyatlarini o‘rganish.
3. Maxsus ta‘lim maktablariga mo‘ljallangan aniq iqtisod asoslarini o‘rgatuvchi bosqichli ta‘limning muhimligini isbotlash.
4. Maxsus muktab o‘quvchilari uchun aniq iqtisod asoslarini o‘qitish maxsus fanlar qatorida zarurligini ilmiy asoslash.
5. O‘qituvchi va o‘quvchilar uchun uslubiy adabiyotlarni (das-tur, darslik, qo‘llanma, tavsiya, didaktik materiallar) ishlab chiqish.

Savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy savodxonlik nima?
2. Iqtisodiy ta‘lim-tarbiya qanday tushuncha?
3. Iqtisodiy tayyorgarlik nima?

Insonparvarlik tarbiyasi

O'zbekistonda insonparvarlik o'zbek xalqining hamkorligi, o'rtoqligi va sadoqati, mehmondo'stligi, bir-biriga yordami va himmati, bir-biriga tanqidiy ko'z bilan qarashi, imonli, mehr-muhabbatli bo'lishiga suyanadi.

Insonparvarlik tarbiyasi vatanparvarlik tarbiyasi bilan mahkam bog'liqdir.

Insonparvarlik lotincha «gumanus», «gumon, gumonoid» (odam, inson) so'zlaridan olingan bo'lib, yuksak sifatlar ma'nosini bildiradi.

Har bir jamiyatning ma'naviy va axloqiy fazilati bo'lgan insonparvarlik mustaqil O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti va madaniyatning butun tarmog'i bilan bog'liqdir. O'zbekistonda barcha moddiy boyliklar, fan va madaniyatning barcha yutuqlari inson manfaatlari xizmat qiladi. Bizdag'i insonparvarlik kishilar o'rtasidagi do'stona munosabat, yordam va o'zaro hamkorlikka asoslangan. O'zbek xalqi faqat mustaqil O'zbekiston davridagina yayrab-yashnab hayot kechira boshladilar, inson qadrlanadigan va uning shaxsi hurmatlanadigan bo'ldi, hamma jins, irq va millatlarga mansub kishilarning jismoniy va ma'naviy qadriyatlari faqat mustaqil Respublikamiz sharoitidagina barq urib ko'rindi va rivojlanmoqda.

Biz do'stlikni juda qadrlaymiz, o'rtoqchilik hissiga yuqori baho beramiz. Ammo kishining fe'l-atvoriga, uning manfaatiga qanday munosabatda bo'lishiga qarab baho beramiz.

O'beklarga xos bo'lgan va «Odamning tirikligi odam bilan» degan aqidadan kelib chiqqan holda yana bir xil tuyg'uni – erxotinning muhabbat tuyg'usi va ota-onalarning bolalarga mehribonligi deb bilamiz. Bu kabi tuyg'ular ancha murakkab bo'lib, inson hayotida muhim o'rinn tutadi.

Bir-birini sevgan kishilar birga bo'lishdan cheksiz suyunadilar, bir-birlarining eson-omonligi, tinchligi haqida tashvish tortadilar, g'amxo'rlik qiladilar, ko'ngildagi niyatini, orzu-havaslarini bilihga intiladilar. Ma'lumki, mehribon ota-onalar o'z bolalari uchun jonlarini ham ayamaydilar, ular bolalariga tarbiya berish, ularni o'qitish, mustaqil O'zbekiston uchun foydali xalqparvar, insonparvar qilib yetishtirish yo'lida tinmay g'amxo'rlik qiladilar.

Aqli zaif bola jamiyatning a'zosidir va u jamiyatdan tashqarida bo'lishi va yashashi mumkin emas. Buning sabablari quyidagilardir: birinchidan, aqli zaif bola xulq-atvori jamiyat axloqiga bo'ysunadi va

u shunga majbur; ikkinchidan, tanholikda yashay olmaydi, baxtni ham odamlar orasidan topadi; uchinchidan, bola jamiyat irodasidan dalda oladi; to‘rtinchidan, jamiyat bola kamoloti uchun g‘amxo‘rlik qiladi. Bu bilan bola tug‘ma layoqat sifatlari bilan emas, balki mazkur jamiyatga xos xislatlarni ham o‘zlashtiradi.

Demak, har bir inson o‘zi yashagan yoki yashab turgan jamiyatning a’zosi, farzandi. Jamiyat va shaxs, shaxs va jamiyat munosabatlarining nozik, sir-sinoatli tomonlari ham bor, albatta.

Agarda jamiyat adolatli bo‘lsa, jamiyatning barcha a’zolari uchun ham, alohida olingan bir shaxs uchun ham hayotbaxsh bo‘ladi. Adolatli jamiyat shaxsnii shunchaki shakllantirib qo‘ya qolmaydi, balki ma’nnaviy yetuk qilib kamol toptiradi.

Komil inson hatto hayotidan kechib bo‘lsa ham o‘z xalqi, o‘z Vatani uchun, o‘zi a’zo bo‘lgan jamiyat - mustaqil O‘zbekiston uchun ko‘p foyda keltiradi, uning nomi tarixda qoladi va kelajak avlodlarga namuna bo‘laveradi. Bola inson, shaxs bo‘lib jamiyatda shakllanadi.

Yordamchi maktab o‘quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalashni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1. Defektologlar bolalarni bir-birlarini hurmatlashga, do‘sit bo‘lib yashashga o‘rgatishlari zarur.

2. Defektologlar bolalarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda bolalarga kishilik shaxsining qimmatini anglatishi, ularni kishilarning huquqlarini hurmat qilishga, odamlarni qadrlashga o‘rgatishlari zarur. Bu vazifa hammadan avval bolalarning o‘zlariga eng yaqin kishilarga bo‘lgan munosabatlarida amalga oshirilishi kerak.

3. Yordamchi maktab o‘quvchilarini ota-onalaridek sevish – bolada tabiiy suratda paydo bo‘ladigan va har bir kishining hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan eng yaxshi xislat hisoblanadi.

4. Tarbiyachilar tarbiyalanuvchi bolalarning o‘z yaqin kishilariga, vasiylariga, ota-onalariga o‘rnini beruvchilar va ularning bolalarga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishi yaxshi natijalarga olib keladi.

5. Yordamchi maktab o‘qituvchilarini o‘quvchilarni kattalarga hurmat ruhida tarbiyalashi, ularni kattalarga madaniy muomalada bo‘lishiga odatlantirishlari lozim.

6. O‘qituvchilar bolalar jamoasida o‘g‘il bolalar bilan qiz bolalarni o‘zaro o‘rtoqlarcha munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalash

uchun qulay sharoitlar yaratishlari kerak. Do'stlik kechalari uyuşdırıshları zarur.

7. O'qituvchilar yordamchi maktab o'quvchilarini yosh chog'idanoq rostgo'ylikka, yolg'onchilikdan nafratlanishga o'rgatishi talab etiladi. Chunki vijdanan, halollik bilan yashovchi va mehnat qiluvchi kishi hamma vaqt to'g'ri muomalalı, oqko'ngil, hamisha rostgo'y, samimiy bo'ladi.

8. Tarbiya ishida insonparvarlik mavzuidagi badiiy asarlardan, kinofilmldardan, xalq ijodiy namunalaridan foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, har bir bolani insonparvarlik ruhida tarbiyalash katta yoshdagı kishilar — ota-onalar, o'qituvchilar, murabbiy, murabbiyalarning muqaddas burchidir.

Savol va topshiriqlar

1. Insonparvarlik tarbiyasining ahamiyati haqida so'zlab bering.
2. Insonparvarlik qanday namoyon bo'ladi?
3. Insonparvarlik tarbiysi qanday amalga oshiriladi?

Yordamchi maktablarda jismoniy tarbiya

Jismoniy tarbiya bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun asosiy omil ekanligi qadimdan e'tirof etilgan. Muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanqlarda ham ruhiy, ham jismoniy rivojlanish uyg'unlashib boradi.

Jismoniy tarbiya – ko'rinishidan juda sodda, tushunarli tuyulgan bu jumla maxsus maktablarda yanada ehtiyojkorlikni talab etadi. Chunki jismoniy tarbiyani oddiy jismoniy mashqlar, harakatlar yig'indisi deb o'ylash katta xato bo'ladi. Jismoniy tarbiya deganda o'quvchilarga tashkil qilingan jismoniy mashqlar, tabiatning tabiiy kuchlari va gigiyenik omillar bilan aks ettirish orqali ularda jamiyat talablariga mos keladigan sifatlarni rivojlantirish tushuniladi.

Yordamchi maktab o'quvchilariga jismoniy tarbiyani amalga oshirish jarayonida ular sog'lig'ini mustahkamlash, tana a'zolarini chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlantirish hamda aqli zaif o'quvchilar aqliy faoliyatlarini mumkin qadar maksimal oshirishga ta'sir etishda asosiy vazifalarni bajaradi. Yordamchi maktab o'quvchilarning qaddi-qomatlarini to'g'ri shakllantirish, suyak bo'g'inlarini, muskullar harakatini uyg'unlashgan tarzda korreksion

rivojlantirish, yurak-tomir hamda nafas olish a'zolarining asab tolalari faoliyatlarini mustahkamlashtirish va muvozanatlashtirishdek muhim vazifalarni sistemali tarzda amalga oshirib boradi. Yordamchi mакtabda jismoniy tarbiya barcha tarbiya turlari bilan (estetik, ekologik, aqliy, axloqiy, mehnat) bog'langan holda amalga oshirib boriladi.

Salomatlik insonning rivojlanishi, uning barcha kuch va qobiliyatlarining namoyon bo'lishi uchun asosiy omildir. Maktab yoshida bolaning o'sishi va normal taraqqiyoti ma'lum darajada organizmning intellektual, hissiy-irodaviy rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf bolalarining sog'lig'ini asrash jismoniy tarbiyaning yetakchi vazifasi bo'lib, bevosita shu yoshda jismoniy tarbiya organizmga samarali ta'sir etadi. Zero, shu davrda bola organizmiga jismoniy mashqlarning, sof havoning, quyosh nurlarining, toza suvning ijobiy ta'siridan unumli foydalanish zarur.

Jismoniy tarbiya yordamchi maktablardagi barcha ta'lim-tarbiya ishlaringin muhim qismi hisoblanadi. Yordamchi maktablarda bolalardagi mavjud nuqsonlarni tuzatish vazifalarining hal etilishi jismoniy tarbiyaning asosiy, yetakchi maqsadi hisoblanadi. Aqli zaif bolalarning jismoniy, ruhiy rivojlanishi o'ziga xos, murakkabligini hisobga oladigan bo'lsak, yordamchi maktablarda jismoniy tarbiyaning ahamiyati yanada ortadi. Chunki bu bolalarning ko'pchiligidagi bosh miya, yurak-qon, tomir, nafas olish a'zolarining o'ziga xos kasallikkleri bo'lib, ularda muskul tonuslari bo'shashgan bo'ladi. Jismoniy o'sish asosan nuqsonli bolalarda orqada qoladi. Bu hol bolalar bo'yining yaxshi o'smaganligida, muskullar kuchining zaifligida, gavda tuzilishining nomutanosibligida, umurtqa pog'onasining nuqsonlarida ko'zga tashlanadi. Aqli zaif bolalar o'zlaridagi nuqsonlarni mustaqil holda bartaraf etish qobiliyatiga ega emaslar. Ular jismoniy mashqlarning mohiyatiga tushunib yetmaydilar. Ularda harakat faoliyatini takomillashtirish uchun chidam, iroda, maqsadga intilish jihatlari yetishmaydi. Bunday vaqtarda yordamchi mакtab o'qituvchi va tarbiyachilari bolalarga yaqindan yordam berishlari kerak.

Yordamchi maktablardagi jismoniy tarbiya asosan aqli zaif bolalardagi nuqsonlarni to'g'rinish va ularni mehnat faoliyatiga tayyorlashdan iborat. Shu sababli ham bu sohadagi ishlar maxsus mazmun kasb etishi kerak. Chunki normal bolalar bilan olib

boriladigan jismoniy tarbiya usullari to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordamchi maktablarda o‘tkazilmaydi.

Mashhur rus defektologlaridan A.N.Gaborov, D.I.Azbukin, G.M.Dulnev ishlarida yordamchi mакtab o‘quvchilarini jismoniy tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor berilgan. Ular tuzatish-sog‘lomlashtirish ishlarida, o‘quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashda jismoniy tarbiyaga katta ahamiyat bilan qaraganlar. Nuqsonli shaxsni rivojlantirish uchun quyi sinflardagi jismoniy tarbiyaga alohida mas’uliyat bilan yondashish kerak. Chunki boshlang‘ich sinf bolaning ham ruhiy, ham jismoniy rivojlanishida poydevor vazifasini o‘taydi. Kichik mакtab yoshi nuqsonlarni tuzatish uchun juda qulay davr hisoblanadi. Chunki ish qanchalik erta boshlansa, shuncha yaxshi samara beradi. Boshlang‘ich sinflarda yaxshi tashkil etilgan harakatli mashg‘ulotlar yozuvda, surat chizishda, qo‘l mehnatida alohida o‘ringa ega.

Jismoniy mashqlar bola organizmiga umumiy ijobiy ta’sir etib, butun tananing hayot faoliyatini yuksaltirishga yordam beradi. Ayniqsa, toza havoda o‘tkaziladigan mashqlar modda almashuvining yaxshilanishiga, nafas olish jarayonlarining takomillashishiga, natijada, aqli zaif bola organizmining umumiy holati yaxshilanishiga olib keladi. Aqliy ishchanlikni oshirishda jismoniy tarbiya darslari, ayniqsa, ijobiy ta’sir etadi. Jismoniy mehnat va jismoniy tarbiya vositalarini ustalik bilan qo‘sib olib borgandagina ularni to‘g‘ri jismoniy rivojlantirish mumkin. Yordamchi maktablardagi jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini albatta hisobga olishi lozim. Aks holda jismoniy tarbiya biriga foyda keltirsa, ikkinchisiga zarar keltirishi mumkin. Yordamchi mакtab o‘quvchilarini jismoniy tarbiyalashda asosan quyidagi usullar, talablarga rioya etiladi:

1. Aqli zaif bolaning kun tartibini gigiyena ta’lablariga mos tarzda tashkil etish, uning bajarilishini nazorat qilish.
2. O‘z vaqtida va yetarli ovqatlanish.
3. Bolalarga shaxsiy gigiyena qoidalarini o‘rgatish va ko‘nikmalar hosil qilish.
4. Aqliy va jismoniy mehnatni bir-biri bilan almashtirib turish, izchil jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishni ta’minalash.
5. Bolani oilada, mакtabda jamoat ishlariga jalb etish.
6. Yozgi ta’tilni to‘g‘ri tashkil etish va uyushtirish.

Ma'lumki, yordamchi maktabning har bir sinfida aqli zaiflikning ifodalanishiga ko'ra, turli darajadagi bolalar uchraydi. Ularning kayfiyatları, jismoniy harakat imkoniyatlari ham turlichay bo'ladi. Shularni izchil o'rganish asosidagina muvaffaqiyatli jismoniy tarbiyani amalga oshirish mumkin. Jismoniy tarbiya o'qituvchilar shifokorlar bilan uzviy hamkorlikda ishlashlari zarur.

Yordamchi maktabda jismoniy tarbiya ishlarini olib borish o'ziga xos xususiyatga ega.

Yordamchi maktabda jismoniy tarbiya ishlarini olib borishda kun tartibiga rioya qilmaslik yordamchi maktabda yomon oqibatlarga olib keladi. Yordamchi maktab o'quvchilarining salomatligiga, o'quv faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aqli zaif o'quvchilarga korreksion ta'llim-tarbiya berishda o'z vaqtida ovqatlanish, uqlash, dam olish, ochiq havoda sayr qilish, aqliy va jismoniy mehnatni tartib bilan almashtirish lozim.

Yordamchi maktabda kun tartibiga rioya qilmaslik yordamchi maktab o'quvchilarining a'zoi badanini bo'shashtiradi, tana hujayralarining, xususan, bosh miya hujayrasining ishlashini susaytiradi. O'qituvchilar aqli zaif o'quvchilarining maktabda ham, uyda ham kun tartibiga amal qilishini muntazam amalga oshirishni kuzatib borishlari shart. Yordamchi maktabda kun tartibini tuzishda o'quvchilar yoshi, albatta, hisobga olinishi zarur.

Jismoniy mashqlar yordamchi maktab o'quvchilarining somatik kasalliklarini inobatga olgan holda tanlanadi. Chunki yordamchi maktab o'quvchilarining deyarli barchasi somatik kasalliklarga ega (yurak parogi, jigar va buyrak yetishmovchiliklari, bosh miya bosimining tez-tez oshib turishi va boshqalar).

Shu bois yordamchi maktab o'quvchilari aynan shu ta'sirlar natijasida tuzilishi jihatidan murakkab bo'lgan harakatlarni, katta tezlikdagi harakatlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishlari va sog'liqlariga zarar qilishi mumkin.

Lekin bu degani jismoniy tarbiya yordamchi maktab o'quvchilariga mumkin emas, degan so'z emas. Yordamchi maktabda jismoniy tarbiya o'qituvchisi, vrach-pediatr, oligofrenopedagog bilan birlgilikda yordamchi maktab o'quvchilariga barcha kasalliklari va yoshini inobatga olgan holda mashqilar tanlanadi va rejalashtiriladi. Davolovchi jismoniy tarbiya mashqlari yordamchi maktab o'quvchilari asablari majmuasi faoliyatiga ham, xususan, bosh miya

qobig‘idagi harakatlantiruvchi qismiga ham ta’sir etadi, natijada ular harakatlarining bir-biriga uyg‘unligi yaxshilanadi, harakatlarida muvofiqlik, aniqlik, zaruriy kuch va ritm hosil bo‘ladi. Yordamchi mакtab o‘quvchisining aynan shu ta’sirlar natijasida tuzilish jihatidan murakkab bo‘lmagan harakatlarni bajarishi jismoniy mehnat mashg‘ulotlari uchun ham muhimdir.

Yordamchi mакtabda jismoniy tarbiya vositalari — gimnastika, harakatli o‘yinlar, badantarbiya, xalq an’analari va ayrim sport turlari yetakchi hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar

1.Yordamchi mакtabda jismoniy tarbiyaning qanday ahamiyati bor?

2.Yordamchi mакtabda jismoniy tarbiyaga qanday talablar qo‘yilgan?

3.Yordamchi mакtabda jismoniy tarbiyaning o‘ziga xosligi haqida so‘zlab bering.

Yordamchi mакtabda huquqiy tarbiya

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 13-iyundagi 296-sonli Qarorida yoshlarning huquqiy ta’limini takomillashtirishning kompleks dasturi ko‘rsatilgan. Bu dastur huquqiy-ta’limiy ishlarni yanada chuqurroq o‘rgatishga qaratilgan. BMT 1989-yilning 20-noyabrida «Bolalar huquqlari to‘g‘risida» deb ataluvchi xalqaro shartnomalar - «konvensiya» qabul qildi. BMT ning ko‘pgina davlatlari bu shartnomaga qo‘silgan va uni bajarish vazifasini olganlar. Xo‘sh, «Bolalar huquqlari to‘g‘risida»gi xalqaro shartnomada nima deb yozilgan o‘zi?

Mana, e’tibor bering-a:

- har bir inson 18 yoshga to‘lganicha bola hisoblanadi;
- davlatlar bolani kamsitish yoki jazolashning barcha shakllaridan ularni himoya qiladilar;
- davlatlar bolaning tinch-osoyishtaligi uchun zarur hisoblangan himoya va g‘amxo‘rlikni ta’minalash majburiyatini oladilar;
- davlatlar har bir bolaning yashash huquqini tan oladilar; ularning tirik qolish va sog‘lom rivojlanishini ta’minalaydilar;
- bola o‘z fikrini erkin ifoda etish huquqiga ega;

- bola o‘z oilasida yoki u haqida eng ko‘p darajada g‘amxo‘rlik qiluvchilar orasida yashash huquqiga ega;
- bola to‘yib ovqat yeyishga va toza suv bilan ta’milanish huquqiga ega;
- bola sog‘lig‘ini saqlash huquqiga ega;
- davlatlar noraso bolaning alohida g‘amxo‘rlikka egalik huquqini tan oladilar;
- bola erkin ilm olish huquqiga ega;
- boladan arzon ishchi kuchi yoki askar o‘rnida foydalanish mumkin emas;
- bola ijtimoiy ta’minot huquqiga ega;
- bola dam olish, bo‘s sh vaqtga ega bo‘lish, o‘z yoshiga mos keladigan o‘yin va ko‘ngilochar tadbirlarda ishtirok etish huquqiga ega;
- davlatlar bolalarni giyohvand moddalar iste’mol qilishdan saqlash choralarini ko‘radilar...

Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi qoidalar ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin. Ko‘rib turibsizki, BMT bolalarni o‘z himoyasiga olgan.

O‘zbekiston Respublikasi 1992-yilda bu shartnomani imzolagan va unga amal qilish majburiyatini olgan.

Bolalar haqida g‘amxo‘rlik qilish davlatimiz siyosatining asosini tashkil etadi.

Respublikamizda bolalar haqida qilinayotgan g‘amxo‘rlik haqida YUNISEF ning O‘zbekistondagi vakili Rudi Rodriges bunday degan edi: «Meni qoyil qoldirgan jihat yurtingizda yetim va nogiron bolalarning hech qachon qarovsiz yolg‘iz qoldirilmasligidir. Uning boshida hamisha qaysidir mehriboni, hech kimi bo‘lmagan taqdirda uni saqlaydigan jamiyati, davlati bor. Bu kamyon hodisadir».

Yordamchi maktablarda davlat huquq asoslari haqida elementar tushuncha berish aniq dastur asosida olib borilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan barcha fanlar asosida huquqiy tarbiyani amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bunda:

- konstitutsiya huquqidan;
- ekologik huquqdan;
- ma’muriy huquqdan;
- mehnat huquqidan;;
- fuqarolik huquqidan;

jinoyat huquqidan elementar tushunchalar berib boriladi.

Bolalar huquqiy ongini yuksaltirish hozirgi davr talabidir.

O'quvchilarning huquqiy ongini oshirmsadan huquqiy fuqarolik davlatini tasavvur etib bo'lmaydi. Huquqiy ong poydevoriga makteblarda asos solinadi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'quvchilarga huquqiy bilimlar, ijtimoiy hayot me'yorlari va qoidalari to'g'risida keng ma'lumotlar berib boriladi. Huquqiy ta'lim-tarbiyaning mazmuni mustaqil O'zbekiston davlatining iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy-huquqiy manfaatlarini o'zida mujassamlashtirishi kerak. Rejalashtirilgan turli tadbirdardan tashqari huquqiy ta'lim-tarbiyaga oid to'garak faoliyatida yordamchi maktab o'quvchilari quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari lozim:

- huquqiy davlatda qonun ustuvorligi va huquqiy davlatning o'ziga xos belgilari;
- Konstitusjon huquq asoslariga oid tushunchalarni o'zlashtirish;
- O'zbekiston Respublikasining suvereniteti haqidagi bilimlar;
- inson huquqlari hamda fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari to'g'risidagi bilimlar, ya'ni:
 - siyosiy huquqlar;
 - iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar;
 - inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari;
 - O'zbekiston fuqarolarining asosiy burchlari;
 - O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati to'g'risida.

Yordamchi maktabda huquqiy ta'limni o'rganishning muhim jihatlaridan biri – huquq-tartibot organlari xodimlari, xalq deputatlari, mahalla oqsoqollari va boshqa turli huquqiy idoralarga aloqador xodimlar bilan hamkorlikda o'qituvchilarning ish olib borishidir.

Savol va topshiriqlar

1. Huquqiy tarbiya haqida tushuncha bering.
 2. «Bolalar huquqlari to'g'risida» deb ataluvchi konvensiyada nimalar haqida yozilgan?
 3. Huquqiy ustuvorlik haqida so'zlab bering.
- Muntazam o'sib boruvchi, olg'a harakat qiluvchi, borgan sari murakkab hayot faoliyati tajribalarini egallab boruvchi jamoagina

haqiqiy shaxsnинг barkamol o'sishini ta'minlaydigan jamoa bo'la oladi, jamoaning muvaffaqiyati assosan birlamchi, son jihatdan eng kichik jamoaga bog'liq. Bu yerda bolalar kundalik faoliyat bilan bir-birlariga bog'lanib, izchil muloqotda bo'ladilar. Maktab jamoasini shakllantirish uzoq davom etuvchi murakkab jarayon bo'lib, ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi.

Haqiqiy jamoa bo'lish uchun ma'lum vaqt hamda ma'lum bosqichlarni bosib o'tish talab etiladi. **Birinchi bosqichning** asosiy vazifasi jamoa manfaatlarini to'g'ri tushunadigan, idrok etadigan bolalarni aniqlashdan iborat. Kelgusida shu bolalar jamoaning o'zagini tashkil etadi. Demak, bu bosqichda bolalarni yaxshilab o'rganish ham kerak. Jamoada umumiy intizomning qaror topishi bilan birinchi bosqich yakunlanishi mumkin.

Jamoaning yaxshi a'zolari o'qituvchining talablariga bo'ysunadilar. Ammo tashqaridan intizomli bo'lib ko'ringan bolalar pedagogik ishlarimizning asosiy maqsadi emas. Bu bevosita keyingi izchil ishlarimizga poydevor bo'la olishi mumkin. Shu tariqa jamoaning shakllanishida **ikkinchi bosqich** boshlanadi. Bu bosqichda bolalar faollari jamoaga talablar qo'ya boshlaydi. Demak, jamoada pedagogik rahbarlik to'g'ridan-to'g'ri bo'lmay, balki faollar orqali amalga oshiriladi. Bu bosqichdagi jamoa shunchaki yuzaki, maqsadsiz birlashgan bolalar emas, balki o'zlarining hayotiy masalalarini mustaqil yechadigan bolalar guruhidir. Bu bosqichda faollar bilan, o'z-o'zini boshqarish a'zolari bilan, birlamchi jamoa bilan zarur pedagogik ishlarni amalga oshirish kerak. Faollar bilan ishlashning mohiyati shundan iboratki, ulardan o'qituvchi, tarbiyachilarning talablarini quvvatlashgina emas, balki butun sinfni o'z orqalaridan yetaklay bilish talab etiladi. Bunday murakkab vazifani bajarish oddiy ish emas. Buning uchun qat'iy birlashgan fikrlar birligiga ega bo'lish kerak.

Shu taxlitda faollarning jamoa hayotidagi roli ortib boradi. Maktab hayotida aslida birinchi va ikkinchi bosqichlar bir-birlariga aralashib, kirishib ketadi. Ammo bu bosqichda asosiy e'tibor fappardan prinsipiallik, ijtimoiy faollik, jamoa ishiga sodiqlikni tarbiyalashga qaratilishi lozim. Birlamchi jamoani to'g'ri tashkil eta olish keyingi bosqichlardagi muvaffaqiyat garovidir. Shunday qilib, jamoani tarbiyalashdagi ikkinchi bosqich murakkab bosqich bo'lib, bu o'z-o'zlarini boshqarishga o'tish bilan belgilanadi.

Jamoaning rivojlanishidagi **uchinchi bosqich** o‘zining sermahsulligi, asosiy bosqich ekanligi bilan ajralib turadi. O‘zaro faoliyatda qatnasha turib, bolalar jamaa ko‘nikmalari va malakalarini o‘zlashtirib boradilar. Jamoa faoliyati umumiylashtirish asosida bajarilayotgani uchun bolalarning o‘zlari tashkilotchilar sifatida harakat qiladilar. Faoliyat natijasida umumiylashtirish javobgarlik, umumiylashtirish munosabat yuzaga keladi.

Bu bosqichda jamaa o‘z talablarini har bir alohida shaxsga qaratadi. Bundan alohida shaxsni qiyinlash, unga tazyiq o‘tkazish fikri kelib chiqmasligi darkor. Lekin bu hol ba’zan uchrab turadi. Har bir o‘quvchining jamoadagi o‘rni, uning xulqi, qiliqlari jamaa talablari bilan belgilanadi. Voqealarga baho berishda umumiylashtirish yagona fikrning yuzaga kelishi uchinchi bosqichning xarakterli belgisidir. Umumiylashtirish qiziqish, birlashtirishda harakatlarga tayyor turish shu bosqichga xosdir. Bu bosqichdagi pedagogik ishlar asosan ikkita bir-biriga bog‘liq vazifani hal etadi. Bularga ijtimoiy, umumiylashtirish fikr va an’analarni kiradi. Jamoada an’analarning borligi shu bosqichning shakllanganligidan darak beradi. Uning umumiylashtirish korreksion tarbiya jarayonidagi ahamiyati nihoyatda katta, haqiqiy an’analarni qiyinchiliksiz, oson amalga oshiriladi. Agar an’analarni buzilsa, unga nisbatan qoniqmaslik holatlari kuzatiladi.

Qator an’analarni faqatgina mohiyati bilangina aqli zaif o‘quvchilar diqqatini jalb etib qolmasdan, balki jonliligi, rangdorligi bilan ham bolalarni o‘ziga tortadi. Jamoadagi an’analarni jamaa hayotiy tajribalarining chuqurligi darajasini bildiradi. Shu sababli, an’analarni sun’iy ravishda kiritish mumkin emas.

Jamaa taraqqiyotidagi **to‘rtinchi bosqich** bevosita uchinchi bosqich davomi hisoblanadi. Har bir o‘quvchi jamaoga tajribasi asosida o‘zicha talablar qo‘yadi. Jamoaning axloqiy normalarini bajarish har bir o‘quvchining shaxsiy ehtiyojiga aylanadi. Tarbiya jarayoni o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonidir. Jamoa hayotini shunday tashkil etish kerakki, uning har bir a‘zosi o‘z qobiliyatlarining maksimal ro‘yobga chiqishiga harakat qilsin.

Yuqorida qo‘shtan tarbiyalashda bo‘lgan bo‘ladiki, bolalar, o‘quvchilar jamaosini tarbiyalash uzoq vaqt talab etadigan pedagogik jarayon ekan. Maxsus maktablardagi ta’lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishda ham jamaa juda katta ahamiyatga ega. Aqli zaif bolalar shaxsini tarbiyalashda jamaa katta imkoniyatlarga ega. Normal bolalar

bilan olib boriladigan jamoaga oid barcha ishlar, yordamchi maktablarda qator obyektiv sabablarga ko'ra maxsus korreksion ishlar orqaligina amalga oshirib boriladi. O'qituvchi, tarbiyachilar har bir bolaning psixofizik imkoniyatlarini bilgan holda uni jamoaga kiritib boradi. Bolalar o'rtasida o'rtoqlikni vujudga keltirish uchun o'qituvchi, tarbiyachilar ular bilan maxsus ish olib boradilar. Ularni o'zaro yordamga chaqiradilar, o'rtog'i to'g'risida g'amxo'rlik qilishga o'rgatadilar. Ular bilan umumiy o'yin, suhbatlar tashkil qiladilar, do'stlik mavzuiga oid ishlar olib boradilar. Shular natijasida bolalardagi odamovilik, uyatchanlik yo'qolib boradi. Bolalarda bir-birlariga do'stona munosabat yuzaga kela boshlaydi. Bolalar jamoat ishlariga jalb etiladilar. Dastlab bolalarga alohida topshiriqlar berilsa, keyinchalik ijtimoiy topshiriqlar berib boriladi. Shu taxlitda har bir bola jamoada o'z o'rniga ega bo'la boradi. Faol bolalar asta-sekin boshqa o'quvchilarga ta'sir etishib, ulardan ijtimoiy joylarda intizom, xulq-atvor qoidalariga amal qilishni talab qilib, o'qituvchi, tarbiya-chilarga yordam bera boshlaydilar.

Jamoada qatnashish tufayli ilgari yordamchi maktab o'quvchisiga tushunarsiz bo'lgan ko'pgina axloqiy tushunchalar ular tomonidan o'zlashtirilib boriladi. Jamoaning aqli zaif bolalarga ijobjiy ta'siri haqida qator ilmiy ishlar mavjud. Aqli zaif bolalarda jamoaga qo'shilish uchun ehtiyojni tarbiyalash zarur. O'quvchi sinf va maktab jamoasi hayotida ishtirok eta borib, o'zidagi bir qator nuqsonlarni yengib boradi. Nuqsonlarga jamoa orqali ta'sir qilish ulardagi aqliy, jismoniy, shaxsiy yetishmovchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

Jamoani tashkil etish darsda va darsdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy jarayonning bir qismi hisoblanadi. Bolalar jamoasiga qanchalik ko'proq tayanilsa, shunchalik ko'p muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Mashg'ulotlarni, kun tartibini, bolalar o'yinini tashkil etish puxta o'ylab olib borilsagina bolalarning jamoaga jijsroq birlashishiga yordam beradi. Yordamchi maktabda o'qituvchilar va sinf rahbarlarining vazifasi sinfda, maktabda tashkilotchilik vazifalari ko'pchilik bolalar qo'lida bo'lgan o'zini-o'zi boshqarish tizimini vujudga keltirishdan iborat.

Jamoaning mavjudligi aqli zaif bolalarda jamoa sharafi, o'rtoqlarcha birdamlik, boshqalarga mehribonlarcha munosabatda bo'lish, yuksak axloqiy tuyg'ularni shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Tarbiyalovchi jamoa insonparvarlik munosabatlari,

o'rtoqlarcha manfaatdorlik, bir-birlariga e'tibor bilan munosabatda bo'lish, sinfdagi o'rtoqlarigagina emas, balki boshqa jamoa a'zolariga ham yordam berishga tayyor turish bilan xarakterlanadi. Sinfda vujudga keltirilgan sog'lom jamoatchilik fikri o'quvchilar jamoasida ayrim bolalarga yoki o'quvchilarining ayrim guruhlariga ta'sir ko'rsatishda yordam beradi.

Tarbiyalovchi jamoani vujudga keltirish birmuncha uzoq davom etadigan jarayondir. Jamoada bolalar tashkilotchilik malaka va ko'nikmalarini egallab boradilar, o'rtoqlarining xatti-harakatiga axloqiy jihatdan baho berishga o'rganadilar. Yordamchi maktabda boshlang'ich jamoalar umummaktab jamoasi bilan yaqin aloqada bo'lgan taqdirdagina tarbiyaviy vazifalarni samarali amalga oshiradilar. Bolalarni shunday faoliyatga jalb etish kerakki, bu faoliyat ularda jamoa kamchiliklarini birgalashib yo'qotishga doimiy intilishni keltirib chiqarsin. Yordamchi maktabda jamoa faoliyatini tashkil etishda bolalarming yosh xususiyatlarini va rivojlanish darajasini hisobga olish lozim. Harqanday faoliyat turlari jamoaning vujudga kelishiga yordam bermaydi. Avvalo, faoliyat aqli zaif o'quvchilarga qiziqarli bo'lishi kerak. Faoliyat turlariga mumkin qadar ko'proq o'yin elementlarini kiritish maqsadga muvofiqdir. O'quv faoliyati o'z mazmuni, ta'lim usullari bilan sinda xususiyatlari ham shakllantirishga yordam beradigan tarzda tashkil etilishi lozim.

Yordamchi maktabda o'yin bolalar jamoasini jipslashtiradigan va rivojlantiradigan asosiy faoliyat turlaridan biridir. Bolalar o'yiniga e'tibor bilan razm solinsa, ularning o'yinlarida kattalar dunyosi qanday aks etishini, ular o'yin orqali atrofdagi voqelikni qanday bilib olayotganliklarini ko'rish mumkin. Yordamchi maktablardagi o'yin faoliyatining qimmati shundaki, o'yin jarayonida aqli zaif o'quvchilar ko'pincha turli qiyinchiliklarni yengadilar, o'z harakatlarini boshqarishni o'rganadilar, dovyurak, irodali bo'lib boradilar, shu bilan birgalikda individual xususiyatlari ham shakllanib boradi. Yordamchi maktabdagi tarbiyachi hech qachon bolalarming o'yinlariga befarq bo'lmasisligi kerak. «O'yin, shuning uchun ham o'yinki, u o'quvchilar uchun sof mustaqil faoliyatdir», - degan K.D. Ushinskiy. Shu sababli, bolalarming o'ynashiga bo'lar-bo'lmasga aralashavermaslik darkor.

Demak, foydali bir maqsad asosida birlashgan, o‘z manfaatini jamoa manfaatiga bo‘ysundira oladigan shaxslar uyushmasi jamoani tashkil etar ekan.

Savollar

1. Jamoa qanday talablarga javob beradi?
2. Jamoani shakllantirish qanday bosqichlarni bosib o‘tadi?
3. Yordamchi maktablarda jamoani tashkil qilishning qanday ahamiyati bor?

Yordamchi maktablarda sinfdan va maktabdan tashqari ishlari

Sinfdan tashqari ishlari yordamchi maktabdagi butun o‘quv-tarbiyaviy ishlarning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, nuqsonli bolalarni har tomonlama rivojlantirishga, ijtimoiy foydali faoliyatda ishtirok etishga tayyorlashga xizmat qilishdan tashqari, ishlari asosan ta’lim-tarbiyani davom ettirib, aqli zaif bolalardagi ruhiy kamchiliklarni yumshatishga, tuzatishga sharoit yaratadi. Sinfdan tashqari ishlardan ko‘ra ijtimoiy, ta’limiy, ijtimoiy foydali, jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish san’atning turli sohalari, o‘quvchilarning madaniy dam olishlari bo‘yicha tashkil etilishi mumkin. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning mazmuni turlicha bo‘lishiga qaramay, bularning barchasida asosiy e’tibor o‘quvchilardagi nuqsonni korreksiyalash ishlariiga qaratiladi. Bolalardagi turli ruhiy, jismoniy nuqsonlar xarakteri ish mazmunini tanlashga yordam beradi.

Sinfdan tashqari ishlari darsdan tashqari vaqtarda o‘tkaziladi. Ularning tizimi izchil bo‘lishi, aqli zaif bolalarning psixofizik imkoniyatlarini, ularning qiziqishlarini, qobiliyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilinishi darkor. Sinfdagagi o‘quv-tarbiyaviy ishlari bilan sinfdan tashqari ishlari orasida uzviy mantiqiy bog‘lanish bo‘lishi kerak. Agar bolalar darsda ma’lum fanlardan nazariy, amaliy bilimlar olsalar, sinfdan tashqari ishlarda darsda olgan bilimlari mustahkamlanadi, kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Shuningdek, ularda sinfdan tashqari ishlari davomida sinfda olgan bilimlarni amalda qo‘llay olish malakalari shakllantiriladi. Sinfdan tashqari ishlarga asosan o‘qituvchi va tarbiyachilar rahbarlik qiladilar. Sinfdan tashqari

ishlarda o‘quv ishlardan tashqari o‘zlarini boshqarish malakalari ham shakllantirib boriladi.

Yordamchi maktablardagi sinfdan tashqari ishlar o‘tkazilish shakliga ko‘ra ommaviy, guruhli, individual bo‘lishi mumkin.

Sinfdan tashqari ishlarga siyosiy axborotlar, maktab kechalar, ertaliklar, sayohatlar uyushtirish, ko‘rgazmalar namoyish etish kiradi. Guruhli sinfdan tashqari ishlarga esa suhbatlar, o‘yin, maishiy mehnat turlari kiradi.

Sinfdan tashqari ishlarga sinfdan tashqari o‘qishni ham kiritish mumkin. Sinfdan tashqari o‘qish nuqsonli bolalarning shaxsiy sifatlarini shakllantirishda asosiy, yetakchi vositalardan sanaladi. Uning asosiy vazifasi nuqsonli bolalarni aqliy, axloqiy, estetik jihatdan rivojlantirib, ularda mustaqil o‘qishga qiziqishni tarbiyalashdan iborat. Yordamchi maktab o‘quvchilari sodda, kichik hajmli, bezakli badiiy adapbiyotlarni o‘qishlari tavsiya etiladi. Sinfdan tashqari o‘qish alohida soatlarda o‘tkaziladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyaviy guruhlarda shug‘ullanishlari mumkin. Tarbiyaviy guruhlarda bolalar individual yoki jamoa bo‘lib o‘qiydilar. O‘qituvchi o‘qilgan mavzularni tushuntirib beradi. Individual o‘qish uchun birmuncha sodda, kichik matnlar tanlanadi. To‘garaklarda esa asosan o‘quvchilar individual shug‘ullanadilar. Talab etilsa, o‘qituvchiga murojaat etadilar. Barcha turdag‘i sinfdan tashqari o‘qishga o‘qituvchilar boshchilik qiladilar, maslahat beradilar, sayohatlar tashkil etadilar, diafilm va kinofilmlar ko‘radilar, fikr almashadilar. Sinfdan tashqari o‘qishga rahbarlik ishlariiga oila ham jalb etilishi mumkin. Ota-onalar yig‘ilishlarida o‘qituvchi ota-onalarni bolalarga tavsiya etilgan adapbiyotlar bilan tanishtiradi. Kitob bilan ishslash usullarini tushuntiradi.

Sinfdan tashqari o‘qish hisobga olinadi, lekin baholanmaydi. Sinfdan tashqari o‘qish, nazorat qilish, hisobga olish shakli asosan o‘qilgan adapbiyotlar yuzasidan suhbatlar uyushtirishdir. Yordamchi maktablardagi maktabdan tashqari ishlar ham sinfdan tashqari ishlar kabi ta’lim-tarbiyaviy, ommaviy-madaniy ishlardan iborat bo‘ladi.

Maktabdan tashqari ishlar mazmunan, shaklan, vazifalari bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarga o‘xshab ketadi. Maktabdan tashqari ishlar asosan maktab rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu ishlarda bolalarning imkoniyatlari, albatta, inobatga olinishi kerak.

Turli toifadagi bolalarga yozgi umumiy va maxsus lagerlar tashkil etiladi.

Sinfdan, maktabdan tashqari ishlar nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Ularni to‘g‘ri tashkil etish matabning aqli zaif bolalarga bo‘lgan ta’lim-tarbiyaviy ta’sirini oshirishga imkon beradi. O‘quv meteriallarini puxta o‘zlashtirish bolalarni atroflicha rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarda dars materiallarini takrorlashga imkoniyat yaratiladi. O‘quvchilarning sensor tajribalari boyib boradi. Ularning harakat sistemalari rivojlanadi. Sinfdan tashqari ishlar o‘quv materiallarini mustahkamlash va chuqurlashtirishda mustaqil ishslash uchun sharoit yaratadi. Bolalarda madaniy xulq-atvor malakalarini tarbiyalaydi. O‘quvchilarning bo‘s sh vaqtlarini uyushtirishga yordam beradi. Aqli zaif bolalarning ijtimoiy foydali faoliyatda faol qatnashishiga ko‘maklashadi.

Sinfdan tashqari ishlarning yana bir turi to‘garak ishlaridir. To‘garak ishlariga asosan 4-9-sinf o‘quvchilari qabul qilinadi. Ba’zan esa yoshi katta 3-sinf bolalari ham qabul qilinishi mumkin. To‘garak ishlari haftada bir marta ma’lum soatlarda o‘tkaziladi. Ba’zan o‘quvchilar ikkita to‘garakka ham qatnashishlari mumkin. To‘garak ishlarning og‘ir, yengilligiga qarab, mashg‘ulotni boshlashdan oldin tayyorgarlik vaqt, tanaffus belgilanadi. To‘garakka o‘quvchilar o‘z xohishlari bilan qatnashadilar. Bolalarning qiziqishlari, imkoniyatlari, qobiliyatlar hisobga olinishi kerak. To‘garak ishlari bir yilga rejalashtiriladi. To‘garak rahbarlari qaysi materialni qachon, qanday o‘rganish kerakligini yaxshilab ko‘rib chiqib, rejalashtiradi. Mashg‘ulot uchun tanlangan mavzu o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantiradigan, chamalash xususiyatlarini o‘stiradigan, nutqidagi kamchiliklarni tuzatadigan bo‘lishi kerak. Mashg‘ulot jarayonida lug‘at ustida ham ish olib boriladi. O‘quvchilar yangi so‘z va atamalarga duch kelsalar, o‘qituvchi shu so‘z haqida tushuncha berib, mashg‘ulot uchun tutilgan daftarga yangi so‘zlarni yozdirib boradi. To‘garakda har bir o‘quvchining muvaffaqiyatini yoritib boruvchi alohida jurnal bo‘ladi. Sinfdan-sinfga ko‘chirish, tavsifnomalar berish vaqtlarida shu jurnal materiallaridan ham foydalaniladi. O‘quvchilarning to‘garak ishlariga kirishib ketishlari uchun mashg‘ulot jarayonida ularning ruhini ko‘taruvchi, qiziqishlarini orttiruvchi materiallardan ko‘proq foydalanish kerak. Har bir bolaning

aqliy rivojlanishi, mashg'ulotga tayyorgarligi, charchashi kabi xislatlariga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilardagi tirishqoqlik, berilgan ishni mustaqil bajarishga intilishi qo'llab-quvvatlanishi kerak. Darsda tortinchoq, kamgap bolalarning ayrimlari to'garak ishlarida faol qatnashadilar. To'garak ishlari o'tkazilishi mazmuni, shakliga ko'ra darsdan farq qilganligi sababli, bolalar to'garaklarda birmuncha unumli ishlaydilar. To'garak ishlari iloji boricha bolalarning qiziqishlariga, imkoniyatlariga qarab olib borilsa, yaxshi natijalarga olib keladi. Yordamchi maktablarda turli fanlardan sinfdan tashqari ishlar olib borish mumkin, nuqsonni tuzatishda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati katta. Bu bolalar mantiqiy fikrlashga, xoriraning, diqqatning turg'unlashuviga erishadilar, olgan bilimlari sinfdan tashqari ishlarda mustahkamlanadi, amaliy mazmun kasb etadi. Turli hayotiy hisoblash ishlari aqli zaif bolalar nutqining rivojlanishida, lug'atining boyishida, mo'ljal olish, chamarlash ishlarida, savdo ishlarida topshiriqlarni bajarishlari uchun, ularga estetik did, mehnat qilish uchun zarur ko'nikma va malakalarining shakllanishiga yordam beradi.

Savollar

1. Yordamchi maktabda sinfdan tashqari qanday ish turlari bor?
2. Yordamchi maktabda sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ahamiyati nimadan iborat?
3. Maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishda qanday qiyinchiliklar uchraydi?

2-BO'LIM. SURDOPEDAGOGIKA

1-bob. SURDOPEDAGOGIKANING MAZMUNI, VAZIFALARI VA METODLARI

1.1.Surdopedagogikaning mazmuni va vazifalari

Surdopedagogika (lotincha «surdus» – so‘zidan olingan bo‘lib «karlik» degan ma’noni bildiradi) defektologiyaning bir tarmog‘i bo‘lib, eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslar ta’lim-tarbiyasi masalalari hamda muammolari bilan shug‘ullanuvchi fandir. Surdopedagogikaning asosiy vazifalari eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni pedagogik jihatdan har tomonlama o‘rganish, maxsus mакtabda til o‘qitishni takomillashtirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzini shakllantirish ishlarini yuqori pog‘onaga ko‘tarish; eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o‘rganish va uni takomillashtirish, eshitish idrokining rivojlanish tizimi samaradorligini oshirish, o‘z bitiruvchilarining ma’lum bir kasb yo‘nalishi bo‘yicha mehnat qilishlariga erishish; o‘qitishning texnik vositalarini takomillashtirish; bog‘cha va maktab ta’limining uzlusizligini ta’minalash; respublika bo‘yicha tibbiyot hamda xalq ta’limi tarmoqlari ishlarini muvofiqlashtirish, erta tashxis muammolarini o‘rganishdan iboratdir. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ta’lim-tarbiyasi Yevropadagi qator mamlakatlarda olib borilgan. Kar bolalarni yakka o‘qitishda o‘sha vaqtning buyuk olimi Djerolamo Kardano (1501–1576) «karlik va soqovlikka» fiziologik tushuncha berdi. U tomonidan birinchi bo‘lib, karlar bilan ishlash metodi ishlab chiqildi. XV–XVIII asrlarda karlarni yakka o‘qitishda 2 xil oqimi tashkil qilindi. 1-oqimga mansub X.P.Bonet (Ispaniya), D.Bo‘lver, D.Vallis (Angliya) va h.k. nutqning har xil turlari: so‘zli, yozma, daktil, imo-ishora nutqlaridan foydalanish g‘oyasini ilgari suradi. 2-oqimga mansub F.M.Van Gelmont, I.K.Amman (Gollandiya), F.L.Terkiy (Italiya), V.Kerger, G.Rafelg (Germaniya)lar o‘qitish va muloqotda faqat so‘zli nutqdan foydalanish tavsiya etadi.

XVIII asrning 2-yarmida Fransiya, Germaniya, Angliya, Avstriyada karlar uchun maxsus o‘qishlar ochildi. Sharl Mishel Epe (1712–1789) Parijda karlar uchun institut ochdi. Shu bilan bir qatorda, u «mimik metod» yaratuvchisi hamdir. 1778-yil Germaniyada ham karlar uchun institut ochildi, u yerda «sof og‘zaki metod»dan foydalanildi. Uning asoschisi Samuil Geynike (1727–1790) bo‘lib, bu tizim XIX asrning oxiriga kelib, G‘arbiy Yevropaning hamma shaharlariiga tarqaldi. AQSHda birinchi karlar uchun maktab 1817-yili tashkil qilindi.

Rossiyada ham karlar haqida ma’lumotlar mavjud. XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida Rossiyada maxsus o‘qishlar Peterburgda, so‘ng Varshava, Riga va boshqa shaharlarda ochildi. XX asrning boshlariga kelib, eshitishida nuqsoni bor bolalarni o‘qitishning yangi tizimi ishlab chiqildi. Unda rus surdopedagoglaridan V.I.Fleri (1800–1856), G.A.Gilkova (1778–1858), A.F.Ostrogradskiy (1853–1907), I.A.Vasileyev (1867–1941), N.M.Logovskiy (1863–1933), F.A.Rau (1868–1957)lar faoliyat ko‘rsatishdi. Ularning asosiy e’tibori eshitishida nuqsoni bor bolalarga kasbiy darajada ta’lim-tarbiya berishdir. Surdopedagogika umumiyligi pedagogikaning tamoyillari, metodlari, ta’lim berish va tarbiyalash vositalaridan keng foydalanadi. Bu metodlardan eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning tarbiyasi, o‘qishi va rivojlanishida qo‘llaniladi. Hozirgi vaqtida kar va zaif eshituvchilarining ta’limda to‘g‘ri talaffuz qilish, o‘qitishning yanada rivojlanishida surdo texnikaviy asboblardan keng ko‘lamli foydalanishni talab qilyapti. Shundan dalolat beradiki, surdopedagogika surdotexnika fani bilan ham uzviy bog‘liqidir. Surdopedagogikaning metodlari eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘rganish, ularni o‘qitish jarayonini nisbatan yuqori pog‘onaga ko‘tarish, shuningdek, ushbu toifa shaxslarning kelgusi hayotda o‘z o‘rinlarini topishlariga xizmat qiladi. Buning uchun qator metod va yo‘llardan foydalaniladi.

Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish. Surdopedagogikaning muammlaridan biri maxsus zamonaviy adabiyotlar darslik, metodik to‘plamlar; ilmiy jurnallardagi maqolalar; ilmiy adabiyotlar pedagogika, psixologiya, surdopsixologiya va defektologiyaning boshqa tarmoqlari; maxsus adabiyot defektologiya lug‘ati, pedagogika ensiklopediyasi; mashhur surdopedagoglar faoliyati; surdopedagogik muassasalarning ishlari ma’ruzalar, hisobotlarni o‘rganish va rivojlantirishdir. Surdopedagoglarning adabiyotlar bilan ishlashi

eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash, rivojlanish davrlarini o‘rganishga imkon yaratadi.

Pedagogik nazorat. Pedagogik nazoratni tashkil qilish muayyan maqsad asosida amalga oshiriladi. Jumladan, pedagogik jarayonlarning vazifasi, ish rejası, nazorat jarayoni aniq va to‘liq qamrab olinadi. Kuzatish maqsadi tajriba to‘plash va ilmiy-pedagogik tahlildir. Kuzatuvchi darsda o‘quvchilarning darsdagi mavzuni qay darajada qabul qilishini, darsdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlarini kuzatib tahlil qilib boradi. Kuzatishda o‘quv tarbiyaviy ishlarning natijasi aniqlanadi. Bu natija salbiy yoki ijobiy bo‘lishi mumkin. Kuzatuv jarayonida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish. Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan tamoyil, metod, metodikalar, pedagogik ta’sir, bilim, qobiliyat, o‘quvchilar rivojlanishidagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi.

Ko‘pgina kuzatuvchi surdopedagoglar ilg‘or o‘qituvchi va tarbiyachilar tajribasidan foydalanadilar. Tajribali kuzatuvchilar ilg‘or o‘qituvchilar ish tajribasidan foydalanadi, yosh va boshqa o‘qituvchilar ishi bilan taqqoslaydi. Ilg‘or pedagoglarning tajribasini o‘rganish uzoq muddatga rejalashtirilgan, aniq ishlab chiqilgan reja bo‘yicha amalga oshiriladi. **Pedagogik tajriba o‘quv yoki tarbiyaviy jarayondagi ilmiy masaladir.** Kuzatuvchi pedagogik jarayonni biror maqsadga yo‘naltirilgan holda tuzadi yoki o‘zgartiradi. Tajriba olib borishda kim bilimni, uning olib borishini, tajriba natijasi va javoblarni bilishi kerak. Shu tajribadan olingan javoblarni tahlil qilishda matematik metodlardan foydalaniлади va bu pedagogik jarayonga aniqlik kiritiladi.

So‘rovnoma. Bolalarni o‘rganishida keng qo‘llaniladigan metodlardan biri so‘rovnomadir. So‘rovnoma yozma (testlar) yoki intervyu (so‘zli) tarzida bo‘lishi mumkin. Bu metod o‘qituvchi yoki ota-onalar tomonidan o‘rganilayotgan obyektning yoki shaxsning qiziqishlari hamda qarashlarini o‘rganishda qo‘llaniladi.

Suhbat. Suhbat metodi kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar va ularning ota-onalari, surdopedagoglardan ma’lumotlar olishda qo‘llaniladi. Bunda pedagog kuzatilayotgan shaxsga oldindan aniq maqsadga yo‘naltirilgan savollar tuzgan bo‘lishi lozim.

Bolalar ishini o‘rganish. Bolalar ishini o‘rganish metodi bolalarning bilimlari va qobiliyatlarini aniqlashda yordam beradi. Bunda har xil rasmlar, har xil qog‘ozlar, plastilinlardan foydalaniлади. Ularning ishi tahlil qilinganda, uning bajarish tezligi, ishni tuzatishi emas, balki bosqichma-bosqich bajarilishi, xatolari va h.k. hisobga olinadi. Ularning bilimlarini aniqlashda o‘qituvchi yoki kuzatuvchi insho, bayon kabi yozma ishlar, o‘tkazishi mumkin.

Maktab hujjatlarini o‘rganish. Pedagogik hujjatlarni o‘rganish (dars konspekti, darsdan tashqari o‘quv mashg‘ulotlari, o‘quvtarbiyaviy reja, bayon nomma, pedagoglar yig‘ilishining hisoboti, o‘qituvchilarining metodik yig‘ilishlari) o‘quv-tarbiyaviy jarayoni, mактабдаги pedagoglarning erishgan yutuqlarni, tajribalarini o‘rganish mumkin. O‘quvchilarining shaxsiy hujjatlarini o‘rganish, har bir o‘quvchi ruhiyatini, qobiliyatini aniqlashda yordam beradi.

1.2. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning pedagogik tasnifi

Karlik eshitishning turg‘un yo‘qolishi bo‘lib, unda mustaqil holda nutqni egallash, hatto qulorra yaqin bo‘lgan masofadagi nutqni ravshan idrok etishning imkoniyati bo‘lmaydi. Total (to‘liq) karlik, xuddi total ko‘zi ojizlik uchramagani kabi, juda kam uchraydigan hodisadir. Ko‘pincha karlikda baland nutqiy bo‘lmagan tovushlarni, qulor suprasiga yaqin masofadagi ba’zi nutqiy tovushlarni idrok etish darajasida bo‘lgan eshitish qoldiqlari saqlanib qoladi. Audiometrik tekshiruv eshitishning 80 db. (detsibel – tovushni idrok etishni o‘lchashda qo‘llanuvchi o‘lchov birligi) dan yuqori darajada yo‘qolanini ko‘rsatadi.

Zaif eshituvchilik eshitishning turg‘un pasayishi bo‘lib, unda ushbu eshitish qoldig‘i asosida nutqiy zaxirani minimal holatda mustaqil ravishda egallash, murojaat etilgan nutqni qulor suprasiga yaqin masofada idrok etish imkoniyati bo‘ladi. Audiometr tekshiruv eshitishning 80 db. dan kam bo‘lmagan pasayishini ko‘rsatadi.

Eshitish muammolari holatidagi nutqning rivojlanish darjasini quyidagi to‘rt omilga tobedir:

- 1) eshitishning darjasini;
- 2) eshitish muammosining sodir bo‘lishi vaqtini;
- 3) bolaning individual xususiyatlari;

4) eshitish muammosi sodir bo‘lgandan so‘ng bola uchun yaratilgan pedagogik sharoit.

Shundan kelib chiqqan holda har ikki guruhdagi eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar, o‘z navbatida, yana ikkitadan guruhga bo‘linadi:

Karlar:

1) tug‘ma yoki ilk yosh davrida eshitish qobiliyati yo‘qolgan va nutqni egallay olmagan kar bolalar;

2) eshitish qobiliyati kech yo‘qolib, nutqi saqlanib qolgan kar bolalar.

Zaif eshituvchilar:

1) nutqida qisman chetga chiqishi (nutqining grammatick tizimida me'yordan chetga chiqishlar: qo‘sishimchalarni noto‘g‘ri qo‘llash yoki tushirib qoldirish, ba’zan talaffuz muammolari) bo‘lgan zaif eshituvchi bolalar;

2) chuqur nutqiy muammolarga ega bo‘lgan (lug‘at zaxirasi o‘ta chegaralangan, nutqi qisqa, noto‘liq so‘zlardan, grammatick tizimi so‘z-gapdan, bo‘g‘in-so‘zlar qatoridan iborat) zaif eshituvchi bolalar. Tadqiqotlarning natijasi shuni ko‘rsatdi-ki, kar va zaif eshituvchi bola bir-biridan keskin farq qiladi. Zaif eshituvchi boladagi inson uchun o‘ta zarur bo‘lgan analizator – eshitish faoliyatining to‘liq emas, qisman buzilishi nutqning birmuncha shakllanishiga imkon beradi. Lekin bunday yo‘l bilan nutqni egallahshning o‘ta chegaralanishi bola tomonidan tushuncha va tasavvurlar (nutqning keyingi idroki va tushunilishi)da o‘zgachalikni yuzaga keltiradi. Zaif eshituvchi bolaning nutqi rivojlanmasdangina qolmay, balki buzilgandir ham. Masalan, lug‘at zaxirasining kamligi bilan bir qatorda so‘zlarning boshqa ma’noda qo‘llanishi, grammatick tizimning rivojlana olmasligi bilan bir qatorda, ular ma’nolarining noto‘g‘ri tushunilishi kuzatiladi. Bularning barchasi bilish faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi: taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish kabi psixik jarayonlar zaif eshituvchilarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni eshitish darajasiga ko‘ra guruhlarga tasniflash va mazkur tasnif asosida maxsus ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish ijobiy samara beradi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni differensial tashkil etish uchun har xil tamoyilli tasniflash mavjud. Maxsus maktab o‘quvchilarini o‘rganish, shuni

ko'rsatdiki, bu maktablarda o'qitish ishlari asosan birlamchi nuqsonni hisobga olgan holdagina olib borilar ekan. Birinchi tasniflash XVI asrga to'g'ri keladi. Italiya olimi D.Kardano karlikning vujudga kelish vaqt va nutqi rivojlanish darajasiga asoslanib, 3 guruhga karlarni ajratgan: Tug'ma karlar. Erta kar bo'lганlar (nutqi rivojlangunga qadar); Kech kar bo'lганlar (nutqi saqlanib qolganlar).

XVIII asr Fransuz pedagogi R.A.Sikar eshitish nuqsoni har xil bo'lган bolalarni guruhlarga bo'lishni va ularni bo'lak holda o'qitishni taklif qilgan. XIX asrning birinchi yarmida Rus surdopedagogi V.I.Fleri kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni, kech kar bo'lib qolganlarni va zaif eshituvchilarni bo'lak holda o'qitish kerakligini taklif qilgan. Parijdagi kar va zaif eshituvchi o'quvchilar instituti vrachi J.Itar besh guruh karlarni ularning tovushlar va nutqlar eshitishiga qarab ajratgan: yuqori nutq va tovushlarni qulog'ining yaqinida eshituvchilar; unli va undoshlarni ajratuvchilar; ayrim unli va undoshlarni ajratuvchilar; nutqlarni eshitmaydigan, lekin baland tovushlarni eshituvchilar; umuman eshitishida nuqsoni bo'lганlar. Biroq kar bolalarning tabaqalashtirishni, faqat turli darajadagi eshitish qobiliyatini yo'qotganlarni o'qitish bilan ijobjiy natijalar bermadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Peterburg kar va zaif eshituvchi o'quvchilar bilim yurtida Ya.T.Speshnev ikkita bo'linma tuzdi: turli xildagi nutqlarga ega bo'lган kar bolalar uchun; imo-ishora asosida muloqot qiluvchilar uchun. Ya.T.Speshnev tomonidan eshitishida nuqsoni bo'lган bolalar nutq imkoniyatini yaxshilash bo'yicha tabaqa lashtiradi, asosiy nuqson darjasini hisobga olinmaydi. Bunday hol ularni o'qitish mobaynida kerakli samara bermadi. Eshitish qobiliyati juda nuqsonli bo'lган bolalarning yuqori o'zlashtiruvchanliklari boshqa tomonidan eshitish qobiliyati saqlangan bolalarning nuqsonli bo'lган o'zlashtiruvchanliklari kuzatiladi. Bunday hol esa o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarni aqliy rivojlanishi bo'yicha ajratib o'qitishga majbur qiladi. L.V.Neyman bolalar eshitish qobiliyatining buzilishini o'rganish va tasnifini yaratish tarixida uch bosqichni belgilaydi: kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda eshitish qobiliyatini tekshirishni tizimlashtirish boshlang'ich urinishidan, amaliyotda eshitishni o'chagich uskunasini kamerton to'plamidan faydalanishni amaliyotda qo'llash; kamertondan to audometrgacha bo'lган davr; hozirgi talabga javob beradigan amaliyotga kiritilgan

audiometr. L.V.Neyman eshitish chastotalari maydoni yordamida qabul qilish diapazoniga asoslanib, karlarni to'rtta guruhga ajratadi.

1-guruhda 250Gc chastotalarni qabul qiladiganlar.

Bu bolalar tovushlarning birortasini ham ajrata olmaydilar, faqat quloq oldida baland ovozni eshitadilar. (Baqiriq, poyezd gudogining ovozi.)

2-guruh 125-250-500 Gc chastotalarni qabul qiladi.

Bu bolalar faqatgina eshitibgina qolmay, «o», «u» unlilarini ajratadilar. Yaqin masofada atrof-muhitdag'i tovushni eshitadilar.

3-guruh 125-250-500-1000 Gc chastotalarni qabul qiladi.

Bu guruh bolalari quloq oldida so'zlashuv balandligidagi ovozlarga e'tibor beradilar, 3-4 unlilarni anglaydilar, ularning ko'pchiligi ba'zi tanish so'zlarni anglashadi.

4-guruh 125-2000 Gc. Bu guruhdagi ko'pchilik bolalar quloq oldida va uzoq bo'Imagan masofadagi gaplarni eshitadilar. Tanish gaplar va so'zlarni, unli va undoshlarni ajratadilar.

Eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalarda nutqiy rivojlanish-larning darajasi va xarakteri bir qator omillar asosida yuzaga keladi. R.M.Boskis nutqiy rivojlanish darajasining quyidagi to'rt omil bilan aloqadorligini ko'rsatib o'tgan. Zaif eshituvchi bolalarni eshitish chastotasi hajmiga qarab kar bolalarnikidek guruhlash to'g'ri kelmaydi. Chunki ko'pchilik zaif eshituvchilar keng diapazonidagi 4000Gc va yuqori chastotada qabul qiladilar. Har bir guruh zaif eshituvchilar tomonidan ayrim gaplarni eshitish imkoniyatlari bo'yicha belgilanadi. 1-darajali zaif eshituvchilarda tovush diapazonida eshitishning pasayishi 50dBdan oshmaydi. Ularning chastotalarni qabul qilishi 125-8000Gc atrofida. 1mdan ortiqroq masofada so'zli tovush balandligida gaplarni ajratish imkoniyati bor. Ular bilan muloqotda bo'lish mumkin. 2-darajali zaif eshituvchilarda eshitishning diapazonini pasayishi 70dBgacha. 1mdan kamroq masofada me'yordagi balandlikdagi gaplarni ajratish imkoniyati bor. Ular bilan muloqotda bo'lish birmuncha qiyinroq. 3- darajali zaif eshituvchilarda tovush diapazonida eshitishning pasayishi 70dBdan yuqori. Me'yordagi balandlikdagi gaplarni ajratish quloq oldida ham qiyinlashadi; muloqot qilish faqat baland ovozda quloq yaqinida amalga oshiriladi. Zaif eshituvchilarda 15-20dBda mustaqil nutq jarayonining qiyinlashuvi, eshitish qobiliyatining pasayishi kuzatiladi. Buni L.V.Neyman me'yordagi eshituvchilar bilan zaif eshituvchilar

o‘rtasidagi taxminiy chegara deb qabul qilishni taklif etadi. Zaif eshituvchilar bilan karlar o‘rtasidagi taxminiy chegara esa 80dBdir.

Pedagogik tasniflashni har bir surdopedagog puxta bilishi har bir toifa bolalar bilan maxsus maqsadga yo‘naltirgan ishlarni olib borishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Yuqoridagi tasniflash assosida bolalar maxsus muassasalarga tabaqlashtirilgan holda o‘qitiladi.

1.3. O‘zbekiston Respublikasida eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning ta’lim tizimi

Surdopedagogika taraqqiyoti davomida eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslar uchun ta’lim-tarbiya muassasalarini tizimi shakllandi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tarbiyalash va maxsus ta’lim berishda oilaga ko‘maklashish maqsadida eshitish va nutq holatiga ko‘ra ikki turdagiga muktabgacha muassasalar tashkil etiladi: karlar uchun va zaif eshituvchilar uchun. Kech kar bo‘lgan va nutqini saqilagan bolalar zaif eshituvchi bolalar uchun mo‘ljallangan bog‘chalarda tarbiyalanadi. Guruhlar yoshiga ko‘ra tashkil etiladi. Barcha yosh guruhlarida 10-12, murakkab nuqsoni bo‘lgan bolalar guruhida 8 tadan bola tarbiyalanadi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun quyidagi muktabgacha muassasalar tashkil etiladi:

1. Tajribada karlar va zaif eshituvchi, kech kar bo‘lgan bolalar uchun yaslilar, yasli-bog‘chalarga bolalar 1,5 yosh, bolalar bog‘chalari – 3 yoshdan qabul qilinadi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bog‘chalarda ta’lim-tarbiyasi mazmuni har bir turdagiga muktabgacha muassasa uchun dasturlarda o‘z ifodasini topgan.

2. Kar, zaif eshituvchi va kech kar bo‘lgan bolalar uchun internat tipidagi bolalar bog‘chalari. Maxsus bolalar bog‘chalari bo‘limgan qishloq va shaharlardagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan.

Tajribada tayanch-harakat apparatida yoki aqliy nuqsonga ega bo‘lgan va eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bog‘chalarida murakkab nuqsonlilar guruhiga kiritiladi.

3. Ommaviy bolalar bog‘chalari va bolalar uylarida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maxsus guruhlar bir xil yoki yaqin yoshdagagi bolalarning eshitish va nutqidagi kamchiligi hisobga olinib tashkil etiladi (kar bolalar yoki zaif eshituvchi bolalar uchun).

4. Kar yoki zaif eshituvchi bolalar uchun mакtab-internatlar qoshida 4-6 yoshli bolalar uchun ikki yillik maktabgacha bo'limlar shahar, viloyatlarda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari bo'limgan taqdirda tashkil etilgan.

O'rta ta'lim

Kar, zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalar uchun maxsus umumta'lim mакtab-internatlari o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasini, mакtab ta'limini, shuningdek, ularning nuqsonli rivojlanishi korreksiyasini amalgga oshiradi. Maxsus ixtisoslashtirilgan umumta'lim mакtablarida ta'lim maxsus o'quv reja va dasturlari asosida amalgga oshiriladi. Sinf va tarbiya guruhlari 10-12 nafar, murakkab nuqsonli bolalar uchun 5-7 kishidan iborat bo'ladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalar uchun ta'lim-tarbiya muassasalari tizimida mazkur xususiyatlar hisobga olinadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun maxsus muassasalar tizimi ma'lum tamoyil asosida tashkil qilingan. Ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalar uchun maxsus yasli va bog'chalar, jumladan, internat tipida, maxsus mакtablar qoshida ikki yillik maktabgacha bo'limlar tashkil etiladi. Maktab yoshidagi bolalar uchun turli tipdagi mакtablar tashkil etilgan. Kattalar uchun ta'lim va kasb tayyorgarligi olish uchun muassasalar tarmog'i (kasb-hunar kollejlari, o'rta maxsus va oliv o'quv yurtlarida maxsus guruhlar) mavjud. Maxsus muassasalar tizimi eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar rivojlanish xususiyatlarini, ular hayotining turli davrlari hisobga olib tashkil etilgan. Karlar uchun maxsus umumta'lim mакtab-internati 0-XI sinflar, maktabgacha ta'lim olmagan bolalar uchun tayyorlov sinfiga ega. 11- yilda o'quvchilar ommaviy o'rta mакtab hajmida ma'lumot va dastlabki kasb-hunar tayyorgarligini egallaydilar. Zaif eshituvchi va kech kar bo'lganlar uchun maxsus umumta'lim mакtab-internati ikkita bo'limga ega. 1-bo'limda 10 yil muddatli ta'lim (0-X sinf). Eshitishida nuqsoni bo'lgan va nutqi to'liq shakllanmagan bolalar uchun II bo'lim o'qish muddati 11 yil (0-XI sinf). Har ikki bo'limda o'quvchilar ommaviy to'liq o'rta mакtab hajmida ma'lumot va dastlabki kasb-hunar tayyorgarligini oladilar.

Kasb ta'limi

Maxsus o'rta umumta'lim va kasb mакtabi XIII-XV sinfini qamrab oladi: kasb-hunar mакtablaridagi maxsus guruhlar. Ushbu muassasalar tizimi eshitishida nuqsoni bo'lganlar uchun o'rta

ma'lumot va kasb tayyorgarligini ta'minlaydi. Maxsus maktablarni bitirgan o'quvchilar kasb tayyorgarligini hunar mакtablarida olishi mumkin. O'rta maxsus o'quv yurtlarining ayrimlarda eshitishida nuqsoni bo'lганlar uchun maxsus guruuhlar (asosiy guruuhlar ichida) ochilib, ularda yoshlar turli kasblarni egallashlari mumkin. Shuningdek, boshqa kasb-hunar kollejlarida eshitishida nuqsoni bo'lган shaxslar uchun maxsus guruuhlar (asosiy guruuhlar ichida) tashkil etiladi. Bunday guruuhlarda o'quv davri eshitadiganlarnikidan 6-8 oy muddatga uzaytirilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Karlar jamiyatni bilan kelishilgan holda). O'quv rejasи va mazmuni esa eshitadiganlar o'qiydigan o'quv reja va mazmuniga muvofiq bo'ladi. O'quv materialini eshitmaydigan talabalar imo-ishora, daktil, yozma va so'zli nutqdan foydalanuvchi (O'zbekiston Respublikasi Karlar jamiyatni tomonidan ta'minlanadigan) surdotarjimonlar yordamida o'zlashtiradilar.

Oliy ta'lim

Eshitishida nuqsoni bo'lган shaxslar O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolari kabi oliy o'quv yurtlariga kirish huquqiga egalar. Kar va zaif eshituvchilar barcha kasblarni tanlash huquqiga ega. Eshitib nazorat qilish talab etiladigan kasblar bundan mustasno. Oliy o'quv yurtlarida eshitishida nuqsoni bo'lган shaxslar uchun maxsus guruuhlar tashkil etiladi. Bunday guruuhda tarjimon bo'lib, u talabalarga o'quv axborotini tushunishda ko'maklashadi. Oliy o'quv yurtlarida mazkur maxsus guruuhlar o'qish muddati o'zgartirilmaydi.

1.4. Eshitishida nuqsoni bo'lган bolalar ta'lim-tarbiyasida koxlear implantatsiyaning ahamiyati

So'nggi yillarda tibbiyot va ta'lim sohasida sodir bo'lган qator ijobjiy o'zgarishlar rivojlanishida muammolari bo'lган bolalar taqdiri masalalarini hal qilishda turli soha vakillari yangi yo'nalishlardagi faoliyatlarining birlashushi bilan chambarchas bog'liq. Bolaning rivojlanishidagi me'yordan chetga chiqishlarni erta tashxis qilish, muammo oqibatini bartaraf etish, qayta tiklash, rivojlanishida u yoki bu jihatdan muammosi bo'lган ilk va kichik yoshdagи bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish, ularni umumta'lim muassasalariga uyg'unlashtirish modellarini ishlab chiqish masalalari kun tartibida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimida so'nggi yillarda inkyuziv ta'lim g'oyasi, respublikamiz sharoitida uni joriy etish masalalari tez-tez ko'tarilayotgan mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda eshitish muammosi turli darajada bo'lgan shaxslarning eshitishini tiklashda turli-tuman eshitish apparat (moslama) (OKA) lardan foydalanilmoqda. Yuqori darajadagi sensonevral zaif eshituvchilik va karlik holatida ba'zi texnik, fiziologik, patofiziologik sabablarga ko'ra bunday moslamalar nutqiy tovushni idrok etishni birozgina yaxshilasada, ko'pgina hollarda bunga umuman imkon bermaydi.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida ilk va bolalik nogironligi masalalari bilan bog'liq muammolarning ijobiy yechimga ega bo'lib borishi bu bolalar taqdiri masalalarini hal qilishda turli soha vakillari yangi yo'nalishlardagi faoliyatlarining integratsiyalashuvi bilan chambarchas bog'liq. Surdoaudiologiya (lotincha *surdus* – kar va *audio* – eshityapman so'zlaridan) sohasidagi izlanishlar, unga yangi texnologiyalarning joriy etilishi, bu jarayonda turli yo'nalishdagi olimlar faoliyatining birlashuvi eshitishida chuqur muammosi bo'lgan shaxslar eshitish idrokini yaxshilashning yangi usuli – ko'pkonalli koxlear implantatsiya metodining ishlab chiqilishi imkonini berdi.

Koxlear implantatsiya eshitish sezgilarini tiklash maqsadida jarrohlik yo'li bilan ichki qulqoqda (qulqoqning ichki bo'llimida) joylashgan eshitish nervlarining afferent tolalariga bevosita elektr qo'zg'atuvchilik vazifasini bajaruvchi elektrod tizim (sistema)larni uiashni amalga oshirishni nazarda tutuvchi tibbiy tadbirdir. Sensonevral zaif eshituvchilik asosan ichki qulqoqning, ya'n'i uning sochsimon to'qimalarining shikastlanishi bilan namoyon bo'ladi. Lekin sensor to'qimalarining sezgilarli darajada zararlangan bo'lishiga qaramay, bunday bemorlarning ko'pchilik qismida eshitish nervlarining tolalari saqlangan bo'lib, bevosita elektr toki yordamida miyaga eshitish sezgilarining hosil bo'lishini ta'minlovchi signallarni yetkazib turish imkoniga egadir. Deyarli sun'iy ichki qulqoq da e hisoblanishi mumkin bo'lgan koxlear implant faoliyati ham aynan arz shu tamoyil asosida amalga oshiriladi hamda u oddiy ovoz kuchnayi beruvchisi vositalardan ko'pfunksionalli tizim ekanligi, nafanor eshitishni tiklash, balki tovushlarning ohangdoni, bo'lgan yetkazib berish, xususiyatga ega ekanligi bilan tanlangan. Hozirgi kunda qator mamlakatlarda istiqomat qiluvchi ko'pgina jesonlari

eshitishni koxlear implantatsiya yordamida tiklab borishlari tobora keng tarqalib bormoqda. Dunyo miyosida eshitishni koxlear implantatsiya yordamida qayta tiklash borasidagi jarrohlik operatsiyalari qirq yildan ortiqroq vaqt mobaynida Avstraliya, AQSH, Avstriya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va Rossiya mutaxassislari tomonidan o'tkazib kelinmoqda. Ta'kidlash joizki, koxlear implantatsiya tuzilishi jihatdan o'ta murakkab vosita sanalgani bois uning ishlab chiqarilishi ko'p mablag' talab etadi va tabiiyki, bunday operatsiyalar qimmat sanaluvchi tadbirlar qatoriga kiradi. Shu sababli bolaning rivojlanish huquqlari, ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishini kafolatlash kabi insonparvarlik g'oyalari ustuvor vazifalar etib belgilangan ilg'or mamlakatlarda bunday tadbirlar mutasaddi idoralar nazorati ostida, davlat, mahalliy budget, turli jamg'arma va homiy tashkilotlar mablag'larini jalb qilgan holda amalga oshirib kelinmoqda.

Koxlear implantatsiya yordamida eshitishni qayta tiklash o'z tarkibiga uch bosqichni mujassamlaydi:

1. Operatsiyadan avvalgi bosqich. Bu bosqich o'z tarkibiga kompleks-diagnostik tekshiruv, otologik ko'rav, audioilogik tekshiruv, vestibulometriya, kompyuter tomografiysi, bosh miya elektorodiagnostik tekshiruvi, umumiylar tibbiy ko'rik hamda psixonevrologik tekshiruv, shuningdek, operatsiyaga psixologik jihatdan tayyorlash (koxlear implantatsiya qilingan boshqa mijozlar bilan tanishish orqali) kabi tadbirlarni qamrab oladi.

2. Jarrohlik (xirurgik) operatsiyasini amalga oshirish bosqichi.

3. Operatsiyadan keyingi bosqich. Bu bosqich operatsiyadan keyingi reabilitatsiya bosqichi deb nomlanib, avvalgi ikki bosqichdan eng ko'p vaqtini talab etishi, umumiylar tadbir uchun ajratilgan ishlarning 80% aynan shu davrda amalga oshirilishi lozim ekanligi, bu davrda o'tkaziladigan tadbirlarning murakkab ekanligi bilan yanada ulkan mas'uliyat talab etadigan, bolaning barkamolligiga erishishida, ijtimoiylashishida, jamiyatga uyg'unlashishida muhim o'rinni egallashi bilan ajralib turadi. Chunki aynan operatsiyadan so'ng audioloylar tomonidan eshitishni sozlash, surdopedagoglar tomonidan eshitish diqqatini rivojlantirish, bolalar nutqini o'stirish bo'yicha izchillik bilan amalga oshiriluvchi mashg'ulotlar koxlear implantatsiya qilingan shaxslar ijtimoiy hayotga uyg'unlashuvining muhim omili hisoblanadi.

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimida so'nggi vaqtarda inklyuziv ta'lim g'oyasi, respublikamiz sharoitida uni joriy etish masalalari tez-tez murojaat etilayotgan mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Jahon surdopedagogik amaliyotida, xususan, Rossiya olimlari I.V.Koroleva, V.I.Pudov, O.V.Zontova, O.S.Jukova, E.V.Mironova va b. tomonidan olib borilayotgan amaliy – korreksion-pedagogik ishlar natijasida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning KI yo'li bilan eshitishini qayta tiklash, ularni umumta'lim muassasalariga, jamiyatga uyg'unlashtirishning, ya'ni «eshituvchilar» jamiyatiga qaytarishning, ular barkamolligiga erishishning yana bir muqobil samarali yo'li ekanligi bir necha bor o'z isbotini topib kelmoqda. Davolovchi hamda korreksion-pedagogik ishlarga keng doiradagi mutaxassislar (tibbiyot xodimlari, audiolog, psixolog, defektolog va b.), shuningdek, mijoz (bemor) oila a'zolarining jalb qilinishi natijalarning muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omil ekanligini tasdiqlab kelmoqda.

Respublikamizda koxlear implantatsiya yo'li bilan eshitishni tiklash bo'yicha jarrohlik operatsiyalarining amalga oshirilishiga yaqin vaqtlardan kirishildi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti professori, tibbiyot fanlari doktori S.S.Arifov hamda tadqiqotchilar A.A.Tulyaganov, M.U.Mahmudovlar tomonidan xorij mutaxassislari bilan hamkorlikda Toshkent, Navoiy shaharlarida istiqomat qiluvchi zaif eshituvchi va kar bolalar eshitishi ilk marotaba jarrohlik yo'li bilan qayta tiklandi. Aytish joizki, jarrohlik operatsiyalari muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, 3-bosqichda o'tkazilishi lozim bo'lgan korreksion-pedagogik ishlarning mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilmaganligi, metodik yo'riqlarning ishlab chiqilmaganligi, bunday ish tizimi bilan tanish bo'lgan surdopedagoglarning yetishmasligi olib borilayotgan ishlarda biroz qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Respublikamizda koxlear implantatsiya yordamida eshitishni qayta tiklash, bunday shaxslar reabilitatsiyasi jarayonining samarali hal etilishini quydagi omillar bilan bog'liq deb hisoblanadi:

Bunday operatsiyalarning amalga oshirilishini keyingi yillar uchun qabul qilinuvchi Davlat dasturlariga kiritgan holda Sog'liqni saqlash vazirligi nazorati ostida, davlat, mahalliy budjet, turli

jamg'arma va homiy tashkilotlar mablag'larini jaib qilgan holda amalga oshirilishiga erishish.

KI yo'li bilan eshitishni qayta tiklash, bunday shaxslarning operatsiyadan keyingi reabilitatsiyasi, ular bilan olib boriluvchi ishlar borasida samaradorlikka erishish maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligi va Xalq ta'limi vazirligi faoliyatlarining muvofiqlashuviga erishish.

KI qilingan bolalar bilan olib boriluvchi korreksion-pedagogik ishlarning mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilishi, metodik ta'minotini yaratishni nazarda tutgan holda bu borada amalga oshirilayotgan ilg'or ish tajribalari, muammoga doir oid tibbiy, psixologik va pedagogik ada-biyotlarni o'rganish va tahlil qilish, o'rganilganlarni hududiy shart-sharoitlarni hisobga olgan ravishda joriy qilish maqsadida xorij mamlakatlarga mutaxassislar xizmat safarining uyuşhtirilishiga erishish.

Surdopedagog va logopedarlari tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari o'quv rejasiga mazkur mavzuda maxsus seminarlar kiritilishiga erishish.

Koxlear implantatsiya qilingan bolalar ota-onalari uchun farzandlari bilan olib borishlari lozim bo'lgan ishlar mazmuniga oid metodik vositalar yaratishni yo'lga qo'yish va ular bilan doimiy seminarlar tashkil etish.

Yuqoridaqgi vazifalarning amalga oshirilishi yangi yo'nalishda boshlanayotgan tadbirlarning samaradorligi hamda ijobjiy natijasi: bu guruhg'a mansub bolalar keyingi nogironligining oldini olish, shaxsiy barkamollikka erishishlari, ijtimoiy hayotda munosib tarzda o'z o'rinnarini topishlari, kelajagi buyuk mamlakatimizning mohir buniyodkorlari bo'lib yetishishlarini ta'minlaydi.

Tayanch tushunchalar:

Pedagogik tasnif – eshitish qobiliyatining pasayishiga ko'ra bolalarni guruhlarga jamlash.

Audiometriya – audiometr yordamida turli chastotali tovushlarni idrok etish chegarasini aniqlash orqali eshitish o'tkirligi va holatini tekshirish. A. yordamida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning eshitish darajasi aniqlanadi.

Gers (Gs) – tebranishlar chastotasini o'lhash uchun qabul qilingan xalqaro atama. Nemis olimi Genrix Gers nomiga atalgan. Tovush to'lqinlari, radioto'lqinlar, elektr toki tebranishlarining chastotalarini o'lhash uchun qo'llanadi. Sekundiga bir marotabalik tebranishga teng.

Desibel (Db) – tovush kuchi (jadalligi)ning o'lchov birligi bo'lib, karlik va zaif eshituvchilik o'rtasidagi eshitish chegaralarini aniqlashda foydalaniladi

Kompensatsiya – ta'lim-tarbiya jarayonida sog'lom sezgi a'zolariga tayanish yoki qisman buzilgan funksiyalarini qayta qurish orqali me'yordan chiqqan analizator o'rmini to'ldirish (qoplash).

Korreksiyalash – aqliy yoki jismoniy, nutqiy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning psixik va jismoniy taraqqiyotidagi me'yordan chetga chiqishlarni pedagogik usul va chora-tadbirlar yordamida qisman yoki butunlay bartaraf etish.

Koxlear implantatsiya (KI) – eshitish sezgilarini jarrohlik yo'li bilan qayta tiklash. Bunday operatsiya orqali qularda (qulohning ichki bo'limida) joylashgan eshitish nervlarining afferent tolalariga bevosita elektr qo'zg'atuvchilik vazifasini bajaruvchi elektrod tizim (sistema)larni ulash.

Savol va topshiriqlar

Surdopedagogika fani tadqiqot obyekti nima ?

Surdopedagogika qanday metodlardan foydalanadi?

Surdopedagogika rivojlanishining bosqichlarini ta'riflab bering

Pedagogik tasniflash tushunchasi nimani anglatadi?

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik tasnif ahamiyati.

Pedagogik tasniflashda biologik va ijtimoiy omillarning bog'liqligini ko'rsating.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun ta'lim-tarbiya muassasalari tavsifini yoritib bering.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning asosiy rivojlanish qonuniyatlarini izohlang.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun ta'lim-tarbiya muassasalarini tavsiflang.

2-bob. KAR BOLALAR MAK TABI DIDAKTIKASI

2.1. Kar bolalar maktabida ta’lim mazmuni

Kar bolalar maktabida ta’lim mazmuni deganda ta’lim jarayonida o‘quvchilar egallab olishlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning ma’lum bir hajmi va tizimi tushuniladi.Ta’lim mazmunini takomillashtirish o‘rganilayotgan fanlarning ro‘yxati, har bir o‘quv fani bo‘yicha material hajmini aniqlash o‘quv dasturlari va darsliklarda ortiqchalarini chiqarib tashlash, asosiy tushuncha va g‘oyalarni aniq yoritib berish, o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan ko‘nikma va malakalarning eng muvofiq hajmini belgilash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ta’lim mazmuni o‘quv rejasi, o‘quv dasturlari va darsliklarda yoritilgan.

Kar bolalar maktabining o‘quv rejasi. O‘quv reja davlat tomonidan tasdiqlangan hujjat bo‘lib, asosiy o‘quv fanlari belgilanadi. Unda o‘quv yillari bo‘yicha fanlarni o‘qitish tartibi, ketma-ketligi, har bir o‘quv faniga ajratilgan soatlar soni ko‘rsatilgan bo‘ladi.O‘quv rejasini tuzishda kar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning umumiy va nutqning rivojlanish darajasi e’tiborga olinadi, O‘quv rejasida kar bolaning umumiy va mehnat ta’limining o‘zaro bog‘liqligi nazarda tutiladi. Respublikamizda karlar maktabida fanlar umumta’lim maktablaridagidek bo‘lib, faqat musiqa va chet tili darslari o‘tilmaydi. Boshlang‘ich sinflarda esa maxsus o‘quv fani – predmet-amaliy ta’lim kiritilgan. Umumta’lim maktablaridan farqli karlar maktabining o‘quv dasturida umumiy soatlar soni va ularning o‘quv fanlariga ajratilishida tafovutlar mavjud. Har bir o‘quv fanini o‘rganishga vaqtini taqsimlashda ushbu fanning karlarga umumiy ta’limi berish tizimidagi ahamiyati va o‘rni, shu kurs bo‘yicha nazariy ma’lumotlar va amaliy ishlar hajmi, shuningdek, ularni kar o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish xususiyatlari e’tiborga olinadi. Kar bolalar maktabining o‘quv rejasi maxsus bo‘lib, eshitishni rivojlantirish bo‘yicha talaffuzni shakllantirish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar kiritilganligi bilan xarakterlanadi Maxsus korreksiyalash mashg‘ulotlari 0-5 sinflarida har bir o‘quvchi bilan yakka

holda, 6-10-sinflarda kichik guruhlarda olib boriladi(2-3 bola bilan). Kar bolalar maktabining o‘quv rejasi tushuntirish xati va o‘quv soatlarining taqsimlanishidan iborat. Tushuntirish xatida o‘quv yilining tuzilishi belgilanadi (choraklar va ta’tillarning ketma-ketligi, muddati), shuningdek, tashkiliy masalalar yuzasidan tavsiyalar beriladi.

Kar bolalar maktabining o‘quv dasturlari. O‘quv dasturlari o‘quv rejasi asosida har bir fan uchun tuziladi. Dasturlarda har bir fanni o‘qitishdan maqsad, uning mazmuni, bolalar egallash kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalar yoritib beriladi, o‘quv yillari bo‘yicha fanni o‘rganish tartibi ko‘rsatiladi. Kar bolalar maktabining boshlang‘ich va o‘rta sinflari maxsus dasturlar bo‘yicha, yuqori sinflari umumta’lim maktablari dasturlari bo‘yicha ishlaydi. Kar bolalar dasturlari umumiylar pedagogik talablar asosida tuziladi. Shu bilan birgalikda, kar bolalar tomonidan har bir o‘quv fani bo‘yicha bilimlarni egallash va amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish xususiyatlari e’tiborga olinadi. Dasturlarda u yoki bu bo‘limni o‘rganish jarayonida kar bolalar tomonidan egallanishi lozim bo‘lgan nutq materialining hajmi va xarakteri ko‘rsatiladi.

Kar bolalar maktablari darsliklari. O‘quv rejasi asosida va o‘quv dasturlariga muvofiq har bir fan bo‘yicha darsliklar tuziladi va ularda tizimli tarzda o‘quv fani mazmuni bayon etiladi. Darslikning asosiy vazifasi – kar o‘quvchilarning darsda olingan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishdir. Kar bolalar uchun maxsus maktablarning darsliklarini tuzishda umumiylar pedagogik va maxsus talablarini e’tiborga olish zarur. Maktab darsliklarining mazmuni ta’lim maqsadlari, maktab vazifalari, o‘quv dasturlariga, ilm-fan, texnikaning zamonaviy yutuqlari, fanlararo bog‘lanishlariga mos kelishi lozim. Unda asosiy ilmiy g‘oyalarning, nazariya, qonun tushunchalarining mohiyati yoritilishi, hayot bilan bog‘liqligi ochib berilishi kerak.

Darslikning metodik apparati kar o‘quvchilarda o‘rganilayotgan materialga qiziqish uyg‘onishini rivojlantirishga, ularni ijodiy faollashtirishga, nazariy va amaliy malakalarni shakllantirishga qaratilishi lozim. Metodik apparatda asosiy matnga kiritilgan yangi so‘zlar yuzasidan olib boriladigan lug‘at ishlari berilgan.

2.2. Kar bolalar məktəbida didaktik tamoyillarning amalga oshirilishi

Kar bolalar zamanaviy umumta'lim maktablari umumiylar pedagogikada asoslab berilgan didaktik tamoyillar tizimi, ilmiylik, onglilik va faollik, tushunarlılik, ko'rgazmalilik, puxtalik, yakka yondashish, izchillik va muntazamlik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi va boshqa tamoyillari bo'yicha ish olib boradi.

Ilmiylik tamoyili. Ilmiy bilimlarning egallab olinishini ta'minlash uchun kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining idrok qila olish imkoniyatlarini hisobga olgan holda eng muhim ilmiy ma'lumotlarni tanlab olish kerak. O'quvchilarining idrok qila olish imkoniyatlari jismoniy kuch va aqliy kuchlanish talab qiluvchi o'quv mavzulari va amaliy masalalarni izchillik bilan murakkablashib borish jarayonida kengayib boradi. O'quv materialining ilmiyliligi tushunarli bo'lish bilan uyg'unlashishi kerak. Bunga uni o'quvchilarining aqliy va ruhiy rivojlanishiga, shuningdek, ularning tayyorgarligiga moslashtirish bilan erishiladi. Bilimlar mazmunining tushunarlıligi kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida o'qishga qiziqish uyg'otadi, aqlga ozuqa beradi, mantiqiy fikrplashga, taqqoslash va xulosalar chiqarish, amaliy masalalarni yechishga majbur qiladi.

Kar o'quvchilarini o'qitish jarayonida nazariyani amaliyot bilan bog'lash tamoyili. Nazariyani amaliyot bilan bog'lash o'quvchilarini amaliy masalalarni hal qilishda nazariyaning ahamiyatini tushunishga olib keladi. Bu o'quv materiallarini o'zlashtirishda uning sifatini ko'taradi. Bu tamoyil mehnat ta'limi va o'quvchilarini amaliy faoliyatga tayyorlash vazifalarini hal qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'qitishda nazariya bilan amaliyotning bog'lanish xarakteri o'quv fanining mazmuni bilan taqozo qilinadi. O'qitishda nazariy bilimlar o'quvchilarini tabiatning u yoki bu hodisalar bilan amaliy tanishtirish jarayonida puxtarop o'zlashtirib olinadi. Bunda amaliyot o'quvchilarini nazariyani o'zlashtirishga qiziqtirish uchun undan oldinroq kelishi mumkin. O'quvchilarining jonli tabiat burchagidagi, shuningdek, o'simliklarning suvgi, issiqlikka, yorug'likka ehtiyojini, gul, manzarali o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga organik va mineral o'g'itlarning ta'sirini, pomidorning pishishi va hosildorligini aniqlash bo'yicha tajribalar o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan o'quv-tajriba maydonchasidagi mehnat

jarayonida nazariya bilan amaliyot bog'lanishi yaxshi amalga oshiriladi. Darslarda nazariyaning amaliyot bilan bog'lanishini amalga oshirib borishda shuni yodda tutish kerakki, o'quvchilarning amaliy faoliyati ularning nazariy bilimlarni o'zlashtirib olishga bo'lgan intilishlarini bo'shashtirmasligi lozim. Karlarni o'qitishda nazariyaning amaliyot bilan bog'lanishi uning barcha bosqichlarida amalga oshirilmog'i, nazariy bilimlarning chuqurlashishiga va amaliy faoliyatga tayyorlashga yordam berishi kerak. O'rganiladigan nazariy bilimlarning mazmuniga qarab, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning har xil shakllari mavjud.

Karlarni o'qitishda onglilik va ijodiy faollik tamoyili. O'quvchilarning bilimini ongliligi va ijodiy faolligi qoidasi: o'quvchilarning o'qishga ongli va ijodiy munosabatda bo'lishlarini; o'rganilayotgan materialni tushunib olishlari va tushunganlarini ifodalay olishlarini; o'qish faoliyatini ijodiy xarakterda bo'lishini; bilimlarning amaliyotda ongli qo'llanishi va ularning ishonchga aylanishini o'z ichiga oladi. Onglilik tamoyilini amalga oshirishda bosh rol o'qituvchiga taalluqlidir. U o'quvchi oldida turgan vazifalarни aniq qilib ifodalashi va ularni yaxshilab bajarishga qiziqish uyg'otishi kerak. O'qitishda onglilikning namoyon bo'lishining oliv shakli o'quvchilarning ijodiy faolligidir. Bilimni egallahsha onglilik mavjud bo'lsa, o'quvchilarda **ijodiy faollik shakllanishi ijobjiy samara beradi.**

O'qitishning ko'rgazmalilik tamoyili. Ko'rgazmalilik qoidalardan foydalanishning asosiy vazifasi o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirishdir. Bu tamoyil atrof-olamni bevosita qabul qilib olish asosidagi o'qitishni nazarda tutadi. Ko'rgazmalilik tamoyiliga rioya qilish tabiatni o'rganishning dastlabki bosqichlarida, ayniqsa, muhimdir. Chunki kichik yoshdag'i muktab o'quvchilar ko'rganlarida hosil qilgan xususiy taassurotlari asosida to'g'ri tushuncha va xulosalar hosil bo'lishiga yordam beruvchi to'la qimmatli bilimlar olishlari kerak. Tabiatshunoslikni o'qitishdag'i ko'rgazmalilikni mashg'ulotlar jarayonida faqat tabiiy jismlar foydalaniladigan yoki tajriba ko'rinishidagi hodisalarini eslatuvchi fanli ko'rgazmalilikka va tabiat jismlari yoki hodisalarining jadval, doskadagi rasm, model, mulyaj, diapozitiv, kinofilm, xarita, sxema va boshqalardan foydalaniladigan tasviriy ko'rgazmalilikka ajratish maqsadga muvofiqdir. Fan va tasviriy ko'rgazmalilikni amalga

oshirish asosida o'qitish, ayniqsa, bolalar rivojining dastlabki bosqichlarida, tafakkurni, kuzatuvchanlikning faollashishiga yordam beradi, o'rganilayotgan masalalarga qiziqishini oshiradi. Ularni oddiy tadqiqotlar olib borishga o'rgatadi, bilimlarni faol qabul qilishga yordamlashadi, ularni o'zlashtirib olish jarayonini osonlashtiradi, bilimlarning mustahkamligini ta'minlaydi.

Bilimlarni puxta o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil olingen bilimlarni, shakllantirilgan o'quv ko'nikmalar o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanishini nazarda tutadi. O'quvchilar bilimining puxta bo'lishi ko'rsatib o'tilgan tamoyillardan o'quvchilarning saviyasi hamda qiziqishiga qanchalik muvofiq tarzda foydalanilishiga bog'liq. Bilimlarning puxta bo'lishiga erishish uchun, avvalo, o'quv yili boshlanishida ilgari o'tilgan materialni yangi bilimlarning o'zlashtirilishini ongli bo'lishi uchun tiklash zarur. Birinchi navbatda, dasturning yangi material bilan ko'proq bog'liq bo'limlarini takrorlash lozim. Bunda yangi bilimlarini o'zlashtirishning birinchi bosqichida o'qituvchi o'quvchilar yangi materialni asosli ravishda tushunishlari va o'zlashtirib olishlari uchun uning barcha hajmini emas, balki asosiy mazmunini berishi kerak. Chunonchi, «Vatanimiz tabiatining xilma-xilligi» mavzusini o'rganishda o'quvchilarda avval o'lkadagi tabiiy sharoitning turli-tumanligi, keyin har bir hudud bilan tanishadilar. Bu yangi axborotlarni kiritib borish imkoniyatini beradi. Ular yordamida har bir hudud uchun xos bo'lgan xususiyatlarni, jumladan, o'simlik va hayvonot dunyosi aniqlanadi, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtiruvchi qo'shimcha ma'lumotlar berib boriladi. Puxta bilimlarga erishishda ularni o'quvchilarning faol fikr yuritishlari asosida tizimlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar yangi bilimlarni, ilgari o'rganilgan material bilan bog'lab, yaxshiroq o'zlashtiradilar.

O'qitishda muntazamlilik va izchillilik tamoyili. Atrofdagi olam haqida juda ko'plab ma'lumotlardan kichik yoshdagи mifik o'quvchilari uchun tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni, Vatanimiz tabiatining xilma-xilligini, jonajon o'lka tabiatini va boshqalarni ochib beruvchi, ta'lim-tarbiyaviy jihatdan ancha qimmatli o'quv materiali tanlanadi.

Materialning bunday berilishi shu bilan izohlanadiki, kichik yoshli mifik o'quvchilarining tabiat to'g'risidagi fan asoslarini faqat atrof-olamning jism va hodisalarini aks ettiruvchi ya ular o'rtasidagi

bog‘lanishlarni ochib beruvchi dastlab oddiy tabiiy obyektlar bilan, keyin esa murakkabrog‘i bilan izchil tanishtirib borish jarayonida egallab olishlari mumkin. Bu bilan o‘qitishda muntazamlilik tamoyili amalga oshiriladi.

O‘qitishning muntazamliligi, ya’ni tizimliligi bilimni bayon qilishda muayyan tizimga amal qilishdan tashqari amaliyat bilan bog‘lanishning xilma-xil shakllari amalga oshirilishini, jumladan, nazariy bilimlarini kuzatishlar va bilib olishga qaratilgan qiziqarli o‘yinlar bilan; atrofdan hayot va qurilish amaliyoti bilan; mehnat ta’limi va ijtimoiy foydali mehnat bilan; maktaboldi uchastkasidagi ish va unumli mehnat bilan bog‘lanishini nazarda tutadi.

Yakka yondashish tamoyili. O‘rta ta’lim tizimini qayta qurish sharoitida bolalarning yakka xususiyatlарини о‘рганиш tobora katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Maktabga kirayotgan har bir bola muayyan axborot yig‘indisiga va yakka xususiyatlarga ega, ular bilimlarni o‘zlashtirish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi. Biroq o‘qitish jarayonida bolalar guruhida bilimlarni o‘zlashtirish darajasi bir xil bo‘lishi mumkin. Binobarin, bolalar rivojida to‘g‘ri keladigan umumiylikni aniqlash mumkin. U rivojlanish darajasi, bilim zaxirasi, fikrlash xarakteri, faoliyat va xulq-atvor baholarining o‘xshashligi bo‘lishi mumkin.

Ammo umumiylilik bilan bir qatorda, har bir o‘quvchi uchun o‘zining yakka xususiyatlari: diqqatining rivojlanishi, darsdagi xulq-atvorining xarakteri, fanga munosabati, ko‘rgazmali va og‘zaki materialni qabul qilishining tezligi va aniqligi; o‘quv materialini tushunib olishi va fikrlash xarakteri; tabiat to‘g‘risidagi bilimlarining sisfati va og‘zaki hamda yozma nutqlarining rivojlanish darajasi o‘ziga xosdir.

O‘qituvchi, sinfda ish olib bora turib, har bir o‘quvchi bilan yakka tarzda ishlash, ijobiy hislarni rivojlantirish va salbiylarini bartaraf qilish, sinfni jamoa ishiga tortish maqsadida har bir bolaning shaxsiy qobiliyatini o‘рганиш va hisobga olish zarurligini unutmasligi kerak.

Korreksion yo‘nalganlik tamoyili. Korreksion yo‘nalganlik tamoyili bolaning sog‘lomligiga tayanishni, kar bolaning rivojlanishida kompensator imkoniyatlarini ta’minlashni nazarda tutadi. Kar bola sog‘lom miyaga ega bo‘lib, ko‘rgazma-harakatli va ko‘rgazma-obrazli darajada atrof dunyonи aks ettirib anglay oladi.

Ifodali harakatlar tizimini – imo-ishorali nutqni egallab, muloqotga kirishish ehtiyojini qidiradilar. Karlarda yo'qolgan, buzilgan eshitish funksiyasini qisman ko'rish, kinestetik va boshqa analizatorlar faoliyati egallaydi. Saqlanib qolgan ko'rish idrokiga tayanish karlarda nutq a'zolarining ko'rindigan harakatlari orqali og'zaki nutqni idrok etishning maxsus metodi – labdan o'qishni shakllantirishga imkon beradi. Bunda labdan o'qishning sifati tinglovchining faolligiga bog'liq. Bunday qarama-qarshi faollik, eng avvalo, kutilayotgan xabarni ehtimollahda, so'zlarni aks ettirib talaffuz etishda, berilayotgan barcha ma'lumotlarni qayta ishslashda namoyon bo'ladi. Kar bolalar maktabining o'quv rejasи ham korreksion yo'nalganlik tamoyilini e'tiborga olgan holda tuzilib, unga talaffuzni shakllantirish va eshitish idrokini rivojlantirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, predmetli-amaliy o'qitish fanlari kiritilgan. Korreksion yo'nalganlik tamoyili har bir darsda amalga oshiriladi. Surdopedagog bolalarda og'zaki nutqni shakllantirishga, bilish faoliyatini rivojlantirishga harakat qiladi, yangi tushunchalarni hosil qilayotib o'qituvchi saqlangan barcha analizatorlarning ishini faollashtiradi. Korreksion yo'nalganlik tamoyili og'zaki metodlar bilan birgalikda ko'rgazmali va amaliy metodlarni qo'llashni nazarda tutadi.

Fan asoslarini va so'zlashuv nutqni o'zlashtirish jarayonining birligi tamoyili. Umumta'lim maktab o'quvchilar fan asoslarini maktabgacha yoshda saqlangan eshitish asosida kattalar va tengdoshlari bilan aloqa qilishda shakllangan nutq yordamida o'zlashtirib olsalar, kar o'quvchilarda esa fan asoslarini va so'zlashuv nutqni egallah jarayonlari o'zaro aloqadordir. Lug'at zaxirasini boyitish va grammatik ko'rilihini shakllantirish karga fan asoslarini egallah jarayonini osonlashtiradi va aksincha, fan asoslarini egallah o'quvchilar lug'atini yanada boyitib, og'zaki nutqni rivojlantiradi. Kar bolalar maktabining dasturlarida o'quv fani bo'yicha dastur mazmunini o'zlashtirish ishlari bilan parallel ravishda nutqni rivojiantirish ishlari zarurligi maxsus ta'kidlab o'tilgan.

Fan asoslari va og'zaki nutqni o'zlashtirish jarayonining birligi tamoyili boshlang'ich sinf o'qituvchisi va fan o'qituvchisidan kar o'quvchilar nutqining barcha tomonlarini (fonetik, grammatik, leksik) korreksiyalashni talab etadi. Bu, o'qituvchidan sinfning va har bir o'quvchining nutq imkoniyatlarini bilishni, o'quvchining nutqiga yakka ish mazmunini e'tiborga olgan holda talablar qo'yishni nazarda

tutadi. Ushbu tamoyilga asoslanib, fan o'qituvchisi o'z fani bo'yicha turli atamalarni o'zlashtirishdan tashqari bolalar tomonidan boshqa fanlarni o'rganishda to'plagan lug'atini faollashtirishni amalga oshiradi. O'quvchilarни sinonimlar, antonimlar turli umumlashtiruvchi so'zlardan faol mashq qildirish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarda bog'langan nutqning og'zaki va yozma shakllarini dialogik va monologik nutq malakalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berishi kerak.

Ta'limda karlarning eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyili. Ta'limda eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyili kar bolalarni atrofidagi odamlar nutqini eshitish, ko'rish asosida, apparat yordamida aniq va to'liq idrok etish maqsadida qoldiqli eshitish ehtiyojini imkonli bor darajada rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ushbu tamoyil asosida kar bolalar uchun umumta'lim mакtablarining o'quv rejasi tuzilgan bo'lib, unda eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish bo'yicha yakka mashg'u-lotlarga alohida vaqt ajratilgan.

«Eshitish idrokini rivojlantirish» predmeti dasturida eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha ishlarning vazifalari, mazmuni va tashkiliy shakllari ko'rsatib berilgan. Asosiy talab ta'limni nutq eshitish sharoitida ovozni kuchaytiruvchi asboblardan keng foydalanish orqali amalga oshirishdir.

Eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyili eshitishni mashq qilish va sensor bazani kengaytirishning shunday didaktik sharoitlarini hosil qilishga yo'naltiradiki, unda har bir bola faqatgina eshitish, ko'rish, kinestetik, daktıl-tebranuvchi(vibratsion) sezgilaridan bir vaqtning o'zida foydalanib borayotgan akustik ma'lumotlarni interpretatsiya qilishgagina o'rganmasdan, balki unda ijobjiy motivatsiya, nutqni eshitishida foydalanish ehtiyojini ishlab chiqadi. E.P.Kuzmichevaning ma'lumotiga ko'ra, eshitish mashqlari natijasida 1-sinf o'quvchilari 150 tagacha, 2-sinf o'quvchilari qo'shimcha 200 ta so'z, 3-sinf 300 ta yangi so'zni ajrata oladi.

Predmetli-amaliy faoliyatga tayanish tamoyili. Predmetli-amaliy faoliyatga tayanish tamoyili kar bolani har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda, o'quvchilarни umumta'limga tayyorlash va kasbiy yo'naltirishda predmetli-amaliy faoliyatining turli ko'rinishlaridan maxsus korreksiya vositasi sifatida keng foydalanishni nazarda tutadi. Predmetli-amaliy faoliyat sharoitida kar

o‘quvchilarning bilim faoliyati takomillashadi. Fanlardan amalda foydalanish (ko‘zdan kechirish, paypaslab, ushlab ko‘rish, qilish-yasash) obyektlarning turli xususiyatlari va sifatlarini, ular orasidagi ba’zi muhim munosabatlarni eshitishni rivojlantirishga yordam beradi. Predmetli-amaliy faoliyatning turli xillari kar o‘quvchida hayotiy tushunchalarni shakllantirish, fikrlash operatsiyalarni, mantiqiy bog‘lanishlarni o‘zlashtirib olish jarayonini osonlashtiradi. Bunday faoliyat jarayonida kar o‘quvchilar atrofdagi hodisa va voqealarning mantiqiy aloqadorligini o‘rnatish ko‘nikmasini tezroq egallaydilar. Predmetli-amaliy faoliyat harakat, obyekt xususiyatlari va sifatlarini nomlarini beixtiyor eslab qolishini ta’minlaydi va so‘z mantiqiy hodisalarini rivojlantirishga yordam beradi. Predmetli-amaliy faoliyatga tayanish tamoyilini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish o‘quvchilarning darsda turli ish shakllarini tashkillashtirish bilan bog‘liq (jamoali, guruhli, juft bilan, yakka holda).

Nutqiy muloqotni jadallashtirish tamoyili. Tilni o‘rganish, nutqiy aloqa karlar uchun korreksiya va kompensatsiyaning muhim vositasi sifatida ahamiyatga ega. Nutqiy muloqotni jadallashtirish tamoyili tilning kommunikativ funksiyasini amalga oshirish, karlarda nutq asosida aloqa qilish ehtiyojini shakllantirish, o‘quv-tarbiyaviy jarayoning barcha bo‘g‘inlarida o‘quvchilarning keng nutqiy amaliyotini ta’minalash zarurligini ko‘rsatadi.

Nutqiy aloqani jadallashtirish tamoyili nutqni dakti, og‘zaki va yozma shakllarda shakllantirishni nazarda tutadi. Dakti nutqi muloqotning boshlang‘ich shakl sifatida kar bolaga so‘zlarni og‘zaki va yozma shakllari o‘zlashtirilmagan vaqtida taqlid orqali dakti belgilari yordamida ifoda etishni ta’minlaydi. Dakti nutq og‘zaki va yozma nutqning shakllarini o‘zlashtirib olishni tezlashtirish vositasidir.

Yozma nutqni o‘zlashtirish bolaning nutqiy muloqotni jadallashtirish maqsadiga xizmat qiladi. Bunda nutqiy kommunikatsiyaning hisobot, ariza, xat va hokazo shakllariga alohida ahamiyat beriladi.

Og‘zaki nutq dakti bilan bir vaqtida shakllanadi. Asosiy tovushlarni o‘rganib olib, (fonemalarning qisqartirilgan tizimi) bolalar atrofdagilar bilan aloqa qilish uchun dakti shaklda o‘zlashtirib olgan zarur nutqiy materiallardan foydalana oladilar.

Tilning alohida nutq vositasi sifatida o‘rganib olish og‘zaki nutqni to‘g‘ri idrok etish, tushunarli talaffuzsiz iloji yo‘q. Ularning

sifatini oshirish uchun bolada rivojlanayotgan eshitishiga tayanish lozim. Nutqiy muloqotni eshitishni rivojlantirish bo'yicha ishlar barcha o'quv va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda zarur komponent-nutqiy aloqani jadallashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

Nutqiy muloqotni jadallashtirish tamoyilini amalga oshirish kar o'quvchilarida nutq ko'nikmalarining kompleksini shakllantirishda namoyon bo'ladi. Ularga barcha fanlar bo'yicha darslarda rivojlantiradigan savollarga javob berish, savol tuzish, o'z munosabatini, faoliyatini, topshiriqni bajarganligini ifodalovchi nutqiy ko'nikmalar kiradi. Nutqiy aloqani jadallashtirish tamoyiliga sinfdan tashqari vaqtida pedagogik jihatdan tashkil etilgan turli kommunikativ sharoitda amalga oshiriladigan nutqni rivojlantirish ishlari ham kiradi. Ushbu tamoyilni amalga oshirishning yana bir yo'li mактабда yagona nutq tartibini tashkil etish. Pedagogik jarayon tomonidan o'quvchilar nutqiga qo'yiladigan talabning yagonaligi o'quvchilarning aloqa qilish sharoitini yaratib berishdan, moyilligini mohiyatli ravishda amalga oshirish o'quvchilarning darsdagi turli ish shakllaridan: jamoali, guruqli, yakka holdagilardan iborat.

2.3. Kar bolalar maktablarida fan asoslariga o'qitish metodlari

O'qitish jarayonida turli xil metodlardan foydalaniladi. Bu metodlar, birinchi navbatda, kar o'quvchilarning fiziologik va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Kar bolalarni o'qitish jarayonida foydalaniladigan metodlarni shartli ravishda 3 guruhga bo'lamiz: umumiy, maxsus va xususiy.

Umumiy metodlar. Bu metodlarga barcha tipdag'i o'quv muassasalarida o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlar kiradi. Bunda ommaviy maktablarda o'qitiladigan barcha fanlarda bu metodlardan foydalaniladi.

Maxsus metodlar. Bunda kar bolalar maxsus maktabida o'quv rejasida ko'zda tutilgan ma'lum bir o'quv fanini o'zlashtirish, o'qitishda qo'llaniladigan metodlar tushuniladi. O'quv materialining ahamiyatli tomonlari va shu o'quv materialining kar bolalar tomonidan o'zlashtirish xususiyatlariiga tayaniladi, muhim metodologik metodlar, o'qitishning tashkiliy shakllaridan foydalaniladi.

Xususiy metodlar. Xususiy bo'limlar ustida ish olib boruvchi surdopedagoglar tomonidan qo'llaniladigan metodlar, ya'ni kar

bolalarning so‘zli nutqini muomala vositasi sifatida shakllantirish, talaffuz va labdan o‘qishga o‘rgatish kabi ishlarda qo‘llaniladigan metodlar.

Fan asoslarini o‘qitishning ko‘rgazmali metodlari. *Kuzatish metodi* – atrof-olamni hissiy biliishning faol shakli bo‘lib, fan va hodisalarning obyektiv faoliyati haqida dastlabki tasavvurlarni paydo qiladi. U kar bolalarning aqliy rivojlanishining muhim manbaidir. Bu ishga asosiy diqqat kar bolalarni o‘qitishning dastlabki bosqichlarida ajratiladi. Atrof olamni o‘rganish kuzatuv metodidan foydalanish uchun katta imkoniyatlar ochib beradi.

Namoyish metodi – o‘rganilayotgan fanlar, hodisalar bilan hissiy-ko‘rgazmali tanishtirishdir. Bunda o‘quvchilarda obrazli tasavvurlar shakllanadi. Kar bolalar mакtabida namoyishning turli shakllari (tabiatda mavjud bo‘lgan narsalar namoyishi, ularning tasviri, kinofilm va diafilmlar ko‘rsatish, sxemalar, jadvallar, xaritalar ko‘rsatish va hokazolar)dan foydalaniлади.

Fan asoslarini o‘qitishning so‘zli metodlari. *Hikoya* – kar o‘quvchilarning bilimlarni muayyan tizimda o‘zlashtirishlariga ko‘maklashadigan amaliy materialni jonli, obrazli, emotsiонаl bayon qilishdir. Surdopedagog so‘zi kar o‘quvchilar bilimlarining muhim manbaidir. Hikoyaning qimmatliligi shundaki, qisqa vaqt ichida o‘qituvchi kattagina hajmli ma’lumotlarni berishi mumkin. O‘qitish metodi sifatida hikoya o‘quvchilarning bilimlarini yangi amaliy material bilan to‘ldirish zarur bo‘lganida qo‘llaniladi. Ushbu metod barcha sinflarda jami o‘quv fanlarini o‘qitishda ishlatiladi. O‘qituvchining nutqiga qo‘yiladigan talablar nihoyatda muhimdir. U artikulatsiyaga zo‘r bermasligi, yuzi yaxshi yoritilgan, nutqi aniq; ifodali, ravon, barcha orfoepiya me’yorlariga rioya qilingan bo‘lishi kerak. O‘qituvchining nutq sur’ati nutqiy material xususiyati va o‘qitish bosqichiga bog‘liq bo‘ladi. Kichik yoshdagи bolalar sinflarida hikoyadan foydalaniлganda surdopedagogning nutqi me’yordan sekinlashgan, aniq, lekin tabiiy artikulatsiyali bo‘lishi darkor. O‘quvchilarning ko‘rib, eshitib qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanib borgan sayin o‘qituvchin’ ; nutqi so‘zlashuv sur’atiga ega bo‘la boradi.

Tushuntirish – so‘zli metodi ishlatilishi jarayonida hodisalar qonuniyatları ochib ko‘rsatiladigan, sabab-oqibat bog‘lanishlari aniqlanadigan so‘zli metoddır. O‘qituvchining tushuntirishida hamisha

mulohaza, isbot va xulosalar ko‘p bo‘ladi. Uning tushuntirishi o‘qitilayotgan hodisalar va qonun-qoidalar mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Tushuntirish o‘quvchilararning faol fikrlash faoliyatini nazarda tutadi. Bunda o‘quvchilararning mustaqilligi, ularning kitob bilan, ko‘rgazmali va didaktik material bilan ishlay olishi muhimdir. Pedagog vazifasi – zaruriy yordam ko‘rsatgan holda karlarning amaliy va fikrlash faoliyatiga mohirlilik bilan boshchilik qilishdir. Tushuntirish fan asoslarini o‘qitish metodi sifatida maktab amaliyotida hikoya, suhbat, ko‘rgazmali va amaliy metodlar bilan birga ko‘riladi.

Suhbat. Monologik bayondan farqli o‘laroq, suhbat dialogik so‘zlashuv metodidir. Uning qimmati shundaki, u surdopedagogga o‘quvchilar faoliyatini ancha faollashtirishga imkon beradi. Muloqotning savol-javob shakli kar o‘quvchilarida dialogik nutqni shakllantirishga ko‘maklashadi. Suhbat turlicha pedagogik maqsadlar bilan o‘tkazilishi mumkin. Shunga ko‘ra, uning xususiyati va o‘tkazish uslubiyati o‘zgaradi. Jumladan, surdopedagog amaliyotida kirish suhbat keng qo‘llaniladi. Shu jarayonda surdopedagog kar bolalardagi bilimlar darajasi, hajmi va xususiyatlarini aniqlaydi. Bunday qilish keyingi ishlar uchun va materiallarni o‘qitish metodlarini belgilash uchun boshlang‘ich nuqta bo‘ladi. Kirish suhbat kar o‘quvchilarning ilgari o‘zlashtirgan bilimlarini dolzarblashtirish va ularni yangi materialni qabul qilishga tayyorlashga yordam beradi. Suhbat o‘tkazishda surdopedagogning savollarni tanlashi va ta’riflashi eng qiyini hisoblanadi. Savollar kar o‘quvchilar haqiqiy bilimlarini aniqlashgagina emas, balki hodisalarning sababiy bog‘lanishini, o‘zaro aloqadorligini tushunib olishga, ularning mohiyatini anglashga qaratilishi lozim. Bu esa o‘quvchilarni evristik izlanishga rag‘batlantiradi. Suhbat boshqa metodlar: suhbatga kiritsa bo‘ladigan hikoya, suhbatga qo‘srimcha qilinadigan namoyish va hokazolar bilan uzviy bog‘langandir. Xususiyatiga ko‘ra suhbat axborot – reseptiv, reproduktiv yoki izlanish metodlariga kiritilishi mumkin. Uni o‘tkazishning mantiqiy yo‘li ham turlicha bo‘lishi mumkin. Suhbat usulidan foydalanganida kar bolalar fikrlash faoliyatining kuchayishi bilan bir qatorda ularda nutqni ko‘rib qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, eshitib qabul qilishni rivojlantirish, shuningdek, nutqning to‘g‘ri talaffuzi ustida ishslash uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Fan asoslariga o'qitishning amaliy metodlari. *Darslik va kitob bilan ishlash* – kar o'quvchilar uchun muhim bilim o'chog'i hisoblanadi. Kar o'quvchilarning kitob bilan ishlashi birinchi o'quv yildan boshlanadi. Sinfdan sinfga ko'chgan saralash faoliyatları murakkablashadi. Bundan tashqari, surdopedagog darslik bilan ishslashgina emas, kar o'quvchilarni turli toifadagi lug'atlar va ma'lumotnomalardan foydalanishga ham o'rgatadi.

Amaliy ishlar – o'quvchilar bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlashga, shuningdek, bilimlarni amaliyotda qo'llash, nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi aloqani o'rnatishga qaratiladi. Amaliy ishlar bilim va malakalarни shakllantirishda kar o'quvchilarning mustaqilligini va bilish faolligini rivojlantirishda, ularni hayot va mehnat faoliyatiga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Amaliy ishlar barcha sinflarda, barcha o'quv fanlarini o'zlashtirishda qo'llaniladi. Karlar maktabining quyi sinflarida amaliy ishning o'ziga xos ko'rinishi o'quvchilarning ko'rgazmali amaliy faoliyatidir. Bunga quyidagilar kiradi: predmetli-amaliy faoliyat, o'ichov ishlari faoliyati va boshqalar. Kar o'quvchilarning quyi sinflarida predmet amaliy ta'lim (predmetli-amaliy ta'lim) faoliyatining qurish-yasash, applikatsiya modellash, konstruktorlash ishlari keng tarqalgan.

Mashq – o'qitishning muhim metodlaridan biridir. Bu metod kar bolalar maktabining barcha o'quv fanlarini o'qitishda keng qo'llaniladi. Mashqning metodikasi va xarakteri o'quv fanining xususiyatlariiga, aniq materialga va o'zlashtirilayotgan savolga bog'liq. Mashq qoida bo'yicha qayta tiklovchi (reproduktiv) metodga tegishlidir. Mashqlarni rejalashtirish asosida surdopedagog sinf rejasini va har bir o'quvchining yakka xususiyatlarini inobatga olishi lozim.

O'qitishning o'ziga xos xususiy metodlari. Surdopedagoglarga ushbu metodlarning ilmiy-nazariy asosi va tavsifi berilgan. Uillardan biri kar o'quvchilarning so'zlashuv nutqini shakllantirish hisoblanadi. Shuningdek, kar o'quvchilarning eshitish idrokini shakllantirish ishlari o'quv-tarbiya jarayonining o'ziga xos jihatni hisoblanadi. Uning vazifasiga kar bolalarning saqlangan qoldiq eshituvini maksimal darajada rivojlantirish, nuqtijiy ovozler o'lamni haqidagi tasavvurlarini bay'ish kirdi.

2.4. Kar bolalar mактабида о‘кув фаолиятини ташкіл етіш шақллари

O‘quvchilarga назарий bilim va amaliy mahoratni o‘rgatish alohida tashkillashtirilgan shakllarda olib boriladi. Umumiy pedagogikada o‘кув jarayonining ko‘p qirrali shakllari ishlab chiqilgan: dars, uy vazifasi, orqada qoluvchi o‘quvchilar bilan mashg‘ulot, ekskursiyalar, ixtiyoriy ravishda o‘tiladigan dars. Amaliyotda, kar bolalar ta’limida ushbu shakllar keng qo‘llaniladi. Kar bolalar mактабида ulardan tashqari, umumiy o‘рta mактабдаги каби o‘кув jarayonini tashkil etish uchun maxsus shakllar qabul qilingan. Ularda eshitish qobiliyati, talaffuzni shakllantirish va musiqали-ritmik mashg‘ulotlarni rivojlantirish bo‘yicha yakka mashg‘ulotlar olib boriladi. *Dars* – o‘кув jarayonining asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Bu o‘кув jarayonining shunday birligiki, unda ta’limning tuzilishi, tamoyil va metodlari mujassamlashadi. Ta’limning umumididaktik tamoyillari darsga qo‘yiladigan quyidagi talablarni belgilab beradi:

- belgilangan vazifalar bo‘yicha darsning maqsadini va o‘кув jarayonini aniqlash; mакtab dasturi talablari va o‘quvchilar imkoniyatlari hamkorligida dars tuzilishini rejashtirish;
- o‘quvchi tomonidan boshqariladigan va o‘quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan ta’limning metod va metodlarini qo‘llash; o‘quvchilarning yoshi va yakka xususiyatlaridan kelib chiqqan holda murakkablik darajasi va ko‘lamini aniqlashtirish;
- qatnashuvchilar qiziqishini ta’minlovchi ta’limning kuzatuv choralarini qo‘llash;
- shaxsning dunyoqarashi va har tomonlama rivojlanishini shakllantiruvchi darsning tarbiyaviy vazifalarini hal qilish;
- o‘quvchilar bilan yoppasiga, guruhli va yakka ishni tashkil etish imkoniyatini ta’minalash.

Darslarda nutqning turli shakllaridan foydalanib, darsning mazmuni, maqsadidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning yoshi, eshitish darajasi va nutqiy rivojlanishiga qarab aniqlanadi. Ta’limning birinchi bosqichida og‘zaki va daktil nutq birgalikda qo‘llaniladi. Daktil nutq o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda yordamchi vosita hisoblanadi. Yangi bilimlarni shakllantirishda o‘qituvchi og‘zaki va yozma nutqni qo‘llaydi. Quyi sinflarda o‘qituvchi tomonidan 10-15

daqiqa davomida so‘zlanayotgan materialni o‘zlashtirish o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘diradi. Ular tezda charchashadi va o‘qituvchi nutqini kuzatishni to‘xtatishadi. Shuning uchun o‘qituvchining og‘zaki tushuntirish ishlari doskada yozuvlar bilan mustahkamlanadi. Shu metod bilan o‘quvchilararning tushunish darajasi tekshirib boriladi. Pedagogikada shartli ravishda darsning quyidagi elementlari ajratib ko‘rsatilgan.

Darsning boshlanishini tashkil etish o‘z oldiga o‘quvchilarни ishga ruhan tayyorlashni, xonada ish muhitini tashkil etishni maqsad qilib qo‘yadi.

O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmasini tekshirish ular bilimining faoliyatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Yangi materialning kiritilishi o‘qituvchi va o‘quvchining yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirishdagi birgalikdagi hamkorligiga tayanadi. Bunda o‘quvchilarning yangi materialni o‘zlashtirishdagi mustaqillik darajasini hisobga olish tavsiya etiladi.

Yangi materialni mustahkamlash o‘quvchilarning yangi materialni tushunishni tekshirish maqsadida olib boriladi. Avvalgi o‘rgangan ma‘lumotlar bilan aloqa o‘rnataliladi.

Darsning yakuni o‘quvchilarning darsdagi o‘quv ishlarini, uy vazifasining ko‘lami va xarakterini tahlil qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Kar bolalar maktablarida darslar umumta’lim fanlar asosida xususiy va maxsus darslar bilan birgalikda olib boriladi. Umumta’lim va maxsus darslar darsning tuzilishini aniqlab beruvchi tipologiya asosida ko‘riladi. Yangi bilim va malakalar bilan boyib boruvchi, bilimlarni tekshiruvchi va korreksiyalovchi darslar qandaydir birorta didaktik masalani hal qiladi.

Uy vazifasi darsdan qo‘lga kiritilgan bilimlarni mustahkamlaydi va o‘quvchilar mustaqil mehnat asoslarini rivojlantiradi. Kar o‘quvchilar o‘zining uyga topshirilgan o‘quv mehnatini rejalashtirishni, darslik orqali qo‘lga kiritilgan materiallarni yig‘ishni o‘rganadilar. Uy vazifasini bajarish sifati talaygina omillarga bog‘liq: darsda o‘quv materialining tushunarilik darajasi; o‘quv ishining sinfda va internatda o‘zaro bog‘liq bo‘lishi; internat sharoitida uy vazifasining tashkil etilishi; o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi (bilimlarining sifati, nutq va fikrlash faoliyatining shakllanishi).

Fakultativ mashg'ulot – biror o'quv fani bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish maqsadida olib boriladigan mashg'ulotning asosiy shakli. Asosiy vazifasi – o'quvchilar bilimlarini kengaytirish, ularning qiziqishini, qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish. Kar o'quvchilar mакtabida bu mashg'ulotlar 9-10-sinflarda o'tkaziladi. O'quv rejasi bo'yicha ularga haftada 3 soat ajratiladi. Bu qo'shimcha darslar til, adabiyot, matematika, mehnat ta'llimi va boshqa (mакtab ma'muriyati tomonidan belgilangan) fanlar bo'yicha olib boriladi.

Yakka mashg'ulotlar eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish bo'yicha 20 daqiqa davomida o'tkaziladi. Bunda 10 daqiqa eshitish idrokini rivojlantirishga va 10 daqiqa to'g'ri talaffuzni shakllantirishga ajratiladi.

Musiqali-ritmik mashg'ulotlar maqsadi bolalarning eshitish qobiliyati va harakat faolligini rivojlantirishdan iborat. Mashg'ulotlar tuzilishi ikki qismga bo'linadi: birinchi qism turli ritmik harakatlar bajarish mashg'ulotlaridan iborat: ikkinchi qismda kar bolalar turli xil musiqali ritmlarni anglash mashg'ulotlari bilan shug'ullanishadi.

Ekskursiyalar o'qitishni tashkil qilish shakli sifatida bilish faoliyatini rivojlantirish hamda tarbiyaviy jarayonni jadallashtirish borasida katta qimmatga ega. Ekskursiyalar davomida turli metodlardan foydalaniлади (kuzatish, tushuntirish, amaliy mashg'ulot). Quyidagi ekskursiyalar turlari farqlanadi: fanlarga oid, kasbga yo'naltirish bo'yicha, nafosat tarbiyasiga qaratilgan, siyosiy-g'oyaviy tusdagi va boshqalar. Fanlarga oid ekskursiyalar kar o'quvchilarning ma'lum san bo'yicha fikrlesh doirasini kengaytiradi, amaliy bilimlarini rivojlantiradi. Kasbga yo'naltirish bo'yicha ekskursiyalar ishlab chiqarish korxonalarida olib borilib, kar o'quvchilarni zamonaviy ishlab chiqarish jarayoni hamda mehnat sharoitlari bilan tanishtiradi. Nafosatlari ekskursiyalar o'quvchilar umumiy madaniyatini rivojlantiradi. Tarixiy obidalarni xotirlash va muzeylarga olib boriladigan ushbu ekskursiya turi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda fuqarolik va vatanparvarlik hissini uyg'otadi.

Eshitish nuqsoni bor bolalar bilan olib boriladigan ekskursiya o'zining qator xususiyatlariga ega. Ekskursiya o'tkazilishiga qadar pedagogik tayyorgarlik ko'rish talab etiladi: ekskursiya maqsadi haqida ma'lumot berish; yo'nalish bilan tanishtirish; yangi atamalar bilan tanishtirish uchun zarur bo'lgan lug'at ishi; qatnashuvchilarning

mustaqil ishlashlari uchun kerak bo‘lgan yakka va jamoa mashg‘ulotlarini tashkil qilish.

Tayanch tushunchalar

Ta’lim – bolalarni bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ongiga va xulqiga ta’sir etish, bilish faoliyatini rivojlantirish.

Tarbiya – bolalarga ilmiy bilimlar tizimini singdirish va buning natijasida har tomonlama shakllangan kishini tarbiyalash.

O‘quv dasturi – har bir o‘quv fanidan o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning mazmuni va hajmini belgilab beruvchi o‘quv rejasiga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan hujjat.

Bilim – ta’lim mazmunining asosiy elementi bo‘lib, o‘quvchilar tomonidan atrof borliqdagi fan va hodisalarни, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini bilib olish natijasidir.

Ko‘nikma – muayyan faoliyatni bajarish qobiliyatini ta’minlovchi metodlar yig‘indisini egallash.

Predmet amaliy ta’limi (PAT) – mehnat ta’limning boshlang‘ich bosqichi.

Savol va topshiriqlar

Kar bolalar maktabida «ta’lim mazmuni» deganda nima tushuniladi?

Kar bolalar maktabi o‘quv rejasining o‘ziga xosligi nimalardan iborat?

Kar bolalar zamonaviy umumta’lim maktablari qanday didaktik tamoyillarga asoslanadi?

O‘qitishda og‘zaki, ko‘rgazmali va amaliy metodlar bilan o‘quvchilarning bilim faoliyati qanday rivojlantiradi?

Dars o‘qitishni tashkil etishdagi asosiy shakl ekanligi tushunchasini yoritib bering.

Yakka mashg‘ulotlarda eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish bo‘yicha qanday ishlar amalga oshiriladi?

Musiqali-ritmik mashg‘ulotlar maqsadi nimani ko‘zda tutadi?

3-bob. ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR MAK TABI DIDAKTIKASI

3.1. Zaif eshituvchi bolalarni o'qitish mazmuni

Zaif eshituvchilar maxsus ta'limi uzoq davom etuvchi tarixga ega. Eshitishni yo'qotgan bolalar bilan olib borilgan ilmiy izlanishlar o'qituvchi va shifokor tomonidan yuzaga keldi (16-asr). Bu masala karlik va kar-soqovlikni klinik o'rganish bilan hal qilinari edi. Shuningdek, eshitish qoldig'ini rivojlantirish imkoniyatlari ham ko'rib chiqildi. Zaif eshituvchi bolalar maxsus ta'limida eshitishning pastligi sababli ulgurmovchi o'quvchilarga katta ahamiyat berilgan.

Eshitishni yo'qotgan bolalarni kuzatib, o'qituvchi ularga qarata aytilgan, turli shovqin va tuzilishdagi murojaatini eshitishga, lug'at boyligiga, iboralar tuzishiga e'tibor bergan. Ularning nutqi juda sodda bo'lib, fonetik va grammatic munosabatda o'ta zaifligi bilan ajralib turadi. Ba'zi surdopedagoglar bunday bolalarni kar-soqov bolalardan ajratib, alohida o'qitishni tavsiya etganlar (eshitish qoldig'i bilan bog'liq holda). Ba'zilari esa qulog'i og'ir bolalarning nutqi yomonligini, tashqi ko'rinishlarida nuqson kamligini hisobga olib kar-soqovlar bilan birga o'qitish kerakligini aytishgan. 3-toifa pedagoglar esa bu guruhdagi bolalarda alaliya nutq nuqsoni bor deb e'tirof etishgan (ular nutqni tushunishmaydi yoki eshitishi buzilganligi tufayli yomon gapiradilar). 4-guruh o'qituvchilar bolalarda murakkab nuqsonlarni topishga harakat qilganlar: afaziya ko'rinishida nutqning buzilishi. 5-toifa o'qituvchilar bosh sababini eshitishning pastligi deb hisoblaganlar: bolalarga qaratilgan nutqning chuqur shovqinda bo'lishidə ularning maxsus ta'limi muammosini amaliy jihatdan yechishi mumkin.

Yomon eshituvchi va qulog'i og'ir bolalarning anomal rivojlanishini ko'rib chiqib, ularni qanday maktabda o'qitish kerakligi haqidə turli fikrlar kelib chiqdi. Bu muammo kar-soqov o'quvchilarni yakka o'qitishdan guruhli o'qitishga o'tishda yaqqol namoyon bo'ldi. Eshitishi nuqsonli bu toifadagi bolalar uchun birinchi muammo XIII asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropada va XIX asrning

boshlarida Rossiyada ochildi. Bizning mamlakatimizda ham ularni differensial o'qitish turli usulda hal qilingan. Maxsus maktablar tashkil etilgunga qadar qulog'i og'ir bolalar ayrim hollarda ommaviy maktablarda ta'lif olishar edi. Kar-soqov bolalar uchun maktablarning yuzaga kelishi ularning yomon eshituvchi bolalar bilan bir sinda birga o'qish imkoniyatini shakllantiradi. Lekin bunday bolalarning ko'pchiligi maktablarda o'qitilmas edi.

Kar-soqov o'quvchilar maktabida eshitish qoldig'iga ega bo'lgan bolalar ham uchrab turar edi. Ularni «eshitish sinflari» deb atalgan maxsus sinflarga ajratishga urinardilar. Ilmiy tasnifning yo'qligi nutqiy rivojlangan, yaxshi ulguruvchi kar-soqov o'quvchilarning ham aralashib ketishiga olib keldi (maxsus ta'lif natijasida).

«Eshitish sinflari»dagi ta'lif jarayoni kar-soqov o'quvchilar ta'lidan farq qilmasa-da, eshitishi saqlanib qolgan bolalar o'zlarining potensial imkoniyatlarini boshqara olishmasdi.

XIX asrning oxirida qulog'i og'ir o'quvchilar ommaviy maktabdan ajratib olindi. Bu esa kutilgan natijani bermadi, chunki eshitishi past o'quvchilar uchun ta'lif metodlari, usullari, tamoyillari ishlab chiqilmagan edi. Qulog'i og'ir o'quvchilarni labdan o'qishga o'rgatish to'liq emas edi. Bu qiyinchiliklarga ommaviy maktab tarkibida qulog'i og'ir o'quvchilarni komplektlash muammosi qo'shildi.

Qulog'i og'ir o'quvchilarni og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bilan birga o'qitish masalasi ham vujudga kelgan edi (alalik va boshqalar). Bunday maktablar ba'zida «eshitish va nutqida nuqsoni bor bolalar maktabi» deb yuritilar edi. Aqli zaif bolalar maktabitagi kabi bu maktabda ham bolalar zarur rivojlanishni qo'nga kirita olmas edilar – ularda ta'lif samarasiz edi. Zaif eshituvchilarning asosiy qismi ommaviy, kar-soqov va aqli zaif o'quvchilar maktabida qolib ketishi davom etaverdi.

XIX–XX asrlardagi urinishlar zaif eshituvchilar uchun 1-sinflarning ochilishiga sabab bo'ldi. Zaif eshituvchilarni ajratib o'qitish jarayoni uzoq davom etsa-da, ulardagи pedagogik jarayon ommaviy maktab pedagogik jarayonidan farq qilmas edi. O'quv rejasiga kiritilgan turli o'zgarishlar maxsus ta'lif muammosini hal qilib bera olmadi.

Zaif eshituvchi bolalar maktablarida ta'lif tuzilishini aniqlash uchun ta'lif-tarbiyaning umumiy va maxsus vazifalari hisobga olinadi. Bu vazifalar zaif eshituvchi bolalar rivojlanishi hamda

nuqsonini bartaraf qilish uchun zarur bo‘lgan tamoyillar bilan uzviy bog‘liqidir. Zaif eshituvchi bolalar mакtablarida maxsus vazifalar katta ahamiyatga ega. Zaif eshituvchi bolalar mакtablaridagi ta‘lim tuzilishi maxsus o‘quv rejalaridagi dasturlari va darsliklarda ajratib ko‘rsatiladi hamda o‘rta maktab ta‘lim tuzilishi bilan quyidagi tomonlari o‘xshashdir:

- zaif eshituvchilarga beriladigan ta‘lim o‘rta umumta‘lim mакtablardagi kabi olib boriladi;
- o‘quv dasturlari va rejalarida fanni xususiyatlarini hisobga olib, izchillik tamoyili amalga oshiriladi (ba‘zi fanlar avvalroq, boshqalari kechroq, ayrimlari esa keyinroq o‘rganiladi);
- maxsus mакtablardagi ta‘lim o‘rta mакtablardagi kabi xalq ta‘limi tizimining uzlusizlik tamoyili asosida tashkil etiladi;
- dasturlar tuzilishi assosiy didaktik tamoyillarga mos keladi.

Dasturlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tuziladi. Alovida dasturlar fanlarning ichki va o‘zaro aloqasini ta‘minlaydi.

Shuningdek, maxsus mакtablarda ta‘lim tuzilishi mehnatga tayyorgarlik, eshituv qobiliyatini rivojlantirishni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Bunday vaziyatlarda zaif eshituvchi bolalar mакtabida o‘quv reja dasturlari quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi.

1. Zaif eshituvchi bolalar mакtabi o‘zining tuzilishi bilan birga uch xil turdagilari o‘quv rejasiga ega bo‘ladi: I bo‘lim uchun, II bo‘lim uchun, yordamchi sinflar uchun.

I bo‘lim uchun o‘quv rejasida 11 yil (0-10-sinflar) davomida o‘quvchilarga beriladigan o‘rta ta‘lim nazarda tutiladi.

II bo‘lim uchun o‘quv rejasida 13 yil (0-12-sinflar) davomida o‘quvchilarga beriladigan o‘rta ta‘lim nazarda tutiladi.

Yordamchi sinflarga ajratilgan o‘quv rejasiga 9 yil davomida boshlang‘ich mакtablardagi umumta‘limiy hamda mакtabni yakunlashda mustaqil mehnat faoliyatiga kasbiy tayyorgarlikni ta‘minlaydi.

2. Fanlarning o‘quv rejasiga kiritilish ketma-ketligi, o‘qish yillari va muddati o‘quvchilarning nutqiy va aqliy rivojlanishiga bog‘liq holda tashkil qilinadi.

3. Zaif eshituvchi bolalar mакtablaridagi o‘quv rejalarini o‘rta maktab o‘quv rejalaridagi bo‘lim va fanlarni o‘z ichiga oladi: talaffuz

va eshituv qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha yakka ish, musiqali-ritmik mashg'ulotlar (yordamchi sinflarda).

4. Zaif eshituvchi bolalar maktabining o'quv rejasida «Ona tili» o'quv fani katta ahamiyatga ega bo'lib, bu fan maxsus maktablarda o'rta maktablardagi kabi atalsa-da, lekin uning tuzilishi, vazifalari, yo'nalishi, tamoyillari jihatidan ma'lum xususiyatlarga ega. Maxsus maktablarda bu fanning o'rganilishi birinchi o'rinda o'quvchilarning aqliy va sensor rivojlanish hamda nutqiy tayyorgarligini ta'minlaydi. Uni o'rganish uchun vaqt ko'proq ajratiladi. Bu fan bilan «tevarak-atrof bilan tanishish», «eshituv qobiliyatni rivojlantirish», «talaffuzga o'rgatish» fanlari uzviy bog'liqlir.

5. Zaif eshituvchi bolalar maktabining o'quv rejasida matematika, tevarak-atrof bilan tanishish, tarix, tabiatshunoslik va boshqa fanlarni o'rganish uchun vaqt ajratilgan. Bu, birinchi navbatda, nutqiy xususiyat qiyinchiliklarini bartaraf qilish bilan bog'liq.

6. Zaif eshituvchi bolalar maktabining asosiy vazifasi o'quvchilarni mehnatga faol qatnashishga tayyorlashdan iborat. Shuning uchun o'quv rejasiga «mehnat ta'limi» fani kiritilgan.

Matematika, tabiat haqidagi bilim va boshqa bilimlarning asosiy xususiyatlari shundaki, ularning har biri o'rganilayotgan material bilan hamkorlikda nutqiy rivojlanishni ko'rib chiqadi. Birinchi bo'limning o'quvchilari o'rta maktabning dastur va darsliklari bilan ta'lim olishadi. Ikkinci bo'lim o'quvchilari 1-3-sinflarda maxsus darslar bo'yicha o'qitiladi. Bu darsliklarda lingvistika, tafakkur va nutq psixologiyasi, umumiylididaktika, ikkinchi tilga o'rganish metodikalari, shuningdek, o'rta maktablardagi nutqni rivojlantirish metodikasi asoslari o'rin olgan.

3.2. Zaif eshituvchi bolalar maxsus ta'limi metod va vositalari tizimining umumiylididaktika tavsifi

Zaif eshituvchilar maktabida qo'llaniladigan metodlar o'z ichiga quyidagi tizimlarni oladi: maktab ta'limi fanlaridagi tilga o'rgatish va nutqni shakllantirish metodlari; fan asoslarini o'rganish metodlari; eshitish qobiliyatini rivojlantirish va undan foydalanish metodlari.

Zaif eshituvchilar maktablaridagi barcha ta'lim metodlari o'quvchilar tomonidan o'quv materialining qabul qilinishi polisensor tusda bo'lishiga mo'ljallangan. Pedagogik jarayon o'qituvchida

nutqning so‘z, tovush talaffuzining nuqsonlarini bartaraf qilish, korreksiyalashga doimiy e’tibor berishni talab qiladi. Tilni o’rganish va nutqni shakllantirish metodlarini qo’llash katta ahamiyatga ega. Metodlarning asosiy xususiyatlari shundaki, o’qituvchi bilan bilim va malakalar vazifasini hal qilish bilan bir vaqtning o’zida o’quvchilarning ko’rgazmali-obrazli va tushunchali tafakkurini hisobga olgan holda nutqiy rivojlanishini shakllantirilaadi.

Zaif eshituvchilar ta’limida qo’llaniluvchi metod va qo’llanmalarning asosiy tomonlari materialni qabul qilishdan tortib to mustahkamlangunga qadar bo’lgan pedagogik jarayonning barcha bosqichlarida namoyish bo’ladi. Ularning har birida nutq korreksiyasi usullari qo’llaniladi. Nutqning rivojlanmaganligi tafakkurning shakllanishida, bilim va malakalarning mustahkamlanishida katta qiyinchiliklar tug’diradi. Maxsus ta’limda tushuntirish, suhbat, demonstratsiya, amaliy mashg’ulot, kitob ustida ishlash, kuzatish kabi umumididaktik metodlarning qo’llanilishi zaif eshituvchi bolalarga mos keluvechi ko’rgazmali qurollar va til materiallaridan foydalanish bilan uzyiy bog’liqdir. Nutqning og’zaki, yozma va daktil shakllari bir-biri bilan uzyiy bog’liq va bir-birini to’ldirib turadi. Zaif eshituvchilar maxsus maktabida xususiy vositalar qo’llaniladi. Bular: ovoz kuchaytiruvchi apparatlar, yakka eshituv apparatlari, talaffuzni korreksiyalovchi va shakllanishini yengillashtiruvchi o’quv qurollari (shpatel, zont, daktil)dir. Yozuv va o’qish zaif eshituvchi bolalar uchun nafaqat bilimlarini o’zlashtirish uchun eng qulay metod, balki tilni o’rganishda asosiy manba bo’lib hisoblanadi. Zaif eshituvchilar ta’limida ko’rgazmali vositalar (tabiiy obyektlar, ularning grafik tarzda ifodalanishi syujetli rasmlar, maketlar, ekran qurollari), birinchi navbatda, o’quv materialini namoyish qiladi, ikkinchidan esa uning mazmunini ochib beradi. Tushunchalarning shakllanishida yordam beruvchi ko’rgazma - harakat vositalari va metodlari katta ahamiyatga ega. Ularga inssenirovka, dramatizatsiya, pantamimo misol bo’la oladi. Bu metodlardan foydalanish fanlar orasidagi aloqani belgilashda yordam beradi.

Zaif eshituvchilar maktabida umumiyligi metodlardan foydalish. Fan asoslariga o’qitishning umumiyligi metodlari o’quvchilarning materialini o’zlashtirish bosqichlarini c’rganishni o’z ichige oladi.

Darsda o’qituvchi tomonidan turli fanlarning o’quv rejasi bo’yicha qo’llaniluvchi ta’lim metodlari o’quvchilar didaktik

materialini o'zlashtirish bilan birga amaliy faoliyatning turli ko'rinishlarini shakllantirish imkoniyatini boradi. Bu maxsus metodlarning ishlab chiqilishida o'z ifodasini topadi. Ularning har birida o'quv ishlarining bilim va malakalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi mashqlar to'plami mujassamlashgan. Mashqlar to'plami grammatik tushuncha va malakalarni shakllantirish hisobiga ishlab chiqilgan.

Zaif eshituvchilarни tilga o'rgatish va nutqni shakllantirish vazifalarining murakkabligi barcha umumdidaktik metodlar kompleksining qo'llanilishini talab qiladi.

Og'zaki so'zlashuv nutqning rivojlanishi uchun dialog va suhbatlarning ko'rgazmali vaziyatlardagi turli ko'rinishlari katta ahamiyatga ega. Monologik nutqning shakllanishi uchun og'zaki va yozma hikoya, insho bo'yicha tuzgan mashqlar samarali natija beradi. Adabiyot va o'qish darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish maqsadida o'qish, hikoya, suhbat, reja tuzish, og'zaki hikoya tuzish metodlaridan foydalanadi.

Maxsus metodikadagi matematika ta'limida matematik bilimlarning nutqiy rivojlanish hamda tafakkur hamkorligidagi aniq yo'nalishlari ishlab chiqilgan va takomillashib bormoqda. Bu matematik bilim va malakalar mehnat ta'limi, maktab uchastkasidagi mashg'ulotlar bilan uzviy bog'liqdir.

Geometrik materialni o'rganish asoslari amaliy yo'nalishda olib boriladi (kvadrat, aylanmalar, uchburchaklar va h.k.).

Zaif eshituvchilar maktabida tabiat kursidan dars berish muhim ahamiyatga ega. Bu fan vazifalarining samarali yechish sharti, bolalarni tabiat bilan aloqasini va nutqiy faoliyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlardan foydalanish hisoblanadi: ekskursiyalar, kuzatishlar, joylarda amaliy mashg'ulotlar, malakalar, mustaqil ishlar, narsa va hodisalarni taqqoslash, maktab uchastkasidagi o'quv ishlari, suhbatlar, mehnat faoliyatini kuzatish va tahlil qilish. Tabiatning tabiiy obyektlarini o'rganish ta'limning turli ko'rgazmali vositalaridan foydalanish bilan birga olib boriladi. Dasturda asosiy e'tibor o'quvchilarning amaliy bilim va malakalarga bo'lgan munosabatiga qaratiladi. Darslarda tahlil, taqqoslash, sintezlash metodlaridan keng foydalaniladi. Bularning barchasi mantiqiy tafakkurning takomillashishi va shakllanishi uchun xizmat qiladi.

3.3. Zaif eshituvchi bolalar maktabida o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari

Maxsus maktablarda o‘quv mashg‘ulotlari dars shaklida olib boriladi. Dars shaklini qo‘llash uchun qo‘yilgan barcha umumiyl talablar zaif eshituvchi bolalar maktabidagi o‘quv jarayoni uchun dolzarb hisoblanadi. Har bir dars bolalarning bilimlarini rivojlantiradi, yangi bilimlarni o‘zlashtirishda mustaqillikka o‘rgatadi, tarbiyaviy masalalarni hal qildi. U yoki bu chora-tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi barcha darslar bolalarda mehnatga bo‘lgan sevgini, odamlar mehnatni tarbiyalaydi.

Zaif eshituvchi bolalar maktabida o‘tiladigan dars maxsus ta’limga mos keluvchi xususiy talablar bilan belgilangan xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar, birinchi navbatda, maxsus ta’limning bosh muammosi, ya’ni o‘quvchilarining nutqiy rivojlanmaganligini bartaraf qilish bilan bog‘liq. Barcha darslar va mashg‘ulotlarning boshqa shakllari qaysi fan o‘tilishidan qat’i nazar o‘quvchilar nutqini rivojlantirish, ularning nutqiy muloqotini kengaytirish uchun xizmat qiladi.

O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda quyidagi masalalar hal qilinadi:

- 1) ta’limning tashkillashtirilgan shakllarini tanlash, ularning o‘quv jarayonidagi o‘rnini va ahamiyatini aniqlash;
- 2) darsdagi yoppasiga, guruhli, yakka ishlarning o‘zaro aloqadorligi;
- 3) o‘quvchilarining nutqiy faolligini rivojlantirish bilan bog‘liq faoliyatning turli ko‘rinishlari aloqasi;
- 4) bolalarning mustaqil ish va mashg‘ulotlari orasidagi optimal munosabatlarni o‘rnatish.

Birinchi masalaning hal qilinishida mashg‘ulotlarning mavjud shakllaridan foydalanish samarali natija beradi. (dars, yakka mashg‘ulotlar, uy vazifalarini bajarish, o‘quv-tarbiya ishlari, sinfdan tashqari ishlar).

Zaif eshituvchilarining maktabi boshlang‘ich sinflarda eshituv qobiliyati va talaffuzni rivojlantirish ustida olib boriladigan yakka mashg‘ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus maktab o‘quvchilarining uy vazifalarini bajarishlari nafaqat dars materialini mustahkamlashda maqsad qilib oлади, balki nutqiy amaliyotni

kengaytirish uchun ekskursiyalar, qo'shimcha darslar barchasi muloqotga o'rgatsa, ikkinchi tomondan nutqni rivojlantirish, mustahkamlashni o'z ichiga oladi. Bunda nutqni shakllantirish bo'yicha tashkil etilgan ishlar turlicha bo'lishi mumkin.

Nutqiy material bilan birinchi bor tanishganda, ekskursiya, obyektlarni kuzatish, o'yinlarda leksika va frazeologiyani qo'llash samarali natija beradi.

Maxsus maktablarda mashg'ulotlarni yakkalashtirish, qatnashuvchilarga yordam ko'rsatish ommaviy mакtab bilan solishtirganda, birmuncha yuqoridir. Darsdagi ishning guruhli shakllari o'quvchilar nutqining tuzilishini, shuningdek, ularning muloqotini tashkil etish, o'rganish imkoniyatini beradi. Yoppasiga, yakka, guruhli ish shakllarida darsda o'zaro tekshirish va o'zaro yordam munosabatlarini shakllantiradi.

Bolalar faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi va tarbiyachi zaif eshituvchilarda og'zaki va yozma mustaqil ishlar olib boradi. Boshlang'ich bosqichlarda bu masalani hal qilishda birmuncha qiyinchiliklarga duch keladi. Bolalarning mustaqil ishlari ko'p xato va noaniqliklarni o'zida mujassamlashtiradi. Bu noaniqliklarni bartaraf qilish o'qituvchidan qat'iy yondashishni talab qiladi. Bunday vaziyatda nutqni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan nutq tuzilishi jarayonining qiyinchiliklarini eslash lozim.

Eng katta talab maxsus maktablarda o'qituvchi va tarbiyachining nutqiga qo'yiladi. Ularning nutqi deyarli baland, intonatsiyasi saqlanib, pauzalar bilan ajratilgan bo'lishi shart. Bunda barcha fikriy va hissiy ifoda vositalari qo'llanilgan bo'lishi shart (mantiqiy urg'u, ritm, tembr). O'qituvchining nutqi yaxshi tushunarli bo'lish uchun unda nutqdan tashqari komponentlarning qo'llanilishini talab qiladi: yuzning mimika ifodasi va tabiiy imo-ishoralar. Barcha mashg'ulotlarda o'qituvchi muloqotning og'zaki shakllari bilan birga yozma va daktil shakllarini qo'llaydi. Bular talaffuz xatolarini korreksiyalash, yangi leksikani kiritish, grammatik xatolarni tuzatish uchun qo'llaniladi.

Aytib o'tilgan vositalar o'rganilayotgan materialning o'zlash-tirishi bosqichlari, o'quvchilar nutqiy rivojlanishining darajasiga bog'liq.

3.4. Zaif eshituvchi bolalar maktabida tilga o‘qitish tizimi

Tilga o‘rgatish – zaif eshituvchilar maktabida muloqotning to‘liq vositasini shakllantirish vazifasini ko‘rib chiqadi. Nutqiy rivojlanmaslikni bartaraf etish nafaqat maxsus fan sifatidagi tilga o‘rgatishning zarur sharti, balki mehnatga tayyorgarlikning asosi hisoblanadi.

Nutqni shakllantirish va uni tuzatish bir-biriga bog‘liq vazifalarni yechishni taqozo qiladi.

Bolalarda nutqni tushunishni rivojlanterish yo‘nalishidagi ish o‘qituvchining sinfga va alohida o‘quvchiga qarata aytgan topshirig‘i, buyrug‘i, aniq vaziyatni o‘z ichiga olgan sodda murojaatini tushunishni o‘rgatishdan boshlanadi. Keyinchalik ularni faol nutqda qo‘llashni boshlaydilar. Yangi nutqiy materialni tushunishni rivojlanterish doimo birinchi darajada turadi. Zaif eshituvchilarning og‘zaki nutqi eshituv-ko‘ruv asosida qabul qilinadi.

Labdan o‘qish malakasini shakllantirish ikki xil yo‘nalishda olib boriladi: dars va darsdan tashqari paytidagi nutqiy muloqot jarayonida va maxsus mashqlarni bajarish paytida. Labdan o‘qishning muvaffaqiyatli bo‘lishi nutqning tuzilishi va talaffuzini o‘rganish bilan belgilanadi.

Og‘zaki nutqni samarali shakllantirish o‘qituvchining nutqini qabul qilishdan boshlanadi. So‘ngra o‘quvchilarni turli so‘zlardan ibora qurishga, fikrni mustaqil ifodalashga o‘rgatiladi.

Og‘zaki nutq ta’limning birinchi bosqichida iboralardan, keyinchalik darak va so‘roq gaplardan foydalaniadi.

Og‘zaki nutqning leksik-grammatik tomonlarini shakllantirish talaffuz malakalarini rivojlanterish va korreksiyalash bilan uzviy bog‘liq. To‘g‘ri, aniq, ifodali og‘zaki nutqni shakllantirish vazifasi ta’limning birinchi uch yilligida hal qilinadi. Keyinchalik talaffuz ustida ishlash korreksjon xarakterga ega bo‘ladi. Talaffuz malakalarini rivojlanterish yakka mashg‘ulotlarda, maxsus darslarda, shuningdek, o‘quv-tarbiya ishi jarayonida olib boriladi.

Dialogik va monologik nutqqa o‘rgatish. So‘zlashuv nutqi malakasini rivojlanterish o‘quv mashg‘ulotlarda, o‘yin, mehnat, tasviriy faoliyat jarayonida olib boriladi. Bu ishda o‘quvchilar dialogik nutqning turli ko‘rinishlarini o‘zlashtiradilar (iltimos, savol-javob, bajarilgan topshiriq haqida ma‘lumot). Suhbat mavzulari doimo

murakkablashadi. Monologik nutq qurilishidagi mashqlar tilning barcha komponentlarini rivojlantirishni nazarda tutadi va o'quvchilardan nutqiy materialni mobilizatsiyalashni talab qiladi.

Yozma nutqqa o'rgatish zaif eshituvchilar mакtabida nafaqat asosiy didaktik masala, balki nutqni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Zaif eshituvchilarning nutqi va fikrlashini rivojlantirishda yozma ishlar muhim o'rин tutadi. Bu ishlar o'quvchilarning nutqiy imkoniyatlarini faollashtiradi, nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Mustaqil insholarda yo'l qo'yilgan xatolar ustida ishslash, mashg'ulotlarning turli ko'rinishlarida nutqni rivojlantirish mashqlarining asosiy qismi hisoblanadi.

Nutqning lug'at asosini shakllantirish. Nutqni shakllantirish bo'yicha ish tizimi, bolalardagi so'zlarni korreksiyalash, lug'atini boyitishni nazarda tutadi. Lug'at ishida asosiysi — og'zaki va yozma nutqda so'zdan to'g'ri foydalanishga o'rgatish, nutqning grammatik qurilishini shakllantirish, o'qish mashg'ulotlari. Bundan tashqari, lug'at ishi bolalarda so'z muloqotini shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Nutqning grammatik qurilishini shakllantirish. Grammatik mashg'ulotlarning asosiy maqsadi tilga o'rgatishning boshlang'ich bosqichida so'zlar o'rtasidagi munosabatni ifodalashdan iborat, Nutqning grammatik qurilishi lug'at ustida ish bilan bog'liq holda olib boriladi. Amaliy grammatik malakalar morfologiya va sintaksis qonunlari asosida rivojlanadi. Grammatik kategoriyalar nutqiy amaliyotda o'zlashtiriladi. Ularning har birini o'zlashtirish uchun bolalarga yordam beriladi.

Til tizimi bilan boshlang'ich tanishuv. Til birliklari, uning strukturalari o'quvchilar oldida til vositalarini bilish imkoniyatlarini ochib beradi. Bu esa, ularning nutqiy malakasini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib beradi. Tilga o'rgatish jarayonida o'quvchilar kuzatishga, tahlil qilishga o'rganadilar. Bu esa, ularga o'z nutqini tekshirishga yordam beradi. Grammatika darslardagi bilimlar so'zlarning leksik ma'nosining kengayishi va chuqurlashishini ta'minlaydi.

Til mashg'ulotlari — o'rganish obyekt sifatida atrofdagi olamni anglashga, fonetika, grammatika, to'g'ri yozish malakasini rivojlantirishga, turli mashqlarni bajarish usullarini egallashga, darslik va jadvallar bilan ishslashga o'rgatadi.

Tilga o'rgatish bo'yicha ishni tashkil etish tamoyillari. Zaif eshituvchilarни tilga o'rgatish o'qituvchidan ularning nutqini ko'p tomonlama va sistematik o'rganishni talab qiladi. U zaif eshituvchilar nutqi xususiyatlarini ajratishga qaratilgan. Nutqni o'rganish talaffuz, lug'at, grammatik malaka ustida ishslash bilan olib boriladi.

Zaif eshituvchilarни tilga o'rgatishda mashg'ulotlarning kommunikativ yo'nalganlik tamoyili tashkil etiladi. Bu tamoyil hamkorligida tilga o'rgatish maxsus ta'lim jarayonini o'quvchilar nutqiy amaliyotining maxsus ishlab chiqilgan tizimi kabi ifodalash mumkin. Nutqni shakllantirish vazifasi muloqot vositasi sifatida o'quvchilar faoliyatidan kelib chiqib hal qilinadi. Maktab-internatda bolalar jamoasining turli faoliyatları orasida aloqa o'rnatish uchun imkoniyat yaratiladi. O'quv jarayoni, o'yin, ekskursiya, bolalar mehnati – bularning barchasi tevarak hayotni anglash va nutqni rivojlantirish orasida aloqa o'rnatishni hisobga olib rejalashtiriladi.

O'qituvchi, tarbiyachi, kutubxonachi bir-biri bilan aloqaga kirishish, nutqiy muloqotni tashkillashtirishda o'zining vazifasini belgilab oladi.

Zaif eshituvchilarda nutqni shakllantirish va uni tuzatish ularning barcha ruhiy jarayonlarni rivojlantirish bilan bog'liq holda olib boriladi. Bu qoidaga asoslanib, o'qituvchi o'zining e'tiborini bolalarning sensor rivojlanishiga qaratadi.

Talaffuzga o'rgatish, eshituv-ko'ruv qobiliyatini rivojlantirish, eshitish qoldig'idan foydalanish nutqning sensomotor asosini takomillashtirishni nazarda tutadi. Maxsus ta'limda foydalanuvchi turli mashqlar, ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotirani tarbiyalashga qaratiladi. (masalan, o'yinlarda). O'quvchilar mustaqil nutqining sistematik, maxsus rejalashtirilgan xatolar ustida olib boriladigan ishlar nutqiy rivojlanmaganlikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi va u nutqiy amaliyotning ko'rinishlaridan biridir. Xatolar va ularni tuzatishga e'tiborni qaratish lug'atni boyitishga, grammatik malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zaif eshituvchi bolalar ta'limida nutq ko'rinishlari va shakllari maxsus rol bajaradilar.

Bu vazifaning belgilanishi nutqning lingvistik, psixologik, didaktik xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Nutqning turli shakllari va ko'rinishlaridan differensial foydalanish tamoyili bilan hamkorlikda o'qituvchi sinf bilan muloqot

o‘rnatadi. Nutqning turli shakllari o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi. Yangi leksika, grammatikani mustaqil o‘zlashtirish zaif eshituvchi bolalarning nutqiy rivojlanishi uchun asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun o‘quv jarayonida qo‘llaniluvchi nutqiy zaxirani bartaraf qilish va korreksiyalash tilga o‘rgatishning muhim tamoyili hisoblanadi. Zaif eshituvchilar matabida ona tiliga o‘qitish bo‘yicha dastur o‘quvchilar nutqiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Nutqiy faoliyatda til materiali va til sistemasini o‘rgatish fikrlashning mazmunini ifodalovchi tushunchalar qiymatini o‘zlashtirish uchun yordam beradi.

Kuzatishlar bo‘yicha, maxsus maktablarda tilga o‘rgatishning mazmuni zaif eshituvchi o‘quvchilarning aqliy rivojlanish dasturi bo‘lib hisoblanadi. Dasturda tilga o‘rgatishning vazifalari ham belgilab berilgan. Bu ikki usulda olib boriladi: birinchidan, amaliy talablarni o‘zlashtirishda o‘quvchilarga til manbaalari haqida ma’lumot beriladi (2-4-sinflar), ikkinchidan, 4-sinfdan boshlab «Grammatika va to‘g‘ri yozish» bo‘limi kiritiladi.

Ona tiliga o‘rgatish dasturi bir nechta bo‘limlarni o‘z ichiga oladi.

Savod o‘rgatish.

Bu bo‘limning mazmuni o‘z ichiga o‘qish va yozish malakalariga bo‘lgan talablarni oladi. Ularda ko‘nikmalar aniqligi belgilanadi, shuningdek, zaif eshituvchilarda shakllanayotgan asosiy sharoitlar belgilab berilgan. Talablarga muvofiq holda savodga o‘rgatish dasturi og‘zaki nutqda korreksion-rivojlantiruvchi vazifani bajaradi.

«Savodga o‘rgatish» bo‘limi bo‘yicha ishning mazmuni «Nutqni rivojlantirish», «Eshituv qobiliyatini rivojlantirish», «Talaffuzga o‘rgatish», «Nutqning grammatik tomonini shakllantirish» bo‘limlari bo‘yicha olib boriladigan ish mazmuni bilan bog‘liq.

O‘qish. Bu bo‘lim qator talablarni o‘z ichiga oladi va to‘g‘ri, ifodali o‘qishni tarbiyalaydi. O‘qish mashg‘ulotlari bolalar nutqini shakllantirish va korreksiyalashda muhim o‘rin egallaydi. Ular o‘quvchilarning tevarak olam haqidagi boy imkoniyatlarini ochib beradi.

Matn bilan ishlashda o‘quvchilar o‘qilgan matnni mustaqil baholashni, matn mazmunini o‘zining hayot malakasi bilan bog‘lashni o‘rganadilar. Bu bo‘lim to‘rtta qismni o‘z ichiga olgan: «O‘qish

tematikasi», «O‘qish malakasi», «Matn bilan ishslash», «Sinfdan tashqari o‘qish».

Nutqni rivojlantirish. Bu bo‘lim ona tili darslaridagi nutqiy muloqotning maxsus tashkil etilgan amaliyoti asosiy qismining bajarilishini talab qiladi. Bu bo‘limda o‘quvchilar nutqiga kiritilishi kerak bo‘lgan so‘zlarining leksik-semantik guruhlari ko‘rsatib o‘tilgan. Bo‘limda o‘quvchilarining nutqiy ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablar murakkablashib boradi. Dasturda ko‘rsatilgan nutqiy ko‘nikma va malakalar, til materiallari orasida bo‘lim mavzulari alohida o‘rin tutadi. «Yozish va nutqni rivojlantirish», «Tevarak olam bilan tanishtirish». Sinflar bo‘yicha mavzular taqsimlanishi turlichadir.

Yozma nutqqa o‘rgatish ta’limida o‘quvchilar gap tuzishga, rasmlarni ta’riflashga, xat yozishga, insho yozishga, badiiy adabiyot qahramoniga xarakteristika berishga o‘rganadilar.

Nutqning grammatik qurilishni shakllantirish. Bu bo‘limning talabi o‘quvchilarining faol nutq va grammatik nutq vositalarini egallashini ta’minlashi kerak.

Grammatik kategoriyalar shakli va mazmunining birligi tamoyili boshlang‘ich bosqichda grammatik mohiyati va ikkilamchi sifatda – ifodalashning til vositalari bo‘lib hisoblanadi.

O‘quvchilarining o‘z fikrini ifodalashning grammatik vositasini o‘zlashtirish bo‘yicha dasturning ushbu bo‘limi talablarning alohida sistemasining yaratishni nazarda tutadi. Ushbu talablarning tashkil etilishi dastlab alohida grammatik qonuniyatlarni o‘zlashtirishni, keyinchalik esa ularni sistemalashtirishni ta’minlaydi.

Grammatika va to‘g‘ri yozish. Bo‘limning nomi maktab an‘anasida mustahkamlangan. U ko‘p rejalashtirilgan ishning bir qismini tashkil etadi. Bu bo‘lim bo‘yicha olib boriladigan ish nutqni rivojlantirishda grammatik qonuniyatlarni mustahkamlashga, til sisternasi bilan tanishtirishga qaratiladi. Grammatikaning boshlang‘ich kursi yuqori sinflarda sistematik kursni o‘zlashtirish uchun baza bo‘lib hisoblanadi.

Talaffuzga o‘rgatish ta’limi ona tili dasturining barcha bo‘limlari bilan uzviy bog‘langan. O‘quvchilar og‘zaki nutqining talaffuziga qo‘yilgan talablar «Eshituv qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzga o‘rgatish» dasturida o‘z ifodasini topgan.

Talaffuzga o‘rgatish o‘z ichiga ovoz, tovush, so‘z va ibora talaffuzi ustida olib boriladigan ishlarni qamrab oladi. Shuningdek, ovozning normal balandligi, kuchi, tembrini tarbiyalash ishlari ko‘rib

chiqiladi. O'quvchilarda so'z va mantiqiy urg'u bo'yicha amaliy malakalar ishlab chiqiladi. So'zning tovush asosini egallashga doir mashqlarga katta e'tibor qaratiladi.

Tayanch tushunchalar

Ta'llim-tarbiya jarayoni – o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyati bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatining uyg'unlashishidir.

O'qitish metodi – bu o'qituvchining bilimlar berish va ularni o'quvchilarning o'zlashtirib olish metodidir.

Og'zaki metodlar – o'qituvchining materialini og'zaki bayon qilishi, suhbat, kitob bilan ishslash.

Ko'rgazmali metodlar – namoyish qilish, mustaqil kuzatishlar, ekskursiyalar.

Amaliy metodlar – og'zaki va yozma mashqlar, grafik va laboratoriya ishlari.

O'quv dasturi – har bir o'quv fanidan o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning mazmuni va hajmini belgilab beruvchi o'quv rejasiga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan hujjat.

Savol va topshiriqlar

Zaif eshituvchi bolalar maktabi qanday bo'limlardan iborat?

Zaif eshituvchi bolalar maktabi o'quv rejasni ommaviy c'irta maktab o'quv rejasidan qanday farqlanadi?

Zaif eshituvchilarni o'qitish mazmuni haqida aytib bering.

Zaif eshituvchi bolalar maktabida qanday metodlar qo'llaniladi?

O'qitishda og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlar bilan o'quvchilarning bilim faoliyati qanday rivojlantiriladi?

Darsda metodlar qanday foydalanishi kerak deb hisoblaysiz?

Dars o'qitishni tashkil etishdagisi asosiy shakl ekanligi tushunchasini yoritib bering.

Darsning qanday tiplari va tuzilishini bilasiz?

Zaif eshituvchi bolalar maktabida darsning qanday xususiyatlari mavjud?

Zaif eshituvchi bolalar rivojlanishida ekskursiyaning qanday roli bor?

4-bob. ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TARBIYASI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

4.1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tarbiya jarayoni

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» joriy etayotgan ta'lif-tarbiya tizimining yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mayjud bo'lib, uni to'liq yuzaga chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit yaratilsa, tafakkur turli qotib qolgan eski tushuncha va aqidalaridan xalos bo'ladi. Har bir inson qobiliyat va iste'dodini, avvalo, o'zi uchun, oilasi, millati, xalqi, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini tasavvur qilish ham oson emas.

Buyuk ajdodlarimiz asos solgan ilmiy-axloqiy maktabni zamonaviy shaklda qaytadan tiklash uchun ta'lif-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish lozim. Aslida ta'lif-tarbiya sohasidagi islohotlarning chegarasi va poyoni yo'q. Toki hayot davom etar ekan, ta'lif ham, tarbiya ham zamon o'rtaqa qo'yayotgan yangi-yangi talablarga ko'ra muttasil o'zgarib boraveradi.

O'zbek pedagogikasining asoschilaridan A.Avloniy ta'kidlaganlaridek «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan jon ila tan kabidur». Tarbiya insonning asosiy fazilatlaridan biridir. U xalqning, jamiyatning, davlatning asosiy kuch-qudrati hisoblanadi. Tarbiya yo'q joyda hech qachon saodat bo'lmaydi. Tarbiya o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. U insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan singib boradi. Tarbiya inson ongida, qalbida, shuurida kamol topishi uchun aql ko'zi bilan vijdonan mehnat qilmoq kerak. Ma'lumki, uzoq tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi tarbiyaga oid boy madaniy merosga ega bo'lib, avlodlarda insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, birodarlik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan.

Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Mahmud Zamahshariy, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, o'zbek pedagogikasi asoschilar A.Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, A.Fitrat va boshqalarning ta'lif va tarbiyaga oid qarashlari, yaratgan noyob asarlari ilm-ma'rifatga intiluvchi xalqimizning boy ma'naviy merosi hisoblanadi. Ilm-ziyo salohiyati, bu – xalqning, Vatanning ulkan boyligi, kelajak poydevoridir. Uni rivojlantirishda, yetuk insonlarni tarbiyalashda mакtab, oila va keng jamoatchilikning hamjihatligi muhim ahamiyatiga ega. Oldimizda mustaqil buyuk davlat qurishdek murakkab va sharaflı vazifa turgan bir paytda bu hamjihatlikning qadr-qiyomi yanada ortib bormoqda. Shu boisdan ham hozirgi kunda xalqimiz, farzandlarimiz iqbolini o'ylab, qattiq bel bog'lab mehnat qilayotgan mas'uliyatlari bir davr mazkur tushunchalarga yanada teran ma'no bag'ishlamoqda.

Barkamol inson, uning mehnati va turmushi, ma'naviy taraqqiyoti haqida g'amxo'rlik davlatimizning ustuvor masalalaridan biridir. Ayniqsa, yordamga muhtoj, ruhan va jismonan zaif bo'lgan shaxslarning turmush tarzi, ularga maxsus ta'lif-tarbiya berish, kasbga yo'naltirish va ish bilan ta'minlash masalalariga hukumatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilgan.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish, ularga boy ma'naviyatimiz sarchashmalaridan bahramand bo'lishga imkoniyat yaratish, shu asosda eshitishida nuqsoni bo'lgan bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish, to'g'ri berilgan tarbiya orqali mayjud nuqsonning salbiy oqibatlarini yengillashtirib, xalq, Vatan, jamiyat uchun kerakli inson sifatida tarbiyalash har bir surdopedagog va tarbiyachining muqaddas burchidir. Yurtboshimiz o'qituvchi va tarbiyachilarining sharaflı mehnatiga munosib baho bera turib «O'z-o'zini el ishiga bag'ishlagan, inson tarbiyasiga jon tikkan olijanob o'qituvchilarni, mo'tabar muallimlarni bundan buyon ham boshimizga ko'taramiz» deganlar.

Mustaqil Respublikamiz Konstitutsiyasi, O'zbekistonning istiqlol va taraqqiyot, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy jihatdan rivojlanishini ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va Davlat Ta'lif Standartlari, Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari, mashhur olimlarning ilmiy-metodik asarlari tarbiya nazariyasi va amaliyotining metodologik asosini tashkil qiladi.

Tarbiya nazariyasi – tarbiyaning mazmuni, uning bolalar yoshiba bog'liqligi, tarbiya tamoyillari hamda ularidan samarali foydalanish shart-sharoitlari, o'quvchilarning mактабдан ташқари ишлари, макtab, oila, mehnat jamoalari, jamoatchilik bola tarbiyasidagi birgalikdagi ishlari mazmunini ochib beradi. Tarbiya nazariyasi va metodlari maktablardagi tarbiyaviy faoliyatning ilmiy asosini tashkil etadi.

Yetuk shaxs tarbiyalash tarbiyaning yagona maqsadidir. Shaxs tarbiyasida atroficha yondashish obyektiv ravishda aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiya birligini, tarbiya jarayonida tashkil etishning yakka, guruhli va ommaviy shakllarini qo'shib olib borishni ta'minlaydigan pedagogik tizimlarni vujudga keltirishni ham bu tizimlarning amal qilinishini talab etadi. Tarbiya jarayoni shaxsnинг ijtimoiy qadrli fazilatlarini shakllantirishga, uning atrofga, odamlarga, o'ziga nisbatan munosabatlari doirasini vujudga keltirish va kengaytirishga qaratilgan.

Tarbiya tamoyillari. Surdopedagogikada tarkib topgan va milliy asoslangan tarbiya tamoyillari tizimi tarbiyaning hayot bilan bog'liqligini, shaxsiy, jamoada va jamea orqali tarbiyalashni, tarbiyaviy ta'sirning izchilligini va davomiyligini, tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan ta'lابchanlik bilan hurmatning birligini, tarbiyaning bolalarning yosh va yakka xususiyatlarga mosligini, ta'lim va tarbiyaning bog'liqligini, tarbiyaga atroficha yondashishi tamoyillarini o'z ichiga oladi. Tarbiyaviy ta'sirning tizimliligi, uzlusizligi, hayot bilan, amaliyot bilan bog'liqlik tamoyillari tarbiyaviy tadbirlarning samarador bo'lishida zaruriy omillardandir.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar ko'pincha mактаб-internatlar bo'lib hisoblanadi. Bu o'ziga xos kar yoki zaif eshituvchi bola faqat darslarga qatnashib, uning tarbiyesi uchun zarur bilim va mahoratga ega bo'lmagan oila sharoitida ko'pincha erishish imkoniyati bo'lмаган, o'quvchiga uzlusiz va uzoq muddatli maxsus korreksion tarbiyaviy ta'sir, e'qiyotgan, tarbiyalanayotganlar harakatlarining qat'iy birligini, tarbiyaga kompleks yondashishni talab etuvchi – eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash jarayoni demakdir. Maktab-internat eshitishida nuqsoni bo'lgan bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib, bu bilan oilaga, ishlovchi ayol-onaga yordam ko'rsatib, amalda kechayu kunduz korreksion-tarbiyaviy ta'sirni ta'minlaydi; maktab-internatdan anche

uzoq tumanlarda yashovchi ota-onalar uchun bolalarni o'qitish imkoniyatini yaratadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasi tamoyillarini quyidagilarga ajratish mumkin.

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni aqliy, jismoniy, ma'naviy, estetik tarbiyasi, bilim olish, jamoat va mehnat faolligini, shaxsning ijobiy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha maktabning ishini davom ettirish va kengaytirish bilan har tomonlama rivojlantirish.

2. Siyosiy yetuklik, fuqarolik, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash.

3. Mehnatga ijobiy munosabat va o'z mehnati bilan jamiyatga foyda keltirish ehtiyojini tarbiyalash.

4. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning ijobiy va ma'naviy sifatlarga ega shaxsni shakllantirish, huquqni o'rgatish, intizom, xislat va o'zini tutish madaniyatini, sinf, maktab, oila, jamiyatning me'yor va qoidalari buzilishiga yo'l qo'ymaslikni tarbiyalash.

5. Og'zaki nutqdan foydalanish imkoniyatini tug'diruvchi sharoitlar va gaplashish muhitini yaratish yordamida qo'lgan tovushlardan foydalangan holda so'zlashuvni rivojlantirish.

6. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni jamoada yashash va ishlashga tayyorlash, bilishni tarbiyalash, o'zaro muomala, ijtimoiy muloqotni kengaytirishga intilishni rivojlantirish, oila tashkilotlari bilan hamkorlikda eshitmaydigan o'quvchilarning jamoaga ijtimoiy moslashishi ustida ish olib borish.

Tarbiyaviy vazifalar ma'lum shartlarga rioya etilgandagina samarali hal etiladi. Bu, avvalo, rivojlanayotgan shaxsni shakllantirishning yagona mexanizmi sifatida turli faoliyat turlari, o'yin va muloqotlardan foydalanishni ko'zda tutuvchi internatda tarbiyaga kompleks yondashuvdir.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchi shaxsini shakllantirish, jamoada uni tarbiyalash og'zaki nutqdan foydalanish evaziga, avvalo, kommunikativ-moslashuv yo'nalishini ko'zda tutadi. Bunda qo'il harakati, daktilalogiyadan yordamchi muloqot vositasi sifatida foydalanish imkoniyati yo'q emas.

Internatda tarbiya jarayoni ustidan pedagogik boshqaruv-rahbarlik bola shaxsini hurmat qilish, nuqson va uning oqibatlariga ortiqcha e'tibor bermay, imkon qadar talab qilishga asoslangan

tarbiyalanuvchilarda mustaqillik va tashabbuskorlikni doimo o'stirishni ko'zda tutadi.

Tarbiya ishi samarasi tarbiyachi tomonidan har bir o'quvchining ishi, yakka xususiyatlarini inobatga olishga bog'liq. Tarbiyachi uchun asosiyisi, tashqi istakni emas, balki til va so'zlashuv birligidagi ijtimoiy, ma'naviy tajribani egallash bilan shakllangan tarbiyalanuvchilarning ichki va ma'naviy asoslari, istaklari jo bo'lgan tarbiyaviy natijaga erishmoqqa intilish hisoblanadi.

Shunga ko'ra, endilikda biz eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiya nazariyasini chuqur o'rganib, mavzuni bakalavr defektolog talabalarga berishda buyuk pedagoglar ta'limoti, ilmiy salohiyati, milliy urf-odatlarimiz, ajdodlarimizdan qolgan boy madaniy meros bilan bir qatorda, hozirgi zamon talablarini inobatga olish lozim.

4.2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasi mazmuni

Aqliy tarbiya. Shaxsnинг aqliy tarbiyalanganligi tuzulmasiga quyidagilar kiradi: aqliy rivojlanish (bilim, ko'nikma, bilish, ijodiy faoliyatga tayyorligi, tashkilotchilik) intellektual faoliyatning ijtimoiy mohiyati, shaxsiy tomonlari, aqliy faoliyatning jadallahushi (bilishga intilish, mustaqillik va boshqalar).

Obyektiv harakatlardan iborat bo'lgan va turli usullar bilan bajariladigan faoliyat – aqliy faoliyat deb yuritiladi. Aqliy faoliyat, odatda, qoidalar va yo'riqnomalar xarakteriga ega bo'lgan harakatlardan tashkil topadi. Aqliy faoliyat turlariga fikr yurituvchi harakatlar, jumladan, analiz, sintez, abstrakt, umumiylilik, konkret, taqqoslash, tavsiflash, tizimlilik, tushunchani aniqlash, mantiqiy qaramlikni aniqlash kabilalar kiradi.

Eslab qolish usullari esa ma'nosini tushunish, guruhash, eslab qoluvchi obyektlarning tavsifi, suyanch punktlarni ajratish, ma'nos, mantiqiy sxema va rejani tuzish, texnikadan foydalanishdan iborat .

Tasavvur etishga tasvirlab berilgan matn obrazlarini tasavvur etish, tasvirlab berish yo'li bilan obrazni tasavvur etish, rasmlar, chizmalar va shaxsiy o'ylab topilgan obrazlarni tasvirlashdan iboratdir. Bu borada konsentratsiya bo'lib berish, diqqatni ko'chirish usullaridan ham foydalilanildi.

O'quv jarayonida umumiy va xususiy usullardan foydalilanadi. Qator maktablar faoliyati bilan tanishilganda o'quv jarayonida qay-

yo'sinda ish olib borilayotganligini kuzatishimiz mumkin. Matn mazmunini sarlavhasiga qarab aniqlash, ma'lum mavzuga oid materiallarni tanlay bilish shular jumlasiga kiradi. Bundan tashqari, o'quv matnidan foydalanish yo'llari ham mavjud. Suratga qarab og'zaki reja tuzish, ma'lum narsalar xarakteriga mos materiallar topish, topshiriqqa bog'liq bo'lgan matndagi bo'laklarni to'la bilish, obyektlarni topa bilish shular jumlasiga kiradi.

Til o'rganish jarayonida maxsus o'quv usullaridan foydalaniladi. Masalan, bir qator murakkab va oddiy so'zlardan gap tuzish.

Matematika darslarida masala tuzish, og'zaki qo'shish, ayirish bilimlari shakllantiriladi. Bolalar oldiga qo'yilgan masalani yechish, ilgari olgan bilimlardan yangi materiallarni qabul qilishda foydalanish, o'z harakatlarini tushuntira bilish, ma'lum vazifalar bajarishdagi mustaqillik darajasi va bu vazifaning to'liq bajarilganligi – bularning barchasi shakllangan ko'nikmalar natijasi bo'lib hisoblanadi.

Olgan bilimlarini o'quv jarayoni davomida ko'rsata bilish, o'qish ko'nikmalarini rivojlanishi aqliy faoliyatni to'g'ri yo'naltira olishni bilishdir. Bilim darajasini boyitish, uning sifatini oshirish, o'quv jarayoni bilan o'quvchilar o'rtaсидаги aloqani chuqurlashtirish ongli bilimni boyitadi. O'quvchilarni o'quv faoliyatining turli tomonlari bo'yicha faolligini oshirish – ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi. L.I.Botovich, A.K.Markova, M.V.Matoxina, T.M.Yakobson kabi psixologlarning tajribalari shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayoni ma'lum motivda olib borilishi kerak. Masalan, iqtisodiy motiv. Bunga mutaxassis bo'lish javobgarligini sezish kiradi. Bilim olish motiviga – o'z-o'zini boshqara bilish, bilim olish jarayonida sabr-toqatlilik kiradi. Bu borada majbur qilish salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, o'rgatish va sotsial ko'nikmalar kar va zaif eshituvchi bolalarda sekinlik bilan kechadi. Barcha natijalar pedagogning olib borgan o'quv-tarbiyaviy ishlarining korreksion xarakteriga ega faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning aqliy tarbiyasida mazmundorlikni shakllantirish kerak. Bunga o'qitishning mazmuni, harakatchanlik, mustaqillik, tushunib yetish darajalarini oshirish, dinamik xarakterli usullar kiradi. Bunga tirishqoqlik, modellik, kuch, aniqlik, tezlik kiradi.

Tarbiyaning barcha yo'nalishlari kar va zaif eshituvchi bolalar qiziqishi torligini yenga olishga qaratilgan. Situativdan epizodik qiziqishlarga o'tishni ta'minlashdan iborat. Rivojlanish va shakllanishning eng muhim jihatlaridan biri o'quv faoliyatdir. Bilim olishda tushunib yetish qiziqtirishga, buning asosida o'quvchilar o'qishi yengil va tez natijaga erishishdan iboratdir.

Maxsus tekshirishlar (N.G.Morozov, M.I.Shif) shuni ko'rsatdiki, kar va zaif eshituvchi bolalar rivojlanishida qiziqtirish muhim rol o'ynaydi. Bu borada nutqni egallah, fanlar asosini o'rganish bola faolligini oshirish, o'qishdan maqsadni tushunib yetishi muhim rol o'ynaydi. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, kar bolalar ko'proq amaliy ishlarga, mehnat, sport o'yinlariga qiziqadilar. Ularda o'qishga qiziqish past, shu bilan birga, fan asoslariga ham beparvo bo'ladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishi turlichadir. Ko'proq bu ularning rivojlanishi, nutq boyligiga qarab turli sinfda turliche bo'ladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar nutq qanchalik kerakligini o'z tengqurlaridan ancha ilgari, ertaroq tushunib yetadilar. Agar rivoji uchun kerakli shart-sharoitlar yaratib berilsa, kar va zaif eshituvchi bolalarda nutqni egallah uchun qiziqish tezlikda shakllanadi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida olib borilgan amaliyot ishlaridan ma'lum bo'ldiki, til o'rganishga bo'lgan haqiqiy qiziqish ko'proq, yuqori sinf o'quvchilarida kuzatiladi. Agar o'rta sinf o'quvchilarini gapirishlari qiziqtirsa, yuqori sinf o'quvchilarini nafaqat gapirish jarayoni, balki o'rganilayotgan til mazmuni ham qiziqtiradi. Og'zaki nutq fikr va bilim omili hisoblanadi.

Surdopedagoglar kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda qiziqishni ta'minlash shart-sharoitlarini aniqlaganlar (N.G.Morozova). Bu larga bilim va ko'nikmalar borasida qiziqishni oshira borish; pedagog va uning faoliyatiga nisbatan ijobjiy munosabatni keltirib chiqarish; bajarayotgan faoliyatni; sotsial va shaxsiy ma'noda tushunib yetishga harakat qilish: mustaqil amaliy faoliyatga shart-sharoit yaratib berish kabilalar kiradi. Kar va zaif eshituvchi bolalarda qiziqish maktabgacha bo'lgan davrda paydo bo'lib, o'quv jarayoni paytida o'zgarib boradi. O'qish mazmuni ham rivojlana boradi. O'quvchilardagi shunchaki boshlangan fikr keyinchalik ijobjiy fikrlarga o'ta boradi. Keyinchalik esa o'quvchilarning maqsadli faoliyatları kelgusidagi rejalgarda olib boradi.

O'rgatishga bo'lgan qiziqish asosida intellektual motivlar muhim rol o'yaydi. Bular o'quvchilarning dunyoqarashini, o'z fikrida qat'iyatligrini, o'z burchi va vazifalarini tushunib yetishni o'rgatadi. O'quv jarayoni vaqtida yuqoridagi barcha xususiyatlar bevosita jipslashadi. O'quvchilarda o'qishga bo'lgan ijobiy xususiyatlarni tarbiyalash, albatta, surdopedagog rahbarligi ostida bo'ladi. Uning barcha harakatlari yo'naltirish ishlardan iboratdir. O'quvchilarni bilimlar bilan qurollantirib, bilim va saviya ko'nikmalarini shakllantirib, mustaqil bo'lishni tarbiyalab, surdopedagog har tomonlama rivojlanishlari uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

O'rgatish faoliyatining yo'nalishi va qiziqishiga qarab bolalarda mustaqillik va faollik kabi shaxsiy sifatlarni tarbiyalaydi. O'qish jarayoni va mazmuniga qarab o'quvchi o'z faolligini ko'rsatadi. O'qish-o'rganish maqsadida bor imkoniyatlarini ishga soladi.

Mustaqil o'rganish shaxsga xosdir. O'zgalar yordamisiz tirishqoqlik bilan bilim olish masalalarini hal etish, o'zini o'rabb turgan borliqni o'rganish va kelgusida chuqurroq bilim olish, shaxsiy o'qish va bilim faoliyatini boshqara bilishni shakllantirish, boshqacha aytganda, o'z-o'zini nazorat qilish deyiladi.

Mustaqil o'rganish doimo o'z-o'zini tanqid qilish bilan bog'liqdir. Ish jarayonida fikr-mulohazani baholay bilish, taxminlarni tekshirish jarayoni kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda deyarli yo'qligi kuzatildi. O'z-o'zini tanqid bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ham bo'lishi kerak. O'quvchilarga bilim berish jarayonida ularda shunday ko'nikmalar hosil qilish kerakki, har qanday masala turli yo'llar bilan hal etilishni ular tushunsinlar. O'z faoliyatini adekvat baholay olishga, faoliyati yakuniga o'z xatolarini sezib tushuna bilishga, tushunib yetishni o'zi boshqarishga o'rgatish kerak. Aqliy faoliyatni o'zlashtirish shaxs intellektini tarbiyalash, o'quvchilarning aqliy mehnati asosini tashkil etadi. Bular turli axborot bilan ishlashga, turli tashkiliy ishlardan, jumladan, ta'lim berish masalalarini qo'yish, ularni ratsional bajarish, ish hajmi va manbaalaridan unumli foydalanishdan iboratdir.

Aqliy mehnat madaniyati tozalikka rioya qilishdan, mashg'ulotlarning tizimliligidan, aqliy ishning xilma-xil turlari va shakllarini almashtirib turishdan, aqliy va jismoniy mehnatni almashtirib turli, chalg'ituvchi narsalardan chetlashtirish, ma'lum hafta, kun va vaqtida

ishlarni to‘g‘ri tashkillashtirish, ish paytida tozalikka rioya qilish, ish stolida o‘zini to‘g‘ri tuta bilishdan iborat.

Axloqiy tarbiya.

Axloqiy tarbiya – o‘quvchilarda axloqiy xulq-atvorni to‘g‘ri yo‘naltirish va tizimli shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon tarbiyachi va tarbiyalanuvchining ma‘naviy muloqotida yuzaga keladi. Sh.Amonashvili va I.Ivanova kabi tashabbuskor pedagoglarning fikricha, shaxs shakllanishi uchun sharoit yaratib beriladi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar mакtabda mustaqil mehnat hayotiga kirishishi uchun tayyorgarlik ko‘radilar. Ularning jamiyatga ijtimoiy moslashishi ko‘p jihatdan axloqiy rivojlanish darajasiga bog‘liq. Ba‘zi olimlar eshitish nuqsonining ideologik tushunchasiga tayanib, kar va zaif eshituvchilarning axloqiy rivojlanishi imkoniyatlarini inkor etishgan, ularni to‘liqsiz deb qabul qilishgan. Kar va zaif eshituvchilardagi jahldorlik, qo‘rroqlikni mazkur pedagoglar ulardagi tug‘ma sifat deb hisoblaydilar. Ushbu fikrlarga V.I.Fleri, G.A.Gursov, N.M.Lagovskiy kabi surdopedagoglar qarshi chiqqanlar. V.I. Fleri ba‘zi bir kar va zaif eshituvchi bolalarda axloqiy rivojlanishida nuqsonlar mayjud, lekin ular ta’lim va tarbiya yetarli darajada bo‘lmasligini natijasida yuzaga keladi, deb hisoblangan. F.I.Fleri shunday deb yozgan edi: «Axloqiy sifatlar nuqtayi nazardan kar va zaif eshituvchi odam boshqa odamlardan yaxshi ham, yomon ham emas.» Axloqiy tarbiyaning asosiy omili faoliyat hisoblanadi (mehnat, o‘yin, o‘quv – jamoat) va har qanday faoliyat turida yuzaga keladi.

Eshitishida nuqson bo‘lgan bolalarning axloqiy tarbiyasiga oila, jamiyat muhim ta’sir qiladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarning axloqiy tarbiyasida mакtab asosiy o‘rin egallaydi.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni va vazifalari eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning mакtab-internati bolalar axloqiy odatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bir necha vazifalarni hal qiladi.

Axloqiy odatlarning ba‘zi birlarini eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim muassasasiga joylashgunga qadar o‘zlashtirib olgan bo‘ladilar. Bular asosan gigienik malakalardir. Xulq-atvor madaniyati, yashash malakasi madaniyati, jamoada ishslash kabi ko‘pgina axloqiy odatlar to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Surdopedagogning vazifasi axloqiy odatlarni aniqlash va ularning ko‘lamini kengaytirishdan iborat. Mакtabda mehnat va dam olishni ko‘rib chiquvchi yagona kun tartibini o‘rnatish muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mакtab-

internatda o‘quvchilarning faoliyati turlichadir: sinfdagi navbatchilik, sanitar majburiyati, maktab uchastkasidagi ish, bayramlarga tayyorgarlik ko‘rish, kun tartibini nazorat qilish, ichki tartib-intizomga bo‘ysunish va boshqarish, o‘rtoqlarining harakatlarini tekshirish va rejalashtirish malakasini o‘zlashtiradilar. Har kuni turli faoliyatlarda ishtirot etish, axloqiy odatlarning shakllanishini ta’minlaydi. O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish gigienik va mehnat malakalarini takomillashtiradi. Hamkorlikdagi mehnat faoliyati murakkab axloqiy odatlar: jamoada o‘zini tutish, jamoa munosabatlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Axloqiy odatlarni shakllantirish pedagogik yordam va har kungi mashg‘ulotlarni talab etuvchi uzoq davom etuvchi jarayondir. Kar va zaif eshituvchilarda rivojlanganlik sharoitida har bir yangi harakat nomlanishi talab qilinadi.

Ayni paytda axloqiy odatlarning ko‘lami kengayadi, nutq rivojlanadi (lug‘at boyiydi, muloqot uchun sharoit yaratiladi) so‘z talab etilayotgan harakatni chuqurroq anglash imkoniyatini beradi, «yaxshi», «yomon» kabi boshlang‘ich axloqiy tushunchalarni shakllantiradi.

Axloqiy xulq-atvorni tarbiyalash o‘quvchilardan faollikni talab qiluvchi jarayondir. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda faollik past, mustaqillik to‘liqsiz. Ularning faolligi va mustaqilligini rivojlantirish uchun pedagogning yordami talab etiladi. Bunga esa o‘quvchilarga turli topshiriqlar berish orqali erishiladi. Tarbiyachining bolalarga qiladigan e‘tibori juda katta ahamiyatga ega.

O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarga qiyinchilikni taklif qilib, uni qanday bartaraf etishni aytishdan iborat. Irodani tarbiyalash axloqiy xulq-atvorni tarbiyalashning asosiy qismi hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kar va zaif eshituvchi bolalar har doim ham o‘zini talabga muvofiq tutmaydilar, talablarni buzadilar. Bundan tushuntirish ishlarini olib borish, mos keluvchi holatni qo‘llash kabi vazifalar kelib chiqadi.

O‘quvchilarning axloqiy hissiyotlarini tarbiyalash – axloqiy tarbiyaning muhim vazifasidir. Kar va zaif eshituvchilar mактабга kirgunga qadar axloqiy hissiyotlari to‘liq rivojlanmagan bo‘ladi. Turli faoliyat jarayonida kar va zaif eshituvchilarning hissiy-emotsional malakasi ortib boradi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda o‘z nuqsonidan ma’naviy azoblanish mavjud. Nuqsonni tushunish bo‘yicha surdopedagogning maxsus ishi o‘quvchilarga o‘z kelajagini baholash imkoniyatini beradi.

Axloqiy xulq-atvorni shakllantirish va axloqiy hislarni tarbiyalash o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan va bir paytda sodir bo‘ladi. Uchinchi vazifa, bolalarning nutqiy rivojlanishi darajasi bilan uzviy bog‘langan axloqiy ongni shakllantirish hisoblanadi. Nutqni o‘zlashtirishda o‘qituvchi o‘quvchilarni bolalarning amaliy faoliyatida mustahkamlanadigan axloqiy tushunchalar bilan tanishtiradi.

O‘qitishda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar dastlab «yaxshi», «uyat», «chiroyli», «xunuk» kabi sodda tushunchalarni o‘zlashtiradilar. Nutqni rivojlantirish bilan bir paytda o‘quvchilar «muloyimlik», «mehnatsevarlik», «do‘stlik» kabi axloqiy tushunchalarni o‘rganadilar. Keyinroq «insof», «burch», «javobgarlik», «vatanparvarlik» kabi tushunchalarni o‘zlashtiradilar. Boshqa tushunchalar o‘qish va badiiy adabiyotlarni tahlil qilish darslarida shakllanadi. Badiiy asar qahramonini tahlil qilishda insonning qilmishlari shaxs sifatini, ma’naviy tushunchalarni tushunish imkonini beradi.

Huquqiy tarbiya.

Huquqiy tarbiya o‘quvchilarda axloqiy tarbiyaning asosiy qismini tashkil etadi. Maktab-internat oldida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar huquqiy tarbiyasida quyidagi vazifalar turadi:

- mактабда, жамоада о‘зини тутиш қоидা, қонунларини тушунтирish;
- тартибни саqlovchi ташкilot ва шахслар ролини тушунтирish;
- қонун ва қoidalarni бajarishga ongli munosabatini mustahkamlash;
- faol jamoatchilikni shakllantirish;
- қонун muhofazasiga doir ba‘zi malakalarni o‘zlashtirish.

Qonun kar va zaif eshituvchilarning huquqiy madaniyatini tarbiyalash maktab-internat hayotidagi axloqiy me‘yorlarni bajarish bilan boshlanadi. Metodlar, o‘yinlar, tushuntirish ishlari keng qo‘llaniladi.

Kichik maktab yoshida o‘yin shakllaridan foydalilanadi. O‘quvchilarning nutqini rivojlantirish bo‘yicha so‘zli metodlar (suhbat, hikoya)dan foydalilanadi. Huquqiy bilim elementlarini o‘quvchilar o‘qish, tevarak-atrof bilan tanishish darslarida

egallaydilar. O‘quvchilar Konstitutsiya, inson huquq va burchlari haqidagi matnlarni o‘qishadi, kattalar va bolalarning turli ishlari bilan tanishadilar, ularni baholashga o‘rganadilar.

Qonun va qoidalar mazmuni bilan tanishish, ularni maktab-internat hayotida qo‘llanilishini ta’minlaydi.

V-VIII sinflarda o‘quvchilar o‘zlarining bilimlarini o‘qish, adabiyot, tarix darslarida kengaytiradilar.

O‘quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi metodlar orasida suhbatlar, tushuntirishlar, ma’ruzalar keng qo‘llaniladi. Tarbiyaviy ishning shakllari turli-tumandir: militsiya xodimlari bilan suhbat, ko‘rgan filmlarni tahlil qilish, tematik kechalar o‘tkazish va h.k. Huquqiy bilimlar karlar maktabi yuqori sinf o‘quvchilari o‘rtasida tartib-intizom o‘rnatish orqali mustahkamlanadi. Maktab va internat bo‘yicha navbatchilik qilish, yong‘in xavfsizligini nazorat qilish va boshqalardan shu maqsadda foydalaniadi.

Shunday qilib, o‘quvchilarning huquqiy madaniyati bosqichma-bosqich olib boriladi:

1-bosqich – davlatimiz qonunlari haqidagi elementar tasavvurlarni shakllantirish;

2-bosqich – qonun va qoidalar ijrosiga ongli munosabatni mustahkamlash, o‘z ishlariga shaxsiy javobgarlikni shakllantirish;

3-bosqich – fuqarolarning huquq va burchlari, qonunga munosabati haqidagi umumiyligi tasavvurlarni shakllantirish.

Har bir bosqich alohida yosh uchun mo‘ljallangan. Huquqiy tarbiyaning barcha metodlarini ikki guruhga bo‘lish mumkin: so‘zli va amaliy faoliyatli.

So‘zli metodlarga – suhbat, tushuntirish, ma’ruza; *amaliy faoliyatga* esa o‘yin, pedagogik talablar kiradi.

Huquqiy tarbiya shakllari turlichadir: darslar, to‘garaklar, o‘quv konferensiyalari, mehnat qahramonlari bilan uchrashuv, huquqiy bilim klublarini tashkil etish, savol-javob kechalarini o‘tkazish, moddalarni o‘qish, teleko‘rsatuvalr ko‘rish.

Ekologik tarbiya.

Insонning tabiatga bo‘lgan munosabati uning axloqiyligining ko‘rsatkichidir. Tabiat – boylik xazinasi, insонning ma’naviy va jismoniy yangilanishining manbai, nafosatlari rivojlanishi vositasidir.

Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi tabiatga va tabiiy boyliklarga nisbatan ehtiyyotkorlik va javobgarlik munosabatini

shakllantirishdir. Bunga bog'liq eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabi oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan. O'quvchilarga ilmiy-ekologik bilimlar berish; ekologik madaniyatni tarbiyalash, ekologik bilimlarni tashviqot qilish.

Ekologik bilimlarga quyi va o'rta sinflarda katta e'tibor beriladi. Atrof-olam bilan tanishish, tabiatshunoslik, nutq o'stirish, o'qish darslarida o'quvchilar Respublikamizning tabiat boyliklari, hayvonot va o'simliklar olamining hayoti, inson va tabiat munosabati haqida bilim oladi. Bu bilimlar «inson – atrof-muhit» tizimining komponentlarini tushunishga va o'quvchilarni tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ijtimoiy foydali faoliyatni olib borish zarurligini tushunishga tayyorlaydi.

Yuqori sinf dasturlarida ekologik muammolar umumiy tarzda beriladi. Turli o'quv fanlarida «Inson-jamiyat-tabiat» tizimining alohida tomonlari yoritiladi. Masalan, biologiya darslarida biosferadagi hayotni tashkil etishning ekologik asoslari ko'rib chiqiladi. Mehnat ta'limi fizika, kimyo, zamonaviy sanoat ishlab chiqarishning ekologik muammolariga qaratadi.

O'quvchilarga global ekologik muammolar (yerni radiofaol zararlanishidan saqlash, tabiiy boyliklarni tejash) haqidagina emas, balki bolalar yashayotgan va o'qiyotgan joy uchun dolzarb bo'lgan muammolar (suv havzalarni sanoat chiqindilari bilan ifloslanishidan saqlash, zararkunandalarga qarshi kurashish) haqida ma'lumot beriladi.

O'quvchilarda tabiatga ehtiyyotlik bilan munosabatda bo'lish o'lkashunoslik ishlari yordamida shakllantiriladi (ekskursiyalar, ona tabiat haqida materiallar yig'ish). Maxsus maktablarda yosh naturalistlar to'garaklari tashkil etiladi.

Jinsiy tarbiya.

O'g'il bolalar va qizlar o'rtasidagi o'zaro munosabatni shakllantirish – axloqiy muammo. Shuning uchun jinsiy tarbiya axloqiy tarbiyaning asosiy qismi sisfatida ko'rib chiqiladi. Turli yosh bosqichlarida turli vazifalar hal qilinadi. Kichik mifik yoshidagi eshitishida nuqson bo'lgan bolalarning jismoniy rivojlanishi uchun to'la sharoitni yaratib berish kerak. Oila-maktab-internat sharoitida bolalarda sog'liqni saqlash va ish qobiliyatini ushlab turishi uchun gigienik malakalar ishlab chiqiladi. «Boshlang'ich maktabda gigienik ta'lim va tarbiya» tavsiyalarida o'quvchilar ta'lim va sinfdan tashqari

faoliyat jarayonida egallashi kerak bo‘lgan gigienik va tibbiy bilimlar xarakteristikasi berilgan.

Jismoniy tarbiya.

Jismoniy tarbiya organizmni jismoniy jihatdan sog‘lomlash-tirishga, o‘quvchilarni jismoniy xususiyatlari rivojlantirishga, aqliy va jismoniy mehnatga tayyorgarligini ta’minalashga yo‘naltirilgan tizimlilik jarayondir. Insonning istalgan faoliyati jarayonida u ko‘ruv, eshituv teri-daktil analizatorlari bilan birlgilikda ish yuritadi. Inson organizmi bir butun tizim bo‘lib, faoliyat jarayonida analizatorlardan birining shikastlanishi boshqa faoliyat turlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Eshitishning buzilishi nafaqat nutqiy va ruhiy xususiyatlarning rivojlanmasligiga olib keladi, balki inson harakatidagi o‘zgarishlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Motor analizatorining retseptorlik vazifasi inson organizmining barcha asab faoliyatini boshqaradi. Shuning uchun eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda vegetativ tizimning qat’iyatsizligi, ya’ni ularning yurish-turishida qo‘zg‘aluvchilik, impulsivligi, toliqish, emotsiional doirada qat’iyatsizlik paydo bo‘ladigan o‘zgarishlar kuzatiladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarda harakat analizatorlar funksional holatining pasayishi yurak-nafas olish tizimining zaiflashuviga olib keladi, o‘quvchilarda yurak qisqarishi tezlashadi va nafas olishi sekinlashadi, jismoniy zo‘riqishda organizmda fiziologik reaksiyalarning oshishi kuzatiladi. Surdopedagog olimlarning kuzatishlari shuni ko‘rsatdiki, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning jismoniy rivojlanishi eshituvchi tengdoshlarinidan deyarli farq qilmaydi (bo‘yi, og‘irligi, ko‘krak qafasining aylanasi). Eshitishida nuqson bo‘lgan bolalar rivojlanishi jismoniy xususiyati juda past darajada bo‘ladi. Eshitishning buzilishidan, asosan, aniqlik, muvozanat va harakat koordinatsiyasi, quvvat-tezlik xususiyatlari azob chekadi. Ularning rivojlanishi bir xil emas. Quvvat tezlik xususiyatlari me’yordan bilinmas holda farq qiladi (5-10% orqada qoladi). Kar va zaif eshituvchi bolalarda harakat koordinatsiyasi va aniqligi me’yordan ortiq darajada orqada qoladi (15-20%ga). Muvozanat vazifasi murakkab bo‘lib, unda bir qancha analizatorlar qatnashadi (ko‘ruv, harakat va taktik). Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ko‘pchiligidagi muvozanatni saqlashni ta’minlovchi vestibulyar apparat faoliyatida buzilish kuzatiladi. Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda muvozanatning rivojlanishi darajasi

me'yordan 3-5 marta orqada qoladi. Harakatlarning pasayishida asosiy sabablardan biri bajarilayotgan harakatlar haqida so'zli informatsiya-larning chegaralanganligi hisoblanadi. Bola bilan istalgan harakatni bajarish funksiyasi tashkillashtiriladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni eshituv analizatori tomonidan tekshirish mutlaqo bo'lmagan yoki juda zaif. Kinestetik hissiyot harakatni tekshirishni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, lekin o'zi eshitishning pasayishidan jabrlanadi. Bu esa, eshitishida nuqson bo'lgan bolalarning harakatini bajarish jarayonida ortiqcha shovqin kelib chiqishiga, harakatlarning sekin-lashishi va sur'atsizligiga olib keladi. Bu yurish-turishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bolalar qadamlarini keng tashlashda qadamlarning assymmetriyasi kuzatiladi, korpusning qimirlashi ajratilgan yetishmov-chiliklardan ko'pchiligi yugurishda ham kuzatiladi, oyoqlar ortiqcha harakat qiladi, tana oldinga egilgan bo'ladi. Yugurish «yiqilayotgan» tusda bo'ladi. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda yugorganida qo'llarining harakati beo'xshov bo'ladi — ular egilmaydilar. Eshitishida nuqson bo'lgan bolalarning rivojlanishi xususiyatlari tarbiyalanuvchiga mos yakka yondashishga yordam beradi va karlik o'rnini to'ldirish, salbiy ta'sirini bartaraf qilish uchun shart-sharoit yaratib beradi.

Estetik tarbiya.

Estetik tarbiya maqsadga yo'naltirilgan, o'quvchilar nafosat tuyg'usini rivojlantirishda doimiy ta'sir ko'rsata oladigan, tabiat go'zalligini tushuna oladigan, san'at, jamiyat, badiiy qarash va badiiy ijod qobiliyatini rivojlantirish jarayonini o'z ichiga olgan tarbiyadir. Maktab-internatlarda o'quvchilarga estetik tarbiya berilganda, estetik tarbiyaning ilmiy pog'onalari va uning o'ziga xoslik tomonlariga qarab ish olib boriladi. Estetik tabiatni to'la anglab yetishga intilish, inson va uning qo'li bilan dunyoga kelgan ishlarni anglash, xatti-harakat va o'ylagan narsaning ijobat bo'lishi, tashqi ko'rinishidan sirli, biroq tiriklik bilan bevosita bog'liqidir. Bu xulosadan estetik tarbiyaning asosiy tamoyilli, ya'ni emotSIONallik, fikrlash, vaqt ni baholay olish va insonning faoliyati degan fikr kelib chiqadi. Estetik qabul qilishni ilmiy tarzda bolalarning dunyo go'zalliklarini psixologik-pedagogik sharoitda qabul qilishi deyish mumkin. San'atni qabul qilish jarayonida, bиринчи navbatda, inson hissiyoti, uning tasavvuri va esda tutish qobiliyati, fikr yuritish va nutq muhim ehamiyatga ega. Psixologlar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda eng

asosiy diqqat-e'tiborni ko'rayotgan narsaning syujeti-mazmunini qabul qilishning asosi deb oladilar. San'at asarining tasviriy formasi emotsiyonal holat va ong bilan qabul qilinishi kerak. O'quvchilarni san'at asarlarni qabul qilishga, tahlil qilib, fikrlashga o'rgatish lozim. Nutq o'stirish ustida ishlash, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda estetik yo'nalishda ijobiy natijalarga erishishga yordam beradi.

4.3.Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning mehnat tarbiyasi

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning mehnat tarbiyasi juda murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, bolalarni turli mehnat faoliyatiga jalb qilish ko'zda tutilgan. Mehnat tarbiyasi maqsadi o'sib kelayotgan avlodga qo'yiladigan talablar va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanishiga qarab belgilanadi. Bunday maqsadlarga kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning psixologik g'oyaviy tayyorgarligi kiradi. Birlamchi nuqsonni yengish uchun bir-biri bilan uzviy bog'langan mana shu vazifalarni yechish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning umumiy rivojlanishiga, ularning mehnatga tayyorgarligiga va mehnatga astoydil yondashishiga qaratilgan. Surdopedagoglarnig izlanishlari shuni ko'rsatdiki, nutqi rivojlanmaganligi sababli eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning gapirish hamda fikrlash qobiliyati zaif bo'lganligi sababli mehnatga vijdongan yondashishi mumkin. Kar va zaif eshituvchi bolalarning qobiliyatiga qarab o'qituvchilar shunday ish olib borishlari kerakki, ular zaifligini yengib mehnatga o'rgansinlar. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning mehnatga psixologik qarashlari har bir ishni sidqidildan bajarishga, boshqalarga kerak bo'lishga, butun kuchini xohishi bilan berilgan vazifani tushunib bajarishga qaratilgan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik tayyorgarligi o'quvchilarning xalq uchun foydali mehnat bilan shug'ullanishiga yordam beradi. Yuqori sinfdagi kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning mehnat faoliyatini o'rganish bir qancha guruhlarning ajralib chiqishini ko'rsatadi.

Jamoa bo'lib ishslashga moyil o'quvchilar mehnatda o'zining shiori uchun muvaffaqiyat keltirishga harakat qildilar. Sinfiga, guruhiга yoki o'z o'rtoqlari bilan birga bo'lishga harakat qildilar. Shaxsiy moyillikka ega yuqori sind o'quvchilari nazariy qiziqishlari yoki nazariy faoliyatlarining natijasidan kelib chiqqan holda

shaxsning kerakligiga ular tomonidan baho beriladi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning umumiyligi moyilliklari kamroq uchraydi. Bu shundan dalolat beradiki, maktab pedagogik jamoasi bunday moyillikning kerakligini tushuntirishi zarur. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning mehnatga nazariy tayyorgarligi va mehnat faoliyatida kerakli bo‘lgan fanlarni, rejalashtirish ishini tashkil qilish kabilar va texnik tayyorgarlik (arralash, kesish, randalash va boshqalar) kiradi. Surdopedagoglarning (A.P.Gozova, V.A.Lodavis, T.S.Zikova, L.A.Novoselov va boshqalar) ishlarida kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning mehnatni o‘rganish ko‘nikmalarini oshirish ko‘rsatilgan. Kar va zaif eshituvchilarni mehnat faoliyatiga o‘rgatish eshituvchilarga qaraganda katta qiyinchiliklar bilan o‘tadi. Bu ularning eshitish zaifligi anatomofiziologik funksiyalarining buzilishi, asosan, vestibulyar apparatning buzilishidan kelib chiqadi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning mehnat tarbiyasiga korreksiya vazifalari qo‘yilgan bo‘lib, birlamchi nuqsonlarni yengishdan iborat. Shunday qilib, mehnat tarbiyasining maqsadi o‘quvchilarning mehnat tayyorgarligini kuchaytirishdan iborat.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning mehnat tarbiyasi mazmuni turli mehnat faoliyatida aks etadi. O‘quv ishlari maktab dasturida ko‘rsatilgan bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan. U o‘quvchilarning dunyoqarashlari va amaliy rivojlanishiga yordam beradi. Bilimlarni faol o‘rganish surdopedagog tomonidan olib boriladi. Har qanday mehnat kabi o‘qish jismoniy kuchning ketishi bilan bog‘liqidir. Shuning uchun o‘quvchilar irodali bo‘lishi talab qilinadi. Intellektual mehnat o‘quvchining o‘zini o‘zgartirishi aqlan rivojlanishi bilan ajralib turadi. Maxsus maktablarda bilim berish nutqni rivojlanish bilan birga olib boriladi. Boshlang‘ich maktablardanoq o‘quvchilar birlamchi bilimlarni egallaydilar. Ular tabiat, atrof-muhit haqida tushuncha oladilar. Tabiat hodisalarining o‘xhashligi, qarama-qarshiligi va bog‘liqligini o‘rganadilar. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning keyingi bosqich darslarida umumiy ta’lim bilimlarini oshirish uchun bir qancha o‘quv dasturlaridan foydalilaniladi. Tarix, matematika darslari, texnik bilimlar mehnatga muhabbat shakllanishi uchun yordam beradi. Gumanitar fanlar mehnatning umumiy qiymatini, mehnatning xususiyatini ochishni o‘rgatadi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni mehnatga o‘rgatish vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O‘quv faoliyatining asta-sekin o‘zgarishi o‘quv mashg‘uloti davomida o‘quvchining fikrlashi rivojlanishiga yordam beradi.

2. O‘quv bilimlarini o‘zlashtirish jarayonida mehnat qilishga o‘rganish va nutqi hamda eshitish qobiliyatini rivojlantirish.

3. Darslarda aqliy mehnatni rivojlantirish.

Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning mehnat tarbiyasi maxsus fan bo‘lib, o‘quv rejasiga kiritilgan. Maxsus darslardagi mehnat alohida jarayon bo‘lib, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ta’limtarbiyasi bilan uzviy bog‘liq. Mehnat o‘quvchilarning boshlang‘ich bilimlarini, mehnat tajribalarini, texnik fikrlashlarini rivojlantirishga qaratiladi. Tarbiya jarayonida o‘quvchilarning mehnatga muhabbat, berilgan ishga sidqidildan yondashishi ko‘zda tutilgan. Mehnat tarbiyasi o‘quv dasturiga kiritilgan bo‘lib, maqsad, mazmun, uslub, ish turlari o‘qish jarayonining turli bosqichlarida bajariladi. Mehnat darslari umumta’lim predmetlari bilan birgalikda olib boriladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning mehnati maxsus darslarda qobiliyatiga qarab bo‘linadi. Bir tomonidan, aqliy mehnat bo‘lib, turli bilimlarni o‘quvchilarning o‘zlashtirishi bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, zaif eshituvchi bolalarning ta’limini yosh bosqichlariga qarab tashkil qilishdir. Shular qatorida tashkilotlarda ishlash, mahsulot tayyorlashga rahbarlik o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri olib borilishi lozim.

Kar va zaif eshituvchi bolalar mehnatga turli shakllarda o‘rgatiladi, eng asosiyalaridan biri dars hisoblanadi. Shu bilan birga, korxonalarga ekskursiyalar uyuştilriladi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning umumiyligi mehnati turli-tumanligi, xalq uchun kerakli faoliyat bilan shug‘ullanishi, sinf hayotida faol qatnashuvidan iborat. U maishiy korxonalarda ishlashga bo‘linadi.

Maishiy mehnat oddiy mehnat turi bo‘lib, unga hamma o‘quvchilar jalb etiladi. Har doim maishiy xizmat bilan shug‘ullanishi, o‘quvchilarning maxsus o‘quv-tarbiya muassasalarida olib boriladi. U o‘quvchilar uchun ham uy, ham mакtab hisoblanadi. Maishiy xizmat eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun xos va katta ahamiyatga ega. U o‘quvchilarda buyumlarni ehtiyojkorlik bilan ishlatish, bir-biriga yordam berish, berilgan ishni sidqidildan bajarish xususiyatlarini shakllantiradi.

Maishiy xizmat kar va zaif eshituvchi bolalar uchun qimmatli hisoblanadi. Chunki u har doim tirishqoqlikni tarbiyalaydi. Kar va zaif eshituvchi maktab o‘quvchilarida maishiy xizmat o‘z-o‘ziga xizmat qilish va mehnat darslarida olib boriladi. O‘z-o‘ziga xizmat qilish ishlariqa quyidagilar kiradi:

– shaxsiy gigiyena, kiyimlarni toza tutish, xonalarni yig‘ishtirish, ovqat tayyorlash, idish-tovoqlarni yuvish, o‘ziga kerak bo‘lgan narsalarni tayyorlash va ta’mirlash.

O‘z-o‘ziga xizmat qilish quyidagi sanitariya-gigiyena rejimiga rioya qilishni o‘z ichiga oladi: sinfning, kabinet va mehnat xonalarining ozodaligini saqlash, o‘simliklarni parvarish qilish, jonli burchakdagi hayvonlarni parvarishlash. O‘z-o‘ziga mehnat qilish qo‘l mehnati yoki mexanizmlashgan, oson va qiyin, individual yoki guruhli bo‘lishi mumkin. Mehnat qilish ko‘nikmalari do‘sstariga, katta sinf o‘quvchilari va surdopedagogga taqlid qilish bilan o‘zlashtiriladi.

Muhimi tarbiyalanuvchining qilgan ishi haqida gapirib berishdir. Kar va zaif eshituvchi bolalarning o‘z-o‘ziga xizmat qilishi mehnat darsidan tashqari mashg‘ulotlarda kengaytiriladi va boyitiladi. Bu mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni ovqat qilish, idish-tovoqlarni toza tutish, kiyimlarni ozoda tutish va boshqa mehnat turlari bilan tanishtiriladi. Agar maishiy xizmat butun maktab faoliyatini o‘z ichiga olib, o‘quvchilar o‘z-o‘zini boshqarishsa, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarning o‘z-o‘ziga xizmat qilishining asosiy shakllaridan biri navbatchilikdir. U maktab-internatda intizomni ushlab turishga, o‘quvchilarning mustaqil, intizomli bo‘lishiga yordam beradi. Maktab-internat bo‘yicha navbatchilar maktab qoidasiga rioya qilib, o‘quvchilarning tashqi ko‘rinishi hamda maktab jihozlari sarishtaligini nazorat qiladilar. Odatda, navbatchilar maktab, sinf, internat, guruhlar bo‘yicha belgilanadilar. Kar va zaif eshituvchi bolalarning navbatchilik vaqtidagi bilim va ko‘nikmalari boshqa qiyin shakldagi mehnat orqali mustahkamlanadi. Bular – shanbalik va yakshanbaliklarda maktab hududini tozalashdir. Kar va zaif eshituvchi bolalarning korxonalarda qiladigan mehnati xalq iste’mol mollarini tayyorlashdan iborat. Korxona mehnati o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. U o‘quvchilarning amaliy tajribasini osbiradi, texnik ma’lumotlarini kengaytiradi, bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga

yordam beradi. Shu bilan birga, korxona mehnati o‘quvchilarda intizomni, tirishqoqlikni, asrash-avaylash sifatlarini takomillashtiradi.

– Kar va zaif eshituvchi bolalarning korxona mehnati mehnat ta’limining bo‘linmas qismidir. Umummehnat, umumtexnik va maxsus tayyorgarlikda keng qo‘llaniladigan korxona mehnati o‘quvchilarni mehnati jarayonining bo‘g‘inlari bilan tanishtiradi. Korxona mehnati jarayonini tahlil qilishga o‘rgatadi va eshitadiganlar bilan muloqotda bo‘lishni ko‘zda tutadi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy o‘sishi uchun maxsus maktablarning o‘quv rejasiga 2-sinfdan 1-11-sinfgacha jamoa va korxona mehnati majburiy kiritilgan. Jamoa va korxona mehnati mazmuni jihatidan turlicha bo‘lib, u maktab jamoasiga atrofdagi odamlarga, korxonalarga, muassasalarga foyda keltiruvchi mehnat turlariga bo‘linadi. Jamoa va korxona mehnatinini tashkil qilishda maxsus maktablarning moddiy-texnika bazasidan, o‘quv korxona tashkilotlaridan, zavod va fabrikalardan foydalaniladi. Mehnatning keng tarqalgan turi bu korxonalarining ayrim buyurtmalarini bajarishdan iborat. Buning uchun maktab mehnat xonalarida o‘quvchilarga mos ish tanlab olinadi, qo‘l va stanok mehnati texnologiyasi o‘rganiladi. Mahsulotning sifati, buyurtmani ishlab chiqish muddati rejalashtiriladi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning jamoa va korxona mehnati amaliyoti shuni isbotlaydiki, haq to‘lovchi mehnat bilan tekin mehnat uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarning pullari jamoa hamda shaxsiy talablarga ishlataladi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni shaxsiy va jamoa foydali mehnatiga jalb qilish ularni jamoaga kerakligini his qilishga o‘rgatadi. Mehnat jarayonida o‘quvchilar hayotni yaxshi tushunadilar.

4.4. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tarbiyalash metodlari

Tarbiya metodlari deganda, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish maqsadida bolaning ongi, his-tuyg‘ulari, irodasi, xulq-atvori va munosabatlari tizimiga ta’sir ko‘rsatish metodlari tushuniladi.

Tarbiyalash masalalari, turli metodlarni qo‘llash yordamida amalga oshiriladi. Umumiylar va maxsus pedagogika orqali turli metodlarni tasniflashga harakat qilib ko‘rilgan. Umumiylar pedagogikada, masalan, ishontirish, o‘qitish, mashq bajartirish, jamoa bo‘lib ishlash jarayonida tarbiyalash, ya’ni tarbiyalash vaziyatini

yaratish kabi metodlar bilan bir qatorda, qo'llab-quvvatlash, qoralash, rag'batlantirish, jazolash va h.k. metodlar o'rinni olgan.

Surdopedagogikada tarbiyalash metodlari quyidagicha guruhlangan: o'quvchilarning xulqini tarbiyalash metodlari, o'quvchilarning ongini tarbiyalash metodlari, rag'batlantirish va jazolash metodlari.

O'quvchilarning xulqini tarbiyalash metodlariga o'qitish, mashq bajartirish, jamiyatga nafi tegadigan ishlarni va o'yinlarni tashkil etish, taqlid qilish asosida ijobiy odatlarni tarbiyalash, pedagogik talablarni qo'ya bilish kabilalar kiradi.

Ko'p yillik tajriba shuni ko'rsatyaptiki, o'quvchilarning xulqini tarbiyalashda keng qo'llanayotgan metod bu ularning jamoa faoliyatlarini maqsadli tashkil etishdir. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ongiga xulq va ijobiy odatlarni singdirish, ko'p marotabalab misollarda xulqni ko'rsatish yo'li bilan hamda pedagogning birgalikda amalga oshiriladigan ishlar jarayoni misolida ko'rish mumkin.

Bolalarning ish faoliyatları ularning yoshlariga muvofiq holda bo'lishiga, ayniqsa, ko'proq ahamiyat berish lozim. Shuning uchun turli o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyatini inobatga olgan holda bu o'yinlarni kundalik va jamiyatga nafi tegadigan ishlar bilan almashtirib turish kerak. Jamoat ishlari shunday tashkillashtirilishi kerakki, unda bolalar bajarayotgan ishlarini ongli ravishda qilayotganliklarini, mehnat natijalarini ko'rib undan shod bo'lib, zavqlanayotganliklarini bilishi darkor.

Ko'pgina mutaxassislar pedagogik talablarni qo'ya bilish metodining effektivligiga ko'proq ahamiyat beradilar. Talablar shakliga ko'ra: yo'naltirilgan (buyruq) va ikkilamchi (iltimos, ma'qullah, ishonch bildirish, maslahat, aybdor qilish, ishonchsizlik bildirish, xavf solish) holda bo'ladi. Mutaxassislarning fikricha, eng tarbiyaviy samara, talablarni mohirona ketma-ket ishlata bilishdan hosil bo'ladi. Tajribalardan ma'lum bo'lishicha, o'quvchilar talablarga hissiy javob berib, xulq me'yorlarini tezda o'zlashtirib oladilar.

Yuqorida qayd etilganidek, tarbiya metodlari – bu shaxsning ijobiy tomonlari shakllanishiga, pedagoglarning tarbiyalanuvchilarga ta'sir qiluvchi yo'l-yo'riqlaridir. Tarbiya metodlarini tasniflashda turli xil yondashuvlar mavjud. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning

rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiya metodlarining quyidagi tasnifi qabul qilingan.

Axborotlar metodi: (o'quvchilarga axloq metodlari, normalari haqida ma'lumot berish, epik tushunchalar kiradi) Bunga suhbat, hikoya, tushuntirish, filmlar ko'rish, misol keltirish, pedagogik talablar kiradi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun informatsion metod murakkab hisoblanadi, chunki bu metod so'zlashuv nutqida asoslangandir.

a) suhbat – tarbiya metodi sifatida hayot muammolarini hal qilishni nazarda tutadi. O'rganilayotgan materialga qarab suhbat-epik, estetik va ijtimoiy-siyosiy suhbatlarga bo'lindi.

Estetik suhbat – o'quvchilarni estetikaga o'rgatish, tasviriy san'atga nisbatan qiziqishni uyg'otish. Bunday suhbat vositalari o'tilgan hikoyalar, yozuvchi yoki rassomlar hayoti haqidagi diafilmalarni ko'rish, rasmlarni ko'rish tabiat, inson go'zalligini kuzatish.

Epik suhbat – axloq tugunchalarining ma'nosi tarbiya normalari orqali ochib beriladi. Eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bu tushunchalarni qiyinchiliklar bilan tushunib oladilar.

Epik tarbiya vositalariga ekskursiyalar, rasmlar kiradi.

Ijtimoiy-siyosiy suhbat. O'quvchilarning jamiyatda va siyosatda ro'y berayotgan hodisalarni bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgandir. Bu suhbat vositalariga bayramlar, xalqaro hayot hodisalari kiradi.

b) tushuntirish – eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar har doim ham axloq normalarining talablariga jiddiy ahamiyat bermaydilar. Pedagog tushuntirishi (frontal, individual) o'quvchiga sodir bo'lgan vaziyatdan chiqib ketish uchun axloq normalarini bilish kerakligi tushuntiriladi.

d) pedagogik talablar – tarbiya metodi sifatida juda katta tarbiya kuchiga egadir. Bu metodning o'ziga xosligini hisobga olgan holda kichik yoshli bolalar tarbiyasiga qo'llash tavsiya etiladi. Eshitish nuqsoniga va nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar pedagogning uzun tushuntirishi yoki hikoyasiga ko'ra, qisqa so'zlashuv talab-buyruqlarni (turing, to'g'ri o'tiring, kitobni olib qo'ying va boshqalar) tushunishi oson.

e) ma'reza, bahslashuvlar. Tarbiya metodi sifatida kar va zaif eshituvchilar mактабининг ўюғори сінгіларда оқылланылады. Лексика ва

dokladlarni o'tkazish jarayonida so'zlashuv nutq va daktil nutq qo'llaniladi. Leksiya va dokladlarni o'tkazishga o'quvchilar oldindan tayyorlanadilar.

f) misol keltirish metodi. Tarbiya metodi sifatida bolalarga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu metodlarning kuchi shundaki, har bir bola taklif qilish xususiyatiga ega. Bu metodning moyilligi shundaki, kar va zaif eshituvchi bolalar, ko'rgazmalar orqali xulq va qilingan faoliyatni yaxshiroq tushunadilar.

Eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar uchun ko'rgazmali misol ularga «yaqin» va tushunarli bo'lgan narsalardan iborat bo'lishi kerak. Buning uchun katta kishilai misol qilib olinadi: o'qituvchi, tarbiyachi, sinfdoshlari.

Amaliy faoliyat metodi: o'quvchilarning xulqi va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgandir. Bu guruhga o'rgatish, mashq qilish, o'yin va vaziyatli tarbiyalovchi metodlar kiradi.

Bu metod eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga juda qo'l keladi, chunki ularning ko'rgazmali tafakkuri to'liq shakllangan bo'ladi.

a) o'rgatish va mashq qilish metodi xulqning ijobiy shakllanishiga qaratiladi. Bu metod yordamida bolalarda gigienik odatlar, axloqiy madaniyat malakasi, rejalilik shakllanadi.

O'rgatish – harakatni ko'rsatish bilan boshlanadi. O'qituvchi ko'rsatadi, keyin talab qilinayotgan harakatni o'quvchilar takrorlaydi. Ko'rsatish juda aniq, tushunarli bo'lishi shart. O'qituvchi juda murakkab har bir harakatni alohida ko'rsatishi mumkin. Faoliyat ko'rsatilgandan keyin bolalar mashq qilishni boshlaydilar.

b) o'yin tarbiya metodi sifatida kichik yoshdag'i kar va zaif eshituvchi o'quvchilar tarbiyasida qo'llaniladi.

O'yin ko'nikmasi kar bolalarda normal bolalarga ko'ra ancha kech shakllanadi. Turli o'yinlar tarbiya vositasi bo'lishi mumkin. Harakatli o'yinlar harakatlarni shakllantirish bilan birga, jamoada ishslash, ma'lum qoidalarga rioya qilishni o'rgatadi.

Bola hayotida rolli o'yinlar katta ahamiyatga ega. Chunki bu o'yinda bola biron bir rolni bajaradi, axloq normalarga rioya qiladi.

d) ijtimoiy-foydali faoliyat metodi kar va zaif eshituvchi bolalar uchun juda muhimdir. Ijtimoiy-foydali faoliyat bolalar jamoasi bilan amalga oshiriladi.

Jamoalashtirilgan ish o‘quvchilarni rejalashtirishga, taqsimlashga, nazorat qilish va baholashga o‘rgatadi.

e) *tarbiyalovchi vaziyatlar*. Tarbiya metodi sifatida bolalar xulqini shakllantirishga qaratiladi. Bu metod nafaqat bitta o‘quvchiga, balki butun sinfga ta’sir qiladi. Tarbiyalovchi vaziyatlarda buyruq berish, o‘yin, o‘quv vaziyatlari ajralib chiqadi.

Buyruq beruvchi vaziyatlar metodi vositasida bolalarda jamoada ishslash ko‘nikmalari shakllanadi.

Eshitish nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarga berilayotgan buyruqlar ularga tushunarli bo‘lishi kerak.

O‘quv vaziyatlar biron-bir xato ishni qilib qo‘ygan bolaga ta’sir qilib, ishni sinf jamoasi bilan hal qilishga o‘rgatadi.

Tarbiyaning qiziqtirish metodi.

Bu metod o‘quvchilarning axloqiy his-tuyg‘ulariga qaratilgandir.

a) *rag‘batlantirish*. Bu metod asosida insonga ijobiy baho berish yotadi. Rag‘batlantirish bolada ijobiy xislatlarni va o‘z kuchiga ishonch hosil qildiradi. Rag‘batlantirish turlari xilma-xildir. Masalan: «qo‘shib-qo‘yish»; fishkalar bilan rag‘batlantirish. So‘zlashuv nutqini shakllantirish jarayonida o‘qituvchi rag‘batlantiruvchi so‘zlarni keltiradi: «yaxshi», «to‘g‘ri».

Rag‘batlantirish turli vaziyatlarda qo‘llaniladi. Sinf oldida, mакtab jamoasi oldida, ota-onalar oldida.

b) *jazolash*. Bunda salbiy baholar beriladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar bilan bu metodni juda ehtiyojkorlik bilan qo‘llash kerak. Maxsus maktablarda jazolashning turli ko‘rinishlari ishlataladi, xo‘mrayish, bosh bilan silkitish, qo‘l harakatlari va boshqalar. Keyin so‘zli jazolashlar qo‘llaniladi: «yomon», «uyat», «xunuk» va boshqalar.

Jazolashning so‘zli ko‘rinishidan tashqari, maxsus maktablarda o‘quvchilarning salbiy harakatini tartibga soluvchi usullar qo‘llaniladi. Karidorda yugurding – to‘xta, tinchlan – tuzat; o‘rtog‘ing bilan urishding – kechirim so‘ra kabi harakatlardan foydalaniladi.

4.5. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni oilada tarbiyalash

Kar va zaif eshituvchi bolalarni oila sharoitida o‘qitish va tarbiyalash xususiyatlari bir qator surdopedagoglar (B.D.Korsunskiy, E.I.Leongard, E.V.Mironova, L.P.Noskova, T.V.Pelimskaya,

N.A.Rau, Ye.F.Rau, N.D.Shamatko va b.) ishlarida bat afsil o'rganilgan.

Maktabgacha bolalik davrida ota-onalar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni maxsus bolalar muassasalariga berish yoki oilada tarbiyalash haqida o'zлari qaror qiladi. Oilada tarbiyalash ma'qul topilgan hollarda bunday bolalarga surdologik kabinetlar surdopedagoglari, maslahat guruhlari yoki maxsus maktabgacha muassasa qoshida tashkil qilinadigan vaqtinchalik tashrif buyurish guruhlari pedagoglari, shuningdek, eshitish va nutqni reabilitatsiyalash markazlari xodimlari yordam ko'rsatadi.

Bunday tarbiya ota-onalar tomonidan mutaxassis tavsiyalarining bajarilishiga ko'p bog'liq. Ularga asoslanib ota-onalar, bolaning umumiy rivojlanishi, birlamchi nuqson oqibatlarini bartaraf qilishga ko'maklashadigan, zarur pedagogik yordamni realizatsiyalaydigan turli mashg'ulotlarni olib borishlari mumkin.

Ota-onalar bilan yakka tartibda (individual) ish shakllari ular bilan o'zaro tushunishni yo'lga qo'yish, pedagoglarning oilada eshitishida nuqsoni bo'lgan rivojlanish xususiyatlarini tushunishlari uchun juda muhim ahamiyatga ega. Bu kabi ish shakllariga ota-onalar bilan suhbat, konsultatsiya, pedagogning oilaga tashrifi, ota-onalarning bolalar bog'chasidagi mashg'ulotda bo'lishi, bolalar uchun dam olish hamda bayram kunlari uchun topshiriq va tavsiyalarni tayyorlash, boshqa shahardan kelgan bolalarning ota-onalari bilan yozishmalar kiradi. Ota-onsa hamda oilaning boshqa a'zolari bilan suhbatni bola maktabgacha muassasaga har kuni keladigan bo'lsa, ertalab yo kechki payt; bola muassasada besh kun davomida bo'lsa, dushmanba va juma kunlari; boshqa shaharlik ota-onalarning tashrifi vaqtida o'tkazish mumkin. Bolalari maktabgacha muassasaga endigina qabul qilingan ota-onalar bunday suhbatlarga, ayniqsa ehtiyoj sezadi. Bunday suhbatlar maxsus vaqt ajratishni talab qiladi, zero, ota-onalar bilan muloqotda shoshma-shosharlik va tezkorlik ularning ochiq suhbatga moyilligini ta'minlamaydi, yuzaga kelgan savollarga to'liq javob olish imkonini bermaydi. pedagoglardan nafaqat professional maslahatlar, balki takt, ota-onalarga xayrixohlik, hamdardlik talab etiladi, chunki ularning ko'pchiligi farzandining nuqsonini juda og'riqli qabul qiladi.

Odatda, hafta oxirida pedagoglar ota-onalar uchun turli bo'limlarga oid topshiriq va tavsiyalar tayyorlaydi. Bolaning ota-onasi bilan uchrashuv chog'ida har bir bolaning imkoniyatlarini hisobga

olgan holda topshiriqlar xarakteri aniqlashtirib olinadi. Ota-onalarga bolaning materialni o'zlashtirishini maishiy vaziyatlar bilan bog'lash, o'yinli usullarni qo'llash, faoliyatning boshqa turlarini (applikatsiya, yopishtirish, konstruksiyalash, qo'l mehnati) kiritish, turli muassasalarga sayohatlarni uyuştirish haqida maslahatlar beriladi. Ayrim hollarda pedagog maslahatlaridan to'g'ri foydalana bilmagan yoki mashg'ulotlar mazmunini tushuna olmagan ota-onalarni mashg'ulotlarga taklif qilinadi. Bu mashg'ulotlar davomida u yoki bu bo'lim, masalan, eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha ish metodikasi ochib beriladi.

Ota-onalar uzoqda yashagani va maktabgacha muassasaga tez-tez kela olmasligi holatlarida pedagog ular bilan xatlar orqali yozishmani yo'lga qo'yadi. Ularning savollariga, jumladan, bola tarbiyasi bilan bevosita bog'liq bo'limgan, masalan, bolaning salomatligi, maktabgacha muassasada yashash sharoitlari haqida savollariga ham javob beradi. Bolalarni ota-onasi bilan yozishmaga jalg qilish: bolaning ko'z oldida konvertni yelimlash, manzilni yozish, ota-onasining rasmini ko'rsatish juda muhim. Bolalar rasm solishi, kichik matnlar yozishi, pedagog yordamida tabrik otkritkalarini imzolashi mumkin. Pedagog bola bilan birgalikda olingen har bir xatni muhokama qilishi, oilaning hayoti haqida, ota-onasi o'z farzandi haqida g'amxo'rlik qilayotgani haqida tushunarli tarzda gapirib berishi juda muhim. Ota-onalarning hamma xatlarini saqlab qo'yish kerak, chunki bolalar ularni qayta-qayta o'qishni yaxshi ko'radi.

Bola va uning oilasi uchun muhim hodisa surdopedagog yoki tarbiyachining ularning uyiga tashrifi bo'lishi mumkin. Bunday tashriflarga pedagog oldindan tayyorlanadi, ota-onalarga savollar, taklif, maslahat va tavsiyalarni puxta o'ylab oladi. Oilaga tashrifni bola hayotidagi biror hodisa bilan, masalan betobligi tufayli maktabgacha muassasada bo'limganligi, tug'ilgan kuni va b. bilan bog'lash maqsadga muvofiq. Tashrif davomida bolaning yashash tarzi, ota-onaning u bilan muloqot vositalarini kuzatish, shu oila uchun dolzarb bo'lgan bola tarbiyasi muammolarini muhokama qilish maqsadga muvofiq. Pedagog ota-onalarga uyda maktabgacha tarbiya muassasasi kun tartibiga o'xshash kun tartibiga rioya qilishning muhimligini, nutqiy muloqotning, atrofidagilar haqida tasavvurlarini kengaytirishning zarurligini tushuntirishi; bola bilan uning maishiy faoliyatda ishtiroki, sayrlar, teatrda, sirkda bo'lish va b. davomida

rivojlantirish ishlarini olib borish haqida gapirib berishi kerak. Oilaga tashrif davomida bolaning bolalar bog‘chasidagi ayrim qiyinchiliklari, masalan, ozoda emasligi, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘nikmalarini zaif egallaganligi xarakterini aniqlashtirish lozim. Bu hollarda ota-onadan bolaning o‘zi uyda nimalar qilishini, kattalar yordamidan qanday foydalanishi, unga qandaydir vazifalar berishlarini aniqlashtirib olish maqsadga muvofiq. Pedagog ota-onalarga mehnatsevarlik, madaniy-gigienik ko‘nikmalarni tarbiyalashga oid maslahatlar beradi. Keyingi tashriflar davomida bu tavsiyalar qanday bajarilganini aniqlashtirish kerak bo‘ladi.

Maktabgacha muassasalar faoliyatida ota-onalar bilan ishslashning jamoaviy shakllaridan ham foydalaniadi. Bularga umumiy va guruh ota-onalar majlislari, lektoriylar, «davra suhbatlari», ota-onalar konferensiyalari, bolalar bilan ishslashda tajriba almashish bo‘yicha seminarlar, guruhda konsultatsiyalar, ochiq eshiklar kuni, bolalar ishlari ko‘rgazmalari, bayram va ertaliklar, muassasa va guruh tadbirlarida ota-onalarning ishtiropi va sh.k. ni kiritish mumkin.

Ota-onalar majlisi keng tarqalgan ish shakllaridan biri sanaladi. Majlis umumiy - butun maktabgacha muassasa yoki guruh turbiyanuvchilari ota-onalari uchun bo‘lishi mumkin. Umumiy ota-onalar majlislari yiliga 2–3 marta, guruhda esa har chorakda o‘tkaziladi. Umumiy majlislarda ota-onalarni maktabgacha muassasa ishining mazmuni bilan tanishtiriladi, ma’muriyatning ma’lum vaqt oralig‘idagi faoliyat to‘g‘risidagi hisoboti, ota-onalar qo‘mitasining hisoboti tinglanadi. Ota-onalar uchun qiziqarli mavzularda, masalan, «Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar tarbiyasida o‘yinning roli», «Eshitish va nasliylik» kabi mavzularda ma’ruzalar qilinadi.

Guruh ota-onalar yig‘ilishlarida shu guruh ota-onalari uchun dolzarb masalalar muhokama qilinadi. Surdopedagog va tarbiyachi ota-onalarni bolalar tarbiyasi va ta’limining turli yo‘nalishlariga oid ishlar mazmuni bilan qulay va tushunarli tarzda tanishtiradi. Bolalarning oiladagi tarbiyasi haqidagi axborotlar, masalan, «Uch yoshli bolalar uchun kun tartibini tashkil qilish», «Bolalarda madaniy-gigienik ko‘nikmalarni tarbiyalash» va sh.k. bilan chiqadigan tarbiyachilarining ishtiropi muhim sanaladi. Guruh ota-onalar majlisida pedagoglar ta’limning natijaliligi, turli yo‘nalishlardagi ish natijalarini haqida ota-onalarga ma’lum qiladi. Bolalar bilan ish samaradorligini tavsiflayotib, e’tiborni qiyinchiliklarga, bola rivojlanishidagi salbiy

tomonlarga qaratmasdan, balki bolaning imkoniyatlari, uning ta'llimda ilgarilab borishini ko'rsatib berish muhim. Bola bilan ishdagi qiyinchiliklarni ota-onalar bilan yakka tartibdagi suhbatlarda ochib bergen, muhimi ota-onalar bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun nima qila olishlarini ko'rsatib bergen ma'qul. Guruh ota-onalar majlisi pedagoglardan jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi. Bunda xabarni tayyorlash, ko'rgazmali-illyustrativ materialni (tablichkalar, qo'l bola kitobchalar, didaktik o'yinlar, fotosuratlar, rasmlar, bolalarning ishlari va sh.k.) tanlash katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, pedagoglar muhokama mavzusiga oid ota-onalar uchun qulay, tushunarli adabiyotlarni tavsija qilishlari, uni o'qiganda nimalarga e'tiborni qaratish lozimligini tushuntirishlari zarur. Ota-onalar majlislariga ota-onalar ishtirokida tayyorlangan bolalarning ishlari, rasmlari ko'rgazmasini tayyorlash maqsadga muvofiq.

Bolalarni o'qitishning konkret masalalari ko'pincha korreksion ishlar bilan bog'liq bo'lib, tematik ota-onalar yig'ilishlarida, davra suhbatlarida, ota-onalar uchun lektoriylarda muhokama qilinadi.

Ota-onalar universiteti yoki lektoriy ota-onalarni surdopsixologiya va surdopedagogikaning umumiyligi masalalari bilan ma'muriyat tomonidan oldindan tuzilgan reja asosida sistemali tarzda tanishtirib borishni ko'zda tutadi. Ota-onalar uchun vrach, metodist, psixolog, surdopedagog ma'ruzalari, odatda, oyda bir marta o'tkaziladi.

Davra suhbati mavzusi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasi va ta'llimining aniq muammolari: surdoprotezlash masalalari, ovoz kuchaytirish apparatidan to'g'ri foydalanish, til o'qitishda turli nutq shakllarining o'zaro aloqadorligi, oilada eshitish idrokini rivojlantirish ishlari, bolalar talaffuzini nazorat qilish va sh.k. bo'lishi mumkin.

Ota-onalar uchun konsultatsiyalar. Ota-onalar uchun umumiyligi yoki guruhda mavzuli konsultatsiyalari o'tkazilganda ota-onalar oldindan yozma ravishda savollarini berishi mumkin. Bir mavzu yuzasidan savollar to'planib qolganiga ko'ra ota-onalar uchun guruhli konsultatsiyalar mazmuni shakllantiriladi. Umumiyligi konsultatsiyalarda bolalar salomatligini muhofaza qilish, eshitish a'zolari kasalliklarini davolash, eshitish apparatlarini tanlash va ulardan to'g'ri foydalanish muammolari va ota-onalarni qiziqtiргan boshqa ko'plab masalalar muhokama qilinadi. Ota-onalar uchun guruhda konsultatsiyalar shu

yoshdagি bola tarbiyasi va ta'limiga oid aniq masalaga bag'ishlanadi. Pedagoglar axborotlari aniq xarakterga ega, ota-onalar uchun tushunarli bo'lishi, misollar namoyishi, turli didaktik vositalar bilan to'ldirib borilishi lozim. Konsultatsiyalar mavzusi «Oilada nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlar», «Yozma nutq shakllaridan foydalanish», «Eshitish idrokini rivojlantirish ishlari», «Bolalarni tabiat bilan tanishtirish» kabi bo'lishi mumkin. Ish xilma-xil: surdopedagog, tarbiyachilar ma'ruzalari kabi savol-javob shaklida ham tashkil qilingan bo'lishi mumkin.

Ota-onalar konferensiyalarini tashkil qilish muhim va foydali ish shakli sanaladi, uning maqsadi ota-onalarning oilada farzand tarbiyasi tajribasini ommalashtirishdan iborat. Bunday konferensiyalar yilda 1-2 marotaba o'tkaziladi. Ularni maktabgacha muassasa ma'muriyati, ota-onalar qo'mitasi, pedagoglar tayyorlaydi. Bu konferensiyalarda ota-onalar oilada farzand tarbiyasiga oid tajriba almashadi, turli yo'nalishlar, masalan, mehnatsevarlikni tarbiyalash, oilada bola bilan o'zaro munosabatlarni shakllantirish, jismoniy tarbiya bo'yicha ish mazmunini ochib beradi. Ko'pincha tajribali ota-onalar ishning tobora qiyin va o'ziga xos yo'nalishlari: nutq o'stirish, eshitish idrokini rivojlantirish, boshqa dolzarb masalalar bo'yicha tajribasi bilan o'rtoqlashishga intiladi. Odatda, ota-onalar ko'plab qiziqarli qo'llanmalar, fotosuratlar, video-, audioyozuvlarni namoyish etadi, ular bilan tanishish boshqa ota-onalar kabi pedagoglar uchun ham foydali bo'ladi. Bunday konferensiyalar o'z bolasining imkoniyatlariga ikkilanib qaragan, bolasining qobiliyatlariga ishonmagan ota-onalarga katta ta'sir kuchiga ega. Ota-onalar konferensiyasida iliq, do'stona muhit yaratiladi, ota-onalar va pedagoglarning yagona jamoasi shakllanadi. Maktabgacha muassasada ota-onalar konferensiyasiga bag'ishlab bolalar ishlari ko'rgazmalari uyuştiliriladi. Bolalarning konsert dasturlari konferensiyalarning qiziqarli davomi sanaladi.

Ota-onalar bilan ish shakllaridan yana biri ochiq eshiklar kuni sanaladi. Bu kunlari ota-onalar katta guruhlardagi frontal yoki individual mashg'ulotlarda qatnashishi, bolalarning sayr davomidagi, kun tartibi vaziyatlarini o'tkazish chog'idagi muloqoti va mashg'ulotlarini kuzatish, pedagoglar, katta tarbiyachi, mudir bilan uchrashish va suhbatlashish imkoniga ega bo'ladi. Yasli va kichik guruhlarda mashg'ulotlarni kuzatish bolalar ota-onalarni

ko‘rmaydigan qilib tashkil etilishi mumkin. Ya’ni ota-onalar bolalarni qo‘shni xonadan, parda ortidan va sh.k. kuzatishlari mumkin. Shu mактабгача muassasaga bolasi uchun yaqindagina yo‘llanma olgan ota-onalarni ham taklif qilish maqsadga muvofiq. Bunday tashrif, bolalarni kuzatishlar ota-onalarga bolalar bog‘chasidagi sharoit, bolalar bilan pedagogik ish uslublari va metodlari haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Ko‘pincha maktabgacha muassasaga tashrif ota-onalarga o‘zining bolasini maxsus maktabgacha muassasada tarbiyalash istagi to‘g‘riligiga ishonchini oshiradi, ba’zida aksincha, o‘z kuchlarini safarbar qilish va bolani oilada tarbiyalash va o‘qitishni tashkil qilishga ruhlantiradi.

Bolalar bog‘chasi xodimlarining eng muhim vazifasi bolalar, pedagoglar va ota-onalarning yagona jamoasini shakllantirish sanaladi. Ishonch, bola taqdiri haqida umumiy g‘amxo‘rlikni bolalar bog‘chasi umumiy bayramlarni o‘tkazish, bolalarning tug‘ilgan kunlarini uyda yoki bog‘chada nishonlash, ishlari ko‘rgazmalarini tashkil qilish, birgalikdagi sayr va sayohatlar kabi norasmiy voqealarni tashkil qilish hisobiga shakllantirish mumkin.

Ota-onalar bilan ishlarning yana bir muhim va qiziqarli shakli bog‘chada o‘tkaziladigan ertaliklar, bayramlarga ota-onalarni taklif qilish sanaladi. Ota-onalar o‘z farzandini bayramona sharoitda ko‘rishlari, musiqiy tarbiya, nutq o‘stirish bo‘yicha ishlarning natijalarini ko‘rishi, ijobjiy taassurotlar olishi muhim. Bolalar uchun ota-onalari bilan birga kuylagan, raqsga tushgan bayramlar yanada qiziqarli. Bayramlarda ishtirokdan tashqari, ota-onalarni sayr va sayohatlarni tashkil qilishga, bolalarning foto va videotavsirga olishni tashkil qilishga jalb etish mumkin. Ota-onalar pedagoglarga didaktik materiallarni (tablichkalar, qo‘lbola kitobchalar, didaktik o‘yinlar) tayyorlashda, metodik materiallarni ko‘paytirishda ko‘maklashishlari mumkin.

Ota-onalar bilan ish shakkidan biri turli ko‘rgazmali materiallar: bolalar ishlari ko‘rgazmalari, axborot stendlarini – ota-onalar burchagini jihozlash sanaladi. Bolalar faoliyat mahsuli – rasmlar, panno va applikatsiyalar va boshqalar bilan tanishish ota-onalarda ijobjiy taassurot uyg‘otadi. Pedagogning roli ishini namoyish va muhokama qilish vaqtidagi maslahatlari bu yo‘nalishdagi ishni uyda ham tashkil qilish imkonini beradi. Bola ishlarini tarbiyachining sharhisiz namoyish qilish ko‘p ham samara bermaydi, chunki ota-

onalar ishning vazifasi, bolaning shu ishni bajarish davomida mustaqillik darajasini hamma vaqt ham tushunib yetmaydi. Bola ishi muhokamasi chog'ida bolaning rivojlanganini ko'rsatish, uni bolaning, guruhda saqlanayotgan, oldingi ishlari bilan taqqoslash muhim.

Ota-onalar burchagida ular uchun foydali axborot jamlanadi. Unda tashkiliy tartibdag'i ma'lumotlar: guruh tarkibi, pedagoglarning aniq ism-familiyalari, kun tartibi, mashg'ulotlar jadvali bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu kabi ma'lumot ota-onalarga bolalarning maktabgacha muassasada bolalarning hayoti haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi. Odatda, ota-onalar burchagida guruh pedagoglari tayyorlagan yoki gazeta-jurnallardan maqolalar shaklida taqdim etilgan tariyaning turli yo'nalishlariga oid pedagogik tavsiyalar bo'ladi. Bu yerda ota-onalar uchun foydali bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya va ta'limga oid kitoblar, yangi maxsus adabiyotlarni joylashtirish maqsadga muvofiq. Shu yerning o'zidan bolalarning oiladagi tarbiyasiga oid ota-onalarning qiziqarli qo'llanmalarini, kundaliklari, yozuvlari joy olishi mumkin.

Ota-onalar bilan ishlarni olib borishda izchillik, sistemalilik, ularning real imkoniyatlarini hisobga olish juda muhim. Pedagog va ota-onalarning o'zaro tushunishi, hamkorlikdagi ishtiroti va faolligi rivojlantiruvchi va korreksion ishlarning umumiy natijasini ko'p jihatdan belgilaydi.

Tayanch tushunchalar

Tarbiya – bolalarga ilmiy bilimlar tizimini singdirish va buning natijasida har tomonlama shakllangan kishini tarbiyalash

Ta'lim – o'qitishning mahsuli bo'lib, o'qitish jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malakalar va tafakkur usullarining tizimi. Ta'limga ega bo'lishning bosh mezonini bilimlar va tafakkurning tizimliligi, ularning yaratuvchanlik, insonparvarlik yo'nalishida qo'llanishi belgilaydi.

Shakllantirish – kar va zaif eshituvchi bolalarning maxsus tashkil etiluvchi jarayon ta'siri ostida ijtimoiy me'yorlarni egallashlari va hayotga tayyorlanishlari.

Yaqin rivojlanish hududi – Kar va zaif eshituvchi bolaning kattalar yordamida yoki ular bilan hamkorlikda taqlid asosida o'zi

mustaqil ravishda egallay olmaydigan harakatlarni egallab, buning natijasida o‘z rivojlanishida nisbatan yuqoriqo pog‘onaga erisha olish imkoniyati. Bolaning dolzarb rivojlanish darjasи (bolaning mustaqil bajara oladigan vazifa va xatti-harakatlarining darajasiga ko‘ra belgilanadi) hamda uning eng to‘la hajmdagi (potensial, ya’ni uning kattalar rahbarligi ostida erishishi mumkin bo‘lgan) rivojlanish darjasи o‘rtasidagi chegara.

Savol va topshiriqlar

Maktab-internatdagи tarbiya turlarini xarakterlab bering. Uning tarkibida surdopedagogning o‘rnini ajratib ko‘rsating.

Pedagogik amaliyotga o‘tish jarayonida maxsus maktab o‘quvchilarining umumfoydali ishlab chiqarish mehnati nimalardan iborat?

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar tarbiyasining xususiyatlarini izohlang.

Tarbiya jarayonida kompensator va korreksion-rivojlantiruvchi yo‘nalishlarga misollar keltiring.

Qanday metodlar tarbiya metodlari hisoblanadi?

- Aqliy tarbiya vazifalarini izohlang.

Siyosiy-g‘oyaviy tarbiyaning vazifalari deganda nimalarni tushunasiz?

Axloqiy tarbiyaning vazifalarini ko‘rsating va ularning amalga oshirilishini izohlang.

Kar va zaif eshituvchilarni tarbiyalashda mehnatning ta’limiy, tarbiyaviy va korreksion rolini ko‘rsating.

Kar va zaif eshituvchi bolalarda muvozanatni shakllantirish yo‘llariga misol keltiring.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari va mazmuni nimadan iborat?

Nafosat tarbiyasining vazifalari va mazmuni nimadan iborat?

Ekologik tarbiya deganda nimani tushunasiz?

Huquqiy tarbiya deganda nimani tushunasiz?

4.6. Maxsus maktabda daktıl nutqqa o‘rgatish

Daktılologiya – kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqining o‘ziga xos shaklidir. U so‘zlashuv va imo-ishora nutqiga nisbatan

yaqindir. U yozma harakatga ko'ra yozma nutqqa o'xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar harflar emas, balki qo'l, barmoq harakatlari hisoblanadi. O'zbek tilining har bir harfi o'zining harakatli ifodasiga egadir. Daktil belgilarini uch guruhga tasniflash mumkin:

1. chizuvchi harflar (z, b, d);
2. harf shaklini ifodalovchi harflar (o, l, m, t);
3. shartli belgilar (v, j, n).

Daktil nutqi so'zlashuv nutqining barcha qoidalariga ko'ra shakllanadi va uni kar bola egallashi mumkin. Bog'cha davrda kar bola daktiologiyaga savod o'rganish uchun murojaat qiladi. Tadqiqot ko'rsatishicha, daktiologiya eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirish uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ye.N. Marsinovskaya tadqiqot natijalariga ko'ra, bu nutq formasining quyidagi belgilarini ochib beradi. Eshituvchi bolalarda daktillash 2,5 marta og'zaki nutqni bayon qilishga nisbatan orqada qoladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki nutqni bayon etish va daktillash tempi bir xil bo'ladi, ba'zan daktillash og'zaki nutqni bayon etishda oldindan o'tib ketish hollari ham kuzatiladi. Daktiologiya og'zaki nutqni o'zida namoyon qiladi, lekin suhbat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar daktil nutqiga nisbatan imo-ishora nutqidan keng doirada qo'llaniladi. L.A.Novikova va Ye.N. Marsinovskaya tomonidan o'tkazilgan maxsus tadqiqotlarga ko'ra daktiologiya ham og'zaki nutq kabi kinestetik sezgilar asosiga quriladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar fikrlash operatsiyalarida faqat artikulator apparatlarda, balki qo'l, barmoq muskullarida ham impulslar yuzaga kelgani kuzatilgan. Lekin artikulator apparatdagi nutqiy kinestiziylar, qo'l kinesteziyalariga nisbatan puxta bo'lib, tadqiqot obyekti sifatidan o'rganish talab etiladi. Ye.N.Marsinovskiya daktillash tempi og'zaki nutq talaffuzi yaxlitligiga ta'sirini o'rgatgan. Bu tajribalar ko'rsatishicha kar bola daktillash texnikasini yaxshi o'rganganda daktiologiya og'zaki nutq tempi va yaxlitligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Daktillash texnikasini yaxshi darajada egallamaslik, talaffuz to'g'riliqi, nutqni tushunarligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

А	Б	В	Г	Д	Е	Ж
З	И	Й	К	Л	М	Н
О	П	Р	С	Т	У	Ф
Х	Ц	Ч	Ш	Щ	Ъ	Ы
	Ь	Э	Ю	Я		

1-rasm.

Daktilologiyani yaxshi egallagan o‘quvchilar so‘zning tovush tarkibini to‘liq egallaydi. Ularda so‘zning tovush va daktıl obrazı o‘rtasida shartli aloqalar o‘rnatiladi. Lekin so‘zning talaffuzi yozilishdan uzoqlashsa tovush tarkibini o‘rganishda daktilologiya ta’sir ko‘rsatdi. Daktilologiyani va yozma nutqning o‘zaro munosabati juda murakkabdir. S.A.Zikov tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda, bu muammo tadqiq etilgan. Eshituvchi bola savodga o‘rgatishning boshlang‘ich etapida nutqni akustik va harakat obrazlariga tayanadi.

Bolani so‘zli yozishidan avval uni ichida yoki ovoz chiqarib o‘qishini ko‘rish mumkin. Kar bola og‘zaki nutqqa ega bo‘lganligi uchun savodga o‘rgatish davrida daktilologiyaga tayanadi. So‘ng bu jarayon bir vaqtida amalga oshadi, bola ham yozadi va daktillaydi. So‘zlashuv nutqini egallash darajasiga ko‘ra daktil kinesteziyalari asta-sekin siqilib, artikulator kinesteziyalar bilan almashinadi. U ham bola singari so‘zni talaffuz etib, so‘ng yozadi.

Daktilologiya atrofdagilar nutqini labdan o‘qishda ham muhim vosita sanaлади. Chunonchi, ayrim tovushlar labdan yomon o‘qiladi, shu o‘qishda daktilologiyadan foydalanadi. Lekin labdan o‘qish jarayonida daktilologiyadan foydalanish ham ijobjiy samara beradi. Labdan o‘qishning koloreya tizimida o‘z ifodasini topgan. Quyidagi jadvalda o‘zbek tili alifbosiga asoslangan daktilema alifbosi ifodalangan (1-rasm).

Daktil nutqini ahamiyati va uni og‘zaki yozma nutq shakllari bilan munosabati

Eshitish qobiliyatida nuqsoni bor mакtablarning tayyorlov sinflarda maxsus maktabgacha muassasalarda tarbiyalanmagan, nutqi mavjud bo‘lmagan bolalar o‘qitiladi. Bu kategoriyalagi bolalarni o‘qitishda juda katta qiyinchiliklarga duch kelinadi, chunki bunday bolalarda nutqini shakllantirishning qulay vaqtлari boy berilgan, nutqning yo‘qligi esa bolaning psixik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘ladi.

Maktabga borish, yangi sharoit bilan tanishish, yangi do‘stlar, bularning hammasi bolalarga o‘zaro muloqotga kirishishni talab etadi. Tarbiyachi va o‘qituvchining vazifasi – ularning atrofdagilar bilan muloqot qilish ehtiyojini qondirishdir. Buning uchun ularni og‘zaki nutq bilan muloqot vositasi sifatida qurollantirish ko‘zda tutiladi. Agar maktablarda so‘zlashuv nutqiga yaxshi ahamiyat berilgan bo‘lsa, butun pedagogik jamoa faoliyati nutqni muloqot vositasi sifatida o‘qitishiga qaratilgan bo‘lsa, bunda bolalar kommunikatsiyaning bu turidan ko‘proq foydalanadilar. Jonli muloqotdan noto‘g‘ri foydalanish bolalarda imo-ishora bilan gapirish yo‘limi tanlashga olib keladi. Maxsus o‘qitish jarayonida kar bolalarda tovush bilan ishlash, nutq nafasi, ayrim tovushlar ustida ishlash, talaffuzini shakllantirish amalga oshiriladi. Og‘zaki nutqni talaffuz qilish va shakllantirish

o'qituvchi hamda bolalardan katta mehnat talab qiladi. Eshituvchi o'quvchilar kabi, eshitish qobiliyatida nuqsoni bor o'quvchilar uchun og'zaki nutq muloqot uchun juda katta ahamiyatlidir.

Kar bolalarni og'zaki va yozma so'z nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar daktil nutqiga murojaat qilishga sabab bo'ldi. Daktil nutqi karlar o'rtasida muloqot (aloqa)larining amalga oshirish uchun yaratilgan. Daktil nutqini o'zlarini uchun sukut saqlab yashash turmush tarzini qabul qilgan Ispan monaxlari tomonidan ixtiro qilingan. Nutqning og'zaki nutqqa o'xhash bo'lgan bu ko'rinishidan faqat bevosita (yuzma-yuz) muloqotda bo'lganda foydalanish mumkin. Daktil nutqi yozma nutqqa ham o'xhash bo'lib, har bir harfga aniq bir daktilema to'g'ri keladi. O'zbek tili daktilema alifbosini quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan. Nutqning bu ko'rinishini egallash uchun karlardan nutqning og'zaki va yozma ko'rinishlarini qanday darajada egallash talab qilinmaydi. Daktil nutqi yordamida bolalar o'z xohish, istaklari va iltimoslarini bildirishlari va daktil nutqdan foydalanayotgan boshqa kishilarni tushunishlari mumkin. Tayyorlov sinflining o'quvchilari, katta maxsus tayyorgarliksiz ham daktil belgilarini tezda o'zlashtirisha oladi. Daktil nutqidan tilni egallashning boshlang'ich formasi sifatida foydalanish kar bolalarda og'zaki nutqni shakllantirish va atrofdagilar bilan nutq aloqlarini o'matish imkoniyatini beradi. Shuningdek, kar bolalarni tilga o'rgatishda daktil nutqini qo'llanishi asosiy maqsad emas, kar bolalarni og'zaki nutqini shakllantirish maqsadida foydalanadigan majburiy choradir.

Xususan, tayyorlov sinflarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qituvchining daktillashiga taqlid qilish asosida daktillamalar o'rganadilar. Og'zaki nutqqa o'rgatish jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar daktil belgilari va daktillash texnikasini birga egallaydilar. Materialni idrok etish va egallash jarayonini yengillashtirish uchun daktil belgilari ifodalangan so'zli ifoda jadvalidan foydalaniladi. So'zli ifoda jadvalini qo'llab o'quvchi, daktilema belgilarini qo'li vositasida amalga oshiradi. Daktil belgilari ifodalangan so'z o'quvchilar to'liq eslab qolmaguncha, yig'ma polotnoga osib qo'yiladi. O'qituvchi daktil shaklda berayotgan nutqiy materialni og'zaki bayon etadi. Bu o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan asosiy talab hisoblanadi. Nutqiy materialni og'zaki daktil bayon etish tayyorlov sinfi uchun yil oxirigacha asosiy talabdir. O'qituvchi o'ng quli bilan daktillaydi, barmoqlar uni labini o'ng tarafida joylashgan

holatda bo'ladi. Barcha daktil belgilar aniq ko'rsatilishi zarur. Ta'limning birinchi yilda daktillash bilan birga bayon etiluvchi og'zaki nutq sekin timpda bog'langan va aniq bo'lishi talab etiladi. O'qituvchining og'zaki daktil nutqi bolalar uchun yaxshi namuna bo'ladi va ularni daktil nutqini egallah jarayonini tezlashtiradi.

Bu bosqichda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning daktil nutqiga qat'iy talablar qo'yiladi. O'quvchilar har bir harf va so'zni daktillashi aniq, to'g'ri bo'lish kerak. So'zlarni eslab qolish o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan maxsus mashqlar asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi bolalarda nutqqa ehtiyojni talab etuvchi o'yin, mehnat, o'quv faoliyat turlarini tashkillashtiradi. Masalan, sinfdagi umumiyl faoliyat bolalar ismini biliishi talab etadi, o'quvchilarga topshiriq, vazifalar bayon etish jarayonida o'qituvchi ularni ismini nomlaydi. O'quvchi ismini og'zaki daktil nomlanadi va so'zli ifoda jadvali ko'rsatiladi. O'quvchilardan o'rtog'ini ismini aytish so'raladi. Tabiiy sharoit o'quvchilarga yangi so'z ma'nosini tushunishga yordam beradi. Jamoa faoliyatida so'zlarni og'zaki daktil bayon etish uni ma'nosini eslab qolishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar so'zni, tovush tarkibini og'zaki bayon etish imkoniga ega bo'lganlariga qadar uni og'zaki daktil bayon etadilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'z tarkibini daktil nutqini qo'llamasdan o'rgatish nutqiy muloqotni buzilishi va nutqiy rivojlanishni sekinlashishiga olib keladi. Lekin o'quvchilar tomonidan xaddan ortiq daktil nutqini qo'llash og'zaki nutqni rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, daktil nutqi boshlang'ich nutq shakli sifatida qo'llab, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqini shakllantirish ishini boshlab o'qituvchi butun faoliyatini og'zaki nutqni muloqot quroli sifatida shakllantirishga qaratishi lozim.

Daktil nutqiga o'rgatish bilan yonma-yon (parallel) ravishda bolalarni og'zaki va yozma nutqqa o'rgatish ham olib boriladi. Bolalarni og'zaki nutqqa o'rgatish, daktil formasida egallangan so'zlarini ovoz chiqarib aytish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Talaffuzni o'zlashtira borish bilan birgalikda o'quvchilar tomonidan daktillangan so'zlarni gapirish aniqligi ortib boradi. Og'zaki nutq xatolarini to'g'rinish talaffuz qilingan tovush namunalarini ko'rsatish orqali amalga oshiriladi va unga mos ravishdagi daktilemalarni ko'rsatish bilan mustahkamlanadi. Daktil nutqini egallah o'qish va yozishga o'rgatishda yordam beradi. Daktil orqali so'zlashganda,

bolalar so‘zini va o‘qish so‘zlarini analiz va sintez qiladi. Bu esa o‘qish va yozish ko‘nikmalarini asosini tashkil qiladi. Qo‘l harakatlari yoki katakcha orqali daktillangan so‘zni qabul qilganda kar bolalar daktil shriftini o‘qishni o‘rganadi. Asta-sekin daktil belgilarini o‘rganadilar, harflarni yozish va o‘qish malakasini egallab boradilar. O‘quvchilar o‘z daktillariga suyangan holda yozma so‘z va iboralar ni o‘qishni boshlaydilar, xatolarini to‘g‘rilaydilar. Daktil nutqidan foydalanish savodga o‘rgatish jarayonini yengillashtiradi va tezlashtiradi.

Shunday qilib, kar o‘quvchilar nutqini shakllantirish jarayonida daktil nutqidan foydalanish so‘zlashuv nutqini muloqot quroli sifatida tez va samarali shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nutq o‘rgatishning dastlabki bosqichi o‘z ichiga tayyorlov sinfni qamrab olgan bo‘lib o‘ziga xos vazifalari uslubiy qo‘llanmalari bordir.

Boshlang‘ich sinfda kar bolalar muomala (muloqot) sifatida so‘z nutqi bilan tanishadilar, ularda atrofdagilar bilan aloqada bo‘lish, o‘z istak va ehtiyojlarini ifoda etish uchun nutqdan foydalanishning dastlabki ko‘nikmalar yuzaga keladi. Kar bolalarни nutqqa bo‘lgan ehtiyoj ruhida tarbiyalamasdan, bu masalalarni yechimini topish mumkin emas.

Savol va topshiriqlar

1. Daktil nutqini og‘zaki va yozma nutq bilan munosabatini tavsiflang.
2. Daktil nutqini ta’lim jarayonidagi o‘rnini aniqlang.
3. Daktil nutqiga o‘rgatish mazmunini yoriting.
4. Daktil nutqini eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarни og‘zaki va yozma nutqini shakllantirishdagi ahamiyatini tavsiflang.
5. Tayyorlov sinfida daktil shaklida yangi nutqiy material bilan tanishtirish usullarini ko‘rsating.

4.7. Maxsus mактабда og‘zaki nutqqa o‘rgatish

Inson hayotida og‘zaki nutqni ahamiyatini, kar bolalarni uni egallah imkoniyatini inobatga olgan holda kar bolalar uchun mакtablar o‘z oldiga o‘quvchilarni og‘zaki nutqqa o‘rgatish masalasini qo‘yadi. Og‘zaki nutq ta’lim jarayonining boshidanoq muomala

vositasi sifatida shakllanadi, chunki bolalar atrofdagilar bilan munosabatga og‘zaki nutq shaklda kirishadi. Muomalaga kirishish jarayonida ular tilning leksikasini, grammatikasini egallab boradi. Eshitishni buzilishi og‘zaki nutqni qabul qilishga o‘rgatish va talaffuz malakalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ishlarni o‘tkazishni talab etadi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni og‘zaki nutqini shakllantirishning ikki yo‘nalishi mavjud. Har ikki yo‘nalish ham o‘z vazifalariga ega, ular maqsadga erishishni metodik usullarini qamrab oladi. O‘qitishni mazmunini murakkabligi bola rivojlanishida og‘zaki nutqni katta ahamiyatga egaligini tan olinishi bilan ushbu ish bo‘limiga katta soatlar ajratilganligi izohlanadi. Tayyorlov sinfida ona tiliga haftada beriladigan 8 soatdan 4 soat og‘zaki nutqni o‘rgatishga ajratishadi. Og‘zaki nutq ustida ishlash eshituv idrokini rivojlantirish va talaffuzga o‘rgatish bo‘yicha yakka mashg‘ulotlarda davom ettiriladi. So‘zlashuv nutqiga o‘rgatish kar o‘quvchilar uchun eng oddiy bo‘lgan nutq shakli daktildan boshlanadi. Biroq o‘qituvchi o‘quvchilarga ma‘lum qilayotgan barcha so‘zlarni u, albatta, daktillash bilan birgalikda og‘zaki aytish shart. Shunday qilib o‘quvchilar o‘qishni birinchi kunlaridanoq o‘qituvchi nutqini ikki shaklda daktil va og‘zaki qabul qilishga o‘rganishadi. O‘qitish jarayonida eshituv apparatlaridan foydalanish o‘quvchilarga o‘qituvchi nutqini ko‘rveshituv orqali qabul qilishga imkon beradi. Muloqotga kirishishni egallah jarayonida o‘quvchilar so‘z materiallarni qabul qilishni ko‘p qismi ham daktil ham og‘zaki o‘rganishadi, chunki daktil nutqining barcha materiali eshituv-ko‘ruv orqali og‘zaki nutqni qabul qilishga ham shart hisoblanadi. Ammo og‘zaki nutqni o‘rgatishni ikkinchi yo‘nalishi – o‘quvchilarda talaffuz malakalarini shakllantirishdir. Ish ikki yo‘nalishda olib boriladi. Birinchisi o‘quvchilarni doimiy ravishda o‘qituvchi singari barcha daktil materiallini og‘zaki bayoniga undash bilan bog‘liq. Bu talablar o‘quvchilarning nutq harakat apparatini faollahshuviga asos bo‘ladi, so‘zlarni talaffuzini yaqin o‘zlashtirishga zamin yaratadi. Talaffuzga o‘rgatishni ikkinchi yo‘nalishi, asosiy talaffuz ustidagi sistematik ishni nazarda tutadi. Biroq bu holatda ham nutqni muloqot quroli sifatida shakllantirishga yo‘naltirish o‘z kuchida qoladi. Bu shuningdek, nutqiy materialni tanlashga (muloqotda zarur bo‘lgan so‘zlar) va talaffuz malakalarini ishslash jarayoniga ham taalluqli holda o‘tkaziladi.

Kar bolalar tomonidan og‘zaki nutq shaklini egallanishi daktıl nutqiga qaraganda qiyinroq o‘zlashtiriladi. Karlar məktəbida bolalarını muloqot quruluşlu sıfatıda şakllantırış bu nutq turığa o‘rgatış ta’limni birinci kundaların boshlanadı. Tayyorlov sinfida og‘zaki nutqını şakllantırış tilga o‘rgatışını umumiyyət tizimiga kiritilədi və daktıl nutqining ilgarilovchi rivojlanış şaroitida amalga oshırılıdı.

Og‘zaki nutqını ko‘ruv orqali idrok etish surdopedagogikada o‘z sinonimlariiga ega (Labdan o‘qish, yuzdan o‘qish). . Karlar tomonidan og‘zaki nutq nutq organları harakatlariga ko‘ra qabul qilinadi. Og‘zaki nutqını labdan o‘qish orqali idrok etish jarayoni murakkab, chunki bunda karlar tez o‘zgarib almashinuvchi artikulatsion organ harakatlarını kuzatib borishlari lozim. Ammo barcha qiyinchiliklarga qaramasdan, karlar labdan o‘qish malakalarini o‘zlashtiradilar, ularning ko‘philigi esa nutqni artikulatsiyasiga ko‘ra qabul qilinadi. F.F.Rau ta’kidlashicha labdan o‘qish asosida og‘zaki nutqni qabul qilish, avvalom bor kar bola xotirasida joylashgan nutq harakat obrazlarining aktuallashuvi hisobida amalga oshırılıdı. Ular butun so‘z va so‘z birikmalariga mos kelishi, karlarning nutqiy va hayotiy tajribalarini ma’lumotiga tayanadigan ongli kombinatsiya hisobiga moslashishi lozim. Kar bolalar artikulatsion organlarning alohida harakatlariga e’tibor qiladilar. Bu bog‘liqlikda labdan o‘qish sıfati ko‘p jihatdan karlar nutqiy rivojlanganlik darajasidan kelib chiqadi. So‘zlashuv nutqini rivojlanganlik darjası yuqori bo‘lgani sayin, labdan o‘qish malakasi ham shuncha yaxshi bo‘ladi. Tilga o‘rgatışını kommunikativ tizimini şakllanishi davrida kar bolalarda labdan o‘qish malakasi daktıl nutqiga tayanib şakllangan. S.A.Zikov e’tirof etishicha, o‘quvchilarda birinci kundardayoq analitik-sintetik faoliyatning predmeti bo‘lgan daktıl nutqiga tayanish og‘zaki nutqını şakllanishiga asos bo‘ladi. To‘liqligicha qabul qilinadigan so‘z obrazi daktillash asosida qismlarga ajratılıdı. So‘zlarni daktillashda o‘z bayon etilgan so‘z artikulatsion harakatlariga bog‘liq bo‘ladi. So‘zlarni qabul qilishni (idrok) osonlashtiradi. Labdan o‘qishga o‘rgatish avval daktilda o‘zlashtirilgan nutqiy materialda quriladi. Nutqiy materialni tushunish, labdan o‘qish ko‘nikmalarini egallahga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Labdan o‘qishga o‘rgatish og‘zaki nutqiy şakllantırışının muvafaqiyatını ta’minlovchi muhim omil, bu nutqını muloqot quruluşlu sıfatıda şakllantırışını umumiyyətligida mujassam bo‘lgan. Muloqotga kirishish, atrofdagilar nutqini qabul qilishni

zarurligi, boshqalar bilan muloqotga kirishishni rivojlantirib borish, og‘zaki nutqni ko‘rish idroki rivojlantirish jarayoniga ijobiylari ta’sir ko‘rsatadi. Biroq labdan o‘qish jarayonida daktillashni katta yordamiga qaramay, uning qo‘llanilishi o‘qitishni (ta’limni) ma’lum bosqichida chegaralangan. O‘qituvchi, tomonidan so‘zni daktil va og‘zaki berilgani asosida, so‘zni qabul qilish mashqlaridan so‘ng bolalar nutq materialini faqat yuzdan o‘qishga o‘tkazilgan. S.A. Zikov ta’kidlashicha bola nutqni avval bir vaqtida ikki shaklda (og‘zaki va daktil) so‘ng faqat og‘zaki qabul qilishga o‘rgatish ushbu tizimning yuzdan o‘qishga o‘rgatishni asosiy yo‘li hisoblanadi.

Labdan o‘qishga o‘rgatishni asosiy yo‘llarini amalga oshirish uslubiyati yuqorida S.A.Zikov yoki F.F. Raularning ishlarida keltirib o‘tilgan. 70-yillarda o‘tkazilgan kar bolalarni eshituv idrokni rivojlantirish sohasidagi kuzatishlar, izlanishlari yuqorida tasvirlangan ish tizimiga o‘zartirish kiritdi. Ye.P. Kuzmichyova izlanishlari karlarning eshituv qoldig‘ini rivojlantirishda va karlar nutqini shakllanishida hatto chuqur zarurlangan, eshituvini ham muhim rolini isbotlab berdi. Uning fikricha kar o‘quvchilarda eshituv idrokini rivojlantirish bo‘yicha ishning asosiy vazifasini ularning eshituv qoldig‘ini maksimal rivojlantirish, ular tomonidan og‘zaki nutqni qabul qilish uchun rivojlanayotgan bazaga ko‘ra yangi eshituvni ko‘ruv asosni yaratishini ko‘zda tutadi. Rivojlanish butun o‘quv tarbiyaviy jarayonda ovoz kuchaytirgich apparatlarni keng qo‘llash asosida qurilgani uchun, ushbu ish labdan o‘qishga o‘rgatishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Labdan o‘qish malakasining ishlatalishi kar bolalarni eshitish qoldig‘ini keng qo‘llash sharoitlarida nutqqa o‘rgatish tizimida ham qo‘llaniladi. Agar karlar tomonidan og‘zaki nutqni qabul qilish, nafaqat ko‘rishga (bolalar nafaqat daktillashdagi barmoqlar harakatini va og‘zaki ifodalash artikulatsion harakatlarni qabul qilishadi), balki nisbatan zararlangan bo‘lsada, eshitishga ham asoslanadi. Aynin shuning uchun ko‘rish organi orqali nutqiy qabul qilish eshitish bilan to‘ldirilganda pedagogik jarayonda jamoa va yakka eshituv apparatlaridan keng foydalanishda og‘zaki nutqiy eshitish, ko‘rish idroki faoliyati samarali bo‘ladi. Kar o‘quvchilarni eshitish qoldig‘idan foydalanish va rivojlantirish tizimini ishlab chiqish (Ye.P. Kuzmicheva) tilga o‘rgatishi kommunikativ tizim sharoitlarda o‘tkazilgan. Og‘zaki nutqni shakllantirishning barcha tamoyillar

nutqni shakllantirish yo'llarida amalda saqlanib qoladi, bundan tashqari eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha ishning barcha tizimi og'zaki nutqni hamda tilni muloqot quroli sifatida shakllantirishga ta'sir etuvchi faktorlarni inobatga oladi.

Dastlabki nutq shakli daktil hisoblanadi, biroq o'qituvchi tomonidan nutqiy materialni daktil shaklida bayon etilishi, og'zaki so'zlashni ovoz kuchaytirgich apparatlari foydalanishi bilan birga kechadi, ya'ni o'qituvchi og'zaki daktilda so'zli ifodani ko'rsatib, har bir so'zni mikrofonda talaffuz etadi. So'zni o'zlashtirib borish darajasiga ko'ra so'zli ifodalar qo'llanilishi olib tashlanadi. O'qituvchi daktil nutqini istisno etadi va bolalar materialini eshitish, ko'rish asosida idrok (qabul) etishadi (o'qituvchi doim mikrofondan bolalar esa naushniklardan foydalaniladi). Daktil nutqida materialni ifodalashda foydalanilgan metodik usullar nutqni eshituv-ko'rvu idrokini o'rgatishda ham qo'llaniladi. Ulardan biri u yoki bu so'z, iborani qo'llanilishini talab etadigan vaziyatlarni yaratish (Masalan: predmet-amaliy ta'lim darsida «Ol» fe'li ustida ish olib boriladi. Avval bolalarga (og'zaki daktilda). «Qog'ozni ol» (qaychi...) kabi vazifalar beriladi. So'ng ushbu vazifalar boshqa o'quvchilarga daktilsiz beriladi. Ko'rsatmalar kombinatsiyalangan tarzda ham berilishi mumkin: ishlab chiqilayotgan so'z – og'zaki, qolganlarning bari (o'quvchilar tomonidan ham egallanmaganligi) – og'zaki daktilda beriladi. Agar bolalar materialni o'zlashtira olmasalar, o'qituvchi tomonidan vazifa daktillab takrorlanadi. Boshqa usul – vaziyatlardan foydalanish, ular predmet-amaliy faoliyat sharoitida tabiiy kelib chiqishi kerak va nutqiy materilni qo'llanilishini talab etish lozim. Masalan, o'quvchining qalami sinib qoldi, o'qituvchi eshituv-ko'rvu idrokiga mo'ljallangan vazifa beradi. O'xshash vaziyatlarni qo'shimcha yaratish, maxsus mashqlarni o'tkazilishi, o'qituvchi nutqini daktil qo'llanishsiz qabul qilish malakalarini yetarlicha tez rivojlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, nutqiy eshitish-ko'rish idroki malakalarini rivojlantirish uchun didaktik o'yinlar keng qo'llaniladi. Nutqni eshituv-ko'rvu idrokini shakllantirish bo'yicha ishlar barcha qolgan darslarda, daktil nutqi darslarni kiritganda o'tkaziladi. Avval o'qituvchi bolalarga yangi materialni eshituv apparatlaridan foydalangan holda og'zaki daktilda taklif etadi, so'ng u daktilsiz amalga oshiriladi. Og'zaki, nutqiy eshituv-ko'rvu idroki tayyorlov sinfi kar bolalari uchun sezilarli qiymchaliliklarni keltirib chiqaradi va

ulardan yuqori diqqat-e'tiborni talab etadi. Nutqiy eshituv ko'rish orqali idrok etishga o'rgatish uchun maxsus vaqt ajratish (haftasiga ikki soat) maqsadga muvofiqdir. U og'zaki nutq darslaridan ajratiladi. Bu vaqt ni daktiL nutqi darslari bo'yicha taqsimlangani ma'qul. Kombinatsiyalashgan darslarni o'tkazish, yarim dars daktiL nutqiga o'rgatish, yarim dars – og'zaki nutqiy eshituv ko'rur orqali idrok etishga o'rgatish yaxshi samara beradi. Bunday darslarni o'tkazishini o'quvchilar ish qobiliyatini saqlash, ta'lif sifatini oshirish imkonini beradi. O'qituvchi uchun ushbu darslarni tashkil etish ham qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki mavzu maqsad birligi saqlanadi. Darsning birinchi va ikkinchi qismi uchun material umumiy bo'lishi mumkin va farqlanishi faqatgina uning berish ususliga taalluqli bo'lishi kerak. Avval og'zaki daktilda, so'ng o'qituvchining daktillashsiz o'quvchilarni og'zaki nutqiy eshituv - ko'rur orqali idrok etishga o'rgatishda, o'qituvchi so'zi yaxshi yoritilgan bo'lishi zarur. Noaniq artikulatsiyaga yo'l qo'ymaslik kerak. Agar 2-3 marotaba qaytarilgandan so'ng o'quvchilar so'zni iborali (idrok) etilmasa, o'qituvchi ularni mos daktillash bilan qaytaradi, so'ng yana bir marotabadan usiz qaytaradi. Nutqni kuruv-eshituv orqali idrok etishga o'rgatish yakka mashg'ulot soatlarda ham, ya'ni darsdan tashqari vaqtarda amalga oshiriladi.

Shunday qilib, tayyorlov sinflarida o'quvchilarni og'zaki nutqni eshituv-ko'rur orqali idrok etishga o'rgatish butun o'quv tarbiyaviy jarayon va maxsus ajratilgan vaqt mobaynida amalga oshiriladi. Butun nutqiy material dastlab o'qituvchi tomonidan ovoz kuchaytirgich apparatlaridan foydalangan holda og'zaki daktilda keyinchalik daktillashsiz beriladi.

Og'zaki nutqni mustaqil qo'llashga o'rgatish yuqorida keltirilganidek ikki yo'l bilan amalga oshiriladi. Birinchi yo'l butun o'quv tarbiyaviy jarayon davomida o'qituvchi nutqini eshitish va eshituv-ko'rish asosida idrok etish bilan amalga oshadi. Bu holatda talaffuz malakalarini shakkantirish maxsus o'qitishlarsiz informal tarzda amalga oshiriladi. Talaffuzga o'rgatish informal yo'li – nutq harakat organlarini faollashtirishga xizmat qiladi, ba'zi talaffuz malakalarini egallahsga zamin yaratadi. O'qituvchi bolalarni e'zinining og'zaki nutqini eshituv-ko'rish asosida idrok etib urga taqilid qiliishga undaydi, tasdiqlaydi, to'g'ri artikulatsion harakatlarni qo'llaydi, noto'g'ri artikulatsiyadan ogoh etadi. U o'z diqqatini nafaqat bolaning

nutq tovushlarini talaffuziga emas, balki ovoziga bolalar nafasiga, nutqning bog‘liqligiga qaratadi. Ushbu ishda katta yordamni ovoz kuchaytirgich apparatlari ko‘rsatadi, ular o‘quvchilarga o‘qituvchi nutqini qabul qilish imkonini va individual mikrofonlarni qo‘llash orqali o‘zlarini eshitish imkonini beradi. O‘qituvchi bilan birga yoki uning ortidan barcha materialni ko‘rish eshitish orqali qabul qilib, bolalarni gapirishga doimiy undash nafaqat ularning nutqiy apparatini faollashtiradi, balki ularda og‘zaki nutqni qo‘llashni doimiy malakasini tarbiyalaydi.

Biroq nutqni talaffuz tamoyili shakllantirish uchun birgina informal yo‘Ining o‘zi kifoya emas. Ikkinchi yo‘l ham – talaffuz malakalarini maxsus, rejali shakllantirish zarur. Ushbu ish og‘zaki nutq darslarida, yakka mashg‘ulotlarda, fonetik mashqlar davomida amalga oshiriladi va o‘z ichiga tovushlarni, so‘z iboralar ni ishlab chiqishni, normal ovoz va to‘g‘ri nutqiy nafasni ishlab chiqishni qamrab oladi. Talaffuzni shakllantirish nutqni ifodalash aniqligini rivojlantirishda katta o‘rni musiqiy-ritmik mashg‘ulotlarga ajratiladi.

Og‘zaki nutq darslarining mazmuni nafaqat talaffuz ustidagi ishlarni, balki ushbu nutq shaklidan muloqotda foydalanishga o‘rgatishni nazarda tutadi. O‘qitish materiali og‘zaki nutq dasturiga ko‘ra ajratilgan va Rau, Slezinalar tomonidan ishlab chiqilgan talaffuzni o‘rgatishni konsentrik metodida ko‘rsatilgan nutq tovushlarini ishlab chiqishni ma’lum izchilligini hisobga oladi.

Og‘zaki nutq darslarida so‘zning tovush tarkibi ustida ish olib boriladi. Shuning o‘zida so‘zning ma’nosini yoritiladi, bolalar uni talaffuz qilishni muloqotda qo‘llashni o‘rganishadi. So‘zning talaffuz ustidagi ish uning ma’nosini yoritib berilgandan so‘nggina boshlanadi. Shu maqsadda og‘zaki nutq darslarida daktil nutqiga o‘rgatish metodik usullarda qo‘llaniladi. Bu sharoitlarda kerakli so‘z qo‘llanilishi shart.

Aniq ahamiyatga ega so‘zlarni ma’nosini turli ish turlarini qo‘llash yo‘li bilan ochiladi. Predmetni rasmini ko‘rsatish, rasmni nomlash, so‘zning grafik elementlariga ko‘ra so‘zni og‘zaki shaklda ifoda etish (harf, bo‘g‘in, so‘zlarni o‘qish, harakatga ko‘ra so‘zni ifodalash). So‘zni berish uslubiyati (metodikasi) quyidagicha:

O‘qituvchi predmetni (rasmni) ko‘rsatadi, uni og‘zaki daktilda nomlaydi, o‘quvchilarni birligida talaffuz etishga undaydi. Bolalar uni eshituv-ko‘ruv orqali idrok etadilar, og‘zaki daktilda ifodalaydilar.

So'ng har bir o'quvchiga so'zni mikrafon orqali talaffuz etish imkonini beriladi va o'qituvchi ishlab chiqilayotgan tovushning talaffuzini baholaydi. O'quvchilar so'zning tovush tarkibini o'zlashtirib olganlaridan so'ng, ular so'zni daktillashsiz talaffuz etadilar. Olingen talaffuz malakalari yakka mashg'ułotlarda mustahkamlanadi. Shunday qilib, tovush talaffuzi ustidagi ishning boshlang'ich materiali uchun butun so'z xizmat qiladi. U avval butunligicha so'ng qismlarga bo'lib talaffuz qilinadi. O'qituvchi bolalar diqqatini fonemalarni bo'g'lnlarda va yakka talaffuz etishga qaratadi. Bunday analizdan so'ng so'zni sintez qismi ustida ish boshlanadi, ya'ni fonemalarni bo'g'lnlarga, bo'g'lnlarni so'zlarga bog'lash. Talaffuz ustida ishlashni bunday yo'li talaffuzga o'rgatish analitiko-sintistik metodiga mos tushadi.

Og'zaki ekspressiv nutqqa o'rgatish qisqartirilgan fonemalar tizimida qabul qilingan tovushlarni qo'yish tartibiga ko'ra tanlangan materialda olib boriladi. Talaffuzga o'rgatishni konsentrik metodi qisqartirilgan fonemalar tizimini qo'llashga asoslanadi. Talaffuzni barcha bo'limlari bo'yicha talablarni ortib borish izchilligini nazarda tutadi. Boshlang'ich (ilk) o'qitish ikki konsentrda iborat, ularning birinchisi Tayyorlov sinfi bilan mos tushadi, ikkinchisi bir va ikki sinflarni qamrab oladi. Tayyorlov sinfida o'quvchilar asosiy 17 fonemani aniq talaffuzini egallaydilar: "a", "o", "y", "e", "u", "p", "t", "k", "f", "s", "sh", "x", "v", "m", "n", "l", "p" – va ikki jarangli tovushlarni: "b", "z". Ushbu tovushlardan tuzilgan so'zlarni bolalar aniq talaffuz etishadi. Shu tovushlarning o'zi artikulatsiya bo'yicha yaqinlarni o'rindoshi hisoblanadi, masalan, "s" tovushi "s" – "z" – "z". Tovush ustidagi ish izchilligi dasturda keltirilgan, darslik betlarida o'z ifodasini topgan. Tayyorlov sinfini 4-choragiga kelib, kar o'quvchilar asosiy tovushlar talaffuzini egallahadi. Og'zaki nutq darslarini bu davrdagi materiali bo'lib daktil nutqida egallangan ibora, so'zlar hisoblanadi. Bu esa 4 chorakka kelib darslarning nutqiy mazmuni ancha kengayishini anglatadi va bu bolalarga og'zaki nutqni muloqot quroli sifatida o'qitish ishlarini ancha jadal kechishi imkonini beradi. Bu davrda o'qituvchi talaffuzni ikki turlanishlari ifodalovchi bolalar nutqini sinchkovlik bilan kuzatib borishi kerak. Birinchisi – 17 asosiy tovushlarni so'zlarda aniq talaffuz etish (og'zaki va daktil nutqining dasturidagi so'zlar), ikkinchisi – qisqartirilgan fonemalar tizimiga ko'ra asosiyлari bilan almashtiriladigan tovushlarni o'z ichiga

oluvchi so‘zlarni talaffuz etish. To‘rtta chorakka qadar bolalar nutqida talaffuzni uchinchini turi ham mavjud bo‘ladi. Hali egallanmagan asosiy fonemalar va tovushlar imkon darajasida talaffuz etiladi. Bu holatda kerakli tovush o‘rnida o‘quvchilar faqatgina artikulatsiya elementini berishadi yoki tovushni butkul tushurib qoldirishadi, qisqartirilgan fonemalar tizimida keltirilmagan tovush bilan almashtiradilar. Nutqni talaffuz tomoni ustidagi ish uslubiyatini kengaytirilgan tavsifi F.F.Rauning «Устная реч глухих» (М. 1973), o‘quv qo‘llanmasida berilgan. Talaffuzni shakllantirish va eshituv idrokini rivojlantirish bo‘yicha olib boriladigan yakka mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish masalalari T.R.Sakolovskayaning «Развитие слухового восприятия глухих учащихся» (М. 1987) o‘qituvchilar uchun qo‘llanmasida yoritilgan. Bu masala bo‘yicha o‘quv-metodik adabiyotlarni mavjudligi uni kengaytirib ko‘rmaslikka imkon beradi.

Og‘zaki nutq darslarida va yakka mashg‘ulotlar soatlarida shakllangan talaffuz malakalari barcha o‘quv-tarbiyaviy jarayon mobaynida takomillashib boradi. Shu maqsadda o‘qituvchi bolalar bilan muloqotda og‘zaki nutqiy material qo‘llashga ishlataladi. Hatto bolalar o‘zlashtirilgan elementar so‘zlar ham («ана», «шу yerда») ular nutqiga kiritilishi lozim. Bundan tashqari, og‘zaki nutqni chegaralangan materialida shakllangan talaffuz malakalarini daktiil nutqida egallangan so‘z va iboralarga yoyish lozim. Karlarni og‘zaki nutqini shakllantirish bo‘yicha o‘qituvchining maqsadga yo‘naltirilgan sistematik ishi yaxshi natijalarga olib keladi.

Shunday qilib, og‘zaki nutqni talaffuz malakalarini shakllantirish o‘zaro bog‘langan ikki yo‘l orqali amalga oshiriladi. Birinchisi – informal (maxsus o‘qitishsiz) – butun o‘quv tarbyaviy jarayon mobaynida o‘z o‘rniga ega va barcha darslarning nutqiy materialida amalga oshiriladi. Ikkinci yo‘l fonetik tamoyilga ko‘ra tanlangan materialda talaffuz malakalarini ravon ishlab chiqishni nazarda tutadi va yakka mashg‘ulotlarga o‘tkazish bilan og‘zaki nutq darslarida amalga oshiriladi. Tovushlarni qo‘yishda bolalarning barcha saqlangan analizatorlari mavjud eshituv qoldig‘idan foydalaniladi. Og‘zaki nutq darsi faqat tayyorlov sinflarining o‘quv rejasida mavjud. U birinchi sinflarda o‘tkaziladigan nutq o‘stirish darslaridan farq qiladi, farqlanishlar og‘zaki nutq shakllantirish vazifalaridan kelib chiqqan. Ushbu darslarda ish o‘quvchilarda eshitadiganlarning asosiy muloqot quroli bo‘lgan va kar o‘quvchilarni egallahslari ancha qiyin

bo‘lgan nutq shaklini shakllantirishdan boshlanadi. Og‘zaki nutq darsini birinchi navbatdagi vazifasi kichik kar o‘quvchilarda og‘zaki nutq shaklini muloqot quroli sifatida shakllantirish hisoblanadi. Aynan shuning uchun dars mazmuni, uni tashkil etish, unda qo‘llaniladigan mashqlar, vazifalar, masalalar, ish turlari ushbu masalani hal etishga yo‘naltiriladi. Biroq og‘zaki nutq darslari bolalar tomonidan so‘zlarni, iboralarni, ularni muloqotda qo‘llash ko‘nikmasidan tashqari, nutq tovushlarni, talaffuzning turli tomonlari ustida maqsadga yo‘naltirilgan ishni nazarda tutadi.

Shuningdek, nutq o‘stirish darslarida talaffuzga o‘rgatish ishlari o‘tkaziladi (to‘g‘ri talaffuz mashqlari, uni korreksiyalash), ammo asosiy diqqat bunga emas, balki turli nutqiy malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Savollarga javoblar, hikoyalarni, rasmlarni turli tasvirlash, suhbat va boshqalar. Tayyorlov sinfi o‘quvchilar og‘zaki nutq darslarida ish ko‘p hollarda ovoz chiqarish, tovush qo‘shishdan boshlanadi. Ilk tovushlar – “a”, “o” darhol so‘zga kiritiladi. Ushbu tovushlar mavjud so‘zni o‘quvchilar ko‘rvu-eshituv idrok etishga va og‘zaki talaffuz etishga o‘rganishadi. Keyinchalik har bir yangi tovush bolalarga so‘zlarda beriladi. Darsda so‘z ma‘nolari ochib chiqiladi (yuqorida keltirilgan ish turlarini qo‘llab) va o‘quvchilar uni talaffuz etishni o‘rganishadi. Shu maqsadda qayta ishlashni talab etuvchi tovushni ajratib olish bilan so‘z analizi o‘tkaziladi. O‘quvchilar uni alohida talaffuz etishga, so‘ng bo‘g‘inlarda va keyin yana butun so‘z tarkibida talaffuz etishga mashq qildiriladi. Darsdagি keyingi barcha ishlari yangi so‘zni anglab yetishga yo‘naltiriladi (uni ma‘nosи va talaffuzi, uni nutqda qo‘llash sharoitlariga ko‘ra amalga oshiriladi). Og‘zaki nutq darslarida og‘zaki, yozma va daktıl nutq shakllari qo‘llaniladi, biroq daktıl nutqi ushbu darslarda asosiy emas, balki yordamchi vosita hisoblanadi. U o‘qituvchi tomonidan yangi so‘zni ma‘lum qilishda (agar u daktıl nutqi darslarida ishlatilmagan bo‘lsa). Shuningdek, o‘quvchilar nutqiy materialni ko‘rvu-eshituv orqali qabul qilishga qiynalganlarida qo‘llaniladi. O‘quvchilar daktıl nutqini yangi so‘zni tovush, harf tarkibini anglashda va uni talaffuz etishga qiyinchiliklarga duch kelganlarida qo‘llashadi. Yozma nutq yangi so‘zni ma‘lum qilishda (odatda tablichkadagi yozuvlarda) o‘qishga asoslangan mashqlarda (so‘zlarni, iboralarni o‘qishda, so‘zlardagi tushirib qoldirilgan harflarni to‘ldirishda, so‘z juftliklarini tanlashda va boshqalarda)

qo'llaniladi. Biroq yozma nutqni qo'llashga ko'p kirishib ketmaslik kerak. S.A.Zikovning e'tirof etishicha, o'qish orqali talaffuzga o'rjanuvchi bolalar artikulatsion jihatdan juda kam tayyorlangan bo'ladi. Axir ular so'zlaganlarida, ularning ko'z o'ngida yozilgan matn bo'lmaydi.

Ishning bunday usuli biz keltirgan tizimda, ayniqsa, maqsadga muvofiq emas. Bu jarayon keyinchalik nutq harakat analizatorini rivojlantirish bilan kechadigan qo'lning harakat analizatorini dastlabki qo'llash va rivojlantirish asosida namoyon bo'ladi. Og'zaki nutq darslarida qo'llaniladigan ish turlari orasidan so'zlarni o'qish emas, balki mustaqil ifoda etishga asoslangan maqsadga muvofiqli. Shu maqsadda quyidagi ish turlari keng qulmanilmoqda: predmetlarni, ularning modellarini, rasmlarni ko'rsatish bo'yicha harakatlarni namoyish etish, savollarga javoblar va boshqalar. Og'zaki nutq darslarida turli xil o'yinlar, og'zaki nutqiy muloqotda qo'llashi o'rgatish uchun sharoit yaratuvchi vaziyatlar qo'llaniladi. Daktil nutqiga o'rgatishda qo'llanilgan o'yinlar, og'zaki nutq darslarida ham qo'llanilishi mumkin. Og'zaki nutq darslarida materialni qayta ishslashni umumiy sxemasi quyidagicha:

- ❖ o'qituvchi so'zni ma'lum qilishi (mikrofonda, og'zaki daktilda, so'zli ifodani ko'rsatib);
- ❖ o'quvchilar tomonidan so'zni ifodalananishi (og'zaki daktilda, og'zaki);
- ❖ uning talaffuzini qayta ishslash (so'z, bo'g'in, tovush);
- ❖ so'zlarni ifoda etishdagi mashqlar.

Daktil nutqini qo'llanilishi so'zning analizini uning sintezini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun og'zaki nutq darslarida so'zni to'liq talaffuz etishga, alohida va so'z iboralarda qo'shib hamda ritmik talaffuzini ishlab chiqishga urg'u berish maqsadga muvofiqli. Talaffuzga o'rgatish metodi analitik-sentetik, konsentrik deb nomlanishi mumkin. Ishning umumiy sxemasi og'zaki nutq darsining qurilishida o'z aksini topadi. Dars mavzusi dasturga ko'ra belgilanadi. Dars maqsadi uning vazifalariga ko'ra aniqlanadi. Yangi so'z bilan tanishtirish, tovushni so'zlarda talaffuz qilishni mashq qildirish va boshqalar. Darsni jihozlashda kerakli predmetlar kiritiladi: rasmlar, o'yinlar uchun jihozlar, so'zli ifodalar, «Talaffuz», nutq o'stirish, «Alisbe» darsliklari.

Ta'llim tizimidagi keng qamrovli tarkibiy islohotlarni amalgalama

oshirish ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan belgilanadi. Zero, hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonining asosiy komponentiga aylanib bormoqda. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish mashg'ulotlarni rag'batlantirish, qiziqarli tashkil etish bilan birga talabalarni fikrlash doirasini, tafakkurini kengaytiradi, o'quv materialini chuqur o'zlashtirish imkonini yaratadi. Quyida maxsus ta'lim yo'nalishitidagi yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslar namunasini beramiz.

1- sinflarda «Nutq o'stirish» fanidan bir soatlik dars namunasini keltiramiz

Mavzu: Haqiqiy do'st mavzusida rasmlarni majmuasi va tayanch so'zlar asosida suhbat.

Mavzu: Harakatning predmetga o'tishini bildirgan so'z va so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzishni o'rgatish.

Maqsad: O'quvchilarni rasmlar majmuasi asosida suhbatga o'rgatish, lug'at boyligini oshirish, bog'langan nutqni rivojlantirish, hodisalar mohiyatini aniqlash, haqiqiy do'st, qo'rmas, ishonchli tushunchalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarda so'zlashuv nutqiga qiziqish hissini uyg'otish.

Korreksion: Nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish, o'quvchilarni to'g'ri gapira olishga o'rgatish.

Darsning jihози: mazmunli rasmlar, tablichkalar, tarqatma materiallar, doskaga osiladigan maxsus moslama, darslik.

Nutqiy material: o'qituvchi, buvi, navbatchi, qiz bola, o'qiyapti, olyapti, yuvyapti, bobo, artyapti, tikyapti, tikuvchi, ona, gazeta, doska, idishlar, ko'ylak, mevalar, konfet, sabzavotlar, qog'oz, soch, uzum, hovli, mix, olma, o'tin, bolalar, o'quvchi, dehqonlar, bog'bon, ...)

Darsning borishi: tashkiliy qism, salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilardan kichik guruhlarni tashkil etish.


Asosiy qism: aqliy hujum, klaster, epednayzer, yelpig'ich, BBB kabi strategiyalarni qamrab oladi.

Darsni yakuniy qismida o'quvchilarni baholash, rag'batlantirish ko'zda tutiladi.

Darsning borishi

I Tashkiliy qismda o‘quvchilar bilan salomlashiladi, davomat aniqlanadi. O‘quvchilar miqdoriga ko‘ra uchga bo‘linadi. O‘quvchilarni do‘st haqidagi tushunchalarni aniqlash maqsadida aqliy hujum, klaster metodidan foydalaniladi. O‘quvchilardan o‘qituvchi do‘st haqidagi tushunchalarga klaster metodi asosida ta’rif berishini so‘raydi.

O‘quvchilar do‘stga quyidagicha ta’rif beradi.



O‘qituvchi: Do‘slik qanday bo‘lishi kerakligini bilib oldik. Endi rasmlarni diqqat bilan ko‘rib, haqiqiy do‘st haqida suhabat quramiz.

O‘quvchilar rasmlar majmuasini diqqat bilan kuzatib, hodisalar ketma-ketligini aniqlaydi. Rasmlarni mantiqan to‘g‘rilab, joylashtiradilar.

Lug‘at ishi

Doskada har bir rasm tagida tayanch so‘zlar

Ilk bahor, quyosh, yorqin, nurlari, sochdi, daryo. Hakim, iti, sayr, chiqli, qoplon.

To‘satdan Hakim daryo yoqasida yurib suvgaga tushib ketdi. U suzishni bilmaydi, yordam, so‘rab baqira boshladi.

Qoplon, do‘st, o‘zini, suvgaga, tashladi. U Hakimni qutqardi. Qoplon Hakimni do‘sti.

O‘qituvchi: Hozir lug‘at ustida ishlaymiz. Men rasmlarni ko‘rsataman siz rasmlarga ta’rif berasiz. Doskadagi so‘zlardan foydalaning. O‘qituvchi rasmdagi detallar va tayanch so‘zlarni ko‘rsatib yordam beradi. O‘quvchilar javob beradilar.

Baholash xarakteridagi suhbat.

Qoplonni haqiqiy do‘st deyish mumkinmi? U qanday bo‘lishi kerak? Hikoyani qanday nomlash mumkin? Hozir do‘stni salbiy va ijobiy jihatlarini yelpig‘ich strategiyasiga yozasizlar.

Do‘st

Salbiy jihatlari	Ijobiy jihatlari
Qo‘rqoq yuraksiz beparvo odobsiz ishonchksiz	Qo‘rqmas aqli ishochli odobli g‘amxo‘r mehribon

O‘quvchilar yelpig‘ich strategiyasi asosida, do‘stni salbiy va ijobiy jihatlarini aniqlab, og‘zaki javob beradilar.

Dam olish daqiqasi

Guruhlar epednayzer metodi asosida qo‘llarini ushlagan holda doira, uchburchak, to‘rtburchak shaklini hosil qiladilar.

Dars so‘ngida BBB metodidan foydalangan holda o‘quvchilar haqiqiy do‘st qanday bo‘lishi haqidagi tushunchalarni jadvallarga yozadilar.

Birinchi grafasiga mavzu yuzasidan mavjud bilimlarni, ikkinchi grafasiga, uchinchi grafalarga mavzu yuzasidan qiziqayotgan, bilmoxchi bo‘lgan ma’lumotlarni yozadilar. O‘qituvchi o‘quvchilar o‘rnini to‘ldiradi. Ko‘rilgan muammolar yuzasidan hal qilingan natija e’lon qilinadi., Uyga vazifa Haqiqiy do‘st haqida beshtadan gap tuzib

kelish. Dars so'ngida guruh faoliyatini baholash mezonida ko'rsatilgan ball asosida baholanadi va e'lon qilinadi. To'plangan ballar o'zaro guruh a'zolari o'rtasida taqsimlanadi.

Bilaman	Bilmayman	Bilmoqchiman
Haqiqiy do'st aqlli mehribon ishonchli bo'lishi kerak	Haqiqiy do'st haqida bilmayman. Qanday asarlar bor?	Haqiqiy do'st qanday bo'lishligi haqidagi she'r, hikoya va kino-filmerni bilmoqchiman

2-sinflarda «Nutq o'stirish» fanidan bir soatlik dars namunasini keltiramiz.

Mavzu: Predmetlarni guruhlarga ajratish.

Maqsad: O'quvchilarda predmetlarni guruhlarga ajratish hamda so'roqlar qo'yish ko'nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni to'g'ri gapira olishga, mustaqil fikrleshga, jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish.

Korreksion: Nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish.

Darsning jahozi: predmetlar tasvirlangan rasmlar, tablichkalar, tarqatma materiallar, doskaga osiladigan maxsus moslama, darslik.

Nutqiy material: buvi, qiz bola, bobo, ona, doska, ko'ylak, uzum, xurmo, parta, javon, stol, qulupnay, olxo'ri, palto, telpak, jemper, qoshiq, tova, q'izon, likopcha, sinf jihozlari, oila, mevalar, kiyimlar, idishlar, guruhlari.

Darsning borishi:

O'qituvchi qo'liga limonning rasmimi oladi va o'quvchilarga, rasmni nomlang,- deb murojaat qiladi. O'quvchilar limon deb javob beradilar. Endi limon so'ziga so'roq beramiz, qani kim aytadi?,- deydi o'qituvchi. O'quvchi «nima?» so'rog'iga javob bo'ladi deb javob beradi. O'qituvchi: bu nima? O'quvchilar: bu limon. O'qituvchi: limon qanday? O'quvchilar: nordon.., achchiq.., sariq.., dumaloq.. deb predmetga ta'rif beradilar.

O'qituvchi hamma bolalarni doskaga chaqiradi va tushuntiradi. Stolning ustida 13 ta rasm teskari qo'yilgan, xurmo, olcha, uzum, gilos, piyoz, lavlagi, pomidor, bodring, it, mushuk, ot, xo'roz, bo'ri. Har bir o'quvchi bitta rasmni olib, rasmga qarab o'z guruhini topib

bitta stol atrofida o'tirishlari kerak. O'qituvchi diqqat bilan nazorat qiladi, bo'ri rasmini olgan bola o'z guruhini izlayapti. U uy hayvonlariga kelib qo'shilmoqchi bo'ladi, shunda o'qituvchi bolalardan sizlar bilan o'tirsa bo'ladimi?- deb so'raydi. Bolalar: yo'q, mumkin emas, bizlar uy hayvonlarimiz, deb javob berishadi. Shundan keyin boshqa stoldagi bolalarning oldiga borib, bo'ri sizlar bilan o'tirsa bo'ladimi? – deb so'raydi. Bolalar: yo'q, mumkin emas, bizlar mevalarmiz, deb javob berishadi. Xuddi shunday keyingi stoldagilar ham «Biz sabzavotlarmiz» deb javob berishadi. O'qituvchi: to'g'ri bolalar, bo'ri sabzavotlar guruhiha ham, uy hayvonlariga ham, mevalar guruhiha ham kirmaydi, bo'ri qaysi guruhiha kiradi? -deb so'raydi. O'quvchilar: bo'ri yovvoyi hayvonlar guruhiha kiradi, -deb javob berishadi. Albatta, o'qituvchi doimiy ravishda o'quvchilarga savol-javoblarda yordam berib boradi. Bo'ri rasmini olgan bola boshqa rasm oladi va guruhlarga borib qo'shiladi.

Har bir stolda qalin flamaster bolalarning soniga mos va bitta varaq qo'yilgan bo'ladi. Hamma bolalarga qo'lingizdagi rasmning nomini, u qaysi so'roqlarga javob bo'lishini yozing va uni ta'riflang (qanday? so'rog'ini bering), deb topshiriq beriladi, besh daqiqadan keyin stollardan varaqlar olinib doskaga skoch bilan yopishtirib qo'yiladi.

a) sabzavotlar:

nima?	nima?	nima?	nima?
piyoz,	lavlagi,	pomidor,	bodring
qanday?	qanday?	qanday?	qanday?
achchiq	qizil, shirin	nordon, qizil	yashil, cho'zinchoq

b) mevalar :

nima?	nima?	nima?	nima?
xurmo,	olcha,	uzum,	gilos
qanday?	qanday?	qanday?	qanday?
achchiq	sho'r	shirin	shirin, dumaloq

d) uy hayvonlari :

nima?	kim?	nima?	nima?
it	mushuk	ot	xo'roz
qanday?	qanday?	qanday?	qanday?
yaxshi	yumshoq	katta	yomon

Doskадagi yozilganlarni har bir guruh a'zosi o'zi chiqib tushuntiradi, butun sinf o'quvchilari bilan tahlil qilinadi, xatolari birgalikda tuzatiladi, sababi tushuntiriladi.

Tablichkalarda predmetlarning nomlari yozilgan, lekin tasviri yo'q. O'qituvchi o'quvchilarni ikki guruhga kuchlarni teng qilib bo'ladi. Stolning ustida 20 ta tablichka teskari qilib qo'yilgan. Doskada 5 ta maxsus moslama osib qo'yilgan.

idishlar	kiyimlar	mevalar	oila	sinf jahozi

Bu o'yin musobaqa tarzida o'quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. O'quvchilarga o'qituvchi boshladik, deb buyruq berishi bilan har bir guruhdan bittadan bola chiqib stolning ustidagi kartochkalardan bittasini olib, o'qishi qaysi so'roqqa javob bo'lishini aytishi (masalan, olma - nima? yoki otakim?) va doskadagi mos guruhga joylashtirishi kerak. O'yin shu tariqa davom etadi, har bir guruh vakili 2 martadan kartochka olishiga to'g'ri keladi. Qaysi guruh tez, to'g'ri va xatosiz bajarsa o'sha guruh a'zolari g'olib hisoblanadi va o'sha guruhga O'zbekiston bayroqchasi yoki rangli yulduzchalar berilishi mumkin.

O'qituvchi faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiradi, ularga yulduzchalar, kichik rasmchalar berishi mumkin. Eng a'luchi o'quvchilarga sinf kutubxonasidagi rangli kitobchalardan o'qish uchun berishi mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, hech qachon bolaning izzat nafsga tegadigan gaplarni aytmang, senga «2» baho, senga «3» baho degan so'zlarni aytishdan qoching. Bugun falonchi yaxshi javob berdi, lekin yanada yaxshi javob bersang bo'ladi, deng. O'quvchi noto'g'ri javob bergan taqdirda ham siz «sen nega shunday deb o'ylaysan?» deb so'rab, undan keyin to'g'ri javobni tushuntiring. Uyga vazifa nutq burchagidagi navbatchi tovush ishtirok etgan 12 ta so'z toping, tovushlarning so'zdagi o'rnini aniqlang, tagiga chizing va so'zlarni guruhlarga ajrating.

Maxsus ta'lif tizimidagi o'quv jarayoni darslarini shu tipda tashkil eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini

shakllantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Zero, bu metodlar sara rasm va samarali metod ekanligi tajribalarda o‘z isbotini topmoqda. Ayni paytda har bir o‘qituvchi pedagogik texnologiyalarga ko‘rko‘rona emas, balki ijodiy yondashish kerakligini ta’kidlab o‘tish joiz.

Savol va topshiriqlar

1. Og‘zaki nutqqa o‘rgatish mazmunini yoriting.
2. Tayyorlov sinflarida og‘zaki va yozma nutqqa o‘rgatish uslubiyatini o‘xhash va farqli jihatlarini ko‘rsating.
3. Og‘zaki nutqqa o‘rgatish bo‘yicha ish turlarini tavsiflang.
4. Og‘zaki nutqqa o‘rgatish bo‘yicha dastur talablarini yoriting.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. –T.: 1997.
2. I. Karimov. Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish. Farmoni, –T.: 1997.
3. I. Karimov. Barkamol avlod orzusi. –T.: Sharq, 1999.
4. I. Karimov. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O‘zbekiston, 1998.
5. I. Karimov. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so‘zlagan nutqi. 1997.
6. I. Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-tom, – T.: O‘zbekiston, 1997.
7. Barkamol avlod orzusi. To‘ldirilgan ikkinchi nashr. –T.: O‘zbekiston milliy enseklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2000.
8. А.Г.Басова, С.Ф.Егоров История сурдопедагогики –М.: Просвещение, 1984.
9. А.Зыкова. Методика обучения глухих языку –М., 1977.
10. А.Г.Зикеев. Развитие речи слабослышащих учащихся. – М., 1976.
11. Р.М.Боскис. Глухие и слабослышащие дети. –М., 1963.
12. А.И.Дячков Воспитание и обучение глухонемых детей. –М., 1957.
13. А.И.Дячков Система, обучения глухих детей. –М., 1963.
14. С.А.Зыков Воспитательная работа в школе-интернате для глухих. –М., 1961.
15. Сурдопедагогика –М.: Просвещение, 1989.
16. Ф.Ф.Ray. Устная реч глухих. –М., 1973.
17. Naydjel Forman. Buyuk Britaniyada maxsus ta’lim. Leystershir universiteti. Buyuk Britaniya, 1999.
18. Maxsus pedagogika instituti. Pedagogikaning oliy maktabi. Stokholm, Shvesiya. Britta Alin va Kurt Shrinnxolm. 1999.
19. Kollej ta’limi. Slipperi Rek, AQSH Monika F.Ondrusko, Katarina V. Morsink. 1999.
20. А.И.Дячков «Системы обучения глухих детей» –М.: 1963.

21. А.П.Гозова «Профессиональное обучение глухих» Москва, 1975.
22. А.И.Дячков Дидактика школ глухих детей. –М., 1968.
23. Й.Г.Речиская Формирование учебной деятельности у глухих детей младшего школьного возраста. //Дефектология 1987.№4.
24. Й.Г.Речиская Усовершенствование педагогического процесса в школе глухих» –М., 1981.
25. Й.П.Кузмичева Развитие речевого слуха у глухих –М., 1983.
26. Новое в методах обучения глухих детей. //Под редакцией С.А.Зыкова. –М., 1968.
27. Malla Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, Nasaf, 2000.
28. Baxrom Qodirov Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari». –Т.: Mehnat, 2001.
29. A.Zununov, M.Xayrullayev, B.To‘xliyev, N.Hotamov. Pedagogika tarixi. –Т.: Sharq, 2000.
30. O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev, H.Hamidov. Pedagogika tarixi. –Т.: O‘qituvchi, 1997.
31. R.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Holiqberdiyev. Pedagogika – Т.: O‘qituvchi, 2001.
32. O‘zbek pedagogikasi anatologiyasi. (I jild) –Т.: O‘qituvchi, 1995.

3-BO'LIM. TIFLOPEDAGOGIKA

1-bob. TIFLOPEDAGOGIKA FANINING UMUMIY ASOSLARI

1.1. Tiflopedagogika fanining mavzu bahsi va vazifalari

«Ta'lism to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni hayotga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirishdagi uch bosqichdan ijtimoiy himoyaning kafolatlanishi masalasini hal qilish bosqichidir. Respublikamizda jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash, o‘qitish va tarbiyalash masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganki, O‘zbekiston Respublikasining «Ta'lism to‘g‘risida» gi Qonuni (23 - modda) va davlat tomonidan 1992-yil ratifikatsiya qilingan BMT ning «Bola huquqlari to‘g‘risida»gi Konvensiyasi (23 - modda) da nogiron bolalarning alohida parvarishlash, ta’limdan foydalanish, munosib turmush kechirish huquqlariga egaliga e’tirof etilgan. Demak, ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalarni o‘qitish jarayonini turli zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashgan texnologiyalar asosida tashkil etish bugungi kun maxsus pedagogikaning dolzarb masalalaridan hisoblanmoqda.

«Sog‘liq va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun munosib muhit yaratiladi» deyiladi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da. Nogironlikni oldini olish maqsadlarining ijobiy hal qilinishi nogironlarning ijtimoiy tiklash bo‘yicha Davlat dasturini ishlab chiqish va hayotga tatbiq qilish bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu muammoni defektologiya fanining tarixi bo‘lmish tiflopedagogika yoritib beradi.

Tiflopedagogika (grekcha typlos so‘zidan olingan bo‘lib, ko‘r va pedagogika ma’nolarini anglatadi) ko‘rish jarayoni chuqur buzilgan shaxslarni tarbiyalash va o‘qitish muammolarini ishlab chiqaruvchi defektologiya bo‘limi hisoblanadi. U umumiylpedagogikaning qismi va defektologiyaning bo‘limlaridan biri hisoblanadi. Umumiy pedagogikaning bo‘limi sifatida dialektik falsafa, insonparvar

tamoyillari asosida ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar va kattalar rivojlanishining o‘ziga xosligini hisobga olgan holda rivojlanadi. Tiflopedagogikaning tabiiy ilmiy asosi I.M. Sechenov va I.P. Pavlov larning oliy nerv faoliyatini to‘g‘risidagi ta’lumoti sanaladi.

Zamonaviy tiflopedagogika rivojlanish nuqsonlari va anomaliyalarini tugatish va oldini olish yo‘llarini buzilgan funksiyalarni kompensatsiyalash mexanizmlari va shartlari turli yoshdagi ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘rganish, ularni o‘qitishni nisbatan yuqori pog‘onaga ko‘tarish, ushbu toifa shaxslarni kelgusi hayotda o‘z o‘rinlarini topishlariga muvofiq bo‘lishlari muhim. Tiflopedagogika o‘z tadqiqot obyektiiga ega bo‘lib, tadqiqot metodlari tiflopedagogikaning takomillashib borishiga yordam beradi.

1. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish. Tiflopedagogikaning muammolaridan biri adabiyotlar va hujjatlar bilan ishlashdir. Tiflopedagogikadan maxsus adabiyotlar (darsliklar, maqola to‘plamlari, metodika va h.k.), yangiliklar bilan bilan tanisha borish (ilmiy jurnallardagi maqola), maxsus adabiyotlardagi zamonaviy adabiyotlarni o‘rganish, (defektologiya lug‘ati, pedagogika ensiklopediyasi va h.k.), tiflopedagogik muassasalarning ishlari (ma’ruzalari, hisobotlar va h.k.), tiflopedagoglarning adabiyotlar bilan ishlashi, ko‘rishda nuqsoni bo‘igar bolalarni o‘qitish, tarbiyalash rivojlanish davrlarini o‘rganishga hamda maxsus ta’lim sohasidagi yangiliklarni amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi.

2. Pedagogik nazorat. Pedagogik nazoratni tashkil qilishdan biron maqsad ko‘zda tutiladi, pedagogik jarayonlarining vazifasi, ish rejasи nazorat qilgan jarayon aniq vaqt to‘liq qilib olib boriladi. Kuzatishdan maqsad tajriba to‘plash va ilmiy-pedagogik analizdir. Kuzatuvchi darsda o‘qituvchi ko‘nikmasi va o‘quvchilarni dars mavzusi va mazmunini qay darajada qabul qilishini, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘zlashtirish darajalarini tahlil etishga yordam beradi, shuningdek, darsdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning natijasi aniqlanadi. Kuzatuv jarayonini zamonaviy texnik vositalardan foydalananib olib borish samarali natijalar beradi (magnitafon tasmasiga tushurish, kino tasmasiga tushurish, kompyuter va h.k.).

3. Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish. Maxsus pedagogikaning muammolarini hal etishda ta’lim-tarbiya sohasida orttirilgan tajribalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg‘or o‘qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda, mutaxassis o‘qituvchilarning faoliyatları

ham o‘rganib boriladi. Tajribalarni o‘rganish jarayonida muammo, yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Maxsus ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarga amaliy-metidik yordam berish, endi ish boshlagan o‘qituvchilarga ish jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi.

4. So‘rovnoma. Ommaviy ravishda material to‘plash maqsadida so‘rovnoma (anketa) tarqatish yo‘li bilan amalga oshiriladi. So‘rovnoma yozma (testlar) yoki intervyyu (so‘zli) bo‘lishi mumkin. Bu metod orqali o‘qituvchi yoki ota-onalar tomonidan o‘rganilayotgan obyektning yoki shaxsning qiziqishlari, qarashlari bo‘lishi mumkin.

5. Suhbat. Kuzatuvda keng qo‘llaniladigan metodlardan biri suhbat metodidir. Bu metod ko‘r va zaif ko‘rvuchilar va ularning ota-onalari, tiflopedagoglardan olingan ma’lumotlar orqali olib boriladi. Asosan dalillar to‘plash yoki kuzatish davomida to‘plangan materiallarga aniqlik kiritish maqsadlarida olib boriladi.

6. Bolalar ishini o‘rganish. Bolalar ishini o‘rganish metodi bolalarning bilimlarini va qobiliyatlarini aniqlashda yordam beradi. Bunda har xil rasmlarni tahlil qilish, har xil qog‘ozlardan, plastilin, loy, xamirdan foydalaniladi. Ularning ishi analiz qilinganda, uning tez tugatilganini emas, balki bosqichma-bosqich bajarilishi, xatolari va h.k hisobga olinadi. Ularning bilimlarini aniqlashda o‘qituvchi yoki kuzatuvchi yozma ishlari, insho, bayonlar o‘tkazilishi mumkin.

7. Maktab hujjatlarini o‘rganish. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning shaxsiy varaqalari, o‘qituvchilarning to‘plagan ma’lumotlari, sindf jurnallari, kundaliklar, yig‘ilish va majlislar bayonnomalari tadqiqot uchun olib borilayotgan ta’lim-tarbiyaning ahvoli, darajasi haqida aniq axborot manbai sanaladi. Pedagogik hujjatlarni o‘rganish (dars konspekti, darsdan tashqari o‘quv-tarbiyaviy reja, bayonnomalar, pedagoglar yig‘ilishining hisoboti, o‘qituvchilarning metodik yig‘ilishlari) o‘quv-tarbiyaviy jarayonni, maktabdagagi pedagoglarning erishgan ishlariiga xulosa qilish mumkin. O‘quvchilarning shaxsiy hujjatlarini o‘rganish har bir o‘quvchini ruhiyatini, qobiliyatini aniqlashda yordam beradi.

Ko‘rvu jarayoni chuqur buzilgan bolalar rivojlanishining korreksiyasi umumta’lim va mehnat tarbiya jarayonida hamda maxsus korreksiya mashg‘ulotlarida va yakka mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi. Tiflopedagogikada qo‘llaniladigan metodlar bo‘yicha

o‘quvchilar ommaviy o‘rtta ta’lim bilimlarini birmuncha ortiqroq vaqt davomida o‘zlashtiradilar. Ko‘rlar maktablarida ta’lim effektivligi relefli yozuvning hozirgi zamon vositalarini qo‘llash orqali erishiladi. Har xil ko‘rgazmali vositalar orqali, ko‘zi ojizlar maktabida umumta’lim predmetlarini o‘qitish uchun katta shrifli darsliklar yaratilgan bo‘lib, ularda ko‘rgazmali illyustratsiyalarda tasvirlangan obyektlarning asosiy belgilari ajralib turadi. Ta’lim–tizimining sifatini oshirishda ko‘rlar maktablardagi tiflografika va tiflotexnikasining roli kattadir. O‘qitish ishlari barcha metodlarida o‘quvchilarning qoldiq va ojiz ko‘ruvi himoyalanadi.

Ko‘zi ojizlar uchun maxsus maktablarda mehnat ta’limi tiflotexnik vositalar yordamida amalga oshiriladi va bu maktablarning o‘quvchilarida nafaqat eng oddiy hunarmandchilik kasblarini o‘rganishga, balki ulardan zamonaviy mutaxassislar tayyorlash imkonini beradi. Shuningdek, ko‘zi ojiz bolalar uchun mo‘ljallangan mutaxassisliklar ko‘lami ham kengayadi. Tiflopedagogika ko‘zi ojiz bolalarning jismoniy tayyorgarligini amalga oshirishda maxsus metodlariga ahamiyat beradi, chunki u differensiyallashgan va nafaqat umumjismoniy tayyorgarlik balki o‘quvchilarning harakatlan Tirishini va atrof olamda idrok etishni ta’minlaydi. Maxsus maktablarning boshlang‘ich sinflarida o‘qitiladigan korreksion mashg‘ulotlarda ko‘rish jarayonida chuqur o‘zgarishlar sodir bo‘lgan bolalar atrof olamda va ijtimoiy yo‘naltirish ishlari olib boriladi va bolalar o‘z-o‘ziga xizmat qilishga o‘rgatiladi, bolalarga nutq jarayonidagi nuqsonlarni tuzatishga logopedik yordam ko‘rsatiladi, qoldiq ko‘rvuni rivojlantirish mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Ko‘zi ojiz bolalar bilan korreksion ishlarni kichik yoshlardan boshlashning alohida foydaliligi hisobga olgan holda tiflopedagogika ko‘r va ko‘zi ojiz bolalarning maktabgacha tarbiyasiga katta ahamiyat beradi.

Tiflopedagogikaning eng asosiy muommolaridan biri – bu ko‘zi ojiz bolalarni umumta’lim maktablarda o‘qitishdir. Umumta’lim maktablarda o‘qitish pedagoglardan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi, o‘quv jarayonining ko‘rgazmali jihozlar bilan jihozlanishi, o‘qituvchi va o‘quvchiga mutaxassis tiflopedagoglar tomonidan yordam ko‘rsatish tizimini tashkillashtirish talab qilinadi.

Ko‘rish jarayoni buzilgan o‘quvchilar mamlakatning barcha oliy ta’lim muassasalarida bilim olishlari mumkin. Ko‘zi ojizlar sog‘lom

ko‘rvuchilar bilan bir qatorda barcha oliv ta’lim muassasalariga qabul qilinadilar.

Tiflopedagogika fanining asosiy vazifalari, demak, quyidagi larni tashkil etadi, ko‘rishda jiddiy nuqsoni bo‘lgan shaxslarni psixologik-pedagogik va klinik jihatdan o‘rganish; bu kabi nuqsonlar mavjud bo‘lganda ruhiy va jismoniy rivojlanish anomaliyalari va ko‘rish funksiyasi buzilishlarini aniqlash; shaxsning ko‘rish funksiyalari turli buzilishlari mavjud bo‘lgan holda ularni har tomonlama shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish; fan asoslariga o‘rganish hamda mehnat va kasb tayyorgarligi masalalarini hal etish; zaif ko‘rvuchi va ko‘zi ojizlarni o‘qitish va tarbiyalash uchun maxsus muassasalari tiplari va strukturasini belgilash; o‘quv rejalar, dasturlari darsliklar, xususiy metodikalarini tizimining ilmiy asoslarini ishlab chiqarishdir; ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan shaxslarning bilish jarayonlarini rivojlanish, ularni o‘qitish va jamiyatga, mehnatga tayyorlash samaradorligini oshirish imkonini beradigan maxsus texnik vositalar yaratishdir; to‘laqonli bo‘limgan ko‘rishni muhofaza qilish va rivojlantirish bo‘yicha gigienik tadbirlar tizimini ishlab chiqarish; ta’lim-tarbiya va kasb tayyorgarligi uchun binolarni loyihalash maxsus maktablarni rivojlantirishni yo‘lga qo‘yish; ko‘rishiда nuqsoni bo‘lgan bolalarni reabilitatsiya va integratsiyalashni yo‘lga qo‘yish tashkil etadi; tiflopedagogika zimmasiga qo‘yilgan vazifalarni yechishda umumiy, pedagogika, psixologiya, fiziologiya, oftalmologiya, muktab gigiyenasi, bolalar nevralogiyasi bilan hamkorlikda bajariladi.

1.2. Tiflopedagogika fanining rivojlanish tarixi

Tiflopedagogika fanining rivojlanishi XVII asrlarga G‘arbiy Yevropa mamlakatlariiga to‘g‘ri keladi. Ko‘zi ojizlar uchun dastlabki o‘quv muassasasi tiflopedagogika fani asoschisi fransuz pedagogi V. Gayui tomonidan 1784-yilda Parij shahrida tashkillashtirilgan. XVIII–XIX asrda ko‘zi ojizlar uchun bunday maktablar Buyuk Britaniyada, Avstraliyada, Germaniyada va AQSHda tashkil qilingan. Ko‘zi ojizlar uchun tashkil qilingan bunday maktablarda o‘quvchilar yozuv, o‘quv, hisob-kitob, eng oddiy hunarmadchilik va musiqaga o‘qitilgan. XIX asr o‘rtalarida ko‘rlar uchun o‘qish va yozishda L. Brayl tomonidan 1829-yilda ishlab chiqilgan relyefli, nuqtaviy shrift varianti tarqaldi.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar uchun yaratilgan. Ko‘p sonli relyefli va releyefli – nuqtaviy alifboden L. Brayl shrifti o‘quv va yozuv uchun sonlarni belgilash va nota belgilari uchun eng samarali bo‘lib chiqdi.

Hozirda u ko‘zi ojizlar uchun kompyuter texnikasi va kalkulatorlar uchun asosiy kod hisoblanadi. Ko‘pchilik xorijiy davlatlarda uning zaminida tez o‘quv ishlarini olib berish tashkillashtirilmoqda, chunki L. Brayl shrifti bo‘yicha yozish va o‘qish sog‘lom insonlarning o‘qish va yozishdan birmuncha sekinroqdir.

Rossiyada ko‘zi ojizlar uchun birinchi maktab 1807-yilda Peterburg shahrida ochilgan. Tiflopedagogikaning rivojlanishi va ko‘zi ojizlar ta’limi tizimining Rossiyada tarqalishi K.K.Krot, A.I.Skrebitskiy va boshqalarining nomlari bilan bog‘liq. Ko‘zi ojizlar maktablarining bitiruvchilari umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 3-4-sinflari va hunarmandchilik tayyorgarligi hajmida ta’lim olingan. Jumladan, A.V. Birilev, A.M. Herbinardir. Bunga Rossiya Fanlar Akademiyasining muxbir a’zosi, pedagogika fanlari doktori professor B.I. Kovalenko munosib namuna bo‘la oladi. Defektologiya tarixiga B.I. Kovalenko yorqin iste’dod sohibi sifatida kirgan. U Smolensk shahridagi ko‘rlar maktabida o‘qituvchilikdan Leningrad pedagogika institutining tiflopedagogika kafedrasи mudiri vazifasigacha bo‘lgan murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. U tomonidan ko‘r bolalar uchun avval boshlang‘ich, sakkiz yillik, so‘ngra o‘rta maktablarni tashkillashtirish rejalarini ishlab chiqildi. Uning fikrlari va g‘oyalari matematikadan rus tili, jismoniy ta’lim, ko‘riar uchun qisqartirilgan yozuv uchun metodik qo‘llanmalar aks ettirilgan va bular minglab ko‘zi ojiz bolalarning o‘qituvchilari va tarbiyachilar uchun kundalik qo‘llanma sifatida foydalaniilmoqda. Tiflopedagogika tarixiga pedagogika fanlari doktori V.S. Sverlov ham kiritilgan. U 8 yoshda ko‘rish qobiliyatini yo‘qotdi, ko‘rlar maktabida o‘qidi So‘ngra Leningrada LDUNing geografiya fakultetiga o‘qishga kirdi. Kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash, amaliy qobiliyat kabi xislatlarning majmuasi V.S. Sverlov tomonidan ko‘zi ojizlarning atrof olamda idrok etish muammolarini ishlab chiqishga ko‘mak berdi, tiflotexnika, ko‘rmaslik orqasidan nogironlik nafaqasiga chiqqan kishilarni ish bilan ta’minlash, ko‘zi ojizlar maktablari uchun globus va relyef kartalar ishlab chiqishga yordam berdi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan rus olimlari yoki xorijiy davlat tiflopedagogika tarixiga salmoqli hissa qo'shgan shaxslar talayginaadir. Ularning fan sohasini yuksalishi uchun meros sifatida qoldirgan o'lmas asarlari hozirda tiflopedagoglar, defektologlar uchun oltin qo'llanmalar tariqasida foydalanib kelinmoqda. Vatanimizda tiflopedagogika tarixi 1922-yilga to'g'ri keladi. Dastlab rivojlanishida nuqsoni bo'lganlar uchun mo'ljallangan ushbu maktab, 1929-yilda Yo'ldosh Oxunboboyevning bevosita ishtirokida maktabdag'i ko'zi ojiz bolalarni ajratib o'qitish tashkil etiladi. Bugungi kunda mamlakatimizda 10 ta ushbu tipdag'i maktab internatlari faoliyat yuritmoqda.

1.3. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tavsisi

Ko'ruv jarayonining buzilishi tug'ma va keyinchalik paydo bo'lishi mumkin. Tug'ma ko'rlik homilaning ona qornidagi vaqtida bo'lgan kasalliklar va shikastlanish oqibatida paydo bo'lishi mumkin yoki ba'zi bir ko'ruv nuqsonining nasldan-naslga irlsiy o'tishi natijasida bo'lishi mumkin. Odatda, qiyinchilik paydo bo'lgan ko'rlik ko'ruv organlarining kasallanishi oqibatida – to'r parda, shox parda markaziy nerv sistemasining kasalliklari (meningit, miyadagi shish, meningoensefalit) organizmning umumiy kasallanishi oqibatida (qizamiq, gripp) miyaning travmatik shikastlanishi oqibatida paydo bo'lishi mumkin. Ko'ruv analizatorining buzilishlari rivojlanuvchi va turg'un turlari mavjud. Rivojlanadigan ko'ruv nuqsonida patologik jarayonlarning ta'sirida ko'ruv jarayonining doimiy ravishda yomonlashuvi ro'y beradi. Masalan, glaukomada ko'zning ichki bosimi ko'tarilib ketadi va ko'z to'qimalarida c'zgarishlar sodir bo'ladi. Sanitar-gigienik normalarga rioya qilinmaganda (o'quv va yozuvda) ko'zning yaqindan ko'rishi va uzoqdan ko'rishi sodir bo'ladi.

Astigmatizm, katarakta singari kasalliklarni ko'ruv analizatorining turg'un nuqsonlariga kiradi. Bunday nuqsonlar ba'zi bir kasalliklar yoki ko'z operatsiyalari oqibatida bo'lishi mumkin. Demak, bolalarda ko'ruv analizatorining buzilishi homiladorlik vaqtida yoki tug'ilgandan so'ng paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun bolalarda ko'r tug'ulganlar, juda erta ko'rmay qolganlar va 3 yoshdan keyin ko'rmay qolganlar guruhiga ajratish mumkin. Bunday differensiyalash shunga asoslanadiki, bolaning keyingi rivojlanishi

uchun bolaning qaysi yoshdan ko‘rmay qolgani juda katta ahamiyatga ega. Masalan, tug‘ma ko‘zi ojizlar xotirasida har xil obrazli tasavvurlar umuman bo‘lmaydi, lekin keyinchalik ko‘rmay qolganlarda obrazli tasavvurlar qandaydir hajmda qisman saqlanadi. Bolaning psixik va jismoniy rivojlanishida ko‘rish nuqsonining boshlanish, ya’ni yuzaga kelish muddati muhim ahamiyatga ega. Ko‘rmaslik qancha erta boshlangan bo‘lsa, ikkilamchi nuqsonlar psixofizik xususiyatlar ko‘proq namoyon bo‘ladi. Tug‘ma ko‘zi ojizlarning psixik rivojlanishi sog‘lom bolalarga o‘xshash bo‘ladi, lekin ko‘rvu orientirovkasining yo‘qligi ko‘proq harakatlanish doirasida, turmush tarzida namoyon bo‘ladi. Ko‘zi ojizlar uchun tovush signallari o‘ziga xos mo‘ljal o‘rnini egallaydi, ko‘radigan bolalar uchun ham tovushlar muhim rol o‘ynaydi, ammo ko‘zi ojizlar uchun tovush signallari mo‘ljal olish uchun asosiy faktor hisoblanadi.

Ko‘rish qobiliyatining yo‘qotilishi bolalarda o‘ziga xos xarakter, emotsiyonal iroda doirasida sezgi tajribalarini shakllantiradi. Tug‘ma ko‘zi ojiz bolalarda oliv bilish jarayonlarining rivojlanishi (qiziquvchanlik, mantiqiy fikrlash, xotira, nutq) normal holatida bo‘ladi. Shuning bilan birga sezgi va intellektual funksiyalar o‘zaro aloqadorligining buzilishi o‘ziga xos fikrlash faoliyatidan mavhum fikrlash faoliyatining rivojlanishi ustunligida namoyon bo‘ladi. Kech ko‘zi ojiz bo‘lgan bolalarni tug‘ma ko‘zi ojiz bolalardan ajralib turishi ko‘rvu jarayonini yo‘qotgan vaqtiga bog‘liq bo‘ladi. Bola ko‘rish jarayonini qancha kech yo‘qotsa, unda shunchalik ko‘proq ko‘rvu tasavvurlari bo‘ladi va ularni so‘z ifodalarida qaytadan tiklash mumkin. Agar ko‘rvu xotiralarini rivojlantirilmasa, asta-sekin ko‘rvu obrazlarining xotiradan yo‘qolib ketishi mumkin. Ko‘zi ojiz bolalar yuqori darajada psixofizik rivojlanishga va bolani o‘rab turgan dunyoni to‘liq bilishga bolada saqlanib qolgan analiz qilish tizimiga suyangan holda barcha imkoniyatlarga egadir. Maxsus ta’lim sharoitida, eshituv, teri, hid bilish, vibratsion va boshqa psixik jarayonlarning sensor analizatorlari rivojlanishi asoslarini rivojlanishning o‘ziga xos usullari shakllanadi. Natijada idrok etishni kompensatsiyalashni, ya’ni bilim protsessi olib formalarini rivojlanish imkoniyatlari vujudga keladi. L.S. Vigotskiy tomonidan, ko‘rlar oltinchi sezgi (harorat)ga egaligi ko‘rsatilib, u ularga predmetlarni masofada sezishga ranglarni ham sezishga imkoniyat yaratadi. Ta’lim jarayonida pedagog, ota-onalar ko‘rlikni kompensatsiya qilish bolada

uning hayotining birinchi oylaridan boshlanishini hisobga olish lozim. Ko'rlikni kompensatsiyalash, deydi L.I. Solnseva, butun psixik ta'lim tizimini, sensor tizimini, intellektual komponentlarni o'z ichiga oladiki, bular bolalarga adekvat va tashqi dunyoni aktiv aks ettiradigan va bolalarni yoshiga qarab har xil shakldagi faoliyat bilan shug'ullanishiga imkoniyatlar yaratib beradi. Zaif ko'rurvchilar hodisalar, predmetlar bilan tanishganda, shuningdek, maydon orientirovkasini olishda va harakatlangunda ularda saqlanib qolgan ko'ruvdan foydalaniladi. Masalan, ko'zi ojizlarda ranglarni idrok etish buzilgan holatda bo'ladi. Keskin ifodalangan yaqindan ko'rishda va uzoqdan ko'rishda ko'zi ojizlar ba'zi bir pedmetni ifodalaydigan g'irashira belgilarni payqamasdan qolishi mumkin. Maxsus ta'lim erta boshlanganda normal maydon va stereotopik ko'ruv yaxshi rivojlanadi va mukammallashadi, bu ularda kelajakda murakkab fazoviy ko'rgazmalarни idrok etish imkonini beradi. Quyida ko'z kasalliklaridan namunalar keltirilgan.

24.11.2001.

Rahimov Alisher 18.03.2001.

Tashxis: Tug'ma nistagm.

Tashxis: Retinoblastoma
tufayli vujudga kelgan, ko'z
olmasi atrofiyasi.



Zaif ko'rurvchilar orasida ranglarni farqlash funksiyalari buzilgan, ko'ruvning kontrakt sezgirli yetarli bo'Imagan shaxslar ko'p uchraydi, ranglarni idrok eta olmaslik patologiyasining tug'ma formalari ham uchraydi.

Ko'zni harakatlantirish funksiyalarining buzilishi narsalarni idrok etish va ularni tasvirlashga ta'sir o'tkazadi, ko'z nigohini ma'lum bir nuqtada ushlab turishga xalaqit beradi, dinamik o'zgarishlarni, chiziqli va shartli kattaliklarni baholashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Shuning uchun korreksion ishlar hodisalar va predmetlarning kuzatishning maxsus usullaridan foydalanishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u eshituv, ta’m bilish, hid bilishga asoslangan bo‘lib, u bolalarda real hayotning murakkab sintetik obrazlarni yaratish imkonini beradi.

Zaif ko‘rvuchillardagi saqlanib qolgan ko‘ruv ularning rivojlanishiga, o‘quv, mehnat va ijtimoiy adaptatsiyaga (moslashuviga) muhim ahamiyatga ega, shuning uchun uni avaylab-asrash zarur, buning uchun muntazam tashxis qo‘yish, ko‘z shifokorida davriy ko‘riklardan o‘tkazish, tiflopedagog va psixologdan maslahatlar o‘tkazish zarur.

Ko‘zi ojizlar va zaif ko‘rvuchilarda ularni o‘rab turgan dunyonidrok etish va bilishda teri orqali bilish muhim ahamiyatga ega. Taktildrok etish har xil kompleks sezgilar (qo‘l tekizish, bosim, issiqlik, sovuqlik, og‘riq, materialning fakturasi va boshqalar) orqali ta‘minlanadi va bular orqali narsalarning shakllari, o‘chamlari va har xil proporsional aloqalar aniqlanadi. Teri va shilimshiq qavatdagasiab qoldig‘lari tomonidan qabul qilingan har xil sezgilar bosh miya qobig‘ining qo‘l va barmoqlari ishi bilan bog‘liq bo‘limiga yuboriladi. Ko‘rlar va ko‘zi ojizlar xuddi shunday qo‘llari va barmoqlari bilan «ko‘rishga» o‘rganadilar. Shu sababli, ko‘zi ojizlar va zaif ko‘rvuchilar ta‘lim va tarbiya jarayonida differensiyaga mashqlar o‘tkaziladi – narsalarning xarakterlarini tovush yordamida farqlanadi va baholanadi, murakkab tovush maydonini analiz va baholash, tovush signallari aniq bir narsalarga, moslamalarga, mexanizmlarga va bu ularda yuz berayotgan protsesslarning yuzaga chiqishidan bo‘ladi.

Ko‘ruv jarayoni buzilgan shaxslarning har xil faoliyat turlarini muvaffaqiyatli egallash (predmetli, o‘yin, mehnat, o‘qish) ko‘rgazmali qurollar bilan yuqori darajada ta‘minlanish va rivojlantirish, fazoviy fikrlash fazoviy mo‘ljalga olishni egallash bilan bog‘liq. Fazoviy orientirovka fazoda (maydonda) erkin harakatlanishning muhim qismidir.

Shunday qilib, ko‘rishda nuqsoni bor bolalarni ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Ko‘zi ojizlar
2. Zaif ko‘rvuchilar.

Ko‘zi ojizlar ko‘ruv o‘tkirligiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi:

1. Total ko‘rlar. 0 ko‘rish o‘tkirligi.

2. Qisman ko‘zi ojizlar. Ko‘rish o‘tkirligi 0,05 gacha(yorug‘likni sezadigan)

Kelib chiqish sababiga ko‘ra:

1.Tug‘ma ko‘zi ojizlar

2. Orttirilgan ko‘zi ojizlar.

Zaif ko‘rvuchilar ko‘rish o‘tkirligiga ko‘ra quyidagicha turga bo‘linadi:

0,05dan 0,1 gacha (o‘qitish Brayl alifbosida tashkil etiladi)

0,1dan 0,2 gacha

0,2 dan yuqori 0,4 va 0,9 gacha,

Ko‘zi ojizlar va zaif ko‘rvuchi bolalarda birlamchi nuqsonlar patologiyasi yuzaga keladi: ko‘rish o‘tkirligi, rang ajratish, ko‘rish maydoni, yorug‘likni sezish va hokazo. Ko‘ruv o‘tkirligi – ko‘zni bir-biridan eng kam masofada turgan ikki nuqtani ayrim-ayrim ko‘ra olish layoqatidir. Ko‘ruv maydoni – bu odam ko‘zлari va boshni qimir-latmay turganida ko‘rib idrok etadigan maydondir. Maxsus va to‘g‘ri tanlangan o‘qitish metodikasi qo‘llanmasligi natijasida ikkilamchi nuqsonlar yuzaga keladi, bular quyidagilar bo‘lishi mumkin:

sensor apparatlarning to‘liq shakllanmaganligi;

tasavvur va tushunchalar borasidagi kamchiliklar;

fikrlashdagи kamchiliklar;

nutq rivojlanishidagi kamchiliklar;

harakatdagi kamchiliklar.

Faqat maxsus ta’lim-tarbiya sharoitidagina ikkilamehi nuqsonlarni korreksiyalashga sharoit mavjuddir. Ambliopiya bilan og‘igan bolalarda ko‘rib idrok etish, harakat sohasida (harakatlar aniqligi, koordinatsiyasi buzilgan, mayda matorika makonda orientlash, oynada aks etganda o‘ng va chap tushunchalari rivojlanmagan) predmetli tasavvurlar sohasida hajm biroz kichikroq bo‘ladi. Ko‘zi ojiz bolalarda predmetli tasavvurlar zaxirasi ancha kam, ular mavjud tasavvurlar obrazlar bilan ishlashda qiynaladilar. Maktabgacha yoshdagi ko‘zi ojiz bolalarda harakatchanlik sustligi, harakat malakalarini aniq shakllanmasligi, makonda orientlash ancha buzilganligi, makondagi yo‘nalishlarni ajratishda nuqsonlar, makonda harakatlanish chog‘ida orientlashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Ko‘zi ojiz bolalarda ikkilamchi nuqsonlar bilish faoliyatida ham namoyon bo‘ladi, predmetlar haqida tasavvurlar ojizligi, predmetlar haqida tasavvurlar yo‘qligi, tasavvurlar uzuq-yumuqligi va boshqalardir.

1.4. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun mактабгача tarbiya muassasalar faoliyati

Yurtboshimizning «O‘zbekiston mustaqillikka erishish оstonasida» nomli asarlarida ta’lim-tarbiya maskanlarini rivojlantirish borasida shunday deyiladi: «Ammo eng avvalo bolalar bog‘chasidan boshlab oliy maktablarimiz, texnikumlar, hunar-texnika bilim yurtimizda, maktablarimizda barcha zarur sharoitni yaratmoq kerak». Mustaqilli-gimizning dastlabki davrdan boshlab ta’lim maskanlarini jahon talablari darajasida rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilayotganligi fikrimiz dalilidir. «Aqliy va jismoniy jihatdan imkoniyati cheklangan bolalarning alohida ehtiyojlari e’tiborga olinadi, ta’lim, kasb-kor tayyorgarligi, tibbiyat, sog‘liqni tiklash, imkoniyati darajasida bolani ijtimoiy hayotga jalb etishga, shaxsning rivojlanishi, jumladan madaniy va ma’naviy kamol topishiga olib keladi». Ushbu misralar «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunidan olingan. Tiflopedagogika taraqqiyoti davomida ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar uchun ta’lim-tarbiya muassasalar tizimi shakllanadi. O‘zbekiston hududida dastlab ko‘zi ojizlarning boshlang‘ich ta’limini ta’minlovchi muassasalar tashkil topdi, keyinroq bolalar uchun mактабгача tarbiya muassasalari barpo bo‘ldi. Maxsus muassasalar hozirgi zamon konsepsiyasida nogiron, jumladan, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim tizimiga ma’lum o‘zgarishlar kiritilgan va ularni amalga oshirish ishlari olib borilmoqda.

Mактабгача tarbiya. Mактабгача tarbiya tizimi davlat, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, muhim ijtimoiy masalalarni hal qiladi: ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni har tomonlama kamol toptirish; ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuch bolalar nuqsonli rivojlanishini oldini olish; korreksiyalash va ularning sog‘ligini himoyalash va mustahkamlash; ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tarbiyalash va maxsus ta’lim berishda oilaga ko‘maklashish maqsadida maxsus va oilaviy mактабгача ta’lim muassasa qoshida ochilgan mактабгача tarbiya muassasalari tashkil etilgan. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga maxsus mактабгача ta’lim muassasalarda maqsadli ta’lim va tarbiya berish jarayonida ularga normal psixik rivojlanishni ta’minlash, ilk bolalik davridagi noto‘g‘ri tarbiya natijasida yuzaga keladigan ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalash, kompensatsiyalash

mumkin. O‘zbekiston Respublikasida ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ta’lim muassasalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 18-iyundagi 117сонли qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Qarorga muvofiq maktabgacha ta’lim muassasalarda ko‘rishida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar – ko‘zi ojizlar, amблиопия va g‘ilaylik, zaif ko‘rvuchilar ta’lim-tarbiya olishlari mo‘ljallangan. Ta’lim muassasalarga 2-3 yoshdan, har bir guruhg‘a 6-8 nafardan qabul qilinishi mo‘ljallangan.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun bog‘chalar faoliyatida 4 ta asosiy vazifani belgilash mumkin. Ularning bajarilishi va faqat bolalarning umumta’lim dasturlarini o‘zlashtirishga imkoniyatlarini, balki rivojlanishdagi ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalash va kompensatsiyalashni ta’minlaydi.

1. Qisman ko‘radigan va zaif ko‘rvuchi bolalarda saqlangan ko‘rish funksiyalarini rivojlantirish, amблиопия va g‘ilay bolalarni ularni normagacha tibbiy va pedagogik vositalar bilan tiklash.

2. Bolalarning rivojlanishi o‘quv dasturni («Bolajon» o‘quv dasturi) o‘zlashtirish uchun ularning psixik-jismoniy rivojlanishi xususiyatlarini hisobga olgan holda qulay sharoitlar yaratish.

3. Bola hayotining dastlabki oy yillardagi noto‘g‘ri tarbiya natijasida yuzaga keladigan ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalash.

4. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim, o‘yin, mehnat faoliyati kompensator usullarini shakllantirish.

Maxsus vazifalarni hal etishda har bir mutaxassis vrach oftalmolog, tiflopedagog, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bog‘chasi tarbiyachisining roli garchi o‘zaro bog‘liq va o‘zaro bog‘langan bo‘lsada, ular ko‘p qirralidir.

Mazkur maktabgacha yoshda bolaning bilishga ehtiyoji, qiziqishi, faolligi, maqsadli harakatlari odati shakllanganligi o‘quvchilarga maktabda kompensator metodik usullarni darsning predmet mazmuniga muvofiq mustahkamlash va rivojlantirish imkonini beradi. Tiflopedagog va tarbiyachining bu muhim vazifani hal etishdagi ishtroki ularning faoliyati, tashkiliy shakllari va mazmuniga bog‘liq, tiflopedagog yakka tartibda bu kichik guruhdagi mashq‘ulotlarni bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda, eng avvalo, faoliyatning u yoki bu usuli to‘g‘risida dastlabki bilimlarni shakllantiradi. Tarbiyachiga bu usullarni mustahkamlash, mashq‘ qildirish, bola uchun yangi vaziyatlarga kiritish, shuningdek, shakllantirilayotgan

usullar samaradorligini tekshirish uchun keng imkoniyatlar beradi. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshdagি bolalarda bilim, o‘yin, mehnat faoliyati usullarini shakllantirish.

Mazkur maktabgacha yoshda bolaning bilishga ehtiyoji, qiziqishi, faolligi, maqsadli harakatlanishi odati shakllanganligi o‘quvchilarga mактабда kompensator metodik usullarni darsning predmet mazmuniga muvofiq mustahkamlash va rivojlanтиrish imkonini beradi.

Tiflopedagogik va tarbiyachining bu muhim vazifani hal etishdagi ishtiroi ularning faoliyati, tashkiliy shakllari va mazmuniga bog‘liq, tiflopedagog yakka tartibda bu kichik guruhdagi mashg‘ulotlarni bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda eng avvalo, faoliyatning u yoki bu usuli to‘g‘risida dastlabki bilimlarni shakllantiradi.

Tarbiyachiga bu usullarni mustahkamlash, mashq qildirish, bola uchun yangi vaziyatlarga kiritish, shuningdek, shakllantirilayotgan usullar samaradorligini tekshirish uchun keng imkoniyatlar beradi.

1.5. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun umumiy o‘rta, kasb va oila ta’limi

Umumiy o‘rta ta’lim.

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar umumiy o‘rta ta’lim muassasalari O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish to‘g‘risida»gi, «Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida» gi Qonunlari, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari, Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 29-oktabrdagi «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus , kasb-hunar ta’limiga izchil o‘tishni ta’minalashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 473-sonli, 2011-yil 13-sentabrdagi «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashlashtirilgan davlat ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqidagi qarorlariga muvofiq tashkil etiladi.»

Ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolalar uchun maxsus umumta’lim maktab-internatlari o‘quvchilarning ta’lim va tarbiyasini, maktab ta’limini, shuningdek, ularning nuqsoni rivojlanishi korreksiyasini amalga oshiradi. Ko‘zi ojizlar uchun tashkil qilingan maktablar maxsus ta’lim davlat tizimining asosiy qismi hisoblanadi va bu tizim bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning alohida ta’lim zaruriyatidan kelib

chiqadi va shu tamoyillar asosida ishlaydi. Ko‘zi ojizlar maktablarida o‘qitish va tarbiyalash o‘zining maxsus tamoyillariga va vazifalariga ega, bu vazifalar yaxshi rivojlanmagan va buzilgan funksiyalarni qayta tiklash, korreksiya va kompensatsiya qilishga mo‘ljallangan bo‘lib bolalarni guruhlarga differensiyalashga mo‘ljallangan. Ko‘zi ojizlarni o‘qitish va tarbiyalashning asosiy qoidalarini asoslab berar ekan, tiflopedagogika shaxsnı har tomonlama rivojlantirishni ta‘minlashga va ko‘zi ojizlikni kompensatsiyalashning tabiiy ilmiy asoslariga rivojlanishda turli nuqsonlarga duchor bo‘lgan bolalarda biologik va ijtimoiy manbalarning birligi to‘g‘risidagi konsepsiaga asoslanadi. L.S. Vigotskiyning ta‘kidlashicha, bu birlik juda murakkabdir alohida psixik funksiyalarga nisbatan ham, bolalarning yoshiga qarab bosqichma-bosqich rivojlanishga qarab ham differensiyalashgan va o‘zgaruvchan birlikdir.

Ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolalar uchun maktablar ikki bosqichdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari	Ko‘zi ojizlar maktab-internatlari
I-IX sinflar	I-IV sinflar
V-IX sinflar	V-X (ko‘zi ojiz bolalar 9 yillik umumiy o‘rta ma’lumotni 10 yilda egallaydilar) (<i>«Ta’lim taraqqiyoti» jurnali 5(80)-soni 2012-yil</i>)

Ko‘zi ojiz bolalar mazkur muassasaga, joylardagi tashkil etilgan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko‘ra qabul qilinadi.

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabida sinf va tarbiya guruhlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-iyuldagи «Umumta’lim maktablarining o‘quv binolaridan samarali foydalanishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 352-sonli qarorining 2-bandida jismoniy yoki aqliy rivojlanish jihatidan nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlardagi sinflarda o‘quvchilar sonining amaldagi normativlari saqlanib qolinishi belgilangan bo‘lib, ko‘zi ojiz o‘quvchilar har bir sinfda 10–12 nafar kishidan, murakkab nuqsonli bolalar uchun 5–7 kishidan tashkil etiladi. Boshlang‘ich ta’lim

o'quvchilarni ko'rgazmali-obrazli va nazariy tafakkur elementlarini egallaydilar, o'qish, yozish, sanash, tasavvurlarni tushunishni o'rganadi. Ikkinchi bosqich bolalar bilim, shaxsiy va harakat doirasi korreksion bo'yicha gigiyena va ko'rishni muhofazalash, sog'lom-lashtirish ishlari davom etadi. Uchinchi bosqich o'rta maktabi umumta'lim tayyorgarligi va mehnat kursi tugallanishni ta'minlaydi. Ta'lim keng va differensiyali asosda olib boriladi.

Kasb ta'lim. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 13-moddasida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga egaliklari yoritiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 17-maydag'i «Imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari faoliyati to'g'risidagi» 100-sonli qaroriga muvofiq ko'rishida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun munosib sharoitlar yaratiladi. Maxsus maktablarni bitirgan o'quvchilar kasb tayyorgarligini hunar maktablarida olishi mumkin. Kasb-hunar kollejlarining ayrimlarida ko'zi ojiz va zaif ko'rvuchi shaxslar turli kasblarni egallahslari mumkin.

Oliy ta'lim. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 14-moddasida ko'rsatilganidek, ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar ham O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolari kabi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish huquqididan foydalanish imkoniyatiga egadirlar. Ko'zi ojiz va zaif ko'rvuchilar barcha kasblarni tanlash huquqiga ega. Oliy o'quv yurtlarida o'qish muddati uzaytirilmaydi.

Tayanch so'zlar

Tiflopedagogika – grekcha typlos so'zidan olingan bo'lib, ko'r va pedagogika ma'nolarini anglatadi.

Brayl yozuvi – ko'zi ojizlar tomonidan qo'llanuvchi nutq shakli.

Ko'rish qoldig'i – ko'rishida nuqsoni bo'lgan shaxslarda ko'rish qobiliyati imkoniyatlarining saqlanganlik darajasi.

Tiflopedagog – ko'rishida nuqsoni bo'lgan (ko'zi ojiz, zaif ko'rvuchi) bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi o'qituvchi.

Kompensatsiya – ta'lim-tarbiya jarayonida sog'lom sezgi a'zolariga tayanish.

Maxsus MTM – ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarga mo'ljallangan maktabgacha ta'lim muassasalari

Ambliopiya – ko‘rvuv analizatorining funksional buzilishlari natijasida ko‘rish qobiliyatining pasayishi.

Ko‘rvuv o‘tkirligi – ko‘zni bir-biridan eng kam masofada turgan ikki nuqtani ayrim-ayrim ko‘ra olish layoqatidir.

Ko‘rvuv maydoni – bu odam ko‘zlarini va boshni qimirlatmay turganida ko‘rib idrok etadigan maydondir.

Savol va topshiriqlar

1. Tiflopedagogika fanining umumpedagogik va maxsus vazifalari nimalardan iborat?
2. Tiflopedagogika fanining mavzu bahsi nimadan iborat?
3. Tiflopedagogikaning asosiy vazifalarini ko‘rsating.
4. Tiflopedagogika fani qaysi fanlar bilan yaqin aloqada?
5. Ko‘rvuv analizatorida nuqsonlarning yuzaga kelish sabablari.
6. «Ko‘zi ojiz» va «zaif ko‘rvuchchi» tushunchalarini izohlab bering?
7. Birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar haqida so‘zlab bering.
8. Maktabgacha ta’lim muassasalarining asosiy vazifalarini izohlang.
9. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar uchun muassasalar xususida nimalarni ayta olasiz?
10. Muassasalarda ta’lim va tarbiya differensatsiyalangan holda olib borilishini ko‘rsatib bering.

2-bob. KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTAB TA'LIM NAZARIYASI

2.1. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar mакtablarida ta'lif jarayonining mohiyati

Maxsus didaktika ruhiy jismoniy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan shaxslar ta'limi va o'qitilish nazariyasi bo'lib, pedagogik jarayonning vazifalari, tamoyillari, mazmuni, uslublarini tashkil etilishini belgilaydi. Maxsus didaktikaning tarkibiy qismi bo'lgan tiflodidaktikasi ko'zi ojiz va zaif ko'rvuchi bolalar ta'limi nazariy asoslarini belgilaydi. Tiflodidaktika boshqa fan sohalari avvalo falsafa, mantiq va psixologiya analizatorlar va oliv nerv faoliyati fiziologiyasi, axborot nazariyasi va matematika bilan uzviy bog'liq. U zamonaviy pedagogika uchun umumiy bo'lgan tamoyillariga tayanadi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rgatish va o'qitishning muhim metodologik tamoyillari rivojlanishi umumiy xususiy va yagonalik berish tamoyillaridir. Rivojlanish mohiyati uning harakatlantiruvchi kuchlari va rivojlanish jarayonida yangining hosil bo'lishi haqida ta'lilot tiflopedagogika muammolarini hal etishda belgilovchi hisoblanadi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rganishda rivojlanish tamoyili ko'p qirrali va o'ziga xos taqsimlanadi. Bu esa ularning rivojlanishi va ta'limni tashkil etishning umumiy qonuniyatları o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan va normal ko'radigan bolalarni ruhiy va jismoniy rivojlanishini qiyosiy o'rganish muhim ahamiyatga ega, zero, u ko'rish patologiyasi bo'lgan bolalar rivojlanishining umumiy qonuniyatları va o'ziga xos xususiyatlarini o'quv korreksion tarbiyaviy davolash va tiflash ishlarini tashkil etishning o'ziga xosliklarini aniqlash imkonini beradi. Rivojlanish, buzilish turli sifat darajasida bo'ladi. Masalan: ko'rishda buzilish to'liq yoki qisman, bunda ko'pincha boshqa kasalliklar bilan murakkablashgan bo'lishi mumkin. Birinchi holatda pedagog ko'r bola bilan ish ko'radi. Ikkinci holatda ko'zi ojiz, uchinchi holatda esa qo'shimcha kasalligi bo'lgan ko'r yoki ko'zi

ojizlar bilan quyidagilarni hisobga olib, tiflodidaktika bolalariga differensiallangan yondashuvini amalga oshiradiki, bu ko‘r va ko‘zi ojizlarni farqli xususiyatlari bilan shaxsiy harakat sohalari jismoniy rivojlanishi va axborot kommunikativ faoliyati xossalalarini aniqlash imkonini beradi.

2.2. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’limida didaktik tamoyillarning qo‘llanish xususiyatlari

Tiflopedagogika zamonaviy maktab umumdidaktik tamoyillariga tayanadi. Biroq ularning maxsus maktab sharoitidagi realizatsiyasi o‘ziga xos xususiyatlariga ega.

Tiflopedagogika tamoyillari: ta’limning ilmiy tamoyili, izchillik va ketma-ketlik tamoyili, nazariyaning amaliyat bilan bog‘liqligi tamoyili, ta’lim onglilik tamoyili, ta’limni ko‘rgazmalilik tamoyili, ta’limning tushunarligi tamoyili, talimda yakka farqlangan (differensiallangan) yondashuv tamoyili, ta’limning korreksion yo‘nalganligi tamoyili.

Ta’limning ilmiy tamoyili. Ta’limning obyektiv dunyonи bilishi va inson ongini uning aqlini to‘g‘ri bera olish imkoniyati haqidagi qoidalariga asoslanadi, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktablar oldida o‘qituvchilarni zamonaviy bilim asoslari bilan qurollantirish, ularning tarixiy rivojlantirishda ko‘rsatish va uning asosiy metodlari bilan tanishtirish ilmiy bilimlarni berish vazifasi turadi. Ilmiylik tamoyili umumta’lim fanlari va mehnatga o‘qitish asosida boshlang‘ich sinflardan boshlab, to yuqori sinflargacha kiritilgan. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilimlarni o‘zlashtirishlarida o‘ziga xos belgilar namoyon bo‘ladi. Biroq ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar katta imkoniyatlarga ega, zero, ularning asosiy ruhiy jarayon tafakkur nutq ixtiyoriy diqqat xotira saqlanib qoigan.

Boshlang‘ich sinflar elementar bilimlarni egallaydilar. Biroq materialning ilmiy-ommabop bayon etilish, ko‘rgazmali vositalarni imkon doirasida qo‘llash ilmiy qoidalari tushunchalar va atamalar buzulishiga olib kelmasligi lozim. O‘rta va yuqori sinflarda bilimlar chuqurlashadi. Yangilari bilan to‘ldiriladi va ular asosida ilmiy qonuniyatlarini bilish amalga oshadi. O‘quvchilar eng sodda mustaqil tadqiqodlar metodikasi eksperiment o‘tkazish adabiy manbalar bilan ishlashga o‘rganishlari mumkin. Shu bois, yuqori informatsion

ko'rgazmalilik vositalari zamonaviy tiflotexnik vositalar, optik korreksiya vositalardan foydalanishi muhim.

Ta'lilda izchillilik va ketma-ketlik eng muhim didaktik tamoyillardan bo'lib, unga ko'ra o'quv materiali bayonini o'rganiladigan ichki mantiqiga muvofiq bo'lishi va o'quvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlariga javob bo'lishi mumkin. Bilimlar tuzilishi ahamiyatini ta'kidlar ekan, K.A. Ushinskiy yozadi: «Faqat tizim albatta aqli predmetlar mohiyatidan kelib chiqadigan tuzilishiga bilimlarimiz ustidan to'liq hukmronlik baxsh etadi. «Ta'lilda izchillik o'quvchilarning bilimi va ko'nikmalarini qat'iy belgilash talab etadi. Bunda eng muhim didaktik qoidalar ma'lumotidan oddiydan murakkabga, yaqindan uzoqqa, osondan qiyinda o'rgatib borish hisobga olinadi.

Ko'zi ojiz bolalar mакtablарida xuddi ommaviy mакtablari-dagidek izchillik, ketma-ketlilik tamoyili o'quv va dasturlariga joriy etiladi. O'quv rejalarida ta'lim muddatlari o'zgartirilgan makonda mo'ljalga olish, sezish va ko'rish idroki ijtimoiy maishiy orientirlash nutq korreksiyasi bo'yicha maxsus mashg'ulotlar kiritilgan. Bular murakkab malaka va ko'nikmalar shakllanishiga ko'maklashadi. Masalan, grafik materialni bosqichma-bosqich namoyish etish berilgan. Bu esa rasmlar, chizmalar va sxemalarini o'qishni yengillashtiradi.

Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili. Nazariy bilimlarning amaliy malaka va ko'nikmalar bilan ratsional birlashtirilishi umumiyligi ta'limga mehnat tayyorlarligi va ijtimoiy faoliyat bilan birlashtirishni didaktik tamoyilidir. Ta'lilda amaliyot asosan bolalarning nazariy jihatdan tushunishni chuqurlashtirish, bilimlarini mustahkamlash, qo'llash haqiqiyligini tekshirish uchun xizmat qiladi. Nazariy amaliyot bilan bog'liqligini amalga oshirishda bolalarda bilim va amaliy malakalarini egallashda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni hisobga olish zarur. Maktablarda olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar egallagan bilimlar bilan ularning amaliy faoliyati o'rtasidagi farq ancha sezilarli va jiddiy. Ko'rish ojizligi yoki ko'rmaslik bolalarni vizual kuzatishni (shakl, hodisalar, predmetlar va shakli boshqalar) talab qiladigan muayyan bilimlarni makonda orientrlash o'zini-o'zi nazorat qilish bilan bog'liq maxsus va ko'nikmalarini egallashlarini qiyinlashtiradi. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruchchi bolalarni, o'qitishda

nazariya va amaliyotdan oldin yoki keyin bo'lishi haqidagi masalani hal etishda o'quv materiali xususiyati bilan birga bolalar rivojlanishining o'ziga xosligi hisobga olinadi.

Ta'limdi onglilik tamoyili. Onglilik didaktik tamoyil bo'lib, u o'quvchilarning bilimlarini ongli o'zlashtirishi va qo'llanilishi o'qish zarurligi va o'rganilayotgan material amaliyotini tushunishlarini ta'minlaydi. Bu tamoyil o'quvchilarning faolligi, tashabbuskorligi va mustaqilligi bilan bog'liqdir. Ongli o'qishning asosiy qirralari quyidagilar: o'quvchilarning ta'lism foydasini tushunishi o'quv materiallarini aniq anglash ta'linda shaxsiy tajriba bajaradigan amallarning asosiy momentlari va ularni ehtimoliy natijasini xayolan ko'z oldiga keltirishi lozim. Bilimlarni ongli o'zlashtirish fatik materiallarni to'g'ri tushunishdan boshlanadi. Bu esa bolalarda fikrlash faoliyatini ko'zda tutadi. Uning yordamida ilmiy bilimlar shakllanadi. O'qishga ongli va faol munosabat ko'p jihatdan boshqa didaktik tamoyillar, ayniqsa, ta'limning tushunarligi va nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Maxsus maktablarda ta'limning ongliligi tamoyilini amalga oshirishda ma'lum qiyinchiliklariga ega bo'lib, ular bolalarning ruhiy rivojlanish xususiyatlari va hissii iroda holati bilan belgilanadi.

Ko'pincha predmetni va uning mohiyatini aks ettirgan so'zni idrok etish o'rtasida tafovut namoyon bo'ladi. Ko'rishda nuqsoni bor bolalar bilimlardagi formalik ta'limning jiddiy kamchiliklardan biri. U o'qitishning mavhumligi, uning xayolan uzilib qolganligi, ko'rgazmalilik yetarli emasligi, texnik vositalardan yetarli foydalanmaslik oqibatida yuzaga keladi.

Ko'rgazmalilik tamoyiliga ko'ra ta'lim o'quvchilar bevosita qabul qiladigan muayyan obrazlarda quriladi. Bu tamoyilni nazariy jihatdan L.A.Komenskiy birinchi bo'lib asoslab bergen. U ilk bor ko'rinadiganni ko'rib, eshitadiganni eshitib, hidni hidlab, ta'mni ta'mi bilan idrok etish haqidagi oltin qoidani keltirgan. Ta'linda ko'rgazmalilik o'quvchilarida predmet va hodisalarни idrok etish hisobiga tasavvurlar, tushunchalar shakllanishi tafakkur va nutq rivojlanishiga ko'maklashadi.

Ko'rgazmalilikdan foydalanish darajasi va ta'limning turli bosqichlarida turlichadir. U boshlang'ich sinflarda tobora to'liq qo'llanadi. Bunda sensor tajriba boyitiladi, tasavvurlar aniqqashitiriladi va ko'rgazmali obrazli tafakkur rivojlanadi. O'rta va yuqori

sinflarda ko'rgazmalilik darajasini talab qiladi. Ko'rgazmalilikning quyidagi turlari farqlanadi. Natural yoki tabiiy (predmetlar, obyektlar, hodisalar) tasviriy (rasm, chizma, grafik, diagramma) hajmlik (geometrik **figuralar**, jismlar) shartli va ramziy (xaritalar, globus va boshqalar) modellar va maxsus qurilmalar (kosmik kema modeli, tuk xatoligini o'lhash uchun qurilma) ko'rgazma tamoyilini to'g'ri qo'llash ko'r va ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limi uchun katta ahamiyatga ega. Ko'rishning tamoman yoki qisman buzilishi, albatta, tashqi olamni bilishning hissiy asosini qisqartirib saqlagan analizatorlardan yanada to'liq ishlatish zaruratini keltirib chiqaradi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar ta'limda ko'rgazmalilik ularning bilish imkoniyatlarini rivojlantirish va estetik tarbiyasining o'ziga xos vositasi bo'lib yangi bilimlar va atrof dunyo haqida tasavvurlar shakllanishi uchun manbadir. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar tabiiy predmetlarni o'lchamlari relyef silliq bosmali tasvirlarni maket model va priborlarni idrok etishda qiynaladilar. Ko'zi ojizlar uchun asosan sezish orqali biladigan ko'rgazmali qurollar ishlatiladi. Bularga tabiiy obyektlar mulyajlar, maketlar, relyefli globuslar, xaritalar, rasmlar, chizmalar kiradi. Ko'zi ojizlar ko'rgazmali qurollarni ma'lum o'chamlarda, rangda, yorug'likda, obyekt va fan kontrastida hamda bu vositalar boshqa sifatlarida ko'rib idrok etadilar. Masalan, yaxshi ko'rmaydigan bolalar uchun rasmlar, geografik va tarixiy xaritalar ma'lum miqdorining shartli belgi chiziq ifodalariga ega bo'lish kerak. Ular yuqori bo'lмаган kompozitsion murakkabligidagi erkin kontrastli rangi to'yingan tasvirlarni yaxshi qabul qiladilar.

Ta'limning tushunarligi tamoyili. Ta'limning tushunarligi o'quv jarayonini bolalarning tayyorliligi yoki individual xususiyatlarini hisobga o'gan holda ko'rishni ko'zda tutadigan didaktik tamoyildir. Shu tamoyilga muvosiq pedagogik asoslangan dasturlar, darsliklar ta'lim metodlarini ishlab chiqaradi. Ta'kidlash joizki, tushunarlik qiyinda ma'lumdan norna'lumga, yaqindan uzoqqa, oddiydan murakkabga didaktik qoidalariga amal qilingandagina ta'minlanadi. Ta'limga befarq munosabatni keltiradi. Bilim-malaka va ko'nikmalar mustahkam o'zlashtirilishiga ta'limning butun jarayoni bilan erishiladi. O'quvchilarda ish qanchalik oson tajriba ko'rgazmasi, obrazlar va erkin misollar qanchalik boy va rang-barang, hodisalar o'rtasida qanchalik ko'p aloqa aniqlangan bo'lsa, bilimlar shunchalik mustahkam bo'ladi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan

o‘quvchilar takrorlash mashqlarni bajarish, turli ma’lumotlar olishi uchun, kitob bilan ishslashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Ta’limda individual farqlangan yondashuv tamoyilligiga ko‘ra bolalar jamoasi bilan o‘quv ishlarida har bir bolaga uning rivojlanish xususiyatlarini pedagogik ta’sir etishga erishiladi.

Ayni paytda o‘qituvchi har bir bolaning xususiyatini bilishi ularning har biri bilan til topishi zarur. K.A. Komenskiy yozganidek, «Agar pedagogika insonni har tomonlama tarbiyalamoqchi ekan, demak, u insonni har tomonlama bilib olishi kerak». Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni markaziy ko‘rish o‘tkirligi intellekti va o‘quvgaga ko‘ra tasniflash mакtablarni to‘ldirishining boshlang‘ich pozitsiyalarini belgilaydi. Hozirda ko‘zi ojiz bolalar va aqlan zaif bo‘lgan ko‘zi ojizlar uchun esa maktablarda maxsus sinflar mavjud. Ko‘zi ojizlar maktablarida sinf 12 o‘quvchidan aqli zaif bo‘lgan ko‘r va ko‘zi ojizlar uchun esa 5-7 o‘quvchidan iborat. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktablarda davolovchi jismoniy tarbiya nutq korreksiyasi ko‘rish va yakka tartibdagi mashg‘ulotlar qisman va ojiz ko‘rvuchilar uchun sezish idrokini rivojlantiruvchi ko‘rlar uchun ko‘zda tutiladi.

Ta’limning korreksion yo‘nallanganligi tamoyili. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar rivojlanish va ta’lim tiflopedagogikada bolalarning atrof-muhit bilan o‘zaro ta’siri konsepsiysi doirasida qaraladi. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolaning atrof-muhit bilan o‘zaro ta’siri uning rivojlanishi va xarakterini belgilaydi. Shunga ko‘ra ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar rivojlanishi va ta’limida prinsipial tashqi dunyo bilan buzilgan aloqa munosabatlarni, normallashtirish sanaladi. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolalar maktabining o‘quv rejasini korreksion yo‘nalganlik tamoyili e’tiborga olgan holda tuzilib, bunda ko‘ruv idrokini rivojlantirish, atrof olamda mo‘ljal olish, ijtimoiy yo‘naltirish, ritmika, LFK mashg‘ulotlari kiritilgan. Korreksion yo‘nalganlik tamoyili har bir darsda amalga oshiriladi. O‘quv jarayonida yuzaga kelgan kamchiliklarni maxsus metodik yo‘llar orqali bartaraf etishni ta’minlaydi. O‘quvchilarni mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi.

2.3. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim mazmuni

Ta’lim mazmuni

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar umumiy o‘rta ta’lim muassasalari O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish to‘g‘risida»gi, «Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida» gi Qonunlari, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablari, Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 29-oktabrdagi «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus , kasb-hunar ta’limiga izchil o‘tishni ta’minalashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi 473-sonli, 2011-yil 13-sentabrdagi «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashlashtirilgan davlat ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqidagi» qarorlariga muvofiq tashkil etiladi. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar maktab-internatlari o‘quv rejasi tarkiban davlat, maktab ixtiyoridagi va korreksion soatlardan iboratdir.

Ko‘zi ojizlar uchun maxsus umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinfi uchun ona tili, matematika, tashqi olam bilan tanishtirish, tabiatshunoslik dasturlari umumta’lim maktablar DTS, dasturlariga muvofiq. Ta’limning maxsus shakllari va vositalarini qo‘llashni ko‘zda tutadiki, ular ko‘rvu idrokini korreksiyalash va rivojlantirish, tasavvurlarini aniqlashtirish, ko‘rgazmali obrazli tasavvurni takomillashtirish, o‘z-o‘zini nazorat va harakatlarni boshqarish usul va uslublarini shakllantirishga qaratilgan *Ona tili* dasturida tayyorlov bosqichida o‘quvchilar sensor tajribani boyitish asosida tasavvurlarini shakllantirish, so‘z va predmetning muayyan obrazi o‘rtasida muvofiqlikni aniqlash, qo‘lni yozuvga tayyorlash jarayoni boshlanadi. *Matematika* kursida tayyorlov bosqichi predmetlar shakli, kattaligi, miqdori, makondagi holati haqida tasavvurlarni aniqlash, sanoq materiali, kitobdagagi illustratsiyalar bilan o‘qituvchi yo‘riqnomasi asosida ishslash ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha mashg‘ulotlardan boshlanadi. Ta’limning barcha bosqichlarida og‘zaki sanoq, geometrik sanoqlar, chizma o‘lebor ishlariga e’tibor kuchaytiriladi. «Tabiatshunoslik» dasturlarida predmet darslar, ekskursiyalar va amaliy mashg‘ulotlar soni orttirilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarning atrof voqelik haqida tasavvurlarini boyitish imkonini beradi. *Tasviriy san’at* dasturi o‘ziga xosligi, avvalo tasviriy faoliyat turlari, obyekt va

vositalarini tanlashdadir. Tasvirlarni o‘qish va bajarish, plastik modellash va amaliy dekorativ faoliyatga alohida e’tibor berilgan. Mehnat ta’lim dasturida o‘z-o‘ziga xizmat, texnik va qishloq xo‘jaligi mehnati bo‘yicha turlari tanlangan. Bu mashg‘ulot uchun mehnat turlari va obyektlari saralangan bo‘lib, ular predmet amaliy faoliyat rivojiga ko‘maklashadi, tobora murakkab ish turlariga asta-sekin o‘rganish va ijtimoiy-foydali mehnatda ishtirokini ta’minlaydi. *Musiqqa* bo‘yicha mashg‘ulotlar umumiyligi o‘rtalig‘i ta’lim dasturlariga muvofiq olib boriladi.

Ko‘zi ojiz bolalarni umumta’lim fanlariga o‘qitishda asosan umumta’lim maktablari dasturlaridan foydalaniлади, bunda ularning rivojlanish bosqichlari hisobga olinadi. Umumta’lim maktablarga nisbatan o‘qitish vaqtini uzaytirilgan. Ko‘zi ojiz maktablarida bir yillik dastur materiallari bir necha yilga cho‘zilib o‘qitiladi. Ko‘rvu protsessi buzilgan bolalarni umumta’lim maktablarida o‘qitilganda ommaviy o‘rtalig‘i maktab programmalaridan foydalangan holda maxsus shakllar va metodlardan, ko‘rgazmali didaktik vositalardan, tiflotexnik asbob-uskunallardan foydalaniлади. Ko‘rvu protsessi buzilgan bolalar uchun maxsus korreksion mashg‘ulotlar tashkil qilinadi: ritmika, davolash fizkulturasi, nutq buzilishini korreksiyalash, sotsial- turmush va fazoviy orientatsiya bo‘yicha mashg‘ulotlar, ko‘rishni idrok etishni rivojlantirish.

2.4. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar maktablarida o‘qitish metodining qo‘llanish xususiyatlari

Ma’lumki, didaktikaning predmetini o‘rgatish, o‘rganish hamda ta’lim mazmuni tashkil qiladi. Bunda ishtirok etayotgan uchta komponent bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lib, ulardan birontasini e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Xo‘sh ishni ularni qaysi biridan boshlash zarur? Ishni o‘rganish yoki o‘rgatishdan boshlasak, tabiiy ravishda nimani o‘rganmoqchimiz yoki o‘rgatmoqchimiz degan savol tutiladi. O‘rgatish ham, o‘rganish ham ularning oxirgi natijasi ham ta’lim mazmuniga bog‘liq. Nima bilan o‘rgatmoq lozim? O‘qitish jarayonida turli xil metodlardan foydalaniлади. Bu metodlar, birinchi navbatda, ko‘zi ojiz o‘quvchilarning fiziologik va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shubhasiz, metod nima degan savol tug‘iladi. **Metod** – grekcha so‘z bo‘lib, yo‘l, axloq usuli ma’nolarini bildiradi. Ma’lumki, metodlar tasniflashi turlicha bo‘lishi mumkin.

Asosiy didaktik vazifalar va o'qitish jarayonining maxsus xususiyatlariga bog'liq bo'lgan metodlar tasniflashi ham ma'lum.

Bular: o'quvchilarni o'quv materiallarini o'zlashtirishga tayyorlash metodi, bilim olish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni qo'llash va mustahkamlash, tekshirish metodlaridir. Mantiqiy bilimga mos keluvchi metodlar tasniflashi ham mavjud: analitik, sintetik, analitik - sintetik, induktiv, deduktiv, induktiv - deduktiv, taqqoslash metodlari, o'xshatish abstraksiyalash metodlari kabilar. O'quvchilarni faoliyatini mustaqilligini va faoliyatini rivojlantirishga diqqatni kuchaytirish bilan bog'liq yana bir metodlar tasniflashi ishlab chiqilgan. Bu metodlar o'quvchilarning bilim faoliyati darajasi, me'yoriga asoslanib yaratilgan. Bu umumiy metodlar tasniflanishdan tiflopedagogikaning nazariy va amaliy jihatlarida ijodiy foydalaniladi. Demak, zamonaviy didaktika ta'lim metodlarini tasniflash turlarini quyidagicha ajratishimiz mumkin:

O'quvchilarning bilimlarini egallash manbaiga ko'ra:

1. Og'zaki.
2. Ko'rgazmali.
3. Amaly.

Didaktik vazifalarni hal etish xarakteriga ko'ra:

1. Yangi bilim beruvchi metodlar.
2. Bilimlarni mustahkamlovchi metodlar.
3. Bilim va ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlar.
4. Bilimlarni tekshirish va baholashga xizmat qiladigan metodlar.

O'qituvchi va o'quvchining faoliyati yo'nalishiga ko'ra:


1. Bilimlarni o'qituvchi tomonidan bayon qilinishi metodlari.
2. O'quvchilar mustaqil ishlash metodlari.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishda foydalanadigan metodlar o'ziga xosligi, maxsusligi bilan ajralib turadi. **Umumiyl** va maxsus metodlarni qo'llash zarurati bolalarning bilish faoliyati xarakteri bilan belgilanadi. **Maxsus metodlar**: bunda ko'r bolalar maxsus mifiktabida o'quv rejasida ko'zda tutilgan ma'lum bir fanni o'zlashtirish, o'qitishda qo'llaniladigan metodlar tushuniladi.

O'quv materialining ahamiyatli tomonlari va shu o'quv materialini kar bolalar tomonidan o'zlashtirish xususiyatlariga tayanish, muhim metodologik metodlar, o'qitishning tashkiliy formalaridan foydalaniladi.


O'qitish metodlariga umumiy ta'rif berilgan

1-jadval



Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’limining o‘qitish metodlari

2-jadval



Hikoya – o‘quvchilarning bilimlarini muayyan tizimida o‘zlashtirishlariga ko‘maklashadigan o‘quv materialini jonli, obrazli, emotsional bayon qilishdir. O‘qituvchi so‘zi ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi o‘quvchilar bilimlarining muhim manbaidir. Hikoyaning qimmatliligi shundaki, qisqa vaqt ichida o‘qituvchi kattagina hajmli ma‘lumotlarni xabar qilishi mumkin. O‘qitish metodi sifatida hikoya o‘quvchilarning bilimlarini yangi amaliy material bilan to‘ldirish zarur bo‘lganida qo‘llaniladi. Ushbu metod barcha sinflarga jami o‘quv fanlarini o‘qitishda ishlatiladi. **Tushuntirish**–so‘zli metodi ishlatilishi jarayonida hodisalar qonuniyatları ochib ko‘rsatiladigan, sabab-oqibat bog‘lanishlari aniqlanadigan so‘zli metoddır. O‘qituvchining tushuntirishida hamisha mulohaza, isbot va xulosalar ko‘p bo‘ladi. Uning tushuntirishi o‘qitilayotgan hodisalar va qonun-qoidalar mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Tushuntirish o‘quvchilarning faol fikrlash faoliyatini nazarda tutadi. Bunda o‘quvchilarning mustaqilligi, ularning kitob bilan, ko‘rgazmali va didaktik material bilan ishlay olishi muhimdir. Pedagog vazifasi – zaruriy yordam ko‘rsatgan holda bolalarning amaliy va fikrlash faoliyatiga mohirlik bilan boshchilik qilish. Tushuntirish fanlar asoslarini o‘qitish metodi sifatida maktab amaliyotida hikoya, suhbat, ko‘rgazmali va amaliy metodlar bilan birga ko‘riladi.

Suhbat – ta’limning og‘zaki metodlari asosiy sanalib tobora keng tarqaigan. Monologik bayondan farqli o‘laroq, suhbat dialogik so‘zlashuv metodidir. Uning qimmati shundaki, u tiflopedagogga o‘quvchilar faoliyatini ancha faollashtirishga imkon beradi. Muloqotning savol-javob shakli o‘quvchilarning og‘zaki nutqini faoilashtirishga, o‘z fikrini erkin bayon qilishga imkon beradi. O‘tkazilgan tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ko‘pincha suhbat xususiyati turlicha bo‘lgan o‘quv materialini o‘qitishning universal metodiga aylanadi, bu esa tiflopedagogik amaliyotdagi jiddiy kamchiliklardan dalolat beradi. O‘quv jarayonining yuqori sifatlari va samarali bo‘lishini muayyan vazifalarni bajaradigan va o‘quvchilarning har tomonlama bilish faoliyatlarini ta’minlaydigan o‘qitishning har xil xususiyatlari metodlaridan foydalanish yo‘li bilangina ta’minalash mumkin.

Fan asoslariga o‘qitishning ko‘rgazmali metodlari. Ko‘rgazmali metodi – atrof olamni hissiy bilishning faol shakli bo‘lib,

fan va hodisalarining obyektiv faoliyati haqida dastlabki tasavvurlarni paydo qiladi, bolalarning aqliy rivojlanishi muhim manbaidir. Bu ishga asosiy diqqat o'quvchilarni o'qitishning dastlabki bosqichlarida ajratiladi.

K.A.Ushinskiy ko'rgazmalilikning didaktik ahamiyatini ta'kidlab, shunday qiyosiy fakt kiritgan edi: «Siz bolaga qandaydir beshta noma'lum so'zni o'rgating, u bu so'zlarni o'rganib olguncha uzoq vaqt ketadi va behuda bosh qotiradi. Lekin suratlar vositasida o'rgatiladigan 20 ta so'zni o'quvchi xash-pash deguncha o'rganib oladi.» Ta'lim berishda ko'rgazmalilik o'quv materialini mustahkam va ongli o'zlashtirish shartlaridan biridir, o'quvchilarning nutqi va tafakkurini tuzatish zaruriy shart hisoblanadi. Ko'rgazmali vositalardan keng foydalanish bilan bir qatorda, ulardan ortiqcha qo'llash foydasiz bo'libgina qolmay, zararli ekanligini ham unutmaslik lozim. O'quvchilarni o'qitish jarayonida ko'rgazmalilikning turli ko'rinish-laridan foydalanib namoyish etish keng tarqalgan.

Fan asoslariga o'qitishning amaliy metodlari. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni fan asoslariga o'qitishning amaliy metodlari bilan ko'nikma va malakalarni shakllantirishda, o'quvchilarning mustaqilligini hamda bilish faolligini rivojlantirishda, ularni hayotga va mehnat faoliyatiga tayyorlashda hal qiliuvchi ro'i o'ynaydi. Amaliy metodlardan barcha o'quv fanlarini o'zlashtirishda keng qo'llianadi.

Mashqiar – o'qitishning muhim metodlaridan biridir. Bu metod ko'zi ojiz va zaif ko'ruchchi o'quvchilar maktabining barcha o'quv fanlarini o'qitishda keng qo'llaniladi. Mashqning metodikasi va xarakteri o'quv fanining xususiyatlariga, aniq materialiga va o'zlashtirilayotgan savolga bog'liq. Mashqlarni rejalashtirish asosida o'qituvchi sind rejasini va har bir o'quvchining yakka xususiyatlarini inobatga olishi lozimdir.

Amaliy ishlari – o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlashga, bilimlarni amaliyotda qo'llash, nazariya bilan amaliyo'l o'rtaqidagi aloqani o'mata bilishga qaratilgan metoddir. Amaliy ishlari bir qator pedagogik vazifalarni bajarishga qodir. Maktab tajriba uchastkasidagi amaliy ishlarni mustaqil holda baja-

rishga o'rgatish ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar mактабидаги еng асосиy dolzarb muammolardan biri sanалади. Bu metod korreksion - tarbiyaviy ahamiyатга egadir. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar mактабларida o'quvchilarni atrof olam xususiyatlari, predmetlar xususiyatlari to'g'risida yaxlit tasavvurlarni shakllantirishida ushbu metodning ahamiyati kattadir. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lимida o'qitish metodlarini tanlashda quyidagi omillarga asosланади:

- darsning turiga (umumta'lим predmetlar, maxsus korreksion predmetlar), darsning bosqichi, maqsadiga muvofiq;
- o'quvchilarning o'ziga xos, shaxsiy, yosh xususiyatlarini e'tiborga оlgan holda;
- ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilim darajasiga qarab;
- ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning korreksion-rivojlantiruvchi vazifalarni hal etishga qaratilgan jihatlari.

2.5. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar mактабида o'qitishni tashkil qilish. Dars va sinfdan tashqari ishlар

Ta'lимни tashkil etish shakllari deganda, aniq muddatda va tartibda o'qituvchining o'quvchilar bilan olib boriladigan mashg'ulot turlarini tushunamiz. Sinf deganda, yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lgan o'quvchilar guruhi tushuniladi.

Dars -- aniq maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagи o'quvchi bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotdir.

Darsning maqsadi, mazmuni, hajmi ta'lим standartiari (o'quv reja, дастур, darsiik va qo'llanma) asosida belgilanadi.

Uzluksiz rivojlangan jamiyatda ta'lимning mukammal jamoa shakli, ya'ni dars ming yillar davomida vujudga kelgan. A.N.Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida jamoaviy tarbiyaning oldingi barcha tajribalarini umumlashtirdi, sinfnинг dars tuzilishida ta'lимning асосиy didaktik prinsiplarini izchil ifodaladi. Hozirgi paytda o'quv ishlарini tashkil etishning quyidagi shakllari qo'llaniladi: dars, ekskursiya, o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar, mehnat va ishlab chiqarish ta'limi shakllari, uy ishlари, sinfdan tashqari o'quv ishlарining shakllari (predmet to'garaklari) amalda ko'rishida nuqsoni

bo‘lgan bolalar ta’limida ushbu shakllar keng qo‘llaniladi. Ko‘zi ojiz bolalar mакtabida ko‘rsatiladigan shakllardan tashqari maxsus shakllar qabul qilingan. Bular: musiqali ritmik mashg‘ulotlar, davolovchi jismoniy tarbiya, atrof olam xусusiyatlari va belgilarini idrok qilishga tayyorgarligini rivojlantirish darslari, fazoda mo‘ljal olish, ijtimoiy maishiy hayotda mo‘ljal olish, nutq nuqsonlarini tuzatish, ko‘rvu idrokini rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar frontal va yakka holda olib boriladi. Dars – o‘quv jarayonining asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Bu o‘quv jarayonining shunday birligiki, unda ta’limning tuzilishi tamoyil va metodlari mujassamlashgan. Dars masalasi ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qitish maqsadi bilan belgilanadi.

Darsning ta’limiy vazifalari:

Maktab dasturi bo‘yicha o‘quvchilarni nazariy bilim va amaliy ishlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Masalan; 4-sinfda o‘qish dasturida «Bolalar gurungi» hikoyasi berilgan. Hikoyani mazmuni matn bilan tanishtirish darsning ta’limiy vazifasidir.

Darsning tarbiyaviy maqsadi.

O‘quvchilarda shaxs sifatlarini tarbiyalash, qiziqishlarini rivojlantirishni, layoqat, mustaqillik va ijodni namoyish qilishni ko‘rib chiqishni o‘z oldiga qo‘yadi. O‘quvchilar tarbiyasi uchun kerak bo‘lgan boy imkoniyatlar o‘quv fanlarning o‘zida mujassamlashishi lozim.


Ko‘zi ojiz bolalar ta’limida bitta emas, balki bir nechta didaktik masalani hal qiluvchi dars birmuncha samaralidir.

Ushbu dars strukturasi:

1. Darsni tashkil etish.
2. Uy vazifasini tekshirish va o‘quvchilarni yangi materialni o‘zlashtirishga o‘rgatish.
3. Avval o‘zlashtirganlarni takrorlash.
4. Yangi bilimlarni bayon etish.
5. Yangi mavzuni mustahkamlash.
6. Darsning yakuni.


Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’limida o‘qitish ishlarini tashkil etish shakllari yoritilgan

3-jadval



Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabi o‘qituvchilarining darsga tayyorgarlik omillari ko‘rsatilgan

4-jadval



Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar maktab-internatlarida noq‘yanaviy darslarni rejalashtirish namunasi

Darsni rejalashtirish bosqichlari:

- Mavzuni tanlash.
- Davlat standartlari doirasida bilimlarni rejalashtirish.
- Maqsadni belgilash.
- Mavjud omillar va tanlash.
- O‘qitiladigan muhitni yaratish.
- Interfaol metodlarni qo‘llash.

- Qayta aloqani tashkil etish.
- Tahlil va xulosalar chiqarish.

O‘qituvchi darsga tayyorgarlik jarayonida quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- o‘qituvchi ishlayotgan yoshdagi o‘quvchilar bilimlarini, qiziqishlarini va ular ehtiyoji uchun kerak bo‘lgan yangi bilimlarni bilish maqsadida aniqlab olishi lozim;
- o‘quvchilarni ijtimoiy bilimlarini (mustaqilligi; hamkorlik bilimlarini) aniqlab olish;
- o‘quvchilar ehtiyojini bilib olish;
- boshlang‘ich bilim darajalarini baholay olishi kerak.

Darsgacha quyidagini hisobga olish lozim:

Motivatsiya.

Mashg‘ulot ma’nosi nimada?

Uning oldingilari bilan bog‘liqligi qanday? Bu mashg‘ulot bolaning fikrlashni rivojlantirishda qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Vazifalar.

Qanday bilim va ko‘nikmalar egallanadi?

Bu bilimlardan qanday foydalanish mumkin?

Metodlar.

Qaysi metodlar asosida ishni tashkil etishni aniqlang?

Baho.

O‘zlashtirish qanday baholanadi?

Vaqt taqsimlash:

Turli xil ko‘rinishdagi faoliyatlar o‘rtasidagi vaqt qanday taqsimlanadi?

Guruhlarga ajratish:

O‘quvchilar qay tarzda guruhlarga taqsimlanadi?

Dars jarayoni.

Tashkiliy bosqichi:

O‘quvchilarni dars maqsadlariga o‘z munosabatini bildirishga dastlabki bilimlaridan foydalanishga qanday o‘rgatiladi?

Asosiy bosqichi.

O‘quvchilar darsda matn mazmunini yoki yangi darsning mazmunini singdirib oldilar.

Matnni (mavzuni) anglash qanday nazorat qilinadi?

Mustahkamlash bosqichi.

O‘quvchilar olgan bilimlarini qanday qo‘llashdi?

Yangi bilimlarni qanday qabul qilishdi?

Javobsiz qolgan savollarga javob izlash, masalani yechishga qanday o'rgatiladi?

Xulosalash:

Dars oxirida qanday xulosalarga kelindi?

Dars tugaganidan so'ng:

Mashg'ulotning kelajak maqsadlari qafday bo'lishi mumkin?

Muammo yechimi har tomonlama to'liq yechimini topish kerakmi?

Ta'limning tashkil etilishining ko'p qirrali shakllari

Ta'lim jarayonining asosiy shakli bo'lgan darsdan tashqari boshqa shakllar ham mavjud.

Uy vazifasi darsdan qo'lga kiritilgan bilimlarni mustahkamlaydi va o'quvchilarda mustaqil mehnat asoslarini rivojlantiradi. Ko'r o'quvchilar o'zining uyga topshirilgan o'quv mehnatining rejalashtirishni, darslik orqali qo'lga kiritilgan materiallarni yig'ishni o'rganadilar. Uy vazifasini bajarish sifati talaygina omillarga bog'liq: darsda o'quv materialining tushunarlilik darjasи; o'quv ishining sinfda va internatda o'zaro bog'liq bo'lishi; internat sharoitida uy vazifasini tashkil etilishi; o'quvchilarnig tayyorgarlik darjasи (ular bilimlarining sifati, nutq va fikrlash faoliyatining shakllanishi).

Fakultativ mashg'ulot – biror o'quv fani bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish maqsadida olib boriladigan mashg'ulotning asosiy shakli. Asosiy vazifasi – o'quvchilar bilimlarini kengaytirish, ularning qiziqishini, qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish. Ko'r o'quvchilar mакtabida bu mashg'ulatlar 9-10-sinflarida o'tkaziladi. O'quv rejasi bo'yicha ularga haftada 3 soat ajratiladi. Bu qo'shimcha darslar til, adabiyot, matematika, mehnat ta'limi va boshqa (maktab ma'muriyati tomonidan belgilangan) fanlar bo'yicha olib boriladi.

Ekskursiyalar o'qitishni tashkil qilish shakli sifatida bilish faoliyatini rivojlantirish hamda tarbiyaviy jarayonni jadallashtirish borasida katta qimmatga ega. Ekskursiyalar davomida turli metodlardan foydalilanadi (kuzatish, tushuntirish, amaliy mashg'ulot) quyidagi ekskursiyalar turlari farqlanadi: fanlarga oid kasbga yo'naltirish bo'yicha, nafosat tarbiyasiga qaratilgan, siyosiy-g'oyaviy tusdagi va boshqalar.

Fanlarga oid ekskursiyalar ko‘zi ojiz o‘quvchilarni ma’lum fan bo‘yicha fikrlash doirasini kengaytiradi, amaliy bilimlarini rivojlantiradi.

Kasbga yo‘naltirish bo‘yicha ekskursiyalar ishlab chiqarish korxonalarida olib borilib, ko‘r o‘quvchilarni zamonaviy ishlab chiqarish jarayoni hamda mehnat sharoitlari bilan xabardor qiladi. Nafosatli ekskursiyalar o‘quvchilar umumiy madaniyatini rivojlantiradi. Tarixiy obidalarni xotirlash va muzeylarda olib boriladigan ushbu ekskursiya turi eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda fuqarolik va vatanparvarlik hissini uyg‘otadi.

Ko‘rishida nuqsoni bor bolalar bilan boriladigan ekskursiya o‘zining qator xususiyatlari ega. Ekskursiya o‘tkazilishiga qadar pedagogik tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi: ekskursiya maqsadi haqida ma’lumot berish; yo‘nalish bilan tanishtirish; yangi atamalar bilan tanishtirish uchun zarur bo‘lgan lug‘at ishi; qatnashuvchilarni mustaqil ishlashlari kerak bo‘lgan yakka va jamoa mashg‘ulotlarini tashkil qilish.

Tayanch so‘zlar

Dars – o‘qitishning vazifalari, maqsadi, mazmunini, nizom va metodlarini o‘zida mujassamlovchi o‘quv jarayonining asosiy shakli.

Darsning turlari – ma’lum bir darslar guruhibiga mos bo‘lgan belgilari yig‘indisi.

Metod – yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, yo‘l, axloq, usul ma’nolarini anglatadi

Metodika – biror ishni maqsadga muvosiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi.

Savol va topshiriqlar

1. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar mакtablarida ta’lim mazmuni qanday?
2. Umumiy o‘rtta ta’lim maktablari bilan ko‘zi ojiz bolalar maktablari ta’lim mazmunining o‘xhash va farqli tomonlarini aniqlang?
3. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun qanday o‘quv dasturlari amalda? Fikringizni izohlang.

4. Dars va uning turlari xususida qisqacha ma'lumot bering.
5. Darsga qanday talablar qo'yiladi?
6. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limida darsga qo'yiladigan xususiy talablarni izohlang.
7. Maxsus didaktikaga ta'rif bering.
8. Didaktik tamoyillarning vazifalarini yoriting.
9. O'qitishda qanday metodlar qo'llaniladi?
10. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar mакtablarida qo'llanildigan og'zaki metod haqida so'zlab bering?
11. Darsda qaysi metodlardan foydalanish kerak deb hisoblaysiz?

3-bob. KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TA'LIMIDA MAXSUS KORREKSION MASHG'ULOTLAR

3.1. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lida maxsus korreksion mashg'ulotlarni mohiyati

Korreksion — pedagogik ish deganda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilim faoliyati, shaxs xususiyatlari, jismoniy rivojlanishi va harakat qobiliyatları kamchiliklarini tugatish, kompensatsiya jarayoniari rivojiga qaratilgan ta'lim va tarbiya vositalari, shakl va metodlari, maxsus pedagogik tadbirlar kompleksi tushuniladi.

Ma'lumki, ko'rish qobiliyati buzilganda bolalar rivojlanishida qator ikkilamchi buzilishlar yuzaga keladi. Bilish jarayonlari (idrok, tasavvur, ko'rgazmali obrazli tafakkur) sustlashadi, jismoniy rivojlanish va harakat funksiyalari rivojida o'zgarishlar ro'y beradi (tezlik, aniqlik, kordinatsiya, harakat sur'ati, harakat aktlari o'chamligi buziladi), ijtimoiy tajriba egallash cheklandi. Korreksion — pedagogik ish qoidalarini asoslashda, zamonaviy tiflopedagogika mutaxassislati maxsus yo'naltirigan o'quv tarbiya ish ta'sirida o'zgarish, korreksiya, kompensator qayta qurilishlarga uchraydigan bolalardagi birlamchi va ikkilamchi buzilishlar, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'llim, tarbiyasi va rivojlanishi qonuniyatli nisbati haqidagi konsepsiyanadan kelib chiqadi. Bunda ko'rishda chuqur nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishidagi umumiy qonuniyat va spesifik xususiyatlarni hisobga olgan differensatsiyalangan yondashuv muhim ahamiyat kasob etadi. Buzilgan funksiyalarni kompensatsiyalashi va korreksiyalashi, anomal boia rivojlanishida ta'llim va tarbiyaning yetakchi rolini o'rganish masalalari bo'yicha dastlabki nazariy qoidalar L.S.Vigotskiy, T.A.Vlasova, M.I.Zemsova, YU.A.Kulagin, A.L.Litvak, V.I.Lubovskiy, I.K.Marchulis, L.I.Sognuevalar tomonidan ishlangan.

Ma'lumki, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishi biologik va ijtimoiy omillar birligi bilan shartlangan. Shu sabab, ular rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillar ta'siri va ularning o'zaro munosabatini aniq tasavvur etish lozim. Ko'rish patologiyasi mavjud

bolalar rivojlanishi funksiyalar buzilishining klinik shakllari, xarakteri va og'irligi, eshitish, harakat va ko'rish analizatorlari saqlanganligi, ruhiy faoliyat oliy shakllari va umuman shaxsnинг rivojlanishi darajasi, qaysi yoshda ko'rish qobiliyati yo'qotilgan, ta'lif va tarbiya mazmuni, shakl va metodlariga bog'liq. Ta'lif va tarbiya bilan bog'liq bo'lgan bola rivojlanishidagi ijtimoiy omillar rolini ta'kidlaymiz. Bola o'z hayotini ilk kunlardanoq uni o'rav turgan ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi, bu muhit bola rivojida muhim shart va manba sanaladi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda murakkab psixik jarayonlar rivojlanishi korreksion yo'naliishiga ega bo'lgan ta'lif va tarbiyaga bog'liq bo'lib, u kompensatsiya jarayonlari rivoji bilish faoliyati kamchiliklarini tugatish, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar shaxsi tiklanishidagi potensial imkoniyatlarni izlashni ko'zda tutadi. Korreksion ish mazmuni va didaktik usullar differensatsiyalash, bola yoshiga moslash, o'quv materialini idrok etish va makonda orientatsiyalanish xususiyatlari asosiga quriladi. Bolalik yoshida kompensatsiya imkoniyatlarini baholashda nafaqat shakllanib bo'lgan kompensatsiya mexanizmlari, balki shakllanishi va tiklanish bosqichida turgan mexanizmlar, L.S.Vigotskiy ta'biricha «bola rivojlanishining eng yaqin zonasи» ham hisobga olinadi. Bu zonani hisobga olish kompensatsiya jarayonlarini boshqarish, Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda buzilgan va yetarlicha rivojlanmagan funksiyalarni korreksiyalash va tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kompensatsiya jarayonlari asta-sekinlik bilan rivojlanadi va funksiyalar sistemali qurilishi alohida tarkibi va o'ziga xosligi bilan xarakterlanadigan rivojlanishning ma'lum bosqichlariga ega. Qator mualliflar tadqiqotlarida bola antogenetik rivojlanishining turli bosqichlarida kompensatsiya jarayonlari shakllanishining turli senzativ davrlari ham mavjud. Bu ta'lif va tarbiyani bola rivojlanishining turli bosqichlarida tashkil etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarni har tomonlama klinik va psixologik pedagogik o'rganish, ularning bilim va amaliy shakllari tahlili ko'rsatadiki, ta'lif va tarbiya jarayonida mazmun, metodlar va differensatsiyalangan yondashuv bilan bog'liq holda rivojlanishdagi nuqsonlar kompensatsiyalanadi va korreksiyalanadi deb hisoblashga asos bor. «Faqat tanish predmetlar va tanish xossa yoki munosabatlar bilan fikrlash mumkin: demak, fikrlash uchun oldindan predmetlarni bir-biridan farqlash, ularni tanish va keyin predmetlar xossalari va

o'zaro munosabatlarni farqlash malakasi berilgan bo'lishi kerak, bu esa dastlab hissiyot tomonidan beriladi», - deb yozadi I.M.Sechenov, hissiy bilim cheklanganda ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda so'z ifodalari formalizmi, nutq verbalizmi, ya'ni so'zlarning katta zaxirasi va predmetlar obrazlari yetarli bo'lмаган zaxirasi o'rtasida nomuvo-fqlik yuzaga keladi.

Ko'zi ojizlar nutqida eng ko'p verbalizmi makon xossalari va predmetlar munosabatlarini ifodalovchi so'z ifodalari kuzatiladi. Predmetlar shakli, o'lchami, olisligi, harakatini belgilovchi so'z ifodalar ularda bu tushunchalar mazmunini anglashdan oldin paydo bo'ladi. Shu sabab, ular ko'radigan bolalardan ko'proq so'zlarni predmetli vaziyatlarda qo'llashga qiynaladilar. Bu predmetlar makon belgilarini o'rganish, turli xil tasvirlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarda namoyon bo'ladi, garchi bu hollarda zarur so'zlar ular lug'at boyligida mayjud va boshqa nutqiy vaziyatlarda qo'llansa ham. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda jismoniy rivojlanish va harakat tayyorgarligidagi nuqsonlarning oldini olish, mavjudlarini tugatishda maxsus korreksion mashg'ulotlar (korreksiongimnastika, davolovchi jismoniy tarbiya va b.) muhim o'rinn tutadi, shu bois maktabgacha tarbiya masalalari va maktab xodimlari jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishlarining barcha shakllari: mashg'ulotlar gymnastikasi, jismoniy tarbiya daqiqasi, harakatli tanaffuslar, kundalik sport soatlari, har oylik salomatlik kunlarini yo'lga qo'yish asosida bolalarning harakat faolligining oshirishga alohida e'tibor qaratadilar.

3.2. Maxsus korreksion mashg'ulotlarni tashkil etilishi

Korreksion mashg'ulotlarga: **davolovchi jismoniy tarbiya, ritmika, nutqiy yetishmovchilikni tuzatish, ko'rish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ishlar kiradi.** Korreksion bolalarning umumiyligi rivojlanishi xususiyatlari hisobga olinadi. Korreksion mashg'ulotlar bolalarning umumiyligi rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib beruvchi ta'lim-tarbiya bilan uzviy bog'langan holda olib boriladi. Korreksion mashg'ulotlar o'quv rejasi va dasturi bilan hamkorlikda olib boriladi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishda, mehnat va hayotga tayyorlashda nuqsonlarni korreksiya qilishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarga:

- ritmika;
- davolovchi jismoniy tarbiya;(L.F.K)
- atrof-muhitda mo‘ljal olish;
- ijtimoiy-maishiy yo‘naltirish;
- logopediya mashg‘uloti;
- predmet tasavvurlarni shakllantirish va ko‘rish qobiliyatini rivojlanтирish.

Ritmika

Ritmika harakat va musiqa hamkorligi asosida qurilgan jismoniy mashqlar tizimi bo‘lib anomal bolalar jismoniy tarbiyasining asosiy qismi hisoblanadi. Ritmika asosida harakatlar butun holda yoki qisman bajariladi. Ritmika rivojlanishi harakat faoliyatining zarur sharti hisoblanadi. Harakat hissini yaxshi his qiluvchi inson harakatlarining ritmik xususiyatini yaxshi tushunadi va o‘zlashtiradi. Ritmika mashg‘ulotlari organizmni ishchanlik qobiliyatini oshiradi, sog‘liqning mustahkamlanishini, jismoniy rivojlanishi nuqsonlarini va harakat buzilishlarini korreksiyalashni ta‘minlaydi, harakat tempini boshqaradi. Ular harakatlariga ishonch uyg‘otadi. Ritmika mashg‘ulotlarda bolalar musiqa, raqs, qo‘sish bilan tanishadilar va turli harakatlarini o‘zlashtiradilar. Ritmika mashg‘ulotlari o‘z ichiga: qo‘l harakatlari: yugurish umumrivojlaniruvchi mashqlar (predmetlar bilan va ularsiz) o‘qituvchi boshchiligidagi bajariladi raqs, musiqali ritmika va harakatli o‘yinlar. **Ritmika bo‘yicha belgilangan dastur 8 ta bo‘limni o‘z ichiga oladi. Nazariy ma’lumotlar.** Nazariy ma’lumotlar shunday tanlanganki , barcha yoshdagilar ta‘limda ichki qonuniyatları, o‘rganilayotgan nazariy materialni murakkablashishi kuzatiladi. Bu o‘zlashtirish jarayonini muvaffaqiyatli bo‘lishini ta‘minlaydi va bolalarni musiqaga qiziqtiradi. **Maxsus ritmik mashqlar.** Bu metodik usularning sodda turi hisoblanadi. Bunga qo‘l harakati mashqlari, qarsak mashqlari, maqol va she‘ni yodlash kiradi. Eunday mashqlar nafaqat sur‘at hissini, balki nafasni ham rivojlanтирadi. Maxsus mashqlar murakkablashuv darajasiga qarab beigelanadi. **Harakat va musiqa bog‘liqligidagi mashqlar.** Bu bo‘limda bajariladigan har bir mashq musiqa asosida bajarishga tayanadi. Turli harakatlarning takomillashishi jarayonida o‘qituvchi bolalarda mashqlarni bajarish bo‘yicha texnik malakalarni tarbiyalaydi. Ular ichida eng asosiyлари: musiqa boshlanishi bilan

qo‘zg‘alishni boshlash, harakatga kerakli ifoda kiritish, musiqa yakunlanishi bilan harakatli to‘xtatish bo‘lib hisoblanadi.

Ritmik gimnastika mashqlari bolalar organizmining funksional imkoniyatlari bilan bog‘langan. Bu mashg‘ulot o‘z ichiga harakat buzilishlarini korreksiyalashga, harakat sifatini rivojlantirishga jismoniy va funksional rivojlanishini tashkil etishga yo‘naltirilgan umumrivojlaniruvchi maxsus mashqlarni o‘z ichiga oladi. **Raqsga tayyorgarlik mashqlari**. Tayyorgarlik mashqlarining vazifasi bolalarga raqs zarur harakat malakalarini berishdan iborat. Bolalarning diqqati o‘z harakatiga ongli munosabatda bo‘lishga qaratiladi. Istalgan elementini o‘rgatishdan avval belgilangan tayyorgarlik mashqlarini o‘tkazish tavsiya etiladi. **Raqs elementlari**. Raqs elementlarini bajarish yurish, yugurish va boshqa harakatlar turlarini o‘rganishga yordam beradi. **Raqslar**. Ritmika mashg‘ulotlarida raqslardan foydalanish estetik didni rivojlantirishni raqsga muhabbatli bo‘lishni ta‘minlaydi. **Musiqali ritmik** o‘yinlar. Musiqali ritmik o‘yinlar bolaning irodaviy rivojlantirishga qaratilgan.

Davolovchi jismoniy tarbiya(L.F.K)

Turli kasalliklarning amaliyotida, davolash chora-tadbirlarida qo‘llanuvchi jismoniy tarbiya vositasidir.

Ko‘rish nuqsoni bo‘lgan bolalarning jismoniy rivojlanishi va harakat tayyorgarligini o‘z ichiga oluvchi ikkilamchi vazifani amalg‘oshirishni taqozo etadi. Tayanch-harakat apparatining buzilishi, organizm jismoniy sistemasining funksional tarkibini buzilishi alohida belgilab qo‘yiladi. Tayanch-harakat apparatining buzilishiga (skolioz, yassi oyoqlilik va boshqa kasalliklar, organizmnning jismoniy sistemasining funksional tarkibi buzilishiga muskulli nervli, nafas olish sistemasi, yurak-qon tomir sistemasi, ko‘zning muskulli sistemalarining buzilishlari kiradi. Turli ko‘z kasalliklarida LFKdan foydalanish, ayniqsa, glaokoma va miopiya kasalliklarida samarali natija beradi. Shuni aytib o‘tish kerakki, tug‘ma yaqindan ko‘rishlikda (miopiya) LFKning foydasi samarasizroqdir.

Davolovchi jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilar:

- umumiy organizmni mustahkamlash;
- nafas olish va yurak-qon tomir sistemalarida funksiyalarini takomillashtirish;
- ko‘z to‘qimalaridagi qon aylanishini yaxshilash;

– ko‘zning muskul sistemasining faoliyatini ish qobiliyatini oshirish;

– ko‘z sklerasini mustahkamlash.

Mashg‘ulotlar kompleksining to‘g‘ri tanlanishi, ko‘rishda nuqsoni bor bolalar bilan korreksion ishlashda muvaffaqiyat keltiradi.

LFK mashg‘ulotlari tayyorlov, asosiy boshlanuvchi bosqichlardan iborat.

Tayyorlov bosqichining vazifasiga

– umumiy organizmni mustahkamlash;

– jismoniy yuklamaga adaptatsiya, ya’ni moslashish;

– nafas olish va yurak-qon tomir sistemasining faoliyatini faollashtirish;

– umurtqa pog‘onasini mustahkamlash;

– emotsiional ko‘tarinkilikni oshirish kabilar kiradi.

Ushbu davrda bosh hamda tana uchun maxsus umumrivoj-lantiruvchi mashqlarni bajarish talab etiladi. To‘g‘ri nafas olish va te‘g‘ri nafas chiqarishga katta e’tibor qaratiladi. Bundan tashqari, toyonni mustahkamlovchi maxsus mashqlar bajariladi. Yuqorida ko‘rsatilgan mashqlar gimnastik predmetlar bilan birgalikda bajarish mumkin (maxsus tayoqlar, to‘plar) tayyorlov davrda nafaqat gimnastik mashqlar, shuningdek, turli harakatli o‘yinlarni o‘ynash tavsiya etiladi. Ushbu o‘yinlar bolalarda kayfiyatni ko‘tarishga hamda organizmni umumiyl sog‘lomlashtirishga ko‘mak beradi. **Asosiy davr.** Bu davrning asosiy vazifalari quyidagilar:

A) ko‘z to‘qimalarida qon aylanish sistemasini yaxshilash;

B) ko‘zning muskulli sistemasini mustahkamlash;

D) sklerani mustahkamlash.

Boshlang‘ich bosqichda bajarilgan umumrivojlanteruvchi, nafas mashqlaridan tashqari maxsus ko‘z mashqlari bajariladi. Maxsus ko‘z mashqlari ko‘zning tashqi muskulli va akkomodatsiya muskulini mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu mashqlar umumrivojlanteruvchi mashqlar hamohangligida olib boriladi. Dastlabki holat yotgan holda hamda gimnastik devorga suyangan holda bajariladi. Ko‘z olmasini massaj qilish ham maqsadga muvofiqdir. Yuqori ko‘z qovog‘iga 3 ta barmoqni ko‘zni yumgan holda yengil bosiladi. Ko‘zni ochib yumish hamda pirpiratish mashqlari bajariladi. 10 sekunddan 1 daqiqagacha davom ettirish mumkin.

Atrof olamda mo'ljal olish

Ma'lumki atrof-muhitda mo'ljal olishda va harakatni o'rgatish jarayonida atrofdagi obyektlarga ular haqidagi tasavvurlarga tayangan holda fazoni, makonni idrok etish amalga oshadi. Bir nechta olimlarimiz o'z fikrlarini aytib o'tishgan, shulardan, A.I. Komlon. K.T.Morozova ko'r bola sezgi kompleksiga harakat analizatorini kiritadilar. Ularning fikricha, muskul sezgilarini ko'rlarga obyektlar oralig'i baholash fazoda yo'naliш belgilash bo'yicha tasavvur shakllanish imkonini beradi. V.A. Feoksitova (1973) eshitish ko'rishda nuqsoni bor bolalarni fazoda mo'ljal olish jarayonida muhim deb ta'kidlaydi. Buni ko'rishni qisman yoki butunlay yo'qotish sababli eshitish atrofdagi obyektlarni idrok etishdagi asosiy analizator bo'lib qolishdir deb e'tirof etadi. Eshitish sezgi va idrok yordamida ko'zi ojizlar ovoz manbai bo'lgan ko'rishayotgan predmetni lakomizatsiya qilish, uni yo'naliшini aniqlash imkoniyatga ega bo'ladilar, ko'chadagi transport harakatining tezligi, fazoviy predmetlarning kattaligi haqida eshitish orqali ma'lumotga ega bo'ladi. Ovoz lokatsiyasi yordamida eshitish orqali makonda yo'naliш belgilash yopiq tipdagi binolarda va ochiq tabiat maydonlarida amalga oshirish mumkin. V.P. Yermakov (1979) hidlash sezgisi ko'rlarni fazoda mo'ljal belgilashda ko'p qo'llanadi degan fikrni ilgari suradi.

Atrof-muhitda mo'ljal olish ko'rishda nuqsoni bo'lgan insonning muhim hayotiy ehtiyoji hisoblanadi. Ko'zi ojiz va zaif ko'rvuchilarning fazoda mo'ljal olish malakasi qobiliyatini shakllantirish va takomillashtirish ularning butun hayotiy faoliyati davomida amalga oshiriladi. Ko'zi ojiz va zaif ko'rvuchi o'quvchilarni ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda makonda yo'naliшini belgilash tizimini shakllantirish kerak. Atrof-muhitda mo'ljal olish malakasini shakllantirish mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqish, shuningdek, o'z *kuchiga* ishonish mustahkam irodaga ega bo'lish bilan bog'liqdir. Atrof-muhitda mo'ljal olish va harakatlanishga o'rgatishning maqsadi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar makonda erkin yo'naltira olish va mustaqil harakatlanish imkonini beruvchi malakalarni shakllantirish bilan belgilanadi. Makonda yo'naliшni belgilashga o'rganish ta'lim mazmuni asosini ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni kichik maktab yoshidanoq makonida harakatlanish zarurligini ta'kidlovchi yo'naliшda davom etadi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ehtiyojlaridan kelib

chiqqan holda, birinchi navbatda bolani yotoqxona, sinf xonasi, maktab va maktab hovlisida yo‘nalishni belgilash, harakatlanishga o‘rganish kerak.

1. Ko‘zi ojiz bola atrofdagi predmetlarni sezgi orqali aniqlash.
2. Ko‘zi ojiz bola atrofdagi predmetlar o‘rtasidagi aloqani sezish.
3. Sxema, kartalar, maketlar chizish orqali o‘qish.
4. Yo‘l sxema, yo‘l kartalarini mustaqil tayyorlash bola harakatlanganda ovoz signalizatoriga tayanadi. Atrof olamda mo‘ljal olish ko‘rishida nuqsoni bor insonlarning muhim hayotiy ehtiyoji hisoblanadi.

Bolalarning atrofdagi predmetlarning xususiyatlarini bilish muhimdir. Shakli kattaligi, rangi, qanchalik bolalar ko‘p predmetlarni bilsa, shunchalik mo‘ljal olish yengil kechadi. Hassa bilan yurishga o‘rganishdan oldin, ko‘zida nuqsoni bor bola atrof-muhitda mohirona mo‘ljal olib yurishni bilishi zarur. U quyidagilarni bilishi zarur: ko‘cha va yo‘llarda doimiy uchrab turadigan belgilardan simyog‘och, devorlar, daraxtlar, giyohlar, garajlar, yo‘lkalar, pochta qutisi, metro belgisi, tramvay yo‘llari va boshqalarni farqlay olishi zarur. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bola oyoq osti sezgilari bilan tushgan holda yerni ustki qismi holatini aniqlashni o‘rganishi kerak. (Masalan: asfalt, sement, qum, tosh, loy, tuproq va h.k.) ko‘zida nuqsoni bor o‘quvchi 80-90 gradus burchakka to‘g‘ri burilishni o‘zi mustaqil bajarishga o‘rganishi kerak. Jumladan, shunday mashqlarni bajarishi mumkin: o‘quvchi o‘rganayotgan joydan biroz uzoqroq masofada joylashgan holda har xil tomonga burulib ayrim harakatlar bajarishi mumkin. O‘quvchi qaysi joydan harakat va aylanishni boshlagan bo‘lsa, o‘sha joyni to‘g‘ri topib kela olishi kerak. O‘quvchi tovushlarni to‘g‘ri, oson anglab, tovush qaysi tomondan kelayotganligini to‘g‘ri aniqlay olishi kerak.

Ijtimoiy-maishiy yo‘naltirish

Ijtimoiy mo‘ljal olish maxsus korreksion mashg‘ulotlar turiga kiradi. Bunda alohida xususiyatlar va milliy qadriyatlar hisobga olinadi. Mashg‘ulotning mazmuni haqidagi mavzularni o‘z ichiga oladi: «Shaxsiy gigiyena», «Kiyim va oyoq kiyim», «Ovqatlanish», «Oila», «xulq-atvor madaniyati», «Turar-joy», «Transport», «Savdo», «Tibbiy yordam».

Ijtimoiy-maishiy yo'naltirish ko'zi ojiz va zaif ko'ruchchi bolalarni hayotning zamoniy shart-sharoitlariga ijtimoiy ruhiy moslashishini yengillashtiradi. «**Shaxsiy gigiyena**» mavzu bo'yicha olib boriladigan mashg'ulot bolalarga tanani parvarishlashni, o'zining sog'ligini asrash va mustahkamlashni o'rgatadi. «**Ovqatlantirish**» mavzusidagi mashg'ulot bolalarning oziqlanishning asosiy mahsulotlari bilan, oziqalarining saqlash va tayyorlash usullari bilan tanishtirishini ko'rib chiqadi. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, malakalarini kengaytirish «kiyim va oyoq kiyim», «turar joy» mavzulardagi mashg'ulotlariga imkon yaratadi. Oilada, jamoada, sinfda, jamoat joylarida, shaxsiy munosabatlarining usul va qo'llanmalari «Oila va xulq-atvor madaniyati» mavzuda ochiq bayon etiladi. Bolalar stol atrofida, muzeysda, kutubxonada, kinotetrda, klubda o'zini tutishni o'rganadilar.

Bolalar aql va malakalarini shakllanishida transport, magazin, tibbiy yordam bilan aloqada qo'llanmalardan foydalanish asosiy rol o'ynaydi. Yuqoridagi bilim, malaka va ko'nikmani shakllantirish uchun turli metodlarni tushuntirish, syujetli o'yinlarining o'ynalishi ekskursiyadan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Predmet tasavvurlarni rivojlantirish va ko'rish qobiliyatini rivojlantirish

Ko'rish qibiliyatini rivojlantirish mashg'ulotlarini tashkil etishda psixofiziologik va psixologik-pedagogik uslublardan foydalanish samara beradi. Bu metodlar ko'rishda nuqsoni bor bolalarni barcha faoliyati va sensor apparatlarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega, psixofiziologik metodlar orqali predmetning asosiy qirralari «tomonlari» o'rganiladi.

Predmetli metodlar bolalarning ko'ruv faoliyatini predmetli amaliyotini mashqlar va o'yin davomida rivojlantirishga qaratiladi. Predmetli amaliy mashg'ulotlar perdmelrnini modellashtirish, qurish-yasash, turli predmetlarni o'z ichiga oladi. Bolalar predmetlarni idrok etishga, uning shakli, kattaligini, rangini analiz qilib chiqishga o'rganadilar. Ko'rish qibiliyatini rivojlantirishda turli tasvirlardan foydalanib kelinmoqda. Masalan: oq-qora, rangli, konturli, shtrixli tasvir. Shu o'rinda Vitaliy Pavlovich Yermakov tomonidan yaratilgan ko'ravnii rivojlantirish va mashq qildirish, tekshirish uchun mo'ljallangan polixromatik tablitsalardan foydalanib kelinmoqda. Bu test va tablitsalar Rossiya va Yaponiya, Xitoy davlatlarida foydalanib kelinmoqda.

Ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolalar mакtab-internatлari oldiga qо‘yilgan umumta’lim va tarbiya vazifalari bilan bir qatorda o‘quvchilarни ko‘ruv qobiliyatini rivojlantirish va himoya qilish vazifasi ham qо‘yilgan. Bu ishlar mакtabda okulist rahbarligida amalga oshiriladi, shu jarayonda meditsina hamshiralari faol ishtirok etadilar. Pedagog va tarbiyachilar ham o‘z hissalarini qo‘shadilar. Ular davolash muolajalarini o‘z vaqtida bajarishga va shifokor tavsiyaliga qat‘iy amal qilishini nazorat qiladilar. Ko‘zoynak va boshqa optik ko‘rvuchi korreksiyalovchi vositalarni tavsiya qilish davolash ishining asosiy aspektlaridan biridir. Pedagog va tarbiyachilar bolalarni ko‘zoynaklardan shifokor tavsiya etganidek, to‘g‘ri foydalanishlarini nazorat qilishlari lozim. Opravani to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. U yuz hajmli, qorachiqlar orasidagi masofaga mos tushishi kerak. Opravani burun va qulqlarni qizishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Ko‘pincha bolalar ko‘zoynakni yo‘qotadilar yoki sindiradilar. Shuning uchun bir yo‘la bir necha ko‘zoynak buyurtma berish zarur. Bolalar ko‘zoynaklarini toza va ozoda saqlashga o‘rgatib borish kerak. Ba‘zi zaif ko‘rvuchi o‘quvchilarga teleskopik ko‘zoynaklar yozib beriladi. O‘z faoliyatida ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar 3,5-5 marta kattalashtiruvchi lupalardan foydalanishni afzal ko‘radilar. Kichiklari matnlarni istagancha kattalashtirolmaydilar. Kattalari esa ko‘rish maydonini juda toraytiradi. Lupalarni okulist-shifokor tavsiya qiladi. Pedagog va tarbiyachilar ulardan to‘g‘ri foydalanishi va saqlanishlarini nazorat qilishlari kerak. Lupalarni alohida qutilarda yoki xaltachalarda saqlash lozim. Ko‘rv nervi atrofiysi, ishopiya, to‘r parda distrofiysi va boshqa kasalliklar bilan kasallangan bolalar kasallik jarayonida doimiy medik kamentoz davoga muhtojdirlar.

Logopediya mashg‘uloti

Ko‘rv nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarga logopedik yordam natijasida: sensor kamchilik to‘ldiriladi, bolalarning bilish faoliyati faollashtiriladi, shaxs sifatlari shakllantiriladi. Ko‘r va zaif ko‘rvuchi bolalarda nutq nuqsonlari, sog‘lom bolaлarga ko‘ra ko‘proq uchraydi.

- Ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolalar ta’lim-tarbiyasida logopedik ishning ahamiyati;
 - o‘quvchilarning nutqini tuzatib borish, nutq nuqsonini yakka xususiyatlarini hisobot qilib borish;
 - nutqning tovush madaniyati bo‘yicha ishni tashkil etish;

- ayrim tovushlarni qo‘yishning logopedik yo‘llarini;
- tovushlar avtomatizatsiyasidagi ishning ketma - ketligi;
- logopedik ish uchun qo‘llanmalar yaratish;
- nutqiy bilim ko‘nikmalarni mustahkamlashda suhbat, o‘yining ahamiyati kabi vazifalarni ko‘r va zaif ko‘rvuchi bolalar maktablarida faoliyat yuritayotgan logopedlar hal qiladi.

3.3. Brayl tizimi

Relyef shrifti – maxsus hajmli shrift bo‘lib, ko‘r bolalarni o‘qish va yozishlari uchun moslashtirilgan. XVIII asr o‘rtalarida Fransiyada ko‘zi ojiz bolalarni ommaviy o‘qitishda, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida fransuz tiflopedagogi V.G.Gayui kesma relyefi shriftini lotin alifbosi bo‘yicha kattalashtirilgan shaklini taklif etadi. XIX asr boshlarida relyefli shriftning ancha osonlashtirilgan bosma shrifti yuzaga keladi. Ayniqsa, ko‘p qo‘llaniladigan turlaridan chiziqli, ignali bo‘lgan. Tiflopedagogika tarixiga nazar tashlasak, bir necha marta relyef nuqtali shriftni yaratishga harakat qilingan. 1829-yil fransiyalik tiflopedagog olim Lui Brayl relyefli nuqtali shriftni yaratdi. Bu shriftni butun jahondagi ko‘rlarni o‘qish va yozishi uchun ta’minlovchi vosita bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Lui Brayl 1809-yil 4-yanvarda Fransiyadagi Kuvra shaharchasida Simon Rene Brayl oilasida o‘g‘il farzand dunyoga keladi. Uni ismini Lui deb atashadi. Lui 3 yoshta to‘lganida fojia ro‘y beradi: u ko‘zini pichoq bilan shikastlab oladi. Shundan so‘ng bolaning jarohatlangan ko‘zлari shamollah natijasida ko‘rish qobiliyatini yo‘qotadi. Luining ota-onasi farzandga dastlabki mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam bera boshlaydilar. Jumladan: ot uchun gilamcha to‘qish, yengil oyoq kiyimlarini tikish kabi ishlarni Lui qunt bilan o‘rganadi. Musiqa o‘qituvchisi bilan skripka chalish mashg‘ulot bilan shug‘ullana boshlaydi. Qishloq maktabida Lui oddiy tayoqchalar yordamida alifboni o‘rgana boshlaydi. 1819-yili Parij shahridagi ko‘r bolalar o‘qiydigan institutga o‘qishga qabul qilinadi. Ushbu institutda tarbiyalanuvchilarni savodga, musiqaga, to‘qish va tikish saboqlari berilardi. Mashg‘ulotlar uchun relyefli – chiziqli shrift bilan yozilgan darsliklar ko‘pgina predmetlar uchun mavjud emas edi. Talabalar musiqa notalarini faqatgina eshitib eslab qolish orqali

o‘rganar edilar. Lui Brayl institutning eng qobiliyatli talabalaridan biri edi. 1828-yili Lui Brayl institutni bitirib, kichik o‘qituvchi vazifasiga ishga qabul qilinadi. Shundan so‘ng ushbu institutda geografiya, algebra, musiqa fanlaridan dars bera boshlaydi. O‘qituvchilik bilan birga, Parijdagi Sen-Nikolya de Shan nomli cherkovda organchi lavozimida ishlaydi. Lui Brayl o‘qish va ishlash jarayonida Lan shrifti bo‘rtma harflari hamda uning metodikasini, artilleriyachi ofitser Sharl Barbe tomonidan ishlab chiqilgan ma‘lumotlarni jo‘natish uchun mo‘ljallangan relyefli shtriftini puxta o‘rganib chiqadi. Harflar karton teshikchalarda joylashgan bo‘lib, «o‘qish»da qiyinchiliklarni tug‘dirar edi. Bundan tashqari Barbening harfiy timsollari katta-katta bo‘lib, kichik yoshdagi ko‘r bolalarni o‘qishda qiyinchiliklar tug‘dirar edi. Shunga qaramasdan, Barbening relyefli – nuqtali alifbosi L. Brayl ijodiy impuls beradi, u relyefli- nuqtali sistema yaratishga kirishdi. U xayolan yaratilajak «tizim» ko‘rlar uchun barcha predmetlardan saboq berishga mo‘ljallanishi lozim deb o‘ylaydi. Brayl 1924-yilning yarmidan, ya’ni 15 yoshda dastlabki eksperiment ishlarini boshlab yuboradi. Bu kichik tizim ikkita vertikal qatordan iborat bo‘lgan 1, 2, 3 nomerlar chap tomonda, 4, 5, 6 nomerlar o‘ng tomonda joylashtirilgan edi. Bu sistema 63 ta kombinatsiyadan iborat bo‘lib, musiqa notalari, matematik sonlarni ham o‘z ichiga qamrab olingandi. Ushbu sistema ustida Brayl uzoq yillar ishlaydi. 1929-yili ixtirosini institut kengashiga topshiradi. Lekin sistemanı qo‘llab-quvvatlamaydilar. «Sog‘lom o‘qituvchilar uchun qiyinchilik tug‘diradi» degan fikrlar yuzaga keladi. Faqatgina 1837-yili uning bu ishi yana muhokamaga qo‘yiladi va nihoyat Lui Brayl tomonidan yozilgan «Karatkuyu istoriyu Fransii» nomli asari relyefli – nuqtali alifboda chop ettirishga ruxsat beriladi. Asar dunyoga kelgandan so‘ng Brayl alifbosi to‘liq tan olinadi va ta’sis etiladi. Brayl tizimi 1853-yili Fransiyada keng tarqaladi. Lui Brayl tomonidan yaratilgan alifbo uchun maxsus moslamalar ishlab chiqiladi. Rossiyada 1885-yili A.A Adlerning asari Brayl sistemasida chop etildi. Lui Brayl 1852-yili 6-yanvarda kassalik tufayli vafot etadi. Kuvra shahrida Lui Braylning uy mezeyi ochilgan. 1887-yili shaharchada Lui Braylning haykali qurildi.

Brayl tomonidan ta’sis etilgan 6 nuqtali shrift, quyidagicha:

- | | | |
|-------------------|--------|---|
| O‘qish jarayonida | 1• • 4 | . |
| | 2• • 5 | |
| | 3• • 6 | |

Aslida o‘qish va yozishda nuqtalar bir xil raqamlarga ega, ammo o‘qishda chapdan o‘ngga sanaladi. Yozuvda o‘ngdan chapga sanaladi.

Brayl shriftining o‘qilishi va yozilishida bir necha qoidalarga amal qilish lozim.

O‘qish jarayonida rioya qilinadigan amallar:

- boshni va umurtqa pog‘anasini to‘g‘ri tutish lozim;
- beli stulning suyanchig‘iga suyanib turishi, qo‘llar stolning ustida bo‘lishi lozim;
- o‘qish ko‘rsatkich barmoqda olib boriladi, o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘i bilan bir qatorning oxirgi so‘zini o‘qib bo‘lgandan keyin ikkinchi qatorning birinchi so‘zi chap qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘idan o‘qiladi;
- kaftlar kitob betida tegar-tegmas holatda, barmoqlar sal bukilgan bir-biriga qisman tegib turadi. Barmoq uchlari qator bo‘lib turadi;
- barmoq uchlari (ikkala qo‘lni ham) qatorda chapdan o‘ngga bir tekisda harakatlanib boradi;
- kitob stol ustida to‘g‘ri turishi kerak.

Tayanch so‘zlar

Brayl yozushi – ko‘zi ojiz shaxslar tomonidan qo‘llanuvchi nutq shakli bo‘lib, bunda harf, so‘z, va raqamlar grifel bilan relyefli-nuqtali belgililar ko‘rinishida maxsus moslama yordamida aks ettiriladi.

Grifel – bigizsimon qalam.

Korreksion mashg‘ulotlar – ta’limiy maqsadga erishishni ta’minlashda qo‘llanuvchi maxsus ta’limiy shakl va vositalar majmuasi.

Ke‘zi ojiz bolalar – ko‘rish qobiliyatining buzilishi yoki yo‘qolishi natijasida yuzaga kelgan bolalar.

Savol va topshiriqlar

1. Maxsus korreksion mashg‘ulotlar xususida fikringizni bildiring.

2. Ritmika mashg‘ulotini umumta’lim darslaridan farqli va o‘xhash tomonlarini ko‘rsating.
3. Ko‘rish qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha qanday fikrlaringiz mavjud?
4. Davolovchi jismoniy tarbiya mashg‘ulotining vazifalarini yoriting.
5. Atrof olamda mo‘ljal olish mashg‘ulotlarining maqsadini izohlang.
6. Brayl alifbosini kelib chiqish xususida ma’lumot bering.
7. Brayl alifbosidagi biror harfni yoddan ayting.
8. Brayl tizimi asosida o‘qish va yozishning asosiy qoidasi nimadan iborat?
9. Brayl tizimini kelib chiqish tarixini ayting.

4-bob. KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTABLARIDA TARBIYA NAZARIYASI

4.1. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar mакtablarida tarbiya nazariyasi mohiyati va turlari

Har bir xalq, har bir millat tarbiya sohasida o'zining uzoq asrlar davomida shakllangan sermazmun pedagog usul-uslublariga ega bo'ladi. Bular asrlar osha ajdodlardan qo'llanilib keladi. Shunday ekan, har bir jamiyat yuksak orzularni amalga oshirishga ana shu tarbiyaviy tamoyillardan ijobjiy foydalanishga harakat qiladi. Tarbiya jarayoni nafaqat yoshlarga, balki kattalarga ham qaratilgan bo'ladi. Shunday ekan tarbiya insonning kichikligidan tortib, to umrining oxirigacha zarur bo'lgan qadriyatdir. Lekin ko'pincha tarbiya haqida gap ketganda, birinchi o'rinda, o'sib ulg'ayayotgan yoki farzandlar tarbiyasi tushuniladi. Davlat, jamiyat, har bir ota-onasiga ularni har tomonlama bilimli, axloq-odobli, mehnatsevar kishilar qilib voyaga yetkazishni orzu qiladi. Shu bilan birga, hayotning achchiq tajribalari shuni ko'rsatadiki, tarbiyaga nafaqat yoshlar muhtoj bo'lib qolgan kattalar orasida ham tarbiyasini davom yetkazadigan shaxslar uchrab turadi. Shuning uchun ham, agar eramizdan avval VI–VII asrlarda qadimgi Xorazm hududida paydo bo'lgan Zardushtiylik dinidagi «Avesto», eramizning VI–VII asrlarida Arabistonda paydo bo'lgan islom dini va uning «Qur'oni karim» va shuningdek, «Hadis»ning musulmon olami buyuk allomalarining asarlarini, yetuk mutafakkirlarining ilmiy-adabiy meroslarini olib o'qib ko'rsak, ularda katta va kichiklarga tegishli juda ko'p axloq-odob tamoyillariga bag'ishlangan ko'rsatma va nasihatlari borligini guvohi bo'lamiz. Jamiyat fan-teknikaning rivojlanishida tarbiya muhim omil va mezonlardan biri va ularning nogironlarga, shu jumladan ko'zi ojiz bolalarga munosabati diqqat-e'tiborlidir. Respublikada nogironlikni oldini olish va nogironlarning jamiyat hayotiga singib ketishi uchun shart-sharoitlar yaratishga katta ahamiyat berilmoqda. Masalan: ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni aqliy tarbiyalash bo'yicha ma'lum ishlar amalga oshirilmoqda. Aqliy tarbiya bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqidagi

bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilimga qiziqishni, amaliy malaka va aqliy ko'nikmalarini tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlashda dastlabki muomilada bo'lish, narsa buyumlar bilan bajariladigan faoliyat natijasida keyinchalik esa o'quv, mehnat, samarali faoliyat jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishiga ta'lif va tarbiya samarali ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagagi ko'rishda nuqsoni bor bolalarga tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qobiliyatlarini va imkoniyatlarini bilish kerak. Shuningdek, bilish qobiliyatlarini shakllantirishning o'ziga xos tomoniarini aniqlash muhimdir. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaiarni ta'lim-tarbiya jarayonining samarasini oshirishda va kelajakda jamiyatda e'tarfini araligida ega bo'lishda tarbiyaning o'rni muhimdir.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasi maqsad va vazifalarini pedagogikaning umumiy tamoyillariga tayanadi. Tarbiyani umumiy vazifasi maxsus vazifa bilan bog'liqlikda amaiga oshiriladi. Jumladan, birlamchi, ikkilamchi nuqsoniarni bartaraf etish bilan birga olli boriladi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasida ko'rinaligar salbiy holaatlari quyidagilar:

- yumshoq tarbiyaga muhtoj sifatlari;
- o'yin, o'qish, mehnat faoliyati cheklanganligi;
- begonalar bilan muloqotga kirishdagi qiyinchiliklar;
- e'z-o'ziga xizmat qila olmasligi (yoki ulardagagi kamchiliklar);
- madaniy, ma'naviy bilimlarning sayozligi (yo'qligi) kabilasi;
- ko'zida nuqsoni bo'lgan bolaiarni yosh va yakka xususiyatlarni hisobga olli, yuqorida zikr qilingan kamchiliklarni bartaraf etishdir.

4.2. Tarbiya usullari va turлari

Tarbiya usullari – o'qituvchi-tarbiyachilarining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, ularga ijobjiy xulq-atvor ko'nikmalari va malakalarini singdirish maqsadida ularning hayoti va faoliyatini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil etish yo'llaridir.

Usullar tiziminining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'zaro bog'liq bo'lib, uning bir turi ikkinchisi bilan qo'shib ketadi. Har bir usulni alohida, yakka holda qo'llab bo'lmaydi. Masalan: o'qituvchi birinchi sinfi o'quvchilari bilan ishlashda, ular uchun yangi bo'lgan o'quv mehnatini o'rgatish ishini o'quvchilarning xulq-atvor

qoidalarini, maktabda va uya tartibi aniq bo‘lishi muhimligini, qunt bilan, zo‘r berib mehnat qilish zarurligini uqtirishda tushuntirish yo‘lini qo‘llaydi. Tarbiyaviy usullarni ularning vazifasiga: qarab quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

İtimoiy axloqni tarkib toptirish va o‘quvchilar faoliyatini yo‘lga qo‘yish usullari: o‘rgatish, ibrat-namuna, ishontirish, o‘yin-musobaqalar.

Ibrat usuli.

Namuna usuli.

Bolalar tarbiyasida ibrat va namunaning ahamiyati kattadir.

Namuna yoki ibrat usuli bolalardagi taqlidchilikka asoslanadi. Bo‘laarning xulq-atvorini, yurish-turishini ongli yoki ixtiyorsiz odatda bolalar o‘zlarining yaqinlari, tevarak-atrofdagi kishilarning (otonalari, opa-akalari, muallimlari, kattalar, tengqurlari) xulq-atvorini va xatti-harakatlarini kuzatib boradilar, ularga taqlid qiladilar.

Ishontirish usuli. Bu bo‘limga ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va ishonch-e’tiqodni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg‘ulari va irodasiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatish usullari kiradi.

Tushuntirish va uqtirish. Tushuntirishning mohiyati jamiyatning ma’naviy va moddiy hayotidagi eng muhim voqealar to‘g‘risida axborot berish asosida ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar diqqatini tevarak-atrofdagi vogelikka, o‘z fuqarolik burchlariga ongli munosabatini shakllantirishga qaratishdan iboratdir. Uqtirish biror axloqiy fazilatni ko‘rishda nuqsoni bor o‘quvchilar ongiga singdirish va ular tomonidan olishni ta’minalashga asoslanadi. Shuning uchun o‘qituvchilar va tarbiyachilar ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni, o‘quvchilarni tarbiyalaganda hamda ularga axloqiy fazilatlarni tushuntirganda uning afzalliklarini ko‘rsatuvchi dalillar keltirishi, isbotlashi, ishontirishi lozim.

Ko‘zi ojiz bolaning hayoti va kundalik faoliyati ko‘pqirrali. U fazoda mo‘ljal olish, atrof va olarni idrok etish, o‘z-o‘zini boshqara olish kabilalar bilan bog‘liq. Bu esa boladan chidamli diqqatni, tezkor fikrlashni, kuchli xotira va bir qator xususiyatlarni talab etadi. Ba’zida ushbu talablar ko‘r va zaif ko‘rvuchi bolaning psixologik va fiziologik imkoniyatlaridan ustun bo‘ladi. Bu ustunliklar ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolaning qattiq asabiy lashishiga va kasallikning yanada avj

olishiga sabab bo‘ladi. Ko‘r va zaif ko‘rvuchi bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashda yuqoridagilarga e‘tibor berish darkordir.

Tarbiya berishlik aniq va samarali usul va uslublardan foydalanib tarbiya ishlarni tashkillashtirish natijasida, ko‘r va zaif ko‘rvuchi bolalar shaxs sifatida kamol topadi. Ko‘rish nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar tarbiyasi:

- estetik tarbiya;
- jismoniy tarbiya;
- mehnat tarbiyasi;
- ma’naviy-axloqiy tarbiya kiradi.

Estetik tarbiya. Estetik tarbiya insonning har tomonlama tarbiyalashning muhim qirralardan biri bo‘lib hisoblanadi. Estetik tarbiya borliqqa (hayotga), mehnatga, tabiatga, san‘atga munosabatini shakllantirish his-tuyg‘usini tarbiyalash demakdir. Estetik tarbiya shunday kuchga egaki, san‘at asarlarida (badiiy tasviriy) tasvirlangan syujet, hodisa, idrok etishning tasavvurida, xayolida kechinmalarida, estetik hissiyotida qayta ishlanib uning o‘z tajribasiga aylanadi.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smlarni kuzatish shuni ko‘rsatadiki, ular jismoniy va aqliy faoliyatning o‘yin, o‘quv va mehnat kabi huquqlaridan sog‘lom tengqurlaridek o‘zlarini ko‘rsata olmaganliklari uchun qobiliyatları va kuchlarini o‘z imkoniyatlari doirasidagi malaka va ko‘nikmalarни egallashga sarflaydilar, natijada aynan o‘sha sohada yuqori natijalarga erishadilar.

Masalan, san‘at sohasida va adabiyot sohasida o‘z o‘rnini egallagan shaxslar mavjud. Masalan: ko‘rish va eshitishda nuqsoni bo‘lgan Olga Skoroxodovaning atrof-olamni qanday idrok etaman, atrof-olamni qanday tasavvur etaman, tushunaman nomli bebafo ilmiy asarlari maxsus ta’limda keng foydalanib kelinmoqda. Balerina Lina Po 21 yoshida ko‘rish qobiliyatini yo‘qotadi. Linaning iste’dodi va maqsad sari intilishi tufayli taniqli haykaltarosh bo‘lib yetishadi. Lina A.S. Pushkin, A.P. Chexovlarning portretlarini yaratadi. Lina Poning san‘at asarlarini soni 100 taga yetgan.

Jismoniy tarbiya. Jismoniy tarbiya – salomatlikni mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirish, mehnatga, hayotga tayyorlash, ko‘r va zaif ko‘rvuchi bolani shaxs sifatida kamol topishida birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalash va

kompensatsiyalash vositalaridan biridir. Jismoniy tarbiya ko‘r bolalarni har tomonlama tarbiyalashda harakatlanish, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda jismoniy tayyorgarlikka izchillik qobiliyatini oshirishda yetakchi o‘rin egallaydi.

Ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolani jismoniy rivojlantirishning asosiy vazifasi: harakat kamchiliklarini correksiyalash. Ko‘r va zaif ko‘rvuchi bolalarda: tanani bo‘yi hamda og‘irligi, kamchiliklar, ko‘krak kengligi va boshqa antropometrik ko‘rsatkichlarning orqada qolishlari uchraydi.

Aksariyat bolalarda tayanch harakat apparatlaridagi kamchiliklar kuzatiladi. Ko‘rv organining kamchiligi va buzilishi bolalarda harakat qobiliyatlarining shakllanishida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Harakatlanish qobiliyatlariga: kuchlilik, chaqqonlik, chidamlik, koordinatsiya mushtarakligi kabilalar kiradi. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda harakatlarni passivligidir. Boladagi fazodan qo‘rqish hissi juda kam harakatlanib, hatto ta’bir joiz bo‘lsa «Utroq» qilib qo‘yadi. Oqibatda uning qiziquvchanligi, izlanuvchanligi so‘nadi.

Nima qilmoq kerak? Ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolalarda jismoniy ta‘lim berish jarayonida bolalarni yosh xususiyatlari va yakka imkoniyatlari, ko‘rv organining buzilish xarakteri va klinik shakllariga, rivojlanishning nuqsonlariga katta e’tibor bermoq zarur.

Ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolalarda jismoniy tarbiya berish tizimiga quyidagilar kiradi:

- 1) jismoniy sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlar (kundalik faoliyat davomida), (ertalabki gimnastika, sayr o‘yinlari va boshqalar);
- 2) maxsus jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari (majburiy);
- 3) guruhdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari (sport seksiyalari, oylik sport kuni bayrami).

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning barchasi o‘z kasalliklarini klinik shakliga, qobiliyatidan qat‘i nazar quyidagicha mashqlarni bajaradilar:

- sarflanish va qayta sarflanish;
- predmetli va predmetsiz umumrivojlaniruvchi mashqlar;
- ko‘krakni to‘g‘ri shakllantiruvchi mashqlar;
- muvozanatni saqlash uchun mashqlar;
- ritmik mashqlar;
- bir maromda yugurish va yurish mashqlari;
- emaklash mashqlari;

– kichik hajmli to‘plarni otish;

– o‘rtacha maromda toza havoda sayr qilishni tashkil etish kiradi.

Yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya va mashg‘ulotlar davomida qo‘llanilgan korreksion va kompensator ishlari ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolalarning funksional ko‘rish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi.

Ma‘naviy-axloqiy tarbiya deganda, shakllanayotgan, rivojlanayotgan, o‘sib kelayotgan avlodda xulq-odob me’yorlariga mos keluvchi sifatlarning shakllanishini tushunamiz. Axloqiy tarbiya, mohiyati alohida shaxs uchungina emas, balki jamiyatning kelajagi, uning qanday jamiyat bo‘lishi uchun ham muhimdir. Axloq – ijtimoiy ong shakli bo‘lib, ijtimoiy hayotning hamma sohalarida insonning xulq-atvorini yo‘lga solib turadigan tamoyillar, talablar, me’yorlar va qcidalar yig‘indisidan iborat. Axloqiy tushunchalar – yaxshilik, sharaf, vijdon va boshqalar baholanuvchi xarakterga ega. Axloq mazmuni muayyan qadriyat yo‘l-yo‘riqlarini, xulq-atvor me’yorlarini va motivlarini, insonlararo muomala shakllarini o‘z ichiga oladi va ayni vaqtida ularni asoslaydi. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni axloqiy tarbiyalash uchun quyidagi asosiy tamoyillarga rioya etish alohida ahamiyatga ega:

– umumiy va yakka xususiyatlarni aniqlash uchun ularni atroflicha o‘rganish;

– birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalash;

– nisbatan saqlangan imkoniyatlarni aniqlash va shunga asoslanib ish olib borish;

– pedagogik jarayonning bolalar nuqsonlarini to‘g‘rilash va ularni o‘rnini to‘ldirishga qaratilishi;

– turli toifa nuqsonlari alohida munosabatda bo‘lish, ayrim bolalarga yakka yondashish.

Maxsus maktab-internatda axloqiy tarbiyaning quyidagi vazifalari hal etiladi:

– ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda axloqiy-xulqiy ko‘nikmalarni tarbiyalash;

– ko‘r va zaif ko‘rvuchi bolalarda axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash;

– ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda axloqiy ongni, mustahkam axloqiy e’tiqodni tarbiyalash.

Ma'lum tajribaga ega bo'lgan tiflopedagoglarni ta'kidlashicha, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktab-internatga kelish ilk davrida oilada olgan ba'zi oddiy axloqiy ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Asosan bu gigienik ko'nikmalardir. Qolgan ko'pgina ko'nikmalar yetarlicha shakllangan bo'lmaydi. Masalan, ma'lum umumiy tartib-intizomga rioya qilish, xulq madaniyati, mehnat qilish, jamoada yashash va ishslash ko'nikmalari va hokazo.

Axloqiy xulqni tarbiyalash o'quvchilarning o'zini faolligini talab etuvchi jarayondir. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda faollik nuqsonli bo'lgan darajada bo'lib mustaqillik ham yetarli bo'lmaydi. Bunday holatda defektologdan alohida mahorat talab etiladi.

Axloqiy tarbiyaning keyingi ikkita muhim vazifasini amalgaloshirishda ham ma'lum qiyinchiliklarga duch kelinadi. Jumladan, axloqiy his-tuyg'ularni, ongni, mustahkam axloqiy e'tiqodni egallashda ma'lum so'z zaxirasiga, nutq-mantiq tafakkur asoslariga ega bo'lish mumkin. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda axloqiy ongni shakllantirishning bir nechta bosqichlarini ajratish mumkin:

1. Xulq me'yorlarini amalda egallah.
2. Axloqiy tushunchalarini o'rganish.
3. Bilimlarni o'z tajribasida, xulqida, muomalada bo'lishda qo'llash.

Axloqiy tarbiya maqsad va vazifalari uning mazmunini taqozo etadi. Axloqiy tarbiya mazmunini shartli ravishda quyidagicha ta'kidlash mumkin: insonparvarlik, saxiylik, rahmdillik, mehribonlik, jamoatchilik, do'stona munosabat, O'zbekiston Respublikasi qonunlarini hurmat qilish va ularga qat'iyan rivoja qilishini, ongli intizomni, mehnatga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lishni, tabiatga ehtiyyotkorlik munosabatda bo'lishni, o'quvchilar xulqi madaniyatini tarbiyalashni qamrab oladi.

Tayanch so'zlar

Tarbiya – shaxsni shakllantirishni nazarda tutuvchi maxsus tashkil etilgan maqsadga yo'naltirilgan jarayon.

Taqlid usuli – biror shaxsning xatti-harakatini ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda takrorlash.

Savol va topshiriqlar

1. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar tarbiyasining xususiyatlari haqida aytib bering.
2. Tarbiya jarayonida kompensator va korreksion-rivojlantiruvchi yo‘nalishlarni yoritib bering.
3. Tarbiya turlarini aytib bering.
4. Tarbiya metodlariga ta’riflar bering.
5. Aqliy tarbiyaning vazifalarini ko‘rsating.
6. Axloqiy tarbiyaning vazifalarini ko‘rsating va ularni amalga oshirilishini yoritib bering.
7. Ko‘r va zaif ko‘rvuchi o‘quvchilarni mehnatga o‘rgatish va tarbiyalash bosqichlari xususida so‘zlab bering.
8. Jismoniy tarbiyaning vazifalari va mazmuni nimadan iborat?
9. Estetik tarbiyaning vazifalari va mazmuni nimadan iborat?

5-bob. KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA OILANING ROLI

5.1. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashda oilaning roli

Sog'lom oila, sog'lom farzand – baxtli kelajak. Bu tushunchalar bir-biriga uzviy bog'liq, Prezidentmiz I.Karimovning rahnamoligida ijtimoiy sohada olib borilayotgan izchil islohotlar ham aynan jamiyatda turmush tarzini qaror toptirishga oilani mustahkamlab – yosh avlodni barkamol bo'lib rivojlantirishga qaratilgan.

Hozirgi davrda qo'lga kiritgan muhim yutuqlarimizdan biri ta'lim-tarbiyada umuminsoniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarning ustuvorligiga erishganligimizadir. Bu yosh avlodga boy tarixiy, milliy, ma'naviy singdirish hamda asrlar davomida shakllangan xalq pedagogikasi an'analari asosida ta'lim-tarbiya berish demakdir. Ota-bobolarimiz ilm o'rgatish bilan birga farzandlariga avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirganlar. Bolalar ta'lim-tarbiyasi murakkab, keng ko'lamli masalalardan biridir. Bunday ulkan, mas'uliyatli sharaflı ishni oila, mahalla, mакtabgacha ta'lim muassasa, maktab, keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim o'rин egallaydi. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi 26.02.2004-yil 26-sonli Hay'at majlisining qarori bilan «Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi konsepsiysi» yaratildi.

Ushbu konsepsiya muvofiq bolalarni tarbiyalashda oila, mahalla hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari ko'rsatilgan. Birinchi bosqichda quyidagi satrlarga ko'zingiz tushadi: «Yosh oilalar bilan ishlash. Yosh ota-onalarga farzand va uning tarbiyasi haqida pedagogik, tibbiy tushunchalarni berish va bu masalalarga tibbiyot xodimlari, obro'li xotin-qizlar, ota-onalarni jalb qilish».

Darhaqiqat, ko'zi ojiz bolalarni tarbiyalashda, ularga ta'lim berishda hamda uning sifat va samaradorligini oshirishda tiflopedagog, tarbiyachi bilan birgalikda ota-onalarning birgalikdagi faoliyati muhimdir. Ota-onsa normal va nogiron bolalar rivojlanishi

haqidagi fiziologik bilimlarga ega bo‘lmoqlari, ta’lim muassasasining ta’lim - tarbiya tizimi, uning vazifalaridan xabardor bo‘lishlari lozimdir.

Ko‘zi ojiz bolalar ta’lim muassasalarida ota-onalarga hamda maktab hamkorligi vazifasini bajarish – maktab ma’muriyati va pedagoglarga yuklatiladi. Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- ko‘rishida nuqsoni bor bolalarga ta’lim-tarbiya berish mazmuni bilan ota - onalarga tanishtirish.

- Ko‘zi ojiz bolalarmi har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha ta’lim jamoasi hamkorligidagi ishni amalga oshirishda bevosita ishtirok etishlarini ta’minlash.

- pedagogik faoliyat jarayoni: turli darslar va mashgulotlarni olib borishi, pedagogik-korreksion vazifalar, ularni amalda qo’llash shakllari bilan yaqindan tanishtirish.

- oilada ko‘zi ojiz bola tarbiyasi sohasida o‘rganilgan ilg‘or ish tajribalari bilan tanishtirib borish hamda ota-onalar orasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish.

5.2. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarini oilaga tayyorlash

Hozirda ilmiy-texnikaning rivojlanishi, shaharlar rolining ortishi munosabati bilan o‘qish, kasb tanlash, muloqot intensiv madaniy hayotning katta imkoniyatlari kabi doimiy amalda bo‘luvchi ijtimoiy omillarning o‘rni ortdi. Bularning barchasi oilaviy tarbiya darajasiga ham ijobjiy ta’sir etadi. Oilaning tarbiyaviy ta’sir kuchi uning ma’nnaviy sofligi, mehnatsevarlik muhiti, ijtimoiy faolligidadir.

Oilaning quyidagi faoliyatining o‘ziga xos belgilari: tuzilishi, yashash sharoiti va muhiti, madaniy imkoniyatlari, faoliyat sohasi, oila ichidagi munosabatlar, fuqarolik nuqtayi nazari bolalar tarbiyasi jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalarning pedagogik madaniyat darajasi ham katta ahamiyatga ega.

Oilaviy tarbiyadagi kamchiliklar ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi noto‘g‘ri munosabatlar oqibatida kelib chiqadi: Ortiqcha qattiqqo‘llik yoki bolani ortiqcha yaxshi ko‘rish, nazoratning yo‘qligi yoki yetarli emasligi, ota-onalar umumiy madaniyati darajasining pastligi, turmushda ular tomonidan yomon na’muna ko‘rsatilishi va shu kabilar. Oilaviy tarbiyada yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf

etish maqsadida jamiyat o'quv yurtlari va mehnat jamoalarini, mehnat va axloqiy tarbiya tizimini doimo takomillashtirib boradi, bolalar muassasalari, maktab va jamoatchilik ko'magida maishiy xizmat hamda bo'sh vaqtini uyushtirishni yaxshilab boradi, ota-onalarning umumiy va pedagogik madaniyatini oshiradi.

Ana shunday shaxslarni tarbiyalash, oilaviy tarbiyaning bugungi kundagi asosiy vazifasi bo'lib qolmog'i kerak. Bu vazifaga erishish yo'llari vositalari va usullarini izlab topish muhim pedagogik muammodir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bola tarbiyasiga eng avvalo, ota-onaning shaxsi, hayotiy faoliyatlar, turmush tarzi va hokazolar bilan birligida oiladagi ma'naviy-axloqiy muhit ham katta ta'sir etadi.

Oilaning ahil, tinch-totuv bo'lishida, mahallada obro' orttirishda, qo'ni-qo'shnilarining, mahalla-ko'yni ta'siri kuchlidir. Ayniqsa, yosh avlodning tarbiyasida mahallaning o'rni katta.

Oilada eru xotin har jihatdan bolalarga namuna bo'lishi va ayniqsa, halol ishlab, farzandlari oldida o'zlarining mehnatlari bilan ham jamiyatimizga, ham oilasiga foyda keltirayotganini bildirish kerak. Insonning mehnat faoliyati uning shaxsiy ishi emas, balki jamiyat ishi ekanligini ularning ongiga singdirib borish kerak.

Oilaning tinch-totuv, farovon hayot kechirishi jamiyat uchun ham foydali ekanligini har doim eslatib turish lozim. Er bilan xotin oilada farzandlari tarbiyasi uchun ham mas'ul ekanliklarini yaxshi anglashlari kerak. Bola sog'lom yetuk bo'lib yetishishi uchun to'g'ri ovqatlantirish, to'g'ri tarbiyalash, sog'lom, baquvvat qilib o'stirish uchun ularning tarbiyasiga oid bilimlarini oshirib borish kerak.

Hadislarda aytilganidek, ota-onalarning farzandlariga qoldiradigan eng katta merosi – ularga o'rgatadigan axloqi va odobidir. Milliy tarbiya esa inson shaxsini shakllantirishda milliy madaniyat meros va qadriyatlardan foydalanib, o'ziga xos milliy yo'nalish berishga harakat qilishdir.

Ko'zi ojiz bolalar va zaif ko'ruchchi o'quvchilarni maktab, oilaga, turmushga tayyorlashdek o'ta muhim vazifani bajaradi. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruchchi o'quvchilar balog'atga yetgach oila quradilar, o'g'il bolalar ota – uy xo'jası, qiz bolalar ona – uy bekasi bo'ladilar. Ko'zi ojiz bolalar maktabi o'quvchilari «ota» bo'lish mas'uliyatini, qiz bolalar esa «ona» bo'lish mas'uliyatini chuqur anglab yetishlari kerak.

O‘g‘il bolalar oila qurgach, oilani boshqarishni bilishi shart, zarur. Qiz bolalar esa, dunyoga kelgan farzandini to‘g‘ri tarbiyalashi, uning sog‘ligi uchun, unib o‘sishi uchun mas‘ul ekanligini singdirishi kerak.

Ko‘zi ojiz bolalar maktabida o‘quvchilarni oilaga tayyorlash vazifasi juda muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifalar umumta’lim predmetlarda, maxsus korreksion mashg‘ulotlar orqali olib boriladi.

Tayanch so‘zlar

Oilaviy tarbiya – oilada shaxsni shakllantirishni nazarda tutuvchi maxsus tashkil etilgan maqsadga yo‘naltirilgan jarayon.

Savol va topshiriqlar

1. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni tarbiyalashda oila va mahallaning roli haqida so‘zlab bering.
2. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan maktab o‘quvchilarini oilaga tayyorlashning qanday ahamiyati mavjud?
3. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni oilaga tayyorlashda ijtimoiy-maishiy yo‘naltirish mashg‘ulotlarining o‘rnini qanday?

6-bob. KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARНИ О'QITISHNING MODDIY-TEXNIK BAZASI

6.1. Tiflotexnika tarixi, mohiyati, maqsad va vazifalari

Maxsus sanoatda ko'zi ojiz bolalar uchun yaratiladigan barcha texnik vositalar tiflotexnika turkumiga kiradi. Tiflotexnika ko'rishda nuqsoni bor shaxslar mehnat faoliyatining kengaytiradigan, ularga noqulay bo'lgan kasb yoki kasbiy jarayonlarni qulaylashtiradi. Tiflotexnika ko'r bolalar ish qobiliyatini oshiradi, ish jarayonida ko'rish nazorati yo'qligi asosida yuzaga keladigan kamchilik, nuqsonlari bartaraf etishga yordam.

Tiflotexnika ko'p yillik tarixga ega. Tiflotexnika tarixi ko'rishda nuqsoni bor shaxslarning ijtimoiy ahvolini rivojlantirish tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan bog'liq holda tiflotexnika rivojlanishining to'rtinchisini ko'rsatish mumkin.

1. XVIII asr oxiriga qadar.
2. XIX asr davomida. (V.Gayudan boshlab Brayl shriftning qabul qilinishi va qo'llanguncha)
3. XIX asr oxiri va XX asrning birinchi o'n yilligi .
4. Birinchi jahon urushidan boshlab hozirgacha.

Maktab tiflotexnik turlari.

Pedagogik tiflotexnik vositalarni shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin. Jihozlar, relyefli tasvirlar model va maketlar amaliyotda foydalilaniladigan qurilma, asboblar.

Relyefli tasvirlarga va boshqa materiallarda ishlangan gertej, rasm, boreflar, applikatsiyalar kiradi. Relyefli chizma uchun turli asbob va qurilmalarning yanada takomillashtirilgan variantiga kotrev teshishi orqali yasalgan chizma va rasmlar kiradi.

Har bir o'quv fani predmet-narsa haqidagi tasavvurni aniqlashtirish uchun bir qancha modellarga ehtiyoj sezadi. Sog'lomlar uchun modellardagi bo'yoqlar, ko'rishda nuqsoni bo'lgani uchun sezishga qulay bo'lgan relyeflar bilan ajratilishi kerak, shunda ham bo'yoqlar saqlangan bo'lishi kerak.

Ranglarning yorqinligi, aniqligini ko‘rish orqali ham ko‘zi ojiz bolalar sezishlari mumkin. Masalan, inson a’zolarini mulyajlarida qon-tomirlari ajratilib turiladi.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’limida qo‘llaniladigan inson organlari mulyajlarida qon-tomirlari relyefli bo‘yoq bilan ifodalangan bo‘ladi. Modellar emal yoki moyli bo‘yoq bilan qoplash maqsadga muvofiqdir. Model juda ham murakkab tuzilishga ega bo‘lsa, o‘rganilayotgan predmetni mohiyatiga ega bo‘lgan qismini ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga idrok etishga berish kerak.

Kunda predmet mohiyatiga, mazmuniga e’tibor bergan holda detallarni sxematik, tizimli holda ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan, bolalar uchun mo‘ljallanganda u tugal qismlarga ega bo‘lishi kerak, barmoqlari bilan modelning bir tomoni emas, barcha tomonlari sezishga qodir bo‘lish kerak. Sog‘lom bolalarga mo‘ljallangan maket ularga predmet to‘g‘risidagi tasavvurni shakllantirishga yordam bersa, ko‘zi ojizlar ta’lim jarayonidagi maketlar sezgi idroklarini shakllantirishga yordam beradi, inshootlar qismi, metall, daraxt, toshdan yasalgan bo‘lsa, suv, muz o‘tli qoplamlar natural holatda ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bola idrok etishga asos bo‘ladi. Shu sababli, modellar natural holat materiallardan tayyorlangan bo‘lsa, maqsadga muvofiqdir.

Masalan, metall falga bilan qoplangan daraxtni, tosh ustki qoplam xarakteriga ko‘ra sement, albastner, chinni, melli qo‘sishimcha bilan, suvli ustlikni sellofan paket bilan muzli talkani, prishipka, muykoni sun‘iy muyka bilan almashadirib, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’limida qo‘llash mumkin. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan maket obyekti boshqa obyektlarga nisbatan, bolalarga tomonlari mukammal tasvirlangan bo‘lishi kerak. Agar maketning ba’zi bir qiyomlarini hamma jihatdan tasvirlashning iloji bo‘lmasa, uni hajmi bo‘yicha yasab, maketga ilova qilish kerak.

Maketning ahamiyatga molik tomonlaridan biri uning hajmidir. Masshtabni sog‘lom bolalarga nisbatan ko‘rishda nuqsoni bo‘lganligi uchun qiyinchilik tug‘diradi.

6.2. Ko‘zi ojiz bolalarni o‘qitish vositalari

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun Brayl tizimi bo‘yicha xilma-xil adabiyotlar yaratilgan. Bular darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari,

ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, badiiy, ilmiy-ommabop, musiqiy adabiyotlar. Brayl tizimi bo'yicha chiqarilgan hamma darsliklar relyefli rasmlar, chizmalar, sxemalar bilan bezatilgan. Qoldiq ko'rvu saqlangan ko'zi ojizlar uchun relyefli va rangdor nashrli o'quv qo'llanmalari chiqarilgan.

Ko'zi ojizlar uchun kattalashtirilgan shriftda va mos ranglarda bezatilgan maxsus darsliklar keng qo'llaniladi.

Ko'zi ojizlar uchun ko'rvu va teri orqali sezishni hisobga olgan holda tasvirlarni tanlab, yaratish va rekonstruksiyalash uchun maxsus o'quv qo'llanmalari ishlab chiqarilgan (V.P. Yermakov).

Tiflotexnika tushunchasi o'z ichiga texnik moslamalar va usullarni nazariy asoslab berish bilan birga, ko'zi ojizlarning ko'rvu funksiyalarining buzilganligini hisobga olgan holda bu moslama va usullarning amaliyotda ishlatalishini ham o'z ichiga oladi. Tiflotexnika fani o'qishning material-texnik bazasini mukammallashtiradi va rivojlantiradi, ta'limning mazmuni va usullarini boyitadi, ko'rvu protsessi buzilgan bolalarni umumta'lim maktablarida oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qitishni rivojlantiradi va shuningdek, politexnik hamda ishlab chiqarish tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Ko'rish analizatorining buzilgan funksiyalarini kompensatsiyalash uchun yaratilgan tiflotexnik vositalar ishlanmasi asosida ko'rvu informatsiyasini signallarga aylantirish, signallar esa eshituv va teri orqali idrok etilishi yotadi (saqlanib qolgan analizatorlar orqali). Yorug'lik signallarini qabul qilish funksiyalarini va uni tovushga aylantirish vazifasini tifloasbob bajaradi. Tiflotexnik vositalar yordamida to'laqonli ko'rmaslikni korreksiyalash to'laqonli bo'limgan ko'rvu analizatorining normal ishlatalganligi oqibatida kelib chiqadigan shovqinlarga qaraganda foydali optik signaldan kelib chiqadigan tovushni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Bunga kuzatilayotgan obyekt tasvirini ko'z to'r pardasiga tushayotgan yorqinligini, kontrastligi va burchak o'lchamlarini kattalashtirish orqali erishiladi. Ko'rvu protsessi past bo'lib, odatdag'i ametropiya korreksiyasi effekt bermaganda maxsus optik, televizion, yorug'lik texnikasi vositalaridan foydalilanadi. Korreksiyaning boshqa optik vositalariga har xil turdag'i lupalari (qo'lga olib yuriladigan, har xil tirgovuchlilari va statsional holatdagisi), ko'zoynaklar (mikroskopik, teleskopik, giperokulyarli), monokulyarlar va binokulyarlar, proyekcion kattalashtiruvchi asboblar kiradi. Hamma bu vositalar

ko‘rvu uchun yaqin yoki uzoq masofadan ishlatalishi mumkin. Lupalar bundan tashqari o‘lchov asboblari shkalasining ustiga, stanok o‘rniga o‘rnatalishi mumkin. Ko‘ruvi zaiflashganlarga unifikal yoki bifokal ko‘zoynaklar chiqarilgan. Ko‘zi ojizlarga oltmis barobar kattalashtiradigan televizion uskunalardan foydalanish amalga oshirilgan. Foydalanish xarakteriga qarab televizion uskunalar individual yoki kollektiv foydalanishga bo‘linadi. Ko‘zi ojizlarni o‘qitishning frontal usullarini qo‘llash imkonini beradigan maxsus yopiq televizion tizimlardan foydalaniladi. Tevarak-atrofni ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan shaxslarga (trubkasimon ko‘rvu, gemianopsiya) ko‘rvu maydonini yetarlicha o‘zgartiradigan maxsus optik tizimlar qo‘llaniladi. Rivojlangan mamlakatlarda ko‘rishiда nuqsoni bo‘lgan shaxslar uchun kompyuter texnologiyalarining bir qator namunalari yaratilgan. Jumladan, Syscom, kompaniyasi JK-monitorlar ishlab chiqarish kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilgan kompyuterlari ning monitoring yuqori qismida matn yozish uchun mo‘ljallangan klavishlar, pastki qismida esa Brayl alifbosi qatori keltirilgan. Ko‘rishiда nuqsoni bo‘lgan bolalar kompyuterda matnlarni yozish, internetdan foydalanish, musiqa eshitish kabilidan foydalanish imkoniyatini beradi. Yuqori darajada yoritilganlikda ko‘rishi pasayadiganlarga yorug‘likdan himoyalaydigan korreksiyali linza (rangli oynadan yoki qoplamlami rangsiz oynadan yasalgan) yorug‘lik -texnik vosita sifatida foydalaniladi.

Ko‘zi ojiz bolalar uchun har xil murakkablikda texnik uskunalar va moslamalar yaratilgan: ignaga ip o‘tkazish uchun moslama, yordamchisiz harakatlanish uchun Brayl tizimi bo‘yicha asboblar. Ko‘zi ojiz programmistlar uchun maxsus yozuv mashinkalari yaratilgan. Relyefli chizmalar va rasmlar uchun maxsus asboblar bor. Gramplastinkalarga yozilgan ko‘p nusxali so‘zlovchi kitoblar, kitoblar yozuvining magnitli lentalarda yozuvi hamda eshituv uchun maxsus uskunalar yaratilgan. Ko‘rlar va ko‘zi ojizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun maxsus trenajyorlar, tovushli nishonlar, tovushli mo‘nlardan foydalaniladi. Mehнат va kasbiy o‘qitish uchun, ishlab chiqarish korxonalaridagi o‘rinlarida maxsus texnik moslamalar hamda texnik vositalar ko‘rlar va ko‘zi ojizlar uchun elektromexanik va radioelektron mahsulotlar (tovarlar har xil materiallarni mexanik ishlov berish sovuq shtampovka va boshqa operatsiyalarni boshqarish imkonini beradi.)

Tayanch so‘zlar

Tiflotexnika – ko‘rishda nuqsoni bor shaxslar mehnat faoliyatining kengaytiradigan, ularga noqulay bo‘lgan kasb yoki kasbiy jarayonlarni qulaylashtiradigan texnik vositalar.

O‘qitishning tiflotexnik vositalari – ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar mакtablarida pedagogik jarayonida tiflopedagog tomonidan maqsadga erishish uchun qo‘llanuvchi yo‘l va usullar yig‘indisi.

Savol va topshiriqlar

1. Tiflotexnika tarixi bo‘yicha qanday ma’lumotlarga ega bo‘ldingiz?
2. Tiflotexnikaning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlang.
3. Tiflotexnik vositalarni sanab bering.
4. Ko‘r va zaif ko‘rvuchи bolalar mакtablarida foydalaniladigan qanday texnik vositalarni bilasiz?

7-bob. KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARНИ МЕХНАТГА ТАРБИYАLASH XUSUSIYATLARI

7.1. Maktabgacha yoshdagи bolalarnи mehnat tarbiyasi

Mehnat insonning asosiy faoliyatidir. Mehnat tufayli kishi shaxs sifatida shakllanadi. Axloqiy va aqliy qobiliyatlarni o'sishida, albatta, mehnat tarbiyasining o'rni beqiyosdir. Bolalarni mehnatga o'qitish va tarbiyalash natijasida ilk hayotiy ko'nikmalari shakllanadi. Ko'zi ojiz bolalarda mehnat tarbiyasi yuqoridagilardan tashqari nosog'lom funksiyani korreksiyalash va kompensatsiyalashdagi asosiy omil sifatida qaraladi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabgacha yoshdagи bolalar hamda maktab-internatda amalga oshiriladigan barcha o'quv tarbiyaviy ishlarning samaradorligi mehnat tarbiyasiga bog'liq.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning mehnat tarbiyasi. Maktabgacha yoshdagи ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalardagi mehnat tarbiyasi, bilish faoliyatidagi kamchiliklarni korreksiyalash, kompensator jarayonini rivojlantirish. Estetik tarbiyalash ko'zi ojiz va zaif ko'rvuchi bolaning shaxsiy xususiyatini tarbiyalashga qaratilgan.

Bu davrda inson tarbiyaning rivojiga katta e'tibor beriladi. Bolalarda sensor malakalarning tanqisligi turli didaktik usullardan foydalinishini taqozo etib keladi. Natijada bolada tasavvurlar yuzaga keladi. Shu o'rinda tabiiy obyektlaridan foydalinish qo'l keladi (uni o'rganish). Tabiiy (natural) narsa, buyumni o'rganish jarayoniga tarbiyachi uni tuzilishi, shakli, o'chovi, kattaligi va boshqa jihatlari bilan tanishtiradi. Sensor malakalarning boyligi, predmetlar bilan tanishishi, mehnat qurollari, ishlanmani ishlash texnologiyasini o'rganishi natijasida tasavvur olami boyib boradi, nutqi o'sadi hamda fikrlash qobiliyatini rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagи ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni mehnat tarbiyasi kundalik sharoitlarda, umumta'lim mashg'ulotlar davomida (nutq o'stirish, matematika, tevarak-atrof bilan tanishtirish, o'yin), maxsus korreksion mashg'ulotlar davomida (atrof-muhitda mo'ljal olish, ko'rish qobiliyatini rivojlanish) tashkil etiladi.

7.2. Maktab yoshidagi ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni mehnat tarbiyasi

Maktab yoshidagi bolalar mehnat tarbiyasi. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning mehnat tarbiyasi maxsus mактабда o‘qitishning uch bosqichini qamrab olgan.

Boshlang‘ich (1-4-sinflar) bosqichida ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni mehnatga o‘rgatish va tarbiyalash. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar mактabi boshlang‘ich sinflarda mehnat tarbiyasining asosiy va maxsus vazifalarini bajarilishi bilan farqlanadi. Asosiy vazifalarga quyidagilar kiradi:

mehnatsevarlikni tarbiyalash; insonlarning mehnatga mehr qo‘yishi; boshlang‘ich mehnat faoliyatini shakllantirish; mehnat qurollari va vositalarini asrab-avaylash; o‘simliklarni parvarish qilish va turli narsa buyumlarni ishlashining boshlang‘ich umumta’lim tizimlarini egallah; kasb-hunar dastlabki tushunchalarni shakllantirishdir.

Maxsus vazifalar ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni rivojlanishini nuqsonlarni korreksiyalash va kompensatsiyalash jarayonini to‘ldirishda xizmat qiladi. Bu vazifalarga: idrok etishni rivojlantirish, eshituv, sezish idrokni rivojlantirish, turli mehnat jarayonini bajarishda saqlangan ko‘ruv funksiyadan foydalanish, ko‘ruv amaliy fikrlashni rivojlantirish, fazoda mo‘ljal olishni shakllantirish, mehnat faoliyatida ishtirok eta olish va boshqalar kiradi.

5-9-sinflarda mehnatga o‘rgatish va tarbiyalash. 5-9-sinflarda ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni mehnatga o‘rgatish va tarbiyalashning umumiyy va maxsus maqsadlari amalga oshiriladi.

Umumiyy vazifalarga quyidagilar kiradi:

- o‘quv faoliyatiga anglab yondashishni ishlab chiqish;
- shaxs sifatlarini; ma’naviy-axloqiy, aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish;

– mehnatga bo‘lgan intilish va mehrni tarbiyalash; kishilar mehnatini qadrlash, tabiat in’omlaridan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, mehnat qila olish qobiliyatlarini shakllantirish: texnik, texnologik hamda dastlabki iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish; kasbiy dunyoqarashni rivojlantirish asosida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish;

– ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan ish va kasb turlari bilan tanishtirish. Maxsus vazifalar sirasiga quyidagilar kiradi:

Ko‘rvu kamchiligin korreksiya va kompensatsiya qilish; tasavvurlarni aniqlashtirishga o‘rgatish; harakat-fazoviy mo‘ljal olish qobiliyatini shakllantirish. Agar maktablar o‘quv ustaxonaga ega bo‘lmagan hollarda, yaqin joylashgan umumta’lim maktabi o‘quv ustaxonasida maxsus guruhlар ochib o‘qitiladi. Maktab o‘quv ustaxonasida bolalar o‘quv qo‘llanmalari, turli o‘quv qurollarini tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Ushbu ishlarni bajarishda ko‘rshida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar mustaqil holda modellarni o‘lchashga, hisoblashga o‘rganadilar, fizika, kimyo, matematika kabi umumta’lim fanlardan olgan bilimlarini amaliyotda to‘g‘ri qo‘llay olish bilimlariga ega bo‘ladilar. Shuningdek, mehnat qilishning turli shakllari bilan tanishadilar, texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishadilar, ishlab chiqarish sanitariyasi hamda estetik qobiliyatlarini rivojlantiriladi.

Ko‘rshida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni ushbu bosqichda dastur mazmunidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish muassasalariga, ishlab chiqarish tashkilotlariga ekskursiyalar uyushtirish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarni qishloq xo‘jalik mehnatiga o‘rgatish jarayonida O‘zbekiston Respublikasining hududiy tabiat sharoitida yetishtiriladigan meva, sabzavot, poliz ekinlari, manzarani, gulli o‘simpliklar turlari haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Xizmat qilish mehnati o‘z ichiga qandolatchilikni, maishiy texnikani ta’mirlash, matolarga ishlov berishni qamrab oladi. Bu bosqichda mehnatiga o‘rgatish va tarbiyalash davomida o‘quv tarbiyaviy vazifalar bilan birgalikda kasbga yo‘naltirish vazifalari hal qilinadi.

Mehnatga o‘rgatishning tarbiyaviy tomoni ko‘rshida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni axloqiy qarashlarini rivojlantirish hamda ularning shaxs sifatlarini shakllantirish; mehnatsevarlik va kishilar mehnatiga hurmat bilan qarashga o‘rgatish; intizomlik, jamaa bilan ishlash, o‘rtoqlariga yordam ko‘rsata olish bu jadallashtirishdan iboratdir.

Texnika xavfsizligi ishlab chiqarish sanitariya va shaxsiy gigiyena qoidalariiga qat’iy rioya qilishga katta e’tibor bilan qaratadi. Har bir yangi o‘quv mavzusi bilan tanishtirilgandan keyin turli mehnat bosqichini bajarishda ushbu qoidalarga rioya qilishga o‘rgatiladi. O‘qituvchi doimiy ravishda o‘quvchilarning faoliyatini kuzatib boradi

hamda jarohatlanishini oldini olish choralar bilan tanishtiradi. Joriy bosqichda olingan amaliy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida mehnat darslaridan tashqari (sinfdan, darsdan tashqari vaqtida) mehnat to'garaklarida davom ettirish tavsiya etiladi.

Tashkil qilingan mashg'ulotlar yuqorida qayd etilgan umumtexnik kursini yanada mukammal egallashga turki bo'ladi. Kasbiy mehnatga o'qitish kursi yakuniy imtihon bilan yakunlanadi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni turli kasbga yo'naltirish sohalarini rivojlantirish maktab-internat oldidagi muhim vazifalardan biridir. Maktab-internatda yaratilgan poydevor ko'zi ojiz va zaif ko'rvuchchi o'quvchilarni mehnatga va hayotga tayyorlaydi. Jamiyatda o'z o'rnini topib, komil inson bo'lib shakllanishiga zamin hozirlanadi.

Tayanch so'zlar

Mehnat tarbiyasi – ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda mehnat faoliyatini tashkil etish, ko'nikma va malakalarini hosil qilish.

Mehnat tarbiyasining maqsadi – o'quv ishlarda mehnatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Savol va topshiriqlar

1. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagি bolalarni mehnat tarbiyasining vazifalarini aytинг?
2. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni mehnatga tarbiyalash yo'llarini izohlang.
3. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni hayotga tarbiyalashda mehnat tarbiyasining o'rni xususida so'zlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Karimov I. «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» –T.: «O‘zbekiston», 2012 y.
- 2.Karimov I. «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori». –T.: «Sharq», 1997 y.
- 3 Karimov I. «Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch» – T.: «Ma’naviyat», 2008 y.
4. «Ta’lim to‘g‘risidagi» Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» –T.: 1997 y.
5. Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Xoliqberdiyev Pedagogika. «O‘qituvchi», 2000 y.
6. Rahmanova V.S. Maxsus pedagogika (mutaxassislikka kirish). T.: G.‘ulom. 2005 y.
7. M.Yu. Ayupova «Logopediya» –T.: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», 2007-yil.
8. Карпунина О.И., Рябова Н.В. Специальная педагогика в опорных схемах. –М. 2002.
9. Якунин П.А., Ермаков В.П. Основы тифлонедагогики. –М., 2000.
- 10.Алексеев О.А., Ермаков В.П., Смирнов В.Н. Организация кабинетов трудового обучения для школ слепых и слабовидящих. –Свердловск, 1987 г.
- 11.Казаков А.А. Организация кабинета природоведения для школ слепых и слабовидящих. –Свердловск, 1987 г.
12. Ермаков В.П., Куличева Н.И. Профориентация слепых школьников. –М., 1982.
13. Ермаков В.П. Основы обучения и профессиональной ориентации слепых слабовидящих школьников. –М., 1987.
14. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. – T.: «O‘qituvchi», 1994 y.
15. Mo‘minova L.R. Nogiron bolalarni oilada tarbiyasi. 1996 y.
16. Musurmonova O. O‘quvchining ma’naviy madaniyatini shakllantirishning shakl va metodi. – T.: «Fan», 1999 y.
17. L.Mo‘minova, D.Nazarova «Maxsus ta’lim atamalarining izohli lug‘ati» RTM, T., 2012 y.
18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 117-soni, 18.08.2010-yil. Toshkent.

19. Р.М.Ро‘латова Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika) – Г‘.Г‘улом, 2005-йил.
20. Р.М.Ро‘латова Maxsus maktablarda ekologik ta’lim-tarbiyaning ilmiy-metodik asoslari – «Fan va texnologiya», –Т.: 2008-йил.
- 21.У.Кулагин «О наглядных пособиях для школ слепых, воспринимающих с помощью осязания» –М., 1991.
- 22.В.Денискина «Особенности элементами геометрии учащимся начальных классов школ слепых детей» –М., 1997.
- 23.М.Земцова «Пути компенсации слепоты» –М., 1995.
- 24.Р.Охипов «Математика» ўқув қўлланма. Фаргона,1992 йил.
- 25.В.Феоктистова «Хрестоматия по истории тифлопедагогики» –М., 1987.
- 26.S. Dangalov «Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati Т.: 2010 yil.
27. О.И. Карпунина, Н.В.Рябова Специальная педагогика. –М., 2001.
28. Д. Султонова Тифлопедагогика. Маъruzalар матни. –Т., 2011
29. Кручинин В.А. Обучение слепых ориентировке в пространстве. –М., 1992.
30. Семенов Л.А. «Тринажеры и их использование в школах для слепых и слабовидящих детей». –М., 1985. Солисева Л.И. «Введение в тифлопсихологию раннего дошкольного и школьного возраста» –М., 1998.
- 31.Литвак А.Г. «Тифлопсихология» –М., 1985.
- 32.Литвак А.Г. «Психология слепых и слабовидящих» –М., 1998.

M U N D A R I J A

So‘z boshi.....	3
1. BO‘LIM OLIGOFRENOPEDAGOGIKA	
1 bob. OLIGOFRENOPEDAGOGIKANING UMUMIY MASALALARI	
1.1. Oligofrenopedagogika predmeti, maqsadi va vazifalari, fanning rivojlanish bosqichlari.....	5
1.2. Oligofrenopedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.....	11
1.3. Oligofrenopedagogikada foydalanilgan ilmiy tadqiqot metodlari.....	14
1.4. Aqli zaif bolalar – o‘rganish, o‘qitish va tarbiyalash obyekti sifatida	17
2-bob. MAXSUS TA’LIM TIZIMI	
2.1. Maxsus muassasalar.....	28
2.2. Yordamchi maktab, uning maqsad va vazifalari.....	30
2.3. Ta’lim-tarbiya, rivojlantirish va tuzatish ishlari yagona korreksion pedagogik jarayon sifatida.....	35
3-bob. YORDAMCHI MAKtablarda TA’LIM NAZARIYASI	
3.1. Yordamchi maktablarda ta’lim jarayonining mohiyati.....	43
3.2. Yordamchi maktablarda ta’lim mazmuni	64
3.3. Yordamchi maktablarda o‘qitish uslubining qo‘llanish xususiyatlari	68
3.4. Yordamchi maktabda o‘qitishni tashkil qilish. Yordamchi maktablarda dars va dars turlari	78
3.5. Yordamchi maktab o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholash darslari	90
4-bob. YORDAMCHI MAKtablarda TARBIYA NAZARIYASI	
4.1. Yordamchi maktablarda o‘quvchilarni tarbiyalashning maqsadi, vazifasi, tamoyillari va usullari	96
5-bob. YORDAMCHI MAKtablarda MEHNAT TA’LIMI	
6-bob. TARBIYA USULLARI	
6.1. Yordamchi maktabda tarbiya tamoyillarining qo‘llanilishi	126
6.2. Tarbiya turlari.....	133
2-BO‘LIM. SURDOPEDAGOGIKA	
1-bob. SURDOPEDAGOGIKANING MAZMUNI, VAZIFALARI VA METODLARI	
1.1.Surdopedagogikaning mazmuni va vazifalari	186
1.2. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning pedagogik tasnifi	189
1.3 O‘zbekiston Respublikasida eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning ta’lim tizimi	193

1.4. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasida koxlear implantatsiyaning ahamiyati	195
2-bob. KAR BOLALAR MAKTABI DIDAKTIKASI	
2.1. Kar bolalar maktabida ta’lim mazmuni	201
2.2. Kar bolalar maktabida didaktik tamoyillarning amalga oshirilishi..	203
2.3. Kar bolalar mакtablarida fan asoslariga o‘qitish metodlari	210
2.4. Kar bolalar maktabida o‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari.....	214
3-bob. ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR MAKTABI DIDAKTIKASI	
3.1. Zaif eshituvchi bolalarni o‘qitish mazmuni	218
3.2. Zaif eshituvchi bolalar maxsus ta’limi metod va vositalari tizimining umumiy tavsifi	221
3.3. Zaif eshituvchi bolalar maktabida o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari	224
3.4. Zaif eshituvchi bolalar maktabida tilga o‘qitish tizimi.....	226
4-bob. ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR TARBIYASI NAZARIYASI VA AMALIYOTI	
4.1. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning tarbiya jarayoni.....	232
4.2. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar tarbiyasi mazmuni	236
4.3. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning mehnat tarbiyasi	247
4.4. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tarbiyalash metodlari.....	251
4.5. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni oilada tarbiyalash.....	255
4.6. Maxsus maktabda daktıl nutqqa o‘rgatish	263
4.7. Maxsus maktabda og‘zaki nutqqa o‘rgatish	269
3-BO‘LIM. TIFLOPEDAGOGIKA	
1-bob. TIFLOPEDAGOGIKA FANINING UMUMIY ASOSLARI	
1.1. Tiflopedagogika fanining mavzu bahsi va vazifalari	289
1.2. Tiflopedagogika fanining rivojlanish tarixi	293
1.3. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning pedagogik tavsifi	295
1.4. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun mакtabgacha tarbiya muassasalar faoliyati	300
1.5. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun umumiy o‘rta, kasb va oila ta’limi	302
2-bob. KO‘RISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR MAKTAB TA’LIM NAZARIYASI	
2.1. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar mакtablarida` ta’lim jarayonining mohiyati	306
2.2. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’limida didaktik tamoyillarning qo‘llanish xususiyatlari	307
2.3. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim mazmuni	312
2.4. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar mакtablarida o‘qitish metodining qo‘llanish xususiyatlari	313
2.5. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabida o‘qitishni tashkil qilish. Dars va sinfdan tashqari ishlар	319

3-bob. KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR	
TA'LIMIDA MAXSUS KORREKSION MASHG'ULOTLAR	
3.1. Ko'rishida nuqsoni bo'lган bolalar ta'limida maxsus korreksion mashg'ulotlarni mohiyati	327
3.2. Maxsus korreksion mashg'ulotlarni tashkil etilishi	329
3.3. Brayl tizimi	337
4-bob. KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR	
MAKTABLARIDA TARBIYA NAZARIYASI	
4.1. Ko'rishida nuqsoni bo'lган bolalar maktablarida tarbiya nazariyasi mohiyati va turlari	341
4.2. Tarbiya usullari va turlari	342
5-bob. KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNI	
TARBIYALASHDA OILANING ROLI	
5.1. Ko'rishida nuqsoni bo'lган o'quvchilarni tarbiyalashda oilaning roli	349
5.2 Ko'rishida nuqsoni bo'lган o'quvchilarni oilaga tayyorlash.....	350
6-bob. KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI	
O'QITISHNING MODDIY-TEXNIK BAZASI	
6.1. Tiflotexnika tarixi, mohiyati, maqsad va vazifalari	353
6.2. Ko'zi ojiz bolalarni o'qitish vositalari	354
7-bob. KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI	
MEHNATGA TARBIYALASH XUSUSIYATLARI	
7.1. Maktabgacha yoshdag'i bolalarni mehnat tarbiyasi	358
7.2 Maktab yoshidagi ko'rishida nuqsoni bo'lган bolalarni mehnat tarbiyasi	359
Foydalanilgan adabiyotlar	362

**P.M.PO'LATOVA, L.SH.NURMUXAMEDOVA,
D.B.YAKUBJONOVA, Z.N.MAMARAJABOVA ,
SH.M.AMIRSAIDOVA, A. D.SULTONOVA**

MAXSUS PEDAGOGIKA

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2014

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	M.Xolmuhamedov
Musavvir:	D.Azizov
Musahhiha:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.

Nashr.lits. AIN №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 09.10.2014.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 22,75. Nashriyot bosma tabog‘i 23,0.

Tiraji 300. Buyurtma №167.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.